

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/339738854>

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ЁШ ТАДҚИҚОТЧИЛАР НИГОҲИДА

Article · March 2020

CITATIONS

0

READS

727

1 author:



[Dilmira Kuanishova](#)

Tashkent State Technical University

11 PUBLICATIONS 0 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

Some of the authors of this publication are also working on these related projects:



Philosophy [View project](#)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ
“ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ” КАФЕДРАСИ
ЎЗМУ ХОТИН-ҚИЗЛАР “ОЛИМА” УЮШМАСИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетини
ташкил топган куни ва “Фаол инвестициялар ва ижтимоий
ривожланиш йили”га бағишланади

ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ
МАСАЛАЛАРИ ЁШ ТАДҚИҚОТЧИЛАР
НИГОҲИДА

(Иқтидорли талабаларнинг мақолалар тўплами)

7-жилд

Тошкент – 2019

Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари ёш тадқиқотчилар нигоҳида (*Иқтидорли талабаларнинг мақолалар тўплами*). 7-жилд. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. –Тошкент: «TURON-IQVOL», 2019. 261 б.

Масъул муҳаррир: тарих фанлари доктори, Юнусова Х.Э.

Тақризчилар: т.ф.н, доц. ЎзДЖТУ “Ўзбекистон тарихи”
кафедраси мудири Н.Жўраева
т.ф.н ЎзМУ доценти Д.Ураков

Таҳрир кенгаши: т.ф.д., проф. – Х.Э.Юнусова, т.ф.д., проф. – О.П.Кобзева, т.ф.д., проф. – З.Р.Ишанходжаева, т.ф.н., доц. – Р.Б.Сиддиқов, т.ф.н., доц. – А.Б.Холиқулов, т.ф.н., доц. – К.А.Тўхтабеков, т.ф.н., доц. – А.А.Ерметов, ўқитувчи – Ф.А.Акрамова, ўқитувчи – Д.В.Алиназарова, таянч доктарант – У.А.Усаров, ўқитувчи – Ж.Э.Тоғаев, ўқитувчи – Х.Ш.Ўтанов, Таянч доктарант – Ж.Х. Адилов

Техник котиб: Аширов С. Нуриддинов М.И. Ботиров Ш.А.

Мазкур тўплам Ўзбекистон тарихи фани, унинг илмий ва назарий асосларини, фан янгиликларни таълим соҳасига жорий этиш, гуманитар фанлар, фан ва таълим соҳаси масалаларига оид мақола ва тезислар ўз ичига олади. Тўпламда ёш олим ва иқтидорли талабалар Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари, Ўзбекистон давлатчилиги тарихи, Ўзбекистон тарихини ўрганишда археология, этнология- этнография, тарихшунослик ва манбашунослик масалалари, Ўзбекистонда ер – сув муносабатлари тарихи ҳамда Ўзбекистоннинг энг янги тарихиднинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий-маърифий соҳалардаги ислохотлар каби масалаларни очиб беришган.

Мазкур тўпламга киритилган мақолалардаги келтирилган статистика ва маълумотлар учун муаллифларнинг ўзи жавобгардир.

Мазкур тўплам Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Илмий – техникавий кенгаши мажлиси томонидан нашрга тавсия этилган (Баённома № 2. 02.04.2019 й).

КИРИШ

Мустақиллик йиллари мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ғоявий, маданий ҳаётининг муҳим тармоғи ҳисобланган, маънавиятни шакллантиришга бевосита таъсир қиладиган ҳаётий муҳим омиллардан бўлган таълим-тарбия тизимини ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилганлиги боис, бугунги кунда амалга оширилаётган туб ислоҳотлар, уларнинг мазмун-моҳияти тарихий халқ анъаналари, бой тарихимиз, маънавиятимиз билан йўғрилган ҳолда, жаҳон андозалари талабларига ҳамоҳанг тарзда изчил ривожланиб бормоқда. Ушбу амалга оширилган туб ислоҳотларнинг авваламбор ҳуқуқий базаси яратилдики, бу ўз навбатида бугунги кунда мамлакатимизда замонавий билим ва тафаккурга эга бўлган, баркамол, етук жаҳон андозалари талабларига жавоб бера оладиган, рақобатбардош кадрлар яратилишига асос бўлиб хизмат қилди.

Таълим-тарбия тизими мамлакатимиз тарихининг ҳамма даврларида ҳам ўта долзарб масалалардан бири ҳисобланган. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган дастлабки кунларданок давлатимиз томонидан бу соҳага алоҳида эътибор қаратилди ва туб ислоҳотларни амалга оширилиши асосий вазифалардан бирига айланди.

Миллат равнақи ёшлар билан янада ривожланишини энг буюк бойлик бўлиб келган маънавиятнинг маъно-мазмунида, унинг инсон ва жамият ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятида бекиёс эканлигини кўриш мумкин. Маънавиятнинг бир ўзаги тарихдир. Зеро, XXI инфор­мацион технологиялар асри даврида халқ хотираси, ёт ғояларга қарши тура оладиган ўтмиш воқелигини англашга бўлган эҳтиёж йилдан-йилга ошиб бормоқда, инновацион ғоя ва ёндошувлар тарих фанига бўлган муносабатни янада юқори даражага кўтармоқда. Ҳолбуки, маънавий қадриятларимизнинг илм-фан ва тараққиёт ютуқлари билан бойитилиб борилишини таъминлаш борасида олиб борилаётган саъй-ҳаракатлар мамлакатимизни жаҳон тажрибаларига мос равишда ривожланишига кенг йўл очди.

Бугунги кунда Ўзбекистон Миллий Университети тарих факультети ҳам мутахассисларни тайёрлашда таянч марказ сифатида ўз фаолиятини давом эттириб келмоқда. Зеро, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури, Ёшларга оид Давлат сиёсати, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ва унда белгиланган олий таълимда илм-фанни янада ривожлантириш, иқтидорли талаба ёшларни илмий фаолият билан шуғулланишига кенг йўл очиш, талаба ёшларга мустақиллик ғояларига, юксак маънавият ва инсонийликнинг

миллий анъаналарига содиқлик руҳини чуқур сингдириш, уларда ёт ғоя ва мафкураларга нисбатан иммунитет ва танқидий тафаккурни мустаҳкамлаш бўйича белгиланган вазифалар факультет профессор-ўқитувчиларига дастуриямал бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир. Ҳозирда факультет профессор-ўқитувчиларининг иқтидорли талабалар билан биргаликда ишлаши натижасида бир қатор эътиборга молик битирув малакавий ишлари, магистрлик диссертациялари устида ишлаб, фан юзасидан тегишли муаммолар тадқиқ этиб келмоқдалар. Бунда “Ўзбекистон тарихи” кафедрасининг хизматларини ҳам таъкидлаб ўтиш лозим. Кафедранинг илмий мавзуси ўзбек давлатчилиги тарихи доирасида бўлиб, замон талаблари ва давр тақозоси билан бир қатор бакалаврият йўналиши, магистратура мутахассислигида таълим олаётган ёшлар илмий тадқиқот ишлари устида ишлаб фаолият юритиб келмоқда.

Эътиборга хавола этилаётган ушбу тўплам ҳам кафедра мавзусидан келиб чиқиб тайёрланди. Кафедра жамоаси томонидан анаъанага айланиб келган иқтидорли талабаларнинг ушбу илмий тўплами ҳам бугунги кунда ёшларни илмий тадқиқот устида ишлаши учун қулай имконият деб ҳисоблаш мумкин. Ўз таркибида янги изланишлар билан тўлдирилган мазкур тўплам ўзбек давлатчилиги тарихининг қадимги давридан бугунги кунга қадар бўлган жараёнларини қамраб олади. Шунингдек, мазкур тўпламдан жой олган айрим мақалоларда баъзи камчиликлар учраши мумкин. Бунга сабаб қилиб, илмий тадқиқот ишининг машаққатли йўлига илк маротаба кириб келаётган талаба ёшларни қўллаб-қувватлаш мақсадида таҳрир кенгаши уларга имкон беришга қарор қилди ва бунинг учун сиздан олдиндан узр сўрайди. Мазкур тўплам бўйича билдирилган таклиф ва мулоҳазаларни кафедра жамоаси мамнуният билан қабул қилади.

ТАҲРИР КЕНГАШИ

1-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ (ҚАДИМГИ ДАВРДАН ҲОЗИРГИ КУНГАЧА)

*Исламова С.У. –
магистр исторический факультет 2 курса НУУз*

КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ТЕРРИТОРИИ ТАССР (1918-1924 гг.)

Туркестанский комиссариат по национальным делам с момента своего возникновения, а именно с 1918 года, выступил проводником идей советской власти среди народов Туркестана. Советская власть воспринималась большинством населения республики как чуждая, привнесенная с помощью красноармейских штыков. Создаваемые большевиками советы и их исполкомы не пользовались авторитетом у доминирующей части коренных туркестанцев. Всеми доступными средствами они противились закладке советских структур, не участвовали по мере возможности в выборах в советские органы. В результате отличительным моментом советского строительства рассматриваемого периода являлось то, что на низовом уровне оно имело место главным образом в городах, на узловых железнодорожных станциях, населенных преимущественно рабочими-европейцами.

Важнейшим импульсом, определявшим недовольство широких масс коренного населения края советской властью, неизменно выступал национальный вопрос. Он воспринимался в разных слоях туркестанского общества неоднозначно. Обозначалась обширная гамма представлений о путях и методах национального самоопределения, уровне и качестве его выражения. Но консолидирующей основой выступало стремление к реальному обеспечению национальных прав, желание народа самому определять свою политическую волю.

Одной из форм привлечения трудовых масс разных национальностей Туркестана в органы власти были на первых порах мусульманские Советы, областные и уездные национальные комиссариаты и отделы при Советах рабочих и солдатских депутатов¹.

Организационно-агитационный отдел содействовал созданию органов советской власти в кишлаках и аулах. В советских и партийных кругах поднимался вопрос о вовлечении большого количества местных работников в строительство Республики, и одновременно приходилось говорить и о другом вопросе, являвшимся не отдельным для осуществления первого – это выявление новых кадров, которые могли быть использованными в работе различных учреждений.²

¹ Совдепам и партийным организациям Туркестана // Жизнь национальностей. – М.: 1919. – №7. – С.2.

² ЦГА РУз., Ф.Р.36, оп.1, д.2, л.28 об.; Агитационно-массовая работа и распространение передового опыта // Партийная жизнь. – М.: 1954. – №8. – С.3; Комсомольцы организаторы массово-политической работе на селе // Политпросветработа. – М.: 1943. – №45. – С.12; Исмоилов С. Агитаторнинг омма билан ишлаши // Ўзбек коммунисти. – Т.: 1953. – № 7. –Б. 43.

Пристальное внимание уделило центральное правительство подготовке в крае соответствующих идеологических и партийно-советских кадров, работников «культурного фронта». В сентябре 1918 г. для подготовки кадров организаторов и агитаторов направил на учебные курсы при комиссариате Земледелия Сузакбая Косбармакова, Яккубаева, Мухтара Саиджанова и Мухаммед Ваф Галиева.³ В 1918 г. при комиссариате по национальным делам были созданы курсы для подготовки инструкторов-агитаторов (срок обучения 2 месяца). Согласно положению, разработанного под руководством агитационного отдела Турккомнаца - Ю.Ибрагимова, на курсы допускались лица, рекомендованные областными и уездными партийными организациями, без различия национальности, пола и не моложе 20 лет. Курсы были рассчитаны на 60 человек, с 22 мая 1919 г. обучалось 80 человек (срок обучения 4 месяца).⁴

Подобные сведения, сообщаемые в директивные органы Туркестанской республики, позволяли предупреждать перекосы в проведении национальной политики. Эти сведения, характеризуют количественное соотношение только трех комиссариатов, но и показывает о нерациональном распределении силами местных работников между госучреждениями. Их целесообразнее было бы распределить, так как часть комиссариатов могли обойтись с меньшим количеством местных работников, чем Народный комиссариат Продовольствия и Народный комиссариат Просвещения, с помощью местных работников смогли бы правильно поставить и приспособить свою деятельность к местам.

Таким образом, поступавшая информация с достаточной убедительностью говорит о том, что в агитационной работе на местах было много недочетов: местные комитеты партии недостаточно отчетливо и полно усвоили основные задачи и элементы агитационной работы. В то же время, само содержание пропагандистской работы подчас продолжали выполнять задачами копированные с Центральной России, в результате чего агитационная деятельность теряла систему и последовательность, превращаясь в работу от «случая к случаю».

*Jo'raev Sh.B. –
O'zMU tarix fakulteti*

TOSHKENT SHAHAR AHOLISINING XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDAGI MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHI VA IJTIMOY TARKIBI

Toshkent tarixiy-madaniy hududi Sirdaryoning o'ng irmoqlari Chirchiq va Ohangaron daryolari havzasida joylashgan. Yu.Bregel ta'biri bilan aytganda, u

³ ЦГА РУз., Ф.Р.36, оп.1, д.11, л.74.

⁴ Культурное строительство в ТАСР (1917-1924 гг.) / Сборник документов. – Т.: 1973. – С.368-370; Мокринский Л. Партияга муносиб кишиларни қабул қилмоқдамиз // Партия турмуш. – Т.: 1960. – №12. –Б 69-70.

O'rta Osiyoning o'troq aholi joylashgan beshta muhim mintaqasidan biridir⁵. Hudud tabiiy jihatdan tog'oldi tekisligi bo'lgan Chirchiq-Ohangaron vodiysidan iborat bo'lib, Sirdaryoning irmoqlari Chirchiq, Keles va Ohangaron daryolari asrlar davomida bu yerda sug'orma dehqonchilikning rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. X–XII asrlar arab-fors manbalarining guvohlik berishicha, hududda shaharlar va yirik aholi maskanlarida savdo-xunarmandchilik, dehqonchilik rivojlangan. Bu davrda mintaqa madaniyati va xo'jaligi bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita tarixiy viloyat – Choch (keyinroq Shosh) va Iloq mavjud bo'lgan.

XIII–XV asrlarda Toshkent va uning atrofi Chig'atoy ulusi, keyinroq Amir Temur saltanati tarkibida bo'ldi. XV asr oxiri XVI asr boshidagi Toshkent Temuriylar, XVI asr boshlab Shayboniylar manfaatlarini to'qnashgan hududga aylandi⁶.

XVI-XIX asrlarda Toshkent mintaqasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar faol ishtirok etgan. Toshkent ma'muriy-hududiy holatiga ko'ra XVIII asrda shahar ikki kismli tizimga: olti darvozali ichki qism va mudofaa devorlariga o'rnatilgan 32 kopkali tashqi qismga bo'lingan Xokim qarorgohi (O'rdasi) Ko'kchada joylashgan. Shaharning ichki qismi qiyofasini asosiy bozor-Chorsu, shaharning qurol-aslaha omborxonasi-Juvaxona va maydon-Registon belgilab bergan⁷.

Ma'lumki, Toshkent tarixida Choxokimlik davri (1757-1804) bo'lgan. Bunda shaharning 4 dahasi ya'ni Ko'kcha, Sebzor, Shayxontohur, Beshyog'och ning o'z hokimi - oqsoqoli bo'lib, ularning qo'lida xo'jalik, ijtimoiy, huquqiy-ma'muriy boshqarish ishlari jamlangan edi. Keyinchalik (1784-yil) Shayxontohur dahasi oqsoqoli Yunusxo'ja shaharni o'z qo'l ostiga birlashtirgandan so'ng ham, shaharni dahalarga ajralishi saqlanib qolgan. Yunusxo'ja shaharning tashqi mudofaa devorlarini yangilagan, o'rdani ko'chirgan. Yangi o'rda Anxor bo'yida qurilgan, natijada uni Chorsu bilan bog'lovchi asosiy ko'chaning (hozirgi Navoiy shox kuchasi) ahamiyati oshgan. Bu ko'cha shaharning markaziga aylana boshlagan⁸.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Toshkent ikki ma'muriy-hududiy qism – Eski shahar va Yangi shaharlardan tashkil topgan edi va bu holat Turkistonning Rossiya podsholigi tomonidan zabt etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Aniqrog'i, Toshkent 1865-yili ruslar tomonidan bosib olingach, ikki yil o'tib 1867-yili tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirilgan. Shahar hududi kengayib, Anhorning chap sohilidan sharqqa tomon yangi imoratlar

⁵ Bregel Yu. An historical atlas of Central Asia. – P. 2.

⁶ Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислохотлар ва муаммолар (XVI–XX аср бошларига оид тарихий ҳужжатлар асосида). дис..т.ф.д. –Т.: 2016. –Б. 79.

⁷ Шарипова М.Ф. Тошкент шаҳрининг XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий аҳволи. дисс. т.ф.н. –Т., 2004. –Б. 27-28.

⁸ Пулатов Х.Ш. Архитектурно-планировочная структура Старого Ташкента (конец XIX-начало XX века) Автореф.дисс.канд.архитектуры. –Т.: 1994. –С.6.

qurilgan va bu yerlar “Ruslar yashaydigan qism” yoki “Yangi shahar” deb atala boshlagan. Anhordan o‘ng tomonda joylashgan eski Toshkent hududi esa “Eski shahar” deb atalgan⁹.

XIX asr oxirlarida Eski shahar shimoldan Kaykovus arig‘i, sharqdan Anhor arig‘i, g‘arbdan Ko‘kcha arig‘i, janubdan Zax arig‘i bilan chegaralangan. Ma‘muriy jihatdan Eski shahar 4 daha – Shayxontahur, Sebzor, Ko‘kcha va Beshog‘ochga bo‘lingan. Bunday bo‘linish XVIII asr o‘rtalarida ro‘y bergan va XVIII asrning oxirlarigacha har bir dahani mustaqil hokim boshqargan. Biroq, XVIII asrning oxiriga kelib Shayxontahur dahasining hokimi Yunusxo‘ja qolgan uch dahani ham o‘z tasarrufiga olgan. XIX asrning birinchi yarmida – Toshkent Qo‘qon xonligiga qarashli bo‘lgan davrda – dahalarni beklarbegi boshqargan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach (1867 y.), Eski shaharni mahalliy nufuzli shaxslar vositasida Shahar Dumasi orqali rus ma‘muriyati boshqargan. Lekin siyosiy boshqaruvning o‘zgarishi Eski shaharning ma‘muriy bo‘linishi (to‘rt daha) tartibiga ta‘sir etmagan, ya‘ni dahalarning nomlanishi avvalgidek saqlanib qolgan.

Toshkent dahalari haqida XIX asrda tarixchi Muhammad Solih o‘zining “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida ancha batafsil ma‘lumot bergan¹⁰. Unda to‘rt dahadan iborat shahar topografiyasi va shu ma‘muriy birliklar doirasiga kiritilgan atrof yerlar geografiyasi tavsiflangan.

Shaharning asrlar mobaynidagi tarixiy taraqqiyoti davrida shaharliklarnig ichki jamoa tashkiloti, ma‘muriy-xo‘jalik jihatidan o‘z-o‘zini boshqarishning asosiy shakli bo‘lgan daha tizimi shaharliklar hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, daha aholisi o‘z ichidan dahaning xo‘jalik, jamoa va ma‘muriy-huquqiy jihatdan hayotida yetakchilik qiluvchi oqsoqollarni saylagan, ular shahar hokimligida daha nomidan ish olib borishgan. Daha istilosi qadimda ma‘muriy-xududiy tushunchada shaharning uchun mahallasini o‘z ichiga olgan qismini anglatgan, shaharning rivojlanish va kengayish jarayonida davr o‘tishi bilan mahallalar soni ortib, ular o‘rnashgan hudud kengayib borgan bo‘lsa-da, “daha” ma‘muriy birlik, rayon, tuman ma‘nosida iste‘molda qolavergan¹¹.

Tadqiqotchi H.Bo‘rievaning fikricha, Aslida “daha” so‘zi qadimgi sug‘d tilida “deha” – qishloq degan ma‘noni bildiradi. Keyinchalik O‘rta Osiyoda “daha” deb shaharlarning bir bo‘lagi, ma‘muriy bo‘linishiga aytiladigan bo‘ldi. Toshkent misolida shunday holat kuzatiladi – shahar kengayib borgan va “daha” ma‘muriy birlik ma‘nosida iste‘molda saqlangan¹².

⁹ Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Т.: Noshirlik yog`dusi, 2009. –Б. 28-29.

¹⁰ Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солих тавсифида. – Т.: Фан, 1983. –Б. 11.

¹¹ Шарипова М.Ф. Тошкент шаҳрининг XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий аҳволи. Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2004. –Б. 30-31.

¹² Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Т.: Noshirlik yog`dusi, 2009. –Б. 28-29.

Tarixchi Muhammad Solih ularni ko‘prou «Toshkent rukn(ustun)lari» deb atasada, “daha” so‘zini ham ishlata veradi. Rukn(ya’ni daua)larning nomlari: Shayxontohur, Xazrat Kaffoli Shoshiy, Zangiota, Shayx Zayniddin. Bu nomlarning xalk, orasida keng tarqalgan bo‘lqacha atalishi ham bo‘lgan. Chunonchi Xazrat Imom Kaffoli Shoshiy dahasi - Sebzor, shayx Zayniddin dahasi - Ko‘kcha, Zangiota dahasi - Beshyog‘och deb atalgan¹³. Turkiston general- gubernatori K.P.Kaufman idorasining boshlig‘i A.K.Geynsning yozishicha, Bo‘zsuv arig‘i Toshkentni sharqdan G‘apbga tomon deyarli teng ikki qismga ajratgan. Bu qismlarning har biri ma’muriy jihatdan yana ikkiga bo‘lingan. Bu qismlar Shayxontoxur, Sebzor, Ko‘kcha va Beshyog‘och deb nomlangan. Shaharning 12 darvozasi va ikki teshik qopqog‘i bo‘lgan.

Darvozalar shaharning tashqi dunyo bilan aloqasida muhim vosita vazifasini o‘tagan. Toshkent darvozalari soni turli davr mualliflari tomonidan har xil ko‘rsatilgan. Muhammad Solih (XV asr uchun) – 12; Miller (XVIII asr uchun) – 8 ta; Muhammad Solih (XIX asr uchun) – 12 ta; Pospelov (XIX asr) – 6 ta; Filipp Nazarov (XIX asr) – 12 ta; N.A.Maev (XIX asr oxiri) – 11 ta, A.K.Geyns (XIX asr) – 12 ta¹⁴.

XIX asrda mavjud darvozalar ro‘yxati Muhammad Solih tomonidan keltirilmagan bo‘lsa-da, lekin asarning mazkur asr davomida kechgan tarixiy voqyealar va shaharning tarixiy-geografik tavsifi bayon etilgan qismida quyidagi darvozalarning nomlari qayd etilgan: 1. Beshog‘och (Qang‘li) darvozasi, 2. Xiyobon darvozasi, 3. Samarqand darvoza, 4. Ko‘kcha darvozasi, 5. Chig‘atoy darvozasi, 6. Sag‘bon darvozasi, 7. Qorasaroy darvozasi, 8. Teshik-qofqa (Darvishak-qofqa) darvozasi, 9. Taxtapul darvozasi, 10. O‘zbek (Labzak) darvozasi, 11. Oqqo‘rg‘on darvozasi, 12. Qo‘qon darvozasi, 13. Qo‘ymas (Qirilmos), 14. Eski Sherdor¹⁵.

XIX asr o‘rtalariga oid Eski Toshkent planida ham shaharning 14 darvozasi ko‘rsatilgan: Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar, Labzak darvozalari – Shayxontahur dahasida; Qorasaroy, Teshik-Qofqa, Taxtapul darvozalari – Sebzor dahasida; Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon darvozalari – Ko‘kcha dahasida; Samarqand, Kamolon, Teshik, Beshyog‘och darvozalari – Beshyog‘och dahasida. Jumladan, A.K.Geyns quyidagi 12 darvozaning nomlarini sanab o‘tadi: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy darvozalari – Sebzor dahasida; Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha darvozalari – Ko‘kcha dahasida; Samarqand, Kamolon, Beshog‘och darvozalari –

¹³Уринбоев А. Бурнов О. Тошкент Мухаммад Солих, тавсифида (XIX asr), -Т.: 1983, -Б. 25.

¹⁴ Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX asr охири – XX asr бошлари). – Т.: Noshirlik yog‘dusi, 2009. –Б. 28-29.

¹⁵ Султонов Ў.А. “Тарихи жадидаи Тошканд” асарида Тошкент дарвозалари тўғрисидаги маълумотлар // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б. 70–77.

Beshog'och dahasida; Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar darvozalari – Shayxontahur dahasida¹⁶.

Shaharning sharqiy darvozalaridan to g'arbiy darvozagacha 8500 qadamni, shimoldan janubgacha esa 8100 qadamni tashkil etgan. Xar bir darvozadan shahar markaziga - bozorga eltuvchi ko'chalar va ulardan esa ko'plab tor ko'chalar tarmoqlanib ketgan edi. Ko'chalar tutashgan chorrahalarda go'zar deb yuritilgan¹⁷. F.Azodaevning yozishicha tashqi devorning uzunligi 14 km bo'lgan. Balandligi 8 metrlik bu devor ustida ikki suvoriy bemalol yonma-yon yurgan¹⁸. Taxminiy hisob kitoblarga ko'ra Qo'qon xonligi davrida Toshkentda 20000 xonadon va 150000 kishi yashagan.

Xar bir daha o'z navbatida mahallalarga bo'lingan. Ular aholining boshlang'ich ma'muriy-xo'jalik va ijtimoiy jamoa tashkiloti, ularning qo'shni jamoasi bo'lib, o'zining jamoa boshqaruviga va daha tarkibiga to'la hukukdi a'zo bo'lib kirgan. Mahalla tepasida saylab qo'yiladigan oqsoqollar turgan. Ular sug'orish ishlarini tashkil etish, mahallaning jamoa yerlari joylashgan mavzelerde ekiladigan yerlarni taqsimlab berish va boshqa jamoatchilik vazifalarini ado etishgan. har bir mahallaning o'z masjidi, choyxonasi bo'lib, unda mahalla erkaklari dam olib, jamoa ishlarini muhokama qilganlar¹⁹.

Mahallalar shahar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, shahar aholisining umumiy istiqomat qoidalari va o'zaro birdamlik an'analari bilan bog'langan kichik tarkibiy qismini tashkil etgan. Mahalladoshlar o'zaro juda yaqin bo'lib, bir-birlarining Xol-ahvolidan doimo boxabar bo'lib turishgan, mahalla hududi doimo toza, suv sepib turilib, ozodalikka alohida e'tibor berilgan. Bironta kishining to'y-ma'rakasi mahalladoshlarining bevosita ishtirokisiz o'tmagan. Mahalladoshlarning uy-joylari xashar yo'li bilan qurilgan, beva-bechoralarga turli xil yordamlarini ayashmagan.

Tadqiqotchilarning fikricha, ijtimoiy va me'morlik-shaharsozlik tamoyillari belgilariga ko'ra mahallaning quyidagi uch turi aniqlangan: 1. mahalla - bozorlar, 2. mahallalar, 3. mahalla-mavzelar. Mahalla-bozorlar Chorsu bozori atrofida joylashgan bo'lib, aholisi savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan (masalan Mahsido'zlik va boshqalar). Mahallalarning o'zi esa shaharning asosiy qismini tashkil etgan. Yirik mahallalar bir qancha mustaqil mahallalarga bo'lingan (masalan, Yuqori, -O'rta-Quyi Oqmasjid yoki 1-, 2-, 3-, 4-

¹⁶ Уринбоев А. Бурнов О. Тошкент Мух,аммад Солих, тавсифида (XIX аср), -Т.: 1983, -Б. 25.

¹⁷ Ўша жой –Б. 26.

¹⁸ Азадаев Ф. Тошкент во второй половине XIX века, -Т.: 1959, С.20.

¹⁹ Шарипова М.Ф. Тошкент шахрининг XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий аҳволи. Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2004. –Б. 39.

Eshonguzar). Mahalla-mavzelarga Allon, Samarqand darvoza, hasanboy kabilarni misol keltirish mumkin²⁰.

Mahallalar nomi ko‘pincha shaharning o‘tmishidan (Eski O‘rda, Janggoh) hikoya qilishi mumkin. Ba'zi mahallalar kasb-xunar yoki ztnik belgi asosida (Degrez, O‘kchi, Mergancha, Parchabof, O‘zbek, Tojik), ba'zilari mazkur hududdagi masjid, ariq ko‘prik va boshqalar nomi bilan (Balandmasjid, Jararik,, Taxtapul) atalgan. Bu davrda Eski shahar hududi ruslar tomonidan buzib tashlanayotgan mudofaa devorining ichki va tashki qismida vujudga kelayotgan yangi mahallalar hisobiga kengaygan. Odatda bu mahallalarga “Yangi mahalla”, “Yangi shahar” deb nom berishgan. “Mahalla” istilohi Turkistonning boshqa shaharlarida turlicha nomlarda ishlatilgan. Masalan: Buxoro va Samarqandda - go‘zar. Xorazmda-elat. Toshkent mahallalari aholisining miqdoriga (200-1500) qarab o‘zaro keskin farqlangan²¹.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent qiyofasiga sezilarli ravishda ta'sir etgan rus madaniyati ko‘prok, darajada Yangi shaharga qo‘shni bo‘lgan Toshkent aholisi turmushida, shuningdek, daha qiyofasida yaqqol aks etgan edi.

Xulosa qilib aytganda, shahar tarixini o‘rgatishda uning darvozalari, daha, mahalla va mavzelarni roli bekiyosdir. Shaharning 12 darvozasi o‘tmishda turli nomlarda atalib, ularning soni ham o‘zgarib turgan. Ularning joylashgan yerini tarixiy manbalar asosida belgilash milliy qadriyatlarimizni tiklashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, har bir daha axolisi xo‘jalik faoliyatida ma'lum bir soha yetakchilik qilgan, bu ular o‘rtasida mehnat taqsimoti mavjudligidan dalolat beradi. Mahallalar shaharning umumiy istiqomat qoidalari va o‘zaro birdamlik an'analari bilan bog‘langan qismi bo‘lgan, milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlarni saqlashda uning ahamiyati katta bo‘lgan. Mahallalar hududining kattaliti, aholisining soniga qarab o‘zaro farq qilgan. Mavzelar esa shaharliklarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarinp hal etishda katta rol o‘ynagan, chunki ular hududida shahar aholisining dala xovlilari, ekinzor, bog‘lari joylashgan.

*Karimov D.Sh. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

AMIR TEMUR DAVRIDA MADANIYATGA E‘TIBOR

Ma‘lumki, Amir Temur o‘z davrining buyuk sarkardasi, buyuk davlatning asoschisi bo‘lishi bilan birgalikda, o‘z davrining madaniyat tarqatuvchisi bo‘lgan. Amir Temur davrida yaratilgan sharoit, ilm-fan rivojiga berilgan katta e‘tibor tufayli, Markaziy Osiyoda madaniyat o‘z rivojining cho‘qqisiga chiqdi.

²⁰ Пулатов Х.Ш. Архитектурно-планировочная структура... С. 10.

²¹ Шарипова М.Ф. Тошкент шаҳрининг XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларидаги ижтимоий-сиёсий аҳволи. Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2004. –Б. 41.

Shuningdek, Amir Temur va temuriylar jahon madaniyati rivojiga ham o'z hissasini qo'shdi.

Amir Temur davrida fan rivojiga katta ahamiyat berilgan. Bu borada tarix fani eng birinchi ravnaq topgan fanlardan biri hisoblanadi. Chunki, bu davrda tarixni xolisona yoritish zarur edi va bu Amir Temur davridayoq anglab yetildi. Xususan, Sharofiddin Ali Yazdiyning ma'lumot berishicha, Amir Temur xolisona yoritilgan tarixiy voqea va hodisalarni tarix uchun saqlab qolish yo'lida ko'plab tadbirlar olib borgan²². U o'z tarixini yoritishni ham bir nechta tarixchilarga topshirgan va bunda ularga faqat xolisona yondashish kerakligini uqtirgan. Xususan, u o'z tarixini batafsil yoritishni tabrizlik tarixchi Nizomiddin Shomiyga topshirganligi haqida ma'lumotlar bor. Albatta, bu kabi ishlar o'z samarasini bermay qolmadi. Uning davrida va uning avlodlari davrida ko'plab tarixiy asarlar yaratilganligi buning dalilidir. Bu kabi tarixiy asarlarga misol qilib, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", G'iyosiddin Alining "Ro'znomayi g'azovati Hindiston", Tojiddin Samoniyning "Tarixnoma", Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur fi axbori Temur" (Amir Temur tarixi), Hofizi Abro'ning "Zayli Zafarnomai Shomiy"larni keltirishimiz mumkin.

Amir Temur yoshligidanoq yaxshi ta'lim olib, katta bo'lgan. Xususan, u o'zining piri bo'lgan Shayx Shamsiddin Kuloldan ta'lim olgan. Manbalarda aytilishicha, Temurning ismini qo'ygan ham, uning buyuk podsho bo'lishini bashorat qilgan ham ana shu zot Shayx Shamsiddin Kulol hisoblanadi²³. Ana shunday zotlar ta'limotiga ergashgan inson, albatta, o'z davlatida ham ta'limga e'tiborsiz qolmasdi. Xususan, Amir Temur davrida madrasalarga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ularda o'z davrining yetuk mutahassislari dars berishgan. Shuningdek, ularga alohida ish haqi to'lanar edi. Bundan tashqari Amir Temur davrida ko'plab madrasalar qurilgan. 1404 – yili Saroymulk xonim Amir Temurdan ruhsat olib, otasi – Qazonxondan qolgan mablag'iga Samarqandda shunday madrasa qurdirgan ediki, u o'z hashamati bilan o'sha davrdagi boshqa inshootlardan alohida ajralib turardi. Shuningdek, unda o'z davrining mashhur olimlari mudarrislik qilganlar. Xondamirning ma'lumotlariga ko'ra, Hirot hududining o'zidagina 36 ta madrasa bo'lib, bu madrasalarda va shu hududda joylashgan xonaqohlarda ta'lim olish uchun turli mamlakatlardan talabalar kelishgan²⁴.

Amir Temur har bir sohaning xalq manfaati, yurt taraqqiyotidagi o'rnini o'ylagan. Xususan, Amir Temur xalqning ma'naviy kamoloti bilan birgalikda tibbiyot sohasini rivojlantirishga katta e'tibor bergan. Ma'lumotlarga ko'ra o'sha davr shifoxonalarida, madrasa va boshqa bilim yurtlarida ta'lim olgan yuzlab tabiblar ishlar edi. Amir Temur doimo o'z yurishlarida o'zi bilan birgalikda ishonchli tabiblarini olib yurgan. Sharofiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur Shom (Suriya) dan Samarqandga o'zi bilan birga tabiblar sardori Mavlono Jaloliddin va Mavlono Sulaymonlarni olib kelgan. Mavlono Fazlulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan. Bulardan

²² Amir Temur Jahon tarixida – T.: Shark; 2001. – B. 141.

²³ Foiyov N. Amir Temur davri ma'naviyati – T.: Fafur Fulom; 2001. – B. 8.

²⁴ Amir Temur Jahon tarixida – T.: Shark; 2001. – B. 144.

tashqari, Amir Temur saroyida Mavlono Izzaddin Ma'sud Sheroziy va Mavlono Farrux kabi mashhur tabiblar xizmat qilishgan. Bundan tashqari bir qancha tabib – u olimlar tabobatga oid asarlar ham yozishgan. Jumladan, Najibuddun Samarqandiyning “Kasalliklarning sabablari va alomatlari”, Ali ibn an-Nafis al-Qarshiyning “Al-mujaz”, Mansur ibn Muhammadning “Tashrix-i Mansuri” kabi asarlar o'sha davr tabobat ilmiga katta hissa qo'shgan²⁵.

Amir Temur me'morchilik ishlariga katta e'tibor bergan. Uning: “Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilshni, daryolar ustiga ko'priklar qurushni buyurdim” degan so'zlari buning tasdig'idir. Yana bir o'rinda Amir Temur ta'kidlaydi: “Yana amr etdimki, katta – kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona (musofirxona) solsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dorul – amorat (hukmdor saroyi) va dorul – adolat (adolat saroyi) qursinlar!”²⁶. Albatta, bu kabi memorchilikka e'tiborning qay darajada kuchli bo'lganligini bugungi kungacha saqlanib qolgan Amir Temur davrida qurilgan imoratlardan ko'rishimiz mumkin. Amir Temur o'zi bosib olgan davlatlardan qo'li gul ustalar, me'morlarni olib kelib, me'morchilik ishlariga jalb qilgan. Amir Temur mamlakat poytaxti Samarqandni go'zal va obod shaharga aylantirish uchun uni yangi devor bilan o'ratadi. Eski va tor ko'chalar o'rniga keng hiyobonlar va maydonlar barpo etadi. Shahar markazidan uning asosiy darvozasi bo'lgan Ohaningacha savdo rastalari qurdiradi. 1399 – yildan boshlab shu darvoza yonida katta xotini Saroymulx xonimga atab katta jome masjidini qurish boshlandi. Bundan tashqari Amir Temur Qusam ibn Abbos qabri tepasiga maqbara qurdirib, unga Shohizinda deb nom beradi. Amir Temurning yana bir qurdirgan maqbarasi bu Go'ri Amir maqbarasidir. Bu maqbara Amir Temurning Anqara jangida shahid bo'lgan nabirasi Muhammad Sulxon ibn Jahongir uchun qurilgan. Maqbara Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy tomonidan qurilgan bo'lib, unda yana Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Shohrux Mirzo va Mironshoxlarning ham sag'analari mavjud. Bundan tashqari Amir Temur Zangiota, Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbaralarini ham qurdiradi. Manbalarga ko'ra, 1398 – yilda qurilgan Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi loyihasini tuzishda Amir Temurning o'g'li Jahongir ham qatnashgan. Albatta, Amir Temurning eng katta me'morchilik ishlaridan biri 20 yil davomida qurilgan Oqsaroydir. Bilamizki, Amir Temur uni onasi Nekuzbib sharafiga 1404 – yilda Shahrisabzda qurdirgan. Bu saroy haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagilarni yozgan: “Amir Temur ishga yaroqli bo'lgan urganchliklarning hammasini Mavorounnahrda ko'chirishga buyruq berdi. Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroy qurdilar. Hozir u Oqsaroy nomi bilan mashhurdir”. Hattoki, Ispan elchisi Klavixox ham Oqsaroyning go'zalligini ehtiros bilan tasvirlagan: “Bu bino zarhal va lojuvard bilan qoplangan bo'lib, u yerda saroyning shunchalik bo'linma va oromgohlarini ko'rsatadiki, ular haqida juda uzoq so'zlash mumkin. Saroy ziynatlari oltindan va boshqa ranglardan hayrotomuz uslubda ishlangan”²⁷. Amir Temur davrida

²⁵ Amir Temur Ja'xon tarixida – T.: Shark; 2001. – B. 145-146.

²⁶ Amir Temur Ja'xon tarixida – T.: Shark; 2001. – B. 146.

²⁷ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар – Урганч.: Хоразм; 1996. – Б. 22-23.

yaratilgan me'moriy inshootlar bilan birga ularning atrofida turli xil dam olish maskanlari ham ko'plab qurilgan. Aynan shu davrda bog' – rog' san'ati o'zgacha shukuh kasb etdi. Aynan Sohibqironning o'zi bu sohaga katta e'tibor berib, ko'plab bog'lar yaratgan. Jumladan, Amir Temur davrida Bog'i Jahonnamo, Gulbog' – Davlatobod, Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Bihisht, Bog'i Shimol, Bog'i Nav va boshqalardir.

Madaniyatning turli sohalari rivojlangan Amir Temur davlatida amaliy san'at, ya'ni rassomchilik, naqshinkorlik sohalari taraqqiy etmay qolmasdi, albatta. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda avvaldan rivojlanib kelgan binolarni bezatishdagi uslublar bilan birgalikda, yangi uslublar ham rivoj topdi. Xususan, o'sha davrda keng qo'llanilgan bezak turlariga: me'morlik keramikasi, monumental rassomlik, yog'och va tosh o'ymakorligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, Shohizindani bezatishda me'morlik keramikasining g'ishtli mazaika uslubidan foydalanilgan²⁸. Rassomchilikda ham bir qator rassomlar yetishib chiqqan. Shulardan eng iqtidorlisi, Amir Temur saroyida ijod qilgan Abulxay edi. Abulxay rassom Sulton Uvays zamonida (1356 – 1374) Bog'dodda o'qigan va Ustod Shamsiddinning shogirdi bo'lgan. Amir Temur Abulxay va Ustod Shamsiddinlarni 1393 – yilda Hirotni egallaganida Samarqandga o'zi bilan birga olib kelgan. Abulxay chizgan suratlar hattoki yevropadan ham topilgan. Jumladan, Berlinda saqlanayotgan bir muraqqada Abulxayning qalamiga mansub bo'lgan ikkita surat bor. Bularda: o'rdak surati va jang sahnasi aks ettirilgan. Mazkur suratlar to'laqonli va haqqoniy chiqqanligi bilan Abulxayning moxir rassom bo'lganligidan dalolat beradi.²⁹

Albatta, madaniyatning barcha sohasi rivojlangan Amir Temur davlatida adabiyot rivojlanmay qolmas edi. Bu davrda turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan bir qancha she'riyat shinavandalari yetishib chiqdi. Jumladan, forsiy she'riyatda jahonga mashhur Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salmon Savojiy kabilar, turkiy she'riyatda Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek kabilar ijod qilganlar va nom chiqarganlar. Marxum adabiyotshunos Hakim Homidiy va taniqli tojik adabiyotshunosi Otaxon Sayfullayev fikriga ko'ra, Amir Temur Kamol Xo'jandiyning hayotida muhim ro'l o'ynagan³⁰.

Amir Temur musiqa san'atiga ham qiziqqan bo'lib, uning taraqqiyoti uchun barcha shart – sharoitlarni yaratgan. Uning xalq cholg'u asboblariga bo'lgan munosabatini quyidagi so'zlari orqali bilishimiz mumkin: “ Amr qildimki, o'n ikkita amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul – umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nboshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga esa bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglar begining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug', burg'u bersinlar”³¹. Qizig'i shundaki, Sohibqiron tadbiri bilan oddiy xalq orasida keng tarqalgan milliy

²⁸ Amir Temur Ja'xon tarixida – T.: Sharq; 2001. – B. 157.

²⁹ Норкулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавхалар – Урганч .: Хоразм; 1996. – Б. 25.

³⁰ Amir Temur Ja'xon tarixida – T.: Sharq; 2001. – B. 165.

³¹ Amir Temur Ja'xon tarixida – T.: Sharq; 2001. – B. 181.

cholgʻu asboblارimiz hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqegini belgilab beruvchi timsolga aylangan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish oʻrinliki, Amir Temur oʻz davri va undan keyingi kelajak avlod uchun bitmas - tunganmas boylik qoldirdi. Bu madaniyatni yaratishda nafaqat Amir Temur, balki butun xalqning xizmatini beqiyos deb bilamiz. Amir Temur esa, bu ishlarning boshida turib, oʻzining har tomonlama yetuk shaxs ekanligini namoyish qilib, biz – kelajak avlod uchun bitmas-tunganmas moddiy va maʼnaviy boylik qoldirdi deb bermalol ayta olamiz.

*Мамадалиев И. –
студент II курса Исторического факультета НУУз*

ФЕНОМЕН МУСУЛЬМАНСКОГО РЕНЕССАНСА В РАЗВИТИИ НАУКИ НА СРЕДНЕВЕКОВОМ ВОСТОКЕ

Мусульманский ренессанс, который датируется историками IX-XII вв. является одним из важнейших периодов в истории не только Арабского халифата, но и других стран востока. В этом отрезке времени наблюдается небывалый рост интереса к науке, появление нескольких научных центров и большого количества библиотек и медресе. Этот период также называют «Золотой век ислама» Целью данной статьи является рассмотрение условий возникновения данного феномена, его особенности и влияние на сегодняшний день.

Значительное влияние на политическую и культурную жизнь Халифата оказывали восточные провинции, в частности Хорасан. В результате социально-экономического кризиса охватившего империю в VIII веке, в ряде крупных городов вспыхивают восстания шиитского характера. В результате восстания в Мерве Абу Муслима 747 года в 750 году к власти пришли Аббасиды (750-1258). Последний представитель Омеядов Абдурахман бежит в Северную Африку и переправляется в Испанию, позднее образовав независимое государство.

Поскольку Аббасиды пришли к власти при поддержке иранских воинских формирований, роль в государстве и армии стала преобладающей. Персы – хорасанцы, принятые в семью Аббасидов в качестве так называемых “сыновей” образовали основное ядро аббасидской армии³². Важнейшим свидетельством роста влияния иранцев на дела Халифата может служить возвышение Бармакидов. Глава рода Йахья ибн Халид, выдвинувшийся еще во времена правления аль - Махди, занял при Харуне ар- Рашиде место главного советника. Именно ему Харун ар – Рашид был обязан своим спасением при халифе аль - Хади и, взойдя на престол, доверил ему ведение всех государственных дел. На протяжении первых 17 лет правления Харуна ар - Рашида

³² Фильштинский И. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006. -С. 46.

Бармакиды управляли всеми делами огромного государства и именно им халиф в значительной степени был обязан процветанием империи³³. Род Бармакидов принадлежал к богатым родам Навбахора исповадавшей буддизм до прихода арабов, после принятия ислама заняв ключевые посты в правительстве они успешно спонсировали ученых, поощряли их переводческую деятельность.

Оплачивая переводы, Бармакиды вскоре оказались вовлечены в книжный бизнес. Они представляли свои переводы будущим читателям, и те, естественно, хотели получить свой собственный экземпляр. Чтобы удовлетворить этот спрос, Бармакиды основали первую бумажную фабрику в Багдаде. Один из сортов тонкой бумаги даже был назван в честь представителя рода Бармакидов³⁴.

После смерти Харуна ар - Рашида в 809 году между его сыновьями аль - Амином и аль - Мамуном началась борьба за власть. В 813 году победу одержал аль - Мамун (813-833) благодаря поддержке жителей Хоросана - его личного владения и хоросанца Тахира. При аль - Мамуне мутазилитская доктрина в исламе стала господствующей.

Принятие мутазилитского калама рассматривалась аль-Мамуном как средство консолидации религиозной жизни, укрепления единства всех этнических слоев мусульманской империи и, что было для него, несомненно, особенно важным, повышения роли халифа в качестве арбитра при решении религиозных вопросов³⁵.

Около 827 года аль - Мамун решил основать свой знаменитый “Дом мудрости” (Бейт аль- хикма) в Багдаде. Дом этот был основан в подражание сасанидской медицинской Академии в Джундишапуре, дабы пропагандировать мутазилитское учение. На протяжении VIII-IX веков в Халифате все большее распространение получали восточные учения пророческого и мессианского характера, питаемые зороастрийскими и манихейскими идеями. Это становилось опасным для ислама, ибо могло засорить его элементами проникающих из Ирана учений. Желая противостоять иранскому культурному проникновению аль - Мамун стал всячески содействовать переводу греческих научных и философских сочинений, дабы уравновесить влияние иранского культурного наследия античным и эллинистическим³⁶. Во главе “Дома мудрости” аль - Мамун поставил двух образованных людей - перса Сахла ибн Харуна и Сальма “Харранца”, переводчика на арабский язык трудов Аристотеля и знатока языка пехлеви. В “Доме мудрости” располагался целый штат переводчиков, занятых переводом на арабский язык греческих сочинений по практическим знаниям, в первую очередь по математике, астрономии и медицине, астрологии и алхимии, а также трудов по философии и логике, воспринимавшихся мутазилитами как могучее средство в религиозной

³³ Там же. -С. 47-48.

³⁴ Старр Ф. Утраченная эпоха просвещения. – М.: 2007. -С. 155.

³⁵ Фильштинский И. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006. -С. 78.

³⁶ Там же. -С. 83.

борьбе ³⁷. Говоря об иранском влиянии на Халифат следует отметить, что даже сам Багдад был основан неподалеку от руин бывшей сасанидской столицы - Ктесифона аль - Мансуром в 762 году.

В IX веке накопленные знания в различных сферах стали систематизироваться учеными, также стали выделяться новые самостоятельные направления наук. В результате дальнейших изменений в методе преподавания стали появляться учебные заведения нового типа известные как медресе.

Из старой художественной литературы (адаб) выделяется целый ряд светских наук. До этого только богословия и философия имели научный метод и научный стиль, теперь же и филология, и история, а также и география приобретают свой собственный стиль и метод. Отныне ученые уже не желают больше развлекать, сводить воедино возможно большее и самое различное, они начинают специализироваться, систематизируют свои знания и делают выводы ³⁸.

Дальнейшие изменения были вызваны тем, что законоведение отделилось от богословия и отныне мир ученых разделился на два враждебных лагеря: юристы (фукаха) и собственно ученые (улама). Вокруг первых группировались огромное количество учившихся ради куска хлеба, ибо только при помощи тех, кто обучал праву и обрядам можно было получить место судьи, или проповедника ³⁹.

Постепенно стало расти количество книг и библиотек. Библиотеки принадлежали халифам, мечетям или были в распоряжении у богатых торговцев так как перевод, перепись книг, их художественное оформление требовали солидных затрат.

В конце X века каждый из трех повелителей ислама- в Кордове, Каире, Багдаде был книголюбом. Ал- Хакам в Испании имел на всем Востоке своих агентов, которые скупали для него первые списки; каталог его библиотеки состоял из 44 тетрадей по 20 листов каждая, в которые были занесены только заглавия книг.

Из-за наличия библиотек в мечетях там преподавали богословие правовые науки и филологию. На занятиях богослов диктовал хадисы по памяти.

Раньше диктование (имла) считалось высшей ступенью преподавания, и особенно в IX веке богословы и филологи диктовали чрезвычайно много. Однако в X веке филологи отказались от богословской манеры чтения лекций, отказались от диктования и ограничились толкованием (тадрис) произведения, которое читал вслух один из слушателей. Видоизмененный метод преподавания создал в свою очередь новые типы учебных заведений, и благодаря преобладанию тадриса в это время возникают медресе. Основной причиной их возникновения послужил тот факт что с тадрисом были тесно связаны ставшие стой поры общепринятые диспуты (муназара) а мечеть не

³⁷ Фильштинский И. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006. -С. 79.

³⁸ Мец А. Мусульманский ренессанс. – М.: 2007 -С. 147.

³⁹ Там же. -С.149.

была подходящим для них местом. Все данные источников указывают на Нишапур, бывший в то время главным средоточием учености востока, как на родину учебных заведений такого типа.

Изучая мусульманский ренессанс нельзя не обратить внимание на богословие. Знание Корана было обязательным не только для богословов но обычных людей. Коран и стоящие после него сунна и хадисы заложили основу мусульманского права. Появились сторонники буквального и аллегорического понимания Корана. Чтобы доказать свою правоту ими глубже изучались хадисы, писались различные философские трактаты на эту тему. В период мусульманского ренессанса а именно в IX- Xвв. завершилось формирование 4 основных правовых школ ислама- ханифитов, ханбалитов, маликитов, шафиитов. Коренным образом изменилась практика передачи хадисов, она стала независимой от личного общения передатчика с богословом.

Так Ибн Йунус ас-Садафи (ум.958) смог стать главой традиционалистов Египта, несмотря на то что он никуда не ездил для собирания хадисов и никого не слышал за пределами Египта⁴⁰.

Богословы начинают производить проверки достоверности хадисов и их передатчиков. Передают что первое сочинение такого рода написал Йахья ибн- ал Каттан (ум.914г). После сопоставления классических трудов, пристальному исследованию подвергались теперь главным образом названные в них авторитеты и писались книги о передатчиках обоих сахихов. Требование непрерывной цепочки передатчиков позднее привело от составления биографий и оценки каждого из этих свидетелей в отдельности к написанию их общей истории. Так возникли хроники (таварих) IXв. Такие как хроника ал- Бухари (ум 870г), составленная по принципу места и времени “Большая книга поколений” Ибн Саада (ум 845).

В условиях толерантности между христианами и иудеями в арабском халифате появилось сравнительное богословие.

Вышла эта наука не из среды богословов: ан – Наубахти написавший на эту тему первую значительную книгу, принадлежал к тем ученым которые переводили сочинения греческих авторов на арабский язык. Весьма далекий от теологии ал- Масуди написал две книги о разных религиях. Далее правительственный чиновник ал Мусаббихи (ум 1029г) написавший в присущей ему пространной манере на 3500 листах “Изложение религий и культов” также был литератором с сугубо светскими интересами. Затем этими вопросами стали заниматься также и более любознательные богословские умы, как об этом свидетельствует книга Абу Мансура ал Багдади (ум 1031г) “Чужие секты и религии”. Испанец Ибн Хазм (ум 1064г) в своей книге под таким же заглавием как набожный мусульманин вступает в ожесточенную дискуссию со всевозможными вероучениями, в то время как в начале XI века ал- Бируни (ум 1048г) с беспристрастностью ученого написал

⁴⁰ Мец А. Мусульманский ренессанс. – М.: 2007. -С.164.

свою “Историю Индии” главным образом как описание религии индийцев, не для опровержения, а лишь для изображения фактов⁴¹.

В арабском халифате имелось несколько центров наук. В таких городах как Куфа, Басра, Багад изучались в основном традиционные арабские науки. Центрами изучения иностранных наук были средоточия греко-эллинистической культуры- Александрия, Антиохия, Джундишапур, Харран, Ар-Руха (Эдесса) где процветали светские науки- медицина, математика, астрономия.

Замечательных успехов достигла средневековая арабская медицина в которую существенный вклад внесла сирийско- христианская школа Бахтишо (IXв), а также уроженец Рея Абу Бакр ар- Рази (Разес ум 925г), ученый и философ из Бухары Ибн Сина (Авиценна 980-1037). В сирийско-несторианской школе Джундишапура медицина изучалась в основном по Гиппократу и Галену, и причем около 800 года врач Джабраил из семьи Бахтишо, преподаватель джундишапурской школы открыл в Багдаде первую больницу (бимаристан)⁴².

Абу Бакр ар- Рази написал трактат “ О ветряной оспе и кори”, в которой описаны все болезни того времени снабженная комментариями греческих врачей и его собственных наблюдений.

По его совету было выбрано место для строительства больницы и он был ее первым главой. Его величайший труд “ал- Хави” (Всеобъемлющая книга) энциклопедия медицинских знаний того времени- был завершен учениками после его смерти.

Ибн Сина является автором труда “аль- Канди фи- т- тибб” (Канон медицины). Этот трактат являлся основным пособием по медицине в Европе на протяжении нескольких веков.

“Канон медицины” называют “называют высшим достижением, шедевром арабской систематики” (Майерхоф). “Канон” был переведен на латынь в XII веке. В XV веке он выдержал 16 изданий, в XVI веке 20 изданий. Сохранилась переписка Ибн Сины с его современником Аль Беруни, где они обсуждали актуальные научные вопросы того времени. Удивительно то, что они в то время совершили большой интеллектуальный прыжок, опередив свое время⁴³.

Определенный интерес представляют работы Ибн Сины в области психологии. В этой сфере он сделал большой шаг к материализму, ибо он впервые предпринял попытку увязать отдельные виды психической деятельности человека с определенными участками мозга. Выдвинутая Ибн Синой смелая догадка о распространении некоторых болезней через воду, в которой содержатся “мельчайшие животные”, предвосхитила на восемь столетий учение Пастера о роли микробов как возбудителей инфекционных заболеваний.⁴⁴

⁴¹ Мец А. Мусульманский ренессанс. – М.: 2007. -С.164. -С. 165-168.

⁴² Фильштинский И. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006. -С. 305.

⁴³ Мец А. Мусульманский ренессанс. – М.: 2007. -С.179.

⁴⁴ Сааков В. История Бухары. – М.: 2001. -С. 59.

В арабском халифате в период ренессанса бурно развивались также точные науки. Это объясняется тем, что строительство зданий, ирригационных систем, точное время молитв и религиозных праздников, связанных с лунным календарем требовало развития этих наук.

В начале IX века на арабский язык было переведено главное сочинение Птолемея (II в. н.э) “Величайшее” (“Мегисте”) в арабской транскрипции “аль – Маджистан” в последующих латинских переводах “Альмагест”⁴⁵.

В мусульманском мире и далеко за его пределами прославился математик, астроном родом из Хорезма Мухаммед аль – Харезми. В период правления Мамуна возглавлял Бейт аль- хикма.

Он сделал для аль- Мамуна свод нескольких индийских астрономических таблиц, известных под названием “Синд- Хинд”. Аль- Харезми также принадлежит описание обитаемой части мира, основанное на “Географии” Птолемея⁴⁶. Его главный труд “Китаб аль- мухтасар фи хисб аль- джабр валь- мукабала” заложил основы алгебры как самостоятельной науки, от его имени образовалось слово “алгоритм”. В XII вке после перевода его трудов на латынь в Европе ускорился процесс перехода на десятичную систему цифр. Это были индийские цифры известные теперь как арабские. До этого в Европе пользовались громоздкими римскими цифрами. Первым европейцем который познакомился с новой системой счисления считается папа римский Сильвестр III.

Мусульманский мир за период золотого века ислама подарил миру множество ученых как арабских так и других национальностей. Расцвет науки который мы вкратце рассмотрели обязан своему возникновению на мой взгляд нескольким факторам:

– Толерантности которая царил в халифате. Христиане и иудеи считались людьми писания, даже в период исламизации многих регионов представителям этих религий давался статус “ахл аз- зимми” т.е покровительствуемых при условии уплаты определенных податей.

– Многие провинции халифата такие как Ирак, Иран, Египет, часть Индии еще до прихода арабов славились как центры цивилизаций древности. Активный перевод учеными трудов греческих мыслителей. Получать знания, постигать этот мир- 1 из обязанностей помимо 5 основных обязанностей в исламе.

– Свободное перемещение людских ресурсов по территории Халифата несмотря на упадок и образование независимых государств уже в IX веке. Халифат распался, но при этом сохранялось общее пространство ислама.

⁴⁵ Фильштинский И. История арабов и халифата (750-1517) – М.: 2006. -С. 306.

⁴⁶ Уотт М. Влияние ислама на средневековую Европу. – Берлин.: 1999. –С.59.

РОЛЬ ЖЕНЩИНЫ В ИСЛАМЕ

Известно, что Коран делает серьёзный акцент на человеческое достоинство, права и свободы, выступает против любой формы дискриминации на основе расового, национального происхождения или рода. Религия, разработанная на его основе, оказала, глубокое влияние на историю развития государства и права целого ряда стран. В особенности в области прав и свобод человека, статуса женщин в обществе.

По данным отдела ООН по народонаселению, 49,7% мирового населения – женщины, и как мы все знаем одним из важных вопросов, обсуждавших в течение последних десятилетий в юридических, социальных и политических кругах, является защита прав женщин и конечно же положение женщин в исламе.⁴⁷ Равноправие – это важнейшая основа любого демократического общества, которое стремится к социальной справедливости и уважению прав человека. Тем не менее, приходится констатировать, что практически повсеместно женщины в той или иной степени подвергаются дискриминации в семье, в обществе и на рабочем месте. Хотя причины и последствия этого могут быть различными в разных странах, неравноправие женщин является широко распространенным явлением. Сохранению этого явления способствует наличие устоявшихся стереотипов, а также традиционных культурных и религиозных обычаев и представлений, принижающих роль женщин.

В конце XIX – начале XX вв. в ряде стран мусульманского мира развернулся процесс реформирования традиционной исламской жизни. Влияние Запада, экономическая отсталость восточных стран, рост общественно-политических движений породил изменения в самых консервативных и теологических кругах традиционного исламского общества.

«Женский» вопрос стал одним из центральных для исламского политического движения. Мусульманки все больше вовлекаются в общественно-политическую жизнь, что требует определенного комплекса в мусульманском обществе.

Родился даже термин «исламский феминизм», который во многих случаях выражает требования соблюдения и обеспечения прав женщин в соответствии с нормами ислама, что даёт женщинам возможность защищать и расширять свои права в патриархальном обществе, противопоставляя шариат и этнические обычаи, зачастую уходящие корнями в пережитки доисламского периода. Поэтому не случайно, что за последнее время появилась масса фетв¹, не говоря уже о текстах мыслителей, расширяющих прежнее представление о правах женщины с точки зрения ислама.

⁴⁷ Гюлен М.Ф. Разбитый Кувшин. 2014. –С.10.

Роль женщины в исламе велика. Женщина - это и мать, и сестра, и дочь, и жена. Однако так было не всегда. До появления ислама в начале VII-в арабы жили в традиционном патриархальном обществе, в котором доминировали мужчины. Притеснение и ущемление прав кого-либо из них является строго наказуемым. Обычай заживо закапывать новорожденных девочек впервые завели вожди племени Бану Аса'ад, и впоследствии этот обычай переняла высшая знать других племен. Такой порядок вещей требовал освобождения женщин и уравнивания их в правах с мужчинами.⁴⁸

Эта задача была воистину трудной и требовала большого терпения и упорства. Для арабов она была тождественна революции в сознании. Но их уверенность, что женщина-существо неодушевленное, было опровергнуто именно Кораном: «О люди, бойтесь Владыки своего, Который создал вас из единой души, и из нее создал супруга ей, и от них двоих распространил множество мужчин и женщин; и бойтесь Аллаха, во имя Коего вы взываете друг к другу, и в отношении родственных уз. Истинно, Аллах наблюдает за Вами» (4:2), а так же Пророк сказал: *«Когда на свет появляется девочка, Всевышний Аллах посылает туда ангелов, а они приветствуют: "Мир вам обитатели этого дома!" Затем ангелы покрывают родившуюся девочку своими крыльями, поглаживают головку и говорят: "Как она слаба и беспомощна, и вышла из слабого тела. Если отец будет растить её, то до Судного Дня ему будет помощь от Аллаха"»* (ат-Табарани)⁴⁹.

Женщины в Священном Коране затрагиваются в рамках около двухсот аятов и рассматриваются в трех областях: индивидуальной, семейной и общественной жизни.

В период, когда никакая иная система не предоставляла женщине прав в социальной и правовой сфере в таком объеме, в обществе, где рождение девочки расценивалось как проклятие, где сама женщина считалась движимым имуществом, ислам стал рассматривать женщину как личность. В исламской общине женщине стали предоставляться права, которые в другие сообществах уступали неохотно и только под давлением.

Абсолютный переворот должен был совершиться в их отношении к женщинам.

От женщин во многом зависит то, какой будет религиозность и воспитанность следующих поколений. На них возложена великая функция сохранения спокойствия, умиротворенности, религиозности домашнего очага, воспитанность и богобоязненность подрастающего поколения. Однако не следует делать выводы, что роль женщины ограничивается ее домом, семьей и домашним хозяйством. Хотя женщины в семье также обладают особыми правами и пользуются особым почетом в соответствии с их высоким положением и величием. Поэтому они могут требовать со своих мужей плату за работу, совершаемую в доме⁵⁰. Это - естественная стихия

⁴⁸ <http://www.shianet.ru>, Образ женщины под сенью Ислама // 11.12.2008.

⁴⁹ <http://www.Koran.ni/>

⁵⁰ <http://www.shianet.ru>, Образ женщины под сенью Ислама // 11.12.2008.

приложения ее врожденных способностей и проявления женской природы⁵¹ Женщины играют особо важную роль в исламском обществе. Ислам возвышает женщину до такой степени, чтобы она смогла найти свое достойное место в обществе, и на нее перестали смотреть, как на вещь. В таком случае женщина может взять на себя определенного рода обязанности в различных социальных сферах, поскольку ислам обуславливает здоровье общества выполнением обязанностей мужчиной и женщиной и призывает их к борьбе с пороками и несовершенствами.

Ислам и мусульманское право оказали глубокое влияние на историю развития государства и права целого ряда стран, в особенности на положение прав и свобод человека, на статус женщины в обществе. Сфера их действия в наше время также остается весьма широкой, что во многом определяется тесной связью ислама и права как религиозной системы, которая до сих пор имеет едва ли не определяющее значение для мировоззрения самых широких слоев населения в мусульманских странах.

В исламе женщинам гарантируются четыре фундаментальных права: право в области норм, связанных с отпращиванием требований религии, право на приобретение, право на недвижимость и право на гарантию личного достоинства.

Коран подчеркивает фундаментальное равенство мужчин и женщин в таких жизненно важных для мусульман вопросах, как образование и религиозные обязанности. Вместе с тем проблематика равенства по признаку пола находится на ином уровне и в иной сфере гарантий прав и обязанностей. Здесь существует совершенно иная философия, иное разграничение прав и обязанностей между ними, которое вместе с тем не дает права говорить об их фактическом неравенстве.

В различных главах Корана подтверждаются и раскрываются женские права, имеющие отношение к браку, разводу, собственности, наследованию, воспитанию детей, свидетельствованию в суде.

В историческом контексте коранические нормы имели и имеют положительное воздействие на права женщины.

Исламская религия рассматривает женщину как полноценное существо и представляет ее элементом человеческого общества, придавая ей ценность и значимость, которые человек в принципе может получить в обществе⁵².

Поэтому лидер исламской революции Ирана аятолла Хомейни подчеркивает, что в вопросе женщин мир является должником ислама⁵³.

В исламском учении женщина, подобно мужчине, получает долю из богатства и имущества, оставленных в наследство ее отцом, матерью, братом, сестрой и мужем. Женщина обладает правом на определенную часть наследства своего мужа.

⁵¹ Изречения. Афоризмы и наставления имама Хомейни. - Тегеран: Изд-во произведений имама Хомейни, международный отдел. 1995. -С.240.

⁵² Encyclopedia of Women and Islamic Cultures. – Leiden: Brill, Vol 1-4, 2003—2007.

⁵³ Изречения. Афоризмы и наставления имама Хомейни. – Тегеран: Изд-во произведений имама Хомейни, международный отдел. 1995. -С.240.

Женщина может вести социальную и экономическую деятельность и накапливать доходы. Кроме того, она может задействовать унаследованный капитал в семейном финансовом цикле». Однако мужчина при этом должен обеспечивать ее средствами для жизни соразмерно ее потребностям в плане жилья, одежды, еды и прочих жизненных нужд.

Действия женщины в исламе обладают ценностью и общественным уважением. Женщина может потребовать выполнения своих законных прав или же обратиться непосредственно в соответствующие компетентные инстанции. В случае нарушения прав женщины она может подавать иски в судебные инстанции или же давать показания в суде.

Во всех перечисленных случаях мужчина не имеет права навязывать женщине свое мнение.

Фактически, ислам заставляет женщину искать знания; Пророк (да благословит его Аллах и приветствует) говорит, что «поиск знаний является обязанностью каждого мусульманина», где «каждый мусульманин» явно включает мужчин и женщин на равных основаниях, как правило, формализовано всеми авторитетами юриспруденции.

Ислам всегда ценил женственность женщины и считал, что она играет роль, неотъемлемую от роли мужчины, и аналогичным образом считал, что мужчина играет роль, неотъемлемую от роли женщины. Ни один не является врагом, противником или конкурентом другому. Право женщины на получение образования или обучения является основополагающим и также гарантируется исламским учением. Различие (если это когда-либо можно назвать одним) между мужчиной и женщиной не является следствием какого-либо предпочтения Аллаха, Всемогущего, мужчины или женщины, из-за того, что они благороднее или ближе к Господу.⁵⁴

Как правило, именно благочестие и только благочестие является мерой господства, благородства и близости к Аллаху: «Воистину, самая большая честь из вас в глазах Аллаха - это тот (верующий), кто имеет Ат-Таква". Итак, делая вывод мы можем сказать что, положение женщин в Исламском мире до ниспослания Корана было весьма плачевным.⁵⁵

Нельзя сказать, что с появлением ислама, все это полностью прекратилось. Но, с большой уверенностью можно утверждать, что именно Коран сделал многое для женщин того времени. Ислам впервые объявил, что женщина является таким же полноценным человеком, как и мужчина. Данный смысл вновь и вновь излагается во многих аятах Корана. Поскольку, мужчина и женщина равны именно в человечности, в качестве человека.

В теоретическом плане ислам предоставлял женщине большие права и свободы, но применение их на практике не всегда соответствовало вышеизложенным положениям. Нормы, установленные шариатом на основе Корана неизменны. Поэтому уже на протяжении XV веков мусульманские

⁵⁴ <http://www.Koran.ni/>

⁵⁵ Ат-Таква – Благочестивые и праведные люди, которые сильно боятся Аллаха, воздерживаются от всех видов грехов и злодеяний, которые Он запретил, и сильно любят Аллаха. Совершат все виды добрых дел, которые Он предопределил.

женщины живут по одним и тем же правилам, которые соответствовали одной и, в некоторых случаях, не соответствуют другой эпохе. С другой стороны, нормы ислама, в том числе касающиеся женщин, трансформировались у разных народов, принявших ислам. Они смешались с некоторыми доисламскими традициями этих народов, переплелись с их культурными и национальными ценностями, что привело к тому, что ислам у разных народов не всегда идентичен.

*Maxamadaliyeva N. –
NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakultet talabasi*

XIVA XONLIGINING ROSSIYA VA HINDISTON BILAN SAVDO ALOQALARI TARIXI (XVI – XVII ASRLAR MISOLIDA)

Xiva xonligi XVI asrdan Rossiya romanovlari Hindiston boburiylari, Eron safaviylari va Buxoro xonligi bilan savdo aloqalari uzliksiz ravishda olib borilgan. Bu borada esa Xiva xonligining uzoq Rus davlati va Hindiston bilan olib borgan savdo aloqalari ahamiyatiga molikdir.

Rus davlati 1480-yildan amalda mustaqillikni qo‘lga kiritgach, asta sekinlik bilan o‘z yerlarini janub va junubi sharqqa tomon kengaytirib bordi. Ayniqsa Ivan Grozniy davrida Rus davlati hududi bir necha barobarga kengayib, janubda O‘rta Osiyo xonliklari amalda chegaradosh bo‘lib qoldi. Aynan shu davrdan boshlab, Rus davlati va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasida faol savdo aloqalari o‘rnatilgan. Jumladan, 1585-yil 11-noyabrda xivalik elchi Xo‘ja Muhammadning Rossiya podshosi Fedor Ivanovichga keltirgan tortiqlari orasida tillo zari yuritilgan har xil ranglar bilan jilo berilgan, qimmatboho mashhad kamoni ham bo‘lgan⁵⁶. A.Chuloshnikov XVI asr o‘rtalarida Moskva davlatining O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yoritish jarayonida rus hukumatining Hindistonni bilishga intilishini ham e‘tibordan chetda qoldirmagan.

XVI asr ikkinchi yarmidan Rossiya bilan Hindiston o‘rtasida bevosita iqtisodiy munosabatlar yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa ham, hind tovarlari O‘rta Osiyolik savdogarlar orqali Rus yerlariga kirib kelgan. A.Chuloshnikov O‘rta Osiyo bilan Rossiya o‘rtasida savdo aloqalarining quyidagi usullari mavjud bo‘lganligini e‘tirof qiladi. Birinchidan, shox va xonlar o‘rtasidagi savdo bo‘lib, ular ishonchli vakillar – shaxslar va savdogarlar orqali amalga oshirilgan. Ikkinchidan, xususiy savdogarlarning erkin tovar ayirboshlashi, va nihoyat, uchinchidan, hadya tariqasida xon va elchilarning nodir buyumlarni ayirboshlashi shular jumlasidandir.

XVII asrda ham Xiva xonligi bilan Rossiya o‘rtasida elchilik va savdo aloqalari davom etgan. 1641-yil noyabrda Xiva elchisi Muhammad Amin Bahodir tomonidan 100 o‘ram maxsus hind gazlamasi olib kelinganligi, elchining o‘zida boshqa tovarlar qatorida 100 bo‘lak hind chiti, to‘rt idishda nil bo‘yog‘i bo‘lganligi

⁵⁶ Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии XVI–XVIII вв. В кн.: Материалипо истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. Л-1932. –С. 68

ma'lum⁵⁷. 1646-yil 1-sentyabrda xivalik elchi Nazar Nodirqulov Astrobodda yo'lda kelayotgan vaqtida o'g'irlangan tovarlari qatorida 6 ta hind dokasi, 5 ta hind tillo izufrey, 9 ta hind viboykasi, qo'y terisidan ishlangan 10 ta hind bosh kiyimi bo'lgan. 1645-yilda Xiva xoni Abulg'ozixon hind podshosiga xat yozib, unda ilgari Xiva xonlari hind podsholari bilan tinchlikda yashashgan endilikda ham ikki mamlakat o'rtasidagi o'sha do'stlik va savdo aloqalarini davom ettirishni taklif qilgan.

Urganch xoni Hindiston podshosi bilan do'stlik aloqalari o'rnatgan bo'lib, savdogarlar o'z faoliyatini uzliksiz davom ettirgan, deb 1646 -yil 7-noyabrda Astraxanga borgan Xiva elchisi Shayxbobo ma'lumot bergan. Ayni davr ma'lumotlariga tayangan holda XVI-XVII asrlarda Xiva bilan Hindiston o'rtasida do'stona siyosiy va iqtisodiy savdo munosabatlari o'rnatilgan, deyish mumkin.

1667-yil 19-dekabrda Xiva elchisi Po'latmuhammad mahkamada Xiva xoni Hindiston shoxi bilan do'stona munosabatda bo'lgan va savdogarlar har ikki tomonga borib erkin savdo qilganlar. Urganchdan Hindistonga quruqlik yo'li bilan bir yarim oyda borganlar. Xivalik savdogarlar tovarlarining asosini doka, qalampir, murch, dolchin, buyoq va boshqa tovarlar tashkil qilgan⁵⁸. Rus elchisi Ivan Fedotov 1669 yil 13-iyunda Xiva xoni Anusha xon huzurida bo'lgan va Rossiyaga qaytib kelgach, o'z axborotida buxoroliklar va xivaliklar bir-birlari bilan o'zaro savdo qilishi, bozorlarda uchratgan tovarlari, ularning narx-navosi haqida ma'lum qilgan. U urganchlik savdogarlar Buxorodan viboyka, ip-gazlama va rang-barang ipak matolari keltirishini, lekin, buxorolik savdogarlarning Xiva va Urganchga kam kelishini o'z ma'lumotlarida qoldirgan.

Shu bilan birga I.Fedotov hindlar va balxliklar Xivaga kelishmaydi hamda Xivada hind omborlari ham yo'q, deb xabar beradi. Qizig'i shundaki, elchi Xiva bozorlarida sotilayotgan tovarlar narxini Astraxanda sotilish narxi bilan taqqoslab, bu tovarlarni Rossiyada sotishdan foyda chiqmaydi, deb hisoblagan⁵⁹.

I. Fedotov ko'rsatmalaridagi hindlar va balxliklarning Xiva bilan savdo qilishmasligi haqidagi xabari 1667-yildagi Xiva elchisi Po'lat Muhammadning bergan ma'lumotlariga zid keladi. Aftidan, I. Fedotov Sharq davlatlarida savdoning o'ziga xos tamonlaridan bexabar bo'lgan. Ko'p hollarda O'rta Osiyo xonlari bilan Hindiston shoxlari o'rtasidagi savdo A.Chuloshnikov eslatib o'tgan savdo usullari orqali amalga oshirilgan.

Mahmud ibn Vali "Bahr-ul asror" asarida Balx viloyati, uning jug'rofik o'rni, odamlari, poliz va sabzavot ekinlari, u erda etishtiriladigan va chetdan olib kelinadigan mahsulotlar haqida xabar berib, Xorazmdan ko'ktarnay qovuni, Buxorodan qora qovun, mulla payandagi va daroyi qovun, Samarqandning zagare qovuni va gilosi, shimoliy Xitoyning shaftolilari, Xorazmning tut daraxtlari, Marg'ilonning charxi deb atalgan o'riklari, Samarqandning sangak olmasi va

⁵⁷ Чулошников А. Торговля Московского государства с народами Средней Азии XVI–XVIII вв. В кн.: Материалипо истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР. Ч. 1. Л-1932. –С. 198.

⁵⁸ Там же... -С. 202.

⁵⁹ Хаников Я.В. Пояснительная записка к карте Аральскаго Моря и Хивинскаго ханства, с их окрестностями. СПб.,1851. –С. 39-40.

boshqalarning Balxga keltirilganligi va hattoki u yerda yetishtira boshlaganligini ta'kidlaydi⁶⁰.

Demak, Xorazm qovunlari Balxda ham mashhur bo'lgan. Ma'lumki, qovun suvsiz o'smaydi, ko'p sug'orilsa unchalik shirin ham bo'lmaydi. Mahmud ibn Vali o'z asarida Xorazmda sug'ormasdan qovun yetishtirish siri haqida ma'lumot beradi. Uning yozishicha, yantoqning uzun tomiri uzunasiga kesilib, unga qovun urig'i joylashtiriladi, ya'ni ekiladi. Qovun o'sib chiqib, pishgunga qadar yantoq ildizi suvi bilan oziqlanadi. Bunday qovun katta va shirin bo'lgan⁶¹. Bu kabi qovun yetishtirish usuli hozirgi kunda ham Buxoro viloyatining ba'zi cho'l hududlarida saqlanib qolgan. Mahmud ibn Vali Xorazmning rus yerlari bilan savdodan katta foyda olishini ta'kidlab o'tgan edi.

Xulosa shuki, XVI-XVII asrlarda Xiva xonligi doimo Rus va Hind davlati savdogarlari bilan har tomonlama faol savdo aloqalari olib borgan. Bu savdo aloqalari natijasida nafaqat savdo aylanmasi balki madaniyatlarning almashishiva urf-odatlarining uyg'unlashishini kuzatishimiz mumkin.

*Nasrilloev K., Ergasheva Ch. –
O'zMU Tarix fakulteti talabalari*

LUIS BRAILLENING KASHFIYOTLARI IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN ILMIIY FAOLIYATGA YO'L

Bu dunyoda odamzot yaratilibdiki u doimo bu olamni anglashga harakat qilib kelgan. Bu insonlar orasida esa imkoniyati cheklanganlar ham mavjud. Tadqiqotlarning katta qismi shuni tasdiqlaydiki, ular doim ta'lim olishga, barcha insonlar singari hayot kechirishga va o'z sevgan kasblari bilan shug'ullanishga intilishgan. Bir so'z bilan aytganda, ularning orasida juda iqtidorlilari talaygina. Albatta ular ayrim o'rinlarda to'siqlarga duch kelishlari mumkun. Ammo ular nazdida bu qiyinchiliklar hech narsa emas. Bu yo'ldan hech qachon orqaga qaytishni hayoliga keltirishmaydi. Imkoniyati cheklangan insonlarning ta'lim olishini tasavvur qila olmaydigan insonlar ham mavjud. Ularning ta'lim olishida muammoli jihatlari mavjud va bu jarayon qiyindek tuyiladi. Mazkur maqolada ko'zi ojizlarning hozirgi kunda ta'lim olishida, savodli bo'lishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan Braille alifbosi ixtirochisi Louis Braille hayoti va faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Fransuz tiflo-pedagogi Luis Braille 1809-yil 4-yanvarda Fransiyaning Kuvre shaharchasida dunyoga keldi U go'dakligida juda nimjon bo'lib, hatto yig'laganida ovozi ham chiqmas edi. Chaqaloqning yashab ketishiga ko'zi yetmagan ota-ona uni 5-yanvarda cherkovga olib borib cho'qintiradilar. Luis to'rt kunlik bo'lganida otasi uni ikkinchi marta cho'qintiradi. Chunki o'sha davr odatlariga ko'ra, cho'qintirilmagan odam mabodo o'lib qolsa, jannatga kirmaydi, degan aqida

⁶⁰ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. –Т.: 1977. –С. 24-25.

⁶¹ Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Б.А.Ахмедова. Т.: 1977. –С. 44.

mavjud edi. Biroq u tez kunda kuchga to'lib, sog'lom va baquvvat bo'lib o'sa boshlaydi. Luining ikkita akasi va ikkita opasi bo'lgan. U 1812-yilning o'rtalarida, ya'ni uch yoshida o'z ko'zini o'ymakorlik pichog'i bilan yaralagan, shu tufayli ko'zlarning simpatik yallig'lanishi rivojlanib, u ko'rish qobiliyatini yo'qotdi. Keyinchalik otasi Simon Rene Braille o'g'lini savodxon qilish imkoniyatlarini qidira boshlaydi. U bo'rtma harflar o'yib yozilgan taxtachalar yasattiradi va ular yordamida o'g'liga harflar, raqamlarni o'rgatadi. Uzoq urinishlardan so'ng Lui harflardan so'zlar, so'zlardan jumlar va gaplar tuza oladigan darajaga yetadi. Otasi unga qushlarning sayrashi, gullarning ifori, hayvonlarning ovozi va hattoki xudo haqida ham ma'lumot bergan. Lui tug'ilgan Kuvre qishlog'i ruhoniysi otaxon Pillion uni o'z homiyligiga olib, oddiy maktabga joylab qo'yadi. Maktabda bo'rtma kitoblar yo'qligi tufayli Lui o'qish va yozishda ancha orqada qoladi.

1818-yilning oktabr oyi oxirlarida Parijda qayta ochilgan ko'zi ojizlar maktabining rahbari Gelsi Luisning otasiga xat yozib, o'g'lini ushbu maktabga yuborishni iltimos qiladi. Uzoq ikkilanishlardan so'ng 1819-yilning 4-yanvarida Simon Rene Gelsiga javob xati yo'llab, o'g'lini maktabga yuborishga rozi bo'ladi. Oradan bir oy o'tgach, Lui Parij shahrining Rusten Viktor ko'chasida joylashgan ko'zi ojizlar internat-maktabida o'z taqdiridoshlari bilan o'qiy boshlaydi. Bu yerda bolalar bo'rtma yozuvli kitoblar yordamida lotin, yunon, ispan, italyan tillaridan, algebra va adabiyot fanlaridan tahsil olishardi. Kitoblar juda og'ir, foydalanish uchun noqulay edi. Har bir kitobning og'irligi to'qqiz kilogramm bo'lib, ba'zi fanlardan yigirmatagacha ana shunday og'irlikdagi darsliklar mavjud edi.

Luis pianino va skripka darslariga alohida qiziqish bilan qatnar, musiqaga bo'lgan mehr keyinchalik uning ko'zi ojizlar uchun nota yozuvi yaratishiga asos bo'ldi. Luis o'qish jarayonida o'ta iqtidorli, tirishqoq, izlanuvchan talaba sifatida barchaning nazariga tushib, maktabda joriy qilingan qator mukofotlarni qo'lga kiritadi.

1820-yillarda Luisning hayotida unutilmas bir voqea yuz beradi. U eng yaqin do'stlaridan biri Gatte bilan birgalikda Valentin Gayui tomonidan bir vaqtlar bo'rtma yozuvda yozilgan kuylar to'plamini topadi va o'zining bor ijodiy kuchini undagi asarlarni o'rganishga sarflaydi. Luisning barmoqlari harflar ustida harakatlanar ekan, mavjud yozuvning qandaydir kamchiliklari borligini sezadi. U ta'til kunlarida ham bigiz bilan qog'ozda tinimsiz tajribalar o'tkazardi. Ana shunday tajribalarning birida u o'zi uchun "Tegish boshqa, sezish boshqa" degan yangi g'oyani kashf etadi. U inson barmoqlari bilan tegadi, miyasi bilan sezadi. Demak, ko'zi ojizlarning ko'zi bu ularning miyasi, degan xulosaga keladi. Bu g'oya Braille yozuvining yaratilishiga mustahkam asos, umuman, Luisning hayotida eng nurlu cho'qqi, olamshumul burilish bo'ldi, deyish mumkin. U yosh bo'lishiga qaramasdan ko'p izlandi, dastlab to'rt, so'ngra olti nuqtali yozuv tizimini yaratdi. Olti nuqtali yozuv ko'zi ojizlarga o'z fikrlarini oddiy yoki ilmiy tarzda jahonning ko'plab tillarda bemalol bayon qilish imkonini berdi. Keyinchalik bu yozuv lotin yozuvi, Morze alifbosi kabi ixtirolar qatoriga kiritildi.

1824-yilda 15 yoshida bo'rtma nuqtali Braille yozuvni ixtiro qiladi. 1829-yilda bu yozuvning xomaki namunasi institut ilmiy kengashiga taklif etadi. Lekin bu yozuvni juda noqulayligi sababli qabul qilinmadi. 1834-yilda qirol oldida

namoyish etiladi hamda 1837-yilda ko‘zi ojizlar bu yozuvni tadbiq qilishni iltimos qilishadi.

1828-yilda Luis o‘zi o‘qigan maktab-internatga o‘qituvchilikka qabul qilinadi. Shu bilan birga, bo‘rtma harflardagi musiqiy yozuv – nota ustida ham ko‘p izlanadi. Nihoyat, yigirma yoshida oktava tartibotidagi musiqiy tovushlarni tizimlashtirib, ilk bor ko‘zi ojizlar uchun nota yozuvini kashf etish sharafiga muvassar bo‘ladi. O‘sha yili Luis do‘sti Gatte bilan yaratgan maxsus moslama va o‘z yozuvidagi afzalliklarni ifodalovchi “Ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun nutq, oddiy qo‘shiqlar, musiqani yozish metodikasi” deb nomlangan ilk kitobchasini maktab jamoasiga taqdim qiladi. Kitobcha maktab rahbari doktor Pine tomonidan chop ettirilib, 1832-yilda Fransiya ilmiy jamoatchiligi e‘tiboriga havola etiladi.

1830-yillarga kelib dunyoning bir qancha mamlakatlarida ko‘zi ojizlar maktablari ochiladi. Shu bois 1833-yilda Fransiya hukumati ko‘zi ojizlarga o‘qituvchilik lavozimi berilishi mumkinligi haqida o‘z qarorini chiqaradi. Bu, shubhasiz, Valentin Gayui, Gelsi, doktor Pine, Sharl Barbe, Luis Braille kabi fidoyilar mehnatining natijasi edi. 1830-yillarda Parij amaldorlari orasida “Ko‘zi sog‘lar uchun yaxshi bo‘lgan barcha narsa ko‘zi ojizlar uchun ham yaxshidir”, degan g‘oya ustuvor edi. Ehtimol, mana shu go‘zal g‘oyaning ta‘sirida bo‘lsa kerak, 1837-yilda ilk bor Brayl yozuvida “Fransiyaning qisqacha tarixi” kitobi nashr etiladi. Bu kitobning nashrdan chiqishida Braille rahbarlik qildi U uch jilddan iborat bo‘lib, har birining og‘irligi o‘n kilogramm edi. Lui izlanishlarini izchillik bilan davom ettirib, 1830-yillarning oxiri, 1840-yillarning boshida braylcha chop etish moslamasini yaratadi va uni refografiya deb ataydi.

1841-yilga kelib Luisning sog‘lig‘i yomonlashadi. Luis betobligi sababli dars o‘tish jarayonida juda ham past ovozda gapirardi. U ancha vaqtdan beri sil kasalligidan aziyat chekar edi. Shunga qaramay, u ixtirochilik faoliyatini davom ettirib, qismatdoshi Perfe Kole yordamida ko‘zi ojizlar uchun yozuv mashinkasini kashf qiladi. Unda o‘n ikkita tugmacha bo‘lib, ular yordamida har qanday matnni Braylcha yozuvda yozish mumkin edi. Qizig‘i shundaki, Luis Braille yaratgan olti nuqtali yozuv o‘zining barcha qulayliklariga qaramasdan, 1847-yilga kelibgina ko‘zi ojizlar maktablarida to‘liq joriy etiladi. Ayni o‘sha yili Luis Fukot ismli do‘stining yordamida “Kibort” nomli yangi mashinkasini ixtiro qiladi.

Katta qalb egasi, buyuk ixtirochi Luis Braille 1852-yilning 6-yanvarida vafot etgan bo‘lsa-da, o‘zining bir necha ajoyib kashfiyotlari tufayli hamon yashab kelmoqda. Dunyodagi millionlab ko‘zi ojizlar Luis Braille yozuvi orqali hayotni teran idrok etish, ilm-fanning ko‘plab yo‘nalishlarida izlanishlar olib borish imkoniga egadirlar. Demakki, ular sog‘lom kishilar bilan bir safda turib jamiyat rivojiga o‘z ulushlarini qo‘sha oladilar. Muhimi, Braille yozuvi ko‘zi ojizlar uchun oltin kalit bo‘lib, ular ma‘rifat darvozalarini u bilan ochadilar va tengsiz durdonalardan bahramand bo‘ladilar. 1854-yil Braillening kashfiyoti Fransiya bo‘ylab keng tarqaldi. 1878-yilda Rim Kongressida Braillening kashfiyoti tan olindi va u keng qo‘llanila boshlandi. Vafotidan so‘ng u istiqomat qilgan uy hozirgacha saqlab qolingan va muzey sifatida foydalanilmoqda. 1952-yilda uning qabri Panteonga ko‘chiriladi. Shuni qayd etish lozimki Braille alifbosi shaklidagi kitoblar yetarlicha nashr etilmagan, yana bir fakt shuki dunyoda Braille yozuvidagi

eng ko‘p kitoblar Londonda qirollik instituti tomonidan nashr qilinadi. 2009-yilda Luis Braille tavalludining 200 yilligi munosabati bilan uning sharafiga tangalar zarb qilinadi.

Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar uchun 13-noyabr “Butunjahon ko‘zi ojizlar kuni” deb e‘lon qilindi va Braille ismi butun dunyoga tarqaldi. Louis Braille bu yozuvni tadbiq qilishda juda kata to‘siqlarga duch kelgan. Har qanday yangilik ham dastlab yaxshi qabul qilinmaydi. Bu yozuv ham o‘z davri uchun yangilik bo‘lgan va bu yozuvni ko‘p insonlar tushunmagan. Biroq hozirgi kunda o‘z ahamiyatiga ega.. Louis Braille bu yozuvni bu qadar ommalashib butun dunyo ko‘zi ojizlari foydalanishini tasavvur qilmagan. Biroq nima bo‘lganda ham bu ko‘zi ojizlar uchun juda muhimdir. Sababi ular bu yozuv orqali butun olamni tasavvur qilishadi. Hattoki XXI asr axborot-texnologiyalar davrida ham mazkur yozuv o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi.

*Ne‘matov O., Meliyev O‘. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabalari*

SO‘FI OLLOYOR – YIRIK DINSHUNOS ALLOMA

Vatanimiz O‘zbekiston hududida qadimdan butun dunyoga mashhur bo‘lgan olim-u fuzalolar, avliyolar yetishib chiqqan. Ana shunday buyuk mo‘tabar zotlardan biri So‘fi Olloyordir.

So‘fi Olloyor Markaziy Osiyo Naqshbandiya⁶² tariqatining yirik namoyondasi, tarixiy tasavvuf adabiyotining mashhur vakillaridan biri, mutasavvuf shoir, adib, yirik dinshunos alloma va davlat arbobi sifatida Turkiston xalqlari o‘rtasida yuksak hurmat e‘tibor qozongan siymodir. Uning o‘ziga xos boy ma‘naviy merosini chang g‘uborlardan tozalab, xolis o‘rganish va baholashga mustaqillik yillarida kirishildi. So‘nggi yillarda mutafakkir shoir ijodining turli jihatlarini adabiyotshunos olimlardan akademik B.Valixojayev, I.Haqqulov, R.Sayfiddinov, Zohid Rashid, Nilufar Olloyorova hamda Nodira Baratovalar tomonidan o‘rganilgan.

So‘fi Olloyor o‘zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an‘analarini davom ettirib, o‘ziga xos adabiy maktab yaratgan iste‘dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir. U 1644-yili Kattaqo‘rg‘on bekligiga qarashli Minglar qishlog‘ida xitoy-qipchoq qabilasining o‘tarchi urug‘idan bo‘lgan Temiriyor xonadonida tavallud topgan⁶³.

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahrida azal-azaldan bir rivoyat yuradi. Emishki, So‘fi Olloyor amaldorlikni tashlab, Payshanba bekligidagi ona qishlog‘iga qaytgach, osuda ibodat bilan mashhur bo‘ladi. Xalqning unga tomon oqib kelayotgani va e‘tiqod qo‘ygani tufayli akasi Payshanba begi Farhod otaliq o‘z hududidagi Zarafshon daryosining Narpay irmog‘iga yaqin so‘lim va bahavo go‘shadan unga ajoyib maskan qurib beradi. Dastlab u xonaqoh va uning yonida ahli ayoliga mo‘ljallangan bir necha hujralardan iborat bo‘lgan. Asta-sekin So‘fi

⁶² XIV asrda Bahouddin Naqshband tomonidan asos solingan tariqat.

⁶³ Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: 2006. –B. 68.

Olloyorning muridlari va ixlosmandlari pir yonida manzil tuta boshlaganliklari oqibatida Farhod ularning go'shalarini yana kengaytirib, devor bilan o'rab beradi. Tez orada go'sha qo'rg'onga aylanib, unga jonli shahar hayoti kirib keladi. Payshanba bekligi Samarqand va Buxoro chegarasida joylashganligi uchun asosan qorovultepa va turli katta-kichik qo'rg'onlardan iborat bo'lgan. So'fi Olloyor maskan tutgan qo'rg'on atrofdagilarga qaraganda kattaroq va markaz rolini o'ynay boshlagani uchun xalq orasida Kattaqo'rg'on nomi bilan mashhur bo'lgan⁶⁴.

So'fi Olloyor shayxlar qishlog'idagi eski an'anaviy maktabni tamomlagandan so'ng 12 yoshlarida Buxoroga madrasa tahsilini olish uchun borgan. Ulug' zotning otasi Olloquli o'z davrining ilmda peshqadam, solih va taqvodor odamlaridan biri bo'lib, farzandlarining islomiy ilm olishiga alohida e'tibor bergan. So'fi Olloyorning Farhod otaliq va Ollonazarbiy ismli akalari ham bo'lgan. So'fi Olloyorning hayoti oson kechgan emas. U hayotning ko'plab qiyinchiliklariga, taqdirning son-sanoqsiz sinovlariga duch keladi. To'ng'ich o'g'lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan bo'lishiga qaramay qatl etilishi ana shunday og'ir sinovlardan edi.

So'fi Olloyor tahsil yillaridan so'ng oz muddat Abdulazizxon saroyining boj yig'uvchilari qatorida davlat xizmatida bo'lgan. Darveshona fe'l, shoirona ko'ngil sohibi bo'lgan So'fi Olloyor bu lavozimdan tezda iste'fo berib, o'z davrining mashhur shayxi Navro'z eshonga shogird tushib, Buxoroi sharifning eng nufuzli shayxlari tahsili va ta'sirida bo'lgan. Natijada, o'n ikki yil o'tib o'zi ham shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan.

So'fi Olloyor ikki tilda – o'zbek va fors-tojik tillarida asarlar yozgan. Adibdan bizgacha bir necha asarlar meros qolgan. Bular “Maslak ul-muttaqin”, “Sabot ul-ujizin”, “Maxzan ul-muteyin” va “Murod ul-orifin” asarlari bo'lib, islom dini asoslari aqida va tasavvuf ilmi sharhiga bag'ishlangan⁶⁵. Bu asarlarda biz So'fi Olloyorning islom tarixini, Qur'oni Karim, hadis va fiqh ilmlarini chuqur bilgan dinshunos olim hamda ularni badiiy so'z san'ati orqali yuksak mahorat bilan tashviq etishga qodir shoir va adib darajasiga ko'tarilganligiga to'la qanoat hosil qilamiz. Maslak ul-muttaqin So'fi Olloyorning eng yirik asari bo'lib, shoir o'zi qayd etishicha, uni hijriy 1111-yil qurbon oyi juma kuni yozib tugatgan. Asar forsiy tilda bitilgan, hajmi 12000 baytdan ortiqroqdir. “Sabot ul-ujizin” islom dini asoslarini o'rgatuvchi eng muhim fan bo'lgan aqida (aqoid) masalalarining turkiydagi sharhdir. “Sabot ul-ujizin” asari shoir yashagan zamondayoq musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan, maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Matbaa paydo bo'lgach, Qozonda, Bokuda, Toshkentda, Xivada qayta – qayta bosilib chiqqan.

So'fi Olloyor o'z umrining oxirgi yillari Buxoro amiri tomonidan akasi Farhod otaliqning taqib etilishidan xavfsirab, G'uzor bekligiga ketib, Denov muzofotida yashay boshlaydi. Umrining so'nggi kunlarini Katta Vaxshivor qishlog'ida o'tkazadi.

⁶⁴ Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. -T.: 2001. –B. 12-13.

⁶⁵ Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. -T.: 2001. –B. 12-13.

Rivoyatlarda aytilishicha, So‘fi Olloyor kelgunga qadar Katta Vaxshivorda odam yashamagan. Bu yer ilonlar makoni bo‘lgan. Shuning uchun bu joyning nomi Vaxshi Mor (ilonlar makoni) deb ataladi. So‘fi Olloyor esa shu ilonlarni bu yerdan haydash uchun yuborilgan kishi hisoblangan. So‘fi Olloyor xalifalaridan birining qo‘liga duo bitilgan maktubni berib, Vaxshivor darasining yuqori qismida katta xarsang tosh borligini, shu tosh ustidagi ilonlar podshosiga olib borib ko‘rsatishni buyuradi. Xalifa maktubni olib baland ko‘targancha ketaveradi. Odam hidini sezgan katta katta ilonlar unga tashlanmoqchi bo‘lib, darxtilar toshlar orasidan chiqishadi. Biroq uning qo‘lidagi duo bitilgan maktubga ko‘zlari tushishi bilan o‘zlarini orqaga olib xalifaga yo‘l berishadi. U toshlar orasidan yurib yurib bir katta tosh yoniga boradi. Xatni katta tosh ustidagi oq ilonga ko‘rsatadi. Oq ilon-ilonlar podshosi maktubga ko‘zi tushgach bu yerdan ketish haqida farmon kelganini bilib kuchli na‘ra tortadi. Shunda tog‘u toshdagi barcha ilonlar yetib kelib bir yerga jamlanadi va uning orqasidan yo‘lga tushadi. Oq ilon ortidan millionlab mayda katta ilonlar ergashadi va ular darani tark etadilar⁶⁶.

Yuqoridagi rivoyat ham So‘fi Olloyorni buyuk mo‘tabar shaxs bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ushbu ulug‘ zot vafot etgan joy Vaxshivorda unga atab ziyoratgoh tashkil etilgan. Ushbu ziyoratgohda uning hujrasi va o‘zi ekkan tut daraxti mavjud. Mahalliy aholi ushbu tut daraxtini muqaddas hisoblashadi. Tut daraxtining eni olti odam qulochiga tengdir. Mustaqillik yillarida ushbu mo‘tabar zotning asarlarini hayoti mufassal o‘rganishga kirishildi. So‘fi Olloyorni islom ma‘naviyatida tutgan o‘ni yuksak baholanib “Abu Hanifai vaqt ast”- hanafiy mazhabidagi musulmonlarning sardori Imom A‘zam Jiloniy (G‘iloniy) bilan bir qatorga qo‘yiladi. Bu ulug‘ zotning asarlaridagi g‘oyalar hali ham o‘zining ahamiyati va ko‘lamini yo‘qotmagan, aksincha bugungi kun uchun muhim ahamiyatga egadir.

*Раимова А.Ш. –
Студентка 1 курса магистратуры НУУз*

ПОСЛЕДСТВИЯ ТАШКЕНТСКОГО ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЯ

Рано утром в 6 часов 30 минут 26 апреля 1966 года жители Ташкента проснулись от сильнейших толчков. В городе произошло сильное землетрясение, силой 7,5 баллов. Город изменился до неузнаваемости, а старый центр почти исчез с лица земли.

В результате этого стихийного бедствия было повреждено около 35 тысяч зданий и сооружений. Было разрушено 690 предприятий торговли и общественного питания, 84 административных здания, 26 коммунальных предприятий, 181 учебное заведение, 36 культурно-просветительских, 135 медицинских и 225 детских учреждений. Без крова осталось около 300 тысяч человек⁶⁷.

⁶⁶ Мирзаев Р.Сўфи Оллоёрга замон бокажак. –Т.: Фан; 2007. –Б. 41.

⁶⁷ История Узбекской ССР. В 4-х томах. Отв. ред. Р. Х. Аминова и др. Т. 4. Период завершения строительства социализма и переход к коммунизму (1937-1965 гг.). -Т.: Фан; 1968. -С. 521.

Это событие потрясло почти всех жителей бывшего Советского Союза, не оставив никого равнодушным. Через несколько часов после землетрясения в Ташкент прибыли Генеральный секретарь ЦК КПСС Л. И. Брежнев и Председатель Совета Министров СССР А. Н. Косыгин. И после проведения ряда собраний, 7 мая 1966 года Совет Министров СССР принял постановление о мерах помощи пострадавшему городу⁶⁸.

Из Ташкента вывезли 125 тысяч детей в санатории, дома отдыха, пионерские лагеря бывшего СССР от Балтики до Черного моря⁶⁹. В эту пору ташкентцам, также, была предоставлена квота на переезд из Ташкента. И некоторые уезжали, но, к слову сказать, многие возвращались.

Для восстановления столицы Узбекистана сюда были направлены значительные группы строителей из России, Украины, Белоруссии, Прибалтики и других мест⁷⁰. Сюда в огромных количествах привозили технику и стройматериалы. Тысячи людей приезжали строить новый Ташкент. Их задачей было не просто восстановить город, а сделать его ещё более красивым, построить на века. По всему городу висели плакаты: «Ташкент скоро будет самым красивым городом страны».

Необходимо заметить, что приезжим строителям было довольно сложно работать в непривычных условиях. Так как, в основном, строительство велось летом, мешала жара, 40-45 С° в тени. Такую температуру не выдерживал даже кирпич, его приходилось окунать в воду. Время от времени, внезапно, налетали песчаные бури, но, несмотря на всё это стройка шла довольно быстро. Многие строители, даже, приезжая сюда давали зарок, не бриться пока не возродят город. И уже после того как задача была выполнена, могли себе позволить сбрить бороду.

К концу 60-х годов Ташкент кардинально изменился. Вместо невысоких глиняных домов, по всему городу возвышались многоэтажные крепкие строения. Действительно, стоит признать, что только усилиями братских народов можно было в такой короткий срок построить пол Ташкента.

Однако, в этот период, возникали противоречия и недопонимания между местными жителями и приезжими строителями. Это был случай, когда столкнулись две абсолютно разные культуры: Запад и Восток. Многие узбеки, в то время, говорили, что им не нужно никакого дома. Скорее всего, это происходило, потому что люди привыкли к старому Ташкенту и не хотели здесь что-либо менять. Местные жители, просто-напросто, были не готовы к внезапно нахлынувшей западной цивилизации.

После произошедшего землетрясения, в тот год в городе произошло около 700 подземных толчков⁷¹. В мае почти ежедневно повторялись грозные

⁶⁸ Ташкент – город братства: Сборник / Под ред. В. А. Архангельского. -Т.: 1969. -С. 9-10.

⁶⁹ <http://mirznanii.com/v/YsRVqc4qlg0-341527/tashkent-zemletryasenie-v-sssr-pomoshch-uzbekskoy-ssrotsotsial-isticheskikh-respublik-sovetskogo-soyuza>

⁷⁰ Ата-Мизаев О. Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. -Т.: Янги аср авлоди; Изд. 2, доп., 2011. -С. 131.

⁷¹ История Узбекской ССР. В 4-х томах. Отв. ред. Р. Х. Аминова и др. Т. 4. Период завершения строительства социализма и переход к коммунизму (1937-1965 гг.). -Т.: Фан; 1968. -С. 521.

толчки. В городе бушевали пожары. В такое время опасность представляли даже редкие уцелевшие здания. Стены аварийных домов могли стать убийцами людей. Такие дома приходилось убирать и строить заново. Но когда в 1966 году их стали ломать, выходили, не уезжавшие до последнего, люди с детьми и пытались остановить бульдозеры, не ломать их саманные кибитки, дувалы и прочие строения. Впрочем, это не возымело никакого действия. И, впоследствии, все эти дворики, которые были разрушены, вызвали волну гнева.

Можно сказать, что сюда приезжали люди с целью помочь пострадавшим, оставляя свои дела, работу, семью. Они искренне сочувствовали жителям Ташкента. И многие ташкентцы, действительно, вспоминают об этих строителях с теплотой и благодарностью. Да и многие строители, тоже были поражены не так последствиями землетрясения, как добрыми и отзывчивыми людьми.

Стоит, конечно, отметить, что последствия землетрясения в некоторых частях города были более ощутимые, нежели в других. Кое-где дома были полностью разрушены, но в некоторых местах здания почти не пострадали.

Так, актер, кинорежиссёр и продюсер Александр Самойленко вспоминал, что во время землетрясения их дом был полностью разрушен, и они с семьёй жили в палаточном городке. Он рассказал, что в то время они жили практически в эпицентре, в частном доме и его матери пришлось вытаскивать его из-под обломков⁷².

А музыковед Наталья Янов-Яновская вспоминает: «Помню, это было ужасно. У нас в квартире были лепные потолки, и от толчка целые куски падали сверху. Соседи уже нам кричали в окно: «Выходите, выходите!». А испуганный Дима (сын), которому едва исполнилось тогда три года, дрожал от страха у меня на руках и шептал: «Мама, зачем ты все это уронила?...».

Потом получилось нелепо. Весь город был в растерянности. Пока толчки не прекратились, мы жили в палатке у моих родителей на Саперной. Потом все поутихло, и мы вернулись в квартиру на Лермонтова, которую очень любили...»⁷³.

Однако другие утверждают, что никаких руин не было. Где-то трескались стены, в некоторых домах выпадали вместе с окнами, но крупных разрушений не было. Старые дома признавались аварийными и людям выдавались палатки. А руины появлялись, когда стали массово и быстро сносить старые дома для постройки новых многоэтажных домов. Со многими старыми домами вообще ничего во время землетрясения не случилось. Как, например, с домами на Сквере, на Хорезмской, в районе Алайского и парка Тельмана, да и вообще в центре города⁷⁴.

Весьма любопытно, кстати, что эпицентр землетрясения приходился именно на Старый город, где находились самые ветхие застройки Ташкента.

⁷² <https://mover.uz/watch/Ci5ICD8m/?list=canvKd12>

⁷³ Тохтаходжаева М., Абдураззакова Д., Кадырова А. Судьбы и время. Штрихи к прошлому Узбекистана в устных рассказах женщин – свидетелей и современниц событий. М., Изд-во Р. Элинина, 2004. -С. 109.

⁷⁴ <https://mytashkent.uz/2018/12/05/razrusheni-pochti-ne-bylo/>

Как утверждает архитектор Собир Одиллов: «Землетрясение никакого вреда застройкам Ташкента не принесло». Он утверждает, что, наоборот, благодаря землетрясению была ускорена реконструкция Ташкента. Оказывается, к 1966 году был разработан генеральный план города. Был разработан также проект центра⁷⁵.

И, вот к тому времени как была разработана вся необходимая документация, и произошло это землетрясение. И эпицентр землетрясения оказался в центре Старого Ташкента, ветхая застройка которого должна была быть амортизирована и заменена строительством новых зданий. Именно здесь и трясло. И после землетрясения эти 1500 гектаров превратились в грандиозную строительную площадку.

После землетрясения были построены: Ташкентский филиал Центрального музея имени В. И. Ленина (ныне Государственный музей истории Узбекистана), гостиница «Саёхат», Выставочный павильон Союза художников Узбекистана, здание цирка, гостиница «Узбекистан» и многое другое⁷⁶.

Таким образом, ташкентцы, благодаря помощи союзных республик, в это время преодолевали множество трудностей, связанных с прошедшим землетрясением. Большую помощь в ремонте жилищ оказали все промышленные предприятия, учреждения, высшие учебные заведения, города, воинские части, пославшие на стройку свои бригады. В результате этого всенародного хошара практически все семьи из палаточных городков вернулись в отремонтированные квартиры. Уже к осени 1966 года проблема размещения пострадавшего населения и ремонта ряда промышленных объектов и учреждений была решена.

Когда кварталы были только отстроены, все вокруг было голо. Это видно на всех фотографиях того периода. Но благодаря здешнему климату уже через несколько лет деревья практически закрывали построенные дома.

Говоря о Ташкенте, его можно охарактеризовать как объект ценностного интереса людей. Здесь встречаются и общаются более ста различных национальностей. Ташкент – это город Дружбы⁷⁷.

Подводя итоги, можно сказать, что это был один из самых важных этапов в истории нашей страны. Это стихийное бедствие, произошедшее неожиданно, в мирное время, отделило прошлое города от его будущего. Ведь после землетрясения город Ташкент изменился до неузнаваемости. И это, в основном, благодаря сплочённой помощи всех республик бывшего СССР. И несмотря на некоторые противоречия, стоит признать, что современный Ташкент, каким мы его сейчас знаем, таковым является, в большей степени благодаря самоотверженному труду нашего народа и

⁷⁵ https://trackerok.org/tv/408284-konets_veka_tashkent_The_end_of_an_era_Tashkent_mark_vayl_dokumentanyiy_film_DVDRip.html

⁷⁶ Узбекская Советская Социалистическая республика. Энциклопедия в одном томе. Гл. ред. – академик АН УзССР К. А. Зуфаров. -Т.: Главная редакция УзСЭ; 1981. -С. 406.

⁷⁷ Россия и Узбекистан: история и современность.2 вып. Отв. ред. Шулика В. Н. -Т.: 2017. -С. 74.

народов союзных республик. Была поставлена задача – восстановить Ташкент, и благодаря всеобщим усилиям данная задача была выполнена.

*Raximova I. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

AMIR TEMUR DAVRIDA ISLOM DINIGA BO‘LGAN E‘TIBOR

Asrlar davomida din insonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etib, bevosita din insonlarni kamolotga yetkazishga va uni ruhini poklashga xizmat qiladi. Hatto buyuk hukmdorlar ham davlatni tuzishdan oldin Olloh kalomini tilga olib katta ishga bel bog‘lashgan, Xususan, Amir Temur ham o‘z davlati tuzish va boshqarishda islom dinga bo‘lgan e‘tibor juda yuqoriga darajada yuksaltirgan. U olib borgan davlatning ichki va tashqi siyosatida islom din arkonlariga qat‘iy rioya qilingan. Bu haqda o‘z tuzuklarining birida “Saltanatim qonun-qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi hazrati Muhammadning shariatiga bog‘lab, izzatu hurmatlash vojib bo‘lgan onhazratlarining avlodi va saxobaliga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim”⁷⁸ – deya ta'kidlab o‘tgan. Bundan ko‘rinadigi buyuk sohibqiron o‘z ishini boshlashdan oldin, Qur‘on Karim va shariat qoidalariga e‘tibor qaratgan.

Amir Temur inson e'tiqodsiz yashay olmasligini yaxshi tushungan. U dinni yuksak kamolot yo‘liga yetaklovchi kuch, insonni ma'naviy jihatdan komillik darajasiga olib chiquvchi vosita deb bilgan. Shu bois imon-e'tiqod, ma'naviy poklik, halollik tushunchalarini juda qadrlagan.

Amir Temur yoshlik chog‘laridanoq Qur'oni Karimni yod bilgan. Manbalarga keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda bunga uning otasi Tarag‘ay Bahodir sababchi bo‘lib, u kishi islomda taqvodor, din peshvolari va darveshlarga, ayniqsa taniqli shayx Shamsiddin Kulolga nisbatan nihoyatda hurmat ko‘rsatgan. Amir Temur yoshligida bilimlarini shayx Shamsiddin Kuloldan olib, yetti yoshida Qur‘on Karimni kitobi yod oladi. U har bir surani avvalidan oxirigacha bexato o‘qiganidek, oxiridan avvaligacha ham, ya‘ni teskarisiga ham bexato o‘qiy olgan. Amir Temur faqat Qur‘on Karimni yod olmay, balkim uni ma‘nosini ham juda yaxshi bilar. Ayniqsa, fiqh ilmida shuxrat qozongan edi. Shuningdek, u davlatning hukmdri bo‘lgan vaqtlarda Qur‘on Karim va hadislarni yaxshi tushungan, tafsir ilmidan xabardor bo‘lgani bois diniy asnodagi bahslarda yirik ulamolalar bilan barobar so‘z yurita olgan. Bu uning ma'naviyati, imon-e'tiqodi va dininy bilimlari qanchalar mukammal bo‘lganligidan darak beradi.

Shubha yo‘qki, Amir Temur o‘z siyosatida musulmonchilik aqidalari jamiyat osoyishtaligi va ravnaqi, ijtimoiy adolat, ma'naviy poklik, fuqarolararo totuvlik yo‘lida xizmat qilishi tarafdori bo‘lgan. Amir Temurda shu bilan birga “din-dinligini, davlat-davlatligini qilishi lozim” degan qat‘iy qoidaga rioya qilgan⁷⁹. Arab tarixchisi Ibn Arabshoh Amir Temurning olim va diniy ulamolarga bo‘lgan munosabatini ta'riflab shunday deya yozgan edi: “Amir Temur olimlarga

⁷⁸ Amir Temur igitlari. –T.: NABR’3; 1992. –B. 20.

⁷⁹ Одилов А.А. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi. –T.: Fan va texnologiya; 2016. –B. 173.

mehribon bo‘lib, sayyidlarni e‘zozlab, ularni o‘ziga yaqin tutardi. Ulug‘ avliyolar va ilm ahlini hurmatini oshirib, ulamolar va fozillarga to‘la-to‘kis izzat ko‘rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko‘rardi”⁸⁰.

Amir Temur din peshvolari bilan yaqin munosabatda bo‘lib, ularga har tomonlama hurmat-ehtirom ko‘rsatgan, o‘z saroyida piri murshidlar, ruhoniylar ustozlarni saqlagan. Hattoki ularga vaqfdan mablag‘ ham ajratilgan. Sohibqiron musulmon shaxs sifatida diniy takliflarni to‘laligicha bajargan. Amir Temurning olim ekanini, diniy tabaqalarini o‘z shaxsida amalga oshirishini uning dushmanlari va tanqidchillari ham tan oladilar. Ularning ta‘kidlashlaricha, Sohibqiron vaqtida nomozini o‘qib, ro‘zasini tutar, yolg‘on so‘zlamas, harom ichkilik ichmas va ahdini buzmas edi. Albatta islom dinining hukmlariga amal qilish ila Amir Temur avvalo o‘zining bandalik burchini ado etar, Alloh taolo tomonidan shoh bo‘lsin, gado bo‘lsin har bir bandaga farz-vojib etilgan amallarni bajargan. Shu bilan birga bu islomiy sifatlar uning xalq o‘rtasida obro‘sini ortdirar va hukrnligini mustahkamlashga omil bo‘lgandi.

Sohibqiron Amir Temur islomni faqat shaxs bilan Alloh orasidagi yashirin aloqa deb qaramagan, balkim, u islom dini jamiyatda raiyatning ijtimoiy aloqalarida hamma narsadan ustun turish lozim ekanligini yaxshi tushungan. Shuning uchun u o‘z yaqinlarini, amaldorlari, askarlari va fuqarolarini doimo islom dinini o‘rganishga, unga amal qilishga chaqirgan. Birgina misol, bir kuni sahroda harbiy mashq o‘tkazillayotganida qor yog‘ib qoladi va askarlari harbiy mashqlarni to‘xtatishga to‘g‘ri keladi. Shunda, Amir Temur o‘z askarlarini chodirga to‘plab, kim Qur‘on Karimdan qor haqidagi oyatni topib bersa, bir miqdor oltin mukofot berishni e‘lon qiladi. Askarlar chodirlariga tarqalib, kun bo‘yi Qur‘on Karimni o‘qish bilan ovora bo‘ladilar. So‘ng Sohibqiron ularni qayta to‘playdi va Qur‘oni Karimga alohida e‘tibor ila yondashmaslikni tanqid qiladi. Qur‘oni Karim issiq, qor yog‘maydigan o‘lkada nozil bo‘lgani uchun unda qor haqidagi oyat bo‘lishi mumkin emasligiga e‘tibor bermaganlarini eslatadi. Ularni bu muqaddas kitobga, islom diniga ixlosini kuchaytirishga chaqiradi va turli diniy savollarga javob beradi⁸¹.

Amir Temurning jamiyat va fuqarolar bilan aloqasining asosiy qismi ulamolar orqali bo‘lar edi. U kishi ulamolarga haddan ziyot hurmat ko‘rsatardi. Hattoki, urush bo‘lgan joylarda yashaydigan, ulamolarning uyiga kirganlariga omonlik berar ularga tegmas edi. Qayerga borsam mashhur va o‘zi kitobini o‘qigan ulamolarning vafot etgani bo‘lsa, qabrini ham ziyorat qilargan⁸².

Amir Temur o‘zi qurgan davlatda o‘ziga xos davlat boshqaruvi tuzib, boshqaruvda bevosida islom diniga tayanar edi va bu brada “... har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”⁸³ deydi. Shuningdek, Amir Temur davlatning taraqqiy etish va rivojlanishda dinning o‘rni katta ekanligiga alohida to‘xtalib o‘zining “Temir tuzuklari” asarida shunday ta‘kidlab o‘tadi: “Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik va xudosizlik kuchaysa va u diyorning aholisi, sipohu raiyat turli

⁸⁰ Ibn Arabshoh. Temur tarixida ajoyibotlari. II. –T.: Fan; 2018. –B. 57.

⁸¹ Уватов У. Сохибқирон араб муаррихлари нигоҳида. –Т.: Шарқ; 1997. –Б.

⁸² Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф <http://www.e-tarix.uz/vatan-tarixi/121-amir-temur-islom.html>

⁸³ Темир тузуклари. –Т.: O‘zbekiston; 2013. –Б. 79.

maslakka kirib ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir”, yana uni ta’kidlaydiki, “Tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar diniy qoida asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, undan saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu-nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim”⁸⁴.

Ispaniya elchisi Rui Gansales de Klavixo ham o‘z estaliklarida Amir Temurning saltanatida islom diniga bo‘lgan munosabati haqida alohida to‘xtalib, “Temur Bey o‘z e’tiqodi bo‘yicha, o‘z diniga amal qilmaydiganlarni jazolaydi, o‘z dining talablaridan kelib chiqib, kuniga besh marotaba xudoga murojaat qiladi, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z dinini yuqori qo‘yadi”, deb yozib qoldirgan⁸⁵.

Shu bilan birga Amir Temur avliyolarni mozorlarini va muqaddas qadamjoylarni ziyorat qilish u uchun qat’iy odat bo‘lib, hatto harbiy yurishlari paytida ham bu odatga qat’iy rioya etgan. Shuningdek, aziz-avliyolarning mozorlari joylashgan shaharlarga hurmat yuzasidan ziyon-zahmat yetishiga yo‘l qo‘ymasdi. Sohibqiron doimo aziz-avliyolarning hurmatini bajo keltirib, ular xotirasiga alohida ehtirom bilan qarardi. Masalan suriyalik olim Akrom Hasan al-Alabiyning yozishicha, Damashqda turganida Amir Temur Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning ikki xotinlari Umm Salama va Umm Habibaning maqbaralari ustiga munosib gumbazlar qurdirgan. Boshqa bir arab muallifi Mazhar Shihobning ta’kidlashicha, Damashqqa kelgan birinchi kuniyoq Amir Temur, eng avvalo umaviylarning mashhur Jome’ sini ziyorat qilib, unda namoz o‘qigan⁸⁶. Shuningdek, bu yerda Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning yaqin sahobalaridan biri – Bilol al-Habashiy qabrini ham ziyorat qilgan. Suriyada yana bir sahoba, taniqli lashkarboshi Muhammad Xolid ibn Volid qabri joylashgan Xoms shahri egallanayotgan paytda Amir Temur bu shaharni vayron etmaslikni buyurgan⁸⁷.

Umuman olganda, Amir Temur o‘z hukmronligi davrida markazlashgan boshqaruvga ega davlatida xalq farovonligi uchun diniy mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko‘rinishlariga yo‘l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik-xotirjamlik, xavfsizlik borasida katta ahamiyatga ega ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, Amir Temur islom dini va uning qonun-qoidalarining homiysi sifatida o‘z faoliyatida bu masalaga alohida e’tibor bilan qaradi. Bu ulkan tadbirlari orqali Amir Temur o‘z davrida islom dinini yana bir karra yuksaltirdi.

⁸⁴ Amir Temur ʻyigitlari. – T.: NAVRʻZ; 1992. –B. 34.

⁸⁵ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). – Т.: O‘zbekiston; 2010. –Б. 193.

⁸⁶ Amir Temur жахон тарихида. –Т.: Шарк; 2001. –Б. 91.

⁸⁷ Одилов А.А. Amir Temur тузуклари – давлат бошқаруви асоси. –Т.: Fan va texnologiya; 2016. –Б. 173.

ХІХ АСРНИНГ ИККИНЧИ ЧОРАГИДА БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИ СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРИДА ЗОМИН ҚАЛЪАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Ўрта Осиё хонликлар даврида тинимсиз урушлар гирдобига тортилди. Айниқса, Аштархонийлар сулоласининг инқирози натижасида унинг ўрнида вужудга келган Бухоро амирлиги ва Қўқон хонлиги сиёсий муносабатларида бу хол яққол кўзга ташланди. Чунончи, бу икки давлатнинг сиёсий муносабатлари ўзгарувчан бўлиб, деярли муттасил урушларда ўтди. Хусусан, бу жараён XIX аср биринчи ярмида Бухоро Амири Насруллохон ва Қўқон хони Муҳаммад Алихон ҳукмронлиги даврида жуда кучайди. Ана шу урушларда Ўратепа ва Жиззах билан бир қаторда, Зомин қалъалари ҳам катта стратегик аҳамиятга эга бўлди.

Бу ҳақда кўплаб тарихий асарларда маълумотлар келтирилган. Жумладан, тарихчи Муҳаммад Ҳакимхон Тўранинг ёзишича Амир Насрулло 1828-1829 йилларда Ўратепа, Жиззах, Зомин ҳудуди ҳокими Муҳаммадраҳим девонбегини Бухорога чақиради. Икки ўртада сулҳ тузилади. Унга кўра, Муҳаммадраҳим девонбегига йигирма кундан сўнг Жиззах қалъасини бўшатиб бериш, Амир Насрулло эса бунинг эвазига Қўқон хони вилоятига бостириб келса, ёрдам кўрсатиш шартини олади⁸⁸.

Бироқ, Жиззах аҳолиси шаҳарни Амир Насрулло қўлига топширишга қаршилик қилади. Натижада Муҳаммадраҳим девонбеги Бухоро элчиси Ғозибек мирохурни ортга қайтариб юборади. Иброҳимбий, Дарвешбек, Ниёзқули, Муҳаммад Ҳакимхон Тўрани 600 кишилик қўшин билан фарзанди Бобо додхон ва Исхон девонбегилар бошқараётган Ўратепа химояси учун жўнатади. Лекин кучли қаршиликка қарамай, Қўқон хони Муҳаммад Алихон Ўратепа, Ём, Зомин қалъаларини эгаллайди⁸⁹.

Орадан беш ой ўтгач, Урметан қалъаси ҳокими – укаси Муҳаммад Содикбек муҳолифат бўлади. Саккиз кун давом этган қамалдан сўнг сулҳ тузилиб, Урметан эгалланади ва Муҳаммадраҳим девонбеги укаси Муҳаммад Содикни асир қилиб Жиззахга жўнатади. Лекин, у аскарларни тарафдорига айлантириб, Жиззах ҳокимиятини эгаллаб олади. Муҳаммадраҳим девонбеги ушбу воқеалардан хабар топгач, Бухорога Амир Насрулло ҳузурига боради ва ундан ёрдам сўрайди. Орадан уч ой ўтгач, улар Жиззахни қамал қилади. Ўн кунлик қаршиликдан сўнг икки орада сулҳ тузилади. Муҳаммад Содикбек Шаҳрисабз томонга кетади. Амир Насрулло Ниёз тўқсабо ва Нурмуҳаммадни тўп оғзига қўйиб оттиради ва қалъани Муҳаммадраҳим девонбегига бермай Ҳаким додхонни ҳоким қилиб тайинлайди. Шу тариқа, Жиззах Бухоро амирлиги таркибига қўшиб олинади.

⁸⁸ Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) Форс-тожик тилидан таржимон Шодмон Воҳидов. – Т.: Янги аср авлоди; 2010. – Б.157.

⁸⁹ Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат – таворих.... – Б.159.

Муҳаммадараҳим девонбеги Амир Насрулло ҳузуридан қочиб Шаҳрисабз ҳокими Дониёл оталиқ олдига боради. Қўқон хонлиги кўшини Ҳаққули бошчилигида Қашқарга кетганлигини ва Ўратепа ҳимоясиз қолганлигини эшитгач Ўснат йўли орқали Ўратепага боради. Лекин хиёнат натижасида ҳалок бўлади.

Тарихчи Ҳумамадҳақимхон Тўранинг ёзишича 1839 йилда Бухоро ҳудудларида Қўқон хони Муҳаммад Алихон ўзининг ўғай онасига уйланганмиш, ҳатто ундан Баҳромхон исмли ўғил фарзанд дунёга келибди, деган хабар тарқалади. Амир Насруллохон дағдағали сўзлардан иборат мактубни Муҳаммад Алихонга жўнатади. У хат билан танишгач, элчини зиндонга ташлаб, Бухоро томон юриш бошлайди⁹⁰.

Тарихчи олим Қ.Ражабов “Насруллоҳхон” рисоласида ушбу ҳолатни кўйидагича изоҳлайди: “Бу пайтда Қўқон хонлигида ички вазият кескинлашиб, юқори табақалар ва халқнинг хондан норозилиги кучайган эди. Фарғона водийси уламоларининг давати ва фатвоси билан Насруллоҳхон Қўқон устига юриш қилди...”. Олим фикрининг исботи сифатида В.П.Наливкиннинг Муҳаммад Алихон ҳақидаги фикрини келтириб ўтади⁹¹. Олимнинг фикрича, шу сабаблар туфайли Муҳаммад Алихондан норози бўлганлар Насруллоҳхонга ислом динининг Туркистондаги ҳимоячиси сифатида мурожат қилишган⁹².

Олимнинг фикрини ёклаган ҳолда воқеанинг яна бир муҳим сабаби сифатида анча вақтдан бери етилиб келаётган сиёсий вазият – Жиззах, Пешағор, Зомин, Ём, Ўратепа, Хўжанд қалъаларига ким эгаллик қилиши масаласини кўрсатиш ўринлидир. Чунончи, бу вақтгача икки ўртадаги вилоятни Фозилбий авлодлари гоҳ Бухоро, гоҳ Қўқон хонлари билан мураса қилган ҳолда мустақил бошқариб, икки орада тўғридан-тўғри жанг бўлишига йўл қўймай келаётган эди. Муҳаммадараҳим девонбегининг ўлими билан бу ҳол яқун топди.

“Тарихи Фарғона” асарида: “Мушори Илайх Муҳаммад Алихон Хўқанд ила Бухоро ўртасида Лашғар ном қалъа хусусида Бухоро Амири Насруллоҳ баҳодир ила ўрталарида бурудат тушуб, Амир бунга бир гўшмол бермак бўлиб, Муҳаммад Алихон отасининг манкуҳасини олди. Балки харомни ҳалол деди. Кофир бўлди, неча-неча бидатларни жорий қилди деб, тадиб қилмоқда, Хўқандга келмоқда эди”⁹³. Саййид Мансур Олимийнинг “Бухоро – Туркистон бешиги” асарида ҳам: “Амир Насрулло ҳижрий 1248 йилда Қўқон хонлигига ҳужум қилиб Жиззах, Ўратепа, Хўжандни ишғол этди...”⁹⁴ каби Жиззах, Зомин, Ўратепа каби ҳудудларга катта урғу берилган жумлаларни ўқиймиз. Бу маълумотлар фикримизни асослайди.

Тарихчи Муҳаммад Ҳақимхон Тўранинг ёзишича, Бухорога қарши юриш бошлаган Муҳаммад Алихон Пешағорга келиб, қалъани тузатиб, унга

⁹⁰ Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. (1709-1876) . – Т.: Наманган; 1994. – Б.43.

⁹¹ Ражабов Қ. Насруллоҳхон. – Т.: Абу матбуот-консалт; 2011. – Б.20.

⁹² Ражабов Қ. Насруллоҳхон. – Т.: Абу матбуот-консалт; 2011. – Б.21.

⁹³ Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Наширға тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Улугбек Далимов, Нурбой Жабборов, - Т.: Маънавият; 2005. – Б.13.

⁹⁴ Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. – Бухоро: Бухоро; 2004. – Б. 35.

Довул парвоначининг ўғли Гадейбойни тайинлаб, Қўқонга қайтади. Муаррих Й.Қосимов Муҳаммад Алихоннинг қайтиб кетиши сабабини шундай изоҳлайди. Унга кўра, Муҳаммад Алихон ўзининг 400 нафар аскари билан Пешағор қишлоғидан чиққанида тўсатдан Бухоро амирлигининг 800 нафар аскарлари унга ҳужум қилади. Муҳаммад Алихон зўрға 9 нафар аскарлари билан қуршовдан чиқишга муваффақ бўлади. Лекин унда бу жанг кучли кўрқувни ҳосил қилиши натжасида, шу куни кечаси асосий ҳарбий кучларини ўз ҳолига қолдириб Қўқонга қайтиб кетади⁹⁵. Албатта бу ҳолат Қўқон аскарлари орасида рухий тушқунликни келтириб чиқаради. Оқибатда улар ичида бошбошдоқлик бошланади.

Амир Насрулло вазиятдан унумли фойдаланиб, Пешағор қалъасини қамал қилади. Абдусаммад ноиб бошчилигидаги тўпчилар қалъа деворига кучли зарбалар беради⁹⁶. Муаррих Й.Қосимовнинг ёзишича, Бухоро кўшини қалъани қамал қилишда 26 та тўпдан фойдаланади. Саккиз кунлик қамалдан сўнг икки ўртада сулҳ тузилиб, Гадейбой Қўқон томонга кетади. Амир Насрулло эса қалъани буздириб ортга қайтади. Ушбу воқеа 1840 йилнинг август ойида содир бўлади. Пешағор қалъаси учун бўлган жангдаги ғалаба катта аҳамиятга эга бўлиб, Бухоро амирлиги аскарларининг руҳиятини кўтариб юборади. Амир Насрулло қолган Зомин, Ём, Ўратепа, Хўжанд қалъаларини эгаллаш учун Қўқонга қарши йирик жангга тайёргарлик кўра бошлайди. У Жиззахни бу юриш учун таянч марказга айлантиради. Қўқонга қарши юриш учун энди Амир Насруллога кичик баҳона керак эди. Муаррих Й.Қосимовнинг ёзишича, бунга Насруллохон Қўқон хонлигига қарашли бир қишлоқ аҳолисини талашга рухсат беради. Бунга жавобан Мадалихон кўшинлари ҳам амирликка қарашли Урмитан атрофидаги қишлоқларни талаб, аҳолисининг чорвасини тортиб олади.

Амир Насруллохоннинг 60 минглик кўшини 1840 йил сентябрь ойи бошида Жиззахда жангга шай ҳолга кетирилади. Урметандан Султон Маҳмудхон кўшини билан унга келиб қўшилади. Й.Қосимовнинг берган маълумотларига қараганда, 21 сентябрь куни Бухоро кўшини Иома кўрғонини уч кун қамал қилади. Шаҳарга 470 та тўп отилади. Шаҳар ҳокими асир олиниб, ўлимга ҳукм қилинади. Амир Насрулло шаҳарга Мадалихоннинг укаси Султон Маҳмудхонни ҳоким қилиб тайинлайди⁹⁷.

Бироқ, муаррихнинг маълумотларида чалкашликлар мавжуд. Бухоро томонидан эгалланган ушбу қалъа номи Иома эмас, балки Ём бўлиб, бу ҳақида тўлиқроқ маълумотни ўша давр тарихчиси Муҳаммад Ҳакимхон Тўра беради. Унинг “Мунтахаб ат-таворих” асарида ёзилишича, амирлик кўшини Ём қалъасига бориб уни қамал қилади. Бу вақтда Ём қалъасида Исҳоқбек девонбеги ибн Маҳмудбий ҳоким бўлиб, уч кун қаршилиқ жанглари олиб боради. “У уч кун давомида, – деб ёзади тарихчи Муҳаммад Ҳакимхон Тўра, – ул қахрамонлик майдонининг арслони амири Насруллога қарши шундай уруш қилдики, ўзбекнинг тўқсон икки бовли хайрат бармоғини тишлаб, бир

⁹⁵ Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. (1709-1876). – Т.: Наманган; 1994. – Б. 43.

⁹⁶ Мирзо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Т.: Янги аср авлоди; 2009. – Б. 182.

⁹⁷ Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. (1709-1876). – Т.: Наманган; 1994. – Б. 44.

овоздан таҳсинлар айтишди”⁹⁸. Охир-оқибат Исроқбек девонбеги асир олиниб, қатл этирилади.

Шундан сўнг, Амир Насруллохон эътиборини Зомин қалъасига қаратади. Қалъа қамал қилинади. Икки кунлик жангдан сўнг қалъа ҳокими Муҳаммадшариф оталиқнинг укаси Абдулвали сулҳ сўрашга мажбур бўлади ва Ўратепага кетади. Зомин қалъасини эгаллаган Амир Насрулло Советни ҳам эгаллайди. Ўратепа яқинида икки давлат қўшини тўқнашди. 15 минг кишилиқ⁹⁹ Қўқон қўшинига Муҳаммадшариф оталиқ, Гадейбой парвоначилар бошчилиқ қилади. Икки ўртада бўлган жангда Мадалихон қўшини амирларнинг сотқинлиги туфайли мағлуб бўлади ва Бухоро қўшини Ўратепани эгаллайди. Ўратепа ҳокими Каримкули додхоҳ Амир Насруллонинг олдига тутиб келтирилади. Амир Насрулло Ўратепага Бердиёр эшик оғабосини ҳоким қилиб тайинлайди ва Хўжандни ҳам эгаллайди¹⁰⁰. Юриш яна давом эттирилади. Тошкент беги Бухоро ҳукмронлигини эътироф этади. Шундан сўнг, Конибодом, Маҳрам, Бешариқ эгалланиб, Қўқонга 30 чақирим яқинлашилади. Лекин, қиш фасли яқинлашиб қолганлиги сабабли, асосан деҳқон ва қосиблардан иборат бўлган 60 минглик қўшин ўртасида озуқа танқислиги бошланади. Қўшиндаги норозилиқнинг кучайиши натижасида, Амир Насрулло Муҳаммад Алихон билан шартнома тузиб ортга қайтади. Унга кўра, Зомин, Ём, Ўратепа Бухоро амирлиги таркибига киритилади. Хўжанд эса Султон Маҳмудхонга берилиб мустақил деб эълон қилинади. Уни назоратда ушлаб туриш учун Амир Насрулло 4 та ишончли одамини Султон Маҳмудхон ҳузурда қолдиради.¹⁰¹ Лекин, ҳаммаси Амир Насрулло ўйлагандай бўлмайди. Аксинча, Султон Маҳмудхон акаси Мадалихон билан келишиб у томонга ўтиб кетади. Бу хабар Амир Насруллога етгач, у иккинчи маротаба Қўқонга юриш қилиб, дастлаб Хўжандни¹⁰², сўнг 1842 йилнинг апрель ойида Қўқонни эгаллайди¹⁰³.

Хуллас Фозилбийнинг сўнгги авлоди Муҳаммадраҳим Девонбегининг ўлими Бухоро амирлиги ва Қўқон хонлиги сиёсий муносабатларида муҳим аҳамиятга эга бўлиб келган Жиззах, Ўратепа билан бир қаторда Зомин, Ём, Пешағор, Савод қалъалари учун ким эгалик қилиш масаласини келтириб чиқарди. Дастлаб, Амир Насрулло бундай вазиятда устунлик қилиб, худудни эгаллаб, Муҳаммад Алихоннинг укаси Султон Маҳмудхонни ҳоким қилиш орқали яна олдинги тизимни қайта тиклашга интилди. Лекин Амир Насрулло ўйлагандай бўлмади. Бу ҳолат икки давлат ўртасида тўғридан-тўғри кучли урушни келтириб чиқарди.

⁹⁸ Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат – таворих. (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) Форс –тожик тилидан таржимон Шодмон Воҳидов. – Т.: Янги аср авлоди; 2010. – Б. 12-16.

⁹⁹ Қосимов Ё. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. (1709-1876). – Т.: Наманган; 1994. – Б. 44.

¹⁰⁰ Мирзо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Т.: Янги аср авлоди; 2009. – Б.182.

¹⁰¹ Қосимов Ё. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. (1709-1876). -Т.: Наманган; 1994. – Б. 45.

¹⁰² Бобобеков Қ.Н. Қўқон тарихи. -Т.: Фан; 1996. – Б. 31.

¹⁰³ Ражабов Қ. Насруллохон. – Т.: Абу матбуот-консалт; 2011. – Б. 22.

O‘N BIR AHMAD ZIYORATGOHI

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Yurtimizda yashab o‘tgan aziz avliyolarning qo‘nim topgan muqaddas qadamjolari ziyoratgohlarga aylantirildi. Qadim-qadimdan ko‘pchilik e‘tiborini jalb etib kelayotgan Namangan muqaddas ziyoratgoh va me‘moriy yodgorliklari O‘zbekistonda alohida ajralib turadi. Gullar shahri deya nom qozongan Namangan viloyatida ko‘plab muqaddas ziyoratgohlar, qadamjolar va me‘moriy obidalarni uchratishimiz mumkin.

Xususan, Namangan viloyatida joylashgan Buvanamozor, Sumbul mozor, O‘n bir Ahmad, Bibi Mushkul Kushod, Zikirmozor, Bibi Naima (Sutli buloq), Modari chashm (Onalar ko‘z yoshi) kabi ziyoratgohlarni hamda Mavlono Lutfulloh, Mulla Bozor Oxund majmuasi, Azizxo‘ja Eshon madrasasi, Is‘hoqxon To‘ra Ibrat majmuasi va boshqa ko‘plab me‘moriy obidalarni sanab o‘tishimiz mumkin¹⁰⁴.

Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan ziyoratgohlardan biri “O‘n bir Ahmad” haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. XIII asrda islom dini taraqqiyoti uchun katta xizmat qilgan “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi Namangan shaharining qibla tomonidagi G‘irvon qishlog‘idan g‘arbroqda joylashgan. “O‘n bir Ahmad” deyilganda, o‘n bitta avliyo Ahmad bobolarning biri tushunilgan. Lekin, ularning qaysi biri, qachon bu erga dafn etilganligi ma‘lum emas. Maqbara gumbazi tevaragida o‘zbek va arab yozuvlarida katta harflar bilan “O‘n bir Ahmad maqbarasi” deb yozib qo‘yilgan. Uning ichida avliyo otaning ramziy qabrlari ko‘tarilib, ustiga mato yopib qo‘yilgan. Maqbara atrofi daraxtzor, gulzor bo‘lib, u chin ma‘nodagi saylgoh hamdir.

Ushbu qabriston juda qadimiy bo‘lib, bu haqida haligacha to‘liq ma‘lumot to‘plangan emas. Keksa otaxonlarning fikricha, G‘irvon qishlog‘ida bir tepalik bo‘lib, uning orqasida katta tekislik, sayhonlik bor ekan. Tekislik o‘rtasida bir tup azim chinor yashnab turar, tagida esa tiniq buloq suvi otilib turar ekan¹⁰⁵. O‘tgan-ketgan yo‘lovchilar buloq suvidan ichib, chanqoqlarini bosishar, chinor soyasida dam olib, so‘ng yana yo‘llarida davom etishar ekan. Ittifoqo, uch musofir shu erdan o‘tayotib buloqqa ko‘zlari tushibdi. Buloq bo‘yida bir qariya namoz o‘qib o‘tirgan emish. Musofirlar suvdan ichishibdi, so‘ng tahorat olib namoz o‘qishga kirishibdilar. Haligi qariya namozini o‘qib bo‘lgach, tilovat qila boshlabdi. Uning shirali ovozi, go‘zal qiroati haligi musofirlarni sehrlab qo‘yibdi. Hattoki, bu yerga qaerlardandir qushlar uchib kelibdi. Bu orada yomg‘ir ham savalay boshlabdi. Qiroat tugagach yomg‘ir tinibdi. Uch musofir u kishi oldiga kelib, odob bilan salom berib, bu erda yolg‘iz o‘tirganligi sababini so‘rashibdi. Qariya bir xo‘rsinib hikoyasini boshlabdi.

¹⁰⁴ Юсупов И., Мирзалиев Э. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – Наманган, 2008. – Б. 41.

¹⁰⁵ Юсупов И., Мирзалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – Б. 105.

Birodarlarim, mening ichim to‘la g‘am: men baxti qaro odam bo‘lib, o‘nta akamdan ayrilganman, - deb ko‘zlaridan shashqator yosh oqibdi¹⁰⁶. Men Ahmad Yassaviyning inilari bo‘laman. O‘nta akam olamdan o‘tib, bu yorug‘ dunyoda yakka o‘zim qoldim. Mening ham kunim bitganga o‘xshaydi. Sizlar payqamadingiz, Qur‘on o‘qiyotganimda Azroil Alayhissalom yonimda turdilar. Qur‘oni Karim oyatlari tugagach, ular g‘oyib bo‘layotib, qulog‘imga “akalaring seni chaqirishyapti” - deb pichirladilar. Musofirlar benihoya hayron bo‘lishdi. Uning tabarruk zotga qondosh ekanligini eshitib mehrlari tovlanibdi. Shu payt osmonni qora bulut qoplabdi. Ko‘kda paydo bo‘lgan qushlar bezovtalanib, charx ura boshlaydilar. Sharqirab otilib turgan buloq suvi ham taqqa to‘xtabdi. Musofirlar bu holga hang-mang bo‘lib, og‘izlari ochilib qolibdi. Buning sababini qariyadan so‘rabdilar. Qariya quyidagicha javob beribdi: “Mening ajalim etdi. Bular shunga ishora. Ketar chog‘imda sizlarga bir gap aytmoqchiman. Kelajak hayotingizdan bashorat qilaman, toki meni unutmangizlar”. Keyin birinchi musofirga yuzlanib, “Siz juda boyib ketasiz, faqat halol bo‘ling”, ikkinchisiga “Siz katta savdogar bo‘lasiz, ammo ehtiyot bo‘ling”, uchinchisiga esa, “Sening omading farzandlaring voyaga etgandan keyin keladi, lekin kichkina farzanding bebosh bo‘lib o‘sadi, jilovini qattiq ushla”, - deb tayinlabdi. So‘ngra kalimai shahodatni keltirib osongina jon beribdi.

Buni qarangki, osmon yorishib quyosh charaqlab ketibdi. Buloqdan ham shildirab suv chiqqa boshlabdi. Bir necha daqiqa ichida yuz bergan hodisadan qotib qolgan musofirlar aql-hushlarini yig‘ib olishibdi¹⁰⁷.

Qariyani yuvib, kafanlab, chinordan nariroqqa dafn qilib, yo‘llarida davom etishibdi. Ular Allohga yaqin bu qariyani o‘la-o‘lguncha esdan chiqarishmabdi. Yillar o‘tib, uning bashoratlari haqiqatga aylanganda yana Qur‘on tilovat qilib, ruhini shodlantirishibdi. SHunday qilib, mazkur qabriston “O‘n bir Ahmad” nomini olgan ekan.

Yana bir rivoyatda esa quyidagicha hikoya qilinadi: Qadim zamonda O‘n bitta aka-ukalar bo‘lgan ekan. Ular nihoyatda bir-biridan iymon-e‘tiqodli, bilimli, komil insonlar ekan. Aka-ukalar musulmonchilik farzini ado etish uchun haj safariga otlanishibdi. Ka‘batullohga borishib, uni tavof qilib hojilik maqomiga erishib orqaga qaytayotganda bir so‘lim joyda to‘xtashibdi. Dam olib bo‘lib qarashsa, bir inilari yo‘q emish. U yoq bu yoqqa zir yugurib chaqirib, qidirishibdi, topilmabdi. Ko‘kka uchganmi, erga kirganmi, bilolmay qattiq qayg‘urishibdi. Ilojsiz yana yo‘lda davom etishibdi. Charchab toliqib bir salqin joyga dam olishga o‘tirishibdi. Ko‘zlari ketib qolibdi. Uyg‘onishsa, oralaridan bir kishi yana yo‘q. Chor atrofni qidirib topa olishmabdi. Motam zada bo‘lib, yo‘lga tushibdilar. Shu tariqa o‘nta aka-uka sirli ravishda g‘oyib bo‘libdilar. Eng oxirgi o‘n birinchi ini yura-yura horib charchab, bir daraxt tagiga o‘tirib ozgina nafas rostlamoqchi bo‘libdi. Keyin Qur‘on oyatlaridan tilovat qilibdi. Xuddi shu payt o‘tirgan o‘midan yo‘qolib qolibdi. Bu o‘n birinchi inini uzoqdan bir cho‘pon kuzatib turgan ekan. But-butun odamning ko‘z oldida g‘oyib bo‘lganidan qo‘rqib ketibdi. Yugurib

¹⁰⁶ Tursunboy N. O‘n bir Ahmad ziyoratgohi. Risola. – Namangan, 2012. – B. 14.

¹⁰⁷ Жабборов А. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б. 172.

boribdi. O‘n birinchi ini hassasini suqib qo‘ygan joydan anvoyi gullar, daraxtlar o‘tib chiqibdi. Keyinchalik cho‘pon bu erning o‘ziga xos hislati bor ekanligini bilib, qo‘rg‘on qilib o‘rab qo‘ygan emish. Mana necha yillarki, o‘sha joy – “O‘n bir Ahmad” qabristoni odamlarning ziyoratgohiga aylangan.

Mazkur “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohi ikki bosqichda qayta ta‘mirlangan. Birinchi bosqichdagi ta‘mirlanish ishlari 2013 yilning yanvar oyida boshlanib, mart oyida tugatilgan. Ikkinchi bosqichdagi ta‘mirlanish ishlari esa 2014 yilning yanvar oyida boshlanib iyul oyida tugatilgan. “O‘n bir Ahmad” ziyoratgohida ta‘mirlanish ishlari tugatilib, obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Bu joyda ziyoratchilar soni ham borgan sari yanada ortib bormoqda. Mana shu ziyoratgoh hududida bir sayhonlik borki, har yili sentyabr oyi boshlarida bu joy ziyoratchilar bilan gavjumlashadi. Bu erda ziyoratchilar uchun etarlicha shart-sharoitlar yaratilgan. Ziyoratchilar bu qulayliklardan foydalanib, emin-erkin ibodatlarini ado etishmoqda. Ular orasida qo‘shni viloyatlardan kelgan ziyoratchilarni ham uchratish mumkin. Bu joyda oqin suv ham, oqava suv ham serobdir. Havosi yoqimli bo‘lib, u kishilarga orom baxsh etadi.

Ayniqsa, bugungi kunda ushbu ziyoratgohga turli bod kasali bilan og‘rigan bemorlar kelib, sayhonlik tuprog‘iga ko‘milib, o‘z dardlaridan forig‘ bo‘lishmoqda¹⁰⁸. Shuning uchun ham ushbu dargoh el nazariga tushgan tabarruk qadamjoylardan biri hisoblanadi. Ushbu ziyoratgoh viloyat “Oltin meros” jamg‘armasi hisobiga o‘tkazilgan.

Xulosa qilib ayganda, O‘zbekistonning qaysi erida bo‘lmasin, uzoq yillar davomida xalqimiz tomonidan asrab kelingan turli tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar nafaqat milliy urf-odat, an‘analarni saqlashga, balki buyuk tarix haqida ma‘lumot beruvchi va tarixga bo‘lgan munosabatni va yoshlarda Vatan tuyg‘usini shakllantirishda o‘rni katta.

*Tojiyev D.B. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

O‘RTA ASRLAR SHARQINING ILM-FANI MASH‘ALI

O‘rta Osiyodagi IX – XII asr “Sharq renessansi” haqida gap ketganda ko‘z oldimizda ilm-fan namoyondalaridan dastavval, Abu Rayhon Beruniy gavdalanadi. Ushbu alloma haqida to‘xtalishdan oldin shuni aytish muhimki, u Sharqdagi ilm-ma‘rifatning charog‘on yulduzi hisoblanadi. O‘z vaqtida jahonga ilmu urfon nurlarini sochgan bu allomaning asarlari hamon uning ortidan yorqin ziyo bo‘lib, bilimga chanqoq tolibi ilmlarga ma‘naviyat durlarini sochishda davom etmoqda.

Movarounnahrda ming yillar oldin yashab o‘tgan allomalar, faylasuflar va dinshunos olimlarning ilm sohasida erishgan yutuqlari bugungi kunda ham jahon hamjamiyatini hayratga solib, keng miqyosda e‘tirof etib kelinmoqda. Beruniyning ilm dengizi naqadar keng ekanligini uning qomusiy olim sifatida yaratgan asarlari orqali ham bilib olish mumkin. U bir vaqtning o‘zida astronom, astrolog,

¹⁰⁸Tursunboy N. O‘n bir Ahmad ziyoratgohi. Risola. – Namangan, 2012. – B. 56.

matematik, geolog, geograf, biolog, o'lkashunos, o'simlikshunos, ma'danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshunos, adabiyotshunos, faylasuf, sotsiolog, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. Shunga asoslanib Beruniyga nisbatan uning "shug'ullangan sohasini sanashdan ko'ra, shug'ullanmagan sohasini sanash osonroqdir"¹⁰⁹, – deb ta'rif berishgan.

Beruniy o'z davrining yuksak bilimdoni sifatida bir qancha tillarni mukammal o'rgandi. Jumladan, qadimgi xorazm tilidan tashqari, arab, fors, sug'd, yunon, suryoniy va qadimgi yahudiy tillarini puxta o'rganish barobarida ushbu tilda yozilgan kitoblarni o'qiy olgan va bu orqali ilmiy salohiyatini yanada oshirgan. Keyinchalik u Mahmud G'aznaviy bilan Hindistonga borganida sanskrit tilini ham o'zlashtirib olganligi xususida ma'lumotlar mavjud¹¹⁰.

Beruniyning eng ulkan va tengsiz kashfiyotlaridan biri dunyoning taraqqiy etgan turli hududlarida tarixiy vaqtni belgilashning me'yor tizimlarini taqqoslab chiqqanidir. Bu orqali o'z davri uchun aniq vaqt me'yoriga erishish yo'lida amalga oshirgan ishlari yaqqol ko'zga tashlanadi. O'sha davrda Movarounnahrning turli hududlarida vaqtni belgilovchi hisob-kitob tizimlari bir-biriga mutanosib bo'lmagani ko'plab muammolarni yuzaga keltirgandi. Bu kabi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida Beruniy shaxmat taxtasiga o'xshash bir asbob yaratib, bu asbob yordamida tarixiy voqealar va sanalarni bir-biriga mutanosiblashtirgan tarzda ajratib tasnif etgan¹¹¹. Misol uchun, yahudiy, yunon va arab taqvimlarini shularga kiritish mumkin.

Xorazmshoh Ma'mun II Xorazmda ilmiy akademiya asos solgan bo'lib, bu akademiya aynan uning nomi bilan "Xorazm Ma'mun akademiyasi" sifatida tarixdan joy oldi. Ushbu akademiya Beruniy Abu Sahl al-Masihiy, Abu Nasr Ibn Iroq, tabib Abul Hasan Hammor, mashhur tarixchi Ibn Miskavayh, Ibn Sino bilan birgalikda ilmiy faoliyat olib bordi va juda ko'plab yangiliklarni yaratishga, bir qator yunon, fors, hind tilidagi asarlarni arab tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo'ldilar.¹¹² E'tirof etish o'rinliki Beruniy ushbu akademiyaning rahbari edi va tom ma'noda u tufayli shu akademiya a'zolari to'plangandi.

Xorazmdagi ilmiy faoliyati natijasida Beruniy qimmatbaho toshlar, kamyob metallar ustida kuzatishlar olib borib, "Kitob al-jamohir fi ma'rifat al-javohir" ("Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami") nomli mineralogiya sohasiga oid mashhur asarini yozadi.

AQShning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti direktori Frederik Starr Beruniy hayoti va ilmiy faoliyatiga oid izlanishlari davomida quyidagi fikrni bayon etgan edi: "Kimyo fani sohasida Markaziy Osiyoliklar reaksiyalarni qaytarishga, kristallizatsiyadan kimyoviy tozalashning bir vositasi sifatida foydalanilgan, go'yo Dmitriy Mendeleevning 1871 yilgi davriy jadvaliga poydevor yaratish maqsadida muayyan tortish kuchini o'lchash va uni chuqur elementlarida qo'llash kabi yutuqlarga erishdilar".¹¹³ Bu orqali Frederik Starr Abu Rayhon Beruniyni qadimgi

¹⁰⁹ Буюк юрт алломалари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Уватов У. –Т.: O'zbekiston; 2016. –Б. 37.

¹¹⁰ Буюк юрт алломалари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Уватов У. –Т.: O'zbekiston; 2016. –Б. 39.

¹¹¹ Фредерик.С. Американинг кашф этилиши. /тарж. Турғунова Ш./ Маънавий ҳаёт, №2, 2014. –Б. 4.

¹¹² Маънавият юлдузлари. Масъул муҳаррир Хайруллаев М.М. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти; 1999. –Б. 94.

¹¹³ Фредерик.С. Марказий Осиёни қайта кашф этиш. Зарафшон газетасининг 19.09.2009 (654) сони.

Rim sivilizatsiyasi bilan Yevropa Uygʻonish davri sivilizatsiyasini oʻzaro bir-biri bilan bogʻlagan mutafakkirdir, deb taʼriflagan.

Abu Rayhon Beruniy oʻzining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”) asari orqali dunyo xalqlarining boy anʼanalari, urf-odat va marosim-udumlari haqida keng maʼlumot berib oʻtgan. Bu esa bizga Oʻrta Osiyo, yahudiy va Yaqin Sharq xalqlarining turli xil madaniyatlari haqida toʻliqroq maʼlumot olishimizga yordam beradi. Beruniy “Hindiston” asarida Yerning harakatlanishi haqidagi oʻz mulohazalarini bayon etadi. Aynan, shu izlanishlari davomida Beruniy Xristofor Kolumb Amerikani kashf etishidan 500 yil oldin, dengiz safariga chiqmasdan turib, Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarining mavjudligini aniqlab bergan.

Beruniy oʻz ilmiy izlanishlarining yuqori natijasi sifatida “Mineralogiya” va “Geodeziya” nomli kitoblar yozgan. Bu asarlarida esa togʻ va sahrolar, ularning paydo boʻlishi haqida, daryo va okeanlar, foydali qazilmalar, minerallar va ularning kimyoviy, fizik xossalari haqida qator qimmatli maʼlumotlarni sanab oʻtgan. Jahon ilmiy hamjamiyati: “...Beruniy jahon paleontologiya va geologiya fanlari rivojiga oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan edi”¹¹⁴, deya eʼtirof etadi.

Beruniy astronomik tadqiqotlarida asosiy eʼtiborini - Yerning harakatiga qaratib, Ptolomeyning geosentrik qarashlariga zarba bergan. Bu orqali Beruniy birinchi boʻlib, geliosentrik gʻoyani ilgari suradi. Keyingi asrlarda yashagan yevropalik olimlar – Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley ham Beruniyning qarashlaridan ilhomlanib, oʻzlarining asarlarida yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrlarini dadil yozadilar.

Soʻngi maʼlumotlarga koʻra, Beruniy ilmiy bilishning yangi metodlari – tajriba va amaliyot metodlarini ishlab chiqqan va rivojlantirgan. Beruniy har qanday olimning izlanishlari tajriba bilan boyitilsa va amaliyot natijasida rivojlantirilsa albatta, foydadan xoli boʻlmasligini va ilm izlayotgan inson uchun ham kerakligini taʼkidlab: “har bir olim oʻz muhokamasida amaliyotga asoslanishi, oʻz tadqiqotida aniq boʻlishi, toʻxtovsiz mehnat qilishi, xatolarini qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydurma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur”¹¹⁵, – degan edi. Yana, ilm ahlini olimlar mehnatiga alohida eʼtibor berishga, ularga xayrixoh boʻlishga ham undagan edi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhim ekanligini taʼkidlaydi. Bular hozirgi maʼrifat, ilm-fanni ham eʼtirof qiluvchi – irsiyat, ijtimoiy muhit va toʻgʻri taʼlim-tarbiyadir. Bu orqali insonni ulugʻlash haqida XV asr gumanizm vakillari – Petrarka, Bokachcho, Solyutattilardan ilgariroq fikr yuritgan hamda inson kamoloti shu uch holatning naqadar yuksak shakllanishida ekanligi va koʻp bilimga ega boʻlish bilan birga yuksak axloqiylikni ham muhim jihat sifatida keltirib oʻtadi.

I.M.Moʻminov oʻz tadqiqotida: “Beruniyning ilmiy qiziqishlari nihoyatda keng boʻlib, qadimgi yunon va arablarga oid fan tarixini, Markaziy Osiyodagi qadimgi davr va ilk oʻrta asr fani tarixini, eng muhimi oʻz zamonasi fanini chuqur

¹¹⁴<http://sies.uz/index.php/uz/34-maqolalar/159-abu-rayhon-beruniy-ikkisivilizatsiyani-bir-biri-bilan-bog-lagan-alloma>.

¹¹⁵ Маънавият юлдузлари. /Мас. мух. Хайруллаев М.М./ -Т.: Абдулла Қодирий; 1999. -Б. 98.

o‘rgandi”¹¹⁶ – degan edi. P.G.Bulgakov esa o‘z vaqtida uning fan sohasidagi xizmatlarini shunday ta’kidlagan edi: “U Sharqda tabiatshunoslikning ilk jiddiy tarixchilaridan biri bo‘lib chiqdi va bizlar uchun kam tanilgan ajoyib mutafakkir va olimlar haqida g‘oyatda qimmatli ma’lumotlarni saqlab qoldi”¹¹⁷, – degan ma’lumotlarni bergan bo‘lsa, mashhur amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni “Beruniy asri”¹¹⁸ deya, buyuk allomaga yuksak hurmat ko‘rsatadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimiz ilm-fan taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan buyuk allomadir. Shuni ta’kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga o‘z zamondoshlariga baho berishda ham xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan”¹¹⁹, – deb qayd etgan edi.

1973 yilda Abu Rayhon Beruniyning 1000 yillik yubileyi jahon miqyosida nishonlanib, asrlari o‘zbek tilida chop etildi. Xulosa shuki, Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy merosi to‘laligicha tadqiq etilmagan va o‘zining munosib bahosini kutib turibdi. Kelajak avlod esa bu allomaning fan-texnika va ilm taraqqiyotiga qo‘shgan hissasini doimo g‘urur bilan yodga oladi. Shunday ekan, buyuk bobokalonimizga munosib voris bo‘lib, uning ilmiy asarlarida hali ochilmagan qirralarni chuqur tadqiq etishish lozim.

*Toshqulova Sh.S. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

QO‘QON XONLIGI HUNARMANDCHILIGI

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida muhim o‘ringa ega bo‘lgan davlatdir.

XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo‘qon xonligiga mahalliy aholi vakillaridan biri bo‘lgan ming urug‘i asos solgan. Shu davrdan boshlab xonlikda markazlashgan davlat shakllanib, uning chegaralari, mahalliy boshqaruv tizimi tartibga keltiriladi, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida keng qamrovli munosabatlar o‘rnatilib, iqtisodiy va xo‘jalik hayoti jonlanadi, savdo- sotiq hamda madaniy sohada ham katta o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ayniqsa, bu jarayonlar hunarmandchilik va ishlab chiqarishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga oid tadqiqot ishlari H.Ziyoyev, G‘.Ahmadjonov, X.G‘ulomov, H.Bobobekov, Sh.Vohidov, N.Musayev, Sh.Yusupov, D.Ziyoyeva kabi tarixchilar tomonidan o‘rganilgan¹²⁰.

¹¹⁶ Мўминов И. Ўзбекистонда прогрессив ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихига доир материаллар. –Т.: ФАН; 1959. -Б. 76.

¹¹⁷ Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. –Т.: ФАН; 1972. -С. 125.

¹¹⁸ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –Т.: Ma’naviyat; 2016. -В. 42.

¹¹⁹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. –Т.: Ma’naviyat; 2016. -В. 42-43.

¹²⁰ Худайқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т.: 2009. –Б.11.

Qo‘qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa barcha shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullangan. Mahallalar o‘zi ixtisoslashgan hunariga qarab maxsus ustaxona, tim va do‘konlarga ega bo‘lgan. Buni shaharlardagi mahallalar va ko‘chalarning nomlaridan ham bilish mumkin.

Xonlik arxivida obkash, oqsoqoli novvoy, aravakash, omborchi, ohangar, bujgun, baxmalbof, bo‘yoqchi, gilkor, dorukash, jibachi, konchi, degriz, zargar, miltiqsoz, taqachi, po‘stindo‘z, najjor, xishtriz, chodirchi, chitgar, shilimchi, devorzan, paranjido‘z, yo‘rmado‘z kabi nomlar saqlanib qolgan¹²¹. Bu esa xonlikda hunarmandchilik ixtisoslashganligidan dalolat beradi. V.P.Nalivkinning qayd etishicha, bir kunda temirchi 20 tiyindan 40 tiyingacha, bo‘yoqchi 40 tiyindan 60 tiyingacha, ip-gazlam to‘quvchi 15 tiyindan 30 tiyingacha, ipak gazlama to‘quvchi 20 tiyindan 40 tiyingacha, charmdo‘z 40 tiyindan 70 tiyingacha, duradgor va suvoqchi 50 tiyindan 1 so‘mgacha sof daromad olgan¹²². Ustalarining kunlik daromadi 2-4 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shogirdlari yegulikdan tashqari haftasiga 40 tiyindan 1 so‘m 20 tiyingacha maosh olgan¹²³.

Hunarmand-ustalar ishlab chiqargan mahsulotlarining sifat darajasi yuqori bo‘lishini ta‘minlashga harakat qilgan. Bozordagi keskin raqobat esa ularni o‘z kasblari sirlarini maxfiy saqlashga undagan. Kasb-hunarning nozik jihatlari faqat farzandlar, ba‘zan ushbu jihatlarning ayrimlari shogirdlargagina o‘rgatilgan va shu yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Mamlakatning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilik bir xilda rivojlanganiga qaramay, ishlab chiqarishda mahsulotning turi va sifati bilan ajralib turgan. Birgina Toshkentda ishlab chiqarilgan metall buyumlari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lsada, Qo‘qon ustaxonalarida tayyorlangan buyumlardan ancha past turardi. Xonlikning barcha shaharlarida, ayniqsa, Qo‘qonda tajribali ustalar ko‘p bo‘lib, ular o‘z mahsulotlarini san‘at darajasiga yetkazgan. Qolaversa, har bir hunarmand doimiy buyurtmachi va mijozlariga ega bo‘lgan. Bu esa usta-hunarmandlarning uzluksiz ish bilan ta‘minlanib turganligidan dalolat beradi.

Qo‘qon xonligida hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to‘quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo‘lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlari bilan dong taratgan. Jumladan, Qo‘qon shahri zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, Marg‘ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o‘zining tikuvchilik, cho‘yan, temir- mis mahsulotlari bilan shuhrat topgan. A.P.Xoroshxin Namangan, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida ishlab chiqarilgan atlas, shoyi, adras va beqasam matolariga yuqori baho bergan¹²⁴.

Xonlikda temirchilik mahsulotlariga talab katta bo‘lgan. Sababi, temirchilik buyumlaridan qishloq xo‘jaligi va uy-ro‘zg‘orda keng foydalanilgan. Jumladan, sug‘orish inshootlarini barpo etish va dala ishlarida foydalanish uchun ketmon, bolta, tesha, ishfang, uzan (o‘roq), poytesha, omoch kabi buyumlar tayyorlangan.

¹²¹ Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX в. – М.: 1968.

¹²² Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерки быта женщин. 1899. –С. 27.

¹²³ Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. –Т.: Фан; 1998. –Б.101.

¹²⁴ Ҳабибуллаев Н.Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи. –Т.: –Б. 122.

Xonlik markazi Qo‘qon shahrida ishlab chiqarish qo‘l mehnatiga asoslangan. Shuningdek, hunarmandchilikning ip va ipak matolar to‘qish, teriga ishlov berish, sopol idishlar tayyorlash, egar-jabduq yasash, bo‘yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravazoslik, o‘ymakorlik, pista ko‘mir tayyorlash, kashtachilik, do‘ppichilik, qalin tomlar, harbiy qurollar va mum tayyorlash kabilari rivojlangan.

Shuni alohida e‘tirof etish kerakki, Qo‘qon xonligida hunarmandchilikning muhim tarmog‘i qog‘oz ishlab chiqarish hisoblangan. A.P.Fedchenko 1871 yilda qog‘oz tayyorlash jarayonini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini bayon etgan¹²⁵. Uning xulosasiga qaraganda, O‘rta Osiyoda qog‘oz ishlab chiqarish Qo‘qon shahridagi Mo‘yi Muborak darvozasining orqasida, shu nom bilan ataladigan ariq bo‘yida yo‘lga qo‘yilgan. Qo‘qon qog‘ozi hajm jihatidan rus qog‘oziga yaqin turgan. Shiralanmagan qog‘oz o‘ram uchun, shiralangani esa derazalarda shisha o‘rnida, jilolanganlari yozishga mo‘ljallangan. Biroq, XIX asrning birinchi yarmida Rossiya sanoat korxonalarida ishlab chiqargan arzon fabrika qog‘ozlarining xonlik bozorlarini egallashi natijasida qog‘oz tayyorlash butunlay kasodga uchragan¹²⁶.

Xonlikda qurolsozlikka ham alohida e‘tibor berilgan. Bu tarmoq shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining obro‘li sohalaridan biri bo‘lgan. Qo‘qon shahrida zambaraklar, miltiqlar, qilichlar, pichoqlar, xanjarlar, qalqonlar, nayzalar va boshqa harbiy anjomlar tayyorlangan. Shuningdek, porox tayyorlash ham yo‘lga qo‘yilgan. Asosan, harbiy sohada foydalaniladigan poroxning 6,5 funti 3 tangaga sotilgan.

Rus manbalarida xonlik hunarmandchilikdagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch ayollar bo‘lganligi qayd etilgan. Ular “paxta va ipak yigirib, ulardan nafis va sifatli gazlamalar to‘qib, o‘zi va iste‘molchilar ehtiyojlari uchun ko‘ylak va boshqa kiyimlar tikishgan. Erkaklar esa asosan, kulolchilik, ko‘nchilik va og‘ir ishlarni bajarishgan”. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlarini o‘zlari sotgan.

Shaharlarda ham asosiy mol-mulk hukmdor tabaqalar qo‘lida bo‘lib, mayda savdogar va hunarmandlar bu yerda foydalanuvchilari uchun ma‘lum miqdorda haq to‘laganlar. Shuningdek, ijtimoiy holatiga ko‘ra hunarmandlar ikki: yuqori va quyi tabaqalarga bo‘lingan. Yuqori tabaqa vakillariga o‘z ustaxonasi, mehnat qurollari va xom-ashyolarga ega bo‘lgan ustalar kirgan. Mulkdor tabaqalar qo‘lidagi ustaxonalar va mehnat qurollaridan foydalanuvchilar, yuqori tabaqaga kiruvchi ustalarning qo‘llarida kunbay yollanib ishlovchilar, hammollar quyi tabaqani tashkil etgan.

Qo‘qon xonligida hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishini asosan paxtachilik, ipakchilik, chorvachilik tarmoqlari va yer osti boyliklarini qazib chiqarish sohaları xom-ashyo bilan ta‘minlangan.

Farg‘ona vodiysida pillachilik nihoyatda rivojlangandi. Qo‘qon xonligining oxirigi yillarida, asosan, Qo‘qon shahrida xom ipak kalava ishlab chiqarila boshladi. Manbalarda yozilishicha, ipak kalavaning eng yaxshisi Namangan, Qo‘qon, Xo‘jandda tayyorlangan. Shunga qaramay, hunarmandchilik uchun zarur

¹²⁵ Федченко А.П. В Кокандском ханстве. –С. 246.

¹²⁶ Гаффаров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий aloqalar. XIX asrning birinchi yarmi va 60-70 йиллар. Тарих фан. ном. Дисс. –Т.: ЎзРФА ТИ .1969. –Б. 22.

bo'lgan xom- ashyolar xonlik hududi va chetdan xarid qilingan. Velyaminov-Zernovning ma'lumotlariga qaraganda, asosiy xom ashyolardan biri bo'lgan oltin Sirdaryoning yuqori oqimidan, Konsuv daryosidan olingan. Shu bilan birga, Kosonsoy, Qoratog'ning shimolidagi Kukrev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Burchmulla yonidan, Chotqol daryosining yuqori oqimidan ham oltin olingan. Hunarmandlar temir rudasini Oloy tizma tog'lari etaklaridan, qo'rg'oshin va boshqa madanlarni Qoratovdan qazib olganlar¹²⁷. Xonlikda ishlab chiqarilgan yillik oltinning miqdori bir necha pudni tashkil etgan¹²⁸. Poytaxtda bir miaqol oltin 16,5 tanga, qum ko'rinishidagi oltin 14,5 tanga narxda baholangan. Xususan, Qorategin oltini 18 tangadan, qum sifatida esa 16 tangadan sotilgan¹²⁹.

Shuni ta'kidlash lozimki, yer osti boyliklarini qazib chiqarish ancha sodda va kam ediki, u ehtiyojni talab darajasida qondira olmagan. Shu sabab ham aksariyat metallar Rossiyadan olib kelingan. Ammo xonlik noyob madanlarga boy bo'lgan. A.P.Xoroshinning ma'lumotlariga ko'ra, savdogar Pervushinning ishonchli odami A.I.Xrennikov Qo'qonga qaytayotib, Xo'jand va Konibodom shaharchasi atrofida neft topgan. Undan qo'tir kasaliga dori tayyorlash va poyafzal tikishda foydalangan. Rus olimi A.I.Abdiyev yuqorida qayd etilgan hududlarda oltingugurt manbai topganini yozgan. Boshqa manbalarda Sashg'ar va Qamishqo'rg'on orasidagi darada tuz borligi bayon etilgan.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi xonlik bozorlarida savdo- sotiqning jonlanishiga olib keldi. Mahalliy bozorlarda ipak, jun va teridan ishlangan buyumlar, qamchi, arava, bronzadan yasalgan ko'zalar, chinni buyumlarga talab katta bo'lgan. Birgina Qo'qon aravalari to'g'risida A.Middendorf quyidagicha yozadi: "Birinchi marta aravadan daryodan o'tishda parom sifatida foydalanishni tomosha qilishning o'zi bir chiroyli va go'zal manzaradek edi".

Qo'qon xonligida hunarmandchilik va ishlab chiqarish hayot tarzining asosini tashkil etgan. Aholining kundalik mashg'uloti dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchik va savdo-sotiqdan iborat bo'lgan. Shahar aholisining moddiy ehtiyoji aynan hunarmandchilik va kosibchilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorda sotish evaziga tushgan daromad orqali qondirilgan. Xulosa o'rnida aytish joizki, xonlik hunarmandchiligining o'ziga xosligi hunarmand tomonidan tayyorlanadigan buyumning bir turi yoki biror qismini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalarning mavjudligidadir.

*Унгарова О. -
студентка II курса исторического факультета НУУз*

АМИР ТЕМУР В ГЛАЗАХ ИБН АРАБШАХА

Амир Темур - великая историческая личность, жизнь и деяния, которого интересовали историков не одного столетия. Каждый учёный имеет свой субъективный взгляд и приводит свои аргументы. Прежде всего, учёные при изучении жизни Амира Темура опираются на труды его современников,

¹²⁷ Вельяминов- Зернов В. Сведения о Кокандском ханстве // ВИРГО. – СПб., 1856. –С. 124.

¹²⁸ Записки ИРГО. Т. III. СПб, 1849. – С. 183.

¹²⁹ Сборник статей о Средней Азии, Т.1, СПб, 1877, –С. 356.

так как они были свидетелями событий, происходивших в то время в государстве Амира Темура. Важнейшим источником при изучении личности Амира Темура является «Зафарнаме» Низамиддина Шами¹³⁰. Данное произведение написано по повелению самого Амира Темура. Это произведение отличается своей объективностью, но в труде Низамиддина Шами не освящаются последние дни Амира Темура и события, происходившие после его кончины. Так же нужно отметить «Дневник походов в Индию» Гиясиддина Али¹³¹. В дневнике есть ценные сведения о походе в Индию. По приказу внука Амира Темура Ибрагима Султана Шарафиддин Али написал «Зафарнаме». В отличие от предыдущего «Зафарнаме» в данном труде полностью изложены причины всех походов и события после его смерти. Трудно найти историка темуроведа, который не использовал труд Ибн Арабшаха «Чудеса истории Тимура»¹³².

Прежде чем говорить о его произведении остановимся на его биографии. Он является уроженцем Дамаска. Во время осады города ибн Арабшах будучи ребёнком попадает в плен. После смерти Темура, а именно при правлении Халил Султана всем пленным разрешили покинуть столицу. Позже он приступил к написанию данного труда. В произведении освещены события, начиная с самого рождения Темура вплоть до правления Халил Султана. Многие историки, в том числе В.В. Бартольд, А. Якубовский и другие опираются именно на его произведение. Они считают, что его труд более объективен в отличии от предшественников. Но современные учёные доказали, что он неверно освещал события из-за личной неприязни к Тимуру. Он не смог правильно оценить события, происходившие в ту эпоху. В качестве примера можно привести то, что он преувеличил количество жертв завоевательных походов. При описании он опирался не только на другие книги, написанные о той исторической эпохе, но и на легенды, услышанные от местного населения, завоёванных территорий. В данной статье мы хотели бы поделиться своими наблюдениями и сравнить произведение «Чудеса судьбы истории Тимура» с достоверными источниками.

Начнём с генеалогии Тимура. Нужно отметить, что Ибн Арабшах приводит различные версии об отце Тимура. Он пишет, что его отец был сапожником или пастухом, что он был лентяем, что он не имел не веры, не религии, но также он утверждает, что он был одним из эмиров Чагатайского улуса. Последняя версия ближе к истине. Его отец Амир Тарагай был государственным чиновником. ибн Арабшах писал, что в результате финансовых затруднений Тимур вырос вором и стремился к власти. Источники же утверждают, что его семья не испытывала материальных трудностей. Ибн Арабшах пишет, что однажды Тимур был пойман при краже баранов, его избили и он стал хромать. Другие авторы говорят, что правитель

¹³⁰Персидские источники по истории туркмен и Туркмении X—XV вв.. Восточная Литература — библиотека текстов Средневековья.

¹³¹ Книга посвященная внуку Амира Тимура Халил Султану

¹³² <https://www.livelib.ru/book/1002497944/about-chudesa-sudby-istorii-temura-ibn-arabshah> (дата обращения 03.03.2019)

Сеистана обратился к нему за помощью, а именно выступить против его врагов. Тимур сдержал своё обещание и помог ему. До битвы правитель обещал ему богатства, но не сдержал слово. Тимур был вынужден вернуться. По дороге домой на него напали, и он был ранен в ногу и руку. В книге ибн Арабшаха говорится, что однажды Тимур бродил и страдал от голода. Он увидел султанских людей. Главному конюху султана он понравился, потому что Тимур умел отличать породистых коней. Его привели к султану Хусейну, после чего его назначили конюхом. Очень быстро он вошёл в доверие и женился на сестре султана. Её звали Улджай Туркан ага. Он поссорился с женой и убил её. На самом деле было так: Эмир Казаган, то есть дед Хусейна убив законного хана взойшёл на престол. В 1355 году Казаган выдаёт замуж внуку за Тимура. Он начал служить в его войске. С женой у него были хорошие отношения, о чем свидетельствует в «Зафарнаме». Однажды они попадают в плен к Алибеку Джаникурбани. Они просидели в зиндане 62 дня. Когда между Тимуром и Хусейном возникли конфликты супруга была на стороне мужа. Однажды Эмир Хусейн потребовал у приближённых Амира Тимура деньги, а у них не было средств для оплаты, тогда Тимур отдал украшения жены. После её смерти он переживал и сказал: «Поистине мы принадлежим Аллаху и к нему возвращаемся». Ибн Арабшах пишет, что ради власти он выступил против Эмира Хусейна, собрал огромное войско и выступил против него. Казнил его в Самарканде. На самом же деле было несколько причин разлада между ними, одна из которых трусость Эмира Хусейна в Грязевой битве. Она произошла 22 го мая 1365 года. Они выступили против Ильясходжи. Хусейн не оправдал доверие, но Тимур его простил. Однажды группа заговорщиков во главе с эмир Муссой и эмиром Кайхусрав решили устроить распри между Амиром Тимуром и Эмиром Хусейном. Они отправили письмо к Эмиру Хусейну, где было изложено, что Амир Тимур хочет напасть на него. Таким образом, эмиры старались столкнуть друзей. Деяния Эмира Хусейна в отношении к Тимурю обостряли ситуацию. Например, Хусейн захватывает Карши, принадлежавший Тимурю. Благодаря войскам Тимура Хусейн захватывает Бадахшан и строит с помощью него крепость Хиндуван. Хусейн поклялся на Коране в взаимной поддержке и пригласил его в ущелье Чак-чак. Амир Тимур должен был прийти со 100 солдатами. Эмир Хусейн намеревался убить его. Амир Тимур узнает о заговоре. Кончилось тем, что Эмира Хусейна казнили в Балх. Как рассказывает Ибн Арабшах, узнав о конфликте Амира Тимура и Эмира Хусейна Тохтамыш напал на Маверанахр. Он ещё пишет, что причиной похода Амира Тимура 1395 году против Тохтамыша был эмира Эдику, потому что он натравил Амира Тимура против него. На самом деле история была такова: Туйхуджа углана, отца Тохтамыша, убивает Урусхан и Тохтамыш бежит в Самарканд. Амир Тимур его встречает хорошо. Он отдал ему области Сабран и Уттар. Но Урусхан отправляет войско против него во главе со своим сыном Кутлугбуга. Войско Тохтамыша было разбито, а сам он бежал в Самарканд. Тимур вторично назначает его правителем тех же областей. Урусхан отправляет войско во главе со своим сыном Тухтакия,

Тохтамыш терпит поражение и бежит в Самарканд. Урусхан просит у Амира Тимура чтобы он отпустил Тохтамыша. Так как во время первой битвы он убил его сына Кутлугбугу, Тимур отказывается сдать Тохтамыша. После смерти Урусхана Амир Тимур помог Тохтамышу прийти к власти в улусе Джучи, но против него вышли сторонники Урусхана, его войско было разбито, а сам бежал в Самарканд. Амир Тимур оказал ему милость, хорошо принял после смерти сына Урусхана Тимур Малика Амир Тимур вторично помог Тохтамышу прийти к власти. В первые годы его правления с Амир Тимуром были хорошие отношения. До 1386 года у Амира Тимура не было намерений полностью подчинить Иран, но Тохтамыш через Дербент вторгся в Тебриз и Азербайджан. После этого Тохтамыш стал угрозой для владений Амира Тимура. Во время походов Амиру Тимуру сообщили, что Тохтамыш хочет выступить против него. На что он дал указание собрать группу войск и отправить. Тимур приказал не выступать против врага первыми. Войска Тохтамыша выступили против них. К Тимуру приходили плохие вести со стороны Маверанахра, что войско Тохтамыша, джете, хорезмийцы совершают набеги на разные части Маверанахра. Они сожгли его дворец Занжир сарай. Тимур возвращается, чтобы предотвратить жертвы. В 1388 году окончательно одержана победа над Хорезмом. В 1389-1390 годах поход в Моголистан. Он приступил к войне против Тохтамыша. Тохтамыш отправил послов с предложением о мире. Тимур отказывается. В 1391 году в битве при Кундузча разбил войско Тохтамыша. Через 4 года Тохтамыш вновь выступает против Амира Тимура, но Тимур разбил его войско вблизи Терек. А так же он разрушил сарай и Хаджитархан. В 1404-1405 годах в Отрар к Тимуру прибыл посол Тохтамыша и попросил прощения, Тимур его простил и сказал после возвращения с похода на Китай он вернёт ему его земли. Ибн Арабшах пишет, что Амир Тимур организовал поход против Хорезма. Когда он приблизился к городу Ургенч, правитель города отсутствовал и ему удалось взять город. Второй раз тоже повторилась та же история. На самом деле Амир Тимур хотел решить дело Хорезма мирным путём. Он вполне имел право претендовать на Кят и Хивак, потому что эти территории были частью Чататайского улуса. В Хорезме в это время самостоятельно правил Хусейн Суфий. Тимур отправил к нему послов во главе с Алуфа тавачи, в письме он изложил о возвращении Кята и Хивак, но он отказался. Тимур решил отправить очередное посольство во главе с Жалолиддином Кеши. Хусейн суфий бросил его в темницу. Тимур начал поход. Во время битвы Хусейн Суфий умирает. Приходит к власти его брат Юсуф. Он заключает с Тимуром договор, по которому Тимур просит руки племянницы Юсуфа за Жахгира. Причиной второго похода стала группа заговорщиков, во главе с султаном Махмудом ибн Кайхусрав отправились к Юсуфу суфию и подстрекали его против Амира Тимура. Тимур выступил против Хорезма. Они вновь подчинились ему и отправили племянницу в Самарканд. Причиной другого похода стало, что Юсуф Суфий перестал подчиняться. Тимур отправился в поход и когда приблизился к Ургенчу пришли люди Юсуфа суфия. Они предложили для предотвращения кровопролития

сражение между Юсуфом Суфием и Тимуром лично. Тимур согласился. В назначенный день Юсуф суфий не явился на бой. Тимуру пришлось начать войну. Как было сказано ранее, окончательное покорение Хорезма произошло в 1378 году. Ургенч был разрушен, на территории было приказано сеять ячмень. Через несколько лет он приказал восстановить город.

Ибн Арабшах писал, что Амир Тимур был не верующим человеком и с пренебрежением относился к религии. Опираясь на «Зафарнаме» Шарафиддин Али и Уложения Тимура можем сказать, что Амир Тимур с уважением относился к представителям духовенства. Особо нужно отметить, что он перед каждым походом читал молитву ярким пример тому является то, как после подавления восстания в Грузии Амир Тимур приказал убить восставших, но они обещали выплатить джизью на что он не согласился, тогда вмешалось духовенство и спасло население. Ибн Арабшах утверждает, основной причиной покорения крепости Сивас было то, что правитель Сиваса убил послов Амира Тимура. Нам бы хотелось сказать то, что Йилдырым Баязид взял Арзинджан, а этот город и его правитель Тахуртан подчинялись Амиру Тимуру.

По сведениям ибн Арабшаха у Тимура были основания пойти против Баязида. В книге говорится, что правитель Багдада Ахмад Джалоир и Каракуюнлу туркмен Кара Юсуф, который грабит караваны хадж, бежали к Баязиду. Тимур отправил письмо с просьбой отправить их обратно или казнить. Просьба Амира Тимура была отклонена. Баязид отправил письмо в котором он говорил: « я чувствую, что мы с ним будем воевать» что особенно задело Амира Тимура, там было сказано; « если ты не придёшь совоевать твои жёны будут 3 талака (развод), если я не буду воевать , то мои жёны будут 3 талака».

Предъявленные ранее факты не являются поводом для того, чтобы утверждать, что книга Ибн Арабшаха далека от истины. В ней есть объективные факты, которые мы хотели отметить. Несмотря на то, что Ибн Арабшах был жителем Шама он правильно оценивает походы Амира Тимура в Египет и Сирию. Причиной походов он называет: во-первых убийство посла Амира Тимура Султаном Баркуком; во-вторых взятие в плен Аталмыша Кара Юсуфом и отправление его к Султану Баркуку, а он несколько лет держит его в плену. Тимур не разрушил город Хомс, потому что там умер Халид ибн аль Валид. Ибн Арабшах отмечает, что Тимур после покорения Халеба и Дамаска он встретился с учеными, в частности с Ибн Ашшихна и Ибн Халдуном.

Опираясь на работы Клавиho, Уложение Темура и «Зафарнаме» Шарафиддина Али Язди мы можем сказать, что не смотря на большинство интересных и точных фактов в работе Ибн Арабшаха также существуют много неточностей исходя из чего мы можем сделать вывод что в изучении выше поставленного вопроса стоит опираться на объективные и точные источники.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА ЖЕНЩИН В ИСЛАМЕ

Мусульман в мире насчитывается более 1,8 млрд человек, проживающих в более чем 125 странах мира. Большинство мусульман (85-90 %) составляют сунниты¹³³, остальные - шииты¹³⁴, ибадиты¹³⁵. Ислам с самого начала устанавливает равенство мужчин и женщин как представителей человеческого рода. Если христиане обсуждали проблему наличия у женщины души еще до Вселенского собора 585 года, то в Исламе этот вопрос решен однозначно и с самого начала. Ярким примером чему является хадис, в котором говорится: «Если человек верует в Аллаха и последний день, то, увидев какое-либо дело, пусть говорит по-доброму, либо пусть молчит, а женщин считайте для себя заветом и обходитесь с ними хорошо. Женщина создана из ребра, а ребро искривлено сверху. Если ты захочешь выпрямить его, то сломаешь, а если оставишь в покое, то оно останется искривленным. Обходитесь с женщинами хорошо»¹³⁶.

На Сегодня ведётся множество исследований о происхождение, предназначении и месте, в обществе данной религии ислам, о ее влияние на современную жизнь. Одним из важных направлений данных исследований является именно отношение в исламе к женщинам их роли в обществе, семье, их правах и обязанностях. Первым международным документам (законодательным актам) о равноправии женщин только-только исполнилось чуть больше 50 лет, а Ислам решил эту проблему четырнадцать веков тому назад. Ислам впервые объявил, что женщина является таким же полноценным человеком, как и мужчина.¹³⁷ Основными источниками на которые опираются исследователи при изучении данного вопроса это главная священная книга мусульман Коран, где отдельная глава посвященная женщинам, которая называется «Ан-Ниса» и Сунна, состоящая из хадисов¹³⁸ собранных в течении нескольких веков учеными. В 4 суре Корана говорится: «О вы, которые уверовали! Женщины – не имущество, и не разрешается вам наследовать жён без их желания и без калыма. Будьте справедливы к ним и не требуйте от них, чтобы они уступили вам часть того предбрачного дара (калыма), что вы им дали, и часть того имущества, которое вы им даровали. Но если они совершат явно какое-нибудь гнусное дело или окажут неповиновение, то тогда можете предъявить им свои требования или взять у них, в случае разрыва отношений, часть того, что вы им даровали. О вы,

¹³³ Сунниты- последователи наиболее многочисленного направления в исламе.

¹³⁴ Направление ислама, признающее Али ибн Абу Талиба и его потомков преемниками пророка Мухаммеда

¹³⁵ Одна из четырех хариджитских общин, которая считается самой умеренной

¹³⁶ Наджметдин М. О достоинствах женщины- Казань: Академия познания; 2006. –С. 32.

¹³⁷ Шейх Мухаммад Садык Мухаммад Юсуф Ийман. Ислам. Куръан // женщина и равноправие Hilol-Nashr; 2013 -С.138.

¹³⁸ Вводимый иснадом (цепочка ссылок на рассказчиков) рассказ о поступках и высказываниях Мухаммеда и его сподвижников см.5 Словарь атеиста - Москва Издательство Полит. Литературы; 1988. -С. 232.

которые уверовали, относитесь к своим жёнам благопристойно в делах своих и словах. Если же вы их ненавидите из-за недостатка в них нравственности или из-за их внешности, то будьте терпеливыми с ними и не торопитесь разойтись. Может быть, вам что— либо и ненавистно, а Аллах устроил в этом великое благо для вас. Поистине, Аллах знает все дела!»¹³⁹

Обращаясь к хадисам мы увидим, как там раскрывается тонкости, мягкости и нежности женщин, что обязывает мужчин учитывать это в обращении с ними. Пророк Мухаммад (мир ему) сказал: «Когда на свет появляется девочка, Всевышний Аллах посылает туда ангелов, а они приветствуют «Мир вам, обитатели этого дома!» Затем ангелы покрывают родившуюся девочку своими крыльями, поглаживают головку и говорят: «Как она слаба и беспомощна и вышла из слабого тела. Если отец будет растить ее, то до Судного Дня ему будет помощь от Аллаха»¹⁴⁰.

В соблюдении обрядов, таких как ежедневные молитвы, пост, обязательные пожертвования в пользу бедных и паломничество, обязанности женщины не отличаются от обязанностей мужчины. А в некоторых случаях женщина имеет привилегии, по сравнению с мужчинами. Но так было не всегда. В доисламский период существовал обычай заживо закапывать новорожденных девочек, который впервые завели вожди племени Бану Аса'ад, и впоследствии этот обычай переняла высшая знать других племен¹⁴¹. Такой порядок вещей требовал освобождения женщин и уравнивания их в правах с мужчинами. Эта задача была воистину трудной и требовала большого терпения и упорства. Некоторые утверждают, что объяснялось это представлением о племенной чести, так как пленение дочери могло навлечь неизгладимый позор на всех ее родственников. Другие полагают, что происходило это из-за бедности. Факты свидетельствуют о существовании различных практик в зависимости от мотивов умерщвления младенцев. На Аравийском полуострове девочек умерщвляли таким образом, чтобы не проливалась кровь, - погребением заживо. Но такое отношение к женщине было запрещено Кораном: «О люди, бойтесь Владыки своего, Который создал вас из единой души, и из нее создал супруга ей, и от них двоих распространил множество мужчин и женщин; и бойтесь Аллаха, во имя Коего вы взываете друг к другу, и в отношении родственных уз. Истинно, Аллах наблюдает за Вами»¹⁴².

Женщины в Коране обсуждаются в рамках около двухсот аятов и рассматриваются в трех областях: индивидуальной, семейной и общественной жизни. Рассматривая роль женщины соответствующую ее природе, а именно родоначальницы семейной жизни – матери, нужно обратить внимание на Коран, ведя речь о Марьям (Марии) и о матери Мусы (Моисея), освящает три достоинства женщины: беременность, кормление

¹³⁹ www.vkorane.info/4-сура-женщины/19аят (дата обращения: 0403.2019)

¹⁴⁰ : https://islam-today.ru/zhenshhina_v_islame/20-hadisov-o-zensinah (дата обращения: 0403.2019)

¹⁴¹ <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2099> (дата обращения: 04.03.2019)

¹⁴² www.vkorane.info/4-сура-женщины/2аят

грудью и ее роль как воспитателя.¹⁴³ В исламской семье женщина, в первую очередь - это праведная жена своего супруга и хранительница домашнего очага. Супружество - это особая сфера человеческих взаимоотношений, включающая четкие описания обязанностей и прав мужа и жены, где муж - это глава семейства, а жена - помощник и советчик.¹⁴⁴ Первая обязанность женщины в семье, как уже говорилось - это вырастить и воспитать хороших детей. Однако не следует делать выводы, что роль мусульманской женщины ограничивается ее домом, семьей и домашним хозяйством. Важно, чтобы женщина, призванная воспитывать детей, сама была благочестива и образованна. «Учитесь и ищите знаний от колыбели до могилы! Ищите знаний, если за ними надо отправиться даже в Китай! Поиск знаний - это обязанность каждого мусульманина - мужчины и женщины»¹⁴⁵.

Мусульманки первых поколений Ислама, не удовлетворенные знаниями, получаемыми от своих мужей и других наставников, получали посвящение от открытых уроков и проповедей Пророка саллаллаху алайхи вассалам, потребовали, чтобы Пророк проповедовал отдельно для женщин после чего Пророк сразу же удовлетворил их просьбу.¹⁴⁶ Как известно, супруга Пророка Мухаммеда - Хадиджа - успешно вела торговое дело, а также оказала Пророку надежную материальную и духовную поддержку в самые тяжелые времена и помогла ему достигнуть своей цели.

Возвращаясь назад, а именно в до исламский период, хотелось бы отметить что статус женщины в до исламский период не был столь низким. Независимость коренилась в высоком материальном положении. Наряду с властью в руках немногих избранных женщин обычным в то время было угнетенное положение женского большинства и практика убийств девочек-младенцев¹⁴⁷.

Проанализировав всю выше указанную информацию и изучив исследования ученых и их труды, выясняется тот факт, что религия Ислам, оказала значительное влияние на жизнь и место женщины в обществе. Если в доисламский период права голоса и уважения имели только материально независимые женщины, то ислам обязал соблюдение уважения и почтения ко всем женщинам ,вне зависимости от их материального статуса, возраста и семейного положения, так как еще пророк Мухаммад говорил о женщинах «Ты везешь хрустальные шкатулки, будь с ними поосторожнее!»¹⁴⁸

¹⁴³ www.idmedina.ru/books/history_culture/minaret/9/baltanova.htm (дата обращения: 0403.2019).

¹⁴⁴ cyberleninka.ru/article/n/rol-i-mesto-zhenschiny-materi-v-islame (дата обращения: 0403.2019)

¹⁴⁵ Осман Эрсан. Женщина в исламе. Ее права и достоинства. -М.: САД; 2007.

¹⁴⁶ Шейх Мухаммад Садык Мухаммад Юсуф «Ийман. Ислам. Куръан». –Т.: Hilol-Nashr; 2013. –С. 151.

¹⁴⁷ <http://womensation.org/pre-islamic-period-women/>(дата обращения: 0403.2019)

¹⁴⁸ https://islam-today.ru/zhenshhina_v_islame/20-hadisov-o-zensinah/ (дата обращения: 0403.2019)

ИСТОРИЯ ТАШКЕНТСКОГО ГОРОДСКОГО ГЕРБА *(вторая половина 60-х годов XIX века – начало XX века)*

Как нам известно, геральдика – специальная историческая дисциплина, занимающаяся изучением гербов получивших широкое распространение символических знаков отличий составлявшихся по определенным правилам и присваивавшихся государствам, частям их территорий, городам, отдельным родам и лицам. Герб – частный случай эмблемы, характеризующийся тем, что его строение, употребление, правовой статус соответствуют особым, исторически установившимся правилам.

Использование методов геральдики помогает в датировке архивных документов и источников. Геральдика, изучающая изображения гербов нередко позволяет определить принадлежность, датировку, место создания того или иного письменного источника, установить его авторство и получить другие сведения, касающиеся документа.

После завоевания Российской империей в Средней Азии появляются новый вид эмблем – гербы. Как мы знаем, до этого в Средней Азии использовались в основном тамги, тугри – монограммы и другие знаки. Гербы в Средней Азии начали утверждать сначала для областей Туркестанского генерал-губернаторства, которое было образовано в 1867 году из завоеванных территорий Средней Азии. Позже административные центры и крупные города среднеазиатских областей тоже обзавелись своими гербами. Именно в это время было положено основа традиции утверждения гербов для крупных городов региона¹⁴⁹. К сожалению, до сих пор городская геральдика Туркестанского генерал-губернаторства с точки зрения геральдической науки не изучалось.

Между тем, городские гербы, как и всякий герб, – это не только произведение искусства, они часть нашей истории, и изучение их в купе с документами, которые освещают возникновение и использование гербов, будет способствовать увеличению наших знаний по ряду вопросов социально-политической истории региона¹⁵⁰. А так же изучение городских гербов как исторического источника дает нам сведения, об истории развития городов, о деятельности центральных государственных учреждений, о политике верховной власти по отношению к местной администрации.

Как нам известно, в 1865 году Ташкент был завоеван войсками Российской империи и был включен в состав Туркестанской области. В 1866 году был выработан первый проект герба Ташкента. Согласно проекту герб должен был иметь следующий вид: «Щит серебряный, разделен червленым

¹⁴⁹ Адилов Ж.Х. История создания городского герба Ташкента *(вторая половина 60-х годов XIX века – начало XX века)*// Вспомогательные исторические дисциплины в современном научном знании: Материалы XXVIII Междунар. науч. конф. Москва, 14-16 апр. 2016 г. – М.: Аквилон; 2016. -С. 96-97.

¹⁵⁰ Соболева Н.А. Российская городская и областная Геральдика XVIII-XIX вв. – М., 1981. -С. 5.

крестом, сопровождаемым четырьмя зелеными виноградными лозами с кистями. В вольной части герб Туркестанской области»¹⁵¹. К тому же щит увенчан серебрянной башенной о трех зубцах короной и окружен двумя золотыми виноградными лозами, соединенными Александровской лентой.

Этот герб не был официально утвержден. Кроме того, в 1867 году Туркестанская область была преобразована в Туркестанское генерал-губернаторство. Административным центром нового субъекта империи стал город Ташкент. К тому же Ташкент был центром Сыр-Дарьинской области генерал-губернаторства, а также центром Ташкентского уезда в составе Сыр-Дарьинской области. Ташкент – местопребывание генерал-губернатора и командующего войсками Туркестанского военного округа, станция Среднеазиатской железной дороги, административный и торгово-промышленный центр русских среднеазиатских владений.

Но, несмотря на довольно высокий статус – центр генерал-губернаторства, официально, городским гербом обзавелся лишь 21 апреля 1909 года. Официальный герб Ташкента был утвержден вместе с другими гербами Сыр-Дарьинской области. Этот герб выглядел следующим образом: «В золотом щите, лазуревый волнообразный пояс, сопровождаемый, вверху и внизу, двумя зелеными, опрокинутыми, виноградными листьями. Щит увенчан золотой башенной о трех зубцах короной и окружен двумя золотыми виноградными лозами, соединенными Александровской лентой»¹⁵². Герб Ташкента имел традиционную форму городских гербов – боевой щит, так называемой французской формы, прямоугольный, с овально закругленными нижними углами и с остриём в середине нижней части.

Гербы городов Сырдарьинской области и в частности, герб Ташкента не вошли в известную книгу П.П. фон-Винклера «Гербы городов, губерний, областей и посадов Российской империи», изданную в 1900 году. Так как они были высочайше утверждены 21 апреля 1909 года, а опубликованы в «Полном собрании законов Российской империи» только в 1912 году.

По указу «О гербах губерний, областей, градоначальств, городов и посадов» (4\16.07.1857 г.) Золотая башенная корона о трех зубцах, для других губернских городов, Александровская лента - лента красного цвета, применялась в гербах областей, градоначальств и в гербах уездных городов. А Александровская лента, с двумя золотыми виноградными лозами, для городов, занимающихся виноделием¹⁵³.

Здесь надо отметить, что до 1909 года фактически гербом Ташкента служил утвержденный в 5 июля 1878 года (закон №58684) герб Сыр-Дарьинской области. Щит городского герба в точности повторял областной герб. Но щит герба Сыр-Дарьинской области был украшен Древнею Царскою короною и окружен золотыми дубовыми листьями, соединенными

¹⁵¹ <http://www.heraldicum.ru/uzbekistan/towns/tashkent>

¹⁵² <http://geraldika.ru/symbols/9109>

¹⁵³ <http://statesymbol.ru/dictionaries/20070>

Александровской лентой¹⁵⁴. Лазуревый волнообразный пояс – это река Сыр-Дарья – источник жизни и плодородия всего края, а виноградные листья и лозы символизируют процветание виноградарства в этой области.

Гербы принятий в Российской империи считались в Советском государстве потерявшими силу, упраздненными. Их даже не удосужилось формально отменить. Герб Ташкента являлся официальным символом города до установления в нем советской власти в ноябре 1917 года. Позже этот символ города, как и все элементы бывшего режима, были преданы забвению. А следующий официальный герб Ташкент был утвержден только в 1981 году.

Таким образом, городской герб Ташкента является для нас еще одним важным источником по истории Туркестанского генерал-губернаторства. Он дает нам представление об отношении правящих верхах Российской империи к городу и к региону в целом. Кроме этого, герб несет в себе и более практические данные, как административный статус, география, флора и хозяйство. Изучение городского герба Ташкента, и других городов Туркестана в перспективе дает нам более широко изучить историю Туркестанского генерал-губернаторства. Кроме этого гербы помогают в датировке архивных документов и источников и позволяют определить принадлежность и место создания того или иного письменного источника.

*Xurramov R.S-
O‘zMU tarix fakulteti talabasi*

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MILLIY-HARBIY MATBUOT VA UNING JANGCHILAR HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

1941-1945 yillarda fashizmga qarshi olib borilgan urush o‘zbekistonliklar, ayniqsa, urush jangohlarida jon olib, jon bergan harbiylarimiz uchun qanchalik og‘ir kechganini urushning qaynoq izidan borib yozib qoldirilgan tarixiy voqeahodisalar, maqolalar orqali bilib olish mumkin. Urush voqealari haqida ma’lumot beruvchi manba frontlardagi milliy-harbiy matbuotdir. Harbiy matbuotni yo‘lga qo‘yish, uni jangchilarning jangavor targ‘ibotchisiga aylantirish masalasi urushning ikkinchi kuniyoq kun tartibiga qo‘yilgan va hal qilingan edi. Chunki mustabid tuzum matbuotning jangchilarning fashizmga qarshi nafratini oshirishda, ularni qahromonlik ko‘rsatishga chorlashda, eng muhimi, askar va zobitlarni mafkuraviy iskanjada ushlashdagi rolini yaxshi bilar edilar. Shu bois, Qizil armiya siyosiy propaganda bosh boshqarmasi 1941 yil 23 iyunda “Front, diviziya matbuoti ishini yaxshilash haqida”¹⁵⁵ direktiva qabul qildi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalarining harbiy nashr vakillari ham mazkur boshqarmada maslahatchi sifatida qatnashdilar. Jumladan, mohir o‘zbek harbiy jurnalisti To‘lqin Rustamov O‘zbekistondan vakil sifatida ana shunday lavozimda mehnat qildi. Respublika

¹⁵⁴ П.П. фон-Винклер. Гербы городов, губерний, областей и посадов Российской Империи, внесенные в Полное Собрание законов с 1649 по 1900 год. С. –Пб., 1900. С. 149.

¹⁵⁵ Норматов К. Огненные версты. -Т.: Узбекистан; 1993. –С. 8.

vakillarining ushbu boshqarmaga maslahatchi sifatida ishga qo'yish orqali ularga frontlarda, armiya va diviziyalardagi gazetalar yo'nalishini boshqarish vazifalari yuklatilgan edi. Ularning bu lavozimdagi faoliyatini front va frontorti matbuoti tarixi orqali ko'rishimiz mumkin.

Urush yillarida birgina Sovinformbyuro qizil armiyaning jang maydonlardagi harbiy harakatlari va jang tafsilotlari haqida 2,5 mingdan ortiq ma'lumot va xabarlarni yetkazib berdi. Bu xabarlar chet el matbuotlarida ham yoritib borildi. Ma'lumki, Sovinformbyuro urush boshlanganidan 3 kun o'tib tashkil etilgan¹⁵⁶.

1942 yilning 2-yarmidan boshlab front gazetolari milliy tillarda nashr etila boshlangan. Ba'zi manbalarda frontlarda o'zbek tilida nashr etilgan gazetalar soni 14 ta ekanligi qayd etilgan¹⁵⁷. T.Ernazarov va A.I.Akbarovlar esa o'z asarlarida o'zbek tilida 13 ta front gazetasi, 3 ta diviziya va 1 ta okrug gazetasi nashr etilgan deb yozishadi¹⁵⁸. Boshqa bir manbada esa 14 ta front va 12 ta diviziya gazetolari nashr etilganligi ta'kidlanadi¹⁵⁹. Shu bois, manbalarga asoslangan holda ularning umumiy soni quyidagicha nomlarda chop etilganligini keltirishimiz mumkin.

1. **“Dushmanga qarshi olg'a”** gazetasi 1942 yil iyundan boshlab, avval Kalinin, 1943 yil 23 dekabrda esa 1-Boltiq bo'yi frontida nashr etilgan. Gazetaning bosh muharriri sifatida dastlab N.S.Kassin, so'ngra 1943 yil 19 dekabrda boshlab M.M.Ramzin faoliyat ko'rsatgan.

2. **“Vatan uchun”** gazetasi 1945 yil 20 iyuldan 1946 yil oktabr oyiga qadar Boltiqbo'yi harbiy okrugi siyosiy boshqarmasining organi sifatida nashr etilgan.

3. **“Dushmanni tor-mor etish”** gazetasi 1942 yil avgustdan 1945 yil noyabr oyiga qadar o'zbek tilida Bryansk frontining siyosiy organi sifatida chop qilingan.

4. **“Suvorovchi”** gazetasi 1943 yil 13 noyabrda 2-Boltiq bo'yi frontining siyosiy organi sifatida nashr qilingan. Uning bosh muharriri A.M. Volovets va o'rinbosarlari sifatida A.Saitov, Nabi Yusupov faoliyat yuritgan. Gazetada 1944 yil oxiridan boshlab M.Muhammedov va boshqa muxbirlar ishlagan.

5. **“Front haqiqati”** bu gazeta 1944 yil aprel oyidan 2- Belorussiya fronti siyosiy boshqarmasining organi sifatida nashr qilinga. Ushbu gazetada N.Egamnazarov va boshqalar ishlagan.

6. **“G'alaba bayrog'i”** nomi bilan nashr qilingan gazeta (oldin “Front haqiqati” edi) 1945 yil 5 iyuldan e'tiboran sovet qo'shinlarining Shimoliy guruhi siyosiy boshqarmasining organi sifatida gazetxonlar orasida tanildi.

7. **“Qizil Armiya”** gazetasi 1942 yil oktabrdan Don frontida nashr etila boshlandi. Bu gazeta Don, Stalingrad, Markaziy va 1- Belorussiya frontlari, so'ngra Germaniyadagi sovet qo'shinlari gruppasining siyosiy boshqarmasi organi bo'ldi.

8. **“Qizil askar haqiqati”** gazetasi 1942 yil 1 noyabrda boshlab G'arbiy frontda nashr etildi.

¹⁵⁶ Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941-1945) . Тарих фанлари нозоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган Диссертация.-Т.: 2004. –Б. 104.

¹⁵⁷ Корреспондент. –М.: 1974. - №10. –С. 10.

¹⁵⁸ Эрнazarov Т.Э., Акбаров А.И. История печати Узбекистана (1925-1952) –Т.: Укитувчи; 1997. -С. 207.

¹⁵⁹ Усмонов Қ. Содиков М. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991). -Т.: 2002. –Б. 162.

9. **“Vatan sharafi uchun”** gazetasi 1942 yil 28 noyabrdan Voronej frontida chiqqan boshladi. Mas’ul bosh muharrirlar bo‘lib L.I.Troskunov, S.I. Jukov, 1945 yil iyuldan V.M.Tuninlar ishladi.

10. **“Suvorov natiski”** gazetasi **“Красный боец”** armiya gazetasi bazasida 1943 yildan 1945 yil avgustgacha nashr etildi.

11. **“Sovet jangchisi”** gazetasi 1942 yil 25 dekabrda Janubiy G‘arbiy front organi sifatida nashr etildi.

12. **“Stalin bayrog‘i”** gazetasi 1942 yil oktyabrdan, dastlab Janub, keyin Stalingrad frontlarining, 1943 yil oktabrdan bu frontning o‘zgarishi bilan, ya’ni 4-Ukraina frontiga aylantirilishi munosabati bilan uning siyosiy organi bo‘ldi.

13. **“Bong”** gazetasi Uzoq Sharq fronti siyosiy boshqarmasining organi bo‘lib, Xabarovskda 1942 yil mart oyidan 1944 yil may oyi oxirigacha haftasiga 2 martadan nashr etildi. Hammasi bo‘lib gazetaning 227 soni chiqdi.

14. **“G‘alaba uchun”** gazetasi o‘zbek tilidagi front gazetolari orasida yagona brigada gazetasi bo‘lib, u Janubiy-G‘arbiy frontning 90-alohida o‘qchi brigadasi siyosiy bo‘limining organi edi.

15. **“Harbiy o‘rtoq”** gazetasi Janubi-G‘arbiy frontning 3-zarbdor armiyasi uchun nashr etilgan. Uning tashkilotchisi Faxri Kamol edi¹⁶⁰.

Qizil armiya siyosiy bosh boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 1943 yildan boshlab 14 ta frontda, 2 ta harbiy okrugda va 3 ta armiyada 100 ga yaqin nomlarda gazetalar bir qator xalqlar tillarida nashr etilgan. Jumladan, o‘zbek tilida 11 ta, qozoq tilida 10 ta, tatar tilida 8 ta, ozarbayjon tilida 6 ta, gruzin tilida 5 ta, arman tilida 4 ta, tojik tilida 2 ta, turkman, qirg‘iz, boshqird tillarida 1 tadan gazetalar nashr etilgan¹⁶¹.

Urush yillarida O‘zbekistonda jami bo‘lib, 200 ta gazeta chiqarilib, shundan 124 tasi o‘zbek tilida chop etilgan. Bundan tashqari, respublikada 52 ta jurnal nashr etilib, shundan 19 tasi o‘zbek tilida bo‘lgan. Urush yillarida O‘zbekistonda chiqarilgan gazetalarning umumiy nusxasi 900 mingtani tashkil qilgan bo‘lib, ulardan o‘zbek tilidagisi 600 ming nusxani tashkil etgan¹⁶².

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy-harbiy matbuot ikkinchi jahon urushi yillarida o‘z xizmatlari bilan g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan. Front matbuotida harbiy muxbirlar faoliyati alohida o‘ringa ega ekanligini ko‘ramiz. Chunki ular urushning oldingi marralarida bo‘lib, dahshatli janglarning guvohi bo‘lganlar va bu voqealarni qog‘ozga tushirganlar. Urush yillarida O‘zbek milliy front matbuoti yuksak darajada faoliyat ko‘rsatdi. Ularning xizmati shunda bo‘ldiki, ular o‘zbekistonlik jangchilarning qahramonlik tafsilotlarini yoritish misolida frontdagi ahvolning haqqoniy tavsifini ko‘rsatishga harakat qildi. Lekin, shunday bo‘lsa-da, gazetalar sahifalarida bosilib chiqqan maqolalarda kommunistik targ‘ibotchilik, balandparvoz shiorlar ruhi, mafkuraviy niqob yaqqol sezilib turadi.

¹⁶⁰ Азимов Х.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи (1941-1945) . Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган Диссертация. -Т.: 2004. –Б. 104.

¹⁶¹ АМОРФ, ф.32, оп.13797, л.135.

¹⁶² Ўзбекистон тарихи ва маданияти. –Т.: -Б. 232.

Milliy-harbiy matbuot haqidagi ma'lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, sovet tuzumi urush yillarida ham har doimgidek mahalliy jurnalist kadrlarga ishonmagan. Buni biz yuqorida sanab o'tilgan milliy front gazetalarining barchasida rus bosh muxarrirlar rahbarlik qilganligida ko'rishimiz mumkin. Faqatgina ayrim hollarda Yo'lchi Bilolov va Faxri Kamol vaqtinchalik ma'sul bo'lib ishlashgan, xolos.

Umuman, matbuot o'z sahifalarida Gitler fashizmining bosqinchilik maqsadlari va talonchilik mohiyatni fosh qildi. Mehnatkashlarni dushmanga qattiq nafrat ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Urush davri o'zbek adabiyoti xalq va armiyani dushman ustidan erishilajak g'alabaga safarbar etish, xalqning ruhiy qudratini ro'yobga chiqarish, olamshumul tarixiy voqealarga oz bo'lsada, ta'sir o'tkazishga qodir kuch ekanligini namoyish etdi. Ozbek xalqining jangchilariga aynan matbuot orqali hayajonli maktublar yetib bordi. Unda ota va onalar o'z farzandlarining jasoratli bo'lishga, so'nggi tomchi qolguncha urushishga chaqiruvchi qizg'in vatanparvarlik topshiriqlari yangradi. Ularning maktublarida shunday so'zlar bitilgan "O'zbek xalqining sher yigitlari! Yigit kishining uyalgani—o'lgani, degan bobolarimiz, o'zbek xalqining nomiga isnod keltiruvchi ish qilmangiz. Bolalik chog'laringizda onalaringiz alla aytib tanitgan pahlavonlar: Alpomishlar, Rustamlar, Ravshanbeklar, Avazxonlar sizga yor madadkor bo'lsin!".

Umuman olganda front matbuoti o'sha davr uchun xalqlar do'stligi bayrog'i, jangchilarning ona yurtlari, yaqinlari bilan aloqa qilish vositasi bo'lib xizmat qildi.

*Hayitmurodov R. –
O'zMU Tarix fakulteti talabasi*

G'UZOR TUMANIDAGI AYRIM ZIYORATGOH VA QADAMJOLAR XUSUSIDA MULOHAZALAR

G'uzor tumani Qashqadaryo viloyatining yetakchi tumanlaridan biri bo'lib, u qadim tarixga ega. Ushbu hududdan mashhur olim-ulamolar, buyuk insonlar yetishib chiqqan. Mazkur olimlarning hayoti bilan bog'liq tarixiy joylarni va qadamjolarini o'rganish hamda targ'ib etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zeroki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusida so'zlagan nutqida: "Tariximiz, madaniyatimiz, dinimizga aloqador bir varaq qo'lyozma bo'lsa ham ularni to'plab, xalqimizni, yoshlarimizni tanishtirish, bizning qanday buyuk va betakror merosimiz borligini anglatish, farzandlarimizni shu ulug' merosga munosib etib tarbiyalashdan iboratdir. Bu buyuk allomalar va aziz avliyolarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha boshlangan ishlarimizni davom ettirishimiz kerak"¹⁶³, – degan so'zlaridan kelib chiqib hamda hukumatimiz

¹⁶³ Mirziyoyev Sh. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi". "Xalq so'zi" gazetasi, -T.: 2017. 15-iyun. –B. 2-3.

tomonidan ota-bobolarimiz va ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy-ma'naviy merosini asrab-avaylash, o'rganish, tadqiq etishga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda G'uzor tumanida "Mir Janda ota", "Musofir ota", "Tohir va Zuhra" kabi ko'plab madaniy meros yodgorliklari mavjud. Xususan, "Mir Janda ota" (Shayx Shahobuddin Umar Suhravardiy) ziyoratgohi doim uzoq va yaqindan tashrif buyuruvchi ziyoratchilar bilan gavjum.

Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur tomonidan olib borilgan ulkan obodonlashtirish ishlari natijasida Ahmad Yassaviy, Zangiota kabi ko'plab maqbaralar obod etilgan. Xususan, G'uzor tumani joylashgan "Mir Janda ota", "Musofir ota" kabi tariqatchilarning maqbaralari ham Sohibqiron bobomiz davriga borib taqaladi.

Sharqshunos olim V.V.Bartold, Amir Temur davrida faoliyat yuritgan buyuk fohihning mashhur tarixnavislaridan biri bo'lgan yirik olim Fasih Havofiy kabilar uning qabri aynan yurtimizda – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida joylashgan Mir Janda qabristonida ekanligini ishora qiladilar.

"Mir Janda ota" yoki Shayx Shahobuddin Umar Suhravardiy nomi bilan mashhur tariqatchi maqbarasining yurtimizda paydo bo'lishi ham Sohibqiron Amir Temur bilan bog'liq. Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida bu haqda shunday deydi: "Amir Tarag'ay hirkasi jihatdan karomat nasabli, xudojo'y shayxu-l-islom Shahobuddin Suhravardiyga, unga borib yetuvchi shayx Shamsiddin Kulolga sidqidildan ixlos qilar edi va uning muborak qabriga tez-tez borib turardi"¹⁶⁴.

Shahobuddin Suhravardiy 539/1144 yil tavallud topib, 632/1234 yil muharram oyida vafot etgan¹⁶⁵.

Allomaning to'liq ismi Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Shahobuddin Suhravardiy bo'lib, u kishi shubhasiz, o'z davrining ko'zga ko'ringan siymolaridan biri bo'lgan. Uning "Tasavvufiy ta'limot va tarbiyaning ustozlari" laqabi bilan atalganligi hamda Bag'dodda xalifa Nosir li-Dinilloh huzuridagi samarali ilmiy-amaliy va siyosiy faoliyat tufayli "Barcha ustozlarning ustozlari" kabi o'ta sharaflil unvonga lozim topilganidan ham allomaning naqadar, ulkan salohiyatga ega bo'lganligini bilsa bo'ladi.

Umar Suhravardin shogirdlari va o'g'illarini ayni shu maqsadda islom mintaqasida turli hududlariga safarbar etgan edi. G'uzor tumani tarixi bo'yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra, Shayx Shahobuddin Suhravardiy abadiy qo'nim topgan joy hozirgi G'uzor shahridagi Miri Janda qabristonida bo'lishi mumkin¹⁶⁶.

Allomaning hayotining asosiy qismi Bag'dod shahrida o'tgan. U umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolsa-da, shunga qaramay ilmiy faoliyatini to'xtatmagan. Shayx Suhravardiy – o'rta asrlarda faoliyat yuritgan buyuk sufiy, fafiq, qator islomiy ilmlar sohibi, til va hol ilmini yuksak darajada egallagan mohir imom, usulchi olim. U jamoatga va'zlar o'qigan, hadislar rivoyat qilganlar. Ilm olish bilan bir qatorda, boshqa ko'plab allomalar singari biror kasb etagidan tutish

¹⁶⁴ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. –Т.: Шарқ нашриёти; 1997. – Б. 155-156.

¹⁶⁵ Даминов И. Гузал юртнинг буюк фарзандлари. –Т.: 2018. –Б.71-85.

¹⁶⁶ Жўраев А. Гузор тарихи. –Т.: 2015. –Б. 149-157.

maqsadida tijorat ishlari bilan ham shugʻullangan. Demak, kasbini ulugʻlagan. U yunon falsafasi, toʻgʻrirogʻi “falsafalarning yunonlashuvi”ga qarshi “Falsafa” (“Falsafalar”) risolasini yozdi va unda oʻz eʼtiqodiy qarashlarni izchil bayon etdi. Suhravardiyning “Avorifu-l-maʼorif” (“Maʼrifat tuhfalari”) nomli asarida ham ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Muhim asar sifatida risola XIII-XVI asrlarda fors, turk kabi qator tillarga tarjima qilinib, unga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Mazkur asar tarkibiy jihatdan 63 bobdan iborat. U tasavvuf gnoseologiyasi, odob-axloqi, psixologiya amaliyotiga bagʻishlangan. Unda dunyoviy ilmlar bilan ilohiy ilmning uzviy bogʻlanishi ishonchli dalillar asosida isbotlab berilgan. Shuningdek, yozma manbalarda uning yana “Taqvodorlar aqidasi”, “Al-Gʻavsi-l-Gʻiloniy manoqibida oliyjanob kishilarning quvonchi”, “Qurʼon tafsiri va amallar bayonidan koʻzlangan maqsad”, “Xuroson ulamolarining savollariga javoblar”, “Suhravardiy duolarining xususiyatlari”, “Hidoyat belgilari” va “Shogirdlar odobi” kabi asarlari ham boʻlganligini taʼkidlanadi.

Shahobuddin Umar Suhravardiy buyuk sufiy shayxlardan biri boʻlishiga qaramasdan, oxirat uchun bu dunyodan voz kechuvchi zohid emas edi. Suhravardiy aksar xos olimlardan farqli ravishda, saroyning siyosiy muhitida ham faol ishtirok etdi. U buyuk diplomat va huquqshunos sifatida keng tanildi. Ilmiy salohiyatining yuqoriligi bois, amir unga koʻplab ulugʻvor nomalar bitganligi manbalardan maʼlum¹⁶⁷. Hatto, xalifa uni Bagʻdod shayxlarining rahnamosi etib tayinlagan. Keyinchalik, Xalifa Nosir li-Dinilloh (1180-1225) saroyida maslahatchi darajasiga koʻtarildi hamda oʻta dolzarb, masʼuliyatli diplomatik faoliyat bilan ham shugʻullandi. Shu bilan birga, oʻzining shayxlik vazifalarini ham unutmad. Xalifa nomidan Suriya, Misr, Ayyubiylar poytaxti Halabda diplomatik muzokaralar olib borar ekan, bir vaqtning oʻzida, bu mamlakatlardagi allomalar bilan qizgʻin bahs-muzokaralarga kirishdi. Uning Halab shahriga qilgan tashrifi haqida zamondoshlarida biri: “Suhravardiy Malik Zohir saroyida nutq soʻzladi. Bu nutq zamonaviylik jihatida ham, taʼsirchanlik jihatidan ham shu darajada yuksak ediki, oʻtirganlarning yuragi unga boʻysunib, koʻzlariga yosh keldi” – deb yozadi.

1217-1218 yillarda Umar Suhravardiy xorazmshoh Alovuddin Muhammad bilan diplomatik muzokaralar olib bordi. Bir yildan soʻng esa oʻz missiyasini saljuqiylar hukmdori Koʻn Alovuddin Kaykubod I saroyida davom ettirdi.

Taniqli ingliz olimi J.S. Trimngem Umar Suhravardiy haqida shunday yozadi: “U buyuk shayx ustoz edi. Koʻplab zamondosh sufiy shayxlar u bilan xat yozishib turar, unga muammoli, mushkul masalalar yechimida yordam soʻrab murojaat qilar hamda uning maslahatlarini fatvo oʻrnida qabul qilar edilar”¹⁶⁸.

Shayx Saʼdiy “Boʻston” nomli asarida Umar Suhravardiyning oʻzining ustozini deb atagan, soʻz mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ham u haqida iliq fikrlarni keltirgan keltirgan.

Shuningdek, Suhravardiya izdoshlari Kubroviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro ustozlari sanaladi. Shahobuddin Umar Suhravardiy abadiy

¹⁶⁷ Нуриддинов Х. Фузорнома. –Т.: Янги нашриёт; 2011. –Б. 27-30.

¹⁶⁸ Тримнгем Дж. Суфийские ордены в исламе. –М.: 1989. –С. 15-16.

qo‘nim topgan joy xalqimiz orasida Miri Janda nomi bilan mashhur. Xalqimiz orasida buyuk sufiy kiygan jandaning allomaning ilmiy, diplomatik safarlari bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra bu yerga kelib qolganligi hamda uzoq vaqt, ya‘ni yaqin-yaqinlarga qadar shu masjidda saqlanganligi bois “Miri Janda” jome masjidi nomini olganligi haqida qator rivoyatlar yuradi.

Shunday bo‘lsa-da, Miri Janda masjidi uzoq yillar mobaynida xalqimizning tabarruk qadamjolaridan biri sifatida musulmonlar ehtiromida bo‘lib keldi va hozir ham shunday bo‘lib qolmoqda. Yurtimiz uzra mustaqillik shamoli keza boshlagach, boshqa shahar va viloyatlarimizdagi singari Qashqadaryo viloyatida ham qadimiy obidalarni ta‘mirlash, tiklash borasida talay ishlar amalga oshirildi. G‘uzor tumani xalqi, xususan, mahalla oqsoqollari va diniy arboblarning tashabbusi bilan 2009 yilda Mir Janda jome’ masjidi hududida joylashgan Shahobuddin Umar Suhravardiy maqbarasi va ziyoratgoh atrofining butunlay qayta ta‘mirlanishi ham yuqoridagi kabi xayrli, savobli ishlarning uzviy davomi bo‘ldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi, hozirda ushbu majmua tarkibiga kiruvchi masjidning batamom qayta, zamonaviy ko‘rinishda qad ko‘tarayotir. Bu xayrli ishlar, shubhasiz, yurtimizda muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari hamda hayotiy ko‘rsatmalari bilan olib borilayotgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlarining yana bir namunasi.

Tumandagi yana bir mashhur qadamjolardan biri “Musofir ota” maqbarasidir. Qashqadaryo vohasi qadimdan Buyuk Ipak yo‘llari tutashgan joyda bo‘lganligi tufayli bu zaminni madaniyati rivojlangan, ma‘rifatli zotlarni tarbiyalagan, islom g‘oyalarini takomillashtirgan, ta‘limotlarni bog‘lagan ma‘naviy ko‘prikdir, desak xato bo‘lmaydi.

Musofir ota nomidagi qabriston va ziyoratgoh hijriy 533 yilda, milodiy 1130 yilda paydo bo‘lgan¹⁶⁹. Asli Samarqandning Kattaqo‘rg‘on shahridan bo‘lgan Abdullaxo‘ja ibn Muhammad boshchiligidagi bir guruh kishilar Haj ziyoratiga otlanadilar. Aytishlaricha, ular ayol-erkak jami 60 nafar kishi bo‘lib, uzoq yillar qiyinchilik va zahmatlar bilan ular ulug‘ maskanlarda haj ibodatlarini ado etib, yurtga qaytadilar. Bu guruhdagi zotlar tariqat yo‘llariga hayotlarini bag‘ishlagan, ilm-ma‘rifatda bir muncha yo‘l bosib qo‘ygan kishilar bo‘lib, yo‘l bo‘yi savob ishlarini amalga oshirib kelayotgan edilar. Ul zotlar hozir tilga olingan maskanga kelganlarida bu yerda istiqomat qilgan aholi qishloqlarga suv chiqarish uchun ariq qazilayotganining guvohi bo‘ladilar. O‘shanda Haj ziyoratidan qaytgan kishilarning yagona oti bo‘lib unga, qartayib qolgan pirlarini mindirgancha, yetaklab keladilar.

Bu urug‘ning piri murshidi Abdullaxo‘ja ibn Muhammad nihoyatda qarib qolgani uchun ulov sifatida foydalanishgan. Hayrovga chiqqan aholining och, yupinligini ko‘rgan Hazrat xalqqa ko‘mak berish uchun to‘xtaydilar va yagona ulovini so‘ndirib, hashar oshi tayyorlatadilar. Qorinlarini to‘lagan aholi ariqni g‘ayrat bilan bitkazadilar. Suv kelishini xalq bayram qiladilar, Abdulla xo‘jaga hamdu-sanolar aytadilar. Barchalarini Hazrat duo qiladilaru, ularning ko‘z o‘ngida jonlarini haqqa topshirdilar. O‘sha damda Hazratning nomlarini ham bilib

¹⁶⁹ Эргашев А. Мусофир ота ёхуд Амир Хусайн Қавчин зиёратгоҳи. –Т.: Hilol media; 2018. – В. 20-25.

ulgurmagan xalq Abdulla xo‘ja ibn Muhammadni Musofir otamiz qazo qildilar, ul zotni daladan kuzatmaylik, izzatini joyiga qo‘yib, janozalarini ham masjidida o‘qiylik. Axir bul zot bizga shuncha muruvvat ko‘rsatdilar, mayitlariga Kattaqo‘rg‘onga yubormay olib qolaylik, deya tuni bilan ishga kirishadilar. Minglab ixlos kishilari qo‘llariga tushgan narsani keltiradi, chim o‘yib yerto‘lalardan uylar qurishadi. Tongda uyg‘onsalar bir ilohiy masjid va minora paydo bo‘lganini ko‘radilar. Bu ulug‘ inoyatdan ruhlangan kattaqo‘rg‘onlik xojilar shu yerda makon tutib qoladilar. Bu guruhni shundan so‘ng Abdulla xo‘ja ibn Muhammadning singillari Hadicha bibi boshqaradilar. Yillar, asrlar o‘tib bu guruh vakillarining barchasi dunyodan o‘tib, Musofir ota qabrlari atrofiga qo‘yiladi. Avlodlari Hadicha bibi xizmatlarining e‘tirofi sifatida vafotlaridan so‘ng zoti oliyaning sharafiga maqbara qurdiradi. Bu zotlar muruvati haqida ko‘plab rivoyatlar bor: Rivoyatlarga ko‘ra Amir Temir hazratlari og‘ir jangdan mag‘lub qaytadilar. O‘shanda lashkar ruhi singan Jahongirni navkarlar asta-sekin tashlab keta boshlaydilar. Shunda bobokalonimiz xudoga iltijo qilib, madad so‘raydilar. Ko‘p o‘tmay mash‘ala ko‘targan oltmish suvoriy yo‘llariga chiqadi. Bunga guvoh bo‘lgan lashkar birin-ketin qaytib keladi. Barchalari mash‘ala ko‘targanlar ortidan ergashib, Musofir ota degan ulug‘ joyga kelganda qozonlarda taomlar pishib dasturxon ularga muntazir turardi. Lashkar och va holdan toygan edi. Ular oltmish yerto‘lada taom tanovvul etib, miriqib dam oladilar. Tongda uyg‘onsalar, qabristonda ekanliklarini ko‘radilar. So‘ng Amir Temir hazratlari oqsoqollardan so‘rganlarida: Musofir otamiz ixlos kishisini niyatiga yarasha qo‘llaydi, dedilar.

Bu voqeadan so‘ng Amir Temur hazratlari janglarda qo‘li baland keladi. Mash‘ala tutgan ulug‘lar yo‘llarini yoritganini yoddan chiqarmaydi. Samarqandda bunyodkorlik ishlari olib borayotgan bir paytda Musofir ota va ul zotning ma‘rifatli singlisi Hadichabibi sharafiga ular qabrlari ustida maqbaralar qurdiradi, obod etadilar.

Tumanda mavjud Tohir va Zuhra deb nomlanuvchi qadamjoni tuman aholisi Tohir va Zuhra afsonasidagi voqelar aynan shu joyda bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Tadqiqotchi A.Jo‘raevning ta‘kidlashicha, xalq orasida e‘zozlanib kelingan “Tohir va Zuhra” dostoni “O‘zbekfilm” studiyasi tomonidan yaratilgan ajoyib film aynan shu yerda ya‘ni ular mangu qo‘nim topgan joyda suratga olingan¹⁷⁰. Shuningdek, taniqli yozuvchi Y.Berezikovning “Sharq yulduzi” jurnalining 1988 yil 8-sonida chop etilgan “Tirik afsona” asari Do‘ng Qovchinlik yoshi ulug‘ kishilarning hikoyalari asosida yaratilgan¹⁷¹.

Do‘ng Qovchin qishlog‘i geografik jihatdan daryolar orasi Qashqadaryo va G‘uzor daryolari qo‘shilishidagi hududda joylashgan. Uning tabiati xushmanzara va yerining unumdorligi suv resurslarini yaxshi bo‘lganligi shu yerdagi shahar va qishloqlarning rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Shuningdek, bu joyning savdo karvonlari tutashgan huduga aylanganligi shahar obodonchiligiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida Abdullaxon hukmronlik qilgan (1557-1598) yillarda obod bo‘lgan Xuzor,

¹⁷⁰ Жўраев А. Ғузор тарихи. –Т.: 2015. –В.167.

¹⁷¹ Жўраев А. Ғузор тарихи. –Т.: 2015. –В.167.

Yangikent, Do'ng Qovchin, Qoratikan qishloqlari va mavzolari tilga olinadi¹⁷². 1574 yilning kuzida Abdullaxon Qarshi, Xuzor, Shahrisabzni jang bilan olgandan keyin o'z qo'shinlarini Qoratikan qishlog'ida harbiy ko'rikdan o'tkazgan. Chunki, bu joy xushmanzara va harbiy ko'rikdan o'tkazish uchun qulay joy deb topilgan.

Tohir va Zuhra qabristonini obodonlashtirish masalasiga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Qashqadaryo viloyatiga rahbar bo'lgan davrda katta e'tibor qaratdi. Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-1992 yillarda qadamjoda katta qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada, ziyoratgoh chiroyli xiyobonga aylandi. Ziyoratgohga Tohir va Zuhra afsonasidagi voqealarga asoslangan asar qahramonlari haykallari majmuasi, favvora bunyod etilib, atrofga har xil manzarali daraxtlar ekildi. Endilikda bu hudud sayohatchilar diqqatini o'ziga tortadigan xiyobonga aylandi.

Umuman olganda, G'uzorda ko'plab buyuk olim va tasavvuf tariqatining yirik namoyondalariga bag'ishlangan ziyoratlar joylashgan. Yuqorida ta'kidlangan qadamjolar nafaqat viloyatda, balki Respublika ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Turli viloyatlardan mahalliy hamda xorijiy ziyoratchilarning tashrif buyurishi ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Ma'naviy sohada olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, "Miri Janda ota", "Musofir ota", "Tohir va Zuhra" kabi bir qator qadamjolarida obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Mazkur ziyoratgohlar tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

*Shamsiddinova Sh. –
O'zMU Tarix fakulteti talabasi*

AMIR TEMUR DAVRIDA MOLIYA-PUL SIYOSATI

Har qanday mustaqil davlatning asosini uning iqtisodiy imkoniyatlari va ushbu imkoniyatlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga ega ekanligi tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, davlatchiligimiz tarixidagi har qanday davlatning qancha vaqt hukm surganligi yoki undagi ijtimoiy-siyosiy muhitning holati birinchi galda uning iqtisodiy qobiliyatidan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqqan holda esa biz o'z o'rganish obyektimizni bir nuqtaga qaratdik va o'rganish obyekti sifatida Amir Temurning moliya sohasidagi amaliy ishlarini yoritishga harakat qildik.

Amir Temurning yuritgan siyosati bugungi mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy siyosati uchun o'ziga xos yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'sha davrdagi mamlakatning budget tuzilishi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Amir Temur o'z davlatida iqtisodiy sohadagi siyosatni amalga oshirishda, avvalo, davlat moliyasining avvalgi tizimlarini tugatdi va qo'l ostidagi barcha hududlarni markaziy boshqaruv hamda iqtisodiy jihatdan yagona tizimga birlashtirdi. Amir Temur o'z hukmi ostidagi hududlarda Qur'oni Karim va islom dinining shariat qonun-qoidalari asosida soliq tizimini shakllantirdi, bunda har bir mamlakat aholisining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, imtiyozlar joriy qildi.

¹⁷² Хофиз Таниш ибн Муҳаммад Бухорий. Абдулланом, 1-jild. –Т.: 1966. –Б. 145-151.

Davlat xazinasi manbalari va mahalliy ulus hamda tumanlar ixtiyoridagi mablag'lar tarkibiga aniqlik kiritdi, ularning markaz bilan moliyaviy munosabatlarini takomillashtirdi. "Agar Yevropada birinchi budjet tuzilishi Angliya va Fransiyada XVII asrda paydo bo'lgan bo'lsa, Amir Temur o'z davlatida undan uch asr avval mamlakatni idora etishda budjetning dastlabki kurtaklarini ishlab chiqdi va joriy qildi,"¹⁷³.

U davlatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun ko'plab islohotlarni amalga oshirdi. Dastlab, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga, ichki va tashqi bozordagi savdoni ko'paytirish hamda so'nggida pul islohoti o'tkazilishi yorqin misol bo'la oladi. Shuni ta'kidlash joizki, hokimyat tepasiga kelgan har qaysi hukmdor ham pul islohoti amalga oshirishga qodir bo'lmagan. Zero, bu juda katta mablag' va kuch talab qilsa, masalaning boshqa tomoni amalga oshirilgan pul islohoti uzoqdagi tobe hududlarni itoatda tutib, markazga bo'ysundirishning qulay vositasi ham bo'lgan.

Temur davrida mamlakatning barcha iqtisodiy masalalarni bajarish bilan moliya devoni shug'ullangan. Mamlakat va raiyyat vaziri soliqlar, kirim-chiqimlar, xazina ahvoli bilan shug'ullangan. Mulkchilik va soliq ishlari vaziri- egasiz qolgan mol-mulklarni nazorat qilish ichki va tashqi savdodan tushadigan daromadlarni hisobga olish, meros masalalarini hal qilgan.

Temur o'z "Tuzuklari"da davlat uchun iqtisodiy ustuvorlik muhim ekanligini ta'kidlab: "...davlat saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tikdur"¹⁷⁴ degan hikmatli so'zlarni zikr qilgan. Mustahkam moliya tizimi mamlakatda barqarorlikni ta'minlashdagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababdan bu sohadagi har bir jihat ahamiyatlidir. Shu o'rinda, savol tug'ildi: Amir Temur davriga qadar o'lkada budjet tuzulishi qanday bo'lgan? Manbalarda qayd etilishicha, "O'zbek davlatchligining Amir Temur davrigacha bo'lgan tarixida qadim zamonlardan beri xazinani idora qilishda saljuqiylar sulolasining mashhur vaziri Nizomulmulkning "Siyosatnoma"sida tushuntirib berilgan tartibot saqlanar edi."¹⁷⁵ Asarda shunday deyiladi: "Shohlarda hamisha ikkitadan xazina bo'lgan, ularning biri asosiy, ikkinchisi harj va harajat xazinasi edi. Qo'lga kiritilgan mol-u boylik asosan, birinchi xazinaga to'lanardi va zaruratsiz bu xazinadan bir dirham ham harj etmasdilar. Agar biror narsa olsalar ham, qarz sifatida olib, tez joyga qaytarardilar"¹⁷⁶. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, o'lkadagi moliya tizimi asrlar davomida shakllantirilgan.

Mamlakatning moliya tizimida soliqlarni yig'ish, ularni joriy etish va bekor qilish tartibi muhim hisoblangan. Bunga sabab esa davlat budjeti asosan soliqlardan shakllangan. Bu davrda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan xiroj va ushr solig'idan tashqari savdogarlar, hunarmandlar zakot yoki tamg'a solig'i to'laganlar. Shuningdek, chegaradan o'tgan mollar hisobidan ham boj olingan. Bularning hammasi xazinaning asosiy qismini tashkil qilgan. Davlatda soliqlardan tashqari yana ko'plab daromad manbalari mavjud bo'lgan. Ular quyidagilar: oltin

¹⁷³ Amir Temur jahon tarixida. -T.: Sharq; 2001. -B. 105.

¹⁷⁴ Temur tuzuklari. - T.: Ўзбекистон; 2011. -B.109.

¹⁷⁵ Amir Temur jahon tarixida. -T.: Sharq; 2001. -B. 105.

¹⁷⁶ Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). -Т.: Янги аср авлоди; 2008. -Б. 214.

va kumushga o'xshash nodir metallar qazib olish va ularni sotish, tangalar zarb qilish, vorissiz mol-mulklar, turli jarimalar, hadyalar davlat xazinasini mutassil boyitib turgan.

Temur davlatida budget tuzulishi murakkab bo'lishi bilan birga puxta shakllantirilgan. Uning davrida joriy yil uchun sarflangan tushumlar, chiqimlar hisoblanishi bilan keyingi yil uchun ham sarflanadigan xarajatlar bir yil oldindan hisoblab chiqilgan.

Davlat xizmatchilariga maosh to'lanishi ham boshqa o'lkalardagidan farq qilgan. Maosh pul yoki tovar ko'rinishida hisoblangan. Buning isboti: "Amr qildimki, - deyiladi "Tuzuklar"da, - amirlar amirining maoshi o'z qo'l ostidagilardan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlarnikidan o'n barobar ko'p bo'lsin". "Oddiy sipohiy maoshi mingan otining bahosi bo'lsin. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt otgacha tayin qilinsin".¹⁷⁷

Amir Temur davlatida tanga pullarga ehtiyoj katta bo'lganligi sababli bu pullar nafaqat Movarounnahrda markaziy shaharlardan tashqari ko'plab hududlarda ham zarb qilingan. Agar somoniylar sulolasi davrida 20 ta shaharda zarbxonalar ishlab turgan bo'lsa, qoraxoniylar davriga kelib ularning soni 40 taga yetgan. Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida 50 ta zarbxona mavjud edi.¹⁷⁸

Temur hokimiyat tepasiga kelgach o'zining ilk tanga pullarini 1372-1373 yillarda zarb qildiradi. Biroq bu tanga pullar Chig'atoy xonlarining andozasi bo'yicha zarb qilingan. Keyinchalik 1380-yilga kelib, pul siyosatida tub islohot amalga oshirilib yangi shakldagi pullarni o'z nomidan zarb qila boshlaydi. Shu o'rinda, yana bir savol tug'iladi: yangi tangalar muomalaga kiritilgandan so'ng eski muomaladagi tanga pullarning taqdiri qanday kechdi? Odatda, eski tanga pullar davlatga topshirilgan. Ular qayta eritilib, yangi pul zarb qilingan. Bu siyosat davlat uchun ulkan strategiya vazifasini o'tay olardi. Ya'ni, eski muomaladagi tanga pullarni davlatga topshirish jarayonida aholining turli tabaqa vakillarining daromadlarini shu tariqa hisoblash ham amalga oshirilar edi. Bu esa moliya siyosatining ikkinchi bo'g'ini soliqlarni aholi daromadiga qarab belgilashda asqotgan.

Temur o'zi bevosita Chingizxon avlodidan bo'lmaganligini uchun o'zini "Amir" deb ataydi. 1372-yildan 1388-yilga qadar Suyurg'atmish, undan keyin esa uning o'g'li Maxmudxon nomidan ish yuritadi. Manbalarda "Suyurg'atmish vafotidan so'ng Amir Temur Sohibqiron no'yonlar, amirlar va davlat arkonlari bilan o'tkazilayotgan qurultoyda bu borada bahs va mashvarat qilib, saltanat taxtiga uning layoqatli o'g'li Sulton Maxmudni o'tirg'izdi va uning nomi va duosi bilan tangalar zarb qildirdi", - deb yozadi. Bu tangalarga esa Amir Temur Maxmudxon nomi bilan birga o'z nomini qo'shib zarb qildirdi.¹⁷⁹ Amir Temur davri tangalarida, tangalarning old tomoniga iymon keltirish kalimasi, chetlariga esa xalifalar-Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilarning nomlari yozdirilgan.

¹⁷⁷ Temur tuzuklari. -T.: Ўзбекисто; 2011. -Б. 99-100.

¹⁷⁸ Тўхтиев И. Амир Темур ва Темурийларнинг молия –пул сиёсати. – Т.: Ўзбекистон; 2006. –Б. 20

¹⁷⁹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. –Т.: Ўзбекистон; 1996. –Б. 150.

Tangalarning orqa tomoniga “Suyurg‘atmish yorlig‘i Amir Temur Ko‘ragon akmonu” deb yozilgan.

Tangalar asosan kumushdan zarb etilgan bo‘lib, vazni 6 grammni tashkil qilgan bo‘lsa, u “tanga” deb atalgan. Tanganing to‘rtidan biriga to‘g‘ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar esa “Amir” so‘zidan “miri” deb yuritilgan¹⁸⁰.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur nafaqat siyosiy balki iqtisodiy jihatdan ham davlatni yagona tizimga birlashtira olganligi uchun ham markazlashgan davlat tuza oldi. Bu amaldagi mustamlakalarni iqtisodiy jihatdan markazga qaram qilib, ularni itoatda tutib turishning o‘ziga xos siyosati edi. Yana u o‘zi amalga oshirgan pul islohotlari tufayli ham ichki, ham tashqi savdoni jonlantira oldi. Ularda amalda joriy qilingan tanga pullarning qo‘llanishi esa Amir Temur davlatining qudratini oshirdi. Bunday islohotlar esa keyingi avlodlar uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tay oldi. Bugun esa bu davr tangalari numizmatika sohasida alohida bir yaxlit davr bo‘la oluvchi manbalar hisoblanadi.

*Shirinboyev X. S. –
O‘zMU tarix fakulteti 4-bosqich talabasi*

ABUL-L-MUIN AN-NASAFIYNING “BAHRU-L-KALOM FI ILMI-L-KALOM” ASARI VA UNING KALOM ILMIDA TUTGAN O‘RNI

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, yurtimizda qadimdan shakllanib, millatimizning ong-u shuuriga, qon-qoniga singib ketgan milliy qadriyatlar, din va ma‘naviy me‘rosga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Mustaqillik yillarida muqaddas dinimiz hisoblangan islom dinining pokligini saqlash, uning rivojiga hissa qo‘shgan hadisshunos olimlarning hayoti va ijodini o‘rganish hamda ular yozib qoldirgan nodir asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida bu sohada olib borilayotgan ishlar nafaqat xalqimiz tomonidan balki, butun dunyo jamoatchiligi tomonidan iliq kutib olinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi eng dolzarb masalalardan biri ham aynan islom dini masalasi edi¹⁸¹.

Islom dinining shakllanishi va rivojlanishida Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Imom al-Moturidiy hamda Abul-l-Muin an-Nasafiylarning o‘rni beqiyos, albatta. Buyuk alloma, kalom ilmining yetuk bilimdoni Abu Mansur al-Moturudiy asos solgan maktabning atoqli namoyondalaridan biri, kalomshunos olim Abu Muin an-Nasafiy 1027-yilda Nasaf (hozirgi Qarshi tumani Qovchin qishlog‘i) shahrida tavallud topgan. O‘sha davr tarixchilari uning bobosi Makxul an-Nasafiyni imom al-Moturudiyning eng yaqin

¹⁸⁰ Давидович Е.А. О происхождении и значения термина мира в денежном хозяйстве Средней Азии XV-начало XX ввю В сб.: История и культура народов Средней Азии. -М.: 1976. –Б. 124-127.

¹⁸¹ Мирзиёев Ш.М. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72 сессиясидаги нутқ. Халқ сўзи газетаси 20.09.2017 йилдаги № 189 (6883) сони.

shogirdlaridan biri bo‘lganini ta’kidlaydi¹⁸². Oilasi ziyoli oilalardan biri bo‘lganligi bois Nasafiy dastlabki ta’limni oilasida bobosi va otasidan olib, so‘ngra ilm-fanning yirik markazlaridan biri hisoblangan Samarqandga ko‘chib o‘tgan, keyinchalik siyosiy vaziyatlar ta’siri ostida Samarqanddan Buxoroga ko‘chishga majbur bo‘lgan. Nasafiy Buxoroda yashagan davrida sermahsul ijod qilgan va u yerda Moturidiya kalom maktabining qaror topib rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Abul-l-Muin an-Nasafiy Samarqand va Buxorodaligi vaqtida bu shaharlarda eng mashhur bo‘lgan kalomshunos olimlaridan, jumladan, Muhammad al-Imodiy al-Kardariy, Badruddin Xoxarzoda Muhammad ibn Mahmud ibn Abdulkarim, Muhammad ibn Ali ar-Romishiy al-Buxoriy va Ahmad ibn Muhammad al-Itobiylardan tahsil olgan. Nasafiy tahsil olish bilan bir qatorda, o‘zi ham o‘z zamonasining yetuk kalomshunos olimlariga ustozlik qilgan. Ular orasidan Muhammad Ahmad as-Sanjariy, Ali ibn Hajjoj, Muhammad ibn Jabaliy, Alouddin as-Samarqandiy, Ibrohim as-Saffor al-Buxoriy va boshqalarning nomlarini sanab o‘tish o‘rinlidir¹⁸³.

Abul-l-Muin an-Nasafiy 15 ga yaqin asar yozgan bo‘lib, deyarli ularning barchasi kalom ilmining turli masalalariga bag‘ishlangan. “Al-Umda fi usuli-l-fiqh”, “Bahru-l-kalom fi ilmi-l- kalom”, “Tabsiratu-l-adilla fi ilmi-l- kalom”, “At-tamhid li qovaidit-tavhid fi ilmi-l- kalom”, “Al olim va-l-muta’llim” va boshqalar shular jumlasidandir. Olimning “Kitobu-t-tamhid li qovaidi-t-tavhid” asari kalom ilmi bobidagi muxtasar kitoblardan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, u ko‘pgina islomiy va aqidaviy masalalarni ham o‘z ichiga olgan. Muallif asar muqaddimasida o‘rtaga tashlanadigan har bir masalaning ko‘z yumib bo‘lmaydigan nuqtalarini, ma’lumotlarning eng muhimlarini va hujjatlarning eng to‘g‘rilarini keltirib o‘tganligini ta’kidlaydi¹⁸⁴. Bu esa asarning tarixiy qimmatini yanada oshiradi.

Allomaning kalom ilmiga oid yana bir mo‘jaz kitobi “Bahru-l-kalom fi ilmi-l-kalom” asaridir. Bu kitob kalom ilmi bo‘yicha Moturidiya maktabining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, o‘rta asrlarda uning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari tarqalgan. «Bahr ul-kalom» asari alloma ijodining gultoji hisoblanib, islom dini falsafasini tashkil qilgan kalom ilmi bo‘yicha eng qimmatli manbalardandir. Bu kitobning bir qancha qo‘lyozma va kitobiy nashrlarining mavjudligi ham uning muhim manbalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Uning qimmatli qo‘lyozma nusxalari Dubaydagi Jum’a al-Mojid nomli madaniyat va meros markazida, (1167 hijriy yilda ko‘chirilgan), Damashqdagi az-Zohiriya kutubxonasining qo‘lyozmalar bo‘limida, Bag‘doddagi «Maktabat al-Avqof»da, Qohiradagi mashhur «Dor ul-kutub» ning qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozmaning 950-hijriy yilda oddiy xat bilan ko‘chirilgan nusxasi Iskandariya (Misr) ning «Maktabat al-baladiyya» nomli kutubxonasida ham bor.

¹⁸² Оқилов С. Абу Муъин ан- Насафий ва “Табсират ул- адилла”асари. Илмий –таҳлилий Ахборот. –Т.: 2002. –Б. 32.

¹⁸³ Рудольф У. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. –Алматы: 1999. –Б. 194.

¹⁸⁴ Абу-л-Муъин ан-Насафий. “Ат-тамҳид ли коваъиди-т-тавҳид” (Тавҳид қоидаларига муқаддима) Таржимон Элмурод ҳожи Ҳолмурод ҳожи ўғли. –Т.: Мовароуннаҳр; 2006. –Б. 16.

Asar muhim manba sifatida ikki marta nashr ham etilgan. Jumladan, 1886 yili Bag‘dodda, 1908 yili Qohirada chop etilgan.

Asarning oltinchi bobidagi fasl (bo‘lim) to‘rt banddan iborat bo‘lib, ulardan birinchisi «al-Imomat» (Imomlikka oid) deb atalgan va shu bandda keltirilgan payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning ikki hadisi katta ilmiy ahamiyatga ega. Birinchisi, «Iqtadu billaziyna min ba‘diy Abu Bakr va Umar» — «Mendan keyin Abu Bakr va Umarga iqtido qilinglar». Ikkinchi hadisidagi «Mendan keyin xalifalik o‘ttiz yil, undan keyin amirlik, podshohlik va hokozolar bo‘ladi», degan fikrlari naqadar to‘g‘riligini alohida qayd etish lozim. Chindan ham, bu muddat (ya‘ni o‘ttiz yil) choryorlar paytida tugagan¹⁸⁵. Bu kitob kalom ilmi bo‘yicha al-Moturidiyya maktabining asosiy kitoblaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, bu asar ash-shayx Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan islomiy aqidaning eng bosh manbalaridan sanaladi.

Abu-l-Mu‘in an-Nasafiy o‘z kitobini yaratishda asosiy manba sifatida Imom Abu Mansur al-Moturidiyning «At-Tavhid», Imom Abul Hasan al-Ash‘ariyning «Al-Lam‘a», «Maqolot al-Islomiyin», Imom al-Haramayn, Imom Abu al-Maoliy Abdulmalij al-Juvayniyning «al-Irshod» asarlaridan foydalangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abu-l-Mu‘in an-Nasafiyning “Bahru-l-kalom fi ilmi-l-kalom” asaridan nafaqat u bilan birga yashagan zamondoshlari, balki bizlar ham ko‘plab manfaat olamiz. Bundan tashqari, asardan bugungi kunimizda mavjud bo‘lgan, dinni niqob qilib olgan, adashgan toifalarga qarshi g‘oyaviy qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, islom dinida turli-tuman oqimlar va ta‘limotlar yaratilayotgan hozirgi paytda bu asarning ilmiy-amaliy ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Bir so‘z bilan aytganda, allomaning asarlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

**Шокиров Т.С. –
студент Исторического факультета НУУз**

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ МИФОЛОГИИ АВЕСТЫ

Происхождению и развитию человечества сопутствовало появление и усложнение множеств верований и религиозных воззрений: политеистических, монотеистических, синкретических, но не в одном из них не выражается так, как в зороастризме, резкий дуализм и антагонизм, основанный на множестве пережитков верований первобытного общества и культа предков.

Такой идеологической основы борьба света и тьмы не имела аналогов нигде в мире, хотя ее можно отметить в религиях древнего Египта и Междуречья¹⁸⁶. Но если там дуализм имеет место лишь в определенных аспектах, и все равно идеологическая инициатива переходит к светлому (или к темному) преобладающему в культе поклонений божеству, то в

¹⁸⁵ Yazichio‘glu M. Maturidi kelam ekolu’nun iki buyuk simasi: Ebu Mansur Maturidi ve Ebu’l – Mu’in Neseфи. –Ankara: Ankara universetesi basimevi; 1985. –S. 281-298.

¹⁸⁶ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М.: 1965 –С. 378.

зороастризме такого нет. Здесь антагонистские стороны - Свет и Тьма (Добро и Зло) выступают как равные меж собой творцы мира и как бы держат баланс всего сущего, борясь при этом за преобладание присущих себе качеств в людских сердцах, что делает их полем боя не сам мир, а все души (фравашы) заселяющие его. Таким образом, борьба между силами добра и зла проходит на уровне каждой души в мире. Для душ же существует выбор между этими двумя полюсами, третьего пути, однако не существует. В 3-м гимне Ясны¹⁸⁷ это мировоззрение выражено очень отчетливо: " Вначале существовали два гения, наделенных различной деятельностью, добрый и злой дух, в мысли, в слове, в действии. Выбирайте один из этих двух гениев: гения лжи, делающего зло, или гения истины и святости. Всякий, кто принимает первое, готовит себе самую печальную участь, кто принимает второе, чтит верно и действительно Ахура Мазду¹⁸⁸ в его делах ."

В Авесте можно увидеть упоминание о таких дозороастрийских божествах как Митра или Анахита, которые скорее всего являлись божествами - покровителями еще арийских племенных групп и слились с маздаизмом позже. Кроме того, в священном писании зороастрийцев в Авесте можно найти и немало интересных упоминаний касающихся исторической географии. Например в Яштах, в гимне Ардви Сура (Анахита), в 3 - м стихе упомянуто море, "Ворукаш (а)" мифологическое море, куда переливаются великие воды реки Ардви, или в 4 - м стихе того же гимна упомянута гора "Хукария"¹⁸⁹, где берет свои истоки вышеупомянутая река. В 64 - м стихе гимна Ардви Суры и в 104 - м стихе гимна Митры говорится о реке "Ранха". В Авесте "Даийтя" или " Ранха"¹⁹⁰ это названия современной Амударьи (И. Стеблин - Каменский¹⁹¹ считал, что Ранха это Сырдарья), тогда Хукария само собой становится современным Памиром, а Ворукаш (а) наверное следы воспоминаний о Ашперонском море, которое являлась частью моря Тетис¹⁹² и было на месте Черного, Каспийского, Аральского морей и пустыни Кызылкум.

Кроме географических данных в Авесте можно встретить немало аспектов древнеиранских легенд и мифов, которые не были упомянуты даже в знаменитой "Шахнаме" Фирдоуси.

Не менее интересно и отношение к женщине и культ женщин. В Авесте законами самого Ахура Мазды защищены права женщин, детей и даже рабов.

Культ женщины как великой прародительницы, богини любви, заботы и плодородия существовал во всех частях мира и встречается во всех религиях. Следы эпохи матриархата, длившегося с эпохи палеолита до

¹⁸⁷ Ясна – первая и важная часть Авесты, состоящая из 72 глав (хаити). Текст Ясны озвучивался во время зороастрийского богослужения

¹⁸⁸ «Bibliothèque orientale» – Paris. 1872. -P. 95.

¹⁸⁹ Авеста – Яшты –Т.: Шарк; 2001. -С. 17-63.

¹⁹⁰ Там же. – С.5.

¹⁹¹ Иван Михайлович Стеблин-Каменский (1945 – 2018) – советский и российский лингвист, специалист в области иранистики, переводчик Авесты

¹⁹² Тетис – древний океан существовавший в эпоху мезозоя между континентами Гондвана и Лавразия. Реликтами этого океана являются современные Средиземное, Черное и Каспийское море.

бронзового¹⁹³ века отразились и в верованиях зороастрийцев, хотя здесь женщина выступает скорее божеством плодородия, чем Великой Матерью. Но даже здесь, она ответственна за рождаемость среди людей и ей отводится место не ниже Великой Матери, так как ей наряду с другими божествами зороастрийского пантеона (или даже чаще) приносились жертвы.

В Авесте, в книге Яштов 5 - гимн посвящён богине любви, воды и плодородия Анахите. Этот гимн состоящий из 133 стихов называется восхвалением к Ардви Суре. На самом деле имя богини Ардви Сур, и она богиня священной воды, но имеет качество "Нохид" - "Чистая", "священная" и "плодородная", из-за чего зовется еще и Анахитой.

В Авесте она представляется как богиня священных вод, живущая на звезде, которая по приказу Ахура Мазды спустилась на землю чтобы помогать людям. В песнях Яшта говорится, как мифический царь Ирана Хушанг - изобретатель огня¹⁹⁴ перед битвой с ордами дэвов и пэри Мазандарана принес в жертву сто жеребцов и тысячу коров у горы Харатти богине Ардви Сур, чтобы она помогла ему в битве¹⁹⁵.

Столько же принес в жертву и царь Йима (Джамшид в «Шахнаме») прося богиню о господстве над всем миром и получил желанное и правил 1000 лет.

Потом враг Йимы, злой дракон Заххак и его убийца (Фаридун в «Шахнаме») также приносили свои жертвы ей и добывались своего.

Также принося Анахите жертву просил ее помочь ему поймать птицу удачи, счастья и могущества Хварно (Фарн) которая обитает в дне моря Ворукаша и царь Турана Франграсен, но из-за тьмы в его сердце богиня отказала ему в этом .

Великий воитель и герой Туса (герой Тус в Шахнаме) не принес никаких жертв богине, но взяв в руки волосы своего коня и положив их к груди поклонился великой богине. Анахита за это дала свое благословение и он победил туранцев и ариев.

Также она помогла злодею Пурве, когда царь Фаридун выбросил его в небо. Пурва превратившись в хищную птицу три дня не мог приземлиться, боясь царя и умолял богиню помочь ему. В итоге Ардви Сур вышла из вод Ранхи и отвела Пурву в безопасное место¹⁹⁶.

Следующий эпизод тоже не менее интересен и напоминает библейскую историю Моисея: Наотар¹⁹⁷ Вистаруш¹⁹⁸ стоя у губительной реки Виванхухати просит пропустить его на другой берег для войны с дэвами и Анахита услышав его мольбы останавливает воды реки и держит их пока он не пройдет сухим на другой берег¹⁹⁹.

¹⁹³ Морган Л. Каменный век –М.: 1935.

¹⁹⁴ Фирдоуси А. Шахнаме –М.: из. АН СССР; 1957. –С. 5.

¹⁹⁵ Авеста: Ардви Сур сборник гимнов, стихи 21-23 –С. 19.

¹⁹⁶ Там же. Стих 60-66. –С.21-24.

¹⁹⁷ Наотар (Новзар) – герой иранской мифологии и эпоса, царь из династии Пиштадидов. Сын Манучехра(Меунчехр) и отец Туса.

¹⁹⁸ Вистаруш из рода Наотара (Нотарид Висташпа).

¹⁹⁹ Там же. Стих 76-79. –С.26.

Кроме этого, именно эта богиня помогала царю Виштаспу против его врагов: Пантнаравантну, Пешанувны, Арежатаспны и других почитателей дэвов.

Интересно еще и то, что даже сам Ахура Мазда в стране ариев (Арьянам Ваеджуда²⁰⁰) при реке Даийтя (Амударья) исполнил молитву с хаомой в честь Анахиты, прося просветить верой душу Заратуштры сына Пуришаспа²⁰¹. Последнее ясно объясняет древность культа Ардвиз Суры, в сравнении с патриархальным Ахура Маздой.

Другой, не менее важной богиней в культовом пантеоне зороастрийцев, выступает богиня удачи и счастья Аши. Она – дочь Ахура Мазды и богини земли Спета Армайти (Испандармат), сестра Сраоши, Рашну и Митры²⁰². Эта богиня так же выступает как помощница в войнах царей древнего Ирана. При ее помощи царь Хушанг одолел дэвов, Йима стал очень удачливым, Хусрав победил убийцу своего отца Сяваршана (Сиявуш в Шахнаме) Франграсена, Виштасп одолел Спинжауушку и вернул из плена в стране Хйан Варидку²⁰³.

Но в отличие от Анахиты, богиня Аши не всесильна, и в конце гимна спасаясь от наотаридов и туранцев она плачет, осуждая выдавших ее врагу юнцов и незамужних девушек²⁰⁴.

Если Анахита выступает как богиня, которая может помочь всем, если захочет также и злодеям и грешникам, то Аши наоборот очерняет всякие отступничество от моральных норм. В конце гимна она хочет уйти на небеса, прочь от мира порочных людей и Ахура Мазда приглашает ее к себе.

Разницей между обеими богинями служит еще и то, что Анахита имела свои канонические черты: молодая красивая девушка в накидке из шкур 300 росомах с золотым поясом. Имелось множество статуэток этой богини. Аши, хотя и представлялась как девушка, была более абстрактна в изображениях.

Так как зороастризм религия дуалистическая, в противовес светлым божествам существовали и темные. Это дэвы и пэри, злые духи, созданные Ангра Майнью (Ахриман у греков):

– Друдж - "ложь". Она представлялась в женском облике и оплодотворялась грешниками, после чего порождала нечисть.

– Бушясьта - "длиннорукая". Злой Дэв женского пола с длинными руками, которыми она обхватывала людей и делала их ленивыми.

В легендах зороастрийцев мы видим отпечаток столкновения земледельческой и кочевнической культур. В них ярко отражается земледельческий характер оседлых народов, связанный с культом именно Анахиты – богини плодородия, представляя еще и стихию воды, она помогает им, в то время, когда для кочевников большее значение имела Аши – богиня удачи, что объясняется охотничьим образом жизни у кочевников.

²⁰⁰ Арьянам Ваеджуда – Страна Ариев. От Уральских гор до Сибири.

²⁰¹ Там же. Стих 15-19. –С.9.

²⁰² Сраоши, Рашну и Митра сыновья Ахура Мазды и Армайти. Они вместе являются судьями над душами умерших на мосту Чинват.

²⁰³ Авеста: Орд Яшт. Стих 16. –С. 40.

²⁰⁴ Там же. Стих 57-63. –С. 47.

Изобилуя мифическими данными, Авеста так же выступает как источник множества исторических и историко-географических сведений и является ценным культурно-историческим памятником древности.

*Egamberdiyev A. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YIRIK BOZORLARNING MAMLAKAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Azaldan savdo-sotiq rivojlangan joyda uning talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlanadi, bozorlar ravnaq topib, mamlakat aholisi turmush darajasi ortib boradi. Shuning uchun Temur va uning vorislari mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan savdo-sotiq rivojiga katta ahamiyat berganlar. Movarounnar va Xurosonning markaziy shaharlarida tepasi tim qilib yopilgan bozorlar chorsular soni ko‘paytirilib, rastalar kengayib borgan. Amir Temur davri haqida so‘z ketganda, mamlakatda ichki va tashqi bozor munosabatlari shaxsan Temur tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlangan. Uning hukmronligi davrida savdo rastalari va bozorlarni, yo‘llarni yaxshilash va asosiy karvon yo‘llarida karvonsaroylar barpo etish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu davrda bozorlar nafaqat iqtisodiy munosabatlar to‘qnashadigan joy, balki mamlakat ijtimoiy hayotidagi boshqa muhim masalalar amalga oshiriladigan manzilga ham aylangan. Bir so‘z bilan aytganda, bozor shahar hayotining markazi bo‘lgan. U, shuningdek, badiiy adabiyot, turli fan sohalaridagi yutuqlar bilan fikr almashinadigan joy vazifasini ham o‘tagan. Bu yerda hukmdor buyruqlari o‘qib eshittirilgan, aybdorlar jazolangan.

Bu davrda mamlakat poytaxti Samarqandda savdo va hunarmandchilikning rivoj topganligi 1402–1404-yillarda O‘rtayer dengizidan Iroq – Eron – Xuroson orqali Samarqandga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoni hayratda qoldirgan. 1404-yili Temur saltanatida bo‘lgan Klavixo o‘z esdaliklarida quyidagicha qayd etadi: «Bu shaharda oldi-sotdi uchun qulay maxsus savdo rastasining mavjud emasligi tufayli, podsho shahar bo‘ylab katta ko‘cha chiqarishni, uning ikki tomoniga mol sotish uchun rasta va do‘konlar qurishni buyurdi. Bu ko‘cha shaharning chetidan boshlanishi va butun shahar orqali o‘tib, ikkinchi chetiga borib yetishi kerak edi. Podshoh ko‘rsatib bergan yo‘nalishda ko‘cha o‘tkazila boshlandi. Ko‘cha yo‘nalishidagi uy-joylar, kimniki bo‘lishidan qat’i nazar, buzib tekislandi... Ko‘chani keng olib, uning har ikki tomoniga savdo do‘konlari qurishdi, har bir do‘kon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland kursilar o‘rnatildi. Barcha do‘konlar juft-juft qilib bir-biriga tutashtirildi. Ko‘chaning tepasi esa boshdan oyoq tim qilib ravoqsimon shaklda yopildi. Yorug‘lik tushishi uchun unga qator darchalar o‘rnatildi. Do‘konlar qurib bitirilishi bilanoq, ularga savdogarlar o‘rnashar va turli mollarni sotishga kirishardilar. Ko‘chaning har yer-har yerida hovuzlar kavlangan bo‘lib, ular suvga to‘ldirib qo‘yilgandi... Kunduz kuni ishlagan kishilar kech kirishi bilan uylariga ketishar va ularning o‘rniga kechasi ishlash uchun boshqalari kelishar edi, ayrimlari uylarni buzar, boshqalari yer tekislar va uchinchilari qurilish bilan band edi... Bunday katta

qurilish yigirma kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani, shubhasiz, kishini hayratga soladi», – deb hikoya qilgan edi Klavixo²⁰⁵.

Samarqandda Ohanin, Feruza, So‘zangaron, Gozuriston (Korizgoh), Buxoro va Shayxzoda (Chorraha) darvozalari shaharning olti tarafidan keladigan yo‘llarini belgilab turardi. Darvozalardan boshlangan shahar ko‘chalari markaziy bozorga borib ulanardi. Ixtisoslashgan bozor rastalarida muayyan mahsulot turi bilan savdo olib borilar edi. Samarqand bozorlariga xos bu xususiyat nafaqat o‘sha davr muarrixlarining, balki keyingi davr mualliflarining ham hayratiga sazovor bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z xotiralarida ko‘proq Amir Temur davrida Samarqand buyumlariga ixtisoslashgan savdo rastalari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi²⁰⁶. Odatda, rasta nomi u sotiladigan mahsulot nomi bilan belgilanar edi. Bozorlarda shahar savdosi mujassamlashgan bo‘lib, bu yerda hunarmandchilik ishlab chiqarishi ham joylashgan edi. Ko‘pgina do‘konlar nafaqat savdo-sotiqni amalga oshiruvchi joy, balki hunarmand o‘z mahsulotini shu yerda tayyorlab, shu yerda sotadigan joy vazifasini ham o‘tagan. Hunarmandlarning aksariyati shahar bozorlari maydonlarida istiqomat qilgan. Amir Temur shahar bozorlarining savdo maydonlarini jihozlashga alohida e‘tibor bergan.

Shaharning markaziy bozorida pul ayirboshlanadigan sarrofxona joylashgan. Bozor mahsulotlarga narx belgilanadigan joy ham edi. Narx haddan tashqari ko‘tarib yuborilganda sotuvchilar qattiq jazolangan va savdogarlarni himoya qilishgan²⁰⁷. Mamlakat bozorlarida hatto narx-navo va tosh-tarozularning to‘g‘ri yoki egriligini nazorat qiluvchi alohida mansab mavjud bo‘lgan. Shariat asosida ijtimoiy tartibni nazorat qilish va ma‘naviy buzuvchilikning oldini olish funksiyalarini bajargan bunday mansab egalari muhtasiblar deb atalgan. Yuqorida qayd etilgani kabi ular bozorlardagi tosh-u tarozulardan urib qolish va bu yerda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa huquqbuzarliklarning oldini olganlar, tartib saqlaganlar va o‘z vazifalaridan kelib chiqib jazolash ishlarini olib borganlar.

Bu davrda bozorlar nafaqat savdo-sotiq amalga oshiriladigan joy, balki mamlakatda kechayotgan jarayonlardan xabardor bo‘lish markaziga ham aylangan. Bozorlar gavjumligi va aholi ko‘p to‘planadigan joy bo‘lganligi uchun undan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda ham foydalanilgan. Jumladan, Amir Temur davrida jinoyatchilar uchun berilgan jazolar xalqdan yashirincha emas, ochiqchasiga bozor va ochiq xalq gavjum bo‘lgan maydonlarda ijro etilgan. Bu majburlov apparati uchun tarbiyaviy vosita vazifasini o‘tagan²⁰⁸. Mazkur jarayonga guvoh bo‘lganlar mamlakatda, katta-kichikligidan qat’i nazar, jinoyat sodir etmaslikka, bozorlarda o‘g‘irlik qilmaslik, xaridorni aldamaslik, faqat halol savdo bilan shug‘ullanish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligiga jonli jazo vositasida amin bo‘lib borganlar.

Bozorlarda, odatda, ko‘zboylovchilar, dorbozlar, kurashchilar, qo‘g‘irchoqbozlar turli tomoshalar ko‘rsatar edi. Ayniqsa, dor o‘yining e‘tibori

²⁰⁵ Саидқосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. ва бошқ. Амир Темур жаҳон тарихида. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. –Т.: Шарқ; 2001. – Б. 95.

²⁰⁶ Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: 1993. –Б. 106.

²⁰⁷ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Нашрга тайёрлаш, сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар А.Ўринбоевники. –Т.: 1972. –Б. 124.

²⁰⁸ Ўлжаева Ш. Амир Темур ва temuрийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. –Т.: Фан; 2005. –Б. 164.

baland bo‘lib, hech bir bayram usiz o‘tmagan. Aslzodalar ham, xalq ham dorbozlikni mardlik va poklik namunasi deb bilib, unga e’tiqod qo‘ygan. Dor katta maydonlarda, bozor joylarida tikilib, minglab odamlarni to‘plagan, tomoshabinlarda matonat, himmat, mehr-muruvvat tuyg‘ularini uyg‘otgan. Ramazon oyida bozorlarda kechasi o‘tkaziladigan udumlar (bozor-i-shab)da hukmdorning shaxsan o‘zi tayinlagan, asosan, karnaychi va nog‘orachilardan iborat saroy musiqiy guruhlari – mehtar faol qatnashganlar²⁰⁹.

Xorijiy elchilarni izzat-ikrom bilan qabul qilish an’anasi Amir Temurdan keyin uning avlodlari saltanatida ham saqlanib qolgan. Bunda tashrif buyurgan elchilarning mamlakatning qudrati haqida qanday tasavvurga ega bo‘lishlari uning bozorlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Zero, bozorlari to‘kin-sochin bo‘lgan mamlakat iqtisodiy jihatdan ancha qudratli bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy Hirot shahrida 1413-yili Xitoy elchilarining kutib olinishi haqida, jumladan, shunday yozadi: «Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatlarning Chin-u Mochin podshohi Doy-Ming xon tarafidan elchilar yetib keldi. (Xoqoni sa’id Shohrux tomonidan) «shahar bozorlariga ziynat berilsin, har bir san’at egasi o‘z hunarini to‘la zohir qilib do‘konini bezatsin», degan humoyun farmon sodir bo‘ldi»²¹⁰. Mazkur qayddan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Shohrux tomonidan elchilarga nafaqat bozorlarning to‘kin-sochinligi, balki unda sotilayotgan hunarmandchilik mahsulotlarining boshqa yurtdagilaridan qolishmasligi, balki san’at darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatmoqchi bo‘lishgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida bozorlar ijtimoiy jarayonlarning markazlariga aylangan. Undan faqat oldi-sotdi ishlari amalga oshiriladigan joy sifatida emas, balki yirik bozorlarda aholi gavjum to‘planganligi uchun xalq bilan davlat o‘rtasidagi muloqot amalga oshiriladigan ko‘prik sifatida foydalanilgan: farmonlar va muhim siyosiy xabarlar bozorlarda o‘qib eshittirilgan. Bozorlarning faoliyat yuritishi maxsus mansab egalari tomonidan nazorat qilingan. Bozorlarga qarab mamlakatning iqtisodiy ahvoriga, aholining turmush darajasiga, undagi chet ellik savdogarlar mavjudligiga qarab esa mamlakatda xavfsiz va tinch muhit yaratilganiga baho berish mumkin bo‘lgan. Bozorlardan hatto chet mamlakatdan nufuzli shaxslar va elchilar tashrif buyurganda hunarmandchilik durdonalarini ko‘rsatish (ko‘rgazma qilish) joyi sifatida ham foydalanilgan.

*Esonov O‘.B. –
O‘zMU tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTON O‘LKASIDA ILK TEMIR YO‘LNING QURILISHIGA DOIR

Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmidagi harbiy-strategik vaziyati va siyosiy ahvoli zudlik bilan O‘rta Osiyoni Rossiya imperiyasi bilan

²⁰⁹ Гофурбеков Т. Музыка // Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. Мақолалар. –Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр; 1996. –Б. 41. Саидқосимов С., Ахмедов А., Ахмедов Б. ва бошқ. Амир Темур жаҳон тарихида. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи наشري. –Т.: Шарқ; 2001. –Б. 182.

²¹⁰ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. А. Ўринбоев таржимаси. Масъул муҳаррирлар С. Азимжонов ва У.И. Каримов. –Т.: 1969. –Б. 174–175.

temir yo‘llar vositasida bog‘lash zaruriyatini taqozo etdi. Turkistonga temir yo‘l o‘tkazish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar yetilib, bu boradagi amaliy harakatlarga o‘tish davri keldi. Bu masala savdo va sanoat tabaqasi vakillari hamda hukumat doirasida yanada qizg‘inlik bilan muhokama etila boshlandi. Bu davrga kelib, Rossiya imperiyasi davlat g‘aznasiga Turkiston o‘lkasidan keladigan daromadlarini oshirish maqsadida hukumat vakillari tomonidan bir qator loyihalarda isloxotlarni chuqur o‘ylab, ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish yo‘lidan bordi. Bu islohotlar yer-suv munosabatlarini, aholiga soliq solish tizimini qayta ko‘rish, sanoat va temir yo‘l qurilishiga davlat mablag‘ini jalb qilish va shu kabilarni nazarda tutar edi²¹¹.

XIX asrning 80 yillaridan boshlab, Rossiya imperiyasi hukumati Turkistonda o‘zining iqtisodiy va xarbiy siyosatini to‘liq amalga oshirish maqsadida e‘tiborini temir yo‘llar qurishga qaratdi. Dastlab temir yo‘llar qurilishi xukumat mablag‘i xisobidan amalga oshirildi. Unga ko‘plab xarbiy quruvchilar, temir yo‘l batalionlari, Rassiyaning markaziy rayonlaridan ishchilar, ulardan tashqari, mahalliy xalqlar vakillaridan ham qora ishlarga ko‘plab kishilar jalb qilindi. 1880 yil temir yo‘l qurilishining Kaspiy dengizining Uzun ota ko‘rfazidan Qizil-Arvatgacha bo‘lgan qismi boshlandi. Natijada, 1888 yilgacha bu yo‘l Ashxobod, Chorjuy, Kogon orqali Samarqandgacha cho‘zilib, Kaspiy oldi xarbiy temir yo‘li nomini oldi. O‘sha davrlarda ko‘pgina rus va chet el sarmayadorlari bu yo‘lni qurilishida Toshkentgacha yetkazish taklifi bilan chiqishdi. 1890-1893 yillari knyaz M.I.Xilkov xukumatdan Samarqand-Toshkent-Andijon yo‘nalishida temir yo‘lni qurilishi uchun aksiyadorlik jamiyat tuzishga ruxsat so‘radi. Lekin, uning murojotini Rossiya imperiyasi hukumati javobsiz qoldirildi²¹².

Tadqiqotchi Z.K.Axmedjanovning izlanilariga kura, XIX asrning oxiri, xususan, 1892 yili Reshetnikov, xukumatdan Samarqandan va Qo‘qon shaxarlarini bog‘lovchi temir yo‘l qurush hamda 1893 yili. G.L. Guluxovskiy, Samarqand-Marg‘ilon va Jizzax-Toshkent shaxarlarini bog‘lovchi temir yo‘llar qurish maqsadida imperiya hukumatiga murojot qilib, O‘rta Osiyo temir yo‘llar qurilishi aksiyadorlik jamiyatining ustaf loyihasini taqdim etgan. G.L. Guluxovskiy ushbu temir yo‘llar qurilishini asosan davlatni kafolati asosida shaxsiy mablag‘lar va aksiyalar chiqarish evaziga amalga oshirishni rejalashtirgan²¹³. Shuningdek, shu yili maxkama maslaxatchisi F.A.Palotsev va zaxira kapitani Bibikolar ham aksiyadorlik jamiyati ta‘sis etish uchun xukumatga murojaat qilishganligini keltirib o‘tadi.

Turkistonga temir yo‘l o‘tkazish uchun eng ma‘qul yo‘nalishni tanlash maqsadida Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarning xulosasiga ko‘ra, Orenburg orqali Toshkentgacha bo‘lgan yo‘nalish eng ma‘qul ekanligi ham ilmiy jihatdan asoslanib, uni amalga oshirish uchun fursat va barcha shart-sharoitlar yetilib kelgan edi. 1874-1876 yillarda Batraki stansiyasidan Orenburggacha 512 verst (1 verst – 1.06 chaqrimga teng)

²¹¹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.: Академия; 2002. –Б. 86.

²¹² Носыров О.Н. XIX асрнинг охири XX аср бошларида Туркистонда аксиядорлик жамиятлари ва ширкатлар тарихи. Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... –Т.: 2009. –Б. 99.

²¹³ Ахмеджанова З.К. К Истории строительства железных дорог В Средней Азии (1880-1917). –Т.: 1965. – С.43

uzunlikdagi, umumiy qiymati 30 mln. rubl bo'lgan temir yo'l o'tkazilgan va buning natijasida Rossiya bozorlari bilan Turkiston o'lkasi bozorlari ham birmuncha yaqinlashgan edi²¹⁴.

Biroq, Rossiya imperiyasining bu davrdagi siyosiy-harbiy vaziyati uzoq vaqtdan buyon muhokama etilib, ma'qullanib kelinayotgan Orenburg–Toshkent yo'nalishida emas, balki butunlay boshqa yo'nalishda temir yo'l qurilishining boshlab yuborilishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalish – boshqa yo'nalishlarga nisbatan kam loyihalarda tilga olingan, general Chernyaev tomonidan samarasiz deb topilib, qattiq tanqid qilingan²¹⁵, Bu Kaspiy dengizning qirg'oqlaridan Turkistonning ichkarisigacha bo'lgan yo'nalishdagi temir yo'l edi.

Tadqiqotchi, R.E.Xoliqovanning ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 1880 yili 11-12 fevral kunlari harbiy Vazir rahbarligida maxsus kengash chaqirilib, unda Kaspiyorti masalasi va u yerda temir yul kurilishi chuqur muhokama qilindi va temir yul qurilishini boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Kaspiyorti temir yo'li qurilishining birinchi navbati (Mexaylovskiy qo'ltig'idan Qizil Arvatgacha bo'lgan 217 vyorstlik yo'l) juda qisqa muddat ichida 8 oyda qurilib foydalanishga topshirildi. Ushbu yo'lning qurilishi Rossiya imperiyasi hukumatiga nafaqat uning katta masshtabdagi iqtisodiy masalalarni, balki eng avvalo, yirik temir yo'l qurilishini yechishga qodir ekanligini, hamda ushbu temir yo'l qurilishi uning harbiy strategik pozitsiyasini O'rta Osiyoda yanada mustaxkamlashiga xizmat etishiga to'la ravishda ishonch hosil qilishga imkon berdi.

1886 yil 18-22 aprel kunlari Vazirlar Qo'mitasi Kaspiy orti temir yo'lining yangi tarmog'ini qurishni muhokama qilish va uni to Samarqandga qadar davom ettirishga qaror qabul qildi va o'sha qaror asosida temir yo'l qurilishi boshlanib, u 1888 yili tugallandi. O'lkadagi ilk temir yo'lning nomi “Kaspiyorti harbiy temir yo'li” deb nomlandi²¹⁶.

Temir yo'llar qurishda chet elliklar ham ishtirok etishga harakat qilishgan. Jumladan, Fransiya va Gallandiya banklari va Fiv Lill kabi bir qator kompaniyalari vakillari Samarqand-Andijon yo'nalishida temir yul qurilishida o'z sarmoyasini kiritish istagini bildirishgan. Ammo Rossiya imperiyasi hukumati O'rta Osiyo hududidagi temir yullarni qurilishida chet elliklarning ishtirok etishiga qat'iy qarshi bo'lgan. XX asr boshlarigacha temir yo'llar qurilishida davlat mablag'i xisobidan amalga oshiril bo'lib, 1899 yil temir yullar Toshkent va Andijon shaxarlariga yetib bordi. 1906 yili Toshkent-Orenburg temir yo'li ishga tushirildi.

Mana shu tariqa, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishida keng yul ochildi va keyngi yillarda rus hukumati uni jadal suratlar bilan rivojlantirib, uning yangi tarmoqlarini qurib ishga tushira boshladi. Masalan, 1905 yil Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan “Temir yullarni qurilishiga shaxsiy kapitallarni jalb qilish to'g'risida” Qonun qabul qilinganligi ushbu sohada ko'plab aksiyadorlik jamiyatining tashkil topishiga sabab bo'ldi. Temir yul qurilishi

²¹⁴ Материалы по обследованию железных дорог. Ташкентская железная дорога. –СПб., Электро-типография Н.Я. Стойковой, 1953. – С. 2.

²¹⁵ Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии ... – С.229.

²¹⁶ Холикова Р. Россия – Бухоро тарих чоррахасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). –Т.: O'qituvchi; 2005. –Б. 207.

bo'yicha injener A.N. Kavalevskiyning omadi keldi. 1901 yilda u Qo'qon-Namangan temir yuli aksiyadorlik jamiyatini tashkil qilishgan edi. Faqatgina 1908 yilga kelibgini jamiyatning ustav loyihasi tasdiqlanib, o'z ishini boshladi. Mazkur jamiyatning aksiyadorlik kapitali 4584000 rublni, shundan ta'sisshilar kapitali 1516000 rublni tashkil qilgan²¹⁷. Imperiya hukumati tomonidan jamiyatga Namangan-Jalolobod, Andijon-Qo'qon qishloq va Chinobod yullarida temir yullar qurilishiga ruxsat berildi²¹⁸.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi hukumati XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Turkiston o'lkasidan o'zining xomashiyo manbai sifatida foydalanishga harakat qildi. Shu sababli iloji boricha faqat xazinaga katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan sohalarga o'z e'tiborlarini qaratgan. Shunday sohalardan biri temir yo'l qurish va u orqali tez hamda qulay sharoitda mahsulotlarni O'rta Osiyodan olib ketish edi. Shunindek, temir yo'li sohasi strategik siyosiy va harbiy sohada ahamiyatga ham ega ekanligi sababli, XX asr boshlarigacha temir yo'llar faqat davlat mablag'i hisobiga qurildi. Lekin, ushbu ishlarda katta mablag' talab etilganligi tufayli Rossiya imperiyasi hukumati temir yo'l qurishda xususiy mablag'larni jalb etishga ham majbur etdi. Oqibatda, o'lkada aksiyadorlik jamiyatlari, savdo-sanoat shirkatlari va boshqa tijorat tashkilotlarining faoliyati tobora kengayib bordi.

XX asrning birinchi choragiga kelib Turkiston o'lkasinin barcha hududlari Rossiya imperiyasi markaziy shaharlari bilan bog'landi. Bu esa, Turkiston o'lkasida shu paytdan boshlab, uning siyosiy, ijtimoiy va ayniqsa iqtisodiy hayotidan yangi davr boshlanganligidan darak berar edi.

²¹⁷ История Узбекиской ССР. Т-1, -Т.: 1956. –С.230.

²¹⁸ Носыров О.Н. XIX асрнинг охири XX аср бошларида Туркистонда аксиядорлик жамиятлари ва ширкатлар тарихи. Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... –Т.: 2009. –Б. 100.

2-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИ

*Абдумаджидов А. –
студент исторического факультета НУУз*

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ СО СТРАНАМИ ВОСТОКА В ДРЕВНОСТИ

История дипломатии Узбекистана – составная часть Всемирной истории дипломатии, – подтверждающая единство всемирно-исторического процесса, взаимодействие народов и культур в их историческом прошлом и при всем этом наличие специфики в развитии узбекистанской дипломатии. В ней сконцентрирован крупнейший международно-правовой и дипломатический опыт многих народов среднеазиатского региона. Этот опыт принадлежит не только прошлому, по различным каналам он проникает в современность, оказывая значительное воздействие на международные процессы.

Уже в Авесте, созданной, вероятнее всего, в первой половине I тыс. до н.э., содержатся данные о зарождении ранних форм дипломатических отношений. Причем основным гарантом заключения межплеменных соглашений и улаживания споров и военных конфликтов в ней выступает Митра как божество договора о соглашении²¹⁹.

Именно на принципах уважения к договору, к чужой жизни и имуществу строится ключевое в Авесте понятие - власть.

В Фаргардах священной книги подробно освещаются принципы заключения договора и наказания в случае их нарушения. В Авесте сказано: «Так, если нарушает человек договор, скрепленный словом, кто это должен искупить?» Отвечал Ахура Мазда: «Его проступок должны искупить он и еще триста мужей из его рода»²²⁰.

Данный отрывок ясно показывает, что за нарушение договора несут ответственность все мужчины-члены рода или племени.

В Авесте имеются и другие сведения о заключении межплеменных договоров под эгидой бога Митры²²¹.

В начале-середине I тыс. до н.э. на территории Узбекистана формируются первые государственные объединения: Древняя Бактрия (Сурхандаринская обл.), древний Согд занимал долину Зеравшана, а затем территорию Кашкадарьинской и Бухарской областей и Древний Хорезм. Их

²¹⁹ Авеста. //Перевод с авестийского И.М. Стеблин-Каменского. – Душанбе, 1990.

²²⁰ История государственности Узбекистана / Под ред. Э.В. Ртвеладзе, Д.А. Алимовой. Т.1. –Т.: Узбекистан; 2009.

Авеста. //Перевод с авестийского И.М. Стеблин-Каменского. – Душанбе, 1990.

²²¹ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е. Очерки по истории цивилизации Узбекистана. Государственность и право. –Т.: 2000.

города, представляющие крупные поселения, достигали более сотни гектаров площади и были обнесены мощными стенами²²².

Античные авторы II-I вв. до н.э. сохранили легендарные сведения о завоевании Древнебактрийского царства ассирийскими войсками во главе с царем Нином (конец IX в. до н.э.) и царицей Семирамидой.

Причем некоторые указывали на бактрийское происхождение Семирамиды (Шаммурамат), а другие (Ктесий, Диодор) писали, что она наряду с мужем участвовала в захвате Бактр.

Так Диодор в своей «Библиотеке» писал: «Нин сделал сатрапом Мидии одного из своих друзей и сам отправился покорять племена Азии.... Что касается до Бактрианы, трудно доступной и заселенной очень воинственными людьми, то он, после нескольких бесплодных попыток, отложил войну с ней.... Основав Ниневию, Нин с большой армией вошел в Бактриану, где женился на Семирамиде.

Зная характер и многолюдность жителей (Бактрии) и то, что там имелось множество неприступных укрепленных мест он (Нин) собрал избранное огромное войско из всех подчиненных ему племен... двести тысяч конницы и около тысячи шестисот повозок, вооруженных серпами...

Среди большого количества крупных городов в Бактриане был один замечательный, называемый Бактра, превосходивший всех величиной и неприступностью крепости. Царствовавший там Оксиарт собрал всех людей военного возраста, четыреста тысяч... Нин легко овладел всеми городами, кроме Бактры, вследствие её неприступности и сопротивления... Нин захватил сокровища Бактрии, состоявшие из большого количества золота и серебра»²²³.

Некоторые античные авторы даже высказывали версию о том, что одно из «семи чудес света» - Висячие сады Вавилона были разбиты (VI в. до н.э.) для Царицы Семирамиды, чтобы напоминать о прекрасных садах её родины - Бактрии.

Помпей Трог в «Филиппинской истории» писал: «Последнюю войну Нин вел с Зароастром, царем бактрийским, который первый, как говорят изобрел магическое искусство и изучал сущность мира и движение звезд».

У того же Диодора находим: «Семирамида вернулась со своим войском в Бактрию и решила начать войну с Индией. Она послала вестников во все страны, предписывая начальникам составить войско из лучшей молодежи и определила число, смотря по величине племен. Все должны были через три года собраться в Бактру.

Она также позвала кораблестроителей из Сирии, Финикии и Кипра. Так как на Инде не ожидали найти строевого материала, то надо было доставлять суда из Бактрии».

²²² Ширинов Т. Древнебактрийское царство «Большой Хорезм» (VII-VI вв. до н.э.) // Очерки по истории государственности Узбекистана. –Т.: 2001.

²²³ Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э.-III в. н.э.). Хрестоматия. / Под ред. Л.В. Баженова. –Т.: 1940. –С. 170.

В «Военных хитростях» Полиена (II в. н.э.) приведена надпись Семирамиды: «Природа создала меня женщиной, но я сравняла себя подвигами с храбрейшими из мужей. Царством Нина правила я от реки Гипама на востоке, до саков и согдов на севере»²²⁴.

Конечно, можно и должно подвергать рассказы греческих историков древности сомнению, однако неоспоримо одно царица Семирамида (имевшая возможно бактрийское происхождение) занимала в истории Ассирии исключительное положение, так как привнесла в неё представление о более высокой цивилизации и культуре.

В Передней Азии первым на историческую арену выходит Мидийское царство, основателем которого был некий Дейок, но подлинного своего могущества оно достигает при царе Киаксаре (625-585 гг. до н.э.) [6]. Этим царем, в частности, были завоеваны Ассирия, Северная Месопотамия, Гиркания, Парфия, Арейя и, возможно, часть Согда, т.е. южная область Средней Азии. По данным Ктесия Книдского, Киаксар также, якобы, покорил Бактрию, что весьма сомнительно. Более вероятно, что границы Мидийского царства ограничивались с северо-востока Амударьей, где мидяне столкнулись с сакскими племенами.

В то время огромные пространства севера Средней Азии были заняты очень воинственными кочевыми племенами, среди которых выделялись саки, массагеты, даи, исседоны, астаки, румники, хорезмии, гиркане, дербики, эглы. Наиболее влиятельными из них и оставившими заметный след в истории были саки и массагеты.

Саки были прекрасными стрелками из лука. О них греческий путешественник Дионисий Периегит писал: «За Согдианой, по течению Яксарта обитают саки, стрелами бьющиеся, из всех стрелков в мире самые искусные, непускающие стрел наудачу. Военная тактика саков: обычай сражаться, как – будто, отступая, и в тоже время стрелять на скаку из луков, обернувшись назад совершенно без промаха, давал им большое преимущество»²²⁵.

Геродот поясняет, что персы скифов звали саками, они участвовали в войнах Ксеркса против Греции. Саки (490 г. до н.э.) входили в состав Дариевых войск, сражавшихся при Марафоне.

В клинописях находится запись придворного врача Ахеменидов, историка Ктесия Книдского: «Саки появились на исторической арене ранее Кира, еще при мидийских царях»²²⁶. Клинописные тексты говорят, что саки подразделялись на саков-парадарайа (за Каспием), саки-хаомаварга (изготавливающие хаому), саки-тиграхауда (носящие остроконечные шапки), саки за Согдом, а также дахи (дай). Саки-тиграхауда проживали в долинах рек Сыр-Дарья, Таласа, Чу, Каратал. По Страбону, севернее массагетов,

²²⁴ Древние авторы о Средней Азии (VI в. до н.э.-III в. н.э.). Хрестоматия. / Под ред. Л.В. Баженова. –Т.: 1940. –С. 170.

²²⁵ Там же. –С. 170.

²²⁶ Пьянков И.В. «История Персии» Ктесия и среднеазиатские сатрапии Ахеменидов в конце V в. до н.э. //ВДИ. 1965. №2.

выше Меотиды находились племена дай. В царствование мидийского Астибара парфяне, дотоле покорные мидийцами, перешли добровольно под власть саков, вследствие чего разгорелась война между саками и мидянами.

Античные источники повествуют о любви сакской царицы Зарины (приблизительно 558 -518 гг. до н.э.) и мидийского царевича Стриангея²²⁷.

Таким образом, Зарина заключила договор о дружбе с мидийским царем, передав ему в управление область Парфиены.

Это был первый в истории Средней Азии дипломатический договор конца VII - начала VI в. до н.э. Из этого следует, что какие-то формы дипломатических отношений в виде мирных договоров существовали в Средней Азии уже в доахеменидское время.

*Abdurahmonov J.S. –
O‘zMU tarix fakulteri talabasi*

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDA OILB BORGAN DINIY SIYOSATI.

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida o‘rnatilgan mustamlakachilik tuzumi bu yerda xukm surgan ma'naviy hayotda, diniy e'tiqodga salbiy munosabatda bo‘lishi shubhasiz edi. Bu bir tomondan - mustabid tuzumning mustamlakachilik siyosati bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, o‘lkada aholisi mustamlakachilarni e'tiqod qilgan din emas, islom dini e'tiqod qilishi bilan izohlanadi. Yana bir jihati shundaki, Rossiya imperiyasi o‘zi egallagan O‘rta Osiyo xalqlarini moddiy va iqtisodiy boyliklarigina emas, balki mana'viy dunyosiga ham egalik qilish maqsadida edi. Shu sababli hukumat musulmonlarning ma'naviy ustuni bo‘lgan islom dini ishlariga aralashish siyosatini tutdi.

Bunday siyosat eng avvalo diniy boshqaruvni qo‘lga olishga qaratilgan edi. Mustamlakachi ma'murlar Turkistonda uzoq yillar hukmronlik qilish uchun o‘lkani boshqarish, buyuk davlatchilik g‘oyalariga asoslangan mustabid tizimni vujudga keltirish uchun yetarli emas, deb xisobladilar²²⁸. Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi mustamlakachilari asrlar davomida musulmon xalqlarining ongi, tafakkuri, turmush tarziga nihoyatda singib ketgan va bu xalqlarni jipslashtirishni asosiy negizi bo‘lib kelgan islom dinining roli va ta'sirini zaiflashtirish zarur, deb bildilar.

Imperiya ma'muriyatining aksariyat qismi missionerlik kayfiyatida bo‘lib, ularning asosiy maksadi qisqa fursat ichida musulmonlarni nasroniylik diniga kiritishdan iborat edi. Orenburg gubernatorligining 1864-1876-yillardagi general-gubernatori N.Krijanovskiy N.P. Ostroumov, M.A. Miropiev, M.A. Voskresenskiy, I.M. Sofiyskiy kabi imperiya amaldorlari shular jumlasidan bo‘lib, ular musulmon aholisiga nisbatan reaksiya munosabatda edilar. Masalan, 1867 yil

²²⁷ История древнего Востока: от ранних государственных образований до древних империй. –М.: 2004. –С. 761

²²⁸ Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: Тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 370.

yanvarda general-gubernator N. Krijanovskiy Rossiya Ichki ishlar vaziriga yuborgan ma'lumotnomada islomni "xavfli" omil sifatida ko'rsatishga urindi. Uning yozishicha, islom dinida nasroniylar musulmonlarning azaliy dushmanlari deb targ'ib kilinadi²²⁹.

Manbalarni tadqiq etishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Rossiya imperiyasi mustamlakachilari Turkistonda asrlar davomida shakllanib kelgan mahalliy sharoit va aholining kayfiyati bilan xisoblashmasdan, fakat o'zlarining xohish istaklari va manfaatlari asosida xarakat kilishardi. Ulardan biri K.P. fon Kaufman bo'lib, u 1867 yildan 1882 yilgacha Turkiston general-gubernatori lavozimida xizmat qilgan²³⁰. Fon Kaufman o'z faoliyati davomida imperiya hukumatining mustamlakachilik siyositining faol ijrochisi bo'lgan. K.P. fon Kaufman to umrining oxiriga qadar musulmon aholisiga nisbatan ishonchsizlik sisatini yurgizdi. U Turkiston general-gubernator sifatidagi faoliyatining dastlabki vaqtlaridanoq islom dini va din ulomolariga nisbatan olib boriladigon diniy siyosat asoslarini ishlab chikishga xarakat qildi. Kaufman din to'g'risidagi konunni Turkiston o'lkasini boshqarishning boshqa konun-qoidalari (xususan yer, soliq, maorif, sud va boshqalar) bilan ko'shib yuborishni afzal bildi.

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan dastlabki kezlarda mustamlakachilar bu yerdagi islom dinining tutgan o'rni xaqida to'liq ma'lumotlarga ega emas edi. Mana shu omillarni xisobga olgan mustabid xukumat fon Kaufmanga cheklanmagan huquqlar berdi. O'z kuchiga qattiq ishongan mustamlakachilar tez orada islom dini O'rta Osiyoda chuqur ildiz otganligiga amin bo'ldilar. Shuning uchun Turkiston general-gubernatori ma'muriyati o'z siyosatini pinxona, ichki ishlarga aralashmaslik niqobi ostida olib bordi.

Ayniksa, general-gubernator K.P. Kaufman Turkiston xalkining taraqqiyot darajasi, madaniy merosi va ma'naviy olami islom shariyatigagina emas, balki boy dunyoviy bilimlarga ham asoslanganligini boshqa amaldorlarga nisbatan yaxshi tushunar edi. Shu sababli u musulmon dini mavjudligiga toqat qilish siyosatini olib borishga majbur bo'ldi, biroq uni rivojlantirmaslikka jon jahdi bilan harakat qildi. Imperiya hukumati islom diniga dushman sifatida karab uni "siqishtirish" siyosatini yurgazdi. Aslida, Turkistondagi siyosiy vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda fon Kaufman axolini nasroniylikka kiritish siyosatini majburiy emas, balki asta-sekinlik bilan amalga oshirish lozim, deb topdi. U Turkiston o'lkasining aholisi nasroniylikni qabul qilishi uchun hali tayyor emas deb hisoblanardi. Fon Kaufman nasroniylik dinini majburan targ'ib kilinishi xukumat uchun eplash kiyin bo'lgan mushkulliklarni keltirib chikarishini yaxshi bilardi²³¹. U o'zining islom diniga nisbatan olib borayotgan "cheklangan tokat qilish"²³² siyosatining asl sabablarini shunday fikrlari bilan izohlab beradi.

Islom diniga bevosita aloqador bo'lgan dastlabki qonun 1867 yilda kabul qilingan "Sirdaryo hamda yettisuv viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi Nizom"da

²²⁹ Аграрные вопросы крестьянского движения 50 – 70- годов XIX века. – М. – Л., 1936. – С. 88-89.

²³⁰ Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача) –Т., Шарк, 2001. –Б. 146.

²³¹ К открытию памятника ген – адъютанта К.П. фон Кауфмана, как устроителя Туркестанская края. – Т., Б.и., 1913. – С. 67.

²³² Броуер Д. Туркестон хожалари // Турон тарихи. – 1993. - № 1. – Б. 30.

o‘z aksini topgan edi. Nizomning 295-moddasi islom dinining iqtisodiy asosi bo‘lgan vaqf mulklariga alokador bo‘lib, unda belgilanishicha, viloyat boshqarmalarida yerlarga tegishli bo‘lgan vaqf xujjatlari ko‘rib chikilishi, keyin aholi mavjud tartib-qoidalar asosida “xiroj” va “tanob” soliqlarini to‘lashlari lozim edi²³³.

Turkiston general-gubernatori Turkistonda islom diniga karshi kator tadbirlar amalga oshirildi. Musulmonlar birlashuviga to‘sqinlik qilindi hamda “qozikalon”, “shayx ul-islom” lavozimlari yo‘qotildi. Qozi va imomlarni saylash tartibi o‘zgardi. Diniy muassasalarga tegishli bo‘lgan vakf mulklarining ko‘pchiligini davlat tan olmadi. Yangi vaqf mahkamalarini tashkil etishga ruxsat berilmadi²³⁴.

1869-yilning oktyabrida general-gubernator buyrug‘iga binoan mayor A.I.Gomzin rahbarligidagi komissiya Turkistonda boshqarish ishlarini tartibga solish uchun joylarda davlatning, aholining yerga bo‘lgan xaq-hukuqlarini, diniy mahkamalar faoliyatini o‘rganishga kirishadi. Buning uchun maxalliy xalq vakillari ham bu ishga jalb etiladi. Komissiya o‘z xisobotida diniy muassasalarning iqtisodiy asosi bo‘lgan vaqf yerlaridan²³⁵ olingan daromadlar maktab va madrasalarni ta‘minlab turganini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Mana shundan keyin K.P. fon Kaufman Toshkentda tayyorlangan loyihani Harbiy vazirlikka taqdim etadi. Lekin bu loyixa markazdagi amaldorlar tomonidan qattiq tanqid qilinadi va uning qator kamchiliklari ko‘rsatiladi. Shuning uchun xam fon Kaufman bu loyixani 1871-yildayoq kaytarib olgan.

K.P. fon Kaufman shu yili Zarafshon okrugining boshlig‘i general-mayor I.F. Abramov rahbarligida qayta komissiya tuzadi. Bu komissiya general-mayor A.I. Gomzin boshchiligida tayyorlangan loyihani qayta ishlab chiqadi. U Turkiston o‘lkasidagi barcha masalalarni, shuningdek, diniy ishlarga alokador bo‘lgan sud ishlari, yer, soliq, vakf mulklari, boshqa ishlarni o‘z ichiga olgan edi. I.F. Abramov rahbarligida tayyorlangan loyihada Rossiya imperiyasining mustamlakachilik manfaatlari yana ham oshkora tarzda bayon etildi. Mustamlakachilar manfaatini ko‘zlagan bu loyixa 1872-yil oxirida general-gubernator devonxonasiga topshirildi. Mazkur loyixa xam markaz amaldorlari tomonidan qattiq tanqidga uchragach, 1873-yil fon Kaufman boshchiligida general-leytenant Kolpakovskiy, general-mayor I.F. Abramov, N.K. Golovvachyov, A.I. Gomzin xamda polkovnik S.Nosovichlardan iborat bo‘lgan yangi komissiya tuzildi²³⁶.

Lekin fon Kaufman tomonidan Turkiston o‘lkasini boshkarish to‘g‘risidagi nizomning yangi loyixasini tayyorlash 1881 yilga qadar cho‘zilib ketdi. 1881-yil oxirida loyixa Markaziy hukumatga topshirildi. Peterburgdagi tashqi ishlar, harbiy, moliya boshqa qator vazirliklardagi mustamlakachi amaldorlar tomonidan

²³³ Савицкий А.П. Поземленный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867-1886 гг.) –Т. 1963. –С. 14.

²³⁴ **Исломова Д.А. Ислom динининг Туркистон ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётидаги ўрни ва роли.** (XIX аср охири - XX аср бошлари). Т.ф.н. дисс. –Т.: 2006. –Б. 28.

²³⁵ Усаров У.А. XIX асрнинг иккинчи ярмида Россия империясининг Туркистон ўлкасида ер эгалиги муносабатларига оид сиёсати // *Фан ва таълим-тарбиянинг долзарб масаллари.* –Нукус. 2019. –Б. 248.

²³⁶ Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане ... - С. 48.

Turkiston general-gubernatorining ushbu loyihasi ham qabul qilinmadi. Ularning fikricha, loyixada guyoki mahalliy aholiga qatta imtiyozlar berilgan edi²³⁷.

K.P. fon Kaufman vafotidan soʻng, uning oʻrniga tayinlangan general M.G. Chernyaevning 1884-yil yanvar oyidagi buyrugʻiga binoan Turkiston Oʻlkasini boshqarishni tartibga solish uchun milliy ziyolilar va diniy ulomolardan iborat maxsus komissiya tuzildi²³⁸. Ushbu komissiya diniy ulamolar boshchilik qilayotgan maktab, qorixona daloilxona, madrasa, masjid, mozorlar hamda ularga tegishli boʻlgan vaqf mulklari uchun yangi konun qoidalarini ishlab chiqishi zarur edi. Chunki, mustamlakachi ma'murlar endilikda Turkistondagi diniy muassasalar faoliyatiga ham oʻz ta'sirini yanada kuchliroq oʻtkazishga intilayotgan edi.

Markaz amaldorlari tomonidan ishlanayotgan nizom loyihasida musulmonlarning maorif, vaqf mulklari hamda diniy boshqaruvi masalalari ham joy olgan edi. 1886-yilgacha yuqoridagi loyihalarning hammasi Peterburgda qayta ishlab chiqildi. Shu tariqa Turkiston oʻlkasidagi barcha masalalarni, shu jumladan diniy masalalarni ham oʻzida mujassamlashtirgan "Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻrisidagi Nizom"²³⁹ qabul qilindi.

Turkiston mahalliy aholisi tomonidan 1892-yilda Toshkentdagi va 1898-yilgi Andijon qoʻzgʻolonidan soʻng general-gubernator S.M. Duxovskiy ham mustamlakachilikda avvalgi general-gubernatorlardan kam emas edi. Koʻzgʻolon shafqatsiz bostirilgan boʻlishiga karamay S.M. Duxovskiy musulmonlar ustidan zudlik bilan kuchaytirilgan nazorat oʻrnatish lozim, deb topdi. Unga koʻra, siyosiy jihatdan xavfli deb topilgan diniy muassasalarni yopishga ruxsat berilishi imperiya ma'murlariga oʻzlariga yoqmagan istalgan diniy muassasani turli boxonalar bilan yopib koʻyish imkonini berdi²⁴⁰. Shuningdek mazkur muassasa xodimlarini ularga tobe' qilib koʻydi.

S.M. Duxovskiy bu siyosati mavjud xolatni real koʻrsatish bilan birga imperiya ma'muriyatini bu xolatga munosabatini xam oshkor etadi. Bu xulosalar oʻz navbatida amaliy axamiyatga xam ega boʻldi. Barcha maktab, madrasa, mozor va ziyoratgoxlar, vaqf maxkamalari ustidan Turkiston general-gubernatorligining qattiq nazorati oʻrnatildi. Eshonlar faoliyati ti'qiqlandi.

Bundan tashqari Rossiya imperiyasi hukumati oʻlkaning mahalliy aholisi oʻrtasida inqilobiy kayfiyat kuchayib borayotganligidan tashvishlanib, diniy muassasalar va oʻquv yurtlari ustidan nazorat qilishni kuchaytirishni amalga oshirishga kirishadi.

XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik xarakatining vakillari oʻz faoliyatlarini dastlab ma'rifiy vazifalarni amalga oshirish bilan boshladilar. Ular ma'rifiy yoʻl bilan xalqni ozodlikka olib chiqish mumkin deb hisoblaganlar. Lekin mahalliy aholining tafakkuri, dunyoqarashining oshishidan mustamlakachi hukumat manfaatdor boʻlmagan. Shuning uchun jadidchilik

²³⁷ Гирс А. Отчет ревизующего по высочайшему повелению ... - С. 4.

²³⁸ Исломова Д.А. Ислом динининг Туркистон ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётидаги ўрни ва роли... –Т.: 2006. –Б. 30.

²³⁹ Ўзбекистон янги тарихи. Туркистон чоризм мустамлакаси даврида. Биринчи киоб., –Т.: Шарқ, 2000. –Б. 253.

²⁴⁰ Исломова Д.А. Ислом динининг Туркистон ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётидаги ўрни ва роли... –Т.: 2006. –Б. 30.

vujudga kelgan dastlabki kunlardan oq imperiya mustamlakachilari jadidlar faoliyatiga qarshilik ko'rsata boshladilar.

Xulosa qilib aytganda, imperiya xukumatining Turkistonda olib borgan siyosati turli bosqichlarni bosib o'tdi. Dastlab hukumat diniy nazoratni o'z qo'liga olishga kirishdi. Shu maqsadda bir necha marta tuzilgan hukumat komissiyalari va ma'muriyat o'lkadagi diniy holatni o'rganib, bu masalada shoshmaslik zaruriyatini angladilar. Chunki, islom xalqining turmush tarzi va ongiga chuqr singib ketganligiga mustamlakachi ma'murlar ham amin bo'ldilar. Imperiyaning diniy siyosatdagi o'zgarish eng avvalo kuchli nazorat va iqtisodiy zarba, cheklashga qaratildi. Vaqf mulklarini cheklash, ulamolarni, diniy ta'lim tizimini nazorat qilish shu chora-tadbirlar natijasi edi. Garchi imperiya hukumati o'lkada rus tili va nasroniylik qarori topishini juda istasa-da, buning ilojsizligini yaxshi anglardi va shu sababli bu siyosatni oshkora olib bormadi.

*Азимов М. –
студент исторического факультета НУУз*

СРЕДНЯЯ АЗИЯ В СОСТАВЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

Начиная с XIX века гонка за колонии между великими державами выходит на новый уровень. Крупнейшая колониальная держава мира - на тот период – Британская Империя, в конце XVIII века заканчивает полную колонизацию Индии, и в середине XIX века ее экспансионистские устремления оказываются направлены в сторону Средней Азии.

В XVIII веке по определению академика В.В. Бартольда в Средней Азии наступило время политического, экономического и культурного упадка²⁴¹. Средняя Азия, раздираемая междоусобными войнами и феодальными мятежами, переживала тяжелый кризис, парализовавший не только хозяйственную, но и культурную жизнь страны²⁴². Еще больше по сравнению с XVI – XVII веками выросло влияние и богатство власть предержащих, эмиров и духовенства²⁴³. Успехи в области знаний и техники, достигнутые Западной Европой в этот период, могли использоваться лишь в малой степени, так как Средняя Азия начиная с XVIII века оказалась в наибольшем удалении от мировых политических центров. При этом, все же Средняя Азия имела довольно большое население и была богата разными видами ресурсов. Климатические условия позволяли массово выращивать здесь хлопок, который являлся основой текстильной промышленности многих стран мира.

Хлопок приносил большие прибыли странам, которые его выращивали или наоборот снижал их затраты на производимую текстильную продукцию

²⁴¹ Бартольд В.В. Тюрки, Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии-Алматы, 1998. –С 187.

²⁴² Там же. –С. 188-189-200.

²⁴³ Там же. –С. 203.

если таковая имелось, а большое население было выгодно с точки зрения торговли, ведь большое население — это всегда большой рынок сбыта продукции, а промышленной продукция, которую производили многие державы была более конкурентоспособна по сравнению с кустарным, ремесленным и мануфактурным производства.

Учитывая всё внимание вышперечисленное, Британии было выгодно взять под контроль эти земли. Но желание колонизировать Среднюю Азию не исходило только лишь из желания обогащения, имелись и другие причины. И одной из причин вторжения для Британии, была проблема обороны Индии, поскольку исторически все нашествия на нее осуществлялись из глубин Центральной Азии (Александр Македонский, Амир Темура, Бабур и др.). Основной целью Британии было сдерживание Российской Империи, повысившей активность в этом регионе.

Установление Британского контроля над Средней Азией означало прямой доступ к южным границам Российской Империи, а именно к так называемому «мягкому подбрюшью» России (имеется в виду, что с этого направления удобно напасть на Россию), которое имело гораздо меньшую обороноспособность, чем к примеру ее западные границы. Помимо этого, завоевание Средней Азии Британией, могло серьёзно усугубить положение России в регионе, и в мире, в целом, так же в дальнейшем отрицательно повлиять на ее экономическое развитие, в связи с чем Россия не могла оставаться в стороне.

В свою очередь, у России были свои причины установить свой контроль над Средней Азией. Среди главных причин стремительного расширения владений Российской Империи в Средней Азии во второй половине XIX века назывались занятие «естественных границ» России, замирение междоусобиц и прекращение кочевнических набегов, доставлявших беспокойства на пограничных линиях и торговых путях²⁴⁴. Как контраргумент Первой Англо-афганской войне (1838 - 1842), Россия начала первый этап завоевания Средней Азии (1847 - 1864), поражение в Крымской войне (1853 - 1856) в свою очередь ускоряет этот процесс. С целью уменьшения влияния Британской империи и ее вытеснение из региона, Российская дипломатия предприняла несколько попыток наладить прямые отношения с Кабулом, что привело к пророссийским симпатиями афганского эмира Шир-Али, в связи с чем Дизраэли – премьер-министр Великобритании, дал распоряжение о начале Второй англо-афганской войны (1878 - 1880) в ходе которого Шир-Али был свергнут и на его место пришел его сын Якуб-хан. Для противодействия агрессивным устремлениям Британии, Россия начинает четвертый – заключительный этап завоевания Средней Азии.

В ходе завоевания Средней Азии Российской Империей, перед Россией встал ряд новых вопросов, обусловленных большой территорией с компактным многомиллионным, моно-конфессиональным населением,

²⁴⁴ Глуценко, Е. А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. —М.: ЗАО Издательство Центрполиграф; 2010. —С 57.

воспринявший ислам практически на заре его становления, имевший многовековой опыт собственной государственности. Под российским управлением оказался огромный мусульманский регион со своей своеобразной культурой. Это были не только новые земли, но и совсем другая цивилизация. Невозможно было выстраивать систему управления вновь присоединенным краем без учета конфессионального фактора²⁴⁵. «В мусульманских государствах рассчитывать на преданность мусульманских подданных возможно только при одном лишь условии: чтобы требования правительства, его агентов и его органов не затрагивали их религиозных понятий и не противоречили бы постановлениям шариата»²⁴⁶.

Среди положительных моментов можно выделить то, что после того, как отдельные части Средней Азии были включены в состав Российского государства ярко выделяются изменения с той или иной скоростью и интенсивностью в производственной, политической, общественной, бытовой сферах жизни местного населения. Появляются элементы модернизации, расширяются представления местного населения о собственной стране и истории. Прекращаются постоянные феодальные междоусобицы. Более защищенными становятся жизнь и собственность местного населения, ранее зависевшего от своеволия правителей. Ликвидируется рабство. Улучшается положение этнических меньшинств и людей, исповедующих иные религии. Совершенствуется производство, приобретающее товарный характер, появляются его новые отрасли. Формируется среднеазиатский рынок, который становится частью общероссийского. Меняется конфессиональная структура населения, вырабатывается опыт межконфессионального добрососедского общежития²⁴⁷.

Так же необходимо отметить то, что появляются абсолютно новые учреждения культуры, образования, здравоохранения. Начинается, поставленную на научную основу, изучение природы и истории региона²⁴⁸.

Одновременно с этим организовывается и происходит строительство военных укреплений, постоянное пребывание там регулярных войск и казачества. Применяется как местное законодательство на основе адата и шариата, так и сложившееся общероссийское новое законодательство. Ведется активное строительство железных и грунтовых дорог, мостов, постоянных дворов, появляются новые города и селения, опытные станции для разведения хлопка, шелковичного червя, ведутся гидротехнические работы по орошению Голодной степи в Казахстане и начинается массовое освоение судоходства на крупных реках – Урал, низовьях Волги, Сырдарья, Амударья, Каспийском и Аральском морях.

²⁴⁵ Флыгин Ю.С. Российская гражданственность и Средняя Азия, -Т.: 2017. –С. 101.

²⁴⁶ Казембек А.К. История ислама. Обзорение Востока в политическом отношении. — Русское Слово. 1860, № 2, 5

²⁴⁷ Флыгин Ю.С. Российская гражданственность и Средняя Азия –Т.: 2017. –С. 20.

²⁴⁸ Там же. –С. 21.

Центральные власти Российской Империи организовали, планировали и финансировали заселение Казахстана и Средней Азии мигрантами из Европейской России, Украины, Белоруссии. На землях Средней Азии шла разработка минеральных ресурсов, нефти, угля, железных и медных руд, золота и драгоценных камней²⁴⁹.

Конечно наблюдается и ряд отрицательных моментов, среди которых наиболее ярко выделяется: 1) утрата государственного суверенитета среднеазиатских стран. 2) Частичная потеря контроля над финансами и военными единицами. 3) Однобокое развитие экономики региона сконцентрированной на выращивании хлопка, на территории Средней Азии (первое время строили фабрики только первичного обработки хлопка), 4) Отбираются плодородные земли у местного населения и отдаются переселенцам из России. Кроме того, теперь простой народ обязан был платить налоги не только своим местным правителям, но и уполномоченным лицам, назначенным Российским правительством. Российские купцы получают огромные преференции в торговле, что в свою очередь негативно повлияло на бытовую жизнь народа.

Подводя итоги выше сказанному, можно сделать следующие выводы: с приходом России в Среднюю Азию местные государства теряют свою внешнеполитическую независимость и свой суверенитет. Среднеазиатские страны стали сырьевой базой, которая была так необходима Российской промышленности. С включением в состав Российской Империи в Средней Азии было отменено рабство. Происходит огромный скачок в развитии медицины. Появляются первые светские школы. Строятся первые железные дороги. Делаются первые шаги к упорядочиванию бытовой и культурной жизни – строятся театры и оперы т.д. В целом вхождение Средней Азии в состав Российской Империи положительно повлияло на развитие местных народов.

*Amirova F.A. –
ToshDTU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar ToshDTU katta o‘qituvchisi Kuanishova D.T.*

AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVIDA QO‘LLAGAN O‘ZIGA XOS USULLARI

Davlatchiligimiz tarixida Amir Temur va Temuriylar saltanatining qo‘shni davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari o‘ziga xos o‘rin tutib, Sohibqiron yuritgan adolatli davlat boshqaruvining ayrim hislatlari mohiyatan hozirgi kunda, nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham ma’lum ma’noda saqlanib qolgan. Amir Temur millatning ma’naviy qismati bo‘lib, barqaror taraqqiyot, xususan, ilm-fan va madaniyatning gullab yashnashi, ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirdi.

²⁴⁹ Бекмаханова Н.Е. Присоединение Центральной Азии к Российской империи в XVIII–XIX вв. Историко-географическое исследование- Санкт-Петербург, 2015. –С 2/67

Hozirda har bir tarixchi, siyosatchi Amir Temur siyosatini chuqurroq mushohada qilib o'rganishi ham qarz, ham farzdir. Atoqli olim Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli asarida Sohibqiron faoliyati ikki bosqichga – Turon zaminda mustaqil davlat tuzish va xorijiy mamlakatlarni fath etishga yo'naltirilgan davrlarga bo'lib o'rganish tavsiya etilgan²⁵⁰. Amir Temur Movarounnahrni rivojlantirish va mamlakatni yanada obodonlashtirish shu bilan birgalikda xalq farovonligini mustahkamlash maqsadida qo'shni davlatlar hukmdorlari bilan diplomatik aloqalarni olib borgan.

Amir Temur davlat boshqaruv usullarini yevropalik tadqiqotchilar ham qunt bilan o'rgangan. Xususan, rus sarkardasi Ivanin "Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur" asarida Amir Temur faoliyatini atroflicha va chuqur tahlil etgan holda yoritgan. Amir Temurning harbiy faoliyati haqida chuqurroq to'xtalib, haqqoniy baho bergan. Amir Temur ayniqsa, sayohatchilar, savdo va karvonlarga alohida homiylik qilgan. Chunki ulardan har bir davlatda bo'layotgan iqtisodiy-siyosiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumotlarni to'laligicha olgan. Amir Temur deydi: "Siyosat bilan maqsadga erishish mumkin bo'lgan joyda, qurol bilan harakatlanish noto'g'ri. Avvalo, dushmanning qurol ishlatish usullarini, hujum va chekinishda qanday yo'l berish mumkinligini, qo'shinning ruhiyatiga, lashkarboshi va hokimlar fazilatiga ta'sir etish vositalarini topish kerak"²⁵¹.

Amir Temur harbiy san'atini Sovet davlati zobitlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Harbiylar uchun maxsus kurslar tashkil etilib, Amir Temurning harbiy san'ati alohida o'rganilgan²⁵².

Yana bir rus adibi Y. Berezikovning "Buyuk Temur" asarida Amir Temurning buyuk shaxs ekanligi, uning olib borgan siyosatini, obodonchilik ishlarini, elchilar bilan do'stona munosabatini har bir hukmdor o'zi uchun namuna qilib olsa arziydi deb ta'kidlagan. Asarda Amir Temur Oqsaroyni qurishda Sat Chet Devan maslahati bilan Bog'dod va Sherozdan munajjimlar, ustalarni taklif qilib, ularga Oqsaroy qurulishida o'zining tasavvularini aytib beradi va ustalar bilan fikr almashadi²⁵³. Amir Temur jahonda birinchi bo'lib o'ziga xizmat qilayotganlarni toifalarga bo'ladi. Bu xususida, Amir Temurning o'zi shunday deydi: "Saltanatim ishlarini qonun va qoida intizomga solib, saltanatim martabasiga zeb-u ziynat berdim. Shu o'n ikki toifa asosida mamlakatim qonun-qoidalarini tuzdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayanib ish falakining o'n ikki burji va davlatimning o'n ikki oyi hisoblanadi"²⁵⁴. Amir Temur Oqsaroyda o'rnatgan tartiblariga uning butun keyingi hukmronlik davrida ham qat'iy amal qilingan. Ular qulay va o'ng'ayligi sabab bo'lsa kerak, boshqa hukmdorlar tomonidan o'zlashtirib olindi. Y.Berezikov asaridan shuni anglab olish mumkunki, Amir Temur zukko donishmand, davlat arbobi, mohir siyosatchi, tajribali davlat boshqaruvchisi bo'lgan.

²⁵⁰ Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli. -T.: Fan, 1993. 7-bet.

²⁵¹ Temur tuzuklari. -T.: G'.G'ulom, 1991. 114-bet.

²⁵² Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. -T.: Xazina, 1994. 357-358 bet.

²⁵³ Berezikov Y. Buyuk Temur. -T.: Sharq, 1996. 357-bet.

²⁵⁴ Temur tuzuklari. -T.: G'.G'ulom, 1991.,144-bet.

Amir Temur dastlabki siyosiy faoliyatidan to vafotiga qadar o'z qudratining o'ndan to'qqiz qismiga diplomatik salohiyati tufayli erishgan. Tinchlik, tomonlar manfaatdorligi, hatto raqiblarga ham muruvvatli va kechirimli bo'lish, har qanday sharoitda ham elchini qadrlash, tashqi siyosat va diplomatiya qoidalariga qat'iy amal qilish, inson hayoti dahlsizligi - Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasining asosi hisoblangan.

Amir Temur davlat boshqaruvining o'ziga xos tomonlaridan yana biri shundaki, u bir xalqni ikkinchi bir xalqqa, bir dinni boshqa dinga, bir mafkurani o'zga mafkuraga qarshi qo'ymay, har ikki ziddiyatli tomonning manfaatlarini ifoda etadigan muammoning ijobiy yechimini topishni asosiy masala deb bilgan.

Amir Temur davlat boshqaruvi insoniylik tamoiliga asoslangan. Shuning uchun ham Temur o'z davlat boshqaruvida hukmdorning har bir harakati xalqning taqdiri bilan bog'liq deb tushungan va diplomatik munosabatlarda ham imkon qadar nizolarni kelishish yo'li bilan hal etgan. Bunga yorqin misol Amir Temur va Boyazid Yildirim munosabatlaridir. Temur shunday degan: "Podshohlar xulqi bamisoli shamol, avomniki maysadir. Shamol qay tarafga essa, maysa ham o'sha tomonga egiladi. Ammo podshoh hech qachon o'z qudratining asosi mana shu avom ekanligi unutmang kerak"²⁵⁵.

Amir Temurning mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik kabi xislatlari, uning davlat boshqaruvi tizimida katta zamin bo'lib xizmat qilgan. U o'z raqiblariga katta hurmat ko'rsatib, qilayotgan ishlari yuzasidan tegishli xulosalar chiqarishga imkon yaratgan. Amir Temur har bir muammo yechimiga sergaklik va hushyorlik bilan yondoshgan. Muammo yechimini topishda vazminlikka tayangan. Chunki Amir Temur shoshmashosharlik bilan qabul qilingan qaror keyinchalik pushaymonga aylanishini yaxshi bilgan.

Sohibqironning vorislari Shohrux, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi yirik davlat arboblari ham davlat boshqaruvining ichki va tashqi ishlarida uning davlat boshqaruvi usullariga amal qilib, bu boradagi siyosatini davom ettirganlar.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligi tarixida eng yorqin sahifalar bitildi. Mazkur yillarda davlatimizning, umuman, o'zbek xalqining ichki va tashqi siyosatidagi imkoniyatlari, salohiyati to'la-to'kis namoyon etildi. Amir Temur tuzgan davlatning kuch-qudrati Yevropadan Xitoyga qadar ulkan hududdagi davlatlar tomonidan tan olindi. Amir Temur o'zining bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlari bilan tarixda o'chmas iz, o'z avlodlariga betakror moddiy va ma'naviy meros qoldirdi. Sohibqiron Amir Temur saltanatining davlat boshqaruvi texnologiyasi, uning yo'nalishlari alohida mavzularda chuqur o'rganilishi kerak va ular bugungi O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy taraqqiyotida poydevor bo'lib xizmat qilishi lozimdir.

²⁵⁵ Uvatov U. Amir Temur va mamlukiylar. -T.: 1998. 28-bet.

AMIR TEMURNING G‘ARB DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI

Ma’lumki, Amir Temur buyuk hukmdor, yengilmas sarkarda, bunyodkor shaxs bo‘lishi bilan birgalikda, ayni paytda moxir siyosatchi ham edi. Uning oqilona davlat boshqaruvi va tashqi siyosati tufayli uning davlati gullab yashnagan va taraqqiy etgan. U siyosiy maydonda nafaqat Osiyo hududlari, balki Yevropa mamlakatlari bilan ham diplomatik munosabatlar olib borgan.

Amir Temur o‘z davlatini faqat bosqinchilik yurishlari orqali qudratli qilib bo‘lmasligini yaxshi bilardi. U boshqa davlatlar bilan oqilona siyosat yuritib, do‘stlik aloqalarini o‘rnatdi. Jumladan, Amir Temur Misr, Hindiston va Xitoy davlatlari bilan mustahkam diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Bu, albatta, tabiiy hol, chunki bu davlatlar o‘z davrining buyuk davlatlari hisoblanar edi.

Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan diplomatik aloqalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va do‘stona elchilik, savdo aloqalari rivojlanib borgan. Bunga bir qancha ikki tomon uchun ham manfaatli jihatlar sabab bo‘lgan. Jumladan, Sharqning qimmatbaho mollari azaldan G‘arb mamlakatlari savdogarlarining diqqatini jalb qilib kelgan bo‘lib, shoyi, qimmatbaho madanlar va toshlar, dorivorlar va sharqning afsonaviy turfa boyliklari G‘arb mamlakatlarida doim yuqori baholangan. E’tiqod jihatdan turli xillik, ya’ni Sharqda islom va G‘arbda nasroniylik bo‘lishiga qaramay savdo-sotiq ishlariga to‘sqinlik qilmadi. Hatto salib yurishlari ham bu aloqalarga raxna sola olmadi. Lekin, faqat bitta sabab, ya’ni XIV ars o‘rtasida Xulogiylar sulolasining tugatilishi va Oltin O‘rdada mo‘g‘ullar hukmronligining pasayishi bu jarayonning biroz muddat to‘xtashiga sabab bo‘lgan va savdo aloqalariga jiddiy zarar yetishiga olib kelgan²⁵⁶.

Yevropa davlatlari bilan Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga asosiy sabab bu Yildirim Boyazid edi. Bu paytda Yevropa davlatlari Boyazid Yildirim qutqusidan xavotirda bo‘lib, bu xavfni bartaraf etishning chorasini topolmayotgan edi. Boyazidning tazyiqi esa shimol va shimoli–G‘arbga tomon tobora kuchayib borar edi. Xuddi shu murakkab siyosiy jarayonlar davrida Boyazidga raqobatchi yangi kuchning paydo bo‘lishi yevropaliklar uchun katta imkon edi. Shuning uchun ham ular Amir Temurni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, uning kuchi bilan Boyazid xavfi bartaraf etilishini istar edilar²⁵⁷.

XIV ars oxiridagi bu qaltis vaziyat natijasida yevropaliklar uchun “turk masalasi” yuzaga keladi va Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqqa boradigan yo‘llar yevropa uchun yopiladi. Endi yevropaliklar bu masalani hal qilmay turib o‘zlarining savdodagi asosiy sheriklari bo‘lgan Hindiston va Xitoyga o‘ta olmas edilar. Shu kezlarda Amir Temur qudrati va uning ko‘p yerlarni zabt etgani haqida Trapezund saltanati orqali Yevropaga xabarlar yeta boshlaydi. G‘arb davlatlari

²⁵⁶ Amir Temur Jaхon tarixida – T.: Шарк; 2001. –Б. 24-125.

²⁵⁷ Ўлжаева Ш. Amir Temur diplomatiyasi –T.: Ijod-Press; 2018. – Б. 55.

rahbarlari bu xabarlarini eshitib Amir Temur bilan aloqaga kirishadilar. 1400-yil avgustida Amir Temur o'z lashkari bilan shimoliy-sharqiy Anatoliyadagi Mingko'l yaqinida turganida xuddi shunday imkoniyat tug'ilgan edi. Bular haqida o'sha davrni batafsil yoritgan tarixchilardan biri Sharofiddin Ali Yazdiy quyidagi ma'lumotni keltirib o'tadi: "Shul asnoda Farang tarafdin elchilar keldilar, amir Murodkim, Rum qaysarlaridan erdi, aning o'g'lini keltirdilarkim, ani faranglar asir qilib erdilar va havoxohlikdin hazrat qoshida keltirub erdilar, beklar, elchilarni hazrat Sohibqiron qoshig'a kiyurdilar. Ul hazrat alarni navozish birla qabul qildi va alarga xil'atlar kiydurub, har naki naszliq erdi, alarg'a kamronliq baxshida qildilar. Va alar Tarabzun yo'lidan qaytdilar"²⁵⁸.

Bu aloqalarga oid ko'plab manbalar mavjud, xususan boshqa bir yuqoridagiga o'xshash manbalarda kelgan elchilar aslida Konstantinopolning Pera dahasidan kelgan genuyaliklardir. Elchilar ne maqsadda kelganligi aytilmagan bo'lsa ham, Amir Temur bundan avvalroq Trapezund saltanati bilan aloqa o'rnatganligi ma'lum. Bundan tashqari Amir Temur Vizantiya bilan ham aloqa o'rnatgan. Bundan ko'rinadiki Amir Temur o'zining quruqlikdagi harakatlarini yunonlar va genuyaliklarning suvdagi harakatlari bilan moslashtirmoqchi bo'lgan. Ikkala tomonlarning ham maqsadlari bitta masalaga, ya'ni turklarni yengish masalasiga qaratilgan edi. Umuman olganda, Yevropaliklar va Amir Temur o'rtalaridagi elchilik munosabatlarini Anqara jangidan oldingi, jang davridagi va jangdan keyingi davrdagi elchilik aloqalariga ajratishimiz mumkin. Anqara jangidan oldingi missiyalar nihoyatda sir tutilar edi, chunki genuyaliklar, venetsiyaliklar va vizantiyaliklar Boyazidning qahr-g'azabidan cho'chir edilar. Shu tariqa elchilik aloqalari rivojlanib boradi. 1394-1399-yillarda Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Amir Temur xuzuriga Fransua ismli dominikan monaxini ikki marta elchi qilib jo'natadi. Unga Sandro ismli odam hamrox bo'ladi. Sandro Genuya Padestati bilan yaqin bo'lgan, chunki uning qo'lida Genuya homiysi bo'lgan Fransiya qirolining Amir Temurga yozgan maktubi bo'lgan. Fransua o'zining birinchi safari chog'ida, agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush ochguday bo'lsa, Shariy O'rta dengiz sohilidagi Yevropa davlatlari Amir Temurga yordam berishini aytgan. Amir Temurning javobi ma'lum emas edi, chunki javob ma'lum bo'lishi uchun unga bir talab qo'yilishi kerak edi. Shu sababli, Fransua o'zining ikkinchi elchiligi chog'ida o'zi bilan kelgan Sandro olib kelgan Fransiya qirolining maktubi bilan tasdiqlangan Konstantinopol imperatorining majburiyatlarini unga izhor etdi. Bunga ko'ra, agar Amir Temur Boyazidga qarshi urush boshlasa, odatda, Boyazidga mo'ljallangan xiroj Amir Temurga berilishi aytilgan edi. Shu tariqa, monax Fransua vositachiligida Amir Temur bilan Yevropa davlatlari o'rtasida do'stona munosabatlar boshlanadi. 1400-yil mobaynida Venetsiya senati Amir Temur huzuriga o'zining ikkita vakili: Andrea Jistiniani va Mateo Barbadigolarni jo'natdi. 1401-yilning avgust oyida asli Peralik, ammo Genuyada o'troq bo'lib qolgan odamning hisob daftarida Amir Temur elchisi bu shaharga kelganligi haqida yozib qoldirilgan. Demak, o'sha paytdan Amir Temurning imperator bilan aloqasi boshlangan. Shuningdek,

²⁵⁸ Амир Темур Жаҳон тарихида – Т.: Шарк; 2001. – Б. 125.

Peradagi hisob daftarida 1402-yilning 18-maydan 21-iyunigacha bo'lgan davrda Amir Temur elchisi kelganligi haqida ma'lumot bor²⁵⁹.

Amir Temur va Yevropa davlatlari o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xos edi. Bu o'ziga xoslikni va Temur tarixini chuqur o'rgangan temurshunos olim L. Keren bu munosabatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Amir Temur va Yevropa qirollari o'rtasidagi munosabatlar ko'p jihatlari bilan kishini hayratga soladi. Aslini olganda ularni ko'p narsa ajratib turardi: e'tiqodlari, tillari, bir-biriga dushman xalqlari, oralaridagi masofa va ayniqsa, manfaatlarning turli-tumanligi". L. Keren Amir Temur tashqi munosabatlariga oid yangi ma'lumotlarni topib yangi doiraga kiritdi. Ulardan biri shuki, "tomonlar maktublar va iltifotlar bilan almashdilar, Amir Temur Ispaniyaga elchi yo'llab, Boyazid haramidan ozod qilingan uch nasroniy go'zalni qo'shib yubordi". Amir Temur "Nasroniy Ispaniya bilan boshqa Yevropa davlatlariga qaraganda ancha muhim diplomatik aloqalar o'rnatdi". Buning sababi shuki, Usmoniylar nasroniylarga Nikopol yonida katta zarba berib, butun Yevropaga katta xavf tug'dirayotgan bir paytda nasroniy hukmdorlar uchun ikki yo'l qolgan edi: birinchidan, diplomatik aloqalar o'rnatish, ikkinchisi, bevosita to'qnashuv. Kastiliya qirollari esa diplomatik yo'lni tanladi. U Boyazidga, Amir Temurga, Bobil, Fes va Tunis hukmdorlariga elchilar jo'natdi. Amir Temur Kastiliya elchilariga iltifot ko'rsatgan va ularni hurmatini joyiga qo'ygan. O'sha fursatdan foydalanib, elchilar Gomes va Hernan shaxsan Amir Temur ularga shamshir sovg'a qilishini iltimos qilishadi. Ularning bu niyati ham bajo keltiriladi. Amir Temur "o'g'li" Hernan o'z ismiga Amir Temurning ismini ushbu uchrashuvdan xotira sifatida qo'shib oladi. Hernanning Arevalo yaqinidagi Raparnegos cherkovi hovlisidagi qabrtoshiga: "Bu yerda qirol Henri III saroyining ayoni va uning Amir Temur huzuridagi elchisi marhamatli ritsar Hernan Sanches do Palasuelos Tamerlan dafn etilgan"- deb yozib qo'yilgan²⁶⁰.

Anqara jangidagi g'alabadan so'ng Amir Temur bilan Yevropa davlatlari o'rtasida elchilik aloqalari yanada ildamlashdi. Chunki, Yevropa davlatlari qirol va imperatorlari Amir Temurni g'alaba bilan tabriklashga va bundan keyin munosabatlarni yanada yaxshilashga intilishardi. Jumladan, 1402, 1403 va 1404-yillarda Amir Temur bilan Yevropa davlatlari o'rtasida bir qator elchi almashishlar amalga oshirildi. 1402- sentabrda Yangi Foseya, dekabr oyida esa Vizantiyadan Amir Temur huzuriga elchilar keldi. Amir Temur shu yilning noyabr oyida o'g'li Pirmuhammadni va Shayx Nuriddin ritsarlar huzuriga elchi sifatida yubordi. Ulardan taslim bo'lish va islomni qabul qilish talab etiladi. Ritsarlardan rad javobi olingandan keyin, Amir Temur 1402-yil 2-dekabrda qal'aga hujum qiladi. Bu hujum natijasida barcha ritsarlar halok bo'lishadi. Angliya va Fransiya davlatlari bilan ham ko'plab elchi almashishlar bo'lgan. Fransuz qirollari Karl VI bilan Amir Temur o'rtasidagi yozishmalarning bir qismi Fransiyada saqlanib kelinmoqda. Ulardan shu narsa anglanganki, Amir Temur Fransiya qirolining takliflarini rad etmagan va Karl VI ning sharqqa siyosatini qo'llagan. Amir Temurning forscha yozilgan va 1402-yil 1-avgust sanasi qo'yilgan maktubi aslida Anqara jangidan

²⁵⁹ Amir Temur Жаҳон тарихида –Т.: Шарқ; 2001. – Б. 125-126.

²⁶⁰ Ўлжаева Ш. Amir Temur diplomatiyasi –Т.: Ijod-Press; 2018. – Б. 55 -57.

oldin yozilgan bo‘lib, unga sana keyin qo‘yilganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu maktubda Amir Temur o‘z davlati bilan Fransiya o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatish istagini bildirgan. Amir Temurning bizgacha saqlanib qolgan lotincha tarjimada yozilgan ikkinchi maktubi ham 1402-yil 1-avgust bilan sanalangan. Bu ikkala maktubni ham Sultoniyaning katolik arxiyepiskopi Ioann III Fransiyaga olib borgan. Ushbu elchi Amir Temurning maktubini 1403-yilning iyun oyida Parijga olib boradi. Bu maktubda Amir Temur quyidagi ikkita taklifni bildirgan:

1. Ikki davlat savdogarlarining erkin savdo munosabatlarini ta’minlash;
2. Agar qirol va gersoglar rozi bo‘lishsa, bu savdo erkinligini tegishli bitim orqali kuchga kiritish.

Karl VI ning esa Amir Temurga 1403-yil 15-iyulda yo‘llagan birgina maktubi saqlangan. Maktub: “Karl, xudoning marhamati bilan fransuzlarning qirol, eng shavkatli va eng g‘olib hazrat podshoh Temurbekka salom va tinchlik bo‘lsin” degan so‘zlar bilan boshlangan. Ushbu maktubdan Karl VI ga Amir Temurning taklifi maqul bo‘lgan va ikkita tomon ham savdo bitimi ma’lum hujjat bilan mustahkamlanishidan manfaatdor bo‘lgan²⁶¹.

Amir Temur davlati bilan Angliya o‘rtasidagi munosabatlar ham yaxshi rivojlangan. Bu munosabatlarda Amir Temurning o‘g‘li Mironshohning ham hissasi katta. Angliya qirol Genrix IV ning Amir Temur va Mironshohga yo‘llagan ikkita lotincha maktubi saqlangan. Genrix IV dan kelgan maktubda Mirzo Mironshoh “Mirassa Amirassa” deb atalgan. Qirol Mironshohning katoliklarga bo‘lgan do‘stona va xayrixohlik munosabatlari va “ayniqsa diniy arboblarga va franko-katoliklarga lutfi karam baxsh etib, nasroniy savdogarlarning shaxsiy va faoliyat xavfsizligini ta’minlaganligi va barobariga savdo g‘araziga xayrixohligi” uchun minnatdorchilik izhor etadi. Ushbu maktub London shimolidagi Xortfordda fevral oyida, aniqlanishicha, 1402-yilda yozilgan. Genrix IV ning Amir Temurga yozgan maktubi Sohirqironning hozirgacha saqlangan maktubiga javoban yozilgan. U shunday boshlanadi: “Genrix, xudoning marhamati bilan Angliya va Fransiya qirol, shuningdek Irlandiya hokimi, buyuk va qudratli podshoh Temurbekka, tangrini sevuvchi do‘stga, hammasining xaloskoriga salom va tinchlik bo‘lsin”. Maktubda yana Angliya qirol Amir Temurga savdo aloqalarida ikki davlat fuqarolarining erkinligini ta’minlash istagini va Boyazidni yenganligi uchun yaratilgan erkinlik va qulayliklar uchun minnatdorligini bildiradi²⁶².

Temur davlati bilan Ispaniya o‘rtasidagi munosabatlar o‘sha davrda kuchayadi. Rui Gonsales de Klavixoning “Kundaligi” XV asr boshlaridagi ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beruvchi manba hisoblanadi. Ma’lumki, Klavixon elchiligi 1403-yilning 21-mayida boshlangan va u sayohat davomida yo‘l-yo‘lakay ko‘rgan-eshitganlari haqida maxsus bir kundalik tutib, uni safardan so‘ng “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar)” nomli asar holiga keltirgan. U o‘z sayohati

²⁶¹ Амир Темур Жаҳон тарихида –Т.: Шарқ; 2001. – Б. 126-128.

²⁶² Амир Темур Жаҳон тарихида –Т.: Шарқ; 2001. – Б. 128-129.

davomida ko‘plab hududlar haqida yozib qoldirdi. Jumladan, turklar hududida Amir Temurning hurmati baland ekanligini o‘z tassurotlarida yozib qoldirgan. Umuman olganda, Klavixoning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to‘la safar bo‘ldi. Ta’kidlab o‘tganimizdek, Klavixo va uning hamrohlari Ispaniyaning janubi-sharqiy tarafida joylashgan Kadis shahridan yelkanli kemada O‘rta Yer dengizi bo‘ylab suzdilar, so‘ngra Istanbul, Trabzon, Arzirim, Tabriz, Tehron, Mashhad, Marv va Balx orqali quruqlikda yo‘l bosdilar. Ular Termiz qarshisida Amudaryodan o‘tib, Kesh orqali 1404-yilning 31-avgustida Samarqand qishloqlaridan o‘tib, poytaxtga keldilar va Sohirqironning shu atrofdagi chorbog‘iga kelib tushdilar. Shuni ham aytish kerakki, o‘shanda Klavixo bilan birga Bobil va Turkiya sultonining elchilari ham Samarqandga keldilar. Klavixoning bu tashrifi orqali Amir Temur va Kastiliya va Leon qiroli Karl III o‘rtasida mustahkam do‘stlik aloqalari o‘rnatildi²⁶³.

Temur tarixini yaxshi o‘rgangan L.Keren Amir Temur haqida bir qancha kitoblar yozgan va bu kitoblar ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan. L. Keren Amir Temurga ko‘plab ta’riflar keltirgan. U Amir Temurni Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanligini alohida e’tirof etgan. L. Keren Amir Temur hususida olib brogan tadqiqotlarining xulosasi sifatida shunda deb yozadi: “Bir tomonda qattiqqo‘l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turardi; bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi Temur bo‘lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bog‘lar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo‘lib qolmoqda”²⁶⁴.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Amir Temur nafaqat o‘z xalqi taqdirini, balki boshqa xalqlar taqdirini ham o‘ylaydigan mohir diplomat va yuksak siyosiy zakovat sohibi edi. U bu aql-zakovati orqali nafaqat Osiyo, balki butun Yevropa xalqlari hurmatiga sazovor bo‘lgan uzoqni ko‘ra oladigan yuksak siyosatchi edi.

**Тожиев Д.Б., Қурбонов Б. –
ЎзМУ Тарих факультети талабалари**

XI-XII АСР БИРИНЧИ ЯРМИДА ХОРАЗМ ДАВЛАТИНИНГ СИЁСИЙ МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШИ ТАРИХИЙ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ

*“Хоразм – (бир) ўлканинг номидир, бу ўлка Хуросондан ҳам,
Мовароуннахрдан ҳам алоҳидадир...”²⁶⁵*

Хоразм диёри бой ўтмишга эгалиги ва тарихан олиб қараганда, ҳам қадимийлиги, ҳам сирлилиги билан билан доимо эътиборда бўлган. Шу сабаб ҳам бу худудда инсонлар қадимдан яшаб, тарихдан жой олган кучли ва қудратли давлатларни вужудга келтира олганлар. IX – XII асрлар бутун

²⁶³ Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси –Т.: Ijod-Press; 2018. – Б. 122 -134.

²⁶⁴ <http://www.uza.uz/uz/society/fransuz-olimi-amir-temurning-siyosiy-zakovatiga-diplomatik-m-03-10-2018?m=y&>

²⁶⁵ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард (Ернинг сурати китоби). Мовароуннахр. /араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолитдин, масъул муҳаррир Ф.С.Ҳасанова. –Т.: ЎзМЭ; 2011. -Б. 34.

Марказий Осиё минтақасида, шу қатори Хоразм тарихида ҳам “Олтин давр”²⁶⁶ деб аталиши беъжиз эмас. Сабаби, бу даврда Хоразм давлати ҳар томонлама – ижтимоий, иқтисодий, маданий, маърифий ва давлатчилик жабҳаларида юксак ва салмоқли ўзгаришларга эришди. Давлатчилик тизими ривожидан, аввало маъмунийларнинг, сўнгра ануштегинийларнинг давлати барқарорлашди.

Тарихий манба ва маълумотларга кўра Хоразмда Ануштегинийлардан илгари ҳукм сурган сулолалар: IV – X асрларда Африғийлар, Маъмунийлардан – Маъмун I, Абулҳасан Али, Маъмун II²⁶⁷ (995-1017 йиллар), Олтунтошийлардан – Олтунтош, Ҳорун, Ҳандон²⁶⁸ (1017-1041 йиллар) давлат бунёд этишган ва улар ҳам хоразмшоҳ унвони билан улуғланганлар. Бироқ қудрат ва бошқарув, кўшин ва ҳудудлар жиҳатидан ануштегинийлар ўзларидан олдинги барча хоразмшоҳ сулолаларни ортда қолдиришга эришиш баробарида ўзларининг ҳукмдорлик салоҳиятлари билан Хоразмшоҳларнинг йирик давлатини туздилар ва 1097-1231 йиллар давомида уни бошқардилар.

Ануштегин-Хоразмшоҳлар давлати нафақат бу ўлкада, балки бир асрдан ошқроқ вақт мобайнида Орол денгизидан то Ҳинд океанигача, Сирдарё бўйларида узок Қора денгиз соҳилларига қадар бўлган ҳудудларга, аҳолига, моддий ресурсларга эга бўлган йирик султонликка асос солганлар.

Аввало, ануштегинийлар давлатининг вужудга келиши =абида сўз борар экан, бу давлат тарихи 1097 йилдан, Салжуқийларнинг Хоразмдаги ноибни Ануштегиннинг вафоти ва уни ўрнига тайинланган фарзанди Қутбиддин Муҳаммаднинг Хоразм волийси сифатида эълон қилинишидан белгиланади. Бу аслида Хоразмшоҳ-Ануштегинийлар салтанати тарихининг бошланиши эди. Бироқ, Ануштегин ҳам, ўғли Қутбиддин Муҳаммад ҳам Салжуқийларнинг Хоразмдаги волийси²⁶⁹ ҳисобланар ва ҳар йили солиқ-ўлпонларни тўлаб турардилар. Ушбу давлатнинг мустақил сиёсий тарихини биз бевосита Отсиз (Малик Абу Музаффар Аловиддин Жалолиддин Отсиз)²⁷⁰ номи билан боғлиқ. Бу эса XII асрнинг иккинчи ярми бошларига тўғри келади.

Сулола асосчиси сифатида Ануштегиннинг келиб чиқиши турклардан; ўғузларнинг Бекдили уруғидан бўлган.²⁷¹ Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Ануштегин ёшлигида қул бўлган ва Гаржистонда²⁷² яшаган. У

²⁶⁶ Старр С.Ф. Утраченное Просвещение: Золотой век Центральной Азии от Арабского завоевания до времен Тамерлана. “Альпина Диджитал” – 2013.

²⁶⁷ 1017 йилда Ғазнавийлар давлати султони Маҳмуд Ғазнавий Хоразмга юриш қилган ва ўзига қариндош бўлган маъмунийларга шафқат қилмаган ҳамда ушбу сулоланинг қисқа ҳукмронлигига чек қўйган.

²⁶⁸ Олтунтошийлар сулоласи асосчиси Олтунтош султон Маҳмуд Ғазнавийнинг ишончли одамларидан бўлган ва бу юксак ишонч уни Хоразм ноиблигига тайинланишини таъминлаган. Бу сулола вакилларининг ўзларини хоразмшоҳлар дея эълон қилиши ва Ғазнавийларга қарамликдан чиқишга уринишлари сабаб 1041 йилда султон Масъуд Ғазнавий томонидан бу давлатга хотима берилишига сабаб бўлган.

²⁶⁹ Волий – шаҳар ҳоким бўлиб, ҳозирги комендант маъносига ҳам тўғри келади.

²⁷⁰ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т.: Шарқ; 2001. –Б. 135.

²⁷¹ Рашид ад-Дин. Сборник летописей / пер. С персидского Хетагурова Л.А., ред. и примечания Семенова А.А. – М.: Л.: Наука; 1952. – Т. 1, кн. 1.

²⁷² Гаржистон – Бадлиснинг шарқидаги тоғли ҳудуд бўлиб, Юқори Мурғоб дарёси куйилишида жойлашган.

султон Маликшоҳ I (1072-1092 йиллар) саройида таштдорлик²⁷³ лавозимидан токи Хоразм волийлигига қадар кўтарилишга эришган. Ануштегиннинг султонга садоқати, ишончли киши эканлиги келажакда унинг авлодлари ҳам Хоразм ҳукмдорлига бевосита ноиб сифатида тайинланишларига ёрдам берди.

Қутбиддин Муҳаммад ҳукмронлигининг асосан, 1118-1127 йиллари даврида Хоразмда ўз мавқеини мустақамлаш ва сиёсий ҳокимиятини кучайтиришга доимо ҳаракат қилди. Унинг султон Санжарга ихлос ва садоқат билан қилган хизмати, солиқларни ўз вақтида тўлаши, бунинг учун бир йили ўзи султон саройига борса, кейинги йилда ўғли Отсиз орқали етказиб турган. Оқибатда султон саройида ўзига хос обрўга эга бўлишга эришган эди. Шу билан бирга у “Хоразмшоҳ” унвонини ҳам қайта тиклаб, шу унвон билан улуғланади. Тарихий манбаларда Қутбиддин Муҳаммад Хоразмшоҳнинг унвони “Подшоҳ Қутбид-дунё вад-дин Абул-фатҳ Муъин амира-л-мўминин” (“Дунё ва дин қутби, ғалабалар отаси, мўминлар амири – халифанинг ёрдамчиси”) дея улуғлангани ҳам унинг обрўи анчайин баланд бўлганлигидан далолат беради.²⁷⁴

Қутбиддин Муҳаммад ҳам давлатни амалда хоразмшоҳ унвони билан бошқарган бўлса-да, аслида отаси сингари салжукийларнинг садоқатли хизматчиси сифатида эътироф этиларди. Айни шу садоқат сабаб султон Санжар 1127 йилда Қутбиддин Муҳаммаднинг вафотидан сўнг ҳеч иккиланмай фарзанди, 30 ёшли Аловиддин Отсизга хоразмшоҳлар тожу тахтини топширди.

Хоразмшоҳ Отсиз Хоразмшоҳлар давлатининг тамал тошини қўйишда асосий ўрин тутган шахс ҳисобланади. У султон Санжар бошқарувидаги хали куч ва қудрати етарли бўлган Салжукийларга қарши бор кучи билан курашиб, амалда мустақил сиёсат юритишга ва давлатнинг мустақил сиёсий тарихини яратишга эришганлиги ўз даврининг ўта мураккаб ишларидан эди. Хоразм ноиб хоразмшоҳ Отсизнинг 1127-1157 йиллардаги ҳукмронлик даврининг кейинги 16 йилини мустақил ҳукмронлик қилиш билан ўтказган ва унга қадар эса султон Санжарга садоқат билан хизмат қилган эди. Манбаларда таъкидланишича, 1130 йилда султон Санжарни Самарқанд хони Арслонхон Муҳаммад ибн Сулаймонга қарши юриши вақти суиқасд уюштиришга уринган фитначиларни хоразмшоҳ Отсиз бартараф этиб, султоннинг ҳаётини сақлаб қолади.²⁷⁵ Бу эса ҳукмдор олдида унинг обрў ва мавқеини янада ошишига ва кейинги сиёсий фаолиятининг ривожига ҳам ҳал қилувчи роль ўйнайди.

1138 йилдан бошлаб Аловиддин Отсиз, султон Санжарга хизмат қилишни тарк этади ва Хоразм қайтиб мустақил сиёсат юрита бошлайди.²⁷⁶

²⁷³ Таштдор – султон ховузлари ва ҳаммомларияшёларининг хазиначиси.

²⁷⁴ Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. –Т.: Navro‘z; 2016. –Б. 48.

²⁷⁵ Бунёдов З. Марказий Осиёга доир тадқиқотлар. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати. –Т.: MUMTOZ SO‘Z; 2012. –Б. 20.

²⁷⁶ Лэн-Пуль Ст. Мусульманские династии: Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями / Стенли Лэн-Пуль; Пер. с англ. с примеч. и доп. В.В.Бартольда. – Новое изд., Перепеч. с изд. 1899 г. – М: Вост. лит.: Муравей; 2004. –С. 128.

Унинг фаолиятидаги илк эгаллаган ҳудудлари ҳозирги Туркменистоннинг Жанд ва Манғишлоқ ҳудудлари эди. Бироқ Отсизнинг бу ҳудудларни эгаллаши ва Бағдод хадибалари билан бўлган алоқалари ҳақидаги хабар султон Санжарни ғазаблантирди. Бу эса Салжуқийларнинг йирик қўшини Хоразмга ҳужум бошлашига туртки бўлди.²⁷⁷ Бу жангда мағлуб этилган ва қўшинидан ажралган Отсиз маълум вақт давомида бошқа ҳудудларда яшаб, қулай фурсатни кута бошлади. Ушбу жангда асир тушган хоразмшоҳ Отсизнинг ўғли Аловиддин Отлиғ эса султон Санжарнинг буйруғи билан дарҳол қатл этилган эди.²⁷⁸ Бу эса икки ўртадаги вазиятнинг энди умуман барқарорлашмаслигини, ҳамда қасос олиш учун қонли жанглар яна давом этишини кўрсатиб берди.

Кўп ўтмай Отсиз Хоразмга қайтди ва султон Санжар қолдирган ноиб Малик Ғиёсиддин Сулаймоншоҳни тор-мор қилиб ўз тахтини қайтариб олди. 1141 йилда эса у Бағдодга, халифа ал-Муктафий саройига ўз элчисини юборади. Эдчи юборишдан мақсад, аввало халифаликка тўла тобё эканлигини билдириб, ўз ҳокимияти тан олиншини ва Хоразмга тегишли ҳудудларни ўзига мулк қилиб беришини сўрайди. Салжуқийлар билан адоватда бўлган ва халифалар ал-Мустаршид (1118-1135) ва ар-Рашид (1135-1136) ларнинг ўлдирилишида султон Санжарни айбдор деб билган ал-Муктафийнинг бу масалада розилик бериши деярли аниқ эди. Халифанинг Отсиз номига фахрий либослар, совға-саломлар ва у сўраган ерларга тўла ҳуқуқли ҳукмдорлиги эътироф этилиб, султонлик олий мартабасининг берилганлиги ҳақидаги фармойишни жўнатиши эндиликда хоразмшоҳ Аловиддин Отсиз билан тўлиқ ҳамкорлик қилишга розилигини билдирарди. Бу муваффақиятлар сабаб Отсиз 1141 йилда ўз номидан тилла тангалар зарб эттира бошлайди.²⁷⁹ Ўрта асрлар анъаналарига кўра бирор-бир қарамликдаги ҳукмдорнинг ўз номидан танга (айниқса, тилла танга) зарб эттириши унинг эндиликда мустақил сиёсий фаолият бошланганлигини англатарди. Бунга мос тарзда давлати сарҳадларини кенгайтиришга интилиб, Сихупдан (Сирдарё бўйи) то Жандга (ҳозирги Туркменистон) қадар ёйилган ҳудудларни ўз тасарруфига олади.²⁸⁰

Рашидиддин ўз асарида Отсиз ҳақида: “Салжуқийлар салтанатининг устунларидан бири эди”²⁸¹, ўз раъияти (фуқароларига) нисбатан адолатли эди, уларнинг мол-мулкига чанг солмас, раъиятга ғамхўр эди ва раъият ҳам оғирчилик ва осойишталик замонларида у билан бирга эдилар”, деб таърифланган. Ўз вақтида хоразмшоҳ Отсизнинг сиёсий фаолияти халқни

²⁷⁷ Кейинчалик султон Санжар Хоразмга яна икки марта юриш қилган; 1148 йилга келиб Хоразм ўз қўшинини мустаҳкамлагач, султонга деярли итоат этмай қўйган. Бироқ султон Санжарнинг ўлимига қадар (1156 йил) хоразмшоҳ Отсиз унинг вассали ҳисобланган.

²⁷⁸ Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. –Т.: Navro‘z; 2016. –Б. 53.

²⁷⁹ Бунёдов З. Марказий Осиёга доир тадқиқотлар. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати. –Т.: MUMTOZ SO‘Z; 2012. –Б. 27.

²⁸⁰ Лэн-Пуль Ст. Мусульманские династии: Хронологические и генеологические таблицы с историческими введениями / Стенли Лэн-Пуль; Пер. с англ. с примеч. и доп. В.В.Бартольда. – Новое изд., Перепеч. с изд. 1899 г. – М: Вост. лит.: Муравей; 2004. –С. 128.

²⁸¹ Бунёдов З. Марказий Осиёга доир тадқиқотлар. Хоразмшоҳлар-ануштегинлар давлати. –Т.: MUMTOZ SO‘Z; 2012. –Б. 52.

бирлашишга ва янги давлатнинг куч-қудратини ўсишида муҳим бўлган эди. Шунга асосланиб, Хоразмшоҳлар ўз даврининг кучли қўшинини ташкил этиб, унинг сафларини доимий тўлдириб бориш ва таъминлашга катта аҳамият берганлар. Хоразмшоҳлар қўшини тўла қуролланган ва яхши ҳарбий тайёргарликка эга бўлган ҳамда лашкарбошилари жанглarda доимо ўз жанговар тайёргарликлари билан ажралиб турганлар. Такаш (1172-1200 йиллар) даврида ҳукмдорнинг шахсий гвардияси – харас²⁸² ташкил этилиб, ҳукмдор ва оиласининг хавфсизлиги кучли таъминланадиган бўлди.

XI аср охиридан бошланган янги салтанат тузиш ҳаракати, XII асрнинг иккинчи ярмида ўз самарасини бериб, сиёсий жиҳатдан мустақил Хоразмшоҳлар давлатини юзага келтирди. Бу давлат XII-XIII асрларда шарқ ва ғарбда катта-катта ҳудудларга эгалик қилиб, қудратли (афсуски, давлатнинг асоси заиф эди) империяга айланди. Сиёсий жиҳатдан Араб халифалигини ҳам маълум вақт кўрқувда ушлаб туришга эришилди. Бу эса XII асрда Хоразмда ҳукмдорлар ички низоларга тўла барҳам бера олишмаган бўлса-да, лекин хоразмшоҳларнинг давлати тўла шаклланганлигини ва у мустақил тарзда қўшни ҳудудлар билан ҳарбий-сиёсий алоқалар олиб борганлигини кўриш мумкин. Қутбиддин Муҳаммад ва айниқса, Аловиддин Отсиз даврида давлатнинг салжуқийларга қарамлиги тўла барҳам топиб, атроф ўлкаларни бевосита мустақил тарзда ўзининг ҳарбий қўшини билан салтанат таркибига қўшиб олишга киришилди. Бу XII асрнинг охири ва XIII асрнинг бошида Шарқда ўз даврининг қудратли империяси барпо бўлишига олиб келди.

*Murodov I. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

KUSHONLARNING “NOMA’LUM SHOH”I – VIMA TAKTO TO‘G‘RISIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Hozirgi paytda O‘zbekiston davlatchiligi tarixida qadimgi davrni o‘rganish g‘oyatda muhim va murakkab vazifa bo‘lib turibdi. Bu borada ko‘pgina ochilmagan muammolar borki, ular hamon o‘z javobini topmay kelmoqda. O‘rta Osiyoning qadimgi davrdagi yirik davlatlaridan biri bo‘lmish Kushon davlati va uning ayrim “qorong‘ulikda qolgan” jabhalari²⁸³, jumladan, Kushon davlatining “noma’lum shoh”i haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Kushon davlati tarixiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy adabiyotlarda u haqida deyarli so‘z yuritilmaydi.

²⁸² Харас – Хоразмшоҳларнинг мамлук, яъни кул-аскарлардан иборат шахсий гвардияси. Бундай гвардияни биринчи бўлиб хоразмшоҳ Аловиддин Такаш ташкил қилган ва унинг таркибида 10 минг киши бўлган. Харас ҳукмдорнинг оиласини кўриклаши билан бирга турли экспедициялар, савдо карвонларига ҳамроҳлик қилишга ҳам жалб этилган.

²⁸³ Umuman olganda, bunday muammolar anchagina - kushonlar kelib chiqishi, saltanatning shimoliy chegaralari, kushon shohlarining hukmronlik qilgan yillari, kushonlar davlatining ijtimoiy tuzumi, diniy e‘tiqodlari, tili va yozuvi kabi masalalarni yorituvchi yozma manbalar deyarli yo‘q. Пидаев Ш. Сирли кушонлар салтанати. –Т.: 1990. –Б. 4.

Tangashunoslik ma'lumotiga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kushonlar davlati asoschisi Kudzula Kadfiz 80 yildan ziyodroq umr ko'rgan. U 50-60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy I asrning o'rtalarida vafot etgan. Rabatak²⁸⁴ sulolaviy ro'yxatiga ko'ra, Kudzula Kadfizdan so'ng "noma'lum shoh" – Vima Takto hukmronlik qiladi²⁸⁵. Vima Taktu nomi Dashti Navurdagi baqtriyacha yozuvlarda ham tasdiqlanadi. Dashti Navurning "Vima Taktu" sarlavhasidagi yozuvlarining 2-7-satrlarida shunday so'zlar bitilgan: "Shohlar shohi, buyuk xaloskor, Vima Taktu, haqqoniy, odil va ardoqlashda xudoga teng hukmdor, o'z irodasi bilan saltanatni kuchaytirdi"²⁸⁶.

Vima Taktu Soter Megas nomi bilan ham tarixchilarga tanish bo'lib, uning hukmronligi g'arb adabiyotlarida milodiy 80-90-yillar bilan sanalanadi (Hindiston, Pokiston kabi sharq mamlakatlarida yaratilgan adabiyotlarda esa milodiy 35-50-yillar atrofi deb ko'rsatiladi. Shu sababli ayrim joylarda yillarda nomutanosiblik vujudga kelishi mumkin). Rabatak yozma yodgorliklarida Vima Taktuni Kudzula Kadfizning vorisi va Vima Kadfizdan avvalgi hukmdor ekanligi aniq-ravshan ta'kidlanadi. Yozuvning 7-19-satrlarini o'z ichiga olgan "Ibodatxona qurilishi" nomli qismida yuqoridagi fikrimiz to'la isbotini topadi: "...hukmdor Kanishka qo'shinlar boshlig'i (yoki chegara viloyat noibi) Shafarga Kasig tekisligida yuqorida ta'kidlangan Nana va Umma, Aurmuzd, Grasius, Sroshard, Narasa va Mihir kabi xudolar sharafiga "Xudoning suvi" deb nomlangan ibodatxona qurishni buyurdi. Va u (Kanishka) nomlari keltirilgan xudolarning va katta bobosi - Kudzula Kadfiz, bobosi - Vima Taktu, otasi - Vima Kadfiz va o'zi (Kanishka)ning timsoli (yoki qiyofasi)ni yaratishni buyurdi"²⁸⁷.

Rabatak yozma yodgorliklarida Vima Taktoni Kudzula Kadfizning vorisi va Vima Kadfizdan avvalgi hukmdor ekanligi aniq-ravshan ta'kidlanadi. Umuman, Rabatak yozma yodgorliklari topib o'rganilgandan so'ng Kushonlar tarixiga oid ko'plab faktlar, fikr va mulohazalar o'zgardi. Avval Vima Kadfizga tegishli, deb kelingan ikkita yozma yodgorlik, haykal va ko'plab tangalar Rabatak yozuvlariga ko'ra Vima Taktoniki bo'lib chiqdi²⁸⁸.

Rabatak qoyatosh yozuvlariga ko'ra, kushonlarning Hindiston ustiga yurishi ham hozirgi kunda Vima Takto sa'y-harakati bilan amalga oshirilganligi oydinlashmoqda. Uning davrida Kushon imperiyasi hududi parfiyaliklar qo'lida bo'lgan Mathurani egallash orqali kengaygan. Aynan Mathurada joylashgan va avvallari Vima Kadfizga tegishli deb hisoblanuvchi haykal ham hozirda Vima Taktoniki deya qaralmoqda²⁸⁹.

U zarb ettirgan bronza tangalar yuzida "Shohlar shohi – buyuk xaloskor" so'zlari bitilganligi va asl nomi ko'rsatilmaganligi uchun tadqiqotchilar uni

²⁸⁴ 1993-yilda Surx Kotal (Afg'oniston) yaqinidagi Rabatak degan joydan topilgan qoyatosh yozuvi. U baqtr tilida yozilgan bo'lib, Kushon podshosi Kanishka davriga tegishli

²⁸⁵ Аскарлов А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет; 2007. –Б.183.

²⁸⁶ Sims-Williams N. Bactrian historical Inscriptions of the Kushan period. – England. University of London, 2008. –P. 76.

²⁸⁷ Sims-Williams N. Bactrian historical Inscriptions of the Kushan period. – England. University of London, 2008. – P.78.

²⁸⁸ The Kushan Civilization: A brief overview. <http://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream>

²⁸⁹ The Kushan Civilization: A brief overview. <http://shodhganga.inflibnet.ac.in/bitstream>

“nomsiz shoh” deb ataydilar. Hindistonlik tadqiqotchi B.N.Purining “India under the Kushanas” kitobiga ko‘ra, Vima Takto tangalarida hindcha “maharaja rajatiraja devaputra” (“shohlar shohi – buyuk hukmdor”), uning eroncha sinonimi “saonano sao” va grekcha sinonimi “Basileus Basileon” kabi shakllardagi nomlari uchragan²⁹⁰. Vima Takto tangalari namunalari Britaniya muzeyida saqlanadi.

Ayrim nazariyalarga ko‘ra, Vima Takto grek qirolining vassali yoki qisqa davrlik muholifat rahbari sifatida hokimiyatga kelgan deyiladi. Buning sababi sifatida esa uning o‘z hukmronligi davrida grek targ‘ibotini amalga oshirganligi ko‘rsatiladi²⁹¹.

Vima Takto davrida ikkita har xil nominaldagi bronza tangalar muomalada bo‘lgan. Yirigining og‘irligi 8-9 gramm, kichiginiki 2-3 gramm bo‘lgan. Ular amalda Shimoliy Baqtriyaning barcha Kushon shaharchalarida ko‘p miqdorda topilgan. Vima Takto tangalarining og‘irlik standartlari uning o‘tmishdoshi Kudzula Kadfiz tangalarining og‘irlik standartlaridan farq qilgan. Bu Vima Takto o‘zi hukmronlik qilgan davrda uncha katta bo‘lmagan pul islohotini o‘tkazganligidan dalolat beradi. Ushbu hukmdor tomonidan zarb qilingan biror-bir oltin va kumush tangalar haqida ma‘lumotlar yo‘q, yirik savdo operatsiyalarida hisob-kitob qilishda qanday tangalar qo‘llanilganligi ham noaniq²⁹².

Vima Takto davrida imperiya chegaralari shimoli-g‘arbiy Hindiston, Xitoy chegaralarigacha qo‘lda saqlangan. Tahmin qilinishicha, aynan Vima Takto Xitoyga o‘z elchilarini yuborgan. Xitoy manbalari shunday yakdil fikr beradiki, yuechjilarni kushonlar nomi ostida birlashtirgan shaxs (Kudzula Kadfiz) ning o‘g‘li – bu aniq Vima Takto. Rabatak yozuvari ham bu fikrni ma‘qullaydi. Xitoydagi ayrim yozuvlarga ko‘ra, u Xuvishkaning bobosi sifatida tilga olinadi.

Shunday taxminlar ham borki, Vima Taktning o‘rnidan o‘g‘li Vima Kadfiz davlatni boshqargan va otasi nomi bilan tanga zarb qilgan. Milodiy 68-yilga oid Peshovardagi “Kushonlarning buyuk qirol” yozuvida ham ehtimol Vima Takto nazarda tutilgandir²⁹³. “Noma‘lum shoh”dan so‘ng esa taxtga “Kiotszyukyu (Kudzula Kadfiz) ning boshqa o‘g‘li Yangaochjen” keladi. Yangaochjen aslida Vima Kadfiz yoki Kadfiz II edi. Shu tariqa, Vima Taktning 10 yildan sal ortiqroq davom etgan hukmronligi yakuniga yetdi. Ammo bizda hukmronlik yillari yakuni va qay tariqa taxtdan ketganligi to‘g‘risida aniq ma‘lumot saqlanmagan.

Muxtasar qilib aytganda, Kushon davlati O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston davlatchiligi tarixida muhim davr bo‘lib qoldi. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu davlat yuqorida biz sanab o‘tgan o‘lkalarning davlatchilik tarixida antik davrdan ilk o‘rta asrlar davlatchiligiga o‘tishda o‘ziga xos zinapoya vazifasini o‘tadi. Deyarli to‘rt asr mobaynida hukm surgan ushbu davlat butun Osiyo va qisman Yevropa davlatlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazib turdi. Kushonshohlar esa bunda asosiy boshqaruvchi va tirkak kuch vazifasini o‘tadilar.

²⁹⁰ Puri B.N. India under the Kushanas. – Bombay. 1965 – P. 252. <http://en.unesco.org/silkroad>

²⁹¹ <http://kushan.org/essays/general/general4>.

²⁹² Қаранг: Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. –Т.: Адолат; 2001. – Б. 77.

²⁹³ <http://kushan.org/essays/general/general4>.

XVI-XIX АСРЛАР ҚАРШИ ШАҲРИ МУДОФАА ТИЗИМИ ШАҲАРСОЗЛИКНИНГ МУҲИМ ЭЛЕМЕНТИ

XX аср охирларидаги ўзбек халқи ҳаётидаги энг муҳим воқеа, шубҳасиз давлат мустақиллигини қўлга киритганлиги бўлди. Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигини қўлга киритгандан сўнг халқимизнинг бой тарихига бўлган қизиқиш ва уни бугунги кун талаблари асосида ёритишга интилиш янада ошди. Тарихимизни ўрганиш, унга бўлган ҳаққоний муносабатни қарор топтириш ва ёш авлодни тарихий хотира билан қуроллантириш Ўзбекистон ҳукумати ва давлат раҳбарининг диққат эътиборида турган муҳим масалага айланди.

Ўтган йиллар мобайнида, давлат раҳбарларимиз ташаббуслари билан тарихий-маданий меросимизни ўрганиш ва тарғиб этиш, меъморий ёдгорликлар ва қадамжоларни сақлаш, таъмирлашга катта эътибор берилиб, бу соҳада улкан ишлар амалга оширилди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг Бухоро, Хива, Термиз каби шаҳарларининг 2500 йиллик юбилейлари, Шаҳрисабз ва Қаршининг 2700 йиллик юбилейи кенг миқёсда нишонланди. Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигини нишонлашга тайёргарлик ишлари олиб борилмоқда.

Шу жиҳатдан олганда, халқимиз ҳаётида муҳим ўрин тутган шаҳарларнинг тарихини, уларнинг сиёсий-иқтисодий ва маданий ҳаётда тутган ўрнини ёритиб бериш долзарб мавзудир. Ўзбекистоннинг қадим ва бой тарихини мукамал ўрганишга қизиқиш катта бўлган ҳозирги пайтда, Республикаимизнинг қадимий тарихий-маданий вилоятларидан бири бўлган Қашқадарё воҳаси шаҳарларини, хусусан, воҳа шаҳарсозлигида муҳим босқич бўлган XVI-XIX асрлар шаҳарларини ҳамда халқ меъморчилиги анъаналарини ўрганиш тарихчиларимиз олдида турган долзарб вазифаларидан биридир. Марказий Осиёнинг XVI-XIX асрлардаги шаҳарлари мудофаа тизими нисбатан кам ўрганилган соҳа ҳисобланади. Бундан биз кўриб чиқаётган шаҳарлар ҳам мустасно эмас, албатта. Хусусан Қарши шаҳри мудофаа тизимини ўрганиш учун махсус тадқиқотлар олиб борилмаган. Фақат 1964-1965 йилларда шаҳарда тарихий-археологик тадқиқотлар олиб борган М.Е.Массон бу соҳага бир оз эътибор бериб ўтган.²⁹⁴

Шаҳар мудофаа деворлари тўғрисидаги маълумотларни шунингдек, XIX аср рус ёзма манбаларидан ҳам олиш мумкин. Маълумки, Марказий Осиёда мудофаа иншоотлари сўнгги ўрта асрлар шаҳарлари ривожидида муҳим ўрин тутган бўлиб, бу соҳада эса асрлар давомида тўпланган тажрибалардан унумли фойдаланилган.

²⁹⁴ Массон М. Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. -Т.: Фан; 1975. - С.70-75.

XVI-XIX асрларда Бухоро амирлиги шаҳарсозлигининг муҳим элементи мудофаа тизими эди. Қарши шаҳрининг мудофаа тизимида ҳам Марказий Осиё минтақаси учун хос бўлган анъана мавжуд эди. Бу анъана шаҳарнинг ҳар бир қисмининг Ўрда, Қўрғон ва Работнинг алоҳида мустаҳкам мудофаа девори билан ўраб олинганлигидир.

Қарши қўрғони мудофаа тизими асосан мудофаа девори ва унда жойлашган буржлардан ҳамда деворнинг ташқи тарафидаги чуқур хандақдан иборат эди. Қарши қўрғони мустаҳкам девор билан ўраб олинганлиги тўғрисидаги маълумотларни биз XVI асрдан XIX асргача бўлган манбаларда кўп бор учратсакда, лекин деворнинг қалинлиги, баландлиги ва бошқа ўзига хосликлар тўғрисида аниқ маълумотлар учрамайди. Хусусан, XIX аср ўрталарида шаҳарда бўлган ва шаҳар тузилишини батафсил таърифлаб ўтган Н.Хаников асарида ҳам аниқ маълумот йўқ. Юқорида таъкидланганидек, у фақат шаҳар уч қисмга -Ўрда, эски шаҳар ва янги шаҳарга бўлиниши ҳамда уларнинг ҳар бири ўз мудофаа деворига эга бўлганлигини эслатиб ўтади, холос

Шаҳар мудофаа деворининг қолдиқлари ўтган асрнинг 60-йилларида ҳам сақланиб қолган бўлиб, уларни ўрганиш ҳамда маҳаллий кексалардан тўпланган маълумотларни ёзма манбалардаги маълумотлар билан таққослаш М.Е.Массонга Қарши шаҳри мудофаа тизими, хусусан унинг деворлари тўғрисидаги баъзи хулосаларни чиқариш имконини берганлигини кўрамыз. Бу ерда шуни таъкидлаб ўтиш керакки, Кебекхон давридаёқ асос солинган шаҳар мудофаа девори. Тарихчи Шарафиддин Али Яздий маълумотларига қараганда Амир Темур томонидан янада мустаҳкамроқ қилиб қайта қурилган.²⁹⁵

Шаҳар мудофаа деворининг таъмирлаш ва янада мустаҳкамлаш XVI асрда, хусусан, Абдуллахон II ҳукмронлиги даврида амалга оширилди.²⁹⁶ Сўнгги даврларда ҳам бир неча бор бузилиб, қайта таъмирланган Қарши шаҳри мудофаа девори XIX асрга келиб, асосининг қалинлиги 5 метрга, баландлиги 8 метргача бўлган, мустаҳкам мудофаа иншооти эди.²⁹⁷

Пахсадан тикланган қалъа девори қанчалик қалин ва мустаҳкам бўлмасин, неча бор бузилган ва қайта қурилган. Деворнинг жанубий-шарқий қисми кўпроқ шикаст топган, уни деярли қайтадан тиклаганлар. Тўрт бурчак шаклидаги бу деворнинг ҳар бир бурчагида бурж мавжуд бўлиб, уларнинг устки қисмида замбараклар жойлаштирилган. Бу жойлар эса ўз вазифаси нуқтаи назаридан келиб чиқиб «тўпхона» деб аталган. Мудофаа деворининг устки қисми бир текис бўлмай минтақамиз учун хос бўлган ҳарбий мудофаа иншоотларидек туртиб чиқиб турган тишсимон шаклда бўлган. Бу ҳам мудофаа тизимидаги ўзига хос хусусиятлардан биридир. Амир Насрулло даврида минораларга чўян ва мисдан қўйилган замбараклар

²⁹⁵ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. –Т.: 1999. –Б. 99.

²⁹⁶ Ахмедов.Б Историко– географическая литература. -С.178.

²⁹⁷ Массон М.Е Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. -Т.: Фан; 1973. -С. 49.

ўрнатилган. Қалъа девори томонларининг узунлиги 630,4 метр, тўрт томоннинг умумий узунлиги 2521,6 метрни ташкил этган .

КАТЭ ўтказган тадқиқотлар натижасига кўра, Қарши қалъа деворининг томонлари 630 метрдан бўлганлиги аниқланган . Булардан кўришиб турибдики , қалъа жойлашган ер майдони анча катта бўлиб, салкам 40 гектарни ташкил этган .

Кўрғон мудофаа тизимининг биринчи қисмини деворнинг ташки тарафида махсус қазилган чуқур хандак ташкил этган. Бутун кўрғонни ўраб турган бу хандак сув билан тўлдирилган бўлиб, унинг эни XIX асрда 8-10 метрга яқин бўлган бўлса , чуқурлиги эса 3,5 метрни ташкил этганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд .²⁹⁸

Умуман олганда, Марказий Осиё шаҳарлари мудофаа деворларини ишғол этиш учун рақиб томон биринчи бўлиб сув тўлдирилган чуқур хандакларни босиб ўтиши лозим эди. Бу ҳужум қилаётганлар учун бир мунча ноқулайликлар туғдирар, ҳужум суръатини секинлаштирар эди. Бундай ноқулайликни бартараф этиш учун ҳужум қилаётган томон узун нарвонлардан фойдаланган. Баъзи ҳолларда хандакларнинг бир қисми махсус кесилган дарахтлар танаси билан тўлдирилиб чиқилган. Бундай жанг усули ҳақида ёзма манбаларда, хусусан, «Абдуллонома» да кўплаб маълумотлар учрайди.²⁹⁹ Тарихий манбаларда Қарши кўрғонининг биринчи мудофаа тизимини ташкил этган хандакнинг кўп ҳолларда(айниқса ёзда) суви қуриб қолиши таъкидланади.

XIX аср охирида XX аср бошларида мудофаа хандаги ташландик ҳолга келиб қолган . «Девор олдида анча чуқур сувли хандаклар бўлиб, улар ташландик ҳолда балчиққа айланиб, бутун шаҳарни ўраб ётарди». Лекин шунга қарамасдан бу хандак биз кўриб чиқаётган даврда шаҳар мудофаа тизимида муҳим ўрин тутганлиги шубҳасиз.

Аҳоли ” кўл ” деб атаб келган хандак вақтида жуда чуқур бўлган . Бир пайтлар сув билан лиммо – лим тўлдирилган хандак кейинги асрларда фақат қишдагина сув кўрган . Шунда ҳам сув 1 метр ёки ундан сал баландроқ кўтарилган .

Хандакнинг жанубий қисми ” Ҳалол хандак”, деб аталган, чунки хандакнинг бу томони доимий равишда Катта Файзобод ариғининг сувидан тўлдирилиб турилган ва бу сув истеъмол ҳам қилинган, ҳатто бу ариқ суви тарновлар ёрдамида қалъа ичига олиб кирилган .

Хандакнинг шимолий қисми ” Харом хандак” – дейилган , унга қалъа ичидан чиққан оқаво сувлар яъни харом, истеъмолга яроқсизсувлар оқизилган . (1. Насриддинов Қ . Қарши қалъаси Қ . 2005 . 43 бет .)

Мудофаа иншоати – хандакнинг тақдири ҳам Қарши қалъаси сингари аянчли бўлган . Босқинчилар ҳужуми туфайли, қалъа деворлари вайрон этилган пайтларда, хандак ҳам кўмилиб борган .

²⁹⁸ Массон М.Е. Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. -Т.: Фан; 1973. -С. 112.

²⁹⁹ Бухорий Хофиз Таниш. Абдуллонома... –Б. 77.

XIX асрнинг 60 – йилларига келиб , хандак батамом кўмилиб, текис бўлиб қолган . Қарши беги Олимхон даврида , қалъа деворларини таъмирланиши натижасида хандаклар қайта қазилиб , янгиланган, ўтган асрнинг 50 – йилларида эса хандакнинг ғарбий қисми янгидан қазилган ва унга” Комсомол кўли” номи берилган .(2. Равшанов П . Қарши тарихи Т.: 2006 . 580 б .)

Қарши мудофаасининг энг сўнгги бўғинини Ўрда мудофаа девори ташкил этган. Нотўғри тўрт бурчак шаклида бўлган Ўрда девори қалин ва мустаҳкам қилиб қурилган бўлиб, “Сақлов дарвоза“ деб номланган битта дарвозага эга бўлганлигини, ўз ҳажми жиҳатидан Бухоро арки ва Шаҳрисабз Ўрдасидан каттароқ бўлганлигини юқорида айтиб ўтган эдик Маҳаллий ҳукмдор қароргоҳи бўлган Ўрданинг мудофаа деворига, албатта, ҳамма вақт етарли эътибор берилган, ўз вақтида таъмирланиб, мудофаа салоҳияти сақланиб турилган. Қарши Ўрдасининг ва Кўрғонининг мудофаа деворлари асосан пахсадан кўтарилган. Қурилишда асосан хом ғишт ва пахсадан фойдаланиш Марказий Осиё мудофаа деворларига хос бўлган хусусиятлардандир. Лекин кўп бор қайта қилинган таъмирлашишлари сабаб девор қурилишида пишиқ ғиштлар ва тошлардан ҳам фойдаланилганлигини кўришимиз мумкин.

Деворнинг ҳар бир пахсаси 1 газга тенг бўлиб, умумий баландлиги 7,92 метрни ташкил этади . КАТЭ маълумотларида ҳам қалъа деворининг эни асосда 7,5 газ, яъни 5,91 метр, устки қисми 4 газ, яъни 3,1 метр бўлганлиги кайд этилган .

Деворнинг пойдевори сал кенгроқ, - эни 7,5 газ ва 1 қарич (6 метр), девори ундан кўра озгина энсизроқ, пастки, қисми- 7,5 газ (5, 91), усти – 4 газ (3,1 метр) бўлиб, унинг устидан отли арава юра олган . Деворнинг ташқи устки томонида кунгира – нақши бўлган .(1. Равшанов .П. Қарши тарихи Т.: 2006 581 бет .)

Қалъа девори аввал пишиқ ғишт ва харсангдан, тахминан 1 газ баландликда пойдевор тайёрланган . Пойдеворнинг икки четидаги устки қисми, сал ичкарига тортилиб, 3 та ” чор ғишт” энлилиги билан тенг; яна 1 газ баландликда деворча терилган . Икки деворчанинг ўртаси лой билан тўлдирилган ва шу тахлитда қалъа деворининг баландлиги 6 – 8 метр қилиб кўтарилган . (2. Насриддинов. Қ . Қарши қалъаси Қарши 2005 . 44 бет). Марказий Осиёда мудофаа иншоотлари сўнгги ўрта асрлар ривожига муҳим ўрин тутган бўлиб, бу соҳада асрлар давомида тўпланган тажрибалардан унумли фойдаланилган.

XIVA XONLIGI MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMINI O‘ZBEK DAVLATCHILIGI SHAKLLANISHIDAGI MUHIM BO‘G‘INI SIFATIDA

Xiva xonligi ilk tashkil topgan davrlardan boshlab ma‘muriy-hududiy tuzilishi va mahalliy boshqaruviga ko‘ra qo‘shni davlatlar hisoblangan Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farq qilgan. Manbalarda bu davr davlat boshqaruvida otaliq, naqib, xazinachi, parvonachi, miroxur, bojbon (soliq va o‘lpon yig‘uvchi), mirob, yasovul, qozi, rais, mufti, mutavalli, poshshab (turma boshlig‘i, jallod), oqsoqol va boshqalar hizmat qilganliklari keltirib o‘tiladi³⁰⁰. 1644-yildan boshlab esa mahalliy boshqaruv bosh xon tomonidan tayinlangan inoqlar, yer-suv va moliyaviy vakolatlar otaliqlarning ixtiyoriga o‘tgan. XVI-XIX asr birinchi yarmida viloyat va uluslar inoqlar hamda biylar tomonidan boshqarilgan. Valiahd-inoq, asosan, mamlakatning muhim strategik va katta viloyati sanaluvchi Hazorasgni boshqargan. XIX asr 60-yillaridan boshlab to xonlik tugatilguncha mahalliy boshqaruv qobiliyatli xo‘jalar avlodi va xon oilasi yaqinlari, shuningdek, ishonchli kishilar tomonidan yuritilgan.

Hokimlar xon tomonidan lavozimga tayinlangan va lavozimidan ozod etilgan. Ayrim vaziyatlarda xonlar joylarga borganda shu yerlik aholi orasidan mahalliy mansabdor shaxslarni lavozimga tayinlagan, shuningdek, munosiblarini o‘z lavozimida qoldirgan va taqdirlagan. Hokimlar ustidan qilingan shikoyatlar xon tomonidan ko‘rib chiqilgan. An‘anaga ko‘ra, joylarga hokim sifatida bahodir, otaliq, xo‘ja kabi unvon egalari tayinlangan.

Hokimlarning vakolat doirasi xon tomonidan belgilangan. Ularning asosiy vazifalaridan biri joylarda aholini boshqarish va o‘z vaqtida soliqlarni yig‘ish edi. Shuningdek, ma‘muriy, moliyaviy, xavfsizlik va tartibot, sudlov va boshqa funksiyalarni amalga oshirganlar.

Mahalliy boshqaruv organlarida devon mavjud bo‘lib, o‘z budjetiga ega bo‘lganlar. Mansabdor shaxslar ta‘minoti mazkur budjet hisobidan amalga oshirilgan.

Quyida mahalliy boshqaruv tizimida joriy etilgan mahalliy lavozimlar haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Poytaxt va boshqa shaharlarda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilarni izlash va mahkumlarni qo‘riqlash borasida dorug‘a, kalontor, to‘qsovol va mirshablik kabi lavozimlar ta‘sis etilgan. Odatda, mirshablarlar kechki payt, ya‘ni bozorlar, do‘konlar, ustaxonalar va shunga o‘xshash savdo rastalari yopilgandan so‘ng o‘z ishini boshlashgan. Shuning uchun ham ular “tungi mirshablar” deb ham atalgan. Shu bilan birga, ular sud tergovidan oldin mirshabxonada surishtiruv ishlarini olib borish, gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni ushlab turish vakolatiga ham ega bo‘lishgan³⁰¹.

³⁰⁰ Сагдуллаев А.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Т.: 2005. – Б.194.

³⁰¹ Ўзбекистон тарихи. 4 том. –Т.: Фан; 1970. Том 1. – Б. 653-654.

Ko'p holatlarda jamoat tartibini saqlash maqsadida qo'shimcha kuch sifatida navkarlar ham jalb etilgan.

Xon tomonidan shahar va katta qishloqlarga diniy-axloqiy normalarning bajarilishini nazorat qiluvchi raislar tayinlangan. Ular mufti va oxunlar orasidan tanlash yo'li bilan tayinlangan. Raislar joylarda odamlarning xatti-harakatlarini diniy qoidalariga mosligini tekshirish, ya'ni musulmon aholini kundalik turmushda shariat qoidalariga rioya etishlarini, diniy an'ana va marosimlarni o'tkazish tartibiga rioya etilishini nazorat qilish, masjidlarda namozga kelgan-kelmaganlarni aniqlash, ota-onalarning bolalarni maktabga jo'natishlari ustidan nazoratni olib borish, shaharlar tozaligi, obodonchiligini kuzatish, yo'llar va ularning tevarak-atrofini tamirlanganlik holati va savdo-sotiq qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish, bozorlardagi o'lchov vositalari va tarozilarning to'g'riligini tekshirish, madrasalar faoliyatini tekshirish kabi vakolatlarni amalga oshirgan. Diniy-sha'riy qoidalarning buzilish holatlari yuzaga kelgan taqdirda holat yuzasidan intizomiy va jinoiy jazo choralarini qo'llash vakolatiga ega bo'lgan.

Suv xo'jaligi sohasiga esa shu sohani mukammal bilgan miroblar tanlab olingan. Miroblar xon tomonidan ma'lum hududning mahalliy aholisi vakillari orasidan sug'orish ishlarini yaxshi tushunadigan kishilardan tayinlangan. Ular katta va kichik miroblarga bo'lingan. Katta mirob suvni tashqi katta kanallar orqali, kichik miroblar esa ichki kanallar orqali suv taqsimotini amalga oshirgan. Suv yo'llari va inshootlarini qurishda aholi safarbarligini ta'minlashgan.

Joylarda diniy muassasa (masjid, madrasa, qabriston)lar va mansabdor shaxslar faoliyati bilan bog'liq ishlarni yurituvchi mutavalliyalar ham faoliyat ko'rsatishgan. Vaqf yerlarining ko'payib borishi bilan mutavalliy mansabining mavqei ham oshib borgan. U vaqf yerlarini taqsimlovchi va nazorat qiluvchi amaldor shaxs hisoblangan. Ular har bir masjid, madrasa va qabristonga qarashli yer xo'jaligi ishlari bilan shug'ullangan, ulardan tushgan daromad ro'yxatini yuritgan va ularni taqsimlagan³⁰².

Mahalliy-ma'muriy hokimiyat tizimida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslar vazifasiga muvofiq tarzda alohida unvonlar bilan taqdirlanib borilgan. Ko'p hollarda ushbu unvonlar faxriy unvon sifatida namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, jamoat arboblari belgilangan unvonlar bilan taqdirlanganlar³⁰³.

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligida mahalliy boshqaruv tizimiga muntazam amal qilingan. XVI asrda mahalliy davlat apparatlari markazdan mustaqil faoliyat yuritgan. Mamlakatda umumiy boshqaruv, markaz va hududlar o'rtasidagi munosabatlar kelishuv va kengashlar asosida olib borilgan. Markazlashgan davlat boshqaruvi joriy etilgach, mahalliy boshqaruv tizimi xon tomonidan shakllantirilgan. Xonlikning davlat boshqaruvi o'rta asrlarga xos xususiyatni saqlab qolib, davlat idoralarini tashkil etish, faoliyat ko'rsatish, mansabdor shaxslarning vakolat va vazifalari aniq belgilab qo'yilgan.

³⁰² Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. –Т.: 1991. –Б. 252.

³⁰³ Ўзбекистон тарихи. 4 том. –Т.: Фан; 1970. –Б. 649-650.

Muammoli vaziyatlarda shariat normalaridan tashqari odat va an'ana normalari bilan ham tartibga solingan.

Xiva xonligi murakkab, keskin va o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, milliy davlatchilik an'alarini o'zida mujassam etgan davlat tuzilmasi hisoblanadi.

*Ermatov Z.H. –
O'zMU tarix fakulteti talabasi*

O'ZBEKISTONDA BOJXONA TIZIMI TARIXI VA UNING DAVLACHILIK TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Yurtimizda qadimdan mavjud bo'lgan shaharu-davlatlar Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarda ko'prik sifatida mashxur bo'lganlar. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi natijasida xalqaro tovar ayirboshlashni yangi davlatlar hisobiga kengayishi yurtimizda mavjud bo'lgan davlatlar uchun yangi tranzit tartiblari ishlab chiqish mas'uliyatini yuklaydi.

Markaziy Osiyo tarixida bojxona tizimi savdo-sotiqqa keng imkoniyatlar yaratib berish, savdogarlar uchun katta imtiyozlar barpo etish, karvonlar o'tishida xavfsizlikni ta'minlash va xakazo xalq manfaatlarini to'liq o'z ichiga singdirib olgan faoliyat natijasida paydo bo'ldi.

Vatanimiz tarixida kuchli saltanatlarning vujudga kelishi va mintaqa aksar qismining siyosiy bir butunlikka erishishi yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirdi. Yagona iqtisodiy makonning vujudga kelishi o'z navbatida savdo-sotiqning yanada gurkirab o'sishiga katta turtki bo'ldi³⁰⁴. Birinchidan, davlatlar karvonlar xavfsizligi uchun savdogarlarga nisbatan qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Ikkinchidan, davlat o'z xazinasini to'ldirish maqsadida karvon yo'llarini o'z nazorati ostiga oldi. Uchinchidan, davlat savdo-sotiqqa keng imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'shni davlatlar bilan savdo muzokaralari olib bordi³⁰⁵.

Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan savdo-sotiq operatsiyalari qamrovi haqida ushbu hududda topilgan tangalar ham dalolat beradi. Misol uchun, nisbatan kichik bo'lgan shahar qo'rg'oncha Kampirtepaning o'zida 300 dan ortiq tangalar, shu jumladan 4 xazina topilgan. Kampirtepa (mil.avv. III asr - mil. III asri) Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan (Surxondaryo viloyati Sho'rob qishlog'idan 0.6 km. G'arbda) shaharcha. 1980-yillarda O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi guruxi tomonidan Kampirtepada o'tkazilgan izlanishlar bu shaharcha Baqtriya hududida yunonliklar hukmronlik qilgan davrda eramizdan avvalgi III – II asrlarda vujudga kelganligi aniqlangan. Kampirtepa o'z joylashgan o'rniga ko'ra, Amudaryo orqali Movaraunnaxrga kirib keladigan yoki chiqib ketadigan savdo karvonlari uchun bojxona vazifasini bajargan. Bu shaharchaning bojxona sifatidagi o'rnini tarixchi olim Xofiz Obro' ham ta'kidlab o'tgan. Shahar Amudaryoni kesib o'tish yo'llarini barchasini nazorat etib

³⁰⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарқ; 2000. –Б. 47-67.

³⁰⁵ Сағдуллаев А. Мавлонов Ў. Маҳкамova Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. –Т.: Академија; 2012. –Б. 78.

turganligi sababli xech bir karvon uning e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas edi³⁰⁶.

O'rta asrlar kattayu-kichik davlatlarning tashqi savdo munosabatlariga kirib borishi, o'z manfaatlarini ko'zlab chora-tadbirlarni amalga oshirishi asta –sekinlik bilan bojxona munosabatlarini keltirib chiqara boshladi. X asrga yashagan tarixchi Moisey Kagankatvatsi turk xokonligida mavjud bo'lgan boj to'lash tizimi xaqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Shimoliy knyazi butun xudud bo'ylab qo'rquv solib turgan. U oltin, kumush, temir va mis qazib chiqaruvchi hunarmadlarni nazorat qilib turuvchi nozirlar tayinlangan. U buyuk Xur va Araks daryolaridagi baliqlardan va tovarlardan boj to'lovlari ham talab qilgan”³⁰⁷. Savdo karvonlarining bu hudud orqali tranzit o'tishi turk xoqonlari, ayniqsa g'arbiy turk xonlari uchun boyishning asosiy manbai hisoblangan. Shuning uchun ham xonlar Xitoydan Erongacha bo'lgan karvon yo'lini o'z nazoratida ushlab turishga harakat qilib kelganlar³⁰⁸.

O'rta asrlar davrida bojxona to'lovlari va ularni undirish tartibi mukammal ishlab chikilgan edi. Boj to'lovlari qat'iylik bilan undirilardi. VIII asrda arab xalifaligining Movaraunnaxr hududini bosib olishi bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o'zgartirib yubordi. Arablar bilan birga kirib kelgan Islom dini normalari keyinchalik mamlakat aholisining turmush tarzini belgilab beruvchi asosiy manbaga aylandi. Islom dini aholining barcha katlamlarini, hayotning barcha jabhalarini, xususan tashqi savdo munosabatlarini ham qamrab oldi. Arablar bosqinidan so'ng bojxona faoliyatida sodir bo'lgan eng katta o'zgarish-bu yagona bojxona to'lovi zakotning joriy etilishidir³⁰⁹.

Somoniylar davrida bojxona to'lovlari va bojxona nazorati asosan Amudaryoning kechuv joylarida, hamda eng asosiy karvon yo'llarida joriy etilgan edi. Bu davrda har bir tuyadan 2 dirham, ot yoki eshakka yuklangan mol-mulkdan bir dirhamdan undirilgan. Kumush yombilar fakat Buxoroga olib kirilishi zarur edi va shuning uchun bojxona nazorati olib borilgan. Tovarlarning to'xtash joyida yarim dirhamdan bir dirhamgacha boj undirilgan. Turk qullarini hukumat tomonidan ruxsatnomalar berilgani uchun 70-100 dirham olingan. Ayollarni olib o'tganlik 20-30 dirham boj to'langan³¹⁰.

Tashqi savdo munosabatlari juda yaxshi rivojlangan davri bu Amir Temur davridir. Amir Temur o'zidan avvalgi bir necha yuz yil davomida tinimsiz urushlar va ko'chmanchilarning boskinlari sababli to'xtab kolgan Buyuk ipak yo'lidagi harakatni qayta tikladi. Amir Temur savdo yo'llarini yaxshi saqlashga juda katta e'tibor bilan qarab, ularni saltanat siyosiy va ijtimoiy hayotining asosiy qon tomiri deb hisoblagan³¹¹. Amir Temur zamonida mamlakatga tutash mintaqalarda yirik bojxonalar barpo qilindi. Bulardan biri Kavkaz tog' tizmalarining Kaspiy dengiziga tutashgan yerda joylashgan Darband bojxonasi, ikkinchisi ham shu nom

³⁰⁶ Ртвладзе Э.Великий Шелковый путь. –Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.1999. –Б. 52.

³⁰⁷ История агван Монсей Каганкатваца, писателя X века. –СПб, 1861. –С. 131.

³⁰⁸ Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавхалар (илк ўрта асрлар). –Т.: 2010.

³⁰⁹ Семенов А.А Почерк поземельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. –Т.: Издательство САГУ. –С. 44.

³¹⁰ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. 1 том. –М.: 1969. –С. 299-300.

³¹¹ Соликлар ва божхона хабарлари. 51(335) сон, 14-20 декабрь, 2000 йил.

bilan atalib, Samarkand bilan Balx o'rtasida joylashgan Shaxrisabzdan ikki kunlik masofada barpo etilgan. Ana shu bojxonalar markaziy xazinaga har yili juda katta miqdorda mablag' o'tkazar edi. Ayrim yillari xatto Amir Temur qo'l ostidagi barcha mamlakatlardan keladigan yer solig'i miqdori bilan tenglashardi³¹².

O'rta Osiyo xonliklari XVI -XIX asrlarga kelib iqtisodiy-ijtimoiy tushkunlikni boshdan kechirayotkan bo'lsa-da, ularda olib borilayotgan tashqi savdo munosabatlari nisbatan rivojlangan edi. Ularning Xitoy, Afg'oniston, Eron, Xindiston, arab mamlakatlari, Rossiya va boshqa davlatlar bilan muntazam savdo aloqalari yo'lga ko'yilgan bo'lib, xonliklarda xalqaro savdo ahamiyatiga molik yirik shaharlar mavjud edi. Savdogarlar dini yoki millati jihatidan farqlanmas, deyarlik bir xil huquq va erkinliklardan foydalanar edi.

Xonliklarda savdo-sotiq, ayniqsa tashqi savdo to'liqligicha xonlarning nazorati ostida bo'lgan. Tashqi savdo faoliyatidan boj to'lovlari undirish xonliklar daromadining muhim manbai hisoblangan. Masalan, Qo'qon xonligining o'zida yer solig'i xirojdan 3912000 tilla, zakotdan 282000 tilla va tanobanadan 27000 tilla mablag' xonlik byudjetiga tushar edi³¹³. Zakot o'z mikdorining kattaligiga ko'ra ikkinchi o'rinni egallagan³¹⁴.

Shuningdek, Buxoro amirligida tovarlardan zakot shariat normalariga muvofik, musulmonlardan 2.5 foizda, xonlik hududida yashovchi nomusulmonlardan 5% va boshqa o'zga dindagilardan 10% miqdorda undirilgan. Zakot undirilishi uchun savdogarning mol-mulki belgilangan miqdorda yetishi lozim edi va bu miqdor 10 tilla etib belgilangan. Xindular va yaxudiyarlar o'z mollaridan yigirmadan bir miqdorda zakot to'laganlar. Rus savdogarlari tomonidan olib kelingan yuklar uchun shariat asosida 10% boj belgilangan. Sayohatchi Yo.Meyendorf bu foiz stavkasini, 1817 yilda Rossiyada yangi kabul kilingan rus boj tarifiga ko'ra buxorolik savdogarlar uchun 25% miqdorda boj belgilanganligiga javob tariqasida, Buxoro amiri tomonidan o'rnatilgan hisoblaydi³¹⁵.

Xonliklardan olib chikilayotgan yuklardan zakot undirilmagan. Tashqi savdo aloqalarida qatnashish, ularni nazorat qilib turish va bojxona ishini yuritish uchchala xonlikda deyarli bir xil bo'lgan.

XIX asrning ikkichi yarmidan Rossiya imperiyasining mustamlakasi davrida xonliklardagi istibdod yil sayin kuchayib borgani O'rta Osiyo bozorini ruslar tomonidan egallab olinishi va boshqa davlatlar savdogarlarining sikib chikarilishiga sabab bo'ldi.

Turkiston general-gubernatorligi 1868 yil 13 fevral kuni Qo'qon xonligi, 1868 yil 11 iyunda Samarkandda, 1873 yil 23 sentyabrda Shaxrisabzda Buxoro amirligi va 1873 yil 12 avgustda Xiva xonliklari o'rtasida shartnomaga ko'ra, rus savdogarlari xonliklarning barcha shahar va qishloqlarida istagan karvonsaroyga ega bo'lish va savdo agentliklarini tuzish huquqiga ega bo'ldilar³¹⁶. Mahalliy

³¹² Amir Temur jahon tarixida. –T.: 1996. –B. 90.

³¹³ Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. –Т.; Фан; 1973. –С. 128.

³¹⁴ Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлиги (ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти). –Т.: Тафаккур; 2016. –Б. 79.

³¹⁵ Мейендорф Е.К. Путешествие из Округа в Бухару. –М.: Наука; 1975. –С. 119-131.

³¹⁶ Сафаров Т.Т. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Ўрта Осиё савдо йўллари. т.ф.н. дисс... –Т.; 2009. –Б. 106-126.

savdogarlari Rossiya xududida emas, balki faqatgina o'z yurtlaridagina shunday imtiyozga ega bo'ldilar, xolos. Rus savdogarlaridan zakot 2.5% miqdorda belgilandi. Rus savdogarlaridan zakotdan o'zga xech qanday qo'shimcha soliq va yig'imlar undirilishiga yo'l qo'yilmadi. Xonliklar hududidan qo'shni davlatlarga tovarlarni bojsiz olib o'tish huquqini berdi. Shuningdek, rus savdogarlari va sanoatchilariga xonlikka qarashli hamma joylarda savdo-sotiq ishlarini bemaol olib borish huquqi berildi, ular boj va boshqa majburiyatlardan ozod etildi³¹⁷. Rossiya hukumati tazyiqi ostida tuzilgan bu shartnoma xonlikning butun xalqi, ayniqsa savdo ahli o'rtasida kuchli norozilik uyg'otdi³¹⁸.

1874 yil 3 mayda "Turkiston general-gubernatorining farmoniga muvofiq Turkiston o'lkasida qo'llaniluvchi savdo-sotiq va boj Nizom tasdiklandi va u dastlab 4 yil muddatga vaqtinchalik chora sifatida kuchga kirdi. Ushbu nizom kirish bilan Turkiston o'lkasida zakot undirish tugatildi. 1877 yilning 1 iyunida Farg'ona viloyatida "Savdo-sotiq va boj xakidagi" nizomga amal kila boshladi. Yuqoridagi nizom asosida qabul qilingan bu xujjat Farg'ona shaharlarining savdo-sotiq sohasidagi faoliyatida katta vokea bo'lgan edi³¹⁹. 1875 yildan Turkiston zakot boshqarmasining tugatilishi tufayli, o'lka 1881 yilga qadar bojxona nazoratidan chetda koldi.

1890 yil 12 iyundagi Rossiya Imperatori farmoniga muvofiq Turkiston bojxona okrugi tashkil etiladi va u bevosita Turkiston general-gubernatoriga bo'ysunadiriladi.³²⁰ Alohida topshiriqlar amaldor lavozimi Turkiston bojxona okrugi bojxona o'zgartirildi. Bu okrug o'z faoliyati davomida Rossiyaning boshqa bojxona okruglari qatorida bevosita Rossiya Bojxonasi ustaviga rioya eta boshladi. Turkiston bojxona okrugi tuzilishi bilan o'lka to'lig'icha rus bojxona nazorati ostiga kirdi. Shuningdek, Buxoro va Xiva xonliklarini ham rus bojxona tizimi domiga tortishdan iborat edi.

Rossiyada oktyabr davlat to'ntarishdan so'ng mamlakat tepasiga kelgan yangi davlat hokimiyati Rossiyasi imperiyasi tomonidan amalga oshirib kelingan bojxona siyosatidan butunlay voz kechadi. Mavjud barcha bojxona organlari tugatildi. Xarbiy kommunizm siyosati davrida xattokiy, bojxona organlari butunlay yopib kuyishga ham harakat qilindi. Bu xolat tashqi savdo monopolichyasining mazmun davomi bo'lib, u bojxona xizmatiga umuman, bojxona ishiga salbiy munosabatni keltirib chikardi³²¹.

1922 yil 31 matda RSFSR Xalq komissarlari soveti "Maxaliy bojxona muassasalari haqida vaqtinchalik nizom" ni tastiqladi. Nizomga ko'ra Tashqi savdo xalq komissarligi Moliya komissarligi bilan kelishgan xolda bojxona okruglari ruyhatini tuzish huquqiga ega bo'ladi va uning qoshida Bosh bojxona boshqarmasida 283 mahaliy bojxona muassasasini o'z ichiga olgan 8 bojxona okrugi – shu jumladan Turkiston bojxona okrugi ham faoliyat yuritar edi³²². 1924

³¹⁷ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Т.: Шарқ; 1998. –Б. 21-28.

³¹⁸ Ўзбекистон янги тарихи. Туркистон чоризм мустамлакаси даврида. 1 жилд. –Т.: 2000. –Б. 146.

³¹⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ; 2000. –Б. 247.

³²⁰ Добросмыслом А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. –Т.: 1912. –С. 469 – 470.

³²¹ Сандровский К.К. Таможенное право (общая часть). Киев: 1971. –С. 79.

³²² Фенин Л. Таможенные ведомоства в 1922//Внешняя торговля 1923. № 21-23.25 б.

yil 12 dekabrda SSSR Markaziy ijroiya ko‘mitasi SSSR Bojxona Ustavini kabul kildi. Ushbu ustav respublikalarida bojxona boshqarmalari tuzish imkonini ko‘zda tutdi. 1925 yilda Bosh bojxona boshqarmasi hududida O‘rta Osiyo bojxona bo‘limi tuzildi³²³.

Termiz bojxonasi 1959 yilgacha O‘zbekiston SSRda yagona bojxona sifatida faoliyat ko‘rsatib keldi. Bu davrga kelib xalkaro avia tashish birmuncha rivoj topganligi sababli Toshkent bojxonasini kayta, ammo boshka maksadda joriy etish extiyoji tug‘ildi. 1958 yilda Toshkent aeroportida Termiz bojxonasiga bo‘ysunadigan bojxona maskani tashkil etildi. O‘sha vaktida Toshkentda tashkil etilgan bojxona maskanida xodimlar soni uch kishi: maskan boshlig‘i katta inspektor va inspektordan iborat edi. 1959 yil 14 aprelda SSSR xavo transporti vazirligining buyrug‘i bilan bojxona maskani Toshkent bojxonasiga aylantirildi. 1984 yilda Toshkent bojxonasining tarkibida xarbiy yuklarni nazorat kilish bo‘yicha ikkita bojxona maskani tashkil etildi: biri Toshkent viloyatining Tuzel posyolkasida, ikkinchisi Farg‘ona shaxrida³²⁴. Ittifoq miqyosidagi barcha respublikalarda yagona bojxona tashkil qilindi. 1988 yillining oktyabrida Toshkent bojxonasi O‘zbekiston respublikasi bojxonasiga aylantirildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh etish jarayonida qo‘pgina tashkilot va korxonalariga mustaqil import-eksport operatsiyalarni o‘tkazish huquqi berildi. Bojxona va bojxona maskanlarining tovarlarni nazorat etish va ularni rasmiylashtirish vazifalarini yengillashtirish maqsadida, bu vazifalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari joylashgan joylarda amalga oshirish ko‘zda tutildi. 1989-1990 yillarda, respublikamizning deyarli barcha yirik shaharlarida – Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Nukus, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo‘qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona maskanlari ishga tushdi. 1991 yilining boshida esa Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Nukus bojxona maskanlari O‘zbekiston Respublikasi bojxonasiga bo‘ysinuvchi bojxonalar maqomini oldi.

Xullas, yuqorida ko‘rib chiqilganidek, O‘zbekiston bojxona tizimi qadimdan mavjud bo‘lib, u turli xalqlar va davlatlarni o‘zaro iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy jihatdan aloqada bo‘lishiga qo‘maklashgan. Tarixda Buyuk ipak yo‘li faoliyati olib borgan davrda bojxona davlatni tashqi savdo faoliyatida yengilliklar, imtiyozlar va qulay imkoniyatlar yaratib berganligi bilan ajralib turdi. Amir Temur davrida karvon yo‘llarining boshlarida bojxonalar barpo etilishiga alohida e‘tibor berib kelgan. Hattoki, xonliklar hamda mustamlaka va mustabid tuzum davrlarida Turkiston o‘lkasi hududi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy tushkunlikni boshdan kechirgan bo‘lsa ham, tashqi savdo o‘zining rivojlanganligi va boj tizimi ishlab turanligi bilan ajralib turadi. Taassufki, tashqi iqtisodiy munosabatlardan bu qadar uzilib qolganligi mustaqil O‘zbekiston Respublikasi uchun bojxona tizimini deyarlik yo‘qdan bor qilish muammosini vujudga keltirdi.

³²³ Марко Л.Н. Очерки по истории таможенной службы. Иркутск: 1987. –Б. 102.

³²⁴ Алимбоев С.А. Ўзбекистон божхона ишени ташкил этиш ва такомиллаштириш ғоялари. -Т.: Ўзбекистон; 1996. –Б. 7.

ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ БОШҚАРУВ СОҲАСИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ДАВРЛАШТИРИШ МУАММОСИ

Мустақиллик туфайли биз ўзлигимизни англадик, озод халқ, мустақил давлат сифатида Ўзбекистоннинг улкан салоҳиятини бутун дунёга намоён қилиш имкони туғилди. Қисқа давр ичида давлат ва жамият қурилишида, сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий соҳаларда улкан ютуқлар қўлга киритилди, одамлар онгида том маънода янгича қараш ва фикрлаш асослари шаклланди.

Малумки модернизация, хусусан давлат бошқарув соҳасини тадқиқ этиш масаласи кўплаб ижтимоий-гуманитар фан йўналишларига предмет вазифасини ўтай олади. Мазкур муаммонинг илк назарий методологик асослари социология, фалсафа, сиёсатшунослик каби соҳаларда ўрганилганлигига қарамасдан, кейинчалик у турли йўналишлардаги изланишларда кенг таҳлил этилди. Кенг маънодаги модернизация ижтимоий тараққиётнинг анъанавий босқичидан замонавий босқичига ўтишни англатади. Кўриниб турибдики ижтимоий ҳаётнинг муайян соҳасини модернизациялаш жараёнлари кўпёқлама, комплекс характер касб этади. Айни ҳодисанинг мураккаб жараён эканлиги назарда тутилса, уни тадқиқ этишда ҳам кўп тармоқли соҳалараро ёндашувни қўллаш зарурати мавжуд эканлиги юзага чиқади. Айниқса муайян соҳа ёки ҳудудни модернизациялаш жараёнлари эволюциясининг яҳлит манзарасини тасаввур қилиш учун юқорида санаб ўтилган соҳалар қатори тарихий-ретроспектив ёндашувни қўллаш талаб этилади. Зеро, модернизация жараёнини самарадор амалга оширишда иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, технологик, саноат ресурслар билан биргаликда у рўй бераётган социо-маданий муҳит ва макондаги тарихий шарт-шароит ҳам ҳисобга олинмоғи лозим.

Соддароқ қилиб айтганда, муайян соҳа ёки ҳудудда модернизация жараёнларини амалга ошириш учун кўплаб ресурслар, пухта илмий асосда ишлаб чиқилган модернизация модели кабиларнинг мавжудлигидан ташқари, жамиятни ислоҳ қилиш учун қулай тарихий вазият ва шарт-шароит пишиб етилган бўлиши лозим. Умумжаҳон миқёсидаги модернизация жараёнларининг табиий-тарихий эволюциясини бошдан кечирган Ғарбий Европа мамлакатлари ва АҚШнинг бу борадаги тажрибаси юқоридаги мулоҳазанинг яққол тасдиғи бўла олади³²⁵. Негаки, мазкур мамлакатларда кечган модернизация жараёнлари буюк географик кашфиётлар, кemasозлик, порхнинг кашф этилиши, капиталнинг кўпайиши, ижтимоий институт сифатидаги фаннинг шаклланиш асослари каби хусусиятлар билан тавсифланувчи уйғониш давридан бошланиб XX асрдаги саноатлашган жамиятларнинг қарор топишигача бўлган улкан тарихий муддат махсули

³²⁵ www.studfiles.net

хисобланади. Аммо бу каби табиий тадрижий йўл билан модернизациялашган жамиятлар билан бир тарихий макон ва замонда яшаётган анъанавий жамиятларни замонавийсига ўказишда бироз бошқачароқ модель қўллаш талаб қилинади.

Бундай жамиятларда қўлланиладиган модернизация модели жадаллаштирилган (кувиб етувчи) модернизация модели деб аталади. Айни моделга кўра модернизация учун қулай тарихий шарт-шароит мавжуд бўлмаган ананавий жамиятларда юқорида санаб ўтилган ресурслар ҳамда тарихий вазиятдан ташқари ислохотлар самародорлиги ва суратини оширишга қартилган қўшимча механизмлар ишлаб чиқиш ва тадбиқ этиш зарурати юзага чиқади. Жумладан Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг дастлабки йилларида ҳам мамлакатимизни модернизациялаш учун зарур ресурс ва тарихий шарт-шароит мавжуд эмас эди. “Шу нарса шак-шубҳасиз ва очик ойдиндирки, республика барча асосий иқтисодий ва ижтимоий кўрсаткичлар бўйича Иттифоқдаги ўртача даражадан ҳам анча орқада бўлиб, мамлакатда охириги ўринларда турибди... Ўзбекистон ҳар киши бошига ялпи ижтимоий маҳсулот ишлаб чиқариш мамлакатда 12-ўринда турибди, аҳоли жон бошига миллий даромад ишлаб чиқариш бўйича кўрсаткич эса Иттифоқдаги ўртача даражадан икки ҳисса паст³²⁶”

Шарқ ва ғарб модернизация моделлари қиёсий таҳлил қилинган тадқиқотлар натижаларидан бундай вазиятда давлат бош ислохотчи вазифасини бажариши, шунга кўра энг аввало давлат бошқаруви соҳаси ва тузилмаси ослох қилиниши лозимлиги маълум бўлади. Сингапур, Хитой, Малайзия, Япония, Жанубий Кореа каби мамлакатларнинг бу борадаги тажрибаси бунинг яққол далили бўла олади.

Кувиб етиш модернизация моделини самарадор қўллаётган мамлакатлар тажрибаси ислохотлар суратини тезлаштиришда маваффақиятли модернизация жараёнини амага оширган мамлакатлар тажрибасини ананавий жамиятларга тўғридан-тўғри қўллаш ўринли эмаслигини кўрсатди. Шунинг назарда тутган ҳолда мамлакатимизда кечаётган модернизация жараёнларининг илк даврларидаёқ илғор жаҳон тажрибаси билан миллий ментал хусусиятлар синтезлаштирилди.

Малумки, аниқ соҳаларга йўналтирилган қисқа муддатли модернизация дастурларини ишлаб чиқиб тадбиқ этиш кувиб етиш модернизация моделини муваффақиятли қўллашнинг самарадор механизми хисобланади. Айни умум эътироф этилган механизм юртимизни модернизация жараёнларида ҳам кенг қўлланилиб келинмоқда. Унинг қўлланилишига кўра мамлакатимизда амалга оширилаётган модернизация жараёнларини тўрт хронологик босқичга ажратиш мумкин:

Қонунчилик пойдеворининг яратилиши ва тараққиётнинг “ўзбек модели” 1991-2000 йиллар;

Профессионал парламентнинг шаклланиши 2001-2010 йиллар;

³²⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. –Б. 5.

Давлат бошқарув соҳасини модернизация қилишда Фуқаролик жамияти концепциясининг тутган ўрни 2010-2016 йиллар;

Ҳаракатлар стратегиясининг қабул қилиниши ва тадбиқ этилиши даври 2017-йилдан кейинг давр.

Ўзбекистонда кечаётган модернизация жараёнларининг ҳар уччала босқичида кўплаб соҳалар қатори давлат бошқаруви ҳам тадрижий равишда ислоҳ қилиниб демократлаштириб борилди. Жумладан Ўзбекистоннинг ўзига хос тараққиёт тараққиёт модели ишлаб чиқилиб тадбиқ қилинган 1992-2010 йиллар мобайнида давлат бошқаруви соҳаси тубдан қайта ташкил қилинди. Айтиш мумкин, ислохотлар жараёнида Ўзбекистонда давлат бошқарув соҳасининг ҳуқуқий асослари, тузилмаси, амал қилиш механизмлари қарор топди. Бир сўз билан айтганда, мазкур босқичда давлат бошқаруви соҳасининг ҳуқуқий, ташкилий-институционал ва тузилмавий асослари модернизация қилинди.

Биринчи босқични мамлакатимизда давлат бошқарувини модернизациялашнинг кучли давлатчиликни қарор топдириш, иккинчи босқични эса, кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш даври сифатида тавсифлаш мумкин.

Ўзбекистонда модернизация жараёнларини амалга оширишнинг учинчи босқичини эса, томнода инновацион модернизация моделига ўтиш даври сифатида тавсифлаш мумкин. Айтиш мумкин, давлат бошқарув соҳасидаги жараёнларда ҳам яққол акс этмоқда. Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017-йил декабрь ойидаги Олий мажлисга йўллаган мурожаатномасида давлат бошқарув соҳасини модернизациялаш борасидаги вазифалар аниқ ва тушунарли тарзда санаб ўтилди: “Биз бошқарув соҳасида биринчи навбатда ижро ҳокимияти органлари фаолиятини такомиллаштириш, кадрлар, моддий ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича аниқ мезон ва тартибларни жорий этишимиз зарур.

Иккинчидан, ижро ҳокимияти органлари зиммасидаги вазифаларни амалга ошириш тартибини, уларнинг масъулият доирасини аниқ белгилаш лозим.

Учинчидан, иқтисодий тармоқларига маъмурий таъсирларни қисқартириш ва бозор механизмларидан кенг фойдаланиш керак. Яъни давлат иштирокидаги бизнес тузилмаларини ташкил этишни чеклаш, бу борада бозорга хос механизмларни ишлаб чиқиш, давлатнинг айрим функцияларини хусусий секторга ўтказиш даркор.

Тўртинчидан, ҳокимиятнинг вакиллик органлари ва ижро ҳокимияти идоралари ўртасида яқин ҳамкорликни таъминлайдиган усул ва услубларни такомиллаштириб, ўта марказлашган бошқарувдан босқичма-босқич воз кечиш лозим. Давлат хизматларини бевосита қўйи бўғинларда кўрсатиш, маҳаллий ҳокимият идоралари учун молиявий ва бошқа имкониятларни кенгайтириш зарур. Бу борада мавжуд тартиб-таомилларни оптималлаштириш ва соддалаштириш, бошқарувнинг инновацион шакллари жорий этиш лозим.

Бешинчидан, давлат хизмати институтини ислоҳ қилиш, коррупцияга қарши таъсирчан кураш механизмларини жорий этиш керак. Бугун ҳаётнинг

Ўзи биздан профессионал, тезкор ва самарали давлат хизмати тизимини шакллантириш, янгича фикрлайдиган, ташаббускор, эл-юртга садоқатли кадрларга кенг йўл очиш бўйича самарали тизим ишлаб чиқишни талаб этмоқда³²⁷. Шунингдек халқ қабулхоналарининг ташкил қилиниши, қабул қилинаётган ҳуқуқий ҳужжатларнинг умухалқ муҳокамасидан ўтказилиши, шу орқали давлат бошқаруви соҳасини модернизациялаш жараёнига кенг аҳоли оммасини мобилизациялаш каби хусусиятлар ҳам мазкур инновацион босқичнинг ўзига хос жиҳатлари ҳисобланади. Бу даврга келиб “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган тамоил давлат бошқарув соҳасидаги модернизация жараёнларини амалга оширишнинг муҳим механизмига айланиб бормоқда.

Умуман олганда Ўзбекистон Республикасида давлат бошқарув соҳасини модернизациялаш жараёнлари мураккаб, кўпёқлама, комплекс ходиса бўлиб уни даврлаштириш ҳам соҳалараро ёндашувни талаб қилади. Шундай экан, айти муаммо таҳлилига қаратилган тадқиқотларда кўплаб ёндашувлар қатори тарихий ретроспектив ёндашувни ҳам қўллаш муҳим аҳамият касб этади.

³²⁷ Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга мурожаатномаси 2017 йил декабр – <http://lex.uz>

3-ШЎЪБА: ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОЛОГИЯ- ЭТНОГРАФИЯ, ТАРИХШУНОСЛИК ВА МАНБАШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ

*Абдуганиев А. –
ЎзМУ Тарих факултети 1 курс магистранти*

НАМАНГАН ВИЛОЯТИ ТОПОНИМИКАСИ МАНБАШУНОСЛИГИ

Ўзбекистон тарихида манбашунослик ва тарихий манбалар яратиш, ўзининг узоқ тарихига эга. Бу асарларда Ўзбекистон худудидаги қадимий шаҳарлар, тарихий обидалар ҳақида муҳим тарихий маълумотлар ёзиб қолдирилган. Бунга мисол сифатида Наманган вилояти қадимий шаҳарлари ҳақидаги асарларни мисол қилишимиз мумкин. Фарғона водийси, жумладан, Наманган вилояти географик номлари ҳақидаги илк ёзма манба муаллифи номаълум “Худуд ул-олам” (X аср) асаридир. Шунингдек, Шамсиддин Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Аҳмад ибн Абу Бакр ал-Муқаддасийнинг “Ҳасан ат-Тақосим”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома”, Исоқхон Ибротнинг “Тарихи Фарғона” асарлари ҳам Наманган вилояти топонимиясини ўрганишда муҳим манбалардан ҳисобланади.

Араб географи ва сайёҳи Муқаддасийнинг “Аҳсан ат-тақосим фи маърифат ал-ақолим” (“Иқлимларни ўрганиш учун энг яхши қўлланма”) номли асарида Фарғона водийсидаги 40 шаҳар қаторида Ахсикат, Косон, Боб (Поп) шаҳарлари ҳам тилга олинган³²⁸. Бу ҳозирги Ахсикент, Косонсой, Поп худудлари қадимийлигидан далолат беради. Наманган вилояти топонимикаси тарихийлик аҳамияти ҳозирги давр тадқиқотчилари эътибор марказида бўлиб келади. Муаллифи номаълум илмий манбаларда қисқача “Худуд ул-олам” шаклида танилган “Китоб худуд ул-олам мин ал-машриқ ила-л-мағриб” (982-983) асари ҳам Наманган вилояти топонимикасининг тарихий манбаларидан бири ҳисобланади³²⁹. Асарда вилоят топонимиясига мансуб Хатлом (ҳозирги Норин) дарёси, Боб (ҳозирги Поп), Ахсикат (ҳозирги Аҳси) каби тарихий худудлар кузатилади. Китобнинг “Дарёлар ҳақида сўз” номли қисмида Хатлом дарёсига қуйидагича изоҳ берилади. “Яна бири Хатлом дарёси. Монисо тоғидан, Халлух ва Яғмо ўртасидаги чегарадан бошланади. Хатлом шаҳардан оқиб ўтиб, Боб яқинигача боради ва Ўзганд дарёсига қуйилади”.³³⁰ Бу ўринда келтирилган Боб – ҳозирги Поп шаҳри, Поп туманининг маркази. Шунингдек, китобнинг бошқа ўрнида мазкур шаҳарга оид қуйидаги қайд кузатилади: “Кашўкас, Поб – иккита обод шаҳарча, экинзорлари кўп. Мазкур шаҳарларнинг барчаси Фарғона ноҳиятига мансуб”³³¹.

Бу ҳам юқоридаги фикримизни тасдиқлайди. Демак, мазкур манбада ҳозирги Поп ойконими Боб, Поб каби вариантларда учрайди.

³²⁸ Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи; 2001. – Б.122-123.

³²⁹ Худуд ул-олам. – Т.: O'zbekiston; 2008. – Б.64.

³³⁰ Ўша асар, -Б. 9.

³³¹ Ўша асар, -Б. 16.

Рисоланинг “Мовароуннаҳр ноҳияси ва ундаги шаҳарлар ҳақида сўз” қисмида ҳозирги Ахсикент ойконими Ахсикат шаклида берилиб, қуйидагича изоҳланган:

“Ахсикат – Фарғонанинг қасабаси, амир ва масъул аъёнларнинг қароргоҳи эрур; Хашарт дарёси бўйида жойлашган; тоғ этагида”³³². Хашарт айнан ҳозирги Сирдарёдир. Китобни X асрда ёзилганлиги эътиборга олинса, Наманган вилояти топонимиясига мансуб Поп, Ахси номларининг қадимийлиги, тарихийлиги англашилади.

Бобурнинг “Бобурнома” асарида Ахси (Ахсикат), Архиён (ҳозирги Айқирон), Косон (ҳозирги Косонсой шаҳри), Санг, Гунбази Чаман, Карнон, Ғаво (ҳозирги Ғова), Поп, Навканд (ҳозирги Навкент), Пошхорон // Бишхорон (ҳозирги Пешқўрғон), Норин каби ҳудудлар келтирилган. Мазкур асар вилоят топонимиясига оид айрим ҳудудларнинг тарихий шакллари, этимологиясини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.³³³

Ибратнинг “Фарғона тарихи” асари Наманган вилояти қадимий жойларига оид тарихий манбалардан биридир. Наманган вилояти ҳудуди энг қадимги аҳоли яшаган ва жойлашган масканлардан бири ҳисобланади. Аҳолининг ўтроқ ҳаёт кечириши ва дастлабки суғорма деҳқончилик тўғрисидаги маълумотлар м.а. VI-VII асрларга бориб тақалади. Бу вақтларда Фарғона водийсида сиёсий-маъмурий, иқтисодий ва маданий марказ ролини Косон шаҳри (ҳозирги Косонсой) ўйнаган. Эрамизнинг биринчи асридан бошлаб Фарғона Буюк Қушон империяси таркибига кирган ва унинг маркази Косон шаҳри бўлган.

Рус истилолари ва шўролар даврида ҳам вилоят чегаралари, туманлари сони бир неча бор ўзгарган. Жумладан, 1920-йиллардаги маълумотларга кўра, вилоятда уезд, приставлик, волост, қишлоқ ва овул жамоалари бўлган. Наманган уезди Фарғона вилояти таркибидаги муҳим аҳамиятга эга ҳудуд ҳисобланиб, 1925-йилги маълумотларга қараганда қуйидаги волостлар (бўлислар)ни ўз ичига олган: Олмос, Ахси – Шаханд, Ашт, Бободархон, Варзик, Косон, Капа, Қирғизқўрғон, Нанай, Поп, Пишқарон, Тергачи, Тўрақўрғон, Уйчи, Хонобод, Чодак, Чортоқ, Чуст ва Янгиқўрғон.³³⁴ Вилоятнинг муҳим таркибий қисми бўлган Наманган уезди дастлаб 26 та волост, 131 та қишлоқ жамоаларига бўлинган.³³⁵ 1897-йили унга Чуст уезди ҳам бирлаштирилиб, Наманган уезди таркибидаги волостлар сони 29 тага, қишлоқ жамоалари эса 151 тага етди.³³⁶ 1924 йилга оид архив ҳужжатида кўрсатилишича улар қуйидагилар эди: Арим, Қизилжар, Қирқугул, Сарой, Сусамир, Мустур, Чотқол, Қутлуғ Саид, Бағиш, Боястон, Олмос, Ахси-Шаханд, Ашт, Бободархон, Варзик, Косон, Капа, Қирғизқўрғон, Нанай, Поп, Пишқўрғон, Тергачи, Тўрақўрғон, Уйчи, Хонобод, Чодак, Чуст, Чортоқ,

³³² Ўша асар, -Б. 15.

³³³ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ; 2002. –Б.336.

³³⁴ Список населённых мест Узбекской ССР и Таджикской АССР. Выпуск III. Ферганская область. – Самарканд, 1925. – С.1-4.

³³⁵ Қосимов Ў. Наманган воҳасини суғорилиш тарихидан. –Т.: Фан; 1988. – Б.45.

³³⁶ Мирзалиев Э.Ю., Базарова М.Т. Наманганнинг XI аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий рикожланиши. – Наманган. 1998. – Б.7.

Янгиқўрғон каби. Далиллардан кўринадики, йирик маъмурий худудлар, аъни ўтмишдаги волост ва уездлар, ҳозирдаги вилоят ва туман аҳоли масканлари: қишлоқ ва шаҳарларнинг номлари билан аталган. Чунончи, ҳозирда Наманган вилоятининг 11та туманидан 9 таси ойконимлар билан аталган: Поп, Тўрақўрғон, Уйчи, Чортоқ, Янгиқўрғон, Косонсой, Чуст, Наманган, Учқўрғон каби. Бу топонимияда кенг тарқалган ҳолат. Юртимиз топонимиясида, хусусан, Наманган вилояти ойконимиясида анъана мавжуд.

Исоҳқон Ибратнинг “Тарихи Фарғона” асари айнан водий тарихига бағишланганлиги, ўзида кенг кўламли материалларни жамлаганлиги билан тарихий ва илмий нуқтаи назардан диққатга молик. Шу боис “Тарихи Фарғона” асари Фарғона водийси, хусусан, Наманган вилояти тарихий топонимиясини ўрганишда ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Асарнинг “Таърихи Намангон” номли бобида Наманган полисоними, Сардоба, Лаббайтоға, Дегрезлик, Косонсой, Тўрақўрғон каби ойконимлар хусусида тарихий нуқтаи назардан фикр юритилган. Биз ана шу манбага таянган ҳолда Исоҳқон Ибратнинг топонимик талқин ва қарашлари хусусида фикр юритмоқчимиз.

Наманган астионими ҳақида Ибрат ҳам анчайин атрофлича фикр юритиб қуйидагиларни ёзади: “Наманган янгилик жиҳатидинму ёки биз аҳли ислом диний китобларга аҳамият беруб, тарихларга аҳамият йўқлиги сабабду, бу Намангонга ҳеч ким равшан тарих қилмаган экан. Бу сабабдан бир китоб кўрилмайди. Қариялар оғзидан оғиз эшитилуб, ҳадди тавотурга етуб, ёнида бўлак қилу қол бўлмай, ҳаммани масмуъи бўлган равшан сўзлар билан адо қилинадур. Чунончи, бу Намангон асли намангон эмасдур. Форсий лафзи бирла намакон – намак кондур. Муни маъниси шу эканки, бизни Чиғатой тилида асли гон йўқ экан, бу шеваи форсийдур. Чиқайтойда кон ёки гон ё кон бўладур. Бу лафзи гон конни осон қилибдур. Ёки форсийлар ихтилоти ва ҳам буёни лафзи форсий учун гон деб машҳур ва бу лафзда мазкур бўлди. Чунончи, Намангон аввали ҳолда, яъни мунда тўққиз юз йил илгари ерларда ҳеч ким бўлмай ётган биёбон - кўлтуз бўлиб, ул вақтда Бухоро хонликлариндан Абдуллоҳхон бу Фарғона тарафларига келиб, хар ерга гоҳ сардобалар кавлаб, саққойи мўминингга чоҳлари тепасига гумбазлар қилиб, кўб халқга кафлик ишларни қилган хон экан. Ул киши бул Намангонни ерига келиб, алҳолда сардоба деган мадраса бордур // бир Чуст ва бир аминлик маҳалладур, ул ерга тушуб, дарҳол сардоба кавлатиб, неча кунлар тутуб, бир тарафли дарё ва бир тараф тоғ хавоси яхши учун бу ерга бир шаҳар бино қилмоқ бўлуб ўз ичларидан бир оғолик мансабида турган кишини амр қилиб, шаҳар қилмоқ бўлганда, ўшал ерни дарё тарафи бутун шўр кўл бўлуб ётган туз экан. Бинобарон, намак кон деб, яъни туз кон деб атаган экан. Бу намак кон лафзини форсийда гон қилиб ёзуб, намакконни намангон деб, бир нуни зоида илан намангон бўлди, асли намаккондур.³³⁷ Ибрат “Наманган топоними “намак кон”, яъни “туз кони” бирикмасининг даврлар давомида сайқалланиш махсули деган хулосага келади. Унинг

³³⁷ Ибрат. Ўша асар, -Б. 325.

фикрича, Наманган полисонимининг этноними туз кони, шўр кўл маъносидаги намак кон бирикмасидир.

Таҳлиллардан кўринадики, юқоридаги асарларда келтирилган маълумотлар ўз мазмун-моҳияти билан тарих, география, этнография фанларига оид тарихий манба бўлиб, Наманган вилояти топонимиясининг тарихий вариантларини, халқона этимологик талқинларини, номинатив-мотиватсион хусусиятларини тадқиқ этишда ҳам аҳамиятга эга.

Abduzohirov R. H.
O‘zMU Tarix fakulteti 1-kurs magistranti

O‘ZBEK OILALARIDA OTA-ONALAR VA O‘SMIR FARZANDLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARGA OID AYRIM MULOHAZALAR

O‘zbek oilasining va oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo‘lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma‘naviy tarbiyaning asosiga suyanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘biri bilan izoh beradigan bo‘lsak: “Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a‘zolari o‘z burchini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... o‘zbeklarning aksariyati o‘zing shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining qarindosh – urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”³³⁸.

Oilada boalarning ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib o‘shishiga oila muhitining ta‘siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo‘lsa, bolalar xuddi shu muhit ta‘sirida ulg‘ayadilar. Bizning mentalitetimizda farzandlar ota-onalariga o‘xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o‘zlari bilmasdan zo‘r harakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar.

O‘zbekiston Respublikasi eng yangi tarixida “yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish”³³⁹ dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar har bir shaxs, ota-ona, mahallalarning an‘analarga nisbatan yangicha yondashuvini taqoza etadi. Bunda oila institutining o‘zaro munosabatlarida hamda ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda an‘analalar, urf-odat va qadriyatlarni o‘rni beqiyosligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Oilada ota-onalar va o‘smir farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar g‘oyatda muammoli vaziyatlarga boy davr hisoblanadi. Zero, o‘smirlik davri bolani o‘zligini

³³⁸ “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi. 2012 yil. Xalq so‘zi gazetasi.

³³⁹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. – Т.: Ўзбекистон; 2017. – Б. 47.

anglash, mustaqil shaxs sifatida shakllanish jarayoni bo'lib, undagi har qanday salbiy ta'sirlar kamol topayotgan shaxsning kelajagini belgilab beradi.

Birinchi bo'lib bu yangi ijtimoiy hodisa – taraqqiyotning o'smirlik davriga Jan Jak Russo e'tibor qaratdi. 1962 yil s “Emil” romanida etnopsixologik ahamiyatga ega bo'lgan bosqich haqida to'xtalib o'tgan. Russo o'smirlik davrini “ikkinchi tug'ilish” sifatida ta'riflaydi, bu tug'ilishda bolaning o'zi “dunyoga keladi”. Bu davrning eng muhim xususiyati – o'z – o'zini anglashning o'sishi ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi³⁴⁰.

Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onaning mehribonchiligi, e'tibori zarur. Aksariyat jinoyatchi bo'lib qolgan bolalar ota-onalarining va yaqin qarindoshlarining mehribon emasligidan aziyat chekadilar. Bunday nosog'lom oila muhitida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi va turli zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Oilada o'smir bola nima bilan doimiy band va qanday ishlar bilan shug'ullanishini dastlab aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik ona sezib qoladi. Lekin oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakka, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalardir”. Shunday ekan, oila muhiti, qolaversa, bolalarning kelajagi, ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy tasavvurlarining ijobiy va boy bo'lishi kop jihatdan onalarga bog'liq. Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatlaridagi milliy xususiyatlarini sanab o'tish mumkin. Ma'lumki, o'zbek oilasi bolajon oila bo'lib, biz shuning uchun faqat o'smir yoshdagi bolalarning ota va onalariga munosabatini konkret vaziyatlar bilan bog'lash o'rinli deb quyidagi misollarni havola qilamiz. Biror ishni boshlash yoki biror yerga borishda ham ota-onaning fikri bilan kelishish, ulardan ruxsat so'rash barcha bolalarga xos, qizlarning deyarli aksariyati ham otadan, ham onadan so'rashadi. Shahardagi o'gil bolalarga onaning fikri, roziligi muhimroq. Shunisi harakterliki, barcha toifada ham otadan ko'ra onadan ko'proq izn (rozilik) so'rash o'ziga xosligi ma'lum bo'ldi. Demak, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarida onaning yetakchi roli bolalar fikrida yaqqolroq namoyon bo'ladiki, bu onaning oilaviy yumushlarni boshqarishi, uyda ko'proq bo'lishi bilan bog'liqdir.

Oilaviy kelishmovchiliklar ko'pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo'ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muammolar yuzasidan ota-onalar o'z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba'zan fikr so'raydiganlar qishloq oilalariga xosdir. Jinsga oid oladigan bo'lsak, ota-onalarning bolalaridan fikr so'rashi o'gil bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko'proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu

³⁴⁰ O'tmish mutafakkirlarimiz ota – ona va farzandalar munosabatlar xususida // “Ma'rifat yog'dusi”. № 3, 2000.

albatta, bir tomondan o'smirlarga xos maksimalizm bo'lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko'rsatadi. Shuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to'xtata olishlariga ishonadilar.

Shu o'rinda Amerikalik tadqiqotchi olim M. Midning "Samoadagi tadqiqotlari"³⁴¹ dan keltirib o'tadigan bo'lsak, "Samoa o'smir qizlari ham oiladagi o'zaro munosabatda o'zbek o'smir qizlari singari onalari bilan ko'proq yaqin munosabatda bo'ladilar. Otasi yoki yoshi katta kishilar bilan kam muloqot qilishadi".

Shunday qilib, o'smirlar bilan muomalada har bir ota-ona, kattalar, avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, iloji boricha ular bilan yumshoq va jiddiy munosabatda bo'lishlari, ayrim masalalarda ularning ham fikrlarini so'rashlari, gaplariga e'tibor bilan quloq solishlari kerak. Zero, bu davrda bola tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, u bilan do'stona munosabat shakllantirilsa, turli ta'sirlardan holi farzand, barkamol shaxs vujudga keladi. Barkamol shaxslar esa ertangi kun kelajagidir.

*Abduraxmonova K. –
O'zMU Tarix fakulteti 2 bosqich talabasi.*

XORAZM FOLKLORINING XORIJDA O'RGANILISH TARIXI (H. VAMBERI ASARLARI ASOSIDA)

Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari har qaysi millatning folklor san'atida namoyon bo'ladi. Istiqloq sharofati bilan yurtimizda ko'plab sohaslar qatori xalq folklor san'atida ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga yorqin misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatimizda Birinchi Xalqaro baxshichilik festivali joriy yilning 5-10 aprel kunlari Termiz shahrida o'tkazildi³⁴². Mazkur festival faoliyati davomida har ikki yilda bir marta o'tkazilishi rejalashtirildi. Dostonchilik san'atini asrab-avaylash va keng targ'ib qilish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Festivalda 74 mamlakatdan 160 dan ziyod xorijlik mehmonlar, jumladan diplomatik korpus vakillari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, sharq madaniyati va folklor san'ati nomoyondalari, ommaviy axborot vositalari vakillari xodimlari hamda ekspertlari qatnashdi. Bu festivalni o'tkazilish arafasida 100 tomlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" majmuasi, Shuningdek, ko'p tomlik "Qoraqalpoq folklori" (mazkur nashrda "Alpomish" dostonining 8 xil varianti joy olgan) to'plami ham chop etildi. Ushbu nodir san'at ma'naviy hayotimizda benihoya muhim o'rin tutishidan dalolat beradi³⁴³.

³⁴¹ Мид М. - Культура и мир детства. Глава 11. Самоа: девушка-подросток. С-15-17. М-1983.

³⁴² <https://kun.uz/uz/96272359?q=%2Fuz%2F96272359>

³⁴³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida / <http://m.mfa.uz/uz/press/news/2019/04/18510/>

Asrlar davomida xalq dostonlari faqat sevgi-muhabbat tarannumi emas, balki madaniyat, ma'rifat, tarbiya vositasi bo'lib kelgan. Yozma manbalar bo'lmagan qadimgi davrlardayoq ajdodlarimiz og'zaki ijod orqali kelajak avlodlarda mardlik, yaxshilik, halollik, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xorazm vohasi ham Markaziy Osiyoning juda qadimiy o'lkalaridan biri bo'lib, u nafaqat o'zining qadimiy tarixi bilan balki boy va rang-barang og'zaki ijodi bilan ham olimu sayyohlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Shu sababli XVI asrdayoq Xorazmga tashrif buyurgan ingliz diplomati A.Jenkinson, XIX asr boshlarida vohaga kelgan rus zobiti N.Muravyov, XIX asr o'rtalarida Venger olimi H.Vamberi, rus harbiysi D.Gladishev, rus sharqshunosi V.V. Bartold kabi olimlarning faoliyatlarida Xorazm folklorini to'plash, tadqiq qilish va e'lon qilish muhim o'rin tutgan. Xorazm hududiga oid folklor na'munalarining chet el olimlari tomonidan o'rganilish masalalariga qiziqish qisman asrimizning 60-70-yillarda V.M.Jirmunskiy tomonidan boshlangan³⁴⁴. Lekin bu sohadagi ishlar haligacha keng doirada olimlar va etnologlar tomonidan o'rganilmoqda³⁴⁵.

XIX asr o'rtalarida Xorazm folklori na'munalarini to'plash va tadqiq qilish masalalariga kirishgan G'arb sharqshunoslaridan biri Herman Vamberi hisoblanadi. Olim 1832-yilda Vengriyaning Presburg viloyatida dunyoga kelgan. Vamberi o'n besh yoshidan boshlab lotin, nemis, yunon va ingliz tillarini o'rganadi. Ayni paytda u turkiy tillarni ham qunt bilan o'rganishga kirishadi. H.Vamberi 1862-yilda Eron orqali darvesh qiyofasida O'rta Osiyoga sayohat qilib, Turkman sahrosi orqali Xivaga, undan Buxoroga keladi³⁴⁶. Olim ilmiy mehnatlari tufayli 1865-yilda professor unvoniga ega bo'ladi. H.Vamberining "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat", "O'rta Osiyo ocherklari", "Chig'atoy tili darsligi" kabi qator kitoblari turkiy xalqlar folklori, etnografiyasi va tarixiga bag'ishlangan.

H.Vamberining Markaziy Osiyoga qilgan safari davomidagi sarguzashtlari uning "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobida bayon qilingan. Asarning VIII bobida olimning Xorazm cho'llari orqali Xivagacha bo'lgan masofadagi sayohati kundaliklar tarzida bayon qilingan. IX bobida esa Xivadan Buxorogacha bo'lgan sarguzashtlari o'rin olgan. H.Vamberi Xiva xonligi hududiga kirib kelar ekan, 1862 yil 30-mayda 1-o'zbek qishloqlariga qadam qo'ydik deb ko'rsatadi³⁴⁷.

H.Vamberi keltirgan folklor materiallari bundan bir asr muqaddam qayd etilgan bo'lib, ular ana shu paytda xalq o'rtasida o'qilib, yoddan aytilib yurilgan folklor namunalaridan iborat. Olimning o'z sayohati davomida xalq og'zaki ijodiyotiga, umuman, adabiyotga, tarix va etnologiyaga oid ko'plab ma'lumotlarni zo'r ishtiyok bilan to'plaganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, u Qo'ng'irotda bo'lganida mazkur shaharning tarixiga qisqacha to'xtalib o'tadi va Qo'ng'irotda qamali haqida ma'lumotlar beradi. U Xiva xonligi haqida ma'lumot berganda mamlakatning asosiy aholisi o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, sart va eroniylardan iboratligini qayd qilgan. Xivaliklarning musiqaga, she'riyatga

³⁴⁴ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука; 1974. – С. 44.

³⁴⁵ Абдурасулов А. Хива. Тарихий-этнографик очерклар. –Т.: Ўзбекистон; 1997. –Б. 17.

³⁴⁶ Hudoyberganov K. Yozuvlarga yashirilgan tarix. –Xiva: 1996. –B. 23.

³⁴⁷ Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. – М.: 1965. – С. 63.

ishtiyoqi baland ekanligi e'tiborni jalb qilishi va Xiva musiqachilari dutor va qo'biz chalishda butun Turkistonda katta obro'ga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tgan. H.Vamberi "Chig'atoy tili darsligi" kitobida birinchi marta Xorazm folkloriga aloqador bo'lgan "Baxshi kitobi" to'plami, "Zarqum Shoh", "Temir Sahoba", "Oysanam – Shohsanam", "Hurliqo Hamro", "Oshiq Oydin" kabi qator asarlar haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tgan. Mazkur darsligida "Yusuf bilan Ahmad", "Tohir va Zuhra" dostonlardan parchalar bergan. "Yusuf bilan Ahmad" dostonining nemis tiliga tarjima qilingan variantini e'lon qiladi. Bu Yevropada birinchi marta o'zbek eposidan qilingan tarjima bo'ldi.

"Baxshi kitobi" esa o'ziga xos she'rlar to'plami bo'lib, o'rganuvchi shogird-baxshilarning yonida olib yuriladigan kichik kitobchadir. Xorazmda bu an'ana hozirgacha davom etib kelmoqda. Halfalar va qissaxonlar hozir ham maxsus kitoblardan foydalanishadi. "Oysanam va Shohsanam" asari sevgi-muhabbatga bag'ishlangan she'riy tarixdir. Doston hozirda Xorazm baxshilari repertuarida yo'q. Bu sujet hozirgacha baxshilarning repertuaridagi Oshiq G'arib va Shohsanam doston voqealariga o'xshab ketadi³⁴⁸.

"Oshiq Oydin" dostoni haqida so'zlar ekan, H.Vamberi shuni ta'kidlaydiki, "Oshiq Oydin" asari usmonlilar xalq poeziyasida mashhur bo'lgan "Oshiq G'arib" dostoniga taqlid sifatida yaratilgan bo'lib, u Anatoliya va Rum elining qahvaxonalarida maddohlar tomonidan ko'p aytiladi. Professorlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ham shu asarni "Oshiq G'arib" dostonining bir varianti sifatida qayd etadilar³⁴⁹. Oshiq Oydin obrazi aslida Oshiqiddin Shahobiddin ismli tarixiy shaxs bo'lib, Oshiq Oydin uning xalq bergan taxallusidir. Uning qabri Ko'hna Urganch shahridan 60 km janubiy g'arbda joylashgan. Hozirgi kunda Oshiq Oydin pir qabri yonida har yili Xorazm vohasida yashovchi o'zbek, turkman, qoraqalpoq baxshilarning ijodiy musobaqalari o'tkazilishi an'anaga aylangan.

"Hamro" hozirgi kunda Xorazmda "Hurliqo va Hamro" nomi bilan mashhurdir. H.Vamberining Hamroni Adonisga qiyoslashi, Adonis yunon afsonalaridagi epik oshiq bo'lib, deyarli butun Yevropaga mashhur³⁵⁰.

Olim "Chig'atoy tili darsligi" ning "Bir necha o'zbek naqllari bayonida turur" deb nomlangan qismida 112 maqolning o'zbekcha matnini nemischa tarjimasini bilan birga e'lon qilgan. Misol uchun: "Zamon senga bo'yin qo'ymas, sen zamonga bo'yin qo'y" maqolini olim o'z xrestomatiyasida keltirgan. Hozirda bu maqol "Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq" maqoliga to'g'ri keladi. Bu dalil o'zbek folklorining chet el doirasidagi birinchi nashri sifatidagina emas, balki unga qiziqishning xalqaro tus ola boshlaganini tasdiqlash jihatidan ham ahamiyatli.

Xulosa qilib aytganda, Vamberi Xorazmdan to'plagan maqollar, dostonlar va tarixiy, diniy asarlarni sharhlar bilan chop qildirar ekan, ularni Yevropaning talabchan kitobxonlariga to'laqonli yetkazish uchun butun kuchini sarf etadi. H.Vamberining ishlari Yevropa sharqshunoslarining Xorazm o'lkasiga bo'lgan qiziqishiga katta turtki bo'lgani ham uning muhim xizmatidir. XX asr boshlarida Xorazmga kelgan rus sharqshunos olimi A.N.Samovlovich ham Xorazmga

³⁴⁸ Вамбери Х. Чигатой тили дарслиги. –Т.: –Б. 34-35.

³⁴⁹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ; 1947. – С.294.

³⁵⁰ Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М.: 1986. –С. 305-306.

kelishdan oldin H.Vamberining asarlarini mukammal o'rganganligi ham bejiz emas. Xorijiy olimlar va sayyohlar tomonidan to'plangan xalq ijodiyoti asarlari madaniy merosimizning bebaho durdonalarni tadqiq qilish biz kabi yosh, ilmga chanqoq talabalarining asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Zero, "Elim deb, yurtim deb kuyib, yonib yashamoqning" tub mohiyatida ana shu mashaqqatli vazifa ham bor.

*Ғаффарова С.Ш. –
СамДТИ 3-курс талабаси*

ХІХ АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ ХХ АСР БОШЛАРИДА САМАРҚАНД ТАРИХШУНОСЛИГИ

Юртимизда қисқа муддат мобайнида ижтимоий йўналтирилган бозор муносабатларини шакллантириш борасида кўпгина ишлар амалга оширилди. Айни пайтда мамлакатимизни хом ашё, минерал ресурслари ишлаб чиқарувчи худуддан, жаҳон талабларига тўла жавоб бера оладиган тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи мамлакатга айлантиришга эътибор қаратилди. Шу билан бирга, мулкни давлат тасарруфидан чиқариш, кўп тармоқли иқтисодиётни вужудга келтириш, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш, мулкдорлар қатламини шакллантириш, ишлаб чиқаришга саноатнинг янги тармоқларини кенг жорий этиб, уларни замонавий техника ва технологиялар билан таъминлашга эътибор кучайтирилди. Ҳозирги кунларда қилинадиган ишларнинг сифати ва самарадорлигини оширишда, тарих тажрибаларини кенг ўрганиш, яқин ўтмишда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши, мулкдорлар қатламини шаклланиши, кўп тармоқли иқтисодиётни вужудга келтириш борасида амалга оширилган ишларни ўрганиш, ютуқ ва камчиликлардан керакли хулосалар чиқариш муҳим аҳамиятга эга.

Маълумки, ХІХ асрнинг II ярми-ХХ аср бошларида Самарқанд вилоятида сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий-маърифий соҳаларда бир қатор ўзгаришлар содир бўлди. Мустамлакачи ҳукумат ўлканинг, жумладан Самарқанд вилоятини ўзига буйсундириб бу ерда бошқарув тизими ва иқтисодий масалаларга оид ислохотларни амалга оширди. Натижада, вилоятнинг метрополияга қарамлиги кучайиб, у рус савдо-саноат буржуазиясининг хом ашё базаси ва бозорига айланиб қолди.

Рус савдо-саноат капиталининг кириб келиши вилоятда майда товар ишлаб чиқарувчилар меҳнатини умумлаштиришга, қишлоқларда ижтимоий табақаланишга, ишлаб чиқариш воситаларидан маҳрум бўлган деҳқонларнинг катта қисмини пролетарлашишига, қишлоқ хўжалигининг пахтачиликдан бошқа тармоқлари маҳсулотларини ҳам товарга айлантириш жараёнининг тезлашишига доир бир қатор тадбирларни амалга оширган бўлса-да, қишлоқ хўжалигини ялпи ривожлантириш ва саноат ишлаб чиқаришни талаб даражасига кўтара олмади. Айни пайтда, қишлоқларда ижтимоий табақаланиш жараёни кучайиб, ерларнинг катта қисмини

мулкдорлар қўлида тўпланиши ерсиз деҳқонларнинг кўпайишига ва ёлланма меҳнат қилувчилар сонининг ошиб боришига олиб келди.

Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати Самарқанд аҳолисининг ҳам сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маънавий ҳаётига жиддий салбий таъсир кўрсатишига қарамадан маълум даражада ижобий ўзгаришларга олиб келди. Аввало урбанизация жараёни тезлашиб, шаҳарлар кенгая бошлади. Илгари деҳқончиликдан алоқасини узмаган шаҳар аҳолисининг кўпчилиги ўз касбларини ўзгартириб, савдо-сотик ва ҳунармандчилик билан шуғуллана бошлади. Ички ва ташқи савдо ривожланди. Ўрта Осиё темир йўллариининг қурилиши пахта ва бошқа қишлоқ хўжалик маҳсулотларини Россиянинг марказий районларига ташиб кетиш имкониятини анча кенгайтди. Вилоятда етиштирилган пахтанинг товарлик хусусияти кўпроқ бир томонлама характерга эга бўлиб, савдогарлар пахта толасини, асосан, четга чиқаришга ҳаракат қилдилар. Чунки, Россия империяси вилоятда пахтага дастлабки ишлов бериш ва ёғ ишлаб чиқариш саноатидан бошқа саноат тармоқларини ривожлантиришдан унчалик манфаатдор эмас эди. Бунинг оқибатида, вилоятда шаҳарларнинг кенгайиши ва аҳолининг кўпайишига нисбатан саноат ишлаб чиқариш секин ривожланди. Шаҳарларда ортиқча ишчи кучининг тўпланиб қолиши, унинг кадрсизланишига олиб келди. Бундан капиталистлар кўшимча даромад олишда фойдаландилар.

Бу даврда Самарқанд вилоятида фаолият кўрсатган маҳаллий ва хорижий ишбилармонлар, тадбиркорлар, савдогарлар, саноатчилар ва банкирлар ўзларини қизиқтирган соҳалар бўйича ҳали вилоятда маълум бўлмаган бир қатор ишларни амалга оширдилар. Шу билан бирга, ўтмишда савдо-сотик ва ҳунармандчилик ишлари, умуман бозор муносабатлари нисбатан анча яхши йўлга қўйилган. Самарқанд вилоятида аҳолининг бу соҳаларда эришган ютуқлари, йўл қўйган хато ва камчиликларини тадқиқ қилиш танланган мавзу долзарблигини янада оширади.

Тадқиқ этилаётган даврда маҳаллий савдогарлар, ҳунармандлар билан бирга Россия ва бошқа хорижий мамлакатлардан Самарқандга ҳақиқий тадбиркорлар, ишбилармонлар билан бир қаторда осонлик билан бойлик орттириш илинжида олғирлар ва текинхўрларнинг кириб келиши, уларнинг фойда олиш илинжида турли соҳаларга ўзларини уришлари, иш жараёнида эришилган ютуқлари, хато ва камчиликларини атрофлича ёритиш ҳозирги пайтда мамлакатимизда кенг йўл очиб берилаётган тадбиркорлик, ишбилармонлик соҳасида қилинаётган ишларга ёрдам бериши шубҳасиздир.

Ҳозирги вақтга қадар Самарқанд вилоятининг ижтимоий - сиёсий ва иқтисодий салоҳияти ҳамда саноатнинг пайдо бўлиши тарихини ўрганишга бағишланган бир қатор илмий тадқиқот ишлари яратилган. Уларни уч гуруҳга ажратиб таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир. Биринчи гуруҳга мустамлака даврида чоп этилган адабиётлар, расмий нашрлар ва мақолалар киради. Иккинчи гуруҳни собиқ шўролар даврида чоп этилган адабиётлар, рисола ва мақолалар ташкил этади. Учинчи гуруҳ адабиётлари мустақиллик

йилларида амалга оширилган тадқиқотлар, чоп этилган адабиётлар, рисола ва мақолалардан иборат.

Биринчи гуруҳга В.А.Вяткиннинг «Самария. Описание древности и мусульманских святынь Самарканда. Абу Тохар Ходжа»³⁵¹, «Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята»³⁵², А.Л.Хорошхиннинг «Сугуд» ва «Долина Зерафшана»³⁵³, В.В.Радловнинг «Средняя Зерафшанская долина»³⁵⁴, Н.А.Кирпичниковнинг «Краткий очерк некоторых туземных промыслов в Самаркандской области»³⁵⁵, С.П.Мансыровнинг «Базарная торговля в Самаркандском уезде»,³⁵⁶ М.Вирскийнинг «Сведения о Зерафшанском округе»,³⁵⁷ «Хлопководство и хлопковая промышленность в Самаркандской области» мақолалари³⁵⁸ ҳамда шу каби мақолалар тўпламидан иборат «Справочная книжка Самаркандской области» китоби ушбу даврдаги Самарқанд вилояти тарихини ёритишда муҳим манбалар ҳисобланади. Жумладан, ушбу китобда тўпланган вилоятнинг тарихий жуғрофияси, тарихий, маданий ёдгорликлари, савдо, ҳунармандчилик, кишлоқ хўжалиги ва бошқа соҳаларига оид маълумотлар аҳолининг ижтимоий ҳаёти, турмуш тарзи бажарган машғулоти тўғрисида илмий ҳулосалар чиқаришга имкон беради. Шунингдек, ушбу даврда яратилган «Обзор Самаркандской области» тўплами³⁵⁹ ҳам 1880-1916 йиллар оралиғида Самарқанд вилоятининг уезд, шаҳарлардаги барча соҳалар, жумладан, ишлаб чиқариш, саноат, ҳунармандчилик, дехқончилик, боғдорчилик, савдо, солиқ ва мажбуриятлар, соғлиқни сақлаш, ҳалқ таълими, аҳоли ижтимоий таркиби ва ҳоказолар бўйича батафсил маълумотлар берадики, бу мавзунини ёритишда ниҳоятда аҳамиятли ҳисобланади. Шунингдек, ушбу давр бўйича «Сборник материалов по мусульманству», китоби,³⁶⁰ Л.Е.Костенконинг «Туркестанский край» китоблари³⁶¹, В.В.Бартольднинг «История культурной жизни Туркестана»,³⁶² В.Г.Наливкиннинг «Туземцы раньше и теперь»³⁶³ китоблари ҳам муҳим манбалар ҳисобланади.

³⁵¹ Вяткин В.Л. Самария. Описание древностей и мусульманских святынь Самарканда. Абу Тохар Ходжа. Справочная книжка Самаркандской области на 1898 г. Вып. 6. -Самарканд. 1899. -С. 153-259

³⁵² Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята. Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 7. -Самарканд. 1902. -С.4-71.

³⁵³ Хорошхин А.Л. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876. -С. 142-516

³⁵⁴ Радлов В.В. Средняя Зерафшанская долина Записки РГО по отд. этнографии, том VI, СПб, 1880.

³⁵⁵ Кирпичников Н.А. Краткий очерк о некоторых туземных промыслов в Самаркандской области. Справочная книжка Самаркандской области на 1897г. Вып.5. -Самарканд. 1897.-С.110-162.

³⁵⁶ Мансырев С.П. Базарная торговля в Самаркандском уезде. Справочная книжка Самаркандской области. Вып.6 -Самарканд. 1898. -С. 94-140.

³⁵⁷ Вирский М. Сведение о Зерафшанском округе. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.4.СПб. 1876. -С. 10-56

³⁵⁸ Вирский М. Хлопководство и хлопковая промышленность в Самаркандской области. Справочная книжка Самаркандской области.Вып.5. -Самарканд. -1897. -С. 63-92.

³⁵⁹ Обзор Самаркандской области за 1880-1916 гг. -Самарканд. 1916.

³⁶⁰ Краткий обзор современного состояния и деятельности мусульманского духовенства, разного рода духовых учреждений и учебных заведений туземного населения Самаркандской области, с некоторыми указаниями на их историческое прошлое. Сборник материалов по мусульманству. Том. 1. СПб 1899 -С.1-47.

³⁶¹ Костенко Л.Е. Туркестанский край. Т.1. СПб 1880, -С. 452.

³⁶² Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. -Л.: Акад. Наук; СССР, 1992. -С. 256

³⁶³ Наливкин В.Г. Туземцы раньше и теперь. Т.1913, С.144.

Россия империяси даврида яратилган ушбу илмий тадқиқотларда Самарқанд вилояти ва шаҳрининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти тўғрисида маълумотлар берилса-да, улар чоризмнинг Туркистонда мустамлакачилик манфаатларини ҳимоя қилиш, ўлкани босиб олиш, мустамлакага айлантириш, бошқариш тизимини яратиш борасидаги барча ҳаракатларини оқлашдан иборат бўлган умумий мақсадли кўрсатма остида яратилган. Шунга қарамай, бу тадқиқотлар тарихий нуқтаи назардан эътиборга лойиқ.

Иккинчи гуруҳга кирувчи тадқиқотларга, шўролар даврида ёзилган адабиётлар, рисоалар, мақолалар қиради. Жумладаи, Ю.Н.Алексеровнинг «Самарқанд: страницы истории»³⁶⁴, «Самарқанд тарихи»³⁶⁵, (ҳаммуал.) Т.С.Саидкуловнинг «Самарқанд во второй половине XIX начале XX веков»³⁶⁶, каби китоблари ҳамда А.Я.Абдурахимовнинг «Положение трудящихся масс дехканства Туркестана во второй половине XIX века»³⁶⁷, М.М.Абрамовнинг «Социально-экономическая и культурная жизнь Самарканда в XVI-первой половине XIX в.»³⁶⁸ мавзусидаги номзодлик ва докторлик диссертациялари ҳам шу гуруҳга мансуб. Айниқса, Т.С.Саидкуловнинг XIX аср охири XX аср бошларида Самарқанд шаҳри ва Зарафшон воҳаси ўрта қисмининг ижтимоий -иқтисодий ва сиёсий тарихига бағишланган монографиясини алоҳида таъкидлаб ўтиш зарур. Мазкур монографияда Самарқанднинг Россия таркибига киритилиши арафасидаги ижтимоий - иқтисодий, сиёсий тарихи; Самарқанднинг Россия таркибига киритилиши, ундан сўнг юз берган ижтимоий - иқтисодий, сиёсий ва маданий ўзгаришлар, жумладан, қишлоқ хўжалиги, хунармандчилик, савдо, саноатнинг пайдо бўлиши, маданий ҳаёт ва ҳоказолар борасидаги берилган маълумотлар, илмий таҳлиллар диққатга лойиқдир. Ушбу гуруҳдаги илмий-тарихий тадқиқотларда Самарқанд вилояти ва шаҳрининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий тарихи ўрганилган бўлса-да, лекин уларда аҳоли ижтимоий қатламлари ҳаёти, турмуши тарзи тўғрисида қисман маълумот бериб ўтилган. Шунингдек, ушбу тадқиқотлар совет даври ва коммунистик мафкура таъсирида, мустамлакачилик сиёсатида илмий баҳо беришда бирёқламалиги билан изоҳланади.

Учинчи гуруҳга Ўзбекистон мустақиллиги даврида яратилган илмий тадқиқотлар қиради. Бу даврда Ватанимиз тарихини холисона ва адолатли ўрганишга кенг имкониятлар яратилди. Мустабид тузум давридаги бир ёқламаликка барҳам берилди. Бу даврда Ўзбекистон тарихига янгича ёндашув асосида яратилган илмий ишлар майдонга келди. Мустақиллик йилларида Ҳ.З.Зиёев, Д.А.Алимова, Ю.Ф.Буряков, Ш.М.Раҳматуллаев, Д.Зиёева, Ғ.А.Аҳмаджонов, Н.А.Абдурахимова, Ф.Исхаков, Н.У.Мусаев,

³⁶⁴ Алексеров Ю.Н. «Самарқанд страницы истории» -Т.; 1967. –С. 224.

³⁶⁵ Самарқанд тарихи. 2-томлик. –Т.: 1971. -С. 496.

³⁶⁶ Саидкулов Т.С. Самарқанд во второй половине XIX начале XX веков –Самарқанд. 1970. –С.254.

³⁶⁷ Абдурахимова М.Я. Положение трудящихся масс дехканства Туркестана во второй половине XIX века (по материалам Самарқандской области), Автореферат диссертации. –Т.: 1955. –С. 13.

³⁶⁸ Абрамов М.М. Социально - экономическая и культурная жизнь Самарканда XVI-первой половине XIX в. Автореферат дисс.доктора.ист.наук. –Т.: 1989. -С. 45.

Ш.С.Ғаффоров, А.Э. Курахмедов, Н.Маҳкамова, Н.А.Абдурахимова, Х.Ш.Авазов, Ш.Х.Воҳидовларнинг³⁶⁹ тадқиқотлари ҳамда ҳаммуаллифликда яратилган «Ўзбекистоннинг янги тарихи» (1-қисм),³⁷⁰ «Тарих шохидлиги ва сабоқлари»³⁷¹ каби асарлар, шунингдек «Ўзбекистон тарихи»³⁷² ва «Этнографическое обозрение» каби журналларда чоп этилган бир қанча мақолалар ҳам XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тарихини ёритишда қимматли манбалар ҳисобланади.

*Gulmatov U.X. –
O‘zMU 2-bosqich magistranti*

MAHALLA FUQAROLAR YIG‘INLARIDA “YARASHTIRISH” KOMISSIYASINING OILA VA NIKOH MUSTAHKAMLIGIDAGI O‘RNI

Davlatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlar jarayonida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish” tizimi yanada takomillashib bormoqda. Bundan tashqari sohaga oid ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qonunlar asosida Mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘z faoliyatlarini yuritishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. MFYlar asosan joylarda to‘y va ma‘raka marosimalrini o‘tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish va boshqa faoliyatlar bilan shug‘ullanmoqda bilan shug‘ullanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan. Bu konstitutsiyaviy normalar esa 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunda o‘z aksini topdi. Mazkur

³⁶⁹ Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш. -Т.: Шарк; 1998. –С. 478; Алимова Д.А. История как история, история как наука.Т.2. -Т.: Ўзбекистан; 2009. –С. 181; Алимова Д.А, Буряков Ю.Ф.Рахматуллаев Ш.М. Самарқанд тарихи. -Т.: ART-FLEX; 2009. –С.146; Ахмаджонов Ғ.А. Россия империяси Марказий Осиёда. -Т.: 2003. –С. 270; Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими. -Т.: Академия; 2002. –С. 240; Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане. (1867-1917). -Т.: Фан; 1997. -С. 232; Мусаев Н.У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX – начала XX в.в.) Автореферат дисс.докт.ист.наук. -Т.: 1999. Ғаффоров Ш.С. Тукистоннинг ижтимоий-сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан. (XIX-XX асрлар). –Самарқанд. 1996. –С. 112; Курахмедов А.Э. XIX аср иккинчи ярми ва XX аср бошларида Самарқанд вилоятида иқтисодий, маданий ҳаёт. ("Туркестанский сборник" тўплами асосида). Тарих фанлари номз.дисс. –Самарқанд. 2001. –С. 157; Курахмедов А.Э. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанднинг иқтисодий ва маданий ҳаёти. –Т.: Фан; 2009; Абдурахимова Н.А. Колониальная система в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX в.в.) Автореферат дисс.докт.ист.наук. -Т.: 1999; Авазова Х.Ш. Развитие банков и фирм в Туркестане во вторая половина XIX – начало XX в.в. Автореферат дисс.канд.ист.наук. -Т.: 1997; Ш.Воҳидов. Центральная Азия и Россия в XVIII – начале XX вв., -Т.; O‘z DAVMATUOTLITI: MSHI; 2009.

³⁷⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи 1-қисм Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарк; 2000. –С. 464; Шу муаллиф. Қўкон хонлиги тарихшунослиги. Akademnashr; 2010.

³⁷¹ Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Лойиҳа раҳбари. Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова -Т.: Шарк; 2001. –С. 464; Н.Р.Маҳкамова. Модель социальное структура узбекистанского общества: тенденции развития, насильственное разрушение. (конец XIX -конец 30-х годов XX века). Ўзбекистон тарихи /2002, 4-сон 20-29 бетлар

³⁷² Емельяненко Т.Г. Бухарские евреи: судьба диаспоры. Этнографическое обозрение. 2009, №5, М, РАН. - С.15-24.

qonun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi.

Ijtimoiy, jamoat instituti hisoblangan ushbu tashkilot vazifalari mahallalarning ijtimoiy-ma'naviy darajasini yuksaltirish, milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda targ'ib qilish, shuningdek, fuqarolar yig'inlari faoliyatini yanada tartibga solish, muvofiqlashtirish va rivojlantirish kabi dolzarb muammolari kiradi.³⁷³

Mamlakatimizda 2018-yilda o'n mingga yaqin fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat olib bormoqda. Ularning har birida 10 ga yaqin komissiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. Tashkil etilgan komissiyalarning aksariyati mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitning mustahkamlanishida o'zining ulkan hissasini qo'shib kelmoqda.

Shunday komissiyalardan biri "Yarashtirish" komissiyasi bo'lib, ushbu komissiyaning asosiy maqsadi fuqarolarning oila va mahallalarda tinch-osoyshta, hamjihatlikda yashashiga ko'maklashish, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yosh avlodni sog'lom va ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy va ma'naviy qadryatlariga tayangan holda keng targ'ib etish orqali ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga ko'maklashishdan iborat³⁷⁴. Bu borada ishlar samaradorligi tashkil etilgan komissiya a'zolarining mamlakat qonunchiligini yaxshi bilishi, huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi muhim ahamyatga ega.

Fuqarolar yig'inlari qoshida faoliyat yuritayotgan Yarashtirish komissiyalari oilalar mustahkamligini ta'minlash bilan birgalikda jamiyatda hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, to'y-ma'rakalarni ixchamlashtirish kabi turli vazifalarni amalga oshirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- *oilaviy nizolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.*

Ma'lumki, oilalar ajrimlarining ko'payib ketishiga o'zaro nizolarning kelib chiqish sabablari yetarli darajada aniqlanmayotganligi, aniqlangan taqdirda ham ularga kerakli choralar qo'llanilmayotganligi asosiy sabablardan biri bo'lib kelmoqda. Albatta, tashkil etilgan "Yarashtirish" komissiyalarining ayni mana shunday vazifasini bajarishda birinchi navbatda ushbu o'zaro nizolarni qanday bartaraf etish emas, balki muammolar kelib chiqishini oldini olishdan iborat. Bu borada eng avvalo nafaqat yosh oilalar bilan qolaversa, turli nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan boshqa obyektiv va sub'yektiv omillarga aylanishi mumkin bo'lgan qarindoshlar (asosan ota-ona, qaynota-qaynona) bilan ham turli tushintirish ishlarini olib borish kerak. Bundan tashqari ma'naviy tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish hamda amaliy natijadorlikka erishish ham muhim masalalardan biridir.

³⁷³ Oila ensiklopediyasi, - T., Ilm-ziyo-zakovat nashriyoti, 2016 y, B. 178.

³⁷⁴ Yarashtirish komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi namunaviy Nizom, Vazirlar Mahkamasi – 274 sonli q. T.:2013.

- *yoshlarning oila qurishga ruhiy va ma'naviy jihatdan tayyorligi, erta nikohning oqibatlarini hamda oilaning muqaddasligi bo'yicha yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish.*

Bundan anglashilib turibdiki, ikki yoshni yangi hayotga ilk qadamlarini qo'yishlaridan avval, ularga oilaning "muqaddas" ekanligini, oilaga nafaqat jismoniy tomondan, balki ruhiy tomondan ham tayyorgarlik zarurligini, erta nikohning salbiy tomonlarini dunyoviy va diniy nuqtayi nazardan tushuntirish olib borish lozim. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa amaliy psixolog, malakali shifokorlar, hamda din ulamolari hamda otin oyilarni jalb qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Va albatta, bunday jarayonlarda nafaqat ikki yosh, balki ularning ota-onalarining qatnashishlari foydadan holi bo'lmaydi. Chunki bu borada yoshlarga ta'sirli choralarni qo'llash maqsadga muvofiq, ammo ota-onalar guvohligi, oilaning buzilishi har ikki oiladagi tarbiyaviy muhitning to'g'ri yo'lga qo'yilganligini ham bildiradi.

- *er-xotin, qaynona va kelin, yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida kelib chiqqan nizolarni bartaraf etish hamda buzilgan munosabatlarni tiklashga doir tushuntirish ishlari va amaliy choralar ko'rish;*

- *oilaviy nizolarni ijobiy hal etish, oilalarning ajralishiga yo'l qo'ymaslik.*

Komissiya faoliyati shunchaki tadbirbozlikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Qachonki, hamma chin yurakdan ish olib borar ekan, shundagina sezilarli natijaga erishishimiz mumkin. Buning uchun avvalo, komissiya ishida ta'sirchanlikni oshirib borish kerak. Shundagina "oila" so'zining mazmuni to'liq anglab yetilgan bo'lardi. O'z navbatida komissiya a'zolariga kerakli vakolatlar berilsa, ular shunchaki maslahat berish bilan cheklanib qolishmasdi. Oila buzilmasligi uchun albatta, oila qurish yoki to'ydan keyin uni mustahkamlashga harakat qilish maqsadga muvofiq emas. Bu masalani yosh avlodning ongiga uning o'smirlik davridan boshlab muntazam suhbat orqali singdirish lozim.

- *oilaviy nizolarga oid bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan ishlarni ko'rib chiqadi.*

Komissiya faoliyati tashkil etilganidan buyon m'lum bir ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Masalan, Namangan viloyati Uychi tumanining bir qator mahallalarida o'tkazilgan etnologik tadqiqotlar davomida bunga guvoh bo'ldik. Masalan, "Gulbog'" mahalla fuqarolar yig'inida 724 ta xonadonda 1302 ta oila bo'lib, ularda jami aholi soni 4782 nafar kishini (2018-yil sentabr oyigacha) tashkil etadi. Shulardan yosh oilalar soni – 54 ta. 2018-yil 1-sentabr holatiga ko'ra jami 18 ta oila vakillari ajrim masalasida ariza murojaat qilgan bo'lsa, shulardan 14 tasi "Yarashtirish" komissiyasi tomonidan o'zaro murosaga keltirildi. 4 ta oila esa tuman oila markaziga ajrim ishini ko'rish uchun yuborilgan.³⁷⁵

Bundan tashqari, "Soku" MFY da 362 ta xonadonda jami oilalar soni 795 ta bo'lib, ularda istiqomat qilayotgan fuqarolar soni esa 2711 kishini tashkil etadi. 2018-yil 1-sentabr holatiga ko'ra 5 ta oila vakillari ajrim masalasida ariza bilan

³⁷⁵ Dala ma'lumotlari. Uychi tumani Gulbog' MFY ning "Ajrim ishlari bo'yicha" tuman markaziy bo'limiga bergan hisoboti.

murojaat qilishgan bo'lsa, shulardan 3 tasi "Yarashtirish" komissiyasi tomonidan murosaga keltirildi. 2 tasi esa tuman oila markaziga ajrim ishini ko'rish uchun yuborilgan.³⁷⁶

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarga ko'ra ajrashish istagini bildirgan aksariyat oila vakillarining yosh chegarasi 30-40 yoshni tashkil qildi. Lekin 30 yoshdan kichik bo'lgan yosh oilalar ham yangi hayotga ko'nika olmasdan ajrashishlarga sabablar topishmoqda.

Ushbu o'tkazilgan tadqiqotdan kelib chiqib, oilalarning ajralib ketishiga asosiy sabablardan qaynona va kelin o'trasidagi oilaviy munosabatlarning keskinlashuvi, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar, kelinlarning yangi oilaviy sharoitlarga ko'nikolmasliklari, ularning besabrliliklari, yosh kelin-kuyovlarning bir-birlarini hali yaxshi bilmay turib nikoh qurishlari kabilarni keltirishimiz mumkin.³⁷⁷

Bugungi kunda nikohning uzoq davom etmayotganligining yana asosiy sabablardan biri oilada yoshlarga tarbiya berishda kamchiliklar ko'zga tashlanayotganligi, ularning ongiga nikoh muqaddas ekanligini yetarlicha singdirilmayotganligi, qolaversa, erta nikohlarning tuzilishi, yaqin-qarindoshlarning o'zaro quda-andachilik aloqalarini o'rnatishlari kabilalar ham "yaxshigina" o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Oilaning yetarlicha moddiy ta'minlanganligi, o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi, oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari, uy-joy bilan ta'minlanganlik, oila a'zolarining ma'naviy darajasi, qaynота va qaynonaning oilaning boshqarishga aralashuvi, qayni aka, qayni uka, qayni opa, qayni singillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroki albatta nikoh va oila munosabatlarida yetarlicha o'rin egallaydi.³⁷⁸

Yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida Uychi tumanidagi maktab o'qituvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomanini taqdim etamiz. (1-ilovalar). Ushbu so'rovnomada respondentlarga turli omillarning oiladagi shaxslararo munosabatlarida nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablari haqida bir necha xil savollar berildi. O'qituvchi respondentlar oilaviy nizolarning kelib chiqishida asosiy omil qilib, er-xotin fe'l atvorining o'zaro mos kelmasligini (23%) belgilashgan bo'lsa, keyingi o'rinlarda esa iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar (21%) va ota-onalarning aralashuvi (13%) deya ta'kidlashdi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'tkazilgan so'rovnomada bu omillar oila va nikoh munosabatlarida nizolarning kelib chiqishida asosiy rolni egallaydi.³⁷⁹

Shunday bo'lsada, yuqoridagi barcha muammolar o'z yechimini topmoqda. Samaradorlikning asosiy sabablaridan biri sifatida aynan mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibidagi "Yarashtirish" komissiyalari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarini bajarayotganliklarini ko'rishimiz mumkin.

³⁷⁶ Dala ma'lumotlari. Uychi tumani Soku MFY ning "Ajrim ishlari bo'yicha" tuman markaziy bo'limiga bergan hisoboti.

³⁷⁷ Uychi tumani Gulbog' MFY raisi Fatxulla Asadullayev 49 yoshda

³⁷⁸ Uychi tumani Gulzor MFY raisi Fazliddin Abdurahmatov 52 yoshda

³⁷⁹ Etnologik so'rovnoma, Namangan vil. Uychi tum. 23-maktab, 2018-y.

IX-XII АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁДА ТАРИХ ИЛМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

X-XII асрларда Ўзбекистонда илм-фан, адабиёт ривожланди, Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Термиз, Марв, Гурганж қаба шаҳарлар кенгайди, ривожланди. Бу даврда Абу Райхон Беруний (973-1048 йй.), Абу Али ибн Сино (980-1037-йй.), Абубакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий (X аср), Махмуд Кошғарий (тахминан 1029-1038- йиллар орасида туғилган) каби забардаст олимлар, Унсурий, Амьоқ Бухорий, Сўзаний Самарқандий, Нишомий Арузий Самарқандий, Юсуф Хос Хожиб Болосоғуний каби ажойиб шоирлар ва адиблар етишиб чиқди. Мамлакатимизда кўплаб масжид, мадраса, карвонсаройлар, баланд миноралар ва бошқа монументал бино ва иншоотлар барпо этилди. Ҳазора туманидаги (Бухоро) Деггарон масжиди, ўша атрофдаги Работи малик карвонсаройи (XI аср), Бухородаги масжиди калон (1127 йили қурилиб битказилган), Вобкентдаги минора (1198-1199 йиллари қурилган, Шохизинда ва Афросиёбдаги (Самарқанд) айрим бинолар, Хоразмдаги Бўрон қалъа, Ноиб қалъа ва Фахриддин Розий мақбараси (XII аср) шунингдек, ҳозирги Қирғизистон ва Туркманистон ўрамида қурилган бино ва иншоотлар шулар жумдасидандир.

Ўзбекистоннинг VII аср охиридан бошлаб, XII асргача бўлган тарихи кўпроқ ва деярли араб тилидаги ёзма манбаларда ёритилган ва бу анъана кейинча ҳам Темурийлар давригача давом этган. Бу даврда юртимиз аввал араб хадиғалиги таркибида, сўнгра Сомонийлар, Қорахонийлар, Ғазнавийлар, Хоразмшоҳлар давлатларини бошдан кечирди. Араб тилида ватанимиз тарихига оид ёзма манбаларни муаллифларнинг келиб чиқишига қараб, икки гуруҳга ажратиш мумкин.

Биринчи гуруҳ – араб тилида ижод этган юртимиздан чиққан тарихчи ва олимлар. Булар Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Абу Райхон Беруний, Махмуд Кошғарий, Махмуд Замахшарий, Абу Саид Самъоний, Шаҳобуддин Муҳаммад Нисовий ва бошқалардир. Ушбу муаррихлар асарларида она ватанга муҳаббат алоҳида намоён бўлади, бу айниқса Абу Райхон Берунийнинг “Осор ул-боқия” асарида халқимиз қадимги маданияти тўғрисидаги маълумотларида алоҳида кўзга ташланади.

Иккинчи гуруҳ – хорижлик олимлардан иборат бўлиб, улар яратган араб тилидаги асарларида юртимиз тарихи маданияти, сиёсий-ижтимоий ҳаёти ёритилган. Ушбу муаллифларнинг энг йириклари Абулҳасан Мадоний (ваф. 840 й.), Абулаббос ал-Яъқубий (IX аср), Абубакр ал-Балазурий, Ибн Хурдодбех (820-тахм.913), Абу Жаъфар Табарий (839-923 й.), Исҳоқ ал-Истаҳрий (850-934 й.) ва бошқалардир.

Мазкур муаррихлар юртимиз ҳудудини умуммусулмон олами, араб халиғалиги бир қисми сифатида ёритганлар. Улар асосан араб халиғаликни икки қисмга, яъни араб ва аъжам – ғайри арабга ажратиб ўрганар эдилар.

Араблар томонидан юртимизга берилган ном Мовароуннахр – дарёнинг у ёғидаги мамлакат мазмунини билдирувчи жуғрофий ном бизгача етиб келган бўлиб, асосан араб муаллифлари асарларида истеъфода этилади.

Қуйида араб тилида битилган энг муҳим манбалар ва уларнинг муаллифлари ҳақида ихчам маълумот келтирилади. (Ушбу маълумотлардан маърузачи ўз хоҳишига биноан танлаб ана ўшалардан фойдаланиши мумкин.)

“Китоб ат-тарих”. Ушбу араб тилида битилган қимматли асар муаллифи буюк математик Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий(VIII аср охири – IX аср биринчи ярми)дир. Биз уни биринчи Ўрта Осиёлик тарихчи олим деб аташимиз мумкин. Чунки ал-Хоразмий биринчилардан бўлиб ўзининг “Китоб ат-тарих” (“Тарих китоби”) асарини ёзган. Аммо ушбу асар бизгача мукамал ҳолида етиб келган бўлмасада, ундан олинган парчаларни сўнгги давр тарихчилари Ибн ан-Надим, ал-Масъудий, ат-Табарий, Ҳамза ал-Исфаҳонийлар ўз асарларида келтирадilar. Бу китобни Абу Райҳон Беруний ўзининг “Осор ул-боқия” асарида ҳам эслатади. Мазкур асар халифалик тарихига оид маълумотлардан иборат бўлган³⁸⁰.

“Тарихи ар-русул ва-л-мулук”. Бу асар автори йирик қомусий олим Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жарир ат-Табарий (836-923 й.)дир. Табарий даврининг кенг маълумотли кишиларидан бўлиб, ўндан ортиқ китоб ёзиб қолдирган. Мусулмон қонуншунослари орасида мавжуд бўлган ихтилофлар баён этилган “Китоб ихтилоф ал-фуқаҳо” (“Фақиҳлар ўртасидаги ихтилофлар ҳақида китоб”), “Қуръони карим” оятлари шарҳига бағишланган ўттиз (бошқа маълумотларга қараганда қирк) жилддан иборат “Жомеъ ал-баён ат-таъвил ал-Қуръон” (“Қуръон” сўзлари маъносининг кенг баёни мажмуаси”) ва ниҳоят, “Тарихи ар-русул ва-л-мулук” (“Пайғамбарлар ва подшоҳлар тарихи”) ана шулар жумласидандир. Тарих илми учун энг муҳими сўнгги асар ҳисобланади.

“Тарихи ар-русул ва-л-мулук” ёки қисқа номи “Тарихи Табарий” асари умумий тарих типига ёзилган китоб. Лекин мукамаллиги ва далилий материалларга бойлиги билан бошқа асарлардан тамоман алоҳида ажралиб туради.

Асарда олимнинг “яратилиши”дан то 912-913 йилларга қадар Арабистон, Рум (Кичик Осиё), Эрон ва Араб халифалиги асоратига тушиб қолган мамлакатларда, шунингдек Ўзбекистон ҳудудида бўлиб ўтган ижтимоий-сиёсий воқеалар ҳикоя қилинади. Воқеалар йилма-йил, хронологик тарзда баён этилган. Бу эса асардан фойдаланишда кўп жиҳатдан қулайлик яратган. Табарий мазкур асарини яратишда яҳудий ва христианларнинг нақл-ривоятлари, Сосонийлар (224-651 й.) солномаси “Хвадай намак” (“Подшоҳнома”), ал-Воқидийнинг (747-823 й.) “Китоб ул-мағозий” (“Урушлар ҳақида китоб”), ал-Мадоинийнинг “Тарихи хулафо” (“Халифалар тарихи”), Ибн Тайфурнинг (819-893 й.) “Тарихи Бағдод” (“Бағдод тарихи”) каби асарлардан кенг фойдаланган. Лекин у кўп ҳолларда “Ҳадис илми”

³⁸⁰ Беруний. Танланган асарлар. 1-том. “Осор ул-боқия” – Т.: Фан, 1968. Таржимон А.Расулов.

принципига кўра, айниқса асарнинг қадимий тарихига бағишланган қисмларида бошқа манбалардан олинган далил ва маълумотларни айнан келтирган.

“Тарихи ар-русул ва-л-мулук” мусулмон мамлакатлари, шунингдек Мовароуннаҳрнинг VIII-IX аср тарихи бўйича асосий ва энг мўътабар манбалардан бири бўлиб, тарих илмининг кейинги тараққиётига катта таъсир ўтказган. Мазкур асарнинг арабча икки хил (муфассал ва қисқартирилган) таҳрири бўлган, лекин бизгача унинг фақат қисқартирилган таҳрири етиб келган ва асар матни голландиялик шарқшунос М.Я. де Гуге тарафидан 1879-1901 йиллари 15 жилдда нашр этилган.

Табарий асарининг форсий таҳрири ҳам бор бўлиб, у Сомоний Абу Солиҳ Мансур ибн Нухнинг (961-976 й.) вазири, атоқли илм-фан ҳомийси ал-Балъамий (ваф. 974 й.) томонидан 963 йили ёзилган.

Балъамий таҳрири шунчаки оддий таржима бўлиб қолмай, балки асарнинг қайта ишланган ва айрим ҳолларда янги фактлар билан бойитилганидир.

Унда, биринчидан, қисқартирилган таҳририда учрамайдиган маълумотлар мавжуд бўлиб, уларни Баоъамий Табарий асарининг тўла нусхасидан олган.

Иккинчидан, Балъамий таҳрири бошқа манбалар асосида янги маълумотлар билан тўлатилган.

Табарийнинг мазкур асаридан айрим парчалар бир неча Европа тилларига таржима қилинган. Унинг тўла французча таржимаси Г.Зотенберг томонидан 1867-1874 йиллари Парижда нашр этилган.

Асарнинг форсий ва туркий таржималари ҳам бўлиб, уларнинг мўътабар қўлёзма нусхалари Санкт-Петербург ва Тошкент кутубхоналарида мавжуд. Баоъамий таҳрирининг матни тўла тарзда Лакхнав, Канпурда (1874, 1896, 1916 й.) ва Техронда (1962, 1967 й.) чоп қилинган³⁸¹.

“Осор ул-боқия”. Ушбу беназир асар ижодкори қомусий олим Абу Райҳон Берунийдир (973-1048). У табиий ва ижтимоий фанлар бўйича 150 дан ортиқ асарлар яратиб, асосан табиий фанлар соҳасида улкан кашфиётларга ва муваффақиятларга эришган бўлса-да, ўзининг ижтимоий фан, айниқса тарих тўғрисидаги чуқур билимларини “Осор ул-боқия ан ал-курун ал-ҳолия” (“Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”) ҳамда “Ҳиндистон” ёки “Китаб таҳқиқ молил-Ҳинд мин манқула фи-л-ақл ва-л-марзума” (“Ҳиндларнинг ақлга сиғадиган ва сиғмайдиган таълимотларининг тадқиқ этиш”) ва “Китоб ул-мусаммара фи ахбори Хоразм” (“Хоразм ҳақидаги ахборотлар ҳақида суҳбатлар”) номли асарлари билан тарих ва маданият тарихига катта ҳисса қўшди.

Айниқса, бўлғуси тарихчилар учун “Осор ул-боқия” ҳар томонлама намуна бўладиган қимматли манбадир. Асар 1000 йили Журжон шаҳрида ёзиб тамомланган. Унда қадимги Ўрта Осиё, Юнон, Эрон, Ҳинд, насроний, яхудий ва бошқа халқларнинг исломиятгача бўлган тарихи, урф-одатлари,

³⁸¹ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. - Т.: 2002.

байрамлари ва асосан вақтни ҳисоблаш таквим-хронология тўғрисида мукамал маълумот беради. Ушбу асарнинг XIV асрда яратилган мўътабар кўлёмасига нодир расмоар ишланган ва бу ноёб санъат обидаси Шотландия пойтахти Эдинбург шаҳри Университети кутубхонасида 161 рақам остида сақланмоқда.

“Осор ул-боқия”нинг русча ва ўзбекча таржималари Тошкентда 1957 ва 1968 йиллари чоп этилди. Китоб Европада “Хронология” номи билан машҳур. Биз асар тўғрисида артиқча маълумотларни келтирмадик, чунки бизнинг вазифамиз қимматли ёзма манбалар тўғрисида умумий тушунча, билим ва йўналиш беришдир. Ушбу китоб тўғрисида талабалар мустақил иш жараёнида ёки лаборатория иши жараёнида чуқурроқ ва кенг билимга эга бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Берунийнинг Хоразм тарихига оид асари юқорида зикр этилган номдан ташқари, яна “Тарихи Хоразм” ва “Машоҳири Хоразм” (“Хоразмнинг машҳур кишилари”) номлари билан ҳам машҳур бўлиб, унинг айрим лавҳалари – парчалари Абулфазл Байҳақийнинг 1056 йили ёзиб тамомланган “Тарихи Байҳақ” ва Ёқут Ҳамавийнинг “Мўъжам ул-булдон” асарларида сақланиб қолган.

Берунийнинг “Китоб фи ахборот ал-мубаййизот вал-каромита” (“Оқ кийимлилар ва карматларнинг хабарлари ҳақида китоб”) асари ҳам тарих илми учун алоҳида қийматга эга. Унда ўша замонларда Ўрта Осиёда кенг тарқалган ижтимоий ҳаракат – карматлар ҳаракати ҳақида диққатга сазовор маълумотлар бор.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Берунийнинг асарларида тарих илми учун маълумотлар жуда кўп учрайди, аммо улардан ташқари номи зикр этилган асари унинг катта тарихчи олим, этнограф бўлганлигини кўрсатади.

*Лутфуллаев З. –
ЎЗМУ Тарих факультети 2-курс магистранти*

XVI-XIX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИДА ЎРТА ОСИЁ ТАРИХШУНОСЛИГИ

Шарқ тилларини ўқитиш ва уни ўрганиш яхши йўлга қўйилиши натижасида тез вақт ичида кўплаб шарқшунос мутахассислар етишиб чиқди. Бу соҳада Петербург университетининг шарқшунослик факультети, айниқса, самарали иш олиб борди. XIX асрнинг 30 йилларидаёқ бу университет Ўрта Осиёни ҳар томонлама ўрганиш соҳасида ўзларининг катта ва ўлмас хиссаларини қўшган Н.В.Хаников, В.В.Григорьев, В.В. Вельяминов–Зернов ва кейинроқ эса Н.И.Веселовский, В.В.Бартольд³⁸² каби машҳур ва етук шарқшуносларни тарбиялаб чиқарди.

³⁸² Гуламов Х. История дипломатического отношений государств Средней Азии с Россией (XVIII- первая половина XIX вв). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук.–Т.: 2006; Аллаева Н. Взаимосвязи Хивинского ханства и Ираном в XVI-XVIII вв. Автореферат на соискание ученой степени кандидата исторических наук. –Т.: 2007; Маннонов Б.Хоразм

1846 йил 15 декабрда Петербургда “Археология–нумизматика жамияти” уюштирилиб, 1866 йилдан бошлаб “Россия археология жамияти” деб атала бошлайди. 1851 йилда Россия археология жамияти қошида шарқ, ғарб ва бошқа бўлимлари ташкил қилинди. Шарқ бўлимида П.С. Савельев, Демезон, Н.В. Хаников, В.В. Григорьев, И.Н. Березин, В.В. Вельяминов – Зернов, В.Г. Тузенгаузен каби шарқшунослар иш олиб бордилар. Улар жуда кўп қадимги тарихий ёдгороликларни суратга оладилар, Ўрта Осиё тарихига доир жуда бой археологик ва тарихий материалларни тўплайдилар. Тўпланган материаллар ва бу материаллар асосида баён қилинган фикр ва мулоҳазалар жамиятнинг шарқ бўлими ва бошқа органларида нашр қилина бошлайди.

XIX асрнинг биринчи чорагида Хива хонлиги билан Русь давлати ўртасидаги муносабатлар ва Хива хонлигининг шу даврдаги аҳволини ўрганишда Н.Муравьевнинг “Туркистон ва Хивага саёҳат” номли асари диққатга сазовордир. Капитан Н.Муравьев Кавказ бош қўмондонининг топшириғи билан музокаралар олиб бориш учун Хивага келади. Шу шарқшунос олим бўлмай, балки, оддий, лекин маълумотли бир рус офицери эди. бу асар авторнинг Туркманистон ерларида ва Хива хонлигидаги рус асирларидан олган маълумотлари асосида ёзилган.

Н.Муравьевнинг тарихга қараши табиий ҳолда чегараланган бўлиб, воқеаларга ўз нуқтаи назаридан баҳо беради, халқнинг ҳақиқий аҳволи, қобилияти, тилак-орзуларига бепарволик билан қарайди. шунинг учун бу асар бир хотиранома бўлиб, тарихий текширишга кирмайди. Аммо бу асар Хива хонлигининг айниқса XIX аср бошларидаги умумий аҳволи ҳамда Россия билан Хива хонлиги ўртасидаги дипломатик ва савдо муносабатларини ўрганишда катта аҳамиятга эга.

Хива хонлиги тарихига доир маълумотлардан иборат иккинчи асар Г.И.Данилевскийнинг «Хива хонлигининг тасвири» номли иши ҳисобланади. 1842 йилда Г.И.Данилевский бошчилигида Россиядан Хива хонлигига элчилар келади. У хонликда ўз кўзи билан кўрганлари ва бошқалардан олган маълумотлари асосида ўзининг асарини ёзади.

XIX асрнинг биринчи ярмида Хива хонлигининг ҳолати, унинг Бухоро ва Россия билан бўлган муносабатларини ўрганишда Я.В. Ханиковнинг (“Орол денгизи ва Хива хонлиги ҳамда улар атрофи харитасига доир тушунтириш хати”) деган асари алоҳида қимматга эга. Бу асарда жуда бой географик маълумотлар билан бирга, Россия билан Бухоро ва Хива хонликларининг XIX асрнинг биринчи ярмида олиб борилган савдо ва дипломатик муносабатлари ҳақида жуда мукамал маълумотлар берилади. Ханиковнинг бу асари Хива хонлигининг ўша вақтдаги ички аҳволи ҳамда Ўрта Осиё хонликлари билан Россия ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқаларни ўрганишда энг муҳим манбалардан бири ҳисобланади. Бу асарни ўша даврдаги Хива хонлигини ўрганиш юзасидан рус шарқшунослигининг

тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // Шарқшунослик. 1997. №8. –Б. 159; Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. (1825-1842). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Т.: 2003.

олиб борган ишларининг якуни деса бўлади. Унда Хиванинг ҳар жиҳатдан Россияга боғланганлиги сезилиб туради³⁸³.

Шундай қилиб, XIX асрнинг биринчи ярмида Россияда Ўрта Осиё тарихини ўрганиш асосан уч йўл билан олиб борилади, яъни:

1. Ўрта Осиё хонликларининг аҳволи ва унинг тарихи, бу ерга келган элчилар, саёҳатчилар, экспедициялар ҳамда Ўрта Осиё савдогарларининг материаллари ва маълумотлари асосида ўрганила бошлайди. Н.Муравьев, Г.И.Данилевскийнинг Хива хонлиги, Н.В.Ханиковнинг Бухоро амирлиги, П.И.Небольсиннинг Қўқон хонлиги ҳақидаги асарлари худди шу асосда ёзилгандир.

2. Ўрта Осиёнинг қадимги, ўрта асрлар тарихи ва бутун Ўрта Осиё тарихига оид манбаларни тўплаш, уларни таржима қилиб нашрга тайёрлаш йўли билан иш олиб борадилар. Шунинг натижасида шарқшуносларнинг ташаббуси билан ўзбек, тожик, форс, хитой тилларида ёзилган кўпгина манбалар юзага келди. Абулғозининг асари, “Муқимхон тарихи”, «Абдуллонома», “Бобурнома” каби муҳим қўлёзмаларнинг таржимасини нашр қилиниши ва рус хитойшунос олими Н.Я.Бичурин томонидан тўпланиб нашр қилинган. Ўрта Осиёнинг қадимги давр тарихини ёритиб берадиган муҳим маълумотлар шулар жумласидандир.

3. Давр шарқшунослиги йўналишидаги асосий масала Ўрта Осиёнинг тарихи юзасидан жиддий илмий-текшириш ишлари олиб боришдан иборат бўлди. Рус шарқшунослари П.С.Савельев, В.В. Григорьевларнинг Россия ва Болтиқ бўйи мамлакатларида топилган Ўрта Осиё пуллари ҳамда буюмлари коллекцияси устида олиб борган илмий-текшириш ишлари диққатга сазовордир. Улар илмий-текшириш ишларини олиб бориш натижасида VII-XI асрларда Россия ерлари билан Ўрта Осиёдаги давлат ўртасида қизгин савдо алоқалари олиб борилганлигини ва бу савдо йўллари аниқлаб бердилар. Бу XIX асрнинг биринчи ярмидаги рус шарқшунослигининг тадқиқотлари тарихчилик учун ҳам янгилик эди.

Шарқшунос В.В.Григорьев энг қадимги, яъни ёзма манбалар пайдо бўлган вақтларда Ўрта Осиёда яшаган халқлар, уларнинг ҳаёти, машғулотлари, маданияти қандай эди, деган саволга муфассалроқ жавоб бериш мақсадида грек, рим, эрон, ҳинд, хитой ва бошқа манбалар асосида иш олиб боради ва 1871 йилда ўзининг “О скифском народе саках” (“Скиф халқлари саклар ҳақида”) номли асарини ёзади.

Бу асарда Ўрта Осиёда яшаган қадимги халқлар, шу жумладан саклар, уларнинг яшаган жойлари, иқтисодий ва маданий ҳаёти каби масалалар ёритиб берилади. В.В.Григорьев сак форсча сўз бўлиб, Ўрта Осиёдаги халқларнинг маълум бир қисмининг умумий номи, аввало бу ном маълум бир халқнинг номини билдирган бўлса, кейинча, умумий номга айланиб кетади, дейди. Бу асарда саклар уларнинг ҳаёти, яшаган жойлари ва

³⁸³ Аллаева Н. Взаимосвязи Хивинского ханства и Ираном в XVI-XVIII вв. Автореферат на соискание ученой степени кандидата исторических наук. –Т.: 2007.

уларнинг ўрганиш билимининг ривожига ҳақида фан учун муҳим ҳулосаларга келинди.

В.В.Григорьев “Скиф халқлари саклар ҳақида”ги монографик асарларидан кейин грек, рим манбалари асосида македониялик Искандар Зулқарнайннинг Ўрта Осиёга ҳужуми, Ўрта Осиёнинг ички, ташқи ва сиёсий аҳволи, сак ва бошқа қавмларнинг македониялик босқинчиларга қарши олиб борган курашларини ўз ичига олган “Поход Александра Великого в западный Туркестан, Свод и рассмотрение древних известий об этом предмете В.В.Григорьев” (1881) номли иккинчи асарини ёзади.

В.В.Григорьевнинг бу асарида Ўрта Осиёда яшовчи энг қадимги мамлакатлар ва халқлар –Бактрия, Суғд, Хоразм, Гиркания, саклар, уларнинг ижтимоий тузуми, Искандар Зулқарнайннинг Ўрта Осиёга ҳужуми ва бошқа мамлакатларга доир жуда бой қадимги манбалардаги маълумотларни тўплаб, қадимги тарихни асосан сиёсий воқеалар ҳолида бўлса-да, бир даража изчиллик билан ёритиб беради.

В.В.Григорьев македониялик Искандарнинг ҳужумидан кейинги Ўрта Осиёдаги сиёсий ва маданий ҳаётни ёритишга бағишлаб “Греко-Бактрийское царство” (“Грек-Бактир подшолиги”) номли учинчи монографик асарини ёзди. Бу асар грек, рум манбалари, рус ва Европа адабиётлари асосида ёзилган эди. Унда Искандар Зулқарнайн Ўрта Осиё ерларини, шу жумладан Бактрия давлатини босиб олганидан кейинги ички ва ташқи аҳвол Грек-Бактрия давлатининг пайдо бўлиши ва унинг охирида емирилиши, бу ерда греклар ҳукмронлигининг тугатилиши, Парфия ва Бактрия давлатлари ҳақидаги тарихий билимларининг ривожланиб бориши каби масалалар ёритилди³⁸⁴.

Н.И.Веселовский тарихий манбалар ва бошқа шарқшуносларнинг тўплаган материаллари асосида 1877 йилда биринчи марта Хива хонлигининг системали тарихий-географик очеркини² ёзди. Асарда Хоразмнинг қадимги тарихидан бошлар то Хива хонлиги чор Россиясининг ҳукмронлиги ўрнатилгунга қадар бўлган давр тарихий-географик маълумотларни тўплаб, системага солинди. Н.И.Веселовскийнинг бу асари XIX асрдаги шарқшуносликнинг Ўрта Осиё тарихини ўрганиш соҳасидаги катта ютуғи эди. Муаллифнинг асари асосан саёҳатчиларнинг таърифига асосланиб ёзилган.

Хусусан Қ.Мунировнинг Мунис, Огаҳий, Баёний тарихий асарларининг умумий таҳлилига бағишланган монографияси эълон қилинди³.

Мустақиллик йилларида Ҳ.Ғуломов, Н.Аллаева, Б.Маннонов, О.Муталовлар Хива хонлигининг Россия, Эрон билан дипломатик алоқалари, ўзаро муносабатларига доир илмий тадқиқотлар олиб борилди.

О.Масалиева тадқиқотларида³ хорижий тарихшуносликда Хива хонлиги тарихи ўрганилиши каби масалалар тадқиқ этади.

³⁸⁴ Маннонов Б.Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги ташқи сиёсати // Шарқшунослик. 1997. №8. –Б. 159.

² Н.И.Веселовский. “Очерки историко-географических сведений о Хивинском ханстве с древнейших времен до настоящего”. СПб., 1877.

³ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Т.: 2002.

З.Саидбобоев тадқиқотларида¹ Гарбий Европада XIX асрда Ўрта Осиё ҳақидаги тарихий-картографик маълумотларни ўзида акс эттирган кўплаб манбалар ҳақида маълумот беради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, мустақиллик йилларида тарих фанининг бошқа соҳаларида бўлганидек, бирламчи кўлёзма манбаларни ўрганиш, жумладан, Хива солномаларига мутахассислар эътиборини жалб қилиш масаласида ҳам маълум тадбирлар амалга оширилди.

*Мамаджанов А. –
Ўз МУ 2 курс магистранти*

ХОРАЗМ АРХЕОЛОГИЯ-ЭТНОГРАФИЯ ЭКСПЕДИЦИЯСИ ТАРИХИГА ДОИР

Хоразм ва унинг маданиятини ўрганишда 1937-йилда ташкил этилган ва деярли 60 йил муттасил Сергей Павлович Толстов раҳбарлик қилган Хоразм археология экспедициясининг ролини сўз билан ифодалаш мушкул. Унда қатнашган ходимларнинг тиришқоқлиги ва ташаббускорлиги бу экспедицияни тарих фанининг йирик илмий гуруҳга айлантирди.³⁸⁵

Хоразм археология-этнография экспедицияси иш олиб борган давр мобайнидаги фаолияти шу қадар кенг кўламли нашрларда ўз аксини топдики, уларнинг тўла рўйхатини тузишнинг ўзи анча-мунча вақт олади. Бу нашрлар бутун бир кутубхонани ташкил қилган бўлар эди.

Хозирга қадар Хоразм археология-этнография экспедицияси “Асарлар”ининг 16 жилди, Хоразм археология-этнография экспедицияси “Материаллар” ининг 10 та жузи, 18 та тематик тўплами чоп этилган. Шунингдек, ХАЭЭ ходимларининг мақолалари “Вестник древней истории”, “Вопросы истории”, “Советская археология”, “Советская этнография”, “Этнографическое обозрение” ва бошқа журналларда босилиб чиққан. Гуруҳларнинг ишлари ҳақидаги ҳисоботлар КСИИМК (Моддий маданият тарихи институтининг қисқа ахбороти) ҳамда КСИЭ (Этнография институтининг қисқса ахбороти) нинг йиллик нашрларида, “Археологические открытия” ва бошқа нашрларда бериб борилди.³⁸⁶

Экспедиция ходимларининг мақолалари кўплаб хорижий журнал ва тўпламларда нашр қилинган. Уларнинг Encyklopedia (Колумбия университети нашри) ва “History of civiliazations of Central Asia” (ЮНЕСКО

³ Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Кўкон хонликлари тарихи. Тарих фанлар номзодлиги.дисс.-Т.: 1999.

¹ Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI-XIX асрлар).-Т., 2004; уша муаллиф: Туркистонни географик ва картографик урганилиши тарихидан. Восток-Запад. Материалы научной конференции. –Т.: 2006. – Б.158-161.

³⁸⁵ Аржанцева И.А Имперская археология и археологические империи: советская Хорезмская археологическая экспедиция // Этнографическое обозрение. 2013. -С.65-87.

³⁸⁶ Донёров А. Хоразм археология-этнография экспедитсияси фаолияти тарихга доир// Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлари ва ривожланиш муаммолари. И қисм. –Т.: 2006. –Б. 100-119.

нашри) каби фаннинг hozirgi ривожини акс эттирувчи нуфузли нашрлардаги иштирокини қайд этиш жоиз.

Хоразм археология-этнография экспедициясининг 60 йилдан зиёд фаолияти натижалари жамулжам бўлган юқорида қайд этилган нашрлар бизнинг тадқиқот манбаимиз ҳисобланади. Бунда уларнинг мазкур иш мавзусига мувофиқлиги назарда тутилган. Тадқиқотчи А.Х. Донёров ушбу нашрлардаги асарлар шартли равишда қуйдаги гуруҳларга бўлинган.

Биринчи гуруҳ – Хоразмни илмий жихатдан ўрганишга асос солган Сергей Толстовнинг фундаментал ишлари.

Иккинчи ва асосий гуруҳ – Хоразм археология-этнография экспедицияси “Асарлар”и. Мазкур гуруҳдаги манбаларда Хоразм археологий-этнография экспедициясининг фаолияти тўғрисидаги асосий маълумотлар акс этган.

Учинчи гуруҳга юқорида айтиб ўтилган экспедиция ходимларининг монографик тадқиқотлари мансубдир.

Тўплам ва даврий нашрларда, журналларда босиб чиқарилган айрим мақолалар, “Археологические открытия” йиллик тўпламидаги материаллар **тўртинчи гуруҳни** ташкил этади.³⁸⁷

Тадқиқ этилган барча асарлар экспедиция изланишларининг кенг кўламлилигини акс эттириб, ибтидоий даврдан hozirgi кун муаммоларигача бўлган даврни ўз ичига олган.

Асарлар тахлилига ўтар эканмиз, шуни қайд этиш лозимки, С.П.Толстовнинг “Древний Хорезм” (Қадимги Хоразм), “По следам древних цивилизаций” (Қадимги маданият излари бўйлаб), “По древним дельтам Окса и Яксарта”³⁸⁸ (Окс ва Яксартнинг қадимий дельталари бўйлаб) сингари фундаментал монографияларида кўтарилган бир қанча масалалар бевосита Хоразмнинг ўзигагина тааллуқли бўлган муаммолар билан чегараланиб қолмайди. Тадқиқотнинг асосий мавзулари – Қадимги Хоразм тарихини даврларга бўлиш ҳамда ижтимоий тузуми, хўжалиги ва маданияти асосларини қайта тиклаш – ушбу нашрларда нафақат Ўрта Осиё халқлари тарихи, балки Шарқ маданиятининг ривожланиши фонида, шунингдек жаҳон тарихининг янада кенгроқ аспектида кўриб чиқилган.

С.П. Толстовнинг ўзи монографияларига ёзган сўз бошисида уларни “Хоразм экспедицияси материалларини умумлаштиришга йўналиш” деб атади.³⁸⁹ Аммо, муаллиф келтирган дала материаллари, бизнингча, бир бутун тарихий манзаранинг муфассал тасвири бўлиб хизмат қилади.

Муаллиф ўз асарларида кенг кўламдаги археологик, этнографик, антропологик, лингвистик ва бошқа манбаларга асосланади. Масалага ҳар томонлама ёндошиш С.П. Толстов тадқиқотларининг асосий хусусиятларидан бири ҳисобланади.

³⁸⁷ Донёров А. Хоразм археология-этнография экспедиция Ўзбекистон этнография фанида. Ўқув кўлланма. – Т.: 2007. – Б. 6-7.

³⁸⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948. 435 с.; Ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. М. -Л.; 1948. –С. 328; Ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта. -М.; 1962. –С.322.

³⁸⁹ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М. -Л.; 1948. -С. 3.

Суратлар, хариталар, чизмалар, ажойиб дала матерьялларига бой ушбу китоблар йиллар ўтиши билан нафақат ўз илмий ахамиятини йўқотмади, балки хануз Хоразм тарихи бўйича қимматли манба бўлиб қолмоқда.

С.П. Толстов асарлари ўзининг баён услуби билан ҳам ажралиб туради: жалб этилган манбалар ва ўрганилаётган муаммоларнинг мураккаблиги баённинг раvon ва ифодалилигига монелик қилмайди. С.П. Толстов монографияларида илмий асослар ва назарий мулоҳазалар билан бир қаторда шахсий дахлдорлик ва қизиқувчанлик бўртиб туради. Қолаверса, бу рта Осиё археология фанининг шакилланиш тарихида қимматли далил хисобланади.

Қимматлигига кўра бошқаларидан қолишмайдиган манбаларнинг навбатдаги гуруҳи “Материалы ХАЭЭ”да чоп этилган кўплаб ва хилма-хил материаллардир. Аммо уларни якуний хужжатлар деб бўлмайди. Булар кўпроқ экспедиция гуруҳларининг муайян давр мобайнидаги ёки маълум объектдаги илмий ҳисоботлардир. Зеро, юқорида таъкидланганидек, айрим йилларда экспедиция таркибида ҳар хил объектларда, турли йўналишда саккизтагача мустақил гуруҳлар иш олиб борар эди. Уларнинг материалларини асар муаллифлари токи улар тўла англаниб ва тўла-тўқис илмий муомалага киритилгунгача узоқ йиллар ишлаб чиқиш билан машғул бўлишади.

Қайд этилганидек, Хоразм археология-этнография экспедициясининг дастлабки ўн йилликда олиб борган ишлари якуни С.П. Толстов монографияларида мужассамдир. Дастлабки ҳисоботлар илк бор даврий нашрларда, “Известия АН СССР”да (фалсафа ва тарих серияси), Моддий маданият институти нашрларида (дарвоқе, экспедиция шу институт раҳнамолигида шакилланган) – унинг қисқа ахборотларида (КСИИМК), кейин эса Этнография институтида (“Асарлар” ва қисқа ахборотлар – КСИЭ) да чоп этилган.³⁹⁰

Хулоса қилиб айтганда, Хоразм археология-этнография экспедицияси олиб борган тадқиқотлар ва шу тадқиқотларга оид асарлар экспедициянинг узоқ мудатли фаолиятига қарамасдан, йиллар ўтса-да, ўз ахамиятини йўқотмаган. Тадқиқот объекти хисобланган археологик ва этнографик материяллар тобора тўлдириб бориладиган, лекин қайта тикланмайдиган материяллардир. Ва ҳар қандай янги кашфиёт ҳам илгари олинган ахборотни фақат бойитиши ёки аниқлаштириши мумкин.

*Маишрабоев Ж. –
ЖДПИ Тарих факультети талабаси*

“БОБУРНОМА” – БУЮК ҚОМУСИЙ АСАР

Ҳар бир инсон айнан тарихий хотира орқали ўз тарихини билади, ундан сабоқ олади. Ўтганларни хотирлаш, тирикларни кадрлаш ҳам тарихий хотира

³⁹⁰ Донёров А. Хоразм археология-этнография экспедицияси фаолияти тарихга доир// Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлари ва ривожланиш муаммолари. I қисм. –Т.: 2006. –Б. 100-119.

туйғуси орқали амалга ошади. Айниқса, ҳаққоний тарих инсон иродасини тоблайти, руҳини чиниктиради.

“Тарихий хотира – бу умр мазмунини, авлодлар ўртасидаги ворислик туйғусини, уларнинг бир-бирига дахлдор эканини, ҳаётнинг бамисоли узвий ҳалқалар каби кетма-кет боғланишини англаш, тарихдан хулоса чиқариб, бугунги кун учун тўғри йўл танлаш, ота-боболаримизнинг руҳи покларига ҳурмат билан қараш, миллий қадрият ва анъаналаримизни топташга йўл қўймаслик, уларни кўз қорачиғидек асраш демакдир”.¹

Соҳибқирон Амир Темур сулоласининг Ҳиндистондаги буюк давомчиси бўлмиш Бобурийлар салтанати ҳақида гап кетганда, шак-шубҳасиз унинг асосчиси, ватандошимиз, моҳир лашкарбоши, доно давлат арбоби, истеъдодли шоир, адиб, олим Заҳириддин Муҳаммад Бобурни кўз олдимизга келтираемиз.

Дарҳақиқат, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг сермазмун ва баракали ижоди билан жаҳон маданияти хазинасига улкан ҳисса қўшган буюк сиймолардан биридир. Бобур Мирзо ва унинг авлодлари яратган меъморий обидалар бугунги кунгача ўз кўркини сақлаб турибди.² Буюк аждодимизнинг “Бобурнома” энциклопедик асари эса Темурийлар даври тарихи, адабиёти ва ҳаётини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилмоқда.

“Бобурнома” Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг номини жаҳонга танитган қомусий шоҳ асардир. У нафақат ўзбек адабиётида, балки жаҳон адабиёти тарихида ҳам муносиб ўрин эгаллаб келмоқда. “Бобурнома” тарихий-бадий асар сифатида туркий халқлар насрининг илк намуналаридан бири ҳисобланади. Бу асар нодир тарихий манба бўлиш билан бирга, илм-фаннинг турли соҳаларини қамраб олувчи қомусий китоб ҳамдир.³

Бобурнинг хотираларидан ташкил топган ва темурийлар давлатининг таназзулга юз тутган даврини ўзида ифодалаган, қомусий характердаги “Бобурнома” китоби илмий-тарихий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга бўлиб, унда тарих, география, ботаника ва фаннинг бошқа соҳаларига тааллуқли бўлган қимматли маълумотлар бор. Ушбу асарда Бобур яшаб ижод қилган даврнинг сиёсий-ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаёти бадий шаклда ўзининг ёрқин ифодасини топган ҳамда воқеалар қизиқарли, раво ва содда тилда баён қилинган. “Бобурнома” ёзувчи хотиралари, эсдаликларидан ташкил топган.

Бобур ана шу солномасида ўзи бўлган жойларнинг, жумладан Ҳиндистоннинг табиий манзараларини ҳам, маҳаллий аҳолининг кийиниши ва урф-одатларини ҳам, ҳайвонлари, қушлари ҳамда уларнинг қилиқларини ҳам тасвирлайди. Ўзи тилга олган нарсаларни теран фикрли, ўткир кўзли рассом сингари жозибали баён қилади. Шу сабабли унинг асли номини муаллифнинг ўзи “Вақоийнома”, яъни “Воқеалар кундалиги” деб атагани

¹ “Халқ сўзи” 2012 йил 15 май.

² Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг “Тарихий хотира ва инсон омили-буюк келажагимизнинг гаровидир” рисоласини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи; 2012. –С. 17.

³ С.Ҳасанов. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўқитувчи; 2011, -С. 46.

бежиз эмас. Чунки бу воқеаларнинг асосий иштирокчиси ва бош қахрамони Бобурнинг ўзи. Ёзувчининг ўзи ҳам бу ҳақда шундай деб ёзади.

Бу олам аро ажаб аламлар кўрдум,
Олам элидин турфа ситамлар кўрдум.
Ҳар ким бу “Вақойиъ” ни ўқур, билгайким,
Не ранжу меҳнату не ғамлар кўрдум.

Бу асар бошқа мамлакатларда “Воқеати Бобурий”, “Бобурия” каби номлар билан ҳам юритилади. Кейинчалик эса уни “Бобурнома” дейиш расм бўлиб қолган.

Олимларнинг аксарият қисми “Бобурнома” ёзувчи ҳаётининг охириги йилларида, аниқроғи, 1525-1530 йилларида ёзилган, деган фикрни қўллаб-қувватлайдилар. Асарда 1494-1530 йилларда Мовароуннаҳр, Хуросон, Афғонистон ва Ҳиндистонда бўй берган тарихий воқеалар Бобур ҳаёти билан чамбарчас боғланган ҳолда баён этилади.¹

Инглиз тарихчиси ва таржимони Уильям Эрскининг “Бобур хукмронлиги давридаги Ҳиндистон тарихи” асарида таъкидланишича, асарнинг биринчи қисми Бобурнинг болалик ва йигитлик йилларидаги ташвиш ва қувончларини батафсил ҳикоя қилади. Кейинги қисми эса, баъзан –баъзан ёзилган, гоҳида эса кунма-кун бўлган воқеалар тафсилотини ўз ичига олган ҳикоялар тўплами бўлиб, баъзи жойлардаги воқеалар тафсилоти тўла ёритилган бўлса, айрим жойларда эса қисқагина хотиралардан иборатдир.²

Ҳинд санъатшунос олимлари Кришна ва Рамананда Бандхўпадхайлар “Бобурнома” тўғрисида дил сўзларини шундай изҳор қилганлар: “Бобурнома” ни мен ўз она тилимда зўр иштиёқ билан ўқиганман. Бу жуда мукамал ва бебаҳо асар. Унда халқимизнинг тарихи, турмуши, маданиятига оид жуда кўп мукамал маълумотлар бор....Бу асар муаллифи Заҳириддин Муҳаммад Бобур номи Ҳиндистонда севиб тилга олинади. У-Ўрта Осиё ва Ҳиндистон диёрлари ўртасида ўз замонасида дўстлик кўпригини бунёд этолган улуғ султон. Бу дўстлик иншооти яна узоқ асрлар оша хизмат қилажак.³

Асар тарихий-адабий манба сифатида яна шуниси билан эъзозлики, асарда кўплаб тарихий шахслар, адабиёт ва санъат аҳллари, дин аҳллари, шоҳ ва шахзодалар, беклар амиру умаролар ҳақида маълумот беради. Тадқиқотчи олимлардан Ҳ.Ҳасановнинг ёзишича, “Бобурнома”да мингдан зиёд жой номлари берилган. Р.Расулов асарида мингдан ортиқ географик номлар ва 1800 дан ортиқ киши ислари учрайди дейди. Т.Нафасов аниқ рақамларни келтириб “Бобурнома” да 1406 та киши исми 10100 дан ортиқ жой номи қайд этилганлигини ёзган¹.

Бобур ўрта асрлардаги Ҳиндистон халқлари тарихини ўзидан беш аср илгари яшаб ижод этган Абу Райҳон Беруний каби маҳорат билан ёрита

¹ С.Ҳасанов. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. – Т.: Ўқитувчи; 2011. –С. 47.

² У.Эрскин. Бобур Ҳиндистонда: Бобур хукмронлиги давридаги Ҳиндистон тарихи. – Т.: Чўлпон; 1995. –С. 105.

³ И.Ҳошимов. Ҳиндистонда Бобурийлар сулоласи салтанати. – Т.: Ўқитувчи; 1996. –С. 13.

¹ Тарихий манбашунослик муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари. ЎЗМУ. 2013.

олган. Филология фанлари доктори С.Азимжонова шу масалани таҳлил қилиб, чиқарган хулосасида айтганидек, ҳинд халқи ҳаётининг турли томонларига тааллуқли материалларнинг изчил баён этилиши, оригиналлиги ва ишонарлилиги жиҳатидан Берунийнинг маълумотларига фақат “Бобурнома”даги маълумотларни тенглаштириш мумкин. Беруний ва Бобур қадимий ҳамда ўрта асрлардаги Ҳиндистон халқлари маданияти тарихининг чинакам тадқиқотчиларидирлар. Уларнинг асарлари Ҳиндистон тарихига қизиқувчилар учун асосий манба сифатида хизмат қила олади.

“Бобурнома” жаҳоннинг жуда кўп тилларига таржима қилинган, қайта-қайта нашр этилган. Асарнинг дунё бўйлаб шуҳрат топишига сабаб, тасвирнинг кенг қамровлиги, XV аср охири XVI аср бошларидаги Ўрта Осиё, Афғонистон, Ҳиндистон тарихи, жўғрофияси, этнографияси, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, бу мамлакатларнинг халқлари, уларнинг яшаш тарзи, тили, урф-одатлар ва бошқа жиҳатлари ҳақида ишончли маълумотларга бой қомусий асар экани ҳамда асар муаллифининг билим ва қизиқиш доирасининг бекиёслиги, воқеа-ҳодисаларнинг ростгўйлик билан ҳалол тасвирлангани, тил ва услубнинг содда, раво ҳамда ихчамлигидир, десак хато бўлмайди.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кунда буюк аждодларимиз қаторида Заҳриддин Муҳаммад Бобур мероси ҳам ҳар томонлама ўрганилмоқда ва оммалаштирилмоқда. Бунга Биринчи Президентимиз Ислоҳ Каримов ташаббуси билан 1990 йил октябр ойида “Бобурнома” асарининг 460 йиллигига бағишланган халқаро анжуманининг, 1993 йилда шоир таваллудининг 510 йиллигига бағишланган тантаналарни ўтказилишини мисол келтиришимиз мумкин.

Истиқлол йилларида Бобур ҳақида хорижда босилган китоблар тўпланиб, айримлари ўзбек тилига таржима қилинди. Яқинда “Бобурнома” нинг тузатилган ва тўлдирилган янги наشري босмадан чиқди.

Буюк бобокалонимиз Бобур Мирзо ҳазратларининг деярли ҳамма асарларида ҳаётга ва Ватанга муҳаббат ҳисларининг чинакам ифодасини, инсоннинг юксак бурчи ва кишиларнинг маънавий қиёфаси ҳақидаги теран фикр-мулоҳазаларни, фан ва динга муносабат масалаларини, яхши хулқли ва одобли бўлишга даъватни, илм-фан ва маърифатни эгаллашга чақирикни, ахлоқий ва эстетик ғояларни, жўшқин ва мазмундор ҳаёт кечиришга тарғибни яққол кузатиш мумкин.

Бугун Бобур меросининг миллий ғоя, миллий ўзликни англашдаги ибрати катта. Ватанга унинг меҳридай меҳр керак, унинг ҳурматидек ҳурмат керак. Тарихни англашда, ўзликни англашда унинг қунти, саботи, матонати керак. Мустақилликни мустаҳкамлаш учун эса унинг шиддати ва шижоати керак.

ЎЗБЕКИСТОН ПАЛЕОЛИТШУНОСЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ЎЗБЕК-АМЕРИКА ҲАЛҚАРО ЭКСПЕДИЦИЯСИНИНГ ЎРНИ

Ангиллак ғори 2001 йилда Р.Ҳ.Сулейманов томонидан очилган. Маконни систематик ўрганиш ишлари 2002 йилда халқаро Ўзбекистон-Америка талабалар илмий археологик экспедицияси томонидан бошланди³⁹¹.

2001 йил куз мавсумида Қашқадарё воҳасида Зарафшон тоғ тизмасининг жанубий ён бағридаги бир неча ғор ва унгурларда қидирув ишлари олиб борилган эди.

2002 йилда Ўзбек-Америка ҳамкорлигидаги археология экспедицияси Ўзбекистон ҳудудида аниқланган ва ўрганилган палеолит даври ёдгорлигида археология тадқиқотлари ўтказишган. Дастлабки қазишмалар кўрсатишича, Ангиллакда мустъе даври материаллари борлиги аниқланди.

Ангиллак макони Ёрма ғоридан 700–800 м баландроқда, Аёқчисойнинг шимолий қирғоғида, Қашқадарё вилоятининг Китоб тумани ҳудудида жойлашган. Ангиллак ғорининг географик жойлашуви шимолий кенглик (N) 39°17'6.63"С; шарқий узунлик (E) 66°41'27.35"В.

Ғорнинг абсолют баландлиги сойнинг тубидан тахминан 250 м юқорида, ғорнинг ени 10 м, чуқурлиги 7 м, баландлиги 6-7 м ҳамда кириш қисмида кичик майдонча мавжуд. Ғор бошпана ва истиқомат қилиш учун жуда қулай бўлган.

Ангиллак макони 2002-2004 йилларда ғорнинг ичкарасидан айрим йўнилғи бўлаклари топилган эди ва шу сабабдан, бу ерда чуқурлиги 1,5 м гача етадиган бир нечта шурфлар қазилган.

Қазишмаларга кўра ёдгорликда 3 маданий қатлам аниқланган ва уларнинг ранги юқоридан пастга қараб бироз ўзгариб боради. Ангиллак ғорининг стратиграфик ҳолати қуйидагича.

1. Энг юқорида юпқа уй хайвонларининг чириган гўнг қатлами ётади, унинг қалинлиги 5 см гача етади. Унда топилмалар учрамайди.

2. Юмшоқ тўқ-жигаррангли кумлоқ тупроқдан иборат ва унинг баъзи жойларида кул, ҳамда кўмир билан бўялган қисмлар мавжуд. Ушбу қатлам шарқ томондан ғорнинг кириш қисмига қараб эгилган. Бу қатламнинг максимал қалинлиги 20 см га етади ва унда тош буюмлар ҳамда майдаланган хайвон суяклари учрайди.

3. Кулрангли, кўмир ва кул аралаш юмшоқ қатлам. Унинг қалинлиги 15-30 см. Ушбу қатламда тош буюмлар ҳамда хайвон суяклари бўлаклари кўплаб учрайди.

³⁹¹ Сулейманов Р.Х., Тойчиев Х.А., Ташкенбаев Н.Х., Джуракулов М.Дж., Холматов Н.У., Крахмаль К.А., Ибрагимов Р.З., Глантз М., Шраубер А.Х., Бургер О.Ф., Циммерман Х.П. Отчет по результатам полевых исследований совместной эколого-археологической экспедиции по изучению памятников каменного века. Ташкент, (май-июнь, 2001 г). Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №160. 2 – 19- Б.

4. Яна юмшоқ тўқ-жигаррангли кумоқ қатлам, унда палеолит даври топилмалари мавжуд. Ушбу қуйи қатламнинг қалинлиги 15-25 см.

5. Энг қуйида қаттиқ ва соф лой қатлам мавжуд. Унда топилмалар учрамайди. Ушбу лойли қатламлар ғорнинг кириш қисмига қия ҳолатда жойлашади. Геолог Е.Г.Федоровнинг фикрига кўра, ушбу лой қатламлар карстли сув захиралари учун характерли бўлиб, улар Ангиллак ғори пайдо бўлгунга қадар вужудга келган.

Тош қуролларни ишлаб чиқариш учун хом ашё турли хил тошлар бўлиб, уларни қадимги одамлар тоғ этагида оқаятган Оёқчисой тошларидан олишлари мумкин эди. Кўп ёки камроқ изотропик тузилишга эга бўлган ва бўлиниш учун қобиғида ёриқларга эга бўлган барча тош жинслари ишлатилган. Булар Зарафшон воҳасининг мустье даврига хос анъанавий, шунингдек, оҳақтош, одатдаги кварц ва баъзи интрузив жинслар эди. Барча аниқланган хом ашё турлари Зарафшон воҳасидаги типик, Омонқўтон, Қўтирбулоқ ва Зирабулоқ сингари манзилгоҳларга хос кўринишда бўлган. Бунинг сабаби шундаки, бу тошлар манбаси Зарафшон воҳаси ва Қоратепа тоғ тизмасининг муҳим қисмини ташкил этади. Тоғнинг шимолий қисмида, юқорида айтиб ўтилган машҳур манзилгоҳлар, жанубда эса, биз юқорида тилга олган Ангиллак ва Қоракамар ғорлари жойлашган.

Ангиллак ғори артефактлар коллекциясида бир неча юзлаб кичик ўлчамли учириндилар, парраҳалар ва пластиналар мавжуд. Йигирмага яқин учи ўткирланган тош қуроллари ва уларнинг қисмлари топилган. Уларнинг кўпчилиги учиринди, парраҳа ва пластиналардан иборат. Зарб майдончаси ва зарб бўртмаси характерига кўра болғача ёрдамида вужудга келтирилган.

Қуроллар орасида мустье даври чўзиқ учбурчак пластиналари ёки уларнинг қисмлари кўпчиликни ташкил этади.

Ангиллак ғор маконидаги топилган қуролларнинг кўпчилиги томонлари ўткирланган ва ов пайтида ишлатиш учун қулай қилиб ишланган. Ангиллак ғорида ўтказилган 3 м² майдондаги қазилмаларда қўлга киритилган топилмалар манзилгоҳ ҳақида тўлиқ маълумот бераолмайди. Аммо, топилмалардан кўринишича, Ангиллак маданияти Марказий Осиёнинг Обираҳмат маданияти доирасида вужудга келган бўлиши мумкин.³⁹²

Чунки, бу маданият тош индустрияси техникаси дисксимон ўзакдан учбурчак учириндилар ва бир ҳамда икки зарб майдончасига эга ўзаклардан параллел равишда пластиналар олинган.

Р.Х.Сулейманов бу археологик маданиятни мустье даври Обираҳмат маданияти билан бир хил ва нисбатан йирик манзилгоҳ деб аташни таклиф этган. Шунингдек, машҳур Омонқўтон ва Қўтирбулоқ манзилгоҳлари ҳам йўниш техникаси ва ўзининг меҳнат қуроллари билан Обираҳмат маданиятига яқин эканлигини кўрсатиб ўтилган.

Қўтирбулоқ тош индустриясининг ўзига хос томонлари сифатида Обираҳмат материалларига нисбатан кичик ҳажмда эканлигини ҳам қайд этишган. Тош қуролларини ясашда кўпроқ леваллуа техникасидан

³⁹² Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат, -Т.: 1972, -С. 22.

фойдаланилганлиги, йўниш техникасида хом ашё сифатида турли хил ўрта хажмдаги дарё қайроқтошларидан фойдаланилганлигини айтиб ўтган.

Шунинг учун хом ашё жуда яхши сифатга эга бўлмаган, кремень жуда кам учраган, меҳнат қуролларини ясашда унча катта бўлмаган кварц қайроқтошларидан кенг фойдаланилган.

Қўтирбулоқ меҳнат қуроллари типологиясида кўп сонли қайроқтош меҳнат қуроллари кузатилади. Меҳнат қуроллари тўпламида охириги кам учрайдиган тип икки ёқлама ўткирланган меҳнат қуроллари ҳисобланади.

Бунга ўхшаш мустъе даври меҳнат қуроллари Тожикистондаги Худжи ва Семиганч манзилгоҳларида учрайди³⁹³.

Биз Қўтирбулоқ материалларининг ўзига хослигига батафсил тўхталишимизга асосий сабаб, Ангиллак ғори маданий қатламларидаги янги топилмалар кўпроқ Қўтирбулоқ ва Омонқўтон тош индустриясига ўхшаб кетади.

Бу ерда Ангиллак тош индустриясида Обираҳмат маданияти техник ва типология аънаналари муҳим роль ўйнаган. Шунингдек, хом ашё фактори ҳам таъсир қилган. Ангиллак ғорида ҳам худди Қўтирбулоқ манзилгоҳидаги каби хом ашёдан фойдаланилган.

Ангиллак ғоридан топилган бир неча меҳнат қуроллари Обираҳмат маданияти аънанавий мустъе даври чўзиқ ўткиртиғли қуролларини ўзида акс эттиради.

Обираҳмат тош индустриясига оид овчиликка ихтисослашган меҳнат қуроллари ушбу манзилгоҳдан топилиши, бу ерда одамлар узок вақт яшаганлигини кўрсатади. Чунки доимий овчилик лагерларида кесувчи қуроллар пичоқ, ўткир қирғичлар ёки бошқа турдаги кесувчи қуроллар мавжуд.

Обираҳмат маданиятининг нисбатан кечроқ ривожланиш босқичлари Тожикистондаги Худжи, Оғзикичик ва Шуғнов тош индустриясида акс этиши мумкинлигини таклиф этилган.³⁹⁴ Эҳтимол, юқорида айтиб ўтилган фикр ва мулоҳазаларга жавобларни янги топилган Ангиллак ғоридаги кейинги қазишмаларда аниқлаш мумкин.

Алоҳида учринди ва бир дона ўткир тиғли найза учи гувоҳлик беришича, Ангиллак ғори аҳолиси баъзида Қоракамарга келиб туришган. Ушбу ғорнинг нотекис таг қисми доимий яшаш учун ноқулай ҳисобланган.

Ангиллак ўзининг кичик ҳажмига қарамасдан, қулайроқ эди. У қуруқ, шарққа қараган, совуқ шимоли-ғарб шамоли ва ёғингарчиликдан ҳимояланган, қуёш яхши иситган ҳамда ғорнинг таг қисми тупроқ билан қопланган. Буларнинг барчаси бу ерда одамлар узок вақт бўлмаганлигига қармай, кейинчалик жадаллашиб кетган.

³⁹³Ранов В.А., 1972, Семиганч - новое мустъерское местонахождение в Южном Таджикистане, МИА, 185. в. Ранов В.А., Амосова А.Г., 1984, Раскопки мустъерской стоянки Худжи в 1978 г., АРТ; -С. 18.

³⁹⁴Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сайфуллаев Б.Т., Сулейманов Р.Х., 2001, Ранний верхний палеолит Узбекистана: индустрия грота Обирахмат (по материалам слоев 2- 14), АЭАЕ, вып.4. –С. 65.

Ўзбек-Америка ҳамкорликдаги археологик экспедицияси Марказий Осиё мустъе даври манзилгоҳи Ангиллак ғорининг бир неча ўзига хос хусусиятларини аниқлаб берди.

Тош индустрияси материаллари Марказий Осиё мустъе даврига хос ҳисобланади ва мустъе дисксимон ҳамда пластиналар протопризматик бир ва икки зарб майдончали ўзаклардан иборат. Иккиламчи ишлов учун тош қурол яшаш учун бўлакларга бўлиш хос ҳисобланади. Ангиллак тош индустриясининг умумий ўзига хослиги тош хом ашёсининг паст сифатлиги ва кичик ўлчамлигидир.

Шунинг учун Ангиллакнинг тош индустрияси характеристикаси ушбу мавсумда олиб борилган қазилар вақтида олинган бўлиб, алоҳида маданий қатламлар бўйича аниқланган.

Ангиллак ғоридаги қазиларда қуйидаги асосий хулосаларга келинган:

1. Ангиллак ғор манзилгоҳи ўрганилишининг биринчи босқичи якунида ҳозирча Қашқадарё воҳасидаги ягона стратиграфик жиҳатдан ўрганилган палеолит манзилгоҳи эканлиги.

2. Ангиллак тош индустрияси материаллари техник ва типологик жиҳатдан Кўтирбулоқ ва Омонқўтон ғор манзилгоҳлари тош индустриясига яқин туради. Лекин улар таркиби ва кичик ўлчамли ўзаклар ва меҳнат қуроллари билан фарқ қилади. Ангиллак маданияти вақиллари хом ашё тақчиллигига учраганлиги аниқ.

3. Ангиллак ғори материалларидан радиокарбон усулида олинган натижалари уларнинг ёши эраиздан аввалги 27000 ва 42000 йиллар билан белгиланганга асос бўлган.

4. Ангиллак технокомплексида Обираҳмат маданиятида номаълум бўлган элементлар учрамайди. Тошдан ясалган меҳнат қуроллари фақатгина кичик ўлчам ва таркиби жиҳатидан фарқ қилади (2-3-расмлар).

Ангиллак қатламларида бир неча топилмалар мавжудлигига қараб, бу ғорда ибтидоий одамларнинг кичик гуруҳи вақти-вақти билан Оёқчисой ҳавзасида ва унинг атрофларида яшаш учун ўзларига паноҳ топишган.

Ангиллак тош индустрияси, йўниш техникаси, меҳнат қуроллари бўйича юқорида тилга олинган Ўзбекистондаги катта гуруҳ манзилгоҳларидан иборат Обираҳмат маданиятига тегишли ҳисобланади.

Бу маданиятга икки зарб майдончасига эгаллиги, дисксимон ўзаклар ва меҳнат қуролларининг типологик турлари хос ҳисобланади.³⁹⁵

Қайд этиш керакки, Обираҳмат маданиятининг Зарафшон тоғ тизмасида жойлашган Ангиллак ёдгорлигининг ўзига хослиги мавжуд.

Аваламбор, Зарафшон воҳасида тошни йўниш орқали тайёрланган маҳсулотлар кремний камёблиги сезилиб туриши билан боғлиқ. Ангиллак ғорида кварц, кварцит ва Оёқчисой ўзанида кўп учрайдиган майда қайроқтошлардан кенг фойдаланилган. Улардан йўниш орқали майда учириндилар олинган.

³⁹⁵ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат, -Т.: 1972. –С. 54.

Бундай сифатсиз хом ашё базасига эга бўлиши, Ангиллакнинг Омонкўтон довонининг бошқа тарафида жойлашганлиги билан боғлиқдир.

Шундай қилиб, Ангиллак ғорининг кашф этилиши археология фанининг муҳим ютуғи бўлибгина қолмай, балки Зарафшон тоғ тизмасининг жанубий ён бағрининг келгусидаги ўрганилишида ҳам истикболли ҳисобланади.

*Парниева Д. –
студентка 3 курса НУУз*

БОРИС ВЛАДИМИРОВИЧ ЛУНИН – ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ШКОЛЫ ИСТОРИОГРАФИИ

Школа профессора Б.В.Лунина дала много исторической науки Средней Азии и это заслуживает всемерного внимания. Борис Владимирович Лунин являлся создателем новых направлений в исторической библиографии, историографии и источниковедение. Благодаря Б.В.Лунину к сегодняшнему нашему поколению было возвращена множество забытых имен исследователей Центральной Азии.

Родился Б.В. Лунин 18 июля 1906 г. в Женеве, в семье политических эмигрантов. Избрание его отца В.В. Лунина членом I Государственной Думы позволило всей их семье вернуться в Россию³⁹⁶.

С гимназической скамьи в Пятигорске Б. В. Лунин приобщился к работе кружка юных археологов. После переезда семьи в Ростов-на-Дону он стал вольнослушателем Донского археологического института, а затем, по рекомендации проф. А. И. Яцимирского и других ученых, его приняли в состав членов Донского общества археологии и истории при Ростовском госуниверситете. Уже в 20-30-е годы Б. В. Лунин стал вести большую научно-организационную и исследовательскую работу в качестве члена правления и ученого секретаря Северо-Кавказского краевого общества археологии, истории и этнографии, бюро краеведения и других организаций. Видный археолог-краевед тех лет, Б. В. Лунин опубликовал цикл статей, в которых обобщил результаты археологических исследований, проводившихся на Северном Кавказе, (большие, малые и краткие энциклопедии) в государствах Центральной Азии. С началом войны 1941-1945 гг. Б.В. Лунин оказался в составе действующей армии на Южном фронте, а в 1942-1953 гг. был старшим преподавателем и начальником социально-экономического цикла в военно-учебных заведениях Туркестанского военного округа; последнее его воинское звание – подполковник³⁹⁷.

Его все больше стала увлекать богатейшая история Узбекистана и Центральной Азии и с 1953 г. после демобилизации, он работал ученым секретарем, затем старшим научным сотрудником Института истории и

³⁹⁶ Алимова Д.А., Германов В.А. Научная, педагогическая и общественная деятельность академика Б.В. Лунина// Тарихшунослик ўқишлари. –Т.: Фан; 2010. -С. 9-21.

³⁹⁷ Алимова Д, Германов В. Борис Владимирович Лунин – патриарх среднеазиатской школы историографии//История и историки Узбекистана в XX веке. –Т.: Navro'z; 2014. -С. 353.

археологии АН Узбекистана, а потом ученым секретарем Отделения общественных наук Академии наук, с 1968 г. – заведующим сектором историографии Института истории. С 1988 г. Б.В. Лунин – главный научный сотрудник Института истории АН УзССР³⁹⁸. Исследования в области истории исторической науки снискали ему общепризнанную репутацию крупнейшего знатока истории развития гуманитарных наук о Центральной Азии за два последних столетия.

Первые публикации Лунина по Средней Азии стали появляться начиная с 1943г и самые первые научных работ по историографии Средней Азии книги: «Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане», «Туркестанский кружок любителей археологии», «Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. Конец XIX- начало XXв.», «Средняя Азия а научном наследии отечественного востоковедения», «Жизнь и деятельность академика Бартольда», «Восточный факультет» и др. В области источниковедения им подготовлена трехтомная «История Узбекистана в источниках».

Борис Владимирович известен также работами в области библиографии. Им публиковались ежегодные «Библиографические указатели литературы по археологии, истории, этнографии, философии и праву Узбекистана»³⁹⁹, указатели литературы о жизни и деятельности Фараби, Ибн Сины, Беруни, истории кушан, Амира Темура, Темуридов⁴⁰⁰ и др.

Известность и признание получили также составленные Б.В. Луниным биобиблиографические очерки об ученых-гуманитариях Узбекистана и, отчасти, Средней Азии - «Историография общественных наук в Узбекистане», «Биобиблиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана» (ч. I-II), ставшие настольными книгами для всех изучающих историю, этнографию, философию, филологию и право в Узбекистане. Многочисленные публикации Б.В. Лунина увидели свет на страницах таких известных журналов, как «Вопросы истории», «Отечественная история», «Вестник древней истории», "Российская археология», «Наука и жизнь», «Наука и техника», «Народы Азии и Африки» и др. Борис Владимирович был участником многих международных, региональных и республиканских научных форумов. Под его научным руководством защищено свыше десяти кандидатских и докторских диссертаций.

С 1957 г. Б.В.Лунин являлся членом редакционной коллегии, а с 1967 г. – заместителем главного редактора ежемесячного журнала «Общественные науки в Узбекистане», издаваемого Академией наук Узбекистана.

Б.В. Лунин – доктор исторических наук (1966), профессор (1970), заслуженный деятель науки УзССР(1973), Академик Российской академии

³⁹⁸ Алимова Д., Зияева Д., Германов В. К 95-летию со дня рождения Б.В. Лунина//O'zbekiston tarixi. 2001. №3. С.58-61.

³⁹⁹ Арифханова З. Б.В. Лунин и этнографические исследование// Тарихшунослик ўқишлари. –Т.: Фан; 2010. - С. 25-32.

⁴⁰⁰ Рахматуллаева О. Б.В. Луниннинг илмий меросида Амир Темура хаёти ва фаолиятининг ёритилиши// Тарихшунослик ўқишлари-2010. –Т.: Yangi nashr; 2011. -С.174-178.

естественных наук, член Российского археологического общества. Заслуги Б. В. Лунина отмечены многими государственными наградами. Борис Владимирович Лунин в течение своей 75-летней научной деятельности подготовил и опубликовал 25 монографий, 50 брошюр и свыше 600 статей. Автор более 500 научных работ. Б.В. Лунин почти 40 лет был членом редколлегии журнала «Общественные науки в Узбекистане», на страницах которого неоднократно публиковал свои статьи. Он ответственный редактор свыше 30 научных монографий и сборников, изданных у нас в стране и за рубежом, был членом Главной редакционной коллегии 14-томной Узбекской энциклопедии⁴⁰¹.

Публикации Б.В. Лунина по истории, историографии, археологии, этнографии и исторической библиографии подчеркивают его неизмеримую роль как основателя узбекистанской историографической школы.

*Раишев Т. –
студент Исторического факультета НУУз*

ТУРКЕСТАНСКИЙ СБОРНИК – ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ

Туркестанский сборник или «Туркестанский сборник сочинений и статей, относящихся до Средней Азии вообще и Туркестанскому краю в особенности» является уникальной энциклопедией, собравшей в себе знания по различным отраслям науки и представляет собой результат многолетних исследований и научного труда. Он представляет из себя собрание из 594 томов, издававшихся на протяжении 1868-1939 гг.

«Туркестанский сборник заслуживает общего внимания, как первая попытка сгруппировать сведения о крае, название которого для большинства пустой звук, не вызывающий в уме никакого определенного представления, как некогда при слове Кавказ большинству представлялись только горы и гнездящиеся в ущельях их храбрые черкесы, так ныне Туркестанский край не вызывает у большинства, не более чем представление о бесплодной степи и рыскающих по ним узбеках. Между тем край занимает по приблизительному исчислению более 15000 кв. миль, следовательно, почти равную Франции и Италии вместе, включая в себя громадные, безлюдные и бесплодные степи, хребты гор, покрытые вечными снегами и плодородные, густонаселенные долины, служащие житницами для окрестных областей – Край стойкий нам многих жизней и больших денег, заслуживает всеобщего внимания, тем более, что жертвы эти принесены ради великих надежд и ожиданий в будущем».⁴⁰²

⁴⁰¹ Алимова Д, Германов В. Борис Владимирович Лунин – патриарх среднеазиатской школы историографии//История и историки Узбекистана в XX веке. –Т.: Navro'z; 2014. –С. 363.

⁴⁰² Межов В.И. Туркестанский сборник, т. № 58. «Русский Туркестан» под ред. В.Н. Троицкого, вып. № 3, СПб. 1872., с. 347.

Начало создания «Туркестанского сборника» относится к тому периоду, когда было создано Туркестанское генерал-губернаторство с центром в городе Ташкенте. Генерал-губернатор нового края Константин Петрович фон Кауфман в 1867 году обратился к министру народного просвещения, в академию наук и в Публичную библиотеку с просьбой о пожертвовании дублетов книг научного содержания для вновь организуемого туркестанского книгохранилища. Понимая, что весь материал, собранный русскими путешественниками и исследователями Средней Азии, был распылен в многочисленных петербургских, московских и сибирских изданиях, Кауфман пожелал его сконцентрировать и собрать в одном месте. Вся имевшаяся в то время литература о нашем регионе публиковалась в основном в Петербурге, в самом же Туркестанском крае этих материалов явно не хватало. В связи с этим дублетные издания вскоре были присланы в Ташкент. За короткое время было собрано более двух тысяч томов, которые положили начало созданию Туркестанской публичной библиотеки. Разумеется, такого количества книг было явно недостаточно⁴⁰³.

По просьбе генерал-губернатора Барона фон Кауфмана известный петербургский библиограф Владимир Измайлович Межов в 1867 году занялся составлением библиографии литературы по Туркестану, так называемого «Туркестанского сборника сочинений и статей, относящихся до Средней Азии вообще и Туркестанскому краю в особенности», охватывающего все газетные и журнальные публикации, касающиеся Туркестанского края и сопредельных с ним стран, а также научные труды на ту же тему как русских, так и иностранных авторов. Об истории создания сборника сам В.И. Межов рассказывал так: «В 1867 году К.П. Кауфман обратился ко мне с предложением составлять для него библиографические указатели книг и статей, относящихся к Средней Азии вообще и Туркестанскому краю в особенности. При личном свидании с ним я представил, что один голый перечень заглавий при такой отдаленности Ташкента от столицы для него не будет иметь практического значения. Взамен этого я предложил ему составлять «Туркестанский сборник», в который входили бы самые книги и статьи. Он изъявил согласие и на первый раз, в виде опыта, я послал ему в Ташкент 10 томов, за что получил 1000 рублей. Такое неожиданное и щедрое вознаграждение заставило меня усилить мои труды, и в следующие годы за тот же гонорар я посылал от 20 до 30 томов. Наконец, в последние годы управления Туркестанским краем К.П. Кауфманом, я условился доставлять ему ежегодно от 40 до 50 томов за 1000 рублей вознаграждения».⁴⁰⁴

Постоянно находясь в Петербурге Межов имел возможность следить за всеми выходящими в России книгами, журналами и газетами. Как вспоминал он сам: «... библиотека, заключавшая в себе всё, что было написано о крае, должна принести несомненную пользу. Почем знать, быть может некоторые

⁴⁰³ Сокровища легендарного «Туркестанского сборника» —<https://mytashkent.uz>.

⁴⁰⁴ Сокровища легендарного «Туркестанского сборника» —<https://mytashkent.uz>.

из статей, входящих в состав «Сборника», и не только капитальных, но даже, по-видимому, ничтожных, могут кинуть новый свет на какой-либо административный и экономический вопрос. Вследствие сего, составляя «Туркестанский сборник», я не пренебрег ни одною статьею, касающейся Средней Азии вообще и Туркестанского края в особенности»⁴⁰⁵.

Весь собранный материал для Туркестанского сборника оформлялся следующим образом: газетные статьи вырезались, наклеивались на белые листы бумаги, статьи из журналов и книг расшивались и отдельные листы вклеивались в бумажные рамки. Только журнальных и газетных вырезок в Туркестанском сборнике насчитывалось свыше десяти тысяч. Обработанный таким образом материал переплетался в тома одинакового формата, которые снабжались напечатанными в типографии титульными листами. Межов подбирал книги, журнальные и газетные статьи по мере выхода их в свет, соблюдая, таким образом, хронологическую последовательность.

Составлением Туркестанского сборника Межов занимался до 1887 года.

Основным историческим источником «Туркестанского сборника» являются «Военный сборник», «Вестник Европы», «Русский Вестник», «Исторический Вестник», «Живая Старина», «Голос», «Биржевые ведомости» и другие газеты и журналы. После того, как Межов вышел в отставку, работа над сборником была прекращена. Выдающийся библиограф скоропостижно скончался 17 мая 1894 года. Понимая важность начатого им дела, власти решили продолжить сбор материалов для сборника.

Работа была возобновлена лишь в 1907 году. За период с 1907 по 1916 годы различными библиографами было составлено еще 175 томов. В 1939 году было подготовлено и добавлено еще 3 тома... В составлении сборника кроме В. И. Межова активно участвовали А. А. Семенов, востоковеды А. А. Диваев, Н. Ю. Бонч-Осмоловский, библиограф И. И. Гейерлер.⁴⁰⁶

Туркестанский сборник обычно принято подразделять на две части: к первой части относятся тома 1-416(1867-1887 гг.), собранные выдающимся русским библиографом В.И. Межовым (1830-1894), а ко второй, так называемый «Ташкентский период» – тома 417-594.⁴⁰⁷ Такое деление Туркестанского сборника вполне закономерно и объясняется, конечно, тем, что между названными частями лежит большой промежуток времени в целых двадцать лет.

Ориентироваться в большом и разнообразном материале Туркестанского

сборника позволяют «систематический и азбучный указатель сочинений и статей на русском и иностранных языках», также составленные Межовым (т.т. 1-417). Систематический указатель к 417-591 томам

⁴⁰⁵ Там же.

⁴⁰⁶ Turkstan jyinagy – <http://ts.manas.edu.kg/>

⁴⁰⁷ Бенедиктова. Н. Н. «Туркестанский сборник» как источник изучения Средней Азии». Сборник материалов к 75- летию Государственной публичной библиотеке (1870—1945), -Т.: машинопись, 1948 г., -С.52

Туркестанского сборника, составленный библиографом-краеведом О.В. Масловой в 1940 году, охватывает отраженные в сборнике материалы, касающиеся только Туркестана. Классификация литературы в нём приведена в соответствии с

современными требованиями библиографии.⁴⁰⁸

Туркестанский сборник является уникальным историческим источником, при этом он содержит информацию не только по истории края. Исследователь может найти информацию по географии, статистике, этнографии, картографии, хронологии, археологии, нумизматике, политике, экономике, юриспруденции, сельском хозяйстве, мануфактуре, геологии, метрологии, климатологии, естественной истории астрономии, геодезии, медицине.

Подводя итог хотелось бы отметить, что с составлением Туркестанского сборника были наконец собраны воедино огромное количество разрозненного материала о крае, причем все это собрание систематизировано и удобно в исследовании, что имеет первостепенное значение для изучения истории Туркестанского края и в наше время.

*Raxmonova M. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi.*

“BOBURNOMA”DA QO‘LLANILGAN MARKAZIY OSIYONING GEOGRAFIK JOY NOMLARI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Amir Temur va temuriylarning munosib davomchisi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z hayoti va faoliyati davomida shunday buyuk ishlar qila olganki, u haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O‘zbek xalqining dovrug‘ini dunyoga taratgan ulug‘ ajdodlarimizdan biri o‘laroq, ul zot bizning tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatadi. Bobur Mirzo bobomizning siymosini abadiylashtirishga qo‘l urgan insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman”⁴⁰⁹ deya ta’kidlagan. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati va ijodining tarixiy adabiy xususiyatlarini o‘rganish ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin yuksak pog‘onalarga ko‘tarildi. Xususan, o‘zbek olimlaridan A. Abdug‘afurov, H. Quadratullayev, R. Vohidov, M. Abdullayeva, M. Nuriddinov, A. Ibrohimov, V. Zoxidov, S. Azimjonova va boshqalar izlanishlar olib borishgan⁴¹⁰.

⁴⁰⁸ Умаров С.И. «Туркестанский сборник» – уникальный источник в изучении Центральной Азии. Сборник материалов 7 Международной конференции «Central Asia – 2013: Интернет и информационно-библиотечные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе» -Т.: 2013.

⁴⁰⁹ Каримов И. А. Маънавий юксалиш йўлида. –Т.: 1996. –Б. 158.

⁴¹⁰ Абдуғафуров А. Навоий ва Бобур(Буюк бешлик сабоқлари) –Т.: 1998; Кудратуллаев Х. “Бобурнома” ва тарих.//Тафаккур; 2001, 6-сон; Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. –Т.: Маънавият; 2008; Абдуллаева М. “Бобурнома” ва “Шажараи турк”нинг қиёсий поетикаси. –Т.: 2002; Нуриддинов М. Бобурийлар сулоласи. –Т.: Фан; 1993; Иброҳимов А. Бобурийлар мероси –Т.: Мехнат; 1993; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. –Т.: 1961; Азимжонова С. Бобурнинг Ҳиндистон девони. –Т.: Фан; 1966.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari bu “Boburnoma”dir. Unda 1494-yildan to 1530-yilgacha Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonda kechgan voqealar muallif tomonidan tarixiy maʼlumotlarni va nomlarni shunchaki qayd etib oʻtmasdan, ularning geografik joylashuv hududlari, tabiati, etnografik holatini batafsil tasvirlaydi. Tarixiy geografik asar hisoblangan “Boburnoma” asarini ayniqsa, XVIII va XIX asrlarda sharqshunos olimlarining katta qiziqishiga sabab boʻlgan. Masalan, “Boburnoma” asarini 1828-yili A.Kayzer tomonidan nemis tiliga qisqartirilib, 1871-yili P. De Kurteyl tomonidan fransuz tiliga toʻla holda tarjima qilingan⁴¹¹. Shuningdek, bu asarni Rossiyada 1857-yilda sharqshunos olim N.Ilminskiy asl holda Qozon shahrida chop ettirgan. Shuningdek, XIX asr oxirlarida “Boburnoma”dan ayrim qismlar tarjimasini I.Pantusov, S.Polyakov va V.Viyatkinlar rus kutbxonalari taqdim etilgan boʻlsa-da, yahlit ruscha tarjimasini amalga oshirilmagan edi. Bu ish mohir tarjimon va olim M.Sale tomonidan bajariladi va 1958-yili Toshkentda bosmadan chiqariladi⁴¹².

“Boburnoma” yozilish va tuzilish jihatidan ham uch qismdan iborat boʻlib, birinchi qismi Zahiriddin Muhammad Boburning Markaziy Osiyo xususan Movarounnahrda hayoti, ikkinchisi Afgʻonistonga ketishga majbur boʻlib, u yerda davlat tuzishi va uchinchisi esa Hindistondagi ulkan imperiyaga asos solgan yillari bayonidir.

Mazkur tarixiy manbada Markaziy Osiyo hududi boʻyicha jami 800 dan ortiq joy nomlari keltirilgan boʻlib, ularning geografik hududiy jihatdan bir tekis joylashmaganini koʻrishimiz mumkin. Afgʻoniston va Movarounnahrda qarashli toponimlar soni ancha koʻp boʻlsada, lekin Markaziy Osiyoning shimoliy va sharqiy qismlariga oidlari kam. Bunday farqning sababi “Boburnoma”ning meʼmuar asar tarzida yozilganligi va Zahiriddin Muhammad Boburning asosiy hayot-faoliyati Movarounnahr va Afgʻonistonda kechganligidadir⁴¹³.

Taqiqotimiz davomida “Boburnoma”da Markaziy Osiyo hududiga oid joy nomlaridan baʼzilariga toʻxtalamiz.

Movarounnahr – atamasi arablar orasida islomgacha boʻlgan davrda ham maʼlum boʻlgan boʻlib, oʻsha vaqtda Sosoniylar davlatidan shimoliy sharqda joylashgan Turk xoqonligiga qarashli yerlarga nisbatan ishlatilgan. Bu nom musulmon Sharq adabiyotida XI asrdan boshlab mamlakat nomi sifatida qoʻllanilgan. Movarounnahr atamasi oʻrta asrlarda qoʻllanilgan keng maʼnoli tushuncha boʻlib, shartli ravishda faqat Amudaryo va Sirdaryo oraligʻidagi yerlar kiritilgan. “Boburnoma”da uning chegaralari quyidagicha berilgan: sharqda Qoshgʻar, gʻarbda Xorazm, shimolda Shosh, va janubda Termiz deya keltirib oʻtilgan⁴¹⁴. Movarounnahrning “Boburnoma”da keltirilgan maʼmuriy holati, tarixi, tabiati, xoʻjaligi haqidagi maʼlumotlari oʻsha davrda yozilgan boshqa tarixiy asarlardagiga nisbatan ancha aniq berilgan.

Fargʻona - “Boburnoma”da hududiy jihatdan hozirgi Fargʻona vodiysi nazarda tutilgan. Unda Fargʻona viloyati, undagi shaharlar, qishloqlar, xalqlar,

⁴¹¹ A. P. de Courteille Memoire de Baber. –Editions, 1871.

⁴¹² Бобур З. М. Бобурнома. –Т.: Юулдузча; 1990. –Б.3

⁴¹³ Бўриев О. Бобурномадаги жой номлари тарихи. –Т.; 2015. –Б.

⁴¹⁴ Бобур З.М. Бобурнома. –Т.: Оʻqituvchi; 2008. –Б. 23.

daryolar va boshqalar haqida ma'lumot bor. Bobur tug'ilgan vatani – Farg'ona haqida o'zining bu asarida oz-u soz bayon etib o'tgan: “Farg'ona... kichik viloyatdir. Don-duni ko'p, mevasi farovon. Qovun va uzumi yaxshi bo'ladi. Qovun pishig'i paytida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshvotidan yaxshiroq noshvoti bo'lmaydi”⁴¹⁵ deya ta'rif berib o'tadi. Shuningdek, sharqshunos olim O. Bo'riyevning tadqiqotlariga ko'ra, “Boburnoma”da “Farg'ona viloyati” va “Andijon viloyati” degan iboralar bir-biriga sinonim sifatida ishlatiladi. Dastlab uning chegaralari ko'rsatilgan. Unga ko'ra, Farg'ona sharqda- Koshg'ar, g'arbda - Samarqand, janubda - Badaxshondagi tog'lar, shimolda- Olmoliq, Olmotu, Yangi shaharlari bilan chegaralangani aytib o'tilgan. Demak, bu manbada qayd etilgan Farg'ona viloyati tarkibiga Farg'ona vodiysi va unga yondosh anchagina joylar kiritilgani ma'lum bo'ladi⁴¹⁶. Farg'ona barcha tarafdin tog'lardan iborat faqat g'arb tarafida Samarqand va Xo'jand shaharlari bilan tekislik orqali chegaralangan. Manbalarda Farg'ona yettita ma'muriy birlikka bo'lingani, ularning beshtasi Sayhun (Sirdaryo) daryosining janub tomonida, ikkitasi shimoliy tarafidagi aytiladi.

Andijon – “Boburnoma”da keltirilishicha Farg'ona viloyatining ma'muriy markazi bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra “Andijon” toponimi turk-mo'g'ulcha “soy bo'yidagi makon” ma'nosini bildiradi. Tabiiy joylashuv jihatidan ham Andijon shu nomdagi soy bo'yida joylashgan. Andijon shahri haqida arab geograflari asarlarida va boshqa tarixiy manbalarda Andiyon, Andikon, Andigon nomlari bilan ham keltirilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur zamonida esa, Andijon nomini olgan. Bu hudud haqida “Boburnoma”da “Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur”⁴¹⁷ deb ta'kidlanadi.

Marg'ilon – bu “Boburnoma”da keltirilgan va Andijonning g'arbida deya ta'riflab o'tilgan hududdir. Ushbu tarixiy manbada Marg'ilon quyidagicha keltirilgan: “Yana Marg'inondir... noz-ne'matga boy. Anori va o'rigi juda yaxshi bo'ladi. Bir xil anori bor, “dona kalon” – yirik donali deydilar. Chuchuklikda o'rik ta'midan ancha shirin. Samnon anorlaridan ustun qo'ysa bo'ladi. Yana bir o'rigi ham borki, donasini olib, ichiga mag'iz solib quritadilar. Uni “subhoniyy” deydilar, bisyor lazatlidir”⁴¹⁸.

Shosh (Choch) – Movarounnahrda yirik shaharlardan biri bo'lgan. O'rta asr manbalarida Shosh yoki Choch shakllarida ham uchragan atama hozirgi Toshkent shahrning nomlanishidir. “Choch” so'zi so'g'dcha “tosh” degan ma'noni bildiradi, Shosh esa Chochning arabcha ko'rinishidir. “Boburnoma”da ham Toshkentning Choch va Shosh nomlar bilan atalganligi qayd etib o'tilgan. Toshkent tabiiy-geografik jihatdan Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, taxminan hozirgi Toshkent viloyati hududlariga to'g'ri keladi.

Samarqand – qadimiy va mashhur shaharlarimizdan biri. Mashhur fransuz sharqshunos olimi Jan-Pol Ru aytganidek: “Samarqand hammasidan ko'ra, afsona va rivoyatlar shahri edi, u go'yoki ibodatxonaga o'xshardi, deyarli muqaddas

⁴¹⁵ Bobur 3.M. Boburnoma. –T.: O'qituvchi; 2008. –B. 23.

⁴¹⁶ B'riev O. Markaziy Osiё tarixiy geografiasidan lavxalar. – T.: 2015. -B. 131-132.

⁴¹⁷ Bobur 3. M. Boburnoma. –T.: Yulduzcha; 1990. –B.6

⁴¹⁸ Bobur 3.M. Boburnoma. –T.: O'qituvchi; 2008. –B. 23-24.

shahar edi”⁴¹⁹. Samarqand toponimining etimologiyasi haqida manbalarda quyidagicha ma’lumot berilgan. Masalan, Hofiz Abroning “Geografiya” asarida quyidagi uch ta shakli ko’rsatilgan: Shamar-kand ya’ni Shamarning qishlog’i; Shamar-kand ya’ni Shamar buzdi(forscha “kandan”- buzmoq); Samizkand ya’ni katta qishloq. Bu atamalar Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Ma’sudiy” va Mahmud Qoshg’ariyning “Devon lug‘at at-turk” asarlarida ham keltirilgan⁴²⁰. “Boburnoma”da bu hudud haqida: Samarqandcha go‘zal shahar kamdur, hech bir dushman bostirib kira olmagan uchun muhofazalangan (bal dai mahfuza) deb atashgan. Hazrat Usmon zamonida musulmon bo‘lgan. Samarqandni Iskandar barpo qilgan. Mo‘g‘ullar uni “Semizkand”deyishgan. Amir Temur esa o‘z davlatining poytaxti qilgan, unda oldin hech bir podshoh Samarqandni poytaxt qilmagan deyiladi. Samarqand viloyati haqida esa quyidagicha ta’rif beriladi: “Sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkent va Shohruxiya, janubi Balx va Termiz, Zarafshon daryosi shimolidan oqadi”⁴²¹.

Kesh - Markaziy Osiyoning o‘rta asrlardagi yana bir mashhur va ko‘p qo‘llanilgan joy nomlaridan biri bo‘lib, hozirgi Shahrisabzdir. Kesh toponimining etimologiyasi haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida quyidagicha ma’lumot keltirilgan: “Kesh shahri o‘tgan zamonlarda islom olimlari yig‘ilgan joy bo‘lgan ekan... Shu sababdan Kesh shahri “Qubbat al-ilm va-l-adab” (Ilm va adab qubbasi) degan nom olgan. Bahorda bu hududlar maysalar bilan qoplanib, o‘ziga xos ko‘rinish kasb etgan va shuning uchun ham “Shahrisabz – Yashil shahr” deb atalgan⁴²². “Boburnoma”da bu shahar haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar berilgan. Masalan: “Samarqandning janubidadir, bahorlar sahrosi va shahri, bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lgani uchun Shahrsabz ham derlar. Temurbekning ajdodlari Keshdan bo‘lganliklari uchun bu joyni poytaxt qilishga ko‘p harakat qildi. Keshda ulug‘ imoratlar bino qildirdi. Madrasa va masjidlar ham bo‘lib, Jahongir Mirzo va yana boshqa avlodlarining ham maqbaralari shu yerda edi. Keshning qobilyati poytaxt shahar bo‘lishga Samarqandcha emas edi, shuning uchun ham balki Temur oxiri poytaxt qilib Samarqandni tanladi”⁴²³ deyilgan.

Buxoro – Markaziy Osiyoning tarixiy hududlaridan yana biridir. Bevosita “Buxoro” atamasinin ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada ham turli qarashlar mavjud. Ba’zi manbalarda bu atama turk-mo‘g‘ulcha “Buxor” ya’ni “ibodatxona” nomidan olingan deyilsa, boshqa manbalarda esa sog‘dcha “bug‘” ya’ni “tangri jamoli” degan ma’noni anglatadi deyilgan. “Boburnoma”da Buxoro haqida uning bir necha tumanlarga bo‘linganligi hamda meva, sabzavotlari yaxshi bo‘lishi haqida qayd eyib o‘tilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburnig “Boburnoma” asari o‘lkamiz tarixiy geografiyasini o‘rganishimizda tarixiy topografik manba vazifasini ham bajaradi. Chunki unda keltirilgan har bir shahar,

⁴¹⁹ Бердимуродов А. Самарқанд тарихидан томчилар. –Т.: Маънавият; 2015. –Б. 134.

⁴²⁰ Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. –Т.: Ўзбекистон; 1997. –Б. 134-135.

⁴²¹ Бобур З. М. Бобурнома. –Т.: Юлдузча; 1990. –Б.43-44.

⁴²² Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. –Т.: Ўзбекистон; 1997. –Б. 136.

⁴²³ Бобур З. М. Бобурнома. –Т.: Юлдузча; 1990. –Б. 47.

qilshloq, qo'rg'onlar aniq va batafsil ta'riflangan. Unda keltirilgan toponimlarning asosiy ko'pchilik qismi boshqa manbalar bilan solishtirganimizda deyarli bir xilligi, hozirda ham shu nomlar bilan atalishi va joylashish jihatidan ham qisman hozirgiga ancha yaqinligi bilan ahamiyatlidir. Asarda ta'rif berib o'tilgan joy nomlari tarixiy faklar bilan izohlab berilgan va bu hududda yashovchi aholining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham to'xtalib o'tilgan.

*Shodmonov M –
O'zMU Tarix fakulteti 2 kurs magistranti*

KO'CHMANCHI CHORVADOR VA O'TROQ DEHQONLAR MUNOSABATLARINI O'RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR (USTRUSHONA MISOLIDA)

Keyingi o'n yilliklarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganilgan manbalar, sivilizatsiyalar va ko'chmanchilar madaniyatining aloqalari masalasida uzil-kesil fikr bildirish zaruriyatini vujudga keltirdi. Tarixiy jarayondagi bunday yangilanish sifat jihatidan yangi nazariyalarni ilgari surmoqda. Bu qarashlar jahon sivilizatsiyasi ravnaqiga ko'chmanchilarning qo'shgan hissasi, davlatchiligi, madaniyati va o'troq aholi bilan kechgan munosabatlarini yoritish bilan ham bog'liq.

Madaniy taraqqiyotning ko'p ming yillik rivojiga e'tibor qaratsak, dunyo sivilizatsiyasi ravnaqida o'troq dehqon aholi bilan birgalikda, chorvadorlarning ham ijobiy o'rni borligini ko'rish mumkin. Tabiiy sharoitga bog'liq tarzda cho'l va dasht mintaqalarimizda dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatining cheklanganligi va uning yashash imkoniyatlarini to'liq ta'minlay olmaganligi sababli, bu hududlarda chorvachilik asosiy xo'jalik turiga aylanib borgan. Chorvadorlar noqulay, sug'orma dehqonchilikka nisbatan og'ir tabiiy sharoitda ancha ilg'or moslashuvni kashf etib, qiyin va cheklangan tabiiy sharoitga tezroq moslasha olganlar. Ular ilk davrdanoq, hali insoniyat qadami yetmagan bepoyon dasht, cho'l va tog'li mintaqalarni o'zlashtirib aholning tez sur'atda o'sib borayotgan oziq-ovqat (chorva) mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirib boshlaganlar.

Chorvadorlar moddiy madaniyati arxeolog – tarixchilar tomonidan ikki asrdan ortiq vaqt mobaynida o'rganilayotgan bo'lsada, hanuz, o'troq dexqonchilik vohalarining o'zlashtirilishi va urbanizatsiya jarayonlarida ko'chmanchilarning tutgan o'rni masalasida yagona tahlil qilingan ilmiy konsepsiya ishlab chiqilmagan. Agar, chorvadorlar tarixi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar qamrovini o'troq dehqonchilik vaholari va shahar madaniyatiga oid izlanishlar bilan taqqoslasak, birinchidan, nihoyatda katta tafovutni, ikkinchidan bu xo'jalik sohiblarining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi hamda o'troq dehqon aholi bilan kechgan o'zaro aloqalariga nisbatan bildirilgan noxolis fikrlarni anglash mumkin.

Dehqonchilik vohalariga ko'chmanchi chorvadorlarning kirib kelishi va xo'jalik yuritish shaklini o'zgartirishi, buning oqibatida o'troq vohalarda ijtimoiy-siyosiy va etno – madaniy aloqalarning avj olishi masalasini tahlil qilayotganda,

ikki xil xo'jalik a'zolarining o'zaro munosabatlarini bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil hayot tarziga ega bo'lgan jamoalar sifatida emas, balki ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yoki keng ma'noda mehnat taqsimoti tufayli ikkiga bo'lingan jamoalar sifatida qarash lozim⁴²⁴. Yevrosiyo aholisi ma'lum qismining ko'chmanchi chorvachilikdan o'troq dehqonchilikka(yoki aksincha)yoppasiga o'tishi to'g'risidagi fikrlarga qo'shib bo'lmaydi. Haqiqiy ko'chmanchilar hamisha harakatda (ko'chib yurishda) bo'lishgan. Imkoniyati mavjud bo'lgan vohachalarda primitiv dehqonchilik ham qilishgan. Ba'zi olimlar, ko'chmanchilarning harakatchan tabiatiga qarab, ular hamisha o'zlarining qo'shnilariga tazyiq o'tkazib kelgan deb ta'kidlaydi⁴²⁵. Bu fikrning to'g'ri emasligini o'rganilgan ashyolarning tahlillari ham ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Ustrushona kabi "kontakt zona" larda har ikki tomon bir-birining mahsulotlariga kuchli ehtiyoj sezgan. Shunga qaramasdan ta'kidlash joizki, ko'chmanchi-chorvadorlar va o'troq dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar doimo ham silliq kechmagan. Ular o'rtasida ishchi kuchi, ishlab chiqarish va mahsulot taqsimoti ustidan hukmronlik o'rnatish uchun to'qnashuvlar ham bo'lib turgan.

Ko'chmanchi xalqlarning yashash tarzi va jamiyat tuzilishini tahlil qiladigan bo'lsak, ular tabiati bosqinchilik yurishlari uyushtirishga ko'pam mos emas. Bunday yurishlar faqat yaylovlar uchun bo'lishi mumkin⁴²⁶. Ko'chmanchilar va o'troq aholi tinch munosabatlarining buzilishiga birinchidan, yaylov, o'tloq, va ekinzorlarga bo'lgan ehtiyoj, ikkinchidan, ba'zi paytlardagi qurg'oqchilik yoki qishning me'yordan ortiq sovuq bo'lishi va cho'zilishi hamda turli xil yuqumli kasalliklar natijasida chorva mollarining qirilib ketishi⁴²⁷, uchinchidan, dashtdagi turli xil ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar sabab bo'lgan. S.A.Pletnevaning yozishicha, bunday yurishlarga hamisha iqlim sharoitining noqulay kelishi va demografik portlashlar sabab bo'lgan⁴²⁸. Ibn Holdun "dasht bu oddiy bo'lmagan hayot generatori",- deb yozganda u tamoman haq edi. Nisbatan daxlsiz va qulay hududlarda joylashgan chorvadorlarda muntazam demografik portlash kuzatiladi. Aholining muntazam suratda ko'payishi va turli xildagi tabiiy va ijtimoiy sabablar markazdan qochish va yangi erlarga kelib joylashishni taqozo qilgan. Shu tarzda, bir guruh aholining xo'jalik yuritish shakllarini o'zgartirishi sodir bo'lgan. Bunday jarayonlar dasht bilan dehqonchilik vohalarini bog'lovchi-Ustrushona hududiga tinimsiz ta'sir ko'rsatardi.

Ustrushonada o'rganilgan va qayd qilingan mozorqo'rg'onlarning geografik joylashishi ko'chmanchilar o'z chorvalarini aralashtirib emas, alohida-alohida haydab boqqanligini ko'rsatadi. Bahorgi va kuzgi ko'chishlar belgilangan chegara bo'ylab kechgan, boshqa qabilaning bu erga egalik qilishga intilishi chorvadorlar o'rtasida nizolarga sabab bo'lgan. Strabonning yozishicha "...agarda birining

⁴²⁴ Байпаков К.М. Город и степ в древности: оседлость и земледелие у саков и усуней Жетысу... –С.53.

⁴²⁵ Руденко С.И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках // Географическое общество СССР. Доклады отделению этнографии. -М.: 1967. – № 1.

⁴²⁶ Сулейменов Р.Б. Формационная природа кочевого общества: проблема и метод...–С. 67.

⁴²⁷ Пардаев М.Х., Тошбоев Ф.Э. Оседло-земледельческая и кочевно скотоводческая культура Джиззакского оазиса в середине первого тысячелетие н.э.// Самарқанд Давлат Университети илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарқанд: 2007. – № 2 (36), –Б. 31.

⁴²⁸ Плетнева С.А. Кочевники средневековья. – М.: 1982. –С. 117.

yurtidan ikkinchisining o‘tib ketishi avvaldan kelishilgan shartnomasiz yuz bersa, yana urush chiqar. So‘ng yana bitim tuzilar, so‘ng esa yana urushlar ochilardi. Qo‘shnisining eriga bosqinlar qilish, keyin bitimlar tuzish – hamma ko‘chmanchilar hayoti ana shu tarzda davom etaverardi⁴²⁹”. Dehqonlar kabi chorvadorlar xo‘jaligi ham barqaror siyosiy vaziyat tufayli ravnaq topib borgan. Ko‘chmanchilar o‘rtasidagi urush ko‘pincha yaylovlar uchun kechgan. Ularning qishga ozuka yig‘masligi oqibatida ba‘zi qish og‘ir kelgan yillari chorva qirilishi va ocharchilik ulardan birining boshqalari jumladan o‘troq aholi ustiga yurish uyushtirishlariga sabab bo‘lgan.

Ustrushonada ham foydalanadigan erlar, o‘tloqlar va suvlarni taqsimlab olib, chegaralar daxlsizligiga amal qilish ko‘chmanchi chorvadorlarni shafqatsiz, to‘qnashuvlardan saqlab qolishning yagona yo‘li bo‘lgan. Biroq, shuni ham ta‘kidlash kerakki, biz bayon qilgan erdan foydalanish tizimlarining xususiy mulkchilikka hech qanday daxli yo‘q, chunki erlar sotib olinmaydi, sotib yuborilmaydi. Shu bilan birga ko‘chmanchi chorvadorlar yashash tarzi asosan, chorva soniga bog‘liq bo‘lgan. Kimning chorvasi ko‘p bo‘lsa, u yaylovlarning egasi bo‘lardi. Shu bois er uchun kurash xususiy chorvani saqlash va ko‘paytirish maqsadida sodir bo‘lgan. Bunga xo‘jalikdagi ixtisoslashuv va ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning alohida shakli deb qarash mumkin.

Ustrushona chorvadorlarining qishlovlari asosan, chorva qishlashi va boqilishiga qulay joylarda – suv manbalari mavjud bo‘lgan tog‘ vodiylari hamda, qishning qahraton kunlaridan tabiiy himoyalangan manzillar, ya‘ni dehqonchilik vohalari chegarasi bo‘ylab joylashgan. Fikrimizni aniqlashtirish uchun “xun, usun va qang‘arlarda, qishlov (qishloqlar) va yaylovlar orasidagi masofa odatda katta (70-75 km dan 200-250 km gacha bo‘lgan) hududlarni o‘z ichiga olgan”⁴³⁰.ligini misol keltirishimiz mumkin.

Shubhasiz, qadimgi aholi xususan, ko‘chmanchi chorvadorlar yashash va xo‘jalik yuritish tarziga tabiiy geografik omillar–iqlimdagi o‘zgarishlar ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Tabiat va jamiyat, tabiat va insonning o‘zaro bog‘liqligi, hozirgi zamon fanining asosiy mavzusidir⁴³¹. Ustrushona hududiga ko‘chmanchi chorvador aholining kirib kelishi va o‘troqlashishi kabi masalani oddiy tarzda, tabiat va inson mavzusidan xoli tahlil qilib bo‘lmaydi. Ushbu mavzuning dolzarbligi, bugungi kunda ekologik inqirozning mahalliy va global tarzda kuchayib borayotganligi bilan yanada oshmoqda. O‘tmishda sodir bo‘lgan antropogen ko‘rinishdagi geografik omillar bilan bog‘liq oziq-ovqat va yaylov muammosining paydo bo‘lishi va natijada ko‘plab aholining o‘z yashash joylaridan siljishi, oddiy shunchaki jo‘n hodisalar emas. Bunda, ko‘chmanchilar bir qismining Markaziy Osiyoning o‘tli yaylovlari va oziq-ovqat kam, quruq cho‘l va dashtlaridan, o‘tlarga boy yaylovlar sari harakati ta‘kidlanmoqda. Albatta, bu migratsiyani ijtimoiy omillar sabab bo‘lgan agressiv migratsiyadan farqlash zarur.

⁴²⁹ Страбон. География. XI, 8, 3,

⁴³⁰ Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Т.: Академија; 2008, – Б. 83.

⁴³¹ Хотинский Н.А. Климат и человек в голоцене аридных и гуманидных зон северной Евразии // Аральский кризис. – М.: 1991. –С. 48-49.

Shunday qilib, qadimda Oʻrta Osiyoning boshqa hududlaridagi kabi Ustrushonada ham oʻtroq va chorvador aholi bir-birisiz normal faoliyat koʻrsata olmaganlar. Baʼzi hollarda chet el bosqinchiligi natijasida, voaha aholisi ular asoratiga tushib qolar va oʻtroq aholining koʻchmanchi-chorvadorlar bilan aloqalari sunʼiy ravishda uzib qoʻyilar edi. Aynan shu sababli ham, chet el bosqinchilariga qarshi har ikki tomon birgalikda kurash olib borgan. Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qoʻshinlariga oʻtroq aholi (sugʻdlar, baqtriyaliklar va oʻtroq ustrushonaliklar) bilan bir safda Ustrushona chegaralaridan boshlanuvchi bepoyon dashtlar egasi – sak (massaget)larning ham qarshi kurashganligi, arablar bosqiniga qarshi kurashda dasht aholisi (turklar)ning yordamga kelishi, Xitoy ekspansiyasiga qarshi kurashdagi arab, soʻgʻd va chorvador turkiylarning hamkorligi kabilar fikrimizning isbotidir⁴³². Bu hamkorlik turli davrlarda turlicha maʼno kasb etgan. Baʼzi hollarda koʻchmanchilik bilan shugʻullangan xalqlar oʻtroq aholi tomonidan barpo qilingan davlatlarga yarim qaram holda kirib, maʼlum majburiyatlarni olgan, yoki aksincha holatlar ham boʻlgan. Aytish mumkinki, Oʻrta Osiyo sharoitida iqtisodiyotning uzluksiz rivoj topishi faqat oʻziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xoʻjalik yurituvchi aholi madaniy areallari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi.

⁴³² Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари... –Б.138; 157.

4-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР – СУВ МУНОСАБАТЛАРИ ТАРИХИ (ҚАДИМГИ ДАВРДАН ҲОЗИРГИ КУНГАЧА)

*Abdullayev A. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

TURKISTON O‘LKASINING XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARIGA DOIR BA'ZI MULHAZALAR

XIX asr o‘rtalarida Rossiya imperiyasida mamlakat ichkarisidagi iqtisodiy-ijtimoiy va halqaro miqyosdagi siyosiy ahvoli yomonlashuv oqibatida, keng ko‘lamda islohotlar o‘tkazish zarurati yuzaga keldi. Shu bilan birga Rossiya imperiyasi sanoatni rivojlantirish yo‘lida ichki islohotlarni o‘zi mustaqil o‘tkaza olsa ham yangi xom ashyo manbalari va raqobatsiz bozorlarga ega bo‘lmasdan rivojlana olmasligini yaxshi anlar edi. Shu maqsadda Rossiya imperiyasi asosiy e‘tiborini O‘rta Osiyo xonliklari hududini egallash uchun bir qator yirik harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududlarining katta qismini egallab olindi va bu yerda o‘ziga xos mustamlaka boshqaruv tizimini o‘rnatish uchun dastlab, 1865-yil 2-martda Rossiya senatining Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan Issiqko‘lgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qilish to‘g‘risidagi farmoni e‘lon qilindi. Shu davrdan boshlab, Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi hukmronligi boshlandi. Ko‘p vaqt o‘tmay 1867-yil 11-iyulda Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to‘g‘risidagi qonun e‘lon qilingan. Uning birinchi general-gubernatori qilib general-auditant K.P.Kaufman (1867-1882-yillarda) tayinladi⁴³³.

Turkiston general-gubernatorligi 1867-yili tashkil etilgan vaqtda ikki viloyat: markazi Toshkent bo‘lgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo‘lgan yettisuv viloyatiga bo‘lingan. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo‘shimcha tarzda quyidagi ma‘muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868-yilda – markazi Samarqand bo‘lgan Zarafshon okrugi; 1874-yilda – markazi Petroaleksandrovska (To‘rtko‘l)da bo‘lgan Amudaryo bo‘limi; 1876-yilda Qo‘qon xonligining tugatilishi hisobiga – markazi Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona) shahrida bo‘lgan Farg‘ona viloyati. Toshkent shahri poytaxt sifatida mustaqil ma‘muriy birlikni hisoblangan⁴³⁴. Shunday qilib, general-gubenatorlikning jami yer maydonii 1533255 km. Kvadratga kengaygan⁴³⁵.

Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida mustamlaka mamuriy boshqaruv tizimini o‘rnatganidan so‘ng, o‘lkasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, boshqa sohalar qatori o‘lkadagi

⁴³³ Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача) –Т.: Шарқ; 2001. –Б. 146.

⁴³⁴ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор Мустамлака тизими. –Т.: Академия; 2002. –Б. 41-43.

⁴³⁵ Мусаев Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. –Т.: Иқтисод-молия; 2008. – Б.7.

bir necha asrlar davomida shakllangan yer egaligi munosabatlarida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Bosib olinganga qadar, Oʻrta Osiyo xonlarida yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning toʻrtta turi mavjud boʻlib ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlar – yer egalarning xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amlok yerlari – xonga qarashli yerlar – oʻrmonlar, toʻqaylar, yoʻlukoʻpriklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurgʻol). 4. Vaqf yerlari – diniy muassalar, yaʼni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar. Bundan taqari qishloq jamoasiga qarashli yerlar, koʻl, va adirlar ham boʻlib, ulardan aholi umumiy asosda foydalanishgan⁴³⁶.

Imperiyasi hukumatining Turkiston oʻlkasidagi agrar siyosatini asosiy maqsadlaridan biri boʻlgan paxta xom ashyosini yetishtirish koʻpaytiri va tovar sifatida yoʻlga qoʻyilish, sugʻoriladigan yerlardan boshqa qishloq xoʻjalik ekinlarini, birinchi navbatda, dehqonchilik ekinlarini siqib chiqarish uchun oʻlkadagi yerlarni qonuniy ravishda davlat tasarrufiga oʻtkazish boshladi. Paxtachilikni rivojlanishi bilan oʻlkada sugʻorish tizimi va yerlarning meliorativ xolatini muntazam yaxshilash zarurati kelib chiqdi. Bu kabi xolatlar Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston oʻlkasida mavjud yer-suv munosabatlarini oʻrganishni talab etar edi. Shu maqsadda mustamlaka maʼmurlari bir qator oʻlka tarixini oʻrganishga oid chora tadbirlar amalga oshirdi. 1867-yilda Turkiston oʻlkasi boshqaruvini oʻz qoʻliga olgan general K.P.Kaufman bu oʻlkaning qishloq xoʻjaligi ahvoli va yer egaligining turlari haqida umuman maʼlumotga ega boʻlmagan. Koʻplab mavjud boʻlgan arxiv hujjatlari maʼlumot berishicha, K.P.Kaufman yer masalasining yangi bosib olingan oʻlkada agrar siyosatni yangi hokimiyatning siyosiy oʻrnini mustahkamlashda juda ham muhimligini anglagan. Ana shuning uchun 1867-1881-yillar davomida K.P.Kaufman yerga egalik masalasidagi bir necha yangi loyihalarni ishlab chiqishda boshchilik qilgani, bazi holatlarda esa bu sohada eksperimentlarga ham ruxsat bergan⁴³⁷.

Turkiston oʻlkasini boshqarishda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan K.P.Kaufmanga juda keng vakolatlar berilib, u bu vakolatlardan toʻla toʻkis foydalangan, ayniqsa buni yer-mulk munosabatlari tartibga solish sohasida amlaga oshirgan siyosatida koʻrishimiz mumkin. U Oʻrta Osiyodagi mavjud yer egaligining tuzilishini oʻrganish va yangi yer egaligining loyihalarini ishlab chiqish, umumiy va aniq muammolar boʻyicha bir qator mutaxassislar ishga jalb qilgan. Shuningdek, imperiya hukumati oldida oʻlkadagi musulmonlar shariat va odat huquqi normalarini tadqiq qilish boʻlib, shu maqsadda taniqli sharqshunoslar bilan aloqalar oʻrnatilib, ularni Turkiston oʻlkasiga doimiy ishga taklif qilgan. Masalan, K.P.Kaufman 1868 yilning boshida mahalliy aholi va koʻchmanchilarning yer huquqlarini oʻrganish hamda aniqlash, undan tashqari hukumat yer va mulk egaligi masalasida qaysi yer huquqiga rioya qilishi kerakligini xal qilish maqsadida, “Harbiy okrug kengashi” aʼzosi boʻlgan polkovnik M.N.Nikolaevga toshiriqlar bergan. Bundan tashqari, 1869-yilning may

⁴³⁶ Худойкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлиги (ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти). –Т.: ТАФАККУР; 2016. –Б 65-66.

⁴³⁷ Савицкий А.П. Поземленный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867-1886 гг.) –Т.: 1963. –С. 14.

oyida Peterburgdagi kutubxonalarda va ilmiy muassalarda Turkiston o'troq aholining yer egaligi huquqlarini o'rganish maqsadida General shtab shtabs-kapitani V.Komarov ham jo'natilgan edi⁴³⁸.

1869-yilning o'zidayoq polkovnik M.N.Nikolaev, shtabs-kapitan V.Komarov va sharqshunos A.L.Kunning materiallari o'lkadagi yer egaligining nazariy va yuridik taraflarini o'rganilib, ular aniqlik kiritgan xolda 1869-yilning 11-avgustida K.P.Kaufmanga Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi hisobotda taqdim qildi. K.P.Kaufman kasnelyariya maslahatiga quloq soldi va 1869-yil 6-oktyabrda 67-sonli buyrug'i bilan mahalliy ma'murlar hamda aholi vakillaridan iborat yangi komissiya tarkibi tuzilgan. Buyruqqa ko'ra, Turkiston general-gubernatorligining kanselyariyasi boshlig'i A.I.Gomzin rais etib tayinlandi. Mazkur komissiya bergan xulosaga ko'ra, ishlov berilgan yerlar shari'at bo'yicha uch toifa: 1) xurri-xolis, 2) mamlyuk (mulk), 3) amlok yerlardan iborat bo'linganligini aytib o'tadi⁴³⁹. Komissiya mulk yerlarini shari'at qonun-qoidalari asosida tuzilgan xujjatlari mavjud bo'lgan taqdirdagina u haqiqiy hisoblangan.

Shuningdek, yana bir yer egaligi turi vaqf mulkiga oid yerlar bo'lib, ta'kidlash joizki, O'rta Osiyoni bosib olishning ilk davrida imperiya ma'muriyati vaqf mulkchiligi sohasida katta o'zgarishlar qilishga shoshilmadi. Xususan, 1865-1866-yillarda Turkiston viloyati harbiy gubernatori lavozimida bo'lgan M.G.Chernyaev olib borgan siyosat vaqf mulklariga ancha yumshoqligi bilan ajralib turadi. Bu davrda harbiy gubernator devonidan chiqishda hujjatlar tahlili vaqf xo'jaliklari faoliyatini yuritish va muammolarni hal qilishda imkon qadar Qo'qon xonligi davridagi an'analarga tayanilgani yaqqol ko'zga tashlanadi⁴⁴⁰.

1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan vaqtdan boshlab boshqa sohalar qatori o'lkadagi bir necha asrlar davomida shakllangan vaqf tizimida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Turkiston general-gubernatorining 1869-yil 6-oktyabrda 67-sonli buyrug'i bilan mahalliy ma'murlar hamda aholi vakillaridan iborat yangi komissiya birgina Sirdaryo viloyati bo'yicha (Xo'jand uezdi bilan birga) 1869-yilda aholidan qabul qilingan 2364 ta vaqf va xususiy mulkchilikka oid hujjat asosida ish olib borishgan. Bu xujjatlar 1874-yilda egalariga qaytarib berildi⁴⁴¹. Bu borada 1886-yilgi "Turkiston o'lkasini boshqarish" to'g'risidagi Nizomda mustahkamlab qo'yilgan yangi yer egaligi, xususan vaqf mulklarini ta'sis etish general-gubernator ruxsati bilan amalga oshirilishi, vaqf mulklarning huquqiy maqomi va vaqf mulklar nazorati kabi yangi qoidalar asos qilib olindi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligini bosib olgandan so'ng, general Kaufman yana o'zining avvalgi siyosatini davom ettirdi. 1876-yilning kuzidan boshlab, "yer soliq" hamda vaqf masalalari bilan shug'ullanuvchi komissiya ish boshladi. Amirlik va xonliklar davrida vaqf mahkamalari hech qanday majburiyatlarni to'lamagan edi, lekin 1881 yildan boshlab Marg'ilon

⁴³⁸ Савицкий А.П. Поземленный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867-1886 гг.). –Т.: 1963. –С. 15.

⁴³⁹ Савицкий А.П. Поземленный вопрос в Туркестане (в проектах и законе 1867-1886 гг.). –Т.: 1963. –С. 37.

⁴⁴⁰ Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислохотлар ва муаммолар (XVI–XX аср бошларига оид тарихий хужжатлар асосида). Дис.т.ф.н. –Т.: 2016. –Б. 220.

⁴⁴¹ Ўша жой. –Б. 221.

uezdiga katta miqdorda soliqlar to‘lashga majbur etilgan. Bunga misol qilib, uezdagi mulla, mudarris va imomlari uezd boshqarmasiga yozgan shikoyat xatlarida ko‘rishimiz mumkin⁴⁴².

Turkiston hududini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinayotgan vaqtda mustamlakachilar o‘zlariga xizmat qilgan yoki yordam bergan shaxslarga ham katta-katta imtiyozlar bergandi. Shuni inobatga olishimiz kerakki, bu imtiyozlar keyinchalik ortig‘i bilan qaytarib olingandi.

K.P.Kaufman shaxsan rahbarligidagi Turkiston general-gubernatorligidagi ma'muriyati “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomini loyihasi tayyorladi va 1886-yili u podsho hukumati tomonidan tasdiqlandi. Turkiston general-gubernatori boshliq bir guruh amaldorlar bundan keyin vaqf daromadlarini ularning ixtiyorida qoldirishni asossiz deb hisoblaydilar.

1882-yili podsho Aleksandr III buyrig‘iga binoan “Turkiston o‘lkasining taftish qilish haqida” buyruq beriladi. Bu buyruqni maxfiy maslahatchisi Girs amalga oshiradi. Girsning taftish ishlarini olib borishi va fikrlariga yaxshiroq e‘tibor bersak, u ham vaqf mahkamalarining mahalliy xalqqa ta‘sirini cheklash hamda oxir oqibatda yo‘qotish uchun yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatgan edi.

Lekin XIX asrning 80-90-yillarida vaqf mulklari ommaviy tarzda taftish qilish vaqtida vaqf xo‘jaliklarining butunlay tugatish va davlat foydasiga soliqqa tortish bilan yakunlandi.

Bundan tashqari, o‘lka ma'muriyati yer egaligi sohasi nazorati va boshqaruvini “yengillashtirish” maqsadida qator taftish komissiyalarini tashkil qildi. Turli yillarda tuzilgan komissiyalar yer mulklar hujjatlarini tekshirish ishlarini olib bordi. Turkiston o‘lkasidagi mavjud bo‘lgan yerlarning barchasi hujjatlari o‘rganilib, hujjatlaridagi kamchiligi borlari dastlabki bosqichda, kolganlari asta sekinlik bilan davlatga tegishli yerlar aylantirildi va davlat tomonidan ruxsat berilmaguncha yerdan foydalanish mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Rossiya imperiyasi bu boradagi siyosati shular bilangina to‘xtab kolmadi va bunday ishlar XX asr bolarida ham davom etdi.

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi bosib olinganidan so‘ng, hukumat o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hukmronligini o‘rnatdi. Xususan, o‘lkada mustamlaka siyosatini konuniy mustahkamlab olish maqsadida barcha yerlarni davlat mulki deb e‘lon qildi hamda belgilangan tartibda soliqlar to‘lashni joriy qildi. Mahalliy hukumat yer mulklariga oid hujjatlarni tekshirish asnosida ko‘pgina yerlarni davlat ixtiyoriga o‘tkazib yubordi. Hatto vaqf mulklariga tegishli hujjatlar ham sinchiklab o‘rganilib, majburan tortib olinadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad qishloq xo‘jaligi sohasini isloh qilish, ayniqsa, paxta ekiladigan maydonlarini kengaytirish va ularni davlat mulk qilish, shuningdek, xosil miqdori hamda to‘lovlarni imkon qadar ko‘paytirish bo‘lgan.

⁴⁴² Собиржон Болтабоев. Туркистондаги вақф мулклари тарихи (Ўқув-услубий қўлланма). НАМАНГАН; нашриёти, 2005. – Б. 22.

ЛЕТОПИСЬ АРАЛА РАФАЭЛЯ МАТЕВОСЯНА

На всех хронологических этапах своего исторического развития человечество породило огромное количество видных и значимых личностей, о которых сегодня мы говорим и вспоминаем с восхищением, труды, которые они оставили после себя потрясают своей грандиозностью, красотой, яркостью и неповторимостью. И история будет помнить о них, так как за ними будто огненный шлейф, тянется впечатляющий след прекрасного. Но, порою живя обыденной жизнью мы можем замечать некоторых людей, наших современников, которые являются продолжателями этого огненного шлейфа. И лишь со временем, соприкасаясь с чем-то неповторимым мы начинаем осознавать, что был рядом с нами человек творец грандиозных чудес. Одним из таких личностей, о котором с уверенностью можно сказать является, и наш современник Рафаэль Теватросович Матевосян. Об этом человеке, художнике и философе можно говорить долго и неустанно, с легкостью. Маэстро, так называли многие друзья и близкие художника, после своей жизни оставил большое количество прекрасных и неповторимых произведений искусства, отражающие существование целого исторического процесса существования и катастрофы Аральского моря. Творя свои произведения, он несомненно, смог оставить за собою целую цепь исторических произведений о грандиозных событиях, прекрасной природе и волнах, человеческом быте, о потерянных кораблях в глубокой пустыне. И все это родилось из личного наблюдения художника.

Будущий художник-живописец Рафаэль Теватросович Матевосян родился в 1924 году в г. Самарканде. В 1930 году его семья переехала в г. Баку, где Рафаэль провел свои юношеские и студенческие годы. В 1936-1938гг учился и окончил школу «Каспийской Детской морской флотилии». Был участником Второй Мировой войны 1941-1945гг. А в 1957 году окончил художественно училище им. Азим Азим-Заде.

У живописца еще с детства стало проявляться увлечение к рисованию, зачитывался книгами о морских путешествиях, и мечтал писать море на полотнах, как это делал Айвазовский. Его мечты, страсть и стремление к достижению еще юношеских мечтаний быть в глубине морских пучин, и ощущать волны моря, уже будучи в зрелом возрасте сбылась, и причем с избытком.

В 1962 году он совершил творческую поездку в каракалпакский г. Нукус, куда он был направлен и должен был писать портреты знаменитых людей Каракалпакстана. Но в городе судьба свела его с будущими друзьями-муйнакцами, которые рассказав ему о море, о рыбаках, привлекли его внимание, и он проявил интерес к будущим событиям, связавшими его уже на всю оставшуюся жизнь. Благодаря этим встречам было отмечено начало истинного творческого слияния личности как художника с самим

потенциалом Аральского моря. Так он попал в Муйнак (портовый город в южной части Аральского моря), где произошло его знакомство с прекрасным Аральским морем. Зори Арала изумили его, и на месте он начал впервые ощущать и понимать энергетику цветовых оттенков моря, берегов, всего живого. Мелькавшие в работе дни сложились в годы, они проходили на этюдах, в тугаях и плавнях Дельты Амударьи, на улицах и причалах Муйнака и рыбацких поселках. И конечно, в морских просторах. Тяга к знаниям и к прекрасному не оставляла его, воплощаясь он мечтал о том, чтобы местные рыбаки, да и все жители окрестности могли также соприкоснуться с прекрасным - на рыбацких судах экспонировал свои первые персональные выставки для тружеников моря.

«Это была подлинная жемчужина в оправе двух великих среднеазиатских пустынь – Устюрта и Кызылкумов. Необыкновенной голубизны море, среди песков и безжизненных пространств, потрясло мое воображение. Здесь я открыл для себя невероятное сочетание красок»,⁴⁴³ так художник писал в своих заметках и воспоминаниях о своем творческом жизненном путешествии.

Самым первым этюдом мастера кисти был создан на причале Казак-Дарьи: «Лодки в камышах», и это было его первое знакомство с Аралом и первый мазок к будущей его теме: «Аральские мотивы», которая стала для него основной направляющей в его творческой деятельности.

Долгая творческая жизнь Рафаэля Матевосяна целиком отдана Аральскому морю и людям этой земли. В 1973 году его избирают ответственным секретарем Союза художников Каракалпакии. Неутомимый труд и любовь к Приаралью дают первые плоды, в 1977 году муйнакцы признали его «своим», и он стал почетным гражданином столицы рыбаков Южного Арала – города Муйнака. Год спустя за заслуги в развитии изобразительного искусства Автономной Республики Каракалпакстан, Матевосян Р.Т. был удостоен почетного звания Заслуженного работника культуры ККАССР.

Одной из уникальных особенностей картин Рафаэля Матевосяна было присутствие практически в каждой его работе об Арале его любимых чаек-хохотуньей. Находясь около причала или на рыбацкой моторке, художник наблюдал и наслаждался полетом этих прекрасных птиц, свободно парящих в воздухе. «Они медленно поднимались высоко в небо и вдруг стрелой бросались вниз, ныряя в толщу волн и опять с добычей взмывали в высоту»⁴⁴⁴.

Творческие мотивы Р. Матевосяна разнообразны – он пишет пейзажи, портреты, натюрморты, работает в историческом и бытовом жанрах.

С большим увлечением пишет художник об Арале, о его берегах, рыбацких фелюгах, уютных маленьких домиках. Живописным мастерством художника отмечены полотна «Аральское море», «Муйнакский пейзаж». В

⁴⁴³Барнашевский П. Художник об Арале// Советская Каракалпакия. 1987. №140

⁴⁴⁴ Матевосян Р. Мои воспоминания об Арале, Муйнак 1963.

картине «Муйнакские рыбаки» Матевосян показывает мужество и трудолюбие рыбаков южного Приаралья. С большой искренностью и теплотой написан каждый мазок. Здесь море дышит, и вода, словно живая, набегает на зрителя. С нескрываемым удовольствием он раскрывает тему труда, умело раскрытая в ряде полотен «Арал ночью», «Морской порт», «Рыбачья фелюга» и др.

Наивысшим мастерством наш художник стал писать и уникальные портреты разных людей, в каждом из них он смог раскрыть весь внутренний мир человека, их душевную красоту. Его герои – люди замечательной судьбы, да и характер их простой, открытый. Таков и сам художник. Его картины – «Портрет следователя Юсупова», «Портрет хирурга», «Портрет знатного картофелевода Дмитриевского совхоза города Уфы М. Рафикова⁴⁴⁵», «Хореографист», «Портрет журналистки» и многие другие замечательные картины заняли свое место в сердцах миллионов людей во всех выставках автора.

Плодовито работал художник в области такого жанра изобразительного искусства, как натюрморт. Имеются самые разнообразные виды полотен на данную тему: «Натюрморт с баклажанами», «Натюрморт с казаном», «Натюрморт с книгой», «Натюрморт с гранатом» и многие другие. Главное, что отличает натюрморты Р. Матевосяна так это – цвет и свет: ощущаются материальность предметов, их форма, фактура.

Цвет моря для нашего восприятия, как известно, зависит от погоды. Многим, наверное, приходилось наблюдать, как рано утром под лучами солнца скользят по голубым волнам полосы света и как сливается безмятежно-спокойное море своей синью с синевой небес. Но вот набегали тучи, и потемнели волны. Художнику дано запечатлеть истинную игру цвета так, чтобы мы могли вновь явственно представить себе виденную ранее картину.

Удивительно свеж и впечатляющ пейзаж «Крыши Муйнака». Картина пронизана оптимистическим настроением, ощущением радости бытия. Выполнена она в теплых тонах с тонким чутьем цветовой гаммы. Явственно представляешь себе рыбацкий город, сбегаящие к морю улочки. И понимаешь, что тишь, охватившая город, обманчива, потому что здесь ждут ушедших в море рыбаков.

Вот одна из работ «Судно на ремонте»⁴⁴⁶. Полоска берега небольшого залива как бы застывшей зеленоватой водой. Казалось бы, в картине, открывавшейся взору художника, нет ничего необычного, что могло бы привлечь художественное видение. Но оглянитесь внимательней – и перед вами предстает опозитизированная картина жизни рыбаков. Судно, фигуры людей выписаны с большой реалистической точностью, с подробностями в деталях. Чувствуется, что художник хорошо изучил предмет творческого осмысления.

⁴⁴⁵ Сычева В. Раздумья о Родном крае// Советская Каракалпакия. 1979. №77

⁴⁴⁶ Каталог выставки произведений Р. Матевосяна, посвященный 50-летию со дня рождения. Составитель Сычева В.Е. Нукус. 1978.

Но всё же, главной темой маэстро была – тема Арала, которой он посвятил всю свою жизнь. В своих картинах он, главным образом, воспекает красоту природы Каракалпакии. Его часто называют «певцом седого Арала». Художник написал более сотни художественных полотен, посвященных Аралу. Только на картинах Рафаэля Матевосяна ученые-исследователи могут еще найти так называемые «нулевые позиции» (т.е. сравнения как выглядели те или иные места на Арале до начала катастрофы), которых они уже не нашли, что и служит вспомогательным материалом в изучении проблемы Аральского моря.

Не просто виды моря описывал художник, но и его внутреннюю жизнь. Потому на картинах последних лет все реже вода и свежий ветер, все больше барханы, пески и ржавые остовы кораблей. Большую часть своей выставки (ок 60%) художник подарил жителям Муйнака, которые ныне выставляются в экспозиции музея экологии Муйнакского района. Художник считал, что как можно больше людей по всей республике должны увидеть запечатленное в красках Аральское море – каким оно было и каким оно стало. Ведь теперь за горизонт уходит лишь мрачная, безжизненная пустыня, унося с собой воспоминания о плескании вод седого Арала. К сожалению, сегодня большинство молодых жителей рыбацкой столицы Южного Арала – Муйнака не видели в глаза само море, оно осталось только в воспоминаниях старожил и, конечно на картинах мастера кисти – Рафаэля Матевосяна.

Работы, написанные в последние и зрелые годы жизни художника пронизаны болью и тревогой за судьбу уникального создания природы в произведениях последних лет – «Красные пароходы», «Гроза в песчаной бухте», «Затмение над Аралом», «На вечном приколе». На полотнах предстают поистине трагические картины: разрушенные рыбацкие дома, одинокие корабли в пустыне, где раньше так живо и воодушевляюще плескалось море, седой налет соли на некогда плодородных землях... Они не радуют глаз морским простором, гармонией красок. Теперь он свою главную задачу видит в том, чтобы привлечь внимание людей к трагедии Арала, заставить задуматься о ее причинах, подтолкнуть к действию.

Особое внимание привлекает к себе работа «Сувенир». В картине нет ни воды и ни ветра. В центре гигантской ржаво-песчаной сковороды беспомощно застыл кораблик – как сувенир. Кто, какой гигантской силой сможет развязать затягивающийся узел экологической катастрофы, привести в гармоничное соответствие все природные компоненты, перепутанные сейчас, как грани кубика Рубика⁴⁴⁷, вынесенного в центр композиции «Аральской трагедии»?

В последние годы жизни художник был оторван от поездок на Арал. Но Арал существовал не только в его сердце, но и на балконе. В часы отдыха и раздумье о прошлом, он пускал бумажные кораблики в бочку, наполненную водой, и мастерил свои любимые чайки. Полотно «Море в

⁴⁴⁷ Юсупов О. И боль, и красота Арала// Комсомолец Узбекистана. 1988. №95.

бочке»⁴⁴⁸ ныне считается одним из последних жизненных работ автора, после чего силы постепенно оставляли Маэстро, и кисти, остались безжизненными.

Маэстро ни на минуту не переставал верить в то, что «возлюбленный им Арал еще вернется, а его чайки – прилетят»⁴⁴⁹, для этого он и творил.

*Kamolova M.F. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

ZARAFSHON VOHASINING SUG‘ORILISH TARIXIGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

*Buxoro vohasining sug‘orilish tarixi-buxoroliklarning
asrlar davomida suv uchun olib borgan kurash tarixidir.
A.Muhammadjonov*

Markaziy Osiyoning har bir hududi qadimdan to hozirgi kunga qadar o‘zining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘rniga ega bo‘lgan. Mana shunday ahamiyati yuqori bo‘lgan hududlardan biri Zarafshon vohasidir.

Sharqning barcha katta-kichik daryo havzalarida bo‘lganidek, Markaziy Osiyoning qulay tabiiy-geografik va iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan Zarafshon vohasi qadimgi dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi, sug‘orish tarmoqlari, shuningdek, suv inshootlarining barpo etilishi hamda irrigatsiya xo‘jaligining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hudud hisoblanadi.

Zarafshon vohasini bunyod etgan va bu vodiyning sug‘orilib obod etilishida hayotbaxsh rol o‘ynagan yagona suv manbai qadimda “Mosif” va “Nomiq” daryosi deb yuritilgan. Yunonistonning antik davr mualliflari o‘z asarlarida uni “Politimet” ya’ni “Ulug‘” yoki “Azim” daryo deb yozadilar. X asr arab geograflari uni “Vodi us Sug‘d”, “Nahr us Sug‘d”, va “Nahr ul Buxoro” nomlari bilan tilga oladilar. XVIII asrdan boshlab unga “Zarafshon” ya’ni “Zar sochuvchi” nomi berilgan.⁴⁵⁰

Markaziy Osiyodagi qulay tabiiy iqlim, boy, serunum yerlar – bularning barchasi qadimdan qolgan tarixiy yodgorliklar va yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Shu o‘rinda 943-944 yillarda Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy tomonidan yozilgan “Buxoro tarixi” asari ayniqsa ahamiyatga molik.

Asarning XIII bobi “Buxoro va uning atrofidagi anhorlar” deb atalgan bo‘lib: “Birinchisi Karmina anhuri: bu katta anhor. Ikkinchisi Shopurkon anhuri. Uchinchi anhorni Harqonot ul-Ulyo, to‘rtinchisini Harqonrud, beshinchisini Ovxatfar, bu g‘oyat katta va keng anhordir, oltinchisi – Samjan, yettinchisi Boykunrud va sakkizinchisini Farovizi Ulyo deydilar. Aytishlaricha, hamma anhorlarni xalq qazigan, ammo Ovxatfar anhorining qazilishida u yerning xalqi zahmat chekmagan, uning suvni o‘zi o‘yib qazigan. Hozir buxoroliklar uni Rudi Nafar deydilar”⁴⁵¹

⁴⁴⁸ Данные получены в ходе интервью, проведенного нами (Доспанова А.О и Доспанов О.Т) с родственниками художника с Адой М., Робертом М., Галиной М. в 2014.

⁴⁴⁹ Полянская Н. Я верю, мои чайки прилетят// Вечерний –Т.: 1987, №215

⁴⁵⁰ Мухаммаджонов. А. Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи, -Т.: 1972.

⁴⁵¹ Narshaxiy. Buxoro tarixi. Meros turkumidan. –B. 110-111.

Asarda yuqorida Buxoro hududida sug'orish tizimi ishlari keng yo'lga qo'yilganligi, qishloq xo'jaligi yaxshi taraqqiy qilganligi alohida ta'kidlanadiki, bu ma'lumotlar O'rta Osiyoda dehqonchilik madaniyati gurkirab rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning bir qancha dehqonchilik vohalari qatorida Zarafshon vodiysining, xususan Buxoro vohasining sug'orilish tarixi tarixshunoslikda eng kam yoritilgan masalalardan biri hisoblanadi. Uni har tomonlama chuqur va keng yoritish shubhasiz ham ilmiy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

XX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoning turli vohalarida sug'orma dehqonchilik va sug'orilish tizimining kelib chiqishi hamda qadimgi sug'orilgan yerlarning tabiiy sharoitlariga bag'ishlangan qator maqola va ilmiy asarlar nashr etilgan. Masalan, V.M. Masson, G.N. Lisitsing, N.G. Minashinaning maqolalarida Murg'ob, Tajan, Iliy vodiylarining sug'orilish tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Zarafshon vodiysining suv xo'jaligini o'rganishga XIX asr rus mualliflaridan A.P. Fedchenko⁴⁵², A.Grebenkin⁴⁵³, L.N. Sobolev⁴⁵⁴, G.A. Arendarenko⁴⁵⁵, V.V. Radlov⁴⁵⁶, N.F. Petrovskiy⁴⁵⁷ va boshqalar ma'lum darajada hissa qo'shdilar.

XX asr boshlarida rus to'qimachilik sanoatining rivojlanishi asnosida O'rta Osiyoda bir qancha gidro-geologik, gidrometrik, tuproqshunoslik, arxeologik va boshqa ekspeditsiyalari tashkil etildi.

Buxoro vohasining arxeologik tadqiq etilishi munosabati bilan uning o'zlashtirilish tarixi masalalariga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqola va asarlar paydo bo'ldi. Bu borada V. A. Shishkinning "Varaxsha" nomli asari ayniqsa qimmatlidir.⁴⁵⁸

Quyi Zarafshonning sug'orilish tizimi tarixi keng ko'lamda Y.G'. G'ulomov tomonidan o'rganildi. Y. G'ulomovning asarlari arxeologik va etnografik ma'lumotlarga boy hamda ushbu asarlarda Buxoro vohasining sug'orilish tarixi masalalari yoritib berilgan.⁴⁵⁹

1966 va 1970 yillarda Buxoro xonligidagi agrar munosabatlar tarixiga bag'ishlangan ikki jildlik monografiya M.A. Abduraimov tomonidan chop etildi.⁴⁶⁰

⁴⁵² Федченко А. П., Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) -М. 1870.

⁴⁵³ А. Гребенкин А., О причинах неурожаев в Бухарском ханстве. Туркестанские ведомости. № 18, 1872.

⁴⁵⁴ Соболев Л. Н., Географическое и статические сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа, 1874.

⁴⁵⁵ Арндаренко Г. А., Заметки об ирригации в нагорных туманех Зеравшанского округа, Туркестанские ведомости, № 51, 1876.

⁴⁵⁶ Радлов В. В., Средняя Зеравшанская долина, 1880.

⁴⁵⁷ Н. Ф. Петровский, Туземная единица объема воды и способы деления ее, -Самарканд. 1897.

⁴⁵⁸ Шишкин В. А., Варахша, М., Изд-во 1963.

⁴⁵⁹ Гулямов Я. Г., К изучению древних водных сооружений в Узбекистане,- Известия АН УзССР, Л° 2. 1955; Ўша китоб, Археологические работы к западу от Бухарского оазиса,— Труды Института истории и археологии АНУзССР. вып. 8. Ташкент. Изд-во АН УзССР, 1956; Ўша китоб, Исследование исторической гидрографии низовьев Кашка-Дарьи и Зеравшана,— История материальной культуры Узбекистана, вып. 6. Ташкент, Изд-во Наука, 1965; Шу автор, Освоим земли древнего орошения - Земли древнего орошения и перспективы их сельскохозяйственного использования, -М.: Изд-во Наука; 1969.

⁴⁶⁰ Абдураимов М. А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI и первой половине XIX века, -Т.: Изд-во Фан; 1966.

Asarning birinchi jildidagi maxsus bir qism Buxoro xonligining XVI – XIX asrlardagi suv xo‘jaligiga bag‘ishlangan. Lekin asarning sug‘orish tarixiga oid qismi uzoq yuluq ma‘lumotlarga ega.

O‘rta asrlarga oid yirik gidrotexnika inshootlari qoldiqlarining topib tekshirilishi sug‘orilish inshootlarining arxitekturasi, qurilish materiallari va ularning tuzilishi ayrim arxitektor va irrigator-gidrotexniklarning diqqatini o‘ziga tortdi. Shu masalalarni o‘zida aks ettirgan ayrim maxsus maqolalar chop etildi. Ular qatoriga A. Boboxonov⁴⁶¹, Z. Husanxo‘jayev⁴⁶² va N. Grajdankina⁴⁶³ning maqolalari diqqatga sazovordir.

Quyi Zarafshon vodiysi sug‘orilish tarixiga bag‘ishlangan, keng qamrovli, fundamental asarlardan yana biri sifatida A. Muhammadjonovning asarini misol qilishimiz mumkin.

A. Muhammadjonov “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi” asarida quyidagi savollarga javob topishga intildi va o‘z tadqiqotining ko‘lamini kengaytirdi:

- qadim zamonlarda Amudaryoga quyilib, ikki daryo havzalarini bir-biriga tutashtirgan Zarafshon daryosi oqimining Amudaryoga nima sababdan yetmay qolishi;

- antik davrda Buxoro vohasining g‘arbiy qismida katta katta yer maydonlari sug‘orildi-yu, o‘rta asrlarda ularning suvsizlikdan qurib qolishi,

- qachon va nima sababdan quyi Zarafshonda suv tanqisligi sodir bo‘la boshladi;

- Samarqand vohasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, Samarqand va Buxoro vohalari o‘rtasida suv taqsimoti qanday hal etildi;

- Buxoro vohasining suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida XIX asrda Amudaryodan Buxoroga suv chiqarish to‘g‘risida Ahmad Donish tomonidan, vodiya suv omborlari barpo etish borasida rus irrigatorlari tomonidan ko‘tarilgan masalalar nima sababdan o‘sha vaqtlarda amalga oshmadi.

Bundan tashqari ushbu asarda Buxoro aholisining suv uchun olib borgan kurashi tarixi, uning asrlar davomida yaratgan ajoyib sug‘orish texnikasi va suv xo‘jaligi tarixi masalalarini mumkin qadar mufassal talqin etishga harakat qilingan.

“Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi” asari Y. G‘ulomov rahbarligida tashkil etilgan Moxondaryo arxeologik guruhining 1950-1970-yillarda Buxoro vohasida keng ko‘lamda olib brogan arxeologik tekshirishlari natijasida to‘plangan ma‘lumotlar asosida yozilgan. Asarning yana bir yutuq tomoni ham shunda, ya‘ni ma‘lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qo‘shilganligidir.

Asar qadimgi davrlardan to XX asrgacha bo‘lga katta davrni qamrab olgan.

⁴⁶¹ Бабаханов А, О некоторых древних водохозяйственных сооружениях Узбекистана, — Известия АН УзССР, серия общественных наук, Л» 4, 1959.

⁴⁶² Хусанходжаев З. Х. Из истории гидротехники и ирригации в Узбекистане, — Гидротехника и мелиорация, Л1 8, -М.: 1969.

⁴⁶³ Гражданкина Н. С. Из истории гидротехнического строительства в Средней Азии (строительные материалы гидротехнических сооружений VIII-XIX вв.). Труды Среднеазиатского научно-исследовательского института ирригации, вып., 129, -Т.: 1971.

Ushbu ilmiy asar tarixchi tomonidan yozilgan, ammo undagi boy ma'lumotlar Zarafshon vodiysining nafaqat sug'orilish tarixini balki, vodiyning geografiyasi, iqlimi, toponimikasi haqida ham ma'lumot beradi.

Xulosa qilib aytganda, qadim zamonlardan boshlab o'zbek xalqi har bir vodiylar yoki vohaning tabiiy sharoitlarini yaxshi o'rganib, ularga moslashtirilgan xilma xil sug'orish tizimini yaratgan. Turli xil suv inshootlari vositasi bilan mavjud suv manbalari: daryo va soylarning oqar suvlari, chashma va yer osti suvlari, hatto qor va yomg'ir suvlaridan ham dehqonchilikda va chorvachilikda ozmi ko'pmi foydalanilgan. Shunday qilib qadim zamonlardan boshlab O'zbekistonda sug'orish tizimi sohasida diqqatga sazovor, ajoyib xalq tajribasi to'plangan.

Shubhasiz, bu boy xalq tajribasini o'rganish O'zbekistonning sug'orish tarixi va texikasining taraqqiyotini yoritib beradi. Shu bilan birga u respublikamizda ulkan irrigatsiya va melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan hozirgi vaqtda xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega.

*Mamatkarimov U.S. –
O'zMU 1 kurs magistranti*

TURKISTON O'LKASI SUG'ORISH TIZIMI TARIXIDAN (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

O'rta Osiyo tarixda sug'orish tizimi qadimdan shakllangan. Mazkur hududda dehqonchilik madaniyatlari, shaharlar, tarixiy-madaniy hududlarning shakllanishi bevosita sug'orish tizimi bilan bog'liq. Xususan, Samarqand hududida sug'orish tizimining yo'lga qo'yilishida Zarafshon daryosi muhim rol o'ynaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Samarqand hududida sug'orish tizimining o'ziga xos xususiyati 1868-yil Rossiya imperiya tomonidan mazkur hududning bosib olinishi va Zarafshon daryosi ustidan nazorat o'rnatilishi natijasida Buxoro amirligi bilan suv masalasi keskinlashdi.

Mazkur davrda Samarqand hududida sug'orish tizimi, gidrotexnik inshootlar, qishloq xo'jaligining ahvoli, Zarafshon daryosidan chiqqan kanallar va ariqlar rus tadqiqotchilar tomonidan o'rganildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad hudud qishloq xo'jaligi tizimidan imperiya manfaatlarini yo'lida foydalanish, yangi qishloq xo'jaligi sohasini joriy etish, Zarafshon daryosi suv oqimidan to'g'ri foydalanish va hududda gidrotexnik inshootlar qurilishini tashkil etish edi.

Mazkur tadqiqotlar natijasida fan uchun muhim bo'lgan sug'orilish tarixiga oid ma'lumotlar yig'ildi, qishloq xo'jaligi sohasida ijobiy siljishlarga erishildi. Ma'lumki, Zarafshon daryosi Samarqand xo'jaligi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Mazkur davr tadqiqotlarida "Zarafshon Samarqand vohasi ariq va kanallarini suv bilan ta'minlovchi donordir. Undan Qoradaryo, Oqdaryo, Narpay va boshqa ariqlar Samarqand yerlarini serhosil bo'lishiga yordam bergan"⁴⁶⁴ degan ilmiy asoslangan fikr ta'kidlanadi.

¹ Бухара//Туркестанский сборник.-СПб.,1869 - Т-30-С.115.

Olim N.M.Maev “Zarafshon daryosi atrofida yashagan xalqlar uning suvidan o‘z yerlarini sug‘orishda keng foydalanishgan. Samarqandga kiraverishdagi Cho‘ponota tepaligidan Kattaqo‘rg‘ongacha bo‘lgan Zarafshon daryosining qirg‘oqlari bog‘lar bilan o‘ralgan”⁴⁶⁵ degan ma‘lumotlarni keltiradi.

Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoni, xususan Samarqand hududlarini bosib olgach mustamlakachilik siyosati yurita boshladi. Paxta xomashyosi yetishtirishni ko‘paytirish siyosatning asoslaridan bir edi. Jumladan, Zarafshon daryosi suvidan unumli foydalanish, yangi sug‘orish inshootlari qurish, avvvaligilarini ta‘mirlash, paxta maydonlari kengaytirish masalasi kun tartibidan o‘rin oldi.

Zarafshon irrigatsiya tizimini o‘rgangan Sobalyov “Zarafshon daryosidan suv ichadigan dehqonchilik tumanlari Zarafshon okrugi bo‘yicha 13 ta”⁴⁶⁶ deb keltiradi. Zarafshon irmog‘i Oqdaryo Zarafshon okrugining Sug‘d tumani janubi, Ofarinkent tumaning shimoliy qismini, Yangiqo‘rg‘on tumanini, Kattaqo‘rg‘on bo‘limi Kattaqo‘rg‘on va Payshanba tumanlarining ba‘zi hududlarini suv bilan ta‘minlagan.

XX asr 60-70-yillarida Zarafshon daryosi irmoqlarini arxeologik tadqiq qilgan A.Muhammadjonov fikricha, “Sug‘orish tarmoqlari barcha katta kichik daryo havzalarida bo‘lganidek, O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan Zarafshon vodiysida ham qadimgi dehqonchilik madaniyati vujudga kelishi sug‘orish tarmoqlari, shuningdek, suv inshootlarini barpo etish hamda irrigatsiya xo‘jaligini rivoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan”⁴⁶⁷ deya keltiradi.

Zarafshon daryosining asosiy irmog‘i Qoradaryo hisoblangan, tadqiqotchilar fikricha mazkur irmoqdan 18 ta magistral shahoblar chiqqan bo‘lib, “XIX asr o‘rtalarida sug‘orish tarmoqlari keng tarqalgan va Qoradaryodan Ofarinkent tumaniga 6 ta ariq, Kattaqo‘rg‘on tumaniga 6 ta ariq, Sug‘d tumaniga 6 ta ariq chiqqan”⁴⁶⁸ voha sug‘orish tizimiga muhim rol o‘ynagan.

XIX asr ikkinchi yarmida hududni o‘rgangan V.V.Radlov sugorish tarmoqlari haqida ma‘lumot berib o‘tadi⁴⁶⁹. Ofarinkent arig‘i Qoradaryo o‘ng irmog‘idan boshlanib, 15-20 chaqirim davom etadi; Xo‘jaariq Qoradaryodan boshlanib 20 chaqirimgacha borgan va Ishtixon shahri va uning atroflarini sug‘organ; Mingariq, Qilichobod shahoblari 10 chaqirim bo‘lib Kattaqo‘rg‘on va Payshanba shaharlari shimoliy qismini sug‘organ; Chorjuy arig‘i Qoradaryo o‘ng qirg‘og‘idan boshlanib, 12 chaqirim davom etgan va Shahob arig‘iga quyilgan manbalarga ko‘ra mazkur ariq qurilishiga XV asrda Mahdumi A‘zam boshchilik qilgan; Jo‘yi Devona Qoradaryo o‘ng qirg‘og‘idan boshlanib 44 chaqirimni tashkil etib, Ofarinkent, Yangiqo‘rg‘on, Kattaqo‘rg‘on tumanlari dehqonchilik maydonlarini sug‘organ; Xonariq Qoradaryo o‘ng qirg‘og‘idan boshlanib, 12 chaqirimni tashkil etib, XVIII asr oxirida Shohmurod davrida Yangiqo‘rg‘on begi

² Маев Н.М. От Ташкента до Каттакургона // Туркестанский сборник.-СПб.,1870- Т-34-С.198-219.

⁴⁶⁶ Соболев Л. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе // Т.Сбор-СПб., 1873-75.- Т-90 –С. 259.

⁴⁶⁷ Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т.: ФАН; 1972. –Б. 17.

⁴⁶⁸ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI первой половине XIX века, т. 1, Изд-во Фан; 1966, -С. 65.

⁴⁶⁹ Радлов В.В., Средняя Зерафшанская долина,- «Записки русского географического общества» по отделению этнографии, т. VI, СПб, 1880.

Anorxon Sadr boshchiligida hashar yo‘li bilan barpo etilgan; Xoqondov arig‘i Qoradaryodan boshlanib, 12 chaqirim tashkil etgan deya o‘z kundaliklarida bayon qilgan.

Zarafshonning chap irmog‘i hisoblangan Oqdaryo ham hududning shimoliy, g‘arbiy va markaziy hududlarini sug‘orib voha irrigatsiya tizimida asosiy o‘rin tutgan. Oqdaryodan quyidagi magistral kanallar o‘tgan: Shahob kanali 12 chaqirimni tashkil etib, Oqdaryodan boshlanib Jo‘yi Devona arig‘iga qo‘yilgan. Kanal XV asr 40-yillarida Xo‘ja Mahdumi A‘zam boshchiligida qazilgan bo‘lib, XVIII asr 80-yillarida Shohmurod davrida Samarqand begi Abdusattor parvonachi buyrug‘iga ko‘ra hashar yo‘li bilan tiklangan; Qo‘shqo‘rg‘on shahobi Oqdaryoning chap qirg‘og‘idan boshlanuvchi shahobdir. Shahob 1802 –yilda Samarqand begi Norbek Mehtar buyrug‘iga ko‘ra qurilgan; Chovka arig‘i Oqdaryoning chap qirg‘og‘idan boshlangan ariq Buxoro amiri Haydar davrida barpo etilgan, keyinchalik 1869-yili ariq qayta ta‘mirlangan⁴⁷⁰; Oqdaryoning o‘ng qirg‘og‘idan boshlanuvchi Yangiqo‘rg‘on va O‘rtabo‘z ariqlari XVIII asr oxirida Badalboy bek boshchiligida qazilgan bo‘lib 12 chaqirimni tashkil etgan⁴⁷¹.

Mazkur ariqlar hukmdorlar, beklilik yoki viloyat beklari, yirik amlokdorlar tomonidan barpo qilingan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yirik kanallar, ariqlar barpo qilinmagan bo‘lsada, mavjud kanallar, kichik va katta ariqlar qayta ta‘mirlandi, gidrotexnik inshootlar o‘rnatildi va ularning suv oqimidan oqilona foydalanildi.

Hududni o‘rgangan Grigorev, Sobalev, Maevlar fikricha, “Ariq va kanallar Zarafshon daryosi havzasida keng tarqalgan. Asosiy ariqlar shahoblarga, so‘ngra ulardan mayda sug‘orish tarmoqlari ajralib chiqqan. Shoh-shabba, chim, harsangtoshlar daryoning sekin oqadigan joylariga tashlanib, to‘g‘on qilingan” deya hududdagi irrigatsiya tizimlarini tariflaydi.

XVI-XIX asr davomida Zarafshon daryosining ikkiga ayrilgan joyini doimiy ta‘mirlash ishiga katta e‘tibor berilgan. Masalan, 1582-yilda Zarafshon daryosi ustiga suv ayirg‘ich inshootining qurilishi va keyingi davrlarda mazkur inshootning doimiy tozalanib turilishi haqida manbalarda o‘z aksini topgan⁴⁷². Hududni o‘zgangan V.V. Radlov “Daryoning ikkiga ajralgan joyini ta‘mirlash bir yilda ikki marta, bahor va kuzda tozalab turish uchun har safar 5000 hasharchi jalb qilingan”⁴⁷³ degan ma‘lumotni keltiradi.

Samarqand hududida Darg‘om kanaliga qurilgan to‘g‘on ilk o‘rta asrlardan hududning muhim irrigatsiya inshooti edi. Darg‘om va Varag‘sar to‘g‘on tizimida ko‘pgina dambalar, suv ayirg‘ichlar (yog‘och to‘sinlar), va suv tashlagichlar (nishtoqlar) o‘rnatilgan 122 yirik va mayda ariqlardan iborat edi⁴⁷⁴. Mazkur to‘g‘on Samarqand vohasi janubiy hududlarida dehqonchilik xo‘jaligining bosh bo‘g‘ini hisoblangan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida bu tog‘onning ahamiyati

⁴⁷⁰ Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т.: ФАН4 1972. –Б. 219.

⁴⁷¹ Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI первой половине XIX века, т. 1, Изд-во Фан4 1966. –С. 89.

⁴⁷² Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т.: Фан; 1972. –Б. 35.

⁴⁷³ Радлов В.В., Средняя Зерафшанская долина,- «Записки русского географического общества» по отделению этнографии, т. VI, СПб, 1880. Стр-134-146.

⁴⁷⁴ Самарканд тарихи 1 жилд/ Маъсул мухаррир Муминов И. 1- том.-Т.: Фан; 1971. –Б. 285.

yanada oshib, mazkur gidrotexnik inshootni qayta ta'mirlash, Zarafshon suvidan oqilona foydalanish, dehqonchilik maydonlarini kegaytirish bilan birgalikda Buxoro bilan suv masalasida ustunlikka ega bo'lish maqsadlari ko'zlangan edi. 1872-yildan boshlab Darg'om irrigatsiya tizimidan foydalanuvchi dehqonlar har qo'sh yerdan kishi (jami 856 kishi) yilda 15 kun tizimning ta'mirlash ishlariga jalb etilgan⁴⁷⁵. 1914-yilda Darg'om to'g'onini tuzatish uchun 1456 kishi ishlashgan, 53837 bog' shox-shabba va 13837 bog' xashak sarflangan⁴⁷⁶.

Yuqorida qayt etilgan omillar tufayli 1913-1917-yillarda Darg'om sistemasi yaqinida Ravotxo'ja suv ayirg'ich to'g'oni barpo etildi⁴⁷⁷. Bu gidrotexnik inshootning uzunligi 178,8 m bo'lib, eni 2 metr keladigan beton ustunlar bilan berkitilgan. Tog'onning o'ng tomonida suv oqimini to'g'rilab turadigan damba qurilgan. Natijada vohaning janubida sug'oriladigan maydonlar kengaydi natijada Buxoro hududiga o'tadigan suv keskin kamayib ketdi.

Mazkur davrda hudud sug'orish tizimiga xos xususiyat sug'orilgan yerlarning keskin kengayishi, sholikorlik maydonlarining ko'payishi hisobiga Buxoro hududida sug'oriladigan yerlarning kamayishiga olib keldi. L.N.Sovalyovni keltirishicha, Samarqand hududida Zarafshon daryosidan boshlangan 56 ta kanal bo'lib, 42 tasi Panjikent va Samarqand bo'limi, 14 tasi Kattaqo'rg'on bo'limini sug'organ. Umumiy hisobda 9893 qo'sh yoki 128818 desyatina yer sug'orilgan⁴⁷⁸. A. Muhammadjonovning fikricha, XIX asr oxirida Zarafshon vodiysida 142 ta magistral kanal bo'lib, shundan 99 tasi Samarqand vohasini, 43 tasi Buxoro vohasini sug'organ, vodiy bo'yicha hammasi bo'lib 1924 ta ikkinchi darajali kanaldan 985 tasi Samarqand qismida, 939 tasi Buxoro hududida joylashgan⁴⁷⁹. Zarafshon suvidan teng miqdorda foydalanish, ikki hududda ham sug'orilgan yerlarni kengaytirmaslik masalasi ko'tarilgan bo'lsada, Samarqand vohasida sug'orilgan yerlar uzliksiz kegayib bordi, masalan XIX asr 70-yillarida Zarafshon daryosidan Samarqand viloyati bo'yicha quyidagi yerlar suv ichgan: Samarqand uezdi 5.854 qo'sh yer, Kattaqo'rg'on bo'limi 2.483 qo'sh yer, Panjikent 1.554 qo'sh yer, jami 9.89 ming qo'sh yer sug'orilgan⁴⁸⁰. 1883-yilda 282 ming desyatina, 1890-yilda Samarqand uezdida 218 ming desyatina sug'orilgan yerlar bo'lgan. 1869-1892-yillarda hududda sug'orilgan yerlar 2,5 barobar ortdi⁴⁸¹. 1892-1901-yillarda ham bu jarayon davom etib 438 ming deyatina yetdi. Bundan xulosa shuki, Buxoro amirligi va Turkiston general gubernatorligi o'rtasida Zarafshon suvini teng miqdorda taqsimlash, sug'orilgan yerlarni kengaytirmaslik huquqqiy jihatdan belgilansada, mazkur talablar rus amaldorlari tomonidan bajarilmasdan kelingan.

⁴⁷⁵ Жижемский З., Иригационная дело в долине Зерафшана, Туркестанская ведомости. 1888, № 5-6.

⁴⁷⁶ Самарканд тарихи 1 жилд./ Маъсул мухаррир Муминов И. 1- том. -Т.: Фан; 1971. –Б. 287.

⁴⁷⁷ Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б. 277.

⁴⁷⁸ Соболев Л. Долина реки Зерафшана и ее иригационная система – Туркестанские ведомости. 1874, № 17-18.

⁴⁷⁹ Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т.: ФАН; 1972. –Б. 218.

⁴⁸⁰ Соболев Л. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе // Т.Сбор -СПб., 1873-75.- Т-90 –С. 259

⁴⁸¹ Мухаммаджонов А.Куйи Зарафшон водийсининг сугорилиш тарихи. -Т.: ФАН; 1972. –Б. 156.

Rossiya imperiyasi hududni bosib olgach, tayanch xomashyo bazasiga aylantirish, paxtachilik va qishloq xojaligi sohasini kengaytirish vazifalarini qoʻydi. Samarqand vohasi yer suv munosabatlari tizimini ilmiy asosda oʻrgangan Sobolev “Samarqand viloyati paxta hosildorligi quyidagi iqlim qulayliklari, yaʼni aprel oyining sovuq emasligi va zax boʻlmasligi, iyun va iyul oylarida havoning oʻzgarmasligi terim boshlanishidan to oktabrgacha sovuq tushmasligidir”⁴⁸² munosabat bildiradi.

XIX va XIX asr ikkinchi yarmida Samarqand vohasida yirik dehqonchilik tumanlari Yangiqoʻrgʻon, Payshanba, Kattaqoʻrgʻon hududlari hisoblangan. Samarqand vohasidagi Chelak, Yangiqoʻrgʻon, Xoʻjariq, Payshanba, Damariq va Qoʻshqoʻrgʻon hududlari esa paxtaga ixtisoslashgan hududlar edi⁴⁸³. Mazkur hududlarda voqa paxtasining 4/2 qismi yetishtirilgan. XIX asr ikkinchi yarmida voqa sugʻoriladigan yerning 1/15 qismiga, 24 ming desyatina yerga paxta yetishtirilgan. Buning hisobiga sugʻoriladigan yerlarda paxta maydonlari kengayib bordi. Masalan 1888-yilda paxta maydoni 8 ming desyatina boʻlsa, 1907-yilda 28 ming desyatina, 1915-yilda 55,6 ming desyatina kengaydi⁴⁸⁴.

Mazkur davrda asosiy sholikorlik tumanlari sifatida Shovdor, Sheroz, Ofarinkent, Sugʻd, Yangqoʻrgʻon, Kattaqoʻrgʻon, Panjikent tumanlari eng koʻp sholi yetishtirilgan. Tadqiqotlarga koʻra, XIX asr oʻrtalarida 1 tanob yerga 32 pud dan 80 pudgacha guruch ekilgan. Hududda sholikorlik maydonlari boshqa qishloq xojalik ekinlari hisobiga hamda yangi yerlarni oʻzlashtirish natijasida kengayib borgan. Masalan, 1869-1892-yillar davomida Zarafshon okrugida sholikor yerlarning maydoni 2,5 barobar, yaʼni 254 foizga kengaygan. Samarqand vohasida 1869-yilda 10 ming desyatina yerga sholi ekingan boʻlsa, 1880-yilda sholikorlik yerlarining maydoni 25712 desyatina va 1891-yilda esa 36956 desyatina yetadi. Shu kabi omillar amirlik hududida suv tanqisligi, qurgʻoqchilik, paxtachilik maydonlarining qisqarib ketishiga olib keldi.

Xulosa oʻrnida XIX ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Samarqand hududida sugʻorilishi tizimiga xos xususiyatlar sifatida, birinchidan, hudud sugʻorish tizimining keng tarmogʻi rivojlangan hududlardan biri ekanligi; ikkinchidan, mazkur davrda hududning Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilishi sugʻorish tizimi masalasi strategik ahamiyat kasb etishi va Buxoro amirligi bilan mazkur masalada keskinlashuvning yuzaga kelishi; uchinchidan, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab xududning iqlimi, sugʻorish tizimi, dehqonchilik xoʻjaligi, imkoniyatlar, umuman hudud xoʻjalik tizimi tizimli ravishda ilmiy asosda oʻrganila boshlandi va imperiya manfaatlariga boʻysundirildi; toʻrtinchidan, mazkur davrda hududda sugʻorish tizimida yangi boshqaruv tizimi shakllandi, mahalliy sugʻorish tizimidan voz kechila boshlandi; beshinchidan, hududda shoh ariqlar, markaziy kanallar, ariqlar bosh qismiga yangi gidrotexnik inshootlar, suv oʻlchaydigan uskunalar oʻrnatilishi sugʻorish tizimiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi.

⁴⁸² Соболев Л. Долина реки Зарафшана и ее ирригационная система – Туркестанские ведомости, 1874, № 17-18.

⁴⁸³ Сулуцкий И.М. Очерки хлопководство в Самаркандском область // Т.Сбор-СПб., 1909.- Т-527 –С. 50-63.

⁴⁸⁴ Сулуцкий И.М. Очерки хлопководство в Самаркандском область // Т.Сбор-СПб., 1909.- Т-527 –С. 50-63.

АШТАРХОНИЙЛАР ДАВРИДА СУҒОРИШ ТИЗИМИ ВА СУВ ИНШОТЛАРИ МАСАЛАЛАРИ

Суғорма деҳқончилик Шарқнинг барча катта-кичик дарё ҳавзаларида бўлганидек, Ўрта Осиёнинг марказий қисмида жойлашган Зарафшон водийсида ҳам қадимги деҳқончилик маданиятининг вужудга келиши суғориш тармоқлари, шунингдек, сув иншоотларининг барпо этилиши ҳамда ирригация хўжалигининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқ бўлган. Жумладан, Бухоро хонлигида Аштархонийлар сулоласи даврида ҳам мамлакат иқтисодий, керак бўлса, сиёсий ҳолати ирригация тизимининг қай тарзда йўлга қўйилгани, унинг аҳволи билан чамбарчас боғлиқ бўлган.

Зарафшон водийсининг, хусусан, унинг қуйи қисмида жойлашган Бухоро воҳасининг суғорилиш тарихига бағишланган асарларининг умумий кўлами ҳақида тўхтар эканмиз, аввало, шуни таъкидлаш керакки, бу қадимги деҳқончилик воҳасининг суғорилиб обод этилиши тарихига оид бир қанча йирик асарлар нашр этилган. Қуйида мавзунинг тарихшунослигига қисқача тўхталсак.

Маълумки, Зарафшон водийсининг ирригациясини, хусусан, сув хўжалигини ўрганишга XIX асрнинг рус муаллифларидан А.П.Федченко⁴⁸⁵, А.Гребенкин⁴⁸⁶, Л.Н.Соболев, Г.А.Арендаренко, В.В.Радлов, Н.Ф.Петровский, Н.Ф.Ситняковский ва бошқалар маълум даражада ҳисса қўшдилар.

XX аср бошларида ривожланиб бораётган рус тўқимачилик саноатининг хом-ашёга бўлган талабининг ортиши билан Ўрта Осиёда пахтачиликни кенгайтириш мақсадида геологик, гидрометрик ва тупроқшунослик экспедициялари ташкил этилди.

Шу муносабат билан рус инженер-ирригаторларининг Зарафшон водийсининг гидрографияси ва унинг ирригацияси системаларини қайта қуриш масалаларига оид айрим асарлари нашр этилди. Булар орасида А.В.Чаплигининг тадқиқотлари, айниқса, диққатга сазовордир.

Бухоро воҳасининг суғорилиш тарихини ҳар томонлама кенг ва чуқур ўрганиш XX аср ўрталаридан бошланди, дейиш мумкин. Воҳанинг археологик жиҳатдан тадқиқ этилиши муносабати билан унинг ўзлаштирилиш тарихи масалаларига бағишланган бир қанча илмий мақола ва асарлар яратилган.

Қуйи Зарафшоннинг ирригация тарихи кенг кўламда Я.Ғ.Ғуломов томонидан ўрганилди. Я.Ғ.Ғуломовнинг тўплаган бой археологик ва этнографик маълумотлари ҳали эълон қилинмаган бўлса-да, ҳар ҳолда

⁴⁸⁵ Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) «Известия общества любителей естествознания, антропологии и этнографии». т. VIII. вып. 1. – М. 1870.

⁴⁸⁶ Гребенкин А. О причинах неурожая в Бухарском ханстве. — Туркестанские ведомости. №18. 1872.

Бухоро воҳасининг суғорилиш тарихи масалалари, унинг бир қанча илмий тадқиқотларида талқин этилган.

1966 ва 1970 йилларда XVI—XIX асрнинг биринчи ярмида Бухоро хонлигида аграр муносабатларга доир М.А.Абдураимовнинг икки жилдлик монографияси босилиб чикди. Асарнинг биринчи жилдидаги махсус бир қисм Бухоро хонлигининг XVI—XIX асрлардаги сув хўжалигига бағишланган.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, Зарафшон водийси, хусусан, Бухоро воҳасининг суғорилиши, ирригация иншоотлари масалаларига оид фундаментал тадқиқот иши А.Р.Муҳаммаджоновнинг “Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи” асари ҳисобланади. Тадқиқот иши қадимги даврдан то XX аср бошларигача бўлган даврни ўз ичига олган. А.Р.Муҳаммаджоновнинг ушбу асари қуйи Зарафшон воҳасида қадим замонлардан то XX асргача бўлган суғориш ва суғориш техникасининг ривожланиши ҳамда қадимда воҳада суғорилган ерлар ўрнини аниқлаш тарихига бағишланган. Муаллиф асарнинг ёзилишига Ўрта Осиё чўлларига сув чиқариш ва бу ерларни суғориш лойиҳаларининг тузилиши муносабати билан ирригация тарихини ўрганиш йил сайин ҳам илмий, ҳам амалий зарурият касб этаётгани билан изоҳлаган⁴⁸⁷.

Аштархонийлар даврида ҳам деҳқончиликка алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, аволо, суғориш тизимини тартибга келтириш учун қатор тадбирлар амалга оширилган. Бу жараёнда минтақадаги йирик сув манбалари – Зарафшон, Чирчиқ, Сирдарё, Амударё, Вахш, Мурғоб каби йирик дарёлар ва кўплаб кичик дарёлар ҳамда кўллар, тоғ сувларининг имкониятларидан кенг фойдаланилган.

Суғориладиган ерларда буғдой, арпа, жўхори, ловия, мош, шоли, пахта, сабзаёт ва полиз экинлари экилган. Дашт ва тоғолди лалми ерларда ҳам бошоқли экинлар, кунжут, тарвуз, қовун экилиб, деҳқончилик қилинган. Деҳқончилик мамлакат иқтисодининг бутунлай инқирозга тушиб қолишидан сақлаб турган асосий омил бўлиб, аҳолининг озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжини қондиришга хизмат қилган⁴⁸⁸.

Имомқулихон даврида, 1614—1615 йилларда Қашқадарёдан Қарши чўлига, 1633—1634-йилларда Қўшқўрғонда канал қазилиб, воҳаларга сув чиқарилган.

Бироқ шуни таъкидлаш ўринлики, Аштархонийлар даврида сув иншоотлари қурилишига етарли даражада эътибор берилмаган. Бунга мамлакатдаги бошбошдоқликлар, тахт учун ўзаро курашлар, табиийки, ўзининг салбий таъсирини ўтказмай қолмаган.

XVIII аср бошларида Боқимухаммадхон даврида (1605—1611) Насаф аҳолиси янги сулола—Аштархонийларга қарши кўзғолон кўтаргани учун, уларга жазо бериш мақсадида Амударёдан чиқарилган канал кўмдириб юборилган⁴⁸⁹.

⁴⁸⁷ Муҳаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Т.: Фан; 1972. – Б.5.

⁴⁸⁸ Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Т.: Ўзбекистон; 2013. – Б.396.

⁴⁸⁹ Бартольд Б. Сочинения. т. III. –М.: Наука; 1965. –С. 161.

XVIII асрга оид қўлёзма асарлардан Мирзо Муҳаммад Баде девоннинг «Мажмаъ ал-арқом»да келтирилган маълумотларга кўра, Зарафшон дарёсининг қуйи оқимида «Пули Кармана», «Пули Меҳтар Қосим», «Пули Чаҳорминор» ва «Пули Жондор» каби дарёдаги сув миқдорини белгиловчи сув ўлчагич ва сув тақсимлагич кўприклар бўлган.

Саид Роқимнинг XVII аср охири ва XVIII аср бошларида ёзилган «Тарихи Роқимий» номли қўлёзма асарида келтирилган маълумотларга кўра, «Пули Кармана» 1582 йилда Бухоро подшоси Абдуллахон томонидан бино қилиниб, унинг 18 та пештоқли равоқлари, икки томонида 2 тадан 4 та катта миноралари ва устки қисмида ҳар икки лаби бўйлаб дандоналари бўлган. Равоқларининг сонини ҳисобга олганда «Пули Кармана» ўз даврида жуда улкан иншоот ҳисобланган.

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг «Абдулланом», Бадриддин Кашмирийнинг «Равзат ур-ризвон ва ҳадиқа тулғилмон» ҳамда Мирзо Баде девоннинг «Мажмаъ ал-арқом» номли асарларида келтирилган айрим маълумотларга қараганда, XVI—XVIII асрларда Бухоро хонлигининг сув хўжалиги ва ирригация қурилишлари давлатнинг бош вазири «оталиқ» томонидан бошқарилган.

XVIII асрда оталиқ лавозимидаги мансабдорлар Самарқанддан то Қорақўлгача Зарафшондан бош олган суғориш тармоқлари бўйлаб дарё сувининг тақсимотини бошқарган.

Демак, ирригация хўжалигида ҳам «оталиқ» XVI—XVIII асрларда хонликнинг энг олий мансабдори ҳисобланган.

«Мажмаъ ал-арқом» асарларида баён этилишича, XVIII асрда Бухоронинг сув хўжалиги маъмурияти «оталиқ»дан ташқари айрим суғориш тармоқларининг «мироб»лари, «амини об» ва шаҳар каналининг «арбоби»дан иборат бўлган.

Ҳар бир канал мироби ўз қўл остидаги ирригация системалари-нинг сув тақсимоти ва ҳашар ишларини бошқарган бўлса, «арбоби дуруни шаҳр» эса, Шаҳруд каналининг ва Бухоро шаҳарининг сув таъминоти, хусусан, ундаги ҳовузларни ўз вақтида сув билан тўлдириш ишларини бажарган.

Аштархонийлар даврида чуқур илдиз отган сиёсий инқироз мамлакат ҳаётининг барча жабҳалари, хусусан, суғориш ишлари ва ирригация тизими ривожига тўсқинлик қилди. Бироқ бу фикр мазкур даврда ирригация тизимига буткул эътибор қаратилмаган, деган хулосани бермайди. Хонликнинг меҳнатсевар халқи бунёдкорлик ишларини асло тўхтатмаган.

Ўзбекистоннинг бир қанча деҳқончилик воҳалари қаторида Зарафшон водийсининг, хусусан, Бухоро воҳасининг суғорилиш тарихи тарихшуносликда энг кам ёритилган масалалардан ҳисобланади. Уни ҳар томонлама чуқур ва кенг ёритиш, шубҳасиз, ҳам илмий, ҳам амалий аҳамият касб этади.

TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARI TUSHUNCHASI

Suv resurslari qadimdan dunyo davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida eng muhim ommillardan biri bo‘lib kelgan. Chunki dunyo davlatlarining iqtisodiyotini rivojlanishi va bir maromda ketishi bevosita suv resurslaridan samarali foydalanishda qulay imkoniyat yaratilganligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan.

Transchegaraviy suvlar tushunchasi ikki va undan ortiq davlatlarning chegaralarini kesib o‘tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan harqanday yer usti va yer osti suvlariga nisbatan qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanadi.

Ma‘lumki chegaralar bilan tutashib ketadigan va bir mamlakatdan ikkinchisiga o‘tadigan transchegaraviy daryo suvlaridan birgalikda foydalanish qadimdan dunyo davlatlarining hududlar bo‘yicha munosabatlarida eng dolzarb bo‘lgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Hozirgi davrga kelib bu masala eng dolzarb va muommoli masalalaridan bo‘lib qolmoqda.

Agarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy daryolar va ulardan foydalanish holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, yaqin o‘tmishda (sobiq ittifoq tarkibida) suv resurslaridan foydalanish masalalari markazlashgan tarkibda amalga oshirilgan. Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqil davlatlar shakllandi. Shu jumladan, Markaziy Osiyo zaminida Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va O‘zbekiston davlatlari tarkib topdi. Ularni mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahondagi juda ko‘p mamlakatlar, nufuzli tashkilotlar tan olishdi, diplomatik munosabatlar o‘rnatishdi. Tarixi, zamini, etnik kelib chiqishi, dini, urf-odatlar, orzu-umidlari, maqsadlari, tabiiy sharoit va resurslari, istiqbol imkoniyatlari bir bo‘lgan qozoq, qirg‘iz, tojik va o‘zbek, turkman va qoraqalpoq xalqlari yangi hayot qurishga va bu borada o‘zaro hamkorlik, qilishga harakat qilmoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlarida umumiylik shu qadar ko‘pki, uni birgalikda qarash va birgalikda yechish davr taqazosidir. Hal qilinishi kerak bo‘lgan ana shunday masalalardan biri – davlatlar o‘rtasidagi Transchegaraviy bo‘lgan suv resurslari muammosidir.

Mintaqada suvga bo‘lgan talab 1960-yillarda SSSRning paxta sanoatini rivojlantirish uchun qazilgan kanal va suv omborlari natijasida kelib chiqdi⁴⁹⁰. Markaziy Osiyoda asosan, suvga bo‘lgan talab qishda va yozda ortadi, chunki bu vaqtda paxta hosilini yetishtirishga hamda elektr energiyasiga bo‘lgan talab keskin tarzda ko‘tariladi. Paxta hosilini yetishtirish uchun juda ko‘p miqdorda suv sarflanar, suvni ko‘p miqdorda sarflash natijasida daryolarning sathi pasayib, elektr energiyasini ishlab chiqarish miqdori kamayar edi. Bundan sobiq ittifoqning juda katta daryolar va kanallar tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlari “oqilona foydalanish

⁴⁹⁰ Татьяна Липпайнен и Джереми Смит. Международное сотрудничество в области водных инициатив в Центральной Азии. – Финляндии, 2015. – С. 23.

niyatida” yagona elektr tarmog‘i yaratishgan. Yagona elektr tarmog‘i orqali esa, katta daryo va kanallarga ega bo‘lgan mamlakatlar elektr tokini sotishardi. Bunday elektr ekesporti juda ko‘plab SSSR mamlakatlari uchun manfaatli edi. Suvdan foydalanishning sovet strukturasi mezoni maksimal umumiy unum olishdan iborat bo‘lgan. Bunda barcha respublikalar SSSR umumiy byudjetidan zaruriy kompensatsiyalarni olishardi, lekin ikki tomonlama kelishuv asosida emas, balki umumiy asosdadir⁴⁹¹.

Ayni damda, bunday sxemani musatqil Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan amalga oshirishning iloji yo‘q. Chunki ularning har birida milliy manfaatlar birinchi o‘rinda turadi. Umumiy mintaqaviy manfaatlarni o‘zaro xizmatlar va kompensatsiyalar taqdim etish yo‘li bilan milliy manfaatlarni kelishtirish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu vaziyatda suv muammosi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgani ajablanarli hol emas.

Vujudga kelgan siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda mazkur mintaqada suveren davlatlar oldida suv ta‘minotini barqaror ravishda ta‘minlashni tashkil qilishda anchagina murakkab vazifalar yuzaga kelmoqda. Bunday muammolarni hal etishda transchegaraviy daryolarning suvidan birgalikda foydalanishning mintaqaviy siyosatiga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi. Ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlarida transchegaraviy daryo suvlaridan samarali foydalanishga va taqsimlashga o‘z milliy manfaatlar nuqtai-nazardan yondashuv kuchaydi.

Markaziy Osiyoda har bir davlat o‘zlariga ko‘proq suv resurslari zarurligini isbotlashga urinishi oqibatida o‘z echimini kutayotgan muammolar XX asrning oxirida sezilarli ravishda murakkablashdi.

Hozirgi kunda ikki va undan ortiq davlatlar orasidan oqib o‘tuvchi daryolarning huquqiy tartibga solinishi asosiy muommolardan biri bo‘lib kelayotganligi nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarida balki dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining suv masalasi bo‘yicha komisiyasining ma‘lumotiga ko‘ra hozirgi kunda dunyoda jami 189 ta daryo ikkita davlat hududidan, 31 ta daryo esa uchta davlat hududidan, 62 ta daryo to‘rtta davlat hududidan oqib o‘tadi. Buning oqibatida o‘tkan davrlar mobaynida 500 dan ortiq xalqaro mojarolar va 40 ga yaqin baxsli holatlar vujudga kelganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Suv havzalari bo‘yicha bugunga qadar 1200 dan ortiq qo‘shma tashabbuslar qabul qilingan bo‘lib, o‘tkan davr mobaynida 150 ga yaqin shartnomalar qabul qilingan⁴⁹².

Shu bois transchegaraviy daryolardan hamkorlikda foydalanishda avvalo ushbu sohada birinchi navbatda huquqiy asosni yaratish davlatlararo munosbatlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Transchegaraviy suvlardan foydalanish masalasi o‘z ko‘lami va ahamiyati jihatidan mintaqaviy muammolarning aksariyatidan ustun turadi. Chunki mazkur masala mintaqa xavfsizligi va tinchligi uchun, unda yashayotgan aholining ehtiyoji

⁴⁹¹ Балбакова Ф. Изменение климата и водные проблемы в Центральной Азии. – Москва – Бишкек, 2006. – С. 31.

⁴⁹² World Bank Report: Irrigation in Central Asia. Social, economic and environmental aspects. – В., 2013. – С. 11.

uchun hamda mintaqada joylashgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan gullab-yashnashida muhim ahamiyat kasb etib, bu masalaga bo'lgan e'tiborni ya'nada oshiradi.

Transchegaraviy suvlardan foydalanish borasida davlatlararo ziddiyatli masalalarning kelib chiqishining asosiy sababi, bu borada bir yoqlama fikr yuritish va umum ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy resurslarning faqat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda o'zlashtirishga bo'lgan harakatdir. Lekin mintaqada joylashgan davlatlar bu boradagi masalada "bir yoqadan bosh chiqarish" tamoyilini ilgari surib, transchegaraviy suvlardan oqilona foydalanishlari lozim. Zero, bu masala mintaqa xalqlarining iqtisodiy-siyosiy barqarorligini taminlashda va eng avvalo kelajak avlodlarning yashashi uchun muhim omil hisoblanadi.

*Sattorova Sh.O'. –
O'zMU Tarix fakulteti talabasi*

AMIR TEMUR HUKMRONLIK YILLARIDA SUG'ORISH INSHOOTLARINING RIVOJI

XIII asrning birinchi yarmida mo'g'il istilosi oqibatida Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy hayotiga ayniqsa, uning asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligining sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik kabi sohalariga katta zarba berdi. Bu haqda akademik S.P.Tolstov "Chingizxon qo'shinlarining Sharq mamlakatlari ustiga qilgan yurishlari oqibatida sug'orma dehqonchilik xo'jaligiga yetkazgan zarari o'nlab avlodlarning mehnati bilan barpo etilgan sug'orish inshootlarining vayron etilishiga sabab bo'ldi" deya ta'kidlaydi. Manbalarning guvohlik berishicha, Samarqand shahrini suv bilan ta'minlagan Qo'rg'oshin suv ombori (ba'zi manbalarda Juyi Arziz nomi bilan yuritiluvchi kanal qadimgi akveduk namunalari biri) mo'g'illar istilosi davrida buzib yuborilgan.⁴⁹³

Amir Temur barcha zamonlar uchun oddiy haqiqat bo'lgan insonni yer boqadi, yerga ishlov berish va mo'l hosil olish uchun eng avvalo sug'orish inshootlarini tartibga solish lozimligini to'g'ri anglar edi. Sohibqiron Amir Temur hokimiyatga kelgandan so'ng mamlakatdagi sug'orish ishlarini tartibga solishni mazkur haqiqatni davlat miqyosidagi masalaga ko'tardi. Amir Temurning mazkur sug'orish inshootlarida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari o'rta asr va keyingi davrlarda faoliyat olib borgan taniqli tarixchilar tomonidan yuqori darajada e'tirof etilgan. Sharqshunos olimi V.V.Bartold Amir Temur olib borgan bunyodkorlik ishlari haqida "Amir Temur jonbos bunyodkor edi. U ajoyib bog'-rog'lar muhtasham inshootlar barpo etdi. Qishloq va shahrlarni tikladi. Sug'orish tizimlarini barpo qildi va ta'mirladi, rasmiy tarix ta'biriga ko'ra u ekin ekishga yaroqli bir qarich yerni ham bekor qo'ymasdi"⁴⁹⁴ deb yozib qoldirgan.

Zamondosh tarixchilardan Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining Zafarnoma asarida yozishicha, "Amir Temur olam ravnaqi va ro'shnoqligi yo'lida xafsalasi

⁴⁹³ Мухаммаджонов А.Р. Кўйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б. 118.

⁴⁹⁴ Бартолд В.В. Улугбек и его время. Соч., т. II, ч. 2. –М. 1964. –С. 60-61.

nihoyatda yuksak obodonchilikka yaraydigan biron qarich yerni zoe bo'lishini ravo ko'rmasdi"⁴⁹⁵. Shu qoidaga rioya qilgan holda u yirik suv inshootlarini qurish, katta-kichik ariqlarni chiqarish, yangi qo'riq yerlarni o'zlashtirish, bog'-rog'lar barpo etish kabi tadbirlarini keng ko'lamda amalga oshirgan. Bundan tashqari Amir Temur yurishlarida egallangan o'lkalarida dehqonchilikni biladigan ayrim guruhlarini ko'chirib keltirgan.

Amir Temur o'z davlatining iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida, dastlabki ishni mamlakatning xo'jaligini qayta tiklashdan boshladi. Chunki, mo'g'ul istilochilari mamlakatning dehqonchilikka yaroqli deyarli barcha yer maydonlarini, yirik suv inshootlarini butunlay izdan chiqargan edi. XIV asrning so'nggi choragida Amir Temur davlatining ravnaq topishi bilan dastlab, O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan mamlakat poytaxti bo'lgan Samarqand shahri va uning atroflariga yirik sug'orish kanallari chiqarilib ko'rkam yangi qishloqlar hamda bog'-rog'lar barpo etgan. Buyuk sohibqiron tomonidan asos solingan bu qishloqlar Sharqning yirik davlatlari nomlari bilan nomlangan Misr, Damashq, Sheroz, Sultoniya, Bag'dod kabi.

Amir Temur ayniqsa, Samarqand vohasini sug'orib obod etishga alohida e'tibor berganligi tarixdan ma'lum. Obirahmat, Bozor Qorand va Nahri Jadid kabi sug'orish tarmoqlari orqali Samarqand vohasi obod etilgan. Natijada, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi qishloqlar soni keskin ravishda oshgan. Birgina Samarqand shahri yaqinidagi Angor tumanida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qishloqlar soni 72 taga yetgan⁴⁹⁶. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, XIV asrning oxiriga kelib Samarqand vohasining sug'orish tarmog'i butunlay qayta ta'mirlangan va yangi suv inshootlarini barpo etilgan.

Geograf va tarixchi olim Xofiz Abruning guvohlik berishicha, Amir Temur 1381-yili Xurosonga yurishi chog'ida Murg'ob vodiysida (hozirgi Afg'oniston va Turkmaniston mamlakatlaridan oqadigan Murg'ob daryosi bo'ylaridagi hudud) to'xtab, daryodan ariqlar qazib suv chiqarishga farmon beradi va bu ishni qo'l ostidagi ayonlar hamda qo'shin qo'mondonlariga topshiradi. Farmonga muvofiq amrlar va arkoni davlat har biri bittadan ariq qazdirganlar va shu asnoda butun bir mintaqa Xuroson o'lkasi sug'orish inshootlar tizimini yangilagan. Ushbu sug'orish tarmoqlari Murg'ob vodiysida hozirgi Bolomurg'ob shahridan yuqoriroqda barpo etilgan.⁴⁹⁷ Daryodan jami 20 ta kanal qazilib suv chiqarilgan. Amir Temur yangi sug'orish inshootlariga bevosita tashabbus ko'rsatgan insonlarning nomini berishni an'anaga aylantirgan. Masalan: Dilkusho, Ganjxona, Darband, Gajravn, Davlatshoh Jondor, Guli Mog'on, Qilkamur, Qutluq Xotun, Xasan Alovuddin, Sanjidak, Navro'z, Navbatxon, Minglixoja, Kepakchi, Ali Malik kabi kanallarni shular jumlasiga kiritishimiz mumkin.⁴⁹⁸ Shu tariqa vodiya sug'orish va dehqonchilik sohalari yana bir bor yuksalganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, Hofiz Abruning yozishicha, Sohibqironning qurdirgan sug'orish inshootlarining 20 tasining nomi ayollar ismi bilan bog'liq holda nom

⁴⁹⁵ Исмоил А. Буюк Темур давлати. –Т.: Чўлпон; 1996. –Б.128.

⁴⁹⁶ Амир Темур Жаҳон тарихида. –Т.: Шарк; 2001.–Б.103.

⁴⁹⁷ Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё. –Т.: Ўзбекистон; 1997. –Б.47.

⁴⁹⁸ Ўша асар. –Б. 70.

berilgan. Kanallarning birining nomi Qutlug' Xotun ismi bilan nomlangan. Qutlug' Turkon Og' o Amir Temurning 1383-yilda o'lgan qizqardoshi(opasi) hisoblanadi.⁴⁹⁹

Amir Temurhukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining sug'orish xo'jaligi to'la tiklanib, sug'orilib obod etilgan. Buning natijasida Buxoro vohasidagisug'oriladigan yer maydonlari nisbatan birmuncha kengayib, uning g'arbiy chegarasi dashtga tomon 5-6 km surilganligini ko'rishimiz mumkin edi.⁵⁰⁰ Sug'orish sohasida qilingan amaliy tadbirlar voha mintaqasida faoliyat yurituvchi mehnatkash dehqonlarga yengilliklar yaratib, ularning ahvolini bir muncha yaxshilashga xizmat qildi.

Buxoro vohasidan mirishkor dehqonlarning yerdan va suvdan unumli foydalanishi oqibatida dehqonchilikning barcha sohalari rivojiga turtki bo'lgan. Klavixoo'zining Samarqandga sayohat kundaligi asarida yozishicha, Movarounnahrda non shunchalik arzon bo'lganki, undan arzon bo'lishi mumkin emas edi. Guruch esa haddan tashqari ko'p bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Bir qop arpa bir miri (ya'ni kumush tanganing to'rtidan biri) hisobida bo'lgan.⁵⁰¹ Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur tomonidan amalga oshirgan bu sohadagi to'g'ri tadbirlar XV asrning boshlariga kelib o'z mevasini berganligi chet ellik sayyohlar tomonidan ham e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Amir Temur Movarounnahrda tashqari bo'lgan hududlarda ham obodonchilik va sug'orish inshootlariga e'tibor berganlar. Masalan, Ozorbayjonda ko'p yillik ichki va tashqi urushlar sababli mamlakat xo'jaligi bir muncha nochor ahvolga kelib qoladi. Yangi ekin yerlarini yaratish maqsadida, Amir Temur Ozorbayjonda 1401-yilda Aras(Oraz) daryosining "Jangchi Ko'shki" degan joyidan boshlanib "Qizilko'prikkacha" o'n farsah uzunlikdagi katta-kichik kanallar qazilgan. Bu kanal ulkanligi bilan boshqa kanallardan ajralib turgan. Ushbu kanalda hattoki, savdo kemalari qatnovi yo'lga qo'yiladi. Natijada, faqatgina dehqonchilik rivojiga emas balki, savdo-sotiqning rivojiga ham turtki bo'lgan. Ushbu kanal ulkanligi bois Sohibqiron o'zining urug'i nomi-Barlos nomini bergan.⁵⁰² Barlos kanali bunyod etilgandan so'ng qo'riq yerlarni o'zlashtirish dehqonlar va mahalliy ma'murlar tomonidan keng ko'lamda amalga oshirilgan.

Shuningdek, Amir Temur Ozorbayjonda sun'iy sug'orish ishlariga ham e'tibor qaratgan. U Qorabog'da bo'lib turgan paytida kengligi o'n gaz (1 gaz-1.3 km), uzunlik 35-40 kmdagi Baylakon kanali qaziladi.

Yana bir qishloq xo'jaligi rivojidagi ibratli tadbirlardan biri G'urbon daryosidan 30-35 km uzunlikda kanal chiqariladi. Bu kanal Juyi Moxigar va Juyi Nav nomlari bilan mashhur bo'lgan. Kanalning bunyod etilishi atrofidagi yerlarning obodon etilishiga zamin yaratgan.⁵⁰³

⁴⁹⁹ Исмоил А. Буюк Темур давлати. –Т.: Чўлпон; 1996.–Б.129.

⁵⁰⁰ Мухаммаджонов А.Р.Кўйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б.118

⁵⁰¹ Руи Гонсалес де Клавиho. Деневник... –С. 139.

⁵⁰²Амир Темур Жаҳон тарихида. –Т.: Шарқ; 2001. –Б. 103.

⁵⁰³Исмоил А. Буюк Темур давлати. –Т.: Чўлпон; 1996. –Б.128.

Yangi suv inshootlari, ariqlar qazish va bunyodkorlik ishlari Temuriy shahzodalar tomonidan ham keng ko‘lamda amalga oshirilgan Shohruh ham dehqonchilik va suv inshootlariga asosiy eʼtiborni qaratgan.

Shohruh 1410-yilda Bodgisga borganda Marv vohasini obodonlashtirish, Murg‘ob vohasining bosh tog‘oni Sultonband tiklash va sug‘orish tarmoqlarini loyqadan tozalashga farmon bergan Murg‘ob daryosidan qazilgan Marv arig‘ining buzilgan qismlarini qaytadan tiklash ishlarini Shohruh ishonchli amirlaridan Aliaka Ko‘kaldosh, Amir Musa, Amir Chag‘oniy topshirgan.. Marv shahri hamda Murg‘ob vohasining suv ta‘minoti tubdan yaxshilangan, shahar atrofidagi suvsizlikdan vayronaga aylangan yerlar qayta suv chiqarilib, sug‘orma dehqonchilik yer maydonini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida muarrix Muiniddin Zamchi Isfizolning kitobida iliq fikrlar yuritiladi.

Dehqonchilikni kuchaytirish, ariqlar ochtirish ishlariga davlat arboblari ham faol qatnashganlar. Shoxrux davrining atoqli beklaridan biri, hukmdorning otabegi bo‘lgan Alouddin Aliaka Ko‘kaldosh bunyodkorlik ishlariga tashabbus ko‘rsatgan⁵⁰⁴.

Shoxruxdan keyin taxtga o‘tirgan Ulug‘bek zamonida ham qator ulkan sug‘orish inshootlari barpo etilgan. Badriddin Kashmiriyning «Ravzatur rizvon va xadikatul g‘ilmon» nomli asarida keltirilgan ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra Ulug‘bek zamonida (1409—1449) Buxoro vohasining janubiy-sharqiy chegarasiga yondashgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib, obod etilgan. Natijada vohaning g‘arbiy chegarasi Urganjiy dashti tomon ichkariga 5-6 kilometr kirib bordi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriy shahzodalar hukmronlik yillarida bunyod etilgan sug‘orish inshootlari qishloq xo‘jaligi va mamlakat iqtisodining yuksalishiga zamin yaratdi. Amir Temur o‘z hukmronligi davrida yangi qo‘riq yerlarni o‘zlashtirdi, Chingizxon va uning avlodlari tomonidan vayronaga aylatirilgan sug‘orish inshootlarini qayta tiklagan va yangilarini barpo ettirganlar. Bunyodkorlik ishlari faqatgina mamlakatning asosiy shaharlaridagina emas balki, mamlakat sarhadlariga qo‘shib olingan yangi hududlarda ham olib borilgan.

*Sattarov SH.O‘., Rahmonova M. SH., Botirov SH.A. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabalari*

BUXORO XONLIGINING SHAYBONIYLAR DAVRIDAGI SUG‘ORISH INSHOOTLARINING RIVOJI HAQIDA

XV asrning oxiriga kelib, Movarounnahr va Xuroson hududlarida temuriylarning davlati shahzodalar o‘rtasidagi o‘zaro toj-taxt uchun kurashlar natijasida ancha zaiflashib qolgan edi. Shuningdek, mamlakatdagi siyosiy parokandalik, mahalliy hokimlarning markaziy hokimiyatga bo‘ysunmasligi, bir necha urug‘-qabilalarning hokimiyat uchun kurashlari hamda turli hududlarda

⁵⁰⁴ Амир Темур Жаҳон тарихида. –Т.: Шарк; 2001. –Б.103

aholining norozilik harakatlarining kuchayib ketishi temuriylar davlati inqirozi yaqinlashganligidan dalolat berar edi. Temuriylar davlatdagi bu kabi siyosiy tartibsizlik va Dashi Qipchoqdan Shaybniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbek qabilalarning hujumi o'z navbatida Movarounnahr va Xurosondagi iqtisodiy hayotning, xususan, uni asosani tashkil etuvchi sug'orma dehqonchilik hamda qishloq xo'jaligining boshqa sohalariga katta zarar yetkazdi.

Shuningdek, o'z vaqtida davlat xazinasidan suv inshootlari va agrar xo'jalikka pul mablag'lari yetarli darajada ajratilmaganligi tufayli XV asr oxiri-XVI asr boshlariga kelib, Movarounnahr va Xurosonda qishloq xo'jaligi nochor ahvolga tushib qolgan. Bu haqida Fazlulloh ibn Ruzbehxonning "Mehmonnomayi Buxoro" asarida keltirilishicha, o'sha davrlarda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik yo'qolib ketgani va soliqlarning ko'pligidan xalqning ahvoli og'irlashib qolgan va Samarqand viloyati aholisining bir qismi o'z mulklari, yerlarini tashlab, boshqa joylarga ko'chib ketgan⁵⁰⁵ deya ma'lumot berib o'tadi. Natijada juda ko'p yerlarga ekin ekilmay, ular bo'sh qolib, yer solig'idan davlat xazinasiga tushadigan daromad miqdori keskin qisqargan.

XVI asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy hokimiyatni o'z tasarrufiga olgan Shayboniixon va uning avlodlari yangi davlat Buxoro xonligiga asos solgan. Barcha sohalar kabi iqtisodiy hayotni jonlashtirish maqsadida agrar soha va sug'orish inshootlari tizimida bir qator tadbirlarni amalga oshirgan. Bular to'g'risida o'sha davr manbalaridan bo'lgan Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ruzbehxonning "Mehmonnomayi Buxoro", Badriddin Kashmiriyning "Ravzatur ar-rizvon va hadikat al-g'ilmon" (Jannat bog'i va o'rmon mahramlari), Hofiz Tanish Al-Buxoriyning "Abdullanoma", Abul Abbas Muhammad Tolibning "Matlab ut-tolibin", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarda⁵⁰⁶ ko'plab ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Buxoro xonligida shayboniylar sulolasining yirik vakillari Muhammad Shayboniixon (1500-1510), Ubaydullaxon (1533-1540), so'ngra Abdullaxon (1557-1598) davrida suv inshootlari barpo etish va agrar sohani rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratgan. Shayboniylar davrida Buxoro xonligining iqtisodiy jihatdan yuksaltirish maqsadida, bu sohaning asosini tashkil etuvchi dehqonchilikka e'tiborini qaratdi. Bu davrga kelib, dehqonchilik qilinadigan yerlarning ko'pchilik qismini sug'riladigan yerlar tashkil qilar edi. Shuning uchun xonlikdagi sug'orish tizimi va gidrotexnik inshootlarning ahvoli yaxshilamasdan turib bunga erisha olmasligini yaxshi anglagan hukmdorlar ko'plab suv inshootlari, jumladan, suv ayrig'ichlari, suv omborlar, kanallar, ariqlar va boshqa turdagi sug'rish inshootlari barpo etilgan. Masalan, Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" nomli asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1502-yilda Zarafshonning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralgan qismiga Shayboniixon

⁵⁰⁵ Фазлаллах ибн Рузбехон Исфохани. Михман-нама-йи Бухара. –С. 151-152.

⁵⁰⁶ Хофиз Ганиш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарофномаи шохий). I-II-китоб (Форс тилидан С.Мирзаев ва Ю.Ҳақимжонов таржимаси). –Т.: Шарқ; 2000; Мухаммад Солих. Шайбонийнома. –Т.: Фафур Фулом; 1989.; Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин / Ўзбек тилига таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ғ.Каримий, Э.Миркомиллов. – Т.: Мовароуннаҳр; 2016.; Заҳириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Юлдузча; 1990; Заҳириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: О'qituvchi; 2008.

farmoniga binoan suv ayrig'ichlari qurilgan⁵⁰⁷. Zarafshon vodiysida bunday yirik suv inshootining bino qilinishi shubhasiz mamlakatning xo'jalik hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan edi⁵⁰⁸. Demak, Shayboniyxon davrida suv inshootlari barpo etishga asosiy e'tiborini qaratib xonlikning qishloq xo'jaligini ahvolini yaxshilashga va obikor yerlarning miqdorini kengaytirishga alohida ahamiyat bergan.

Yana bir shayboniylar davridagi hukmdorlardan biri, Buxoro xonligining rasman davlat sifatidagi asoschisi Ubaydullaxon davrida ham agrar soha va suv inshootlari qurilishiga alohida ahamiyat qaratgan bo'lib, U Mehtar Qosim nomi bilan ataluvchi ko'prikn barpo ettiran. Bu ko'prikn o'z navbatida ulkan suv inshoot suv ayirgich vazifasini bajaradi. Ushbu ko'prikn XVI asr boshlarida Buxoro yaqinidagi yirik g'isht ko'priklardan biri bo'lgan. Mehtar Qosim ko'prikn Zarafshon daryosi ustiga Buxoro xoni Ubaydullaxonning saroy amaldorlaridan biri Mehtar Qosimning mablag'iga barpo etilgan. Mehtar Qosim ko'prikn Buxorodan 22 km shimoli-sharqda Qavola-Chorbog' qishloqlari oralig'ida Zarafshon daryosining eski o'zani ustiga barpo etilgan⁵⁰⁹. Mazkur ko'prikn xonlikning sug'orish tizimida muhim ahamiyat kasb etganligi sababli Abdullaxon II davrida ham bir necha marotaba qayta ta'mirlangan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi, Dashti Qipchoqdan ko'chib kelgan aholining o'troq dehqonchilik hayotiga ko'chish jarayoni kuchayishi bilan sug'oriladigan unumdor yerlarga bo'lgan talabning ortib borishi mamlakatda ishdan chiqib bo'sh yotgan yerlarga suv chiqarish va obikor yerlarni o'zlashtirish uchun irrigatsiya ishlarining kengayishiga olib keldi.

Arxeologik ma'lumotlar va tarixiy manbalarning shohidligiga qaraganda, XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligida, ayniqsa, uning markaziy qismi hisoblangan Zarafshon vodiysida bir qancha yirik sug'orish inshootlari qurilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirilgan⁵¹⁰. Bunga Shayboniylar sulolasining yirik vakili Abdullaxon II (1556-1598 yillar) hukmronlik qilgan davr mobaynida mamlakatda amalga oshirilgan yirik qurilish va irrigatsiya ishlari bilan bog'liq. Bu haqida Badridin Kashmiriy "Ravzatur ar-rizvon va xadikatul al-g'ilmon"(Jannat bog'i va o'rmon mahramlari) nomli asarida XVI asrdagi siyosiy-ijtimoiy holati, bunyodkorlik ishlari haqida "...har bir shaharda masjid va oliy madrasalar bino qilingan, har manzilda rabotlar va sardobalar qurilib, daryolar ustiga toshko'priklar o'rnatilgan. Kanallar qazilib, dashtlarga suv chiqarilgan. Xaloyiq o'rtasida omonlik, arzonchilik va shodlik paydo bo'lgan" deb yozib qoldirgan⁵¹¹

1582 yilda Zarafshon vodiysining shimolida joylashgan Nurota tog' tizmasidan oqib tushadigan Oqchob soyining darasi ichiga "Abdullaxon bandi" suv

⁵⁰⁷Мухаммаджонов А.Р. Қўйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б.114.

⁵⁰⁸ Замонов А.Т. Тухтабеков К.А. Бухоро хонлигида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар (Шайбонийлар сулоласи даври). –Т.: Turon Iqbol; 2018. –Б.

⁵⁰⁹Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. –Т.: Тафаккур; 2016.–Б.200-201.

⁵¹⁰ Мухаммаджонов А. Қўйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Б. 119.

⁵¹¹ Бадриддин Кашмирий. Раизатур ар-ризвон ва ҳадиқат ал-ғилмон, УзССР' ФА Шарқшунослик институти, Қўлёзма, инв. № 2094, варақ 386.; Мухаммаджонов А.Р. Қўйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б.122.

ombori bino qilinib, Nurota vohasining sharqiy qismiga joylashgan Jo'sh va Oqchob atroflari sug'orilib obod etildi. Bu haqda Hofiz Tanish o'zining "Abdullanoma" asarida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida ma'lum bo'ldiki, 1582 yilning kuz oylarida Abdullaxon Dashti Qipchoqqa, Bobo sultonga qarshi yurishdan qaytib kelayotganda, Nurota tizmasida, Jo'sh qishlog'i yaqinidagi Oqchob manzilidagi darada band qurish haqida farmon beradi. Ya'ni, bu yerda bahor oylarida juda ko'p miqdorda sel suvlari to'planar, ammo bu suvlardan dehqonchilikda deyarli foydalanilmas edi. Abdullaxon sel suvlarini bir joyga to'plab, Oqchob darasida to'g'on qurishni buyuradi. Bu haqda "Abdullanoma" asari muallifi shunday hikoya qiladi: "Har ko'klamda o'sha darada ko'p sel to'planib, lekin uning suvi ekinga yetishmas edi. Shuning uchun buyurdi: "Ahmadali otaliq nayman o'sha daraga Somon yo'li shaklida bir to'g'on qursin, toki dehqonlar o'sha joyda to'plangan suvni bo'lishib ekinlarni sug'orsinlar"⁵¹². Bundan anglashiladiki, Oqchob qishlog'ining aholisi suv tanqisligi haqida Abdullaxonga arz qilgan va undan Oqchob soyini to'sib, suv ombori qurishga ruxsat berishini iltimos qilgan bo'lishi, ehtimol.

"Abdullaxon bandi" Nurota tog' tizmalarining janubiy yonbag'irlaridan oqib chiquvchi hozirda Nurota tumanining Eski Oqchob qishlog'idagi Beklarsoy ichida qurilgan. Oqchob qishlog'i esa Nurotadan 65 km sharqda, hozirgi "Qo'shrabot" jamoa xo'jaligida joylashgan. Qishloqning shimoliy va sharqiy tomonlari Nurota tog' tizmalariga yondashib ketganadir, janubiy hamda g'arbiy tomonlari esa Nurota tog'ining Oqtog' va Qoratog' tizmalari oralig'ida g'arbga tomon cho'zilgan Jo'sh vodiysining keng yaylovlariga tutashadi. Oqchob qishlog'ida adirlar osha soy qirg'og'i bo'ylab yuqoriga ko'tarilgan sari uning sohillari balandlashib, qoyatoshli daraga aylanadi. Daraning tor yeri ulkan to'g'on bilan to'silgan. Bu to'g'on mahalliy aholi tilida "Abdullaxon bandi" nomi bilan mashhurdir.

Buxoro xonligida xalq ommasining fidokora xizmatlari bilan 1583-yilda Zarafshon vodiysining shimolida joylashgan Nurota tog'li tizmasidan oqib tushadigan Oqchob soyining darasi ichiga "Abdullaxonbandi" suv ombori ham bino qilingan. Otaliq lavozimidagi Ahmadali Nayman Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan Oqchobbandi qurilishiga boshliq etib tayinlangan. Abdullaxonbandi Nurota vohasining sharqiy qismiga joylashgan Jo'sh va Oqchob atroflari sug'orilib obod etilgan va bu yerlar hosildorlik miqdori bir muncha oshgan. Buxoro vohasining sug'orish tarmoqlari bo'ylab Zarafshon daryosi suvining taqsimotini tartibga solishda Zarafshon daryosi ustiga 1582-yilda qurilgan "Puli Karmana", XVI asrning ikkinchi yarmida bino qilingan "Puli Mehtar Qosim", "Puli Chahorminor" va "Puli Jondor" kabi suv o'lhagichlar va suv ko'priklar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etgan⁵¹³.

Abdullaxon II davrida yana bir irrigatsiya inshooti Tuyatortar kanali bo'lib, u Jizzax vohasini suv ta'minoti bilan ta'minlan. Tuyatortar kanali Jizzax vohasidagi eng qadimiy suv inshootlardan biri bo'lgan. Jizzax vohasi hamda Eski Tuyatortar kanali bo'ylabo'tkazilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum

⁵¹² Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланомма. 2-китоб. – Б. 109.

⁵¹³ Мухаммаджонов А. Р. Қўйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б.120

bo'lishicha, Tuyatortar kanali milodning boshlarida Farmontepa yaqinida Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idan chiqarilib, XVI asrda ya'ni Shayboniylar hukmronligining dastlabki yillarida uning o'zani uzaytirilgan. Do'stmat, Qoratosh, Alamli, Yangiqo'rg'on oraliqida qariyb 100 km masofada uning o'zani past-baland adirlar yoqalab o'tkazilib, Jizzaxning asosiy suv manbai Sangzor daryosiga tutashtirilgan⁵¹⁴.

Shayboniy hukmdor Abdullaxon II ning 1579-yilda Vaxshdan suv chiqarish uchun ariq qazishga farmon bergan. Vaxshdan ariq qazish 1579-1580-yillardagi yer-suvga oid katta tadbirlardan biri bo'lgan. Ariq qazishni o'z davrining yirik din peshvolari Jo'yboriy xo'jalardan Xo'ja Kalonxo'jani boshliq qilib tayinlagan. Badriddin Kashmiriy ma'lumotlariga qaraganda, o'zining asarida ta'kidlashicha Vaxshdan ariq qazish uchun Hisor, Denov, Qubodiyayon, Aymoqot va Shahri Safo viloyatlariga o'n ming mardikor yetkazib berish majburiyati yuklatilgan. Xo'ja Kalonxo'jaga xon topshirig'iga binoan otaliq AhmadaliNaymani va mulla Muhammadbiylar ham ariq qazilishiga mas'ul etib tayinlangan. Arig'ni kavlash ishlari 1579-1585-yillar oraliqida davom etgan. Ariq qazilishi munosabati bilan Vaxshda obikor yerlar miqdori oshgan⁵¹⁵. Demak, bu suv inshooti Jo'ybor xo'jalari tomonidan qurilgan eng yirik ariqlardan biri bo'lgan.

Akademik A.R.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, Buxoro xoni Abdullaxon II ning bevosita boshchiligida Buxoro xonligi bek va xo'jalari ham suv inshootlari barpo etishga o'z xizmatlarini qo'shishgan. Buxoro xonligida sug'orish ishlarini kengaytirilib, yangi yerlarni o'zlashtirishda mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan o'sha davrning eng yirik din peshvolari Jo'yboriy xo'jalaridir. Jo'yboriy xo'jalar XVI asrning o'rtalarida boshlab xonlikning siyosiy hayotida tutgan o'z mavqelaridan foydalanib, tasarruflaridagi katta-katta yer-suvlardan iborat mulklarning kengaytirishga intilganlar. Shuning uchun ham ular mehnatkash xalq ommasining kuchi bilan suv inshootlari qurish va dashtlarga suv chiqarib, yangi yerlarni o'zlashtirishdan manfaatdor bo'lgan. Jo'yboriy xo'jalar qo'llaridagi ekin yerlaridan yuqori hosil olish maqsadida kanal va ariq qazish, suv inshootlarini loyqadan tozalash bilan doimiy ravishda shug'ullanib kelishgan. Bu xalq orasida "begor" deya nomlangan majburiyat bo'lgan.

Buxoro xonligini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Jo'ybor xojalari vakillarining nufuzi katta bo'lgan. Bunga asosiy sabab, ularning qo'lida ham Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda yirik yer-suvdan iborat mulklar bo'lgan. Masalan, Xo'ja Muhammad Islom 300 jufti gov (2500 gektar), Xo'ja Sa'd esa 2000 jufti gov⁵¹⁶ (17 ming gektar), Tojiddin Xasanning esa 1000 qit'a, Xo'ja Abdurahimning 800 qit'a yer-suvga ega bo'lishgan.

XVI asr mobaynida Jo'yboriy xo'jalar yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida 1557-1579-yillar oraliqida Somonchuq, Afshona, Sevinchi kalon kabi Buxoro qishloqlari hamda Chorjuy, Marv, Vaxshdagi yerlardan kanallar qazilgan.

⁵¹⁴ O'sha joy... -B. 122.

⁵¹⁵ Жуvonмардиева. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. -Т.: Фан; 1965. -Б.44.

⁵¹⁶ Gov-O'rta asrlarda Суер o'lchov birligi bo'lib, 1 gov taxminan 8,33-8,50 gektarga teng bo'lgan. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи; 1994.

Bu kanallarning barpo etilishi natijasida Jo‘yboriy xo‘jalarning qo‘lida bo‘lgan yerlardagi suv inshootlari tizimi bir muncha yaxshilangan⁵¹⁷.

Badriddin Kashmiriyning “Ravzatur ar-rizvon va hadikat al-g‘ilmon” nomli asarining to‘rtinchi qismi Jo‘yboriy xo‘jalarning olib borgan suv inshootlari qurilishlarining bayoniga bag‘ishlangan. Shuningdek, ushbu asarda Shayboniy sulolasi hukumdorlari va nufuzli beklar tomonidan XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligining turli viloyatlarida Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Vaxsh va Murg‘ob daryolaridan chiqarilgan yirik sug‘orish tarmoqlari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra, 1556-1557-yillarda Xo‘ja Islom Buxoroning Shahrud sug‘orish tizimidan alohida kanal chiqarilib, Mirzo Ulug‘bek Kuragon zamonidan (1409-1449) to Abdullaxon II davrigacha suvsizlikdan qahrab yotgan Somonjuq dashtini sug‘orib obod etgan. Keyinchalik bu kanal Xo‘ja Kab nomi bilan yuritilgan. Xo‘ja Kab Shahrud sug‘orish tizimidagi eng yirik shohoblardan hisoblangan. 1559-1560-yillarda Xo‘ja Islomning o‘g‘li Xo‘ja Qosim otasining buyrug‘i Ko‘hak (Zarafshon) daryosidan Afshana qishlog‘igacha kanal qazdirgan. Xo‘ja Islomning yana bir o‘g‘li Xo‘ja Sa‘d ham suv inshootlari barpo etishga faol qatnashgan. U 1568-1569-yillarda Amudaryodan Chorjo‘yga kanal qazdirgan. Natijada, Malikshoh Saljuqiy zamonidan beri suvsiz qolgan va mo‘g‘ullar tomonidan vayronaga aylantirilgan Chorjo‘y atrofidagi yerlar sug‘orib obod etilgan⁵¹⁸. Bundan tashqari Xo‘ja Sa‘dning tashabbusi bilan Badaxshon viloyatining Imom mavzei atroflariga suv chiqarilgan. Badaxshonda amalga oshirilgan ishlar Abdullaxon II tomonidan munosib taqdirlangan. Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Abdullaxon II Xo‘ja Sa‘dga Badaxshondagi yangi o‘zlashtirgan yerlardan 6 ming tanobni hadya etgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro xonligida Shayboniylar hukumronlik yillarida bunyod etilgan suv inshootlari mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligini qayta tiklashga zamin yaratgan. Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan Ubaydullaxon, Abdullaxon II va Jo‘ybor xo‘jalari tomonidan amalga oshirilgan suv inshootlari bilan bog‘liq bunyodkorlik ishlari Buxoro xonligi agrar xo‘jaligi taraqqiyotiga xizmat qilgan.

*Sirojov B.N. –
O‘zMU Tarix fakulteti talabasi*

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATINING QISHLOQ XO‘JALIGINING AHVOLI

Samarqand viloyatdagi tabiiy-geografik sharoitlar turlicha bo‘lgani tufayli xilma-xil sun‘iy sug‘orish usullaridan foydalanilgan. Hovuzlarda suv to‘plash, kanal va ariqlar qazish yo‘li bilan suv keltirish qadimdan odat bo‘lgan. Ariq va kanallarga Zarafshon daryosidan yoki undan ajralib chiqqan Koradaryo va Okdaryodan suv chiqarish juda keng tarqalgan. Undan ajralib chiqqan Qoradaryo, Oqdaryo, Norpay va boshqa sav manbalari Samarqand yerlarining serhosil

⁵¹⁷Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Т.: Ўқитувчи; 1994. –Б.27.

⁵¹⁸МухаммаджоновА.Р. Кўйи Зарафшон водийсининг суғориш тарихи. –Т.: Фан; 1972. –Б.125.

bo‘lishiga imkon bergan. Asosiy kanallardan shoxobchalar, so‘ngra ulardan mayda sug‘orish tarmoqlari ajralib chiqqan. Shox-shabba, chim, xarsang toshlar daryoning sekin oqadigan joylariga tashlanib, to‘g‘on qilingan. Viloyatning Buxoro chegaralarigacha bo‘lgan yerlarining hammasi serhosil bo‘lib, aholi paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatining sug‘orili tizimi va qishloq xo‘jaligi haqida bir qator sharqshunoslar, toporaflar, gidrologlar, irrigatorlar va tarixchi olimlar keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borishgan. Shularning imiy izlanishlarini o‘rganib taxlil qilgan xolda mazkur muammoni ochib berishga haraka qildik.

Xususan, XIX asrning 70-yillarida Zarafshon daryosidan Samarqand viloyati chiqarilgan. Unga ko‘ra viloyat bo‘yicha quyidagi yerlar Zarafshon daryosidan suv ichgan: Samarqand uezdida 5.854,8 qo‘shlik yer, Katgaqo‘rg‘on uezdida 2.483 qo‘shlik yer, Panjakent uezdida 1.554 qo‘shlik yer, hammasi bo‘lib 9.892 qo‘shlik⁵¹⁹. Budan ko‘rinib turibdiki bu hududda qishloq xo‘jaligi rivojlanii va hosildor bo‘lishi uchun suv sanbalari yetarli bo‘lgan. Daryo suvidan aholi har xil miqdorda - yoz oylari ko‘proq, kuz va bahor oylarida kamroq foydalangan.

Bu hudud dehqonchiligi va irrigatsiyasi tarmoqlari to‘g‘risida N.M.Mayev o‘zining “От Ташкента до Катты – Кыргызан” nomli maqolasida “Bu daryo atrofida yashagan xalqlar uning suvidan o‘z yerlarini sug‘orishda keng foydalanishgan. Samarqandga kiraverishdagi Cho‘ponota tepaligidan Kattaqo‘rg‘ongacha bo‘lgan Zarafshon daryosining qirg‘oklari bog‘lar bilan o‘ralgan. Vamberi ta‘kidlaganidek, deb yozadi muallif, Kattaqo‘rgong‘acha bo‘lgan yo‘lning ikki tomoni yaxshi sug‘orilgan yerlar bo‘lib, ko‘m-ko‘k rangga burkangandir. Zarafshon vodiysidagi Miyonqol yerlari serhosil, unumli bo‘lib suv bilan yaxshi ta‘minlanganligi ko‘rinib turardi”⁵²⁰.

Samarqandning tog‘li tumanlarida buloq, hovuz suvlari bilan dehqonchilik qilingan. Odamlar buloq suvlari va soylardan ariqchalar chiqarib ekinlarni sug‘organlar. Suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida buloq suvlarining o‘zaniga katta xarsang toshlar tashlab hovuzlar qurilgan. Hovuzga yetarli darajada suv to‘plangandan keyin to‘g‘onning ichki tomonida qoldirilgan maxsus teshik ochilib, ekinlarga muayyan tartibda suv berilgan. Zarafshon vodiysi yerlarida navbat bilan sug‘oriladigan yerlar ham mavjud bo‘lib, ekinlarga suv kerak paytida, suvga tanqisligi sezilsa, undan navbat bilan foydalanishga qattik rioya qilingan. Birinchi navbatda ariq etagidagi yerlarga, keyin ariq oxiridan ikkinchi uchastkaga, so‘ng yuqoriroqqa suv berilgan. Hatto kichik ariqlarga ham suv navbati bilan taqsimlanardi⁵²¹. Bunday to‘g‘onlar Zarafshon daryosidan ajralib chiqqan Okdaryo va Koradaryoga qurilgan.

O‘rganilayotgan davrda viloyat dehqonlarining asosiy ekinlaridan biri paxta bo‘lib, u juda mashaqqatli mehnat talab kilgan. L.N.Sobolev 1874-yili o‘z ilmiy

⁵¹⁹ Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). –Тошкент.: Фан, 1972. –Б. 190.

⁵²⁰Пардаев К.К. Ўрта Зарафон (Миёнкол) воҳасининг XIX-XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Т.ф.н. дисс... –Т.: –Б. 95.

⁵²¹ Тошев Х. XIX охири - XX аср бошларида Зарафшон ўзбекларининг хўжалиги ва ижтимоий турмуи. –Т.; Фан, 1987. –Б. 23-27

izlanishlardan kelib chiqib, viloyat paxtakorlarining mehnat faoliyatlari, paxta yetishtirishi haqida qimmatli ma'lumotlarni to'plagan. Samarqand viloyatida paxta hosildorligiga kuyidagi iqlim qulayliklari, ya'ni aprel oyida sovuq emasligi va yer zax bo'lmasligi, iyun va iyul oylarida havoning o'zgarmasligi va aynan terim boshlangandan to oktyabr oyi oxirigacha sovuq tushmasligi katta yordam bergan. N.Sobolevning ta'kidlashicha, yuqoridagi iqlim qulayliklari va dexqonlarning mashaqqatli mehnatlari natijasida Samarqand viloyati paxta yetishtirishda yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan. Oltinchi oyga kelib terim boshlangan va paxta terimi tugagandan so'ng, qolgan g'o'zapoyani yoqilg'i o'rnida ishlatganlar.

XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Samarqand viloyati paxta yetishirish haqida I.M.Slutskiy ham qiziqarli ma'lumotlarni⁵²² to'plagan. yerni haydash ishlari fevral-mart oylarida amalga oshirilib, yer 3-4 marta haydalgan. Chigit ekish esa mart oyining oxiri - aprel oyining boshlarida, asosan bahorgi issiq kunlar boshlanganida amalga oshirilgan. G'o'za nihollar 7-10 kundan keyin ko'rina boshlagan. Keyingi ishlar asosan g'o'za atrofidagi begona o'tlarni yulib tashlash va qotgan joylarni yumshatishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi marta sug'orilgandan so'ng ko'tarilgan go'zalar iyul oyining o'rtalarida gullay boshlab, birinchi salqin tushgunga qadar davom etgan. Iyul oyining oxiri - avgustda ko'saklar paydo bo'lib, ochilishi esa sentyabr oyining avvallarida boshlangan. Ko'saklarni, asosan noyabr oyi o'rtalarida havodagi o'zgarish natijasida sovuq ura boshlaydi. g'o'zaga ishlov berish chigit ekilgandan to paxta ochilguncha erkaklar tomonidan amalga oshirilgan. Yig'im-terimda ayollar va bolalar ishtirok etgan. Paxtaning ko'p hosilli bo'lishi chigitni to'g'ri ekib, g'o'zaga yaxshi va sifatli ishlov berib, yetilgunga qadar tinimsiz parvarishga bog'liqdir.

Samarqand uездidagi Chelak, Yangiqo'rg'on; Kattaqo'rg'on uездidagi Xo'jariq, Payshanba, Damariq, va Kalqo'rg'on bo'lisliklarida iqlim sharoiti yaxshi, g'o'za parvarishi kuchlidir. Shuning uchun ham 1885-1900 yillar mobaynida bu bo'lisliklarda yetishtirilayotgan paxtalarining 75% i birinchi navga, 25% i ikkinchi navga topshirilgan. Samarqand viloyatida dehqonlarning paxtadan daromadi qishloq xo'jalik ekinlari o'rtasida 4-o'rinda turgan. Dehqon olgan hosilning ko'p qismini o'z xo'jaligida ishlatgan: paxtani qo'l bilan oddiy xalajida tozalab, chigitdan yog'ni juvozda chiqarib, tolasidan ip yigirib, bo'z va boshqa gazlamalar to'qishda foydalanganlar. Bir qismini sudxo'r va savdogarlar orqali, ba'zan esa o'zi bozorlarga chiqargan. Viloyatda umumiy ekin yerlarining 1/15 qismiga paxta ekilgan, bu 364.200 desyatina yerdan 24.280 desyatina to'g'ri kelgan. Umuman olganda, adabiyotlarda yozilishicha, viloyatda paxta uch yil mobaynida ekilib, yaxshi go'nglab turilgan. So'ngra beda va boshqa o'simliklar ekilgan. Boshqacharoq aytganda, almashlab ekish uslubiga qattik e'tibor berilgan. Shuning uchun ham xech kim yerni quvvatsizlanganligidan va hosilidan shikoyat qilmagan.⁵²³

Samarqand viloyaida 1876-1877-yillari yangi, amerikacha navli paxta yetishtirish uchun ishlar amalga oshirila boshlandi. Natijada 1877-yildan ikki xil

⁵²² Слуцкий И.М. Очерк хлопководства в Самаркандской области И Туркестанский сборник. –Т.: 1909. Т. 527. –С. 50-63.

⁵²³ Зиёев Х.З. Тарих – ўтмиш ва келajak кўзгуси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –Б. 174-175.

yer uchastkalariga paxta ekilishi yulga ko'yildi. 1877-yilgi ekin mavso'miga tayyorgarlik yanvar oyining oxirlaridan boshlanib, mart oyining o'rtalarigacha davom etgan. Chigit ekish 8-apreldan boshlanib 12-aprelda tugatilgan. 1877-yili viloyatda amerikacha paxta navi ekilib, 5 pud ekilgan chigitdan 63 pud 39 funt paxta olingan. Tozalash natijasida 17 pud 24 funt tola va 46 pud 12 funt chigit olingan. Sifat jihatidan birmuncha yaxshi bo'lgan amerikacha paxta-navini o'z manfaatlari yo'lida viloyatda faqatgina ruslar eka boshladilar. M. Virskiy "Обзор хлопководства в Самаркандской области" nomli ocherkida, 1890-yili ekilgan amerikacha paxta navi 1891-yilda ikki barobarga, 1892-yili 3,5 barobarga oshgan bo'lib, 1893-yilda yana shu ko'rsatkichda qolganligini ta'kidlaydi. Bu dalillardan ko'rinib turibdiki, viloyatda amerikacha navli paxta ko'p ekilgan. Chunki, Rossiya imperiyasi hukumati o'z yengil sanoatini rivojlantirish maqsadida paxtani ko'p yetishtirishni kuchaytirgan⁵²⁴.

1894-yilga kelib Turkiston o'lkasida xususan, Samarqand viloyatida ham amerikacha paxta navi ekilishining kamayishi kuzatiladi. Bunga asosiy sabab, shu yili viloyat bankining bu paxta navini ekish uchun pul to'lash, qarz berishni to'xtatganligi bo'ldi. Mahalliy paxta navini ekish esa o'z hajmini o'zgartirmadi. Shu bilan birga, yana bir sabab - oxirgi besh yil ichida bug'doy ekiladigan yerlarning amerikacha paxta navini ekishga o'tkazilishi oqibatida tub aholining bu navga e'tibori yo'qolganligi edi. Chunki viloyat bozorlarida bug'doyning narxi 1890-1894-yillari 2,5% ko'tarilib, xalqning bug'doyga bo'lgan ehtiyojini oshirdi. Bu esa yerlarga yana bug'doy ekish ehtiyojini keltirib chiqardi. Tarixchi olim X.Z. Ziyoevning yozishicha, paxta ekiladigan yerlar ayrim yillarda izchillik bilan ko'payish o'rniga oldingi yillarga nisbatan kamaygan⁵²⁵. Bunga oziq-ovkat mahsulotlarining yetishmasligi, narxi oshganligi uchun dexqonlar paxta o'rniga ularni ko'proq yetishtirishga harakat qilganligi sabab bo'lgan

Samarqand viloyati xalq xo'jaligida paxtadan tashqari xalq sug'oriladigan yerlarga bug'doy, arpa, sholi, jo'xori, sabzavot ekkan. Lekin, Rossiyada to'qimachilik korxonalarining ko'payishi va Turkistondagi paxtaga bo'lgan talabning kuchayishi, o'lkani asosiy paxta yetkazib beruvchi "xomashyo bazasi"ga aylantirishi oqibatida Samarqand viloyatida ham paxta ko'p ekila boshlandi. Bu mustamlakachilarning o'z sanoat korxonalarini yanada mustaxkamlash, rivojlantirish uchun yetishtirilgan paxtani to'xtovsiz ravishda Rossiyaga jo'natganlar. Paxta ekish 1888-yildan 1908-yilgacha uch barobarga oshdi. Agarda 1888-yilda paxta ekish maydonlari viloyatda 8 ming desyatinani tashkil etgan bo'lsa, 1907-yili 28 ming desyatinaga, 1915-yilga kelib esa 55,6 ming desyatinaga⁵²⁶ yetgan edi. Shu xususida kuyidagi fikrlarni keltiramiz: paxtachilikni yil sayin kengayishi natijasida XX asrning birinchi o'n yilligida Turkiston qishloq xo'jaliga bozor munosabatlari ustivorligi sharoitida dastlabki iktisodiy tanglikka

⁵²⁴ Курахмедов А.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боларида Самарқанд вилоятида иктисодий ва маданий ҳаёт ("Туркестанский сборник" маълумотлари асосида). т.ф.н. дисс. –Самарқанд. 2001. –Б. 68.

⁵²⁵ Зиёев Х.З. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –Б. 177.

⁵²⁶ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. –Т.: Фан, 1973. –С. 29

uchradi⁵²⁷. Samarqand viloyatida paxta ekishda asosiy ko‘tarilish 1899-yilga to‘g‘ri kelib, viloyatda va umuman Turkiston o‘lkasida paxta yakka hokimligi o‘rnatila boshlandi. Umuman, viloyatda terilgan paxta 1913-yilda - 953.000, 1914-yilda - 621.000, 1915-yilda - 1.346.000, 1916-yilda - 1.123.000 va 1917-yilda 826.000 pudni⁵²⁸ tashkil etgan. yetishtirilayotgan asosiy hosil Rossiyaning yevropa qismida joylashgan va yangi qurilayotgan fabrikalarga yetkazib berilayotgandi. Bu esa Rossiya imperiyasi hukumati mustamlakachilik siyosatini o‘lkada mustahkamlashga yordam ko‘rsatayotgan edi.

Samarqandliklar bog‘dorchilik va uzumchilik bilan qadimdan shug‘ullanishgan. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida ham deyarli barchaning o‘z bog‘-rog‘i bo‘lgan. Shaharliklar hovlilarida ham mevali daraxtlar parvarish qilingan. Umuman, Zarafshon vodiysidagi yashovchi xalqlarda buning uchun shart-sharoit yetarli bo‘lgan.

O‘rganilayotgan davrda Samarqandda uzumchilik ancha rivojlangan. Turkiston o‘lkasining asosiy uzumchilik hududi bu - Zarafshon vodiysidir. Qadimdan viloyatning Chelak, Daxbed, Urgut, Mahalla, Xo‘ja Ahror tumanlari hamda Samarqand shaxri uzum navlarining xilma-xilligi, hosildorligi bilan ajralib turgan. N.Virskiyning 1896-yildagi ilmiy izlanishlari natijasi⁵²⁹ ham buni to‘la tasdiqlaydi. Samarqandda uzum yetishtirish uchun sharoit Turkiston o‘lkasining boshka viloyatlariga qaraganda yaxshi bo‘lgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida viloyatda uzum yetishtirishning Zarafshon vodiysining suv bilan yaxshi ta‘minlanganligi kishning qisqa, bahorning yomg‘irli, yozning issiq bo‘lishi va uzoq davom etishi, kuzdagi ob-havo qulayliklari uzumchilikni rivojlantirishga yordam bergan. XX asr boshlarida Samarqandda Filatov uzumzorlar tashkil qilib, unda uzumning yevropacha navlari yetishtirilgan. Lekin mahalliy axoli bu uzumlarni kam o‘tkazganlar, chunki mahalliy uzum navlar juda ko‘p bo‘lib, hosil ham yaxshi bo‘lgan. I.M.Slutskiy viloyatda 24 nav uzum yetishtirilganligini aniqlaydi⁵³⁰.

Viloyatda don ekinlari ham asosiy o‘rinni egallagan. Bug‘doy, arpa, jo‘xori, sholi kabi ekinlar ekilishidan oldin yerlar kuzda tayyorlab quyilgan. Baxorda maydonlar uzunasiga va ko‘ndalangiga ikki yoki ko‘proq marta omoch bilan haydalgan. Urug‘ qo‘l bilan sepilgan va ustidan mola bosilgan. Don ekilgan dalalar ikki marta sug‘orilgan: birinchi marta maysa endi unib chiqqan paytda, ikkinchi marta ekin boshqoq olishi oldidan.

Sholi bahorda, bir tanob yerga 2 pud ekilgan. Shovdor, Sheroz, Oforinkent, Sugut, Yangiqo‘rgon, Kattaqo‘rg‘on, Panjakent tumanlarida ko‘proq ekilgan. Hosilni yig‘ishtirib olish sentyabr oyining oxirlarida boshlanib, butun oktyabr oyi ham davom etgan. Har tanob yerdan 32 puddan - 80 pudgacha hosil olingan. Sholining ikki: oq va qora navlari mavjud bo‘lib, bozorda bir pudi 75 tiyindan - 1

⁵²⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустаклакачилиги даврида. –Т.: Шарк, 2000. –Б. 242.

⁵²⁸ Зиёев Х.З. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –Б. 178.

⁵²⁹ Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде//Туркестанский сборник. –Т.: 1909. Т.523.-С. 129-133.

⁵³⁰ Курахмедов А.Э. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боларида Самарканд вилоятида иқтисодий ва маданий ҳаёт (“Туркестанский сборник” маълумотлари асосида). т.ф.н. дисс. –Самарканд. 2001. –Б. 72.

soʻmgacha turgan. Samarqand va Kattaqoʻrgon uездlarida sholi ekiladigan asosiy maydonlar Zarafshon daryosidan ajralib chiqqan Oqdaryo va Qoradaryo oraligʻida joylashgan Miyonqol yerlarida edi. Umuman viloyatda koʻplab turdagi qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ob-havo qiyinchiliklari va boshqa toʻsiqlarga qaramasdan XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Samarqand viloyatida qishloq xoʻjaligi oʻz yoʻlidan borayotgan edi. Ekin ekish koʻpaydi. Dehqonlar koʻplab mahsulotlar yetishtirdilar, yangi yerlarni oʻzlashtirdilar. Aloxida taʼkidlash kerakki, tadqiq etilayotgan davrda bu muvaffaqiyatlardan mustamlakachilar koʻproq manfaat koʻrdilar. Ular viloyatda paxta yakka hokimligini oʻrnatdilar. Bu Rossiya imperiyasi hukumatining viloyat yerlaridagi hukmronlik darajasi kuchayganligidan dalolat beradi. Shunday qiyinchiliklarga qaramasdan viloyat dehqonlari koʻplab mahsulotlar yetishtirib xalq talabini qondirib kelgan.

5-ШЎЪБА: ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭНГ ЯНГИ ТАРИХИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ СОҲАЛАРДАГИ ИСЛОҲОТЛАР

Аширов С.

ЎзМУ тарих йўналиши талабаси

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Барча тарихий замонларда инсоният одамлар, давлатлар, цивилизациялар ўртасида ҳамжиҳатлик, тинч ва тотув муносабат ўрнатиш йўллари топишга интилиб келган. Гарчи бу соҳада саъй-ҳаракатлар ҳамиша ҳам муваффақиятли чиқавермаган бўлса-да, ҳар ҳолда маданий жиҳатдан ўзаро муносабатларга интилиш, бағрикенглик (толерантлик) феъл-атвор таомили, доимий мақсад бўлиб қолаверган.

Толерантлик – бошқаларнинг фикрига, қарашлари ва ҳаракатларига ғайритабиий тарздаги пассив тобелик эмас; итоаткорона сабр-тоқат қилиш ҳам эмас, балки фаол маънавий позициядир. Этнослар, ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ҳамжиҳатлик йўлида, ўзга маданий, миллий, диний ёки ижтимоий муҳит кишилари билан ижобий ўзаро муносабат йўлида бағрикенгликка руҳий тайёрликдир⁵³¹.

Кейинги вақтларда, глобаллашиб бораётган дунёдаги можаролар, шу жумладан, миллатлараро низолар кучаяётган бир шароитда, бу муаммо, айниқса, муҳим ўринга чиқиб бормоқда. Шу муносабат билан миллатлараро тотувлик ҳар қандай кўпмиллатли давлат учун ҳал қилувчи омил сифатида муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ҳозир дунёдаги мамлакатларнинг аксарияти кўпмиллатли, кўп маданиятли характерга эга. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ҳам айнан шундай мамлакатлар сирасига кириб, ушбу ҳол фуқаролар ўртасидаги тинчлик-тотувлик ҳамда миллатлараро ҳамжиҳатликни сақлаб қолишга тўсқинлик қилмайди.

Мустақиллик йилларида кўпмиллатли республикамизда фуқаролараро тинчлик, барқарорлик ҳамда миллатлараро тотувлик муносабатларининг сақланганлиги Ўзбекистоннинг ўзига хос тараққиёт йўлидан ривожланишида қўлга киритилган катта муваффақиятлардан биридир. Чунки 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари яшайдиган Ўзбекистонда жамиятни тубдан янгилаш, бир ҳолатдан иккинчи бир ҳолатга ўтказиш осонликча кўчмайди. Мамлакатимизда истиқлол қўлга киритилган дастлабки кунларданок миллатлараро тотувлик ва барқарорликни таъминлаш асосий масалалардан

⁵³¹ Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. -Т.: Университет; 2004. –Б. 25.

бири бўлиб турди. Бундай пайтда давлат сиёсати изчил ва ҳаққоний бўлиши лозим⁵³².

Қадимги Ўзбекистон диёридаги тинчлик ва барқарорлик – давлатимизда ўтказилаётган оқилона миллий сиёсатнинг, эволюцион, босқичма-босқич тарзда амалга оширилаётган иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий ислохотлар йўлининг натижасидир.

Кўп миллатли давлатнинг қарор топиши узоқ давом этган тарихий жараёнлар натижасидир. Хусусан, яқин ўтмишимизга назар ташласак, “... тарихий маълумотларга қараганда, XX аср бошларида ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида 70 га яқин миллат истиқомат қилган. 30 йил ўтгач, бу рақам 91 гача, 1959 йилда 113 га, 1979 йилда 123 га етган. 1989 йилда Ўзбекистонда ўтказилган охириги аҳоли рўйхати маълумотлари эса Ўзбекистонда 136 миллат ва элат вакиллари истиқомат қилганини кўрсатди”⁵³³.

Ҳуқуқий давлат барпо этиш сари бораётган жамиятимизнинг маданийлиги ва давлатимизнинг демократиклилик даражаси миллий ва этник гуруҳларга яратиб берилган шароит ва имкониятлар билан белгиланади.

Мустақил Ўзбекистон миллий сиёсатининг энг асосий тамойиллари куйидагилар этиб белгиланган:

- Миллати, ирқи, диний эътиқодидан қатъий назар республика барча фуқароларининг тенг ҳуқуқлилиги;

- Шахснинг устуворлиги ва жамиятдаги ижтимоий адолатни белгилайдиган инсон ҳуқуқларининг бошқа барча ҳуқуқлардан устунлиги;

- Кам сонли миллатларнинг ҳақ-ҳуқуқларига эътибор билан қараш, уларнинг тили, анъана ва урф-одатларини хурмат қилиш, уларнинг ўзига хослигини сақлаб қолиш, шунингдек эркин ва ҳар томонлама ривожланиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш;

- Ҳар бир оиланинг, ҳар бир инсоннинг миллатидан қатъий назар ижтимоий ҳимояланишини таъминлайдиган юксак даражада ривожланган, ижтимоий соҳага йўналтирилган бозор иқтисодиётига таяниш;

- Миллатлараро муносабатлардаги низоли вазиятларни ижтимоий-сиёсий асосда тинч йўл билан ҳал этиш.

Ижтимоий ва миллатлараро ҳамжихатлиги тўғрисидаги, Ўзбекистон – унда истиқомат қилувчи барча халқларнинг умумий уйи ҳақидаги баёни, республикамизнинг тегишли расмий ҳужжатлари ва аввало, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ўз ифодасини топган.

Ўзбекистон Конституциясининг муқаддима қисмида “Ўзбекистон халқи: фуқаролар тинчлиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида ўзининг мухтор вакиллари сиймосида “Ўзбекистон Республикасининг мазкур Конституциясини қабул қилади”, дейилса, II боб 8-моддасида “Ўзбекистон

⁵³² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Тузувчилар: Жўраев Н. ва б. – Т.: Шарқ; 2000. –Б. 239.

⁵³³ Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – таракқиёт асоси. – Т.: Ўзбекистон; 2001. –Б. 198.

халқини миллатидан қатъий назар, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ташкил этади”, – дея белгилаб қўйилган⁵³⁴.

Бундан ташқари, Асосий қонунимизнинг V боб 18-моддасида “Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар. Имтиёзлар фақат қонун билан белгиланиб қўйилади ҳамда ижтимоий адолат принципларига мос бўлиши шарт”, – дея таъкидланади⁵³⁵.

Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий барқарорликни сақлашнинг асосий ва муҳим омили – бу кўпмиллатли фуқаролар ўртасидаги бирликни, миллий тотувликни таъминлай олишда эди.

Республикадаги барча миллий масалага доир масалалар демократик, конституциявий асосда ҳал этилади. Кўп миллатли Ўзбекистонда турли миллат ва элатларнинг ўзлигининг қайта тикланиши учун қулай шарт-шароитлар юзага келди.

1992 йилда Республика байналминал маданият маркази ташкил этилди. Бу ташкилот ҳозирги кунда 140 дан ортиқ миллий-маданий марказлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш билан бир қаторда, ёшларимизда бағрикенглик, тотувлик ва бирдамлик маданиятини камол топтиришда муҳим вазифаларни амалга ошириб келмоқда.

Ўзбекистонда истиқомат қилувчи барча миллат ва элатларнинг тиллари, урф-одатлари ва анъаналари бирдек ҳурмат қилинади, уларнинг ривожланиши учун шароит яратилди. Бинобарин, Ўзбекистонда таълим 7 та тилда олиб борилади. Газета ва журналлар 8 та тилда, телекўрсатувлар 11 та тилда, радиоэшиттиришлар 12 та тилда олиб борилади. Оқилона миллий сиёсат туфайли Ўзбекистонда яшаётган барча миллатларнинг вакиллари этник-маданий асосларда жипслашган халқ сифатида шаклланди⁵³⁶.

1995 йилда 16 ноябрда ЮНЕСКО Бош конференцияси “Declaration of principles of tolerance”ни тасдиқлади. 185 давлат, шу жумладан, Ўзбекистон ҳам ушбу декларацияни имзолади. Декларация миллий, диний, этник ва бошқа гуруҳларга нисбатан зўравонлик, ётсираш ва камситишнинг умумий кучайишига қаршилик кўрсатмоғи лозим. Бу ҳужжат миллий ва халқаро миқёсларда экстремистик, террорчилик кирдикорларининг олдини олиш, тугатиш ва бартараф этиш учун ғоявий-услубий асос бўлади деб ҳисоблаш мумкин.

“Давлат миқёсида толерантлик адолатли ва холис қонунчиликни, ҳуқуқ-тартибот, суд-процессуал ва маъмурий меёрларга риоя этилишини талаб қилади, – деб уқтирилади ушбу ҳужжатда. – Толерантлик ҳар бир кишига ҳеч бир камситувсиз иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш имкониятлари берилишини ҳам талаб қилади. Бегоналашув ва (узоқлашув)

⁵³⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон; 2017.

⁵³⁵ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон; 2017. –Б. 12.

⁵³⁶ Ismoilova J. Bag'rikeng va insonparvar xalq. // O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning mustaqil O'zbekistonni barpo etishdagi tarixiy roli. – Т.: 2018. –Б. 196.

маргиналлашув рухий тушкунлик, ғанимлик ва фанатизм ҳолатига сабаб бўлиши мумкин”.

Бугунги кунда юртимизда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари ўзаро иноқ, тотувликда яшаб келмоқда. Республика кўп конфессияли мамлакатдир, ҳозирда Ўзбекистонда 16 та конфессияга мансуб 2 минг 238 та⁵³⁷ диний ташкилотлар расман фаолият кўрсатмоқда. Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев: “...улар умумий уйимиз – Ўзбекистонимиз равнақи йўлида бирлашиб, барча соҳа ва тармоқларда фидокорона меҳнат қилмоқда, ривожланган бозор иқтисодиёти ва кучли фуқаролик жамиятига асосланган ҳуқуқий демократик давлат қуришга муносиб ҳисса қўшмоқда”⁵³⁸, – дея бежиз таъкидламаган. Зеро, халқимиз маънавиятига хос бўлган миллатлараро тотувлик, диний бағрикенгликнинг таъминланиши, аввало, жамиятимизда эзгу ғоялар ва инсоний фазилатларни камол топтириш орқали юртимизда тинчлик ва барқарорликнинг ҳукм суришида муҳим ўрин тутди.

Халқаро майдонда ўз мавқеини мустаҳкамлаб бораётган мамлакатимизда тинчлик ва барқарор тараққиёт сари янгича ислоҳотлар олиб борилмоқда.

Жумладан, “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 февралда эълон қилинган Фармони⁵³⁹ бу борада муҳим аҳамиятга эга.

2017-2021 йилларда мамлакатни ривожлантириш истиқболларини белгилаб берган Давлат дастурининг хавфсизлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасидаги бешинчи устувор йўналиши доирасида белгиланган вазифалар ўз аҳамияти билан бугунги глобаллашув жараёнларининг тобора чуқурлашиб бориши кузатилаётган даврда бошқа давлатларга ҳам намуна бўла олади. Дастур доирасида Миллий муносабатлар Концепциясини ишлаб чиқиш назарда тутилган.

Президент Шавкат Мирзиёев қайд этганидек: “... ҳозирги вақтда дунёнинг турли минтақаларида миллатлараро ва динлараро кескинлик кучайиб бормоқда, миллатчилик, диний муросасозлик бош кўтармоқда. Бу иллатлар давлатни емириб, жамиятни парчалаб, радикал гуруҳ ва оқимлар учун мафкура ўртасида дўстлик ва ҳамжиҳатликни янада мустаҳкамлаш биз учун борган сари муҳим аҳамият касб этмоқда. Ҳеч шубҳасиз, бу бизнинг заминимизда тинчлик ва осойишталикнинг мустаҳкам кафолати, халқимиз бунёдкорлик салоҳиятини, унинг эртанги кунга бўлган ишончини оширишнинг асоси бўлиб хизмат қилмоқда” , – дея таъкидлагани айтиш ҳақиқатдир.

⁵³⁷ O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarning ro'yxatga olinishi haqida 2017 yil 1 iyuldagi ma'lumotnomasi.

⁵³⁸ Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика Байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. Халқ сўзи, 2017 йил 25 январ. №18.

⁵³⁹ “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 февралда эълон қилинган Фармони. / Халқ сўзи. 2017 йил, 8 феврал. №28.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлашнинг ҳуқуқий механизмлари яратилган, ушбу механизмлар самарали ишламоқда ва доимий тарзда такомиллаштирилиб борилмоқда. Ўзбекистонда миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муносабатларининг таъминланиши, аввало, динлараро зиддиятларнинг олдини олиш орқали турли дин вакиллари ўртасида ўзаро ҳамкорлик, бирдамлик ва ҳамжиҳатликнинг шаклланишига замин яратмоқда. Мазкур омил юрт тинчлиги ва тараққиётига, умуминсоний маданият ва маънавият ривожига бевосита хизмат қилади.

*Акбаралиев Ф. –
студент исторического факультета НУУз*

ВОЕННОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С НАТО

Республика Узбекистан провозгласила независимость 31 августа 1991 года. Спустя несколько месяцев, в декабре этого же года Ташкент присоединился к Совету Североатлантического сотрудничества (ССС), установив тем самым официальные партнерские отношения с НАТО (в 1997 году СССР был преобразован в Совет Евроатлантического партнерства)⁵⁴⁰.

13 июля 1994 года Узбекистан подписал рамочный документ программы «Партнерство ради мира» (ПРМ) и на его основе приступил к развитию практического сотрудничества с альянсом по ряду направлений, в том числе в области подготовки военных кадров, борьбы с терроризмом, распространением оружия массового уничтожения и другими международными угрозами. В 1996 году Ташкент и НАТО утверждают первую Программу индивидуального партнерства (ПИП), которая позволила Узбекистану развивать сотрудничество с альянсом на предметной основе.

2002 год стал наиболее «богатым» в плане сотрудничества Ташкента с НАТО. В этом году Узбекистан присоединился к Программе планирования процессов и анализа (ППА), которая считается более высокой степенью сотрудничества с альянсом. Тем самым было подтверждено стремление Ташкента к укреплению отношений с Североатлантическим союзом. Помимо этого Республика Узбекистан начинает принимать участие в проекте «Виртуальный шелковый путь», цель которого - улучшить доступ к сети Интернет университетов и научно-исследовательских учреждений в странах Кавказа и Центральной Азии на базе спутниковой сети НАТО⁵⁴¹. Начиная с 2002 года, Ташкент играет одну из ключевых ролей в оказании поддержки действиям стран альянса в Афганистане. Узбекистан предоставил свое воздушное пространство и территорию для транзита невоенных грузов для коалиционных сил альянса в Афганистане. Он также разрешил военным

⁵⁴⁰ О сотрудничестве Узбекистана с НАТО ... // mfa.uz>cooperation>international

⁵⁴¹ НАТО и Узбекистан // www.NATO.bz>Uzbekistan

самолетам Германии использовать аэродром в городе Термезе, а США - в Ханабаде⁵⁴².

В узбекском Карши-Ханабад была развернута американская военная база, с 1,5 тыс. военных и 25-30 транспортных самолетов С-130Н и С-17, после 2003 года ставшая базой Альянса. Относительно крупная немецкая группировка (200 чел.) располагалась в Термезе. Узбекистан также предоставил право на пролет над своей территорией и транзит для перевозок личного состава и предметов снабжения членов НАТО⁵⁴³.

Специалисты Германии, Великобритании, Италии, Турции и США принимали участие в подготовке подразделений специального назначения узбекских вооруженных сил. Узбекские военнослужащие проходили обучение в Америке, которая также поставляла в республику военное снаряжение. Была создана постоянно действующая группа по военно-техническому сотрудничеству. Помимо этого, согласно договоренностям, достигнутым между президентами Узбекистана и США в 2002 году, предполагалось оснастить вооруженные силы республики вооружением и военной техникой, которые соответствовали бы стандартам НАТО. Также рассматривались вопросы по созданию производственной базы по выпуску некоторых видов оружия и военной техники и их техническому обслуживанию.

Осознавая важную роль Узбекистана в регионе, США и их союзники по НАТО предложили Ташкенту принять участие в перспективных инфраструктурных проектах в Афганистане, таких как строительство железных дорог, реконструкция мостов, связывающих север страны с Кабулом, сооружение новых ЛЭП для поставок узбекской электроэнергии, создание на базе аэропорта Навои свободной экономической зоны⁵⁴⁴.

Действуют три оснащённые американцами сержантские школы. Офицеры нового поколения проходят обкатку в натовских учениях по программе «Партнерство ради мира» и свободно говорят по-английски. По линии Госдепа США Узбекистан получал только технику на несколько миллионов в год. Кроме американцев, в перевооружении узбекистанской армии участвуют и другие страны НАТО. Во Франции проходили модернизацию боевые вертолеты МИ-24.

С 2003 года командование коалиционными силами в Афганистане перешло к НАТО. Американские базы стали и базами Альянса, а Центрально-Азиатская тематика по словам тогдашнего генсека Альянса Дж.Робертсона, стала одним из приоритетных вопросов НАТО. «Между государствами Центральной Азии и государствами НАТО стоят общие задачи, цели, у нас общий враг и мы должны бороться с ним вместе», — заявлял Робертсон⁵⁴⁵.

⁵⁴² Нишанов Д.Д. Деятельность Узбекистана в ОБСЕ и НАТО. Дисс.докт.ист.наук // <https://cyberlenika.ru/articles>

⁵⁴³ Узбекистан и НАТО заинтересованы в развитии // www.17rend.uz

⁵⁴⁴ Нишанов Д.Д. Деятельность Узбекистана в ОБСЕ и НАТО. Дисс.докт.ист.наук // <https://cyberlenika.ru/articles...>

⁵⁴⁵ Народное слово, 2003. 10 октября.

Узбекистан, первоначально вовлеченный в ИПДП, после 2005 года в связи с разногласиями на действия в Андижане, приостановил участие в заседаниях СЕАП и сократил свое сотрудничество до нескольких незначительных действий. Осуществлялось сотрудничество в таких областях, как обучение и подготовка кадров и гражданское чрезвычайное планирование. Каналы связи также оставались открытыми.

В 2008 году Республика подписывает с НАТО соглашение об уничтожении имеющихся в стране запасов меланжа - токсичного окислителя ракетного топлива. Уже на следующий год возле Самарканда начинается переработка меланжа в безвредный химический продукт. В 2010 году этот проект был успешно завершён⁵⁴⁶.

Узбекистан продолжил сотрудничество с альянсом в области гражданского чрезвычайного планирования. На основе консультаций со странами-членами альянса Ташкент развивает возможности своих гражданских сил и средств по реагированию на природные и техногенные чрезвычайные ситуации.

Наиболее важным событием в развитии отношений НАТО-Узбекистан в «посткризисный» период стало достижение в 2009 году договоренности о присоединении этой страны к так называемому «северному маршруту» доставки грузов международным силам в Афганистане (ИСАФ). Этот маршрут, который также проходит по территории России, Украины, Казахстана и Белоруссии, стал основным в обеспечении контингентов ИСАФ, благодаря наилучшим транспортным возможностям, имеющимся у Узбекистана, по сравнению с другими среднеазиатскими государствами, граничащими с Афганистаном⁵⁴⁷.

Узбекистан остается одним из основных транзитных маршрутов для перебросок гуманитарных грузов в Афганистан, большая часть которых доставляются по мосту Хайратон. Узбекские специалисты помогают в осуществлении важных инфраструктурных проектов в Афганистане, включая реконструкцию десяти мостов, связывающих север страны с Кабулом. Узбекистан продолжает участвовать в семинарах и симпозиумах по оборонной политике и стратегии по линии Партнерства ради мира, а также в мероприятиях по обучению офицеров ВС Узбекистана с акцентом на изучении английского и французского языков. Необходимо отметить, что нынешнее руководство Узбекистана строит отношения с альянсом с учетом отдаленных перспектив, понимая, что предстоящий вывод сил НАТО из Афганистана потребует укрепления безопасности в приграничных государствах, в том числе и в Узбекистане. В этом случае от альянса потребуются усилия не только экономического и политического характера, но и в военного. В частности, альянсу необходимо будет принять меры по укреплению границ и существенной модернизации и технического переоснащения армий среднеазиатских стран, граничащих с Афганистаном.

⁵⁴⁶ НАТО в Узбекистане www.anhor.uz>events>smi

⁵⁴⁷ Узбекистан – НАТО: сотрудничество на основе партнёрства // www.uzreport.news>world>uzb...

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИГА БЎЛГАН ЭЪТИБОРНИНГ ҚОНУН ВА ҚОНУНОСТИ ХУЖЖАТЛАРИДА АКС ЭТИШИ

Ўзбекистон худудида археология мероси объектларининг илмий жиҳатдан ўрганила бошлаганлигига 100 йилдан кўпроқ вақт ўтди. Шундай бўлса-да, археология мероси объектларининг муҳофаза қилиш, сақлаш ва тадқиқот ишларини олиб бориш учун алоҳида эътибор қаратилиши мустақиллик йилларига тўғри келади⁵⁴⁸.

Ўзбекистон Фанлар академияси Я.Ғуломов номидаги Археологик тадқиқотлар институтида 1959 йилдан “Ўзбекистон моддий маданият тарихи”, 2002 йилдан “Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар” йиллик тўпламлари нашр этилиб, уларда Республикамиз худудида олиб борилаётган археологик тадқиқотларнинг умумлашма илмий хулосалари бериб борилади. 2010 йилдан эса “Ўзбекистон археологияси” илмий журнали нашр этила бошланди⁵⁴⁹.

Собиқ иттифоқ даврида кўплаб археология объектлари текисланиб, пахтазорга айлантирилганлиги сир эмас.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда бир қанча қонун ва қонуности хужжатлари қабул қилиндики, улар археология мероси объектларини муҳофаза қилиш, фойдаланиш ва тадқиқ этишга ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилди.

2001 йилда бир гуруҳ ўзбек археологлари томонидан Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди⁵⁵⁰.

Ўзбекистон – жаҳон цивилизациясининг энг қадимги ўчоқларидан бири, унинг салмоқли, ажралмас қисми эканлиги;

Аждодларимиз томонидан бунёд этиб қолдирилган ҳар бир қаср, қалъа, манзилгоҳ ёки қоятош суратлари муҳим тарихий гувоҳ, хужжат бўлиб улар ўз тадқиқотини кутмоқда. Шу сабабли, кун тартибида турган биринчи муҳим масала юқорида тилга олинган ёдгорликларни ҳар томонлама авайлаб асраш;

Ўзбекистон – очиқ осмон остидаги улкан музей бўлиб, унинг бебаҳо тарихий экспонатлари Самарқанд ва Бухоро, Хива ва Шаҳрисабз, Термиз ва Қўқондаги нодир меъморчилик ансамбллари билан биргаликда, қадимги Хоразм, Қорақалпоғистон, Сурхондарё, Зарафшон ва Фарғона водийсида, Шарқ билан Ғарбни боғлаб турган қитъалараро савдо-қарвон йўли ўтган бепоён кенгликлариди сақланиб қолгандир. Буларнинг барчаси Ўзбекистон

⁵⁴⁸ Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси, -Самарқанд, 2010. 1-сон, -Б. 13.

⁵⁴⁹ Ўша жой. –Б. 14.

⁵⁵⁰ Ширинов Т.Ш. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32-нашри. –Т.: Фан; 2001. -Б. 7-11.

халқларининг моддий маданияти ва этник қиёфасида муҳрланиб қолганлиги таъкидлаб ўтилган.

Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепциясида Ўзбекистонда тарихий онгни ривожлантириш, мустақил Ўзбекистоннинг ёш озод фуқаросини тарбиялаш борасида ўзбек археологияси амалга ошириши лозим бўлган асосий фундаментал ва амалий тадқиқотлар қуйидаги бўлимларга ажратилган:

А) Археологиянинг назарий-методологик асосларини яратиш – ўтмишга материалистик ёндашиш, жамиятнинг эволюцион ва бир текисда ривожланиши, тарихни қатъий формацияларга бўлиб ўрганишдан воз кечиш ва мамлакат тарихи ва миллат тарихини даврларга ва хронологияга бўлиш муаммоларига цивилизация йўли билан ёндашиш ва бошқалар. Дунё археологиясининг тажрибалари асосида тадқиқот усулларини такомиллаштириш ва статистик, морфологик, функционал, таксометрик ўлчовлар бўлган «археология манбаи», «маданият», «маданий қатлам», «ёдгорлик», «манзилгоҳ», «цивилизация», «қишлоқ», «илк шаҳар», «илк давлат» каби тушунчаларни жаҳон археологияси андозаларига яқинлаштириш.

Б) Тош даври, бронза, илк темир даври, антик ва ўрта асрларга оид археологик маданиятларни, Марказий Осиёни ибтидоий одамлар томонидан ўзлаштирилишини ўрганиш. Ашел, мустъе, юқори палеолит, мезолит, неолит ёдгорликларни, қоятош суратларини, палеоэкологияни, неолитик инқилобни ишлаб чиқариш хўжалигини, суғорма деҳқончилик маданиятини ўрганиш. Цивилизацияларнинг туғилиши, митти воҳавий давлатларнинг пайдо бўлиши, илк шаҳарлар ва давлатларнинг юзага келиш муаммоларини ўрганиш, «Катта Хоразм», Бактрия, Сўғд, эллинизм, урбанизация, меъморчилик, шаҳарсозлик тараққиёти, Буюк Ипак йўлини шаклланишини, савдо-сотиқ, пул муомаласи, ҳунармандчилик муаммоларини ўрганиш. Ўтроқ деҳқонлар ва кўчманчи-чорвадорлар ўртасидаги ўзаро мулоқотлар, қадимги жамиятларнинг мафқураси, дунёқарашини, дунёвий динларнинг пайдо бўлиши ва тарқалиши каби муҳим муаммоларни ўрганиш, Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз, Қарши, Термиз, Марғилон, Андижон ва Тошкент каби йирик тарихий шаҳарларнинг пайдо бўлиши, тараққиёти босқичлари ва жаҳон цивилизацияси хазинасига қўшган ҳиссаларини аниқлаш.

В) Этнос, жамият ва одамзотнинг келиб чиқиши, уруғларнинг шаклланиши, жанубдаги ўтроқ деҳқончилик маданияти билан шимолдаги кўчманчи дашт маданияти ўртасидаги ўзаро алоқалар, ўзбекларнинг келиб чиқишида Олтой-Турон ва Ҳинд-Европа халқларининг ўзаро ҳиссасини (синтез) аниқлаш.

Г) Археологик ёдгорликларни қидириб топиш, паспортлаштириш, карталаштириш, таъмирлаш, сақлаш ва қўриқлаш, палеоботаника, палеоэкология, палеоэкономика, палеозоология, палеоботаника, қадимги ирригация каби фанларнинг ютуқларидан фойдаланиб ва қадимги деҳқончилик маданияти тарихидан кенг фойдаланиб археологик ёдгорликлар

мажмуасини ва Ўзбекистон археологиясининг умумлашган мукамал манзарасини яратиш⁵⁵¹.

Ўзбек археологиясининг бугунги кундаги бош мақсади, халқимизнинг ўтмиши ҳақида ҳаққоний манзарани яратиш, уни энг қадимги даврлардан то теурийлар давригача бўлган бой тарихини жаҳон тарихидан ажратмаган, қарама-қарши қўймаган ҳолда ўрганиш, Шарқ билан Ғарб ўртасидаги мулоқотларга катта хизмат қилган ўзбек халқининг жаҳон маданияти хазинасига қўшган ҳиссасини кўрсатиш ва Марказий Осиё халқлари маданияти, давлатчилигининг шаклланишида аждодларимизнинг хизматларини аниқлашдан иборатдир.

Ўзбекистон археологиясини ривожлантириш концепцияси Республикаимизнинг гуллаб-яшнашига, уни халқаро майдонда обрў-эътиборининг ошишига, миллатнинг тарихий ва маънавий онгининг ўсишига, озод Ватанимизнинг озод фуқаросини ҳар томонлама етук, ватанпарвар, баркамол, халқпарвар қилиб тарбиялашга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикасининг “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни 2001 йил 30 августда қабул қилинган⁵⁵².

Бу қонун орқали Ўзбекистон халқининг умуммиллий бойлиги бўлмиш маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солинади.

Ўзбекистон Республикасининг “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни 2009 йил 13 октябрда қабул қилинган.

Ушбу Қонуннинг мақсади археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборатдир.

2014 йил 21 июль Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий-маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасидан қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги 200-сонли қарори қабул қилинди⁵⁵³.

Бу орқали Ўзбекистон халқининг умуммиллий бойлиги бўлмиш моддий-маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш, ноёб моддий-маданий мерос объектларини ҳар томонлама ўрганиш, оммалаштириш ва тарғиб қилиш учун шарт-шароитлар яратиш, Ўзбекистоннинг туризм салоҳиятини ошириш мақсад қилинган.

2017 йил 16 октябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Наманган вилоятининг Тўрақўрғон туманида «Ахсикент»

⁵⁵¹ Ширинов Т. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32-нашри. –Т.: Фан; 2001. –Б. 7-11.

⁵⁵² Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁵⁵³ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил этиш тўғрисида”ги 831-сонли қарори қабул қилинди⁵⁵⁴.

Қарорда халқимизнинг қадимий тарихи ва бой маданиятини тиклаш, муқаддас қадамжоларини обод қилиш бўйича амалга оширилаётган ишларни изчил давом эттириш мақсади кўйилган.

2018 йил 29 декабрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Андижон вилоятининг Марҳамат туманидаги «Мингтепа» археология мероси объектини муҳофаза қилиш, тадқиқ этиш ва ундан оқилона фойдаланиш тўғрисида”ги 1059-сонли қарори қабул қилинди⁵⁵⁵.

Қарорга халқимизнинг қадимий тарихи ва бой маданиятини тиклаш, Андижон вилояти Марҳамат туманидаги «Мингтепа» археология мероси объектини чуқур илмий ўрганиш, кенг тарғиб қилиш, муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ҳамда ташриф буюрувчилар учун қулай шарт-шароитлар яратиш асос қилиб олинган.

2018 йил 2 октябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Наманган вилоятининг Косонсой туманида «Муғтепа» археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш мажмуасини ташкил этиш тўғрисида”ги 788-сонли қарори қабул қилинди⁵⁵⁶.

Қарорда халқимизнинг қадимий тарихи ва бой маданиятини тиклаш, Наманган вилояти Косонсой туманидаги «Муғтепа» археология мероси объектини чуқур илмий ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш, ишончли муҳофаза қилиш, консервациялаш ва асраб-авайлаш, бу ерга ташриф буюрувчилар учун қулай шарт-шароит яратиш долзарб вазифа қилиб белгиланган.

2018 йил 19 декабрда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4068-сонли қарори қабул қилинди⁵⁵⁷.

Ушбу қарорнинг қабул қилинишидан асосий мақсад – моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, илмий ўрганиш, улардан оқилона фойдаланиш ва юртимизнинг сайёҳлик салоҳиятини оширишда уларнинг ўрни ва аҳамиятини ошириш ҳамда моддий-маданий мерос соҳасидаги давлат назоратини тубдан такомиллаштиришдан иборат.

Давлат назоратини амалга оширишни кучайтириш учун янги ташкилий тузилма – Маданият вазирлиги ҳузурида Маданий мерос Департаменти ташкил этиш кўзда тутилган.

Департаментнинг асосий вазифаларидан этиб қуйидагилар белгиланган:

- моддий маданий мерос, шу жумладан, археология мероси объектлари, музей ашёлари ва коллекциялари ҳамда маданий бойликларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишга оид қонун ҳужжатларига риоя этилиши устидан далаат назоратини амалга ошириш;

⁵⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁵⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁵⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁵⁵⁷ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

- археология ашёлари давлат каталогини юритиш, археология тадқиқотларини амалга ошириш тартиби ва шартларига риоя қилиниши, археология ашёларининг ўз вақтида ҳисобга олиш ва давлатга топширилишини назорат қилиш ҳамда уларни фан, маданият ва таълим муассасаларига бириктириш, шунингдек археология тадқиқотлари бўйича илмий ҳисоботларни қабул қилиш, экспертизадан ўтказиш ва архивини йиғиш, археология ёдгорлигини консервациялаш ҳамда музейлаштириш.

Шунингдек, ушбу қарорда археология тадқиқотлари натижаларини эълон қилиб бориш, археология тадқиқотлари олиб борувчи муассасаларнинг техник базаларини мустаҳкамлаш кабилар ҳам кўзда тутилган.

Шундай қилиб, мустақиллик йилларида қабул қилинган бир қатор қонун ва қарорлар археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этишга қанчалик эътибор қаратилаётганлигини ўзида акс эттиради. Ҳар бир археология мероси объектини ўрганиш, тадқиқ этиш орқали Ватанимиз тарихининг бир саҳифаси ойдинлашиб боради. Уларнинг ўзига хослиги ва турли маълумот бериши билан алоҳида аҳамият касб этади. Зеро, ҳар бир археология мероси объекти умуммиллий бойлигимиздир.

Аҳмедов А. –

ЎЗМУ Тарих факультети 2-курс магистранти

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА - МИНТАҚАВИЙ ДУАЛИЗМ

XX асрнинг 90 йилларида мустақилликка эришган Марказий Осиё давлатлари ўзининг янги давлатчилигини қайта барпо этиш мақсадида замонавий давлатчиликка хос бўлган барча унсурларни яратиш ва тегишли сиёсий жараённи йўлга қўйиш билан машғул бўлди. Бошқа томондан эса, айнан мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ мазкур бешта давлат ўзининг янги минтақавий интеграция лойиҳасини эълон қилиб, тегишли минтақавий сиёсий жараённи ҳам йўлга қўйишга ҳаракат қилди.

Марказий Осиё мана шундай икки кўринишда ва бараварига икки йўналишда – миллий ва минтақавий негизда ривожланиб келмоқда. Бу феноменни миллий ва минтақавий дуализм деб аташ мумкин.

Аслида дунёнинг қайси қисмида бўлмасин, минтақавийликнинг бундай дуалистик сифати ҳар бир минтақада, айниқса агар у ерда интеграциявий жараён авж олаётган бўлса, албатта учрайди. Масалан, кучли, тажрибали ва нисбатан мукамал Европа Иттифова доирасида ҳам ханузгача бундай дуализм ўзини евро-оптимизм ва евро-пессимизм шаклида намоён қилади.

Марказий Осиё тадқиқотлари бир доимий омилни, яъни минтақавийликнинг мавжудлигини эътироф этган ҳолда олиб борилиши керак. Бироқ бу масалага бағишланган турли маҳаллий ва хорижий илмий ишларда кўпинча зиддияли фикрлар, хулосалар ва ҳато башоратларни учратиш мумкин.

Бундай зиддиятлар нафақат илмий ишларда, балки минтақадаги давлатлараро муносабатларнинг айрим жиҳатларида ҳам учрайди. Фикримизча, бунинг сабабларидан бири, бу Марказий Осиёни ўрганиш, тўғри тасаввур қилиш ва тегишли қарорларни ишлаб чиқишда назарий таъминотнинг етишмовчилигидир.

Натижада минтақа давлатлари орасида бирлашиш кун тартиби эълон қилинган булса-да, амалда улар орасида узоқлашиш ҳам кузатилди. Баъзилар бундай ҳолатни миллий давлатчиликни барпо этиш вазифаси минтақавий бирлашиш вазифадан устивор бўлиб келган, деб таъкидлайди. Бошқалар эса умуман минтақада пайдо бўлган янги мустақил давлатларда ҳар хил сиёсий ва иқтисодий тизимлар шаклланди дея, мазкур давлатлар ҳар хил ривожланиш йўлини танлади шунинг учун минтақада фрагментация бошланди, дейишади. Яна бошқалар минтақа давлатлари орасида можаровий масалалар кўп, раҳбарларининг бир-бирига бўлган ишонч даражаси паст, гўё миллий манфаатлар бир-бирига зидлигини рўқач қилади.

Назаримизда, бундай фикрларга унчалик қўшилиб бўлмайди, чунки улар кўп жиҳатдан юзада кўринган фактлар ва жараёнларни кузатиш билан чекланиб, мавжуд муаммолар ва ҳодисаларга чуқурлашишгача етиб бормади. Бундай шароитда Марказий Осиё тадқиқотларида бир қатор қарашлар тўпланибди. Айримларини санаб ўтамиз.

Биринчи қараш: “Марказий Осиё ягона, умумий, яхлит минтақани ташкил этмайди”, иккинчи қараш: “Марказий Осиё давлатлари ва халқлари бир биридан тубдан фарқ қилади ва бир бирига мос эмас”, учинчи қараш: “Ушбу минтақада “Буюк ўйин” номи остида танилган геосиёсий рақобат қайта қўзғалиб кетган ва у Марказий Осиёнинг тарқоқлигини янада узайтирди”¹.

Мана шу юқорида айтилган турли қарашлар, исботсиз баёнотлар мазкур тадқиқотларнинг илмий сифатини пасайтирмай қолмайди. Улар ўз навбатида, қуйидаги дуалистик ҳолатларни кўп жиҳатдан бир ёқлама, юзаки ва нодиалектик баҳолашдан келиб чиқади, деб ўйлаймиз:

- Марказий ва Евроосиё дуализми;
- Юқори-қуйи оқим дуализми;
- Ўтроқ қўчманчи дуализми;
- Туркий-форсий дуализми;
- Тошкент-Остона дуализми;
- Демократия-автократия дуализми;
- Ички ва ташқи интеграция дуализми;
- Географик дуализм;

Ушбу дуализмлар минтақани бир қарашда муайян сифатлар асосида бўлингандек ёки парчалангандек тасвирлайди, чунки улар гўёки ўз ичида бир бирига қарама-қарши бўлган сифатларни мужассамлаштирган. Бироқ

¹ Tolipov F. Uzbekistan and Kazakhstan: Two Failed Leader of Central Asia // Himalayan and Central Asia Studies, Vol. 16, No 3-4, July-December 2012, pp172-178

масалага чуқурроқ назар ташласак ва диалектик нуқтаи назардан ёндашак, улар фақат бўлувчи эмас. Балки бирлаштирувчи характерга ҳам эга эканини кўриш мумкин бўлади.

Нихоят сўнгги йилларда минтақада тус олаётган янги жараён ҳақида сўз юритсак. Маълумки, 2018 йил 15 март куни Қозоғистон пойтахти Остона шаҳрида Марказий Осиё давлат раҳбарларининг узоқ кутилган саммити бўлиб ўтди¹. Ушбу учрашув Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев ташаббуси билан ташкил этилди. Минтақавий саммитлар анча вақт давомида узилиб қолгани учун у маслаҳатлашув учрашуви деб номланди.

Туркменистон Президенти Г.Бердимухамедов 2018 йил апрел ойида Тошкентга давлат ташрифи чоғида Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Кенгашини тузиш ташаббусини илгари сурди. Бу жуда муҳим таклифдир. Г.Бердимухамедовнинг фикрича, мазкур Маслаҳатлашув кенгаши давлат раҳбарларининг мунтазам учрашувлари учун янги замин яратиш мумкин. Шунингдек, учрашувларни тайорлаш учун беш томонлама экспертлар гуруҳини ҳам шакллантириш мақсадга мувофиқдир².

Демак, миллий-минтақавий дуализмларни фақат бир ёклама қараб, яъни бўлувчи омиллар сифатида талқин қилиш нотўғридир. Буни Остона саммити ва давлат раҳбарлари Кенгашини тузиш ташаббуси исбот этди. Кейинги йилларда Марказий Осиё мамлакатлари ўртасида турли муаммолар пайдо бўлишига қарамай, минтақанинг ички ривожланиш қонунлари яна ўз табиий изига тушмоқда ва янги интеграция истиқболлари очила бошламоқда.

Аҳмедов А. –

ЎзМУ Тарих факультети 2-курс магистранти

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТАШҚИ СИЁСИЙ ФАОЛИЯТ ТАМОЙИЛЛАРИ

Жаҳондаги 250 дан ортиқ давлат ўз ташқи сиёсатини манфаатларидан келиб чиқиб мустақил белгилайдилар. Ўзбекистон ҳам мустақиллигини қўлга киритгандан сўнг ўз ташқи сиёсатини мустақил равишда амалга ошириш учун кенг имкониятларга эга бўлди.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов раҳбарлигида ташқи сиёсатнинг устувор йўналишлари ва асосий тамойиллари белгиланган ҳамда ташқи сиёсатида қуйидагилар асос қилиб олинган:

¹ <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentining-ozo-istonga-tashrifiga-doir-13-03-2018>

² www.eadialy.com/ru/news/2018/04/26/glav-stran-centralnoy-azii

– Республика халқаро майдонда тинчлик ва хавфсизлик учун, зиддиятларни тинч йўл билан ҳал қилиш тарафдори сифатида ҳаракат қилиши;

– Ўзбекистон ҳеч қандай ҳарбий блокларга ва иттифоқларга қирмайди, шунингдек, мунозарали муаммоларни куч ёки куч орқали таҳдид қилиш йўли билан ҳал қилишдан тийилиш;

– ташқи сиёсатда бошқа давлатларнинг ички ишларига аралашмаслик, тенг ҳуқуқлилиқ ва ўзаро манфаатдорлик тамойилларига асосланган ҳолда қурилиши;

– Ўзбекистоннинг ўзаро ишонч асосида икки томонлама ва кўп томонлама ташқи алоқаларни ўрнатишга ва халқаро ташкилотлар доирсида ҳамкорлик қилишга тайёрлиги¹ белгилаб олинганди.

Ўзбекистон ривожланишининг янги босқичида ҳам мустаҳкам хавфсизлик, барқарор иқтисодий тараққиёт учун қулай шарт-шароитлар яратиш, конституцион тузум асосларини янада мустаҳкамлаш, миллатлар аҳиллигини таъминлаш, фуқаролар ҳақ-ҳуқуқларини муҳофаза қилиш республикамиз ташқи сиёсатининг асосий мақсадларидан бири бўлиб келмоқда.

Ўзбекистон ривожланиш янги босқичининг ўтган қисқа уч йили ичида дунё ҳамжамиятида юқори марраларни эгаллаш йўлида фаол ҳаракатлар қилмоқда. Хусусан, қўшни республикалар ва ривожланган давлатлар билан алоқалар янги босқичга кўтарилди. Республикамизнинг жаҳондаги обрў-эътибори юксалиб бораётгани, энг аввало, юртимизда демократик асосда, республикани ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тасдиқлангани улкан ижобий ўзгаришларга, уларнинг халқаро ҳамжамият томонидан эътироф этилишида мужассам бўлмоқда, Бу эса давлатимизнинг жаҳон аҳлига яхши маълум бўлган, минтақамизда барқарорлик ва хавфсизликни мустаҳкамлашга қаратилган ташаббусларининг амалий самарасида ўз ифодасини топмоқда. Минтақа мамлакатлари билан алоқаларни мустаҳкамлаш учун ташқи сиёсий фаолиятнинг янгича механизмлари яратилди. Ўзбекистон ташқи сиёсат концепцияси ўтган мустақил тараққиёт йиллари давомида мамлакатимизда ташқи сиёсат борасида тўпланган миллий тажрибани умумлаштириш, қолаверса, илғор хорижий давлатлар тажрибасини чуқур ўрганиш асосида ишлаб чиқилган бўлиб, у ҳозирги даврнинг мураккаб хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда мамлакатимиз ташқи сиёсатининг ўрта ва узоқ муддатли стратегик мақсад ва вазифаларини ўзида мужассам этади.

Ташқи сиёсий фаолиятнинг асосий ва биринчи даражали вазифаларидан бири бу 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг бешинчи йўналиши: Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, шунингдек, вазмин, ўзаро фойдали ва

¹ Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрьдаги “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон янги қонунлари. 15-китоб. –Т.: Адолат; 1997. – Б.272.

конструктив ташқи сиёсатни амалга ошириш соҳасидаги устувор йўналишлар¹ стратегиясини самарали амалга оширишдир.

Ушбу мақсадга эришиш учун республика ташқи сиёсати олдида кўйидаги вазифалар кўйилган:

– Марказий Осиёда тинчлик ва барқарорликни сақлаш ҳамда мустаҳкамлаш, минтақани хавфсизлик ва барқарор тараққиёт ҳудудига айлантириш;

– жаҳоннинг етакчи давлатлари ва халқаро ташкилотлар билан стратегик ҳамкорлик қилишнинг мутаносиб, кўп қиррали тизимини шакллантириш;

– Ўзбекистоннинг минтақа ва жаҳон сиёсатидаги муҳим йўналишлар бўйича халқаро ташаббусларини илгари суриш;

– маҳаллий маҳсулотларнинг экспорт ҳажмини ошириш ва географиясини кенгайтириш борасида кўмаклашиш;

– миллий иқтисодиётнинг устувор тармоқларига тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва илғор технологияларни жалб этишда фаол кўмак бериш;

– мамлакатимизга туристларни жалб қилиш ҳамда туристик инфратузилмани ривожлантириш борасида амалий ёрдам кўрсатиш;

– хориждаги Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва юридик шахслари ҳуқуқ ва манфаатларининг ҳар томонлама ҳимоя қилинишини таъминлаш;

– хорижда истиқомат қилаётган ватандошлар билан алоқаларни мустаҳкамлаш¹.

Шу ўринда ташқи сиёсатимизнинг бош устувор йўналиши Марказий Осиё минтақасидир. Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги сиёсати минтақада тинчлик ва барқарорликни таъминлашга, минтақавий хавфсизликнинг муҳим муаммоларини ҳал этишга, шу жумладан, Афғонистондаги вазиятни ижобий томонга ўзгаришига кўмаклашишга қаратилган. Ўзбекистон минтақавий савдо-иқтисодий ҳамкорликни мустаҳкамлаш, минтақанинг транспорт ва транзит инфратузилмасини ривожлантириш, Марказий Осиёдаги йирик Амударё ва Сирдарё ресурсларидан оқилона ҳамда комплекс фойдаланиш шунингдек, минтақанинг экологик барқарорлигини таъминлаш, чегараларни делимитация ва демаркация қилиш жараёнини якунига етказиш учун барча саъй-ҳаракатларни амалга оширмоқда.

¹ <http://lex.uz/getwordfile/3107036#3109470>

¹ <http://lex.uz/docs/4168749>

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA AMALGA
OSHIRILGAN IJTIMOYIY ISLOHOTLAR
(MILLIY MADANIY MARKAZLAR MISOLIDA)**

O‘zbekiston hududida qadim-qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagani xalqimizning azaliy bag‘rikengligini ko‘rsatadi⁵⁵⁸. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o‘zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqolol mafkurasining asosiy vazifalaridan biridir. U xalqimizga bo‘lgan oliyjanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

Demak, mamlakatlarda ko‘p millatlilik omili demokratik o‘zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishining ta’sirchan vositasiga aylanib qolgan. Milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik, umummilliy tamoyillarga biroz e’tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarida quyidagicha yozadi: “Ayni chog‘da insoniyat tarixida buning aksini, ya’ni ko‘p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg‘unlikning yo‘qligi, butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko‘rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko‘p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun-butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan”⁵⁵⁹.

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizmning halokatli g‘oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Millatlar o‘rtasida mojarolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo‘lishini, mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo‘limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an’analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton xonim, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta’kidlab o‘tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bu xislat o‘zining uzoq tarixiga ega.

Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi (RBMM) va milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu erda yashovchi xalqlarning milliy an’analari, urf odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma’naviyat va madaniyatni

⁵⁵⁸ Назаров Қ., Очилдиев А. Миллий истиклол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2002. –Б. 36-37.

⁵⁵⁹ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор таракқиёт йўлида. -Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б. 54.

rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi.

Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi 1991-yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. 1992-yilning yanvarida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika millatlararo Baynalminal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika «bayanalminal madaniyat» markaziga aylantirildi. 1992-yilda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashqiloti – "Baynalminal madaniyat" 2005-yilga kelib 120 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Bugungi kunda ana shunday markazlarni tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

Respublikamiz Baynalminal Madaniyat Markazi to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi belgilab qo'yilgan. Markaz milliy-madaniy markazlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashqilotlariga ko'maklashadi.

Respublikamiz Baynalminal Madaniyat Markazining moddiy texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ko'rinmoqda.

Mazkur milliy-madaniy markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashdagi roli beqiyosdir. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari 3 yo'nalishga ega:

1) Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish.

2) Mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish.

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, turmush tarzi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash.

Ana shu 3 yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan- yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda. Shu jumladan:

- o‘z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o‘rganish to‘garaklari ishlanmoqda;
- O‘zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o‘rganish to‘garaklari faoliyat ko‘rsatmoqda;
- milliy musiqa, raqs va hunar to‘garaklari o‘z ishini kengaytirmoqda;
- milliy bayram kunlariga bag‘ishlab tadbirlar o‘tkazmoqda, festivallar tashkil qilmoqda;
- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, oqinlari va baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag‘ishlangan ko‘rgazmalar tashkil qilinmoqda;
- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblari va madaniyat namoyondalari bilan uchrashuvlar o‘tkazilmoqda va hokazo.

Umuman, milliy madaniyat markazlari O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqdalar.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarining o‘z ona tilida o‘qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o‘quv yurtlari va maktablarda bunga amal qilinayotgani, ko‘plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar olib borilayotgani va boshqa ishlar ham bu borada samarali faoliyatning yaqqol dalilidir.

Qayerdagi millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat, hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga kelsa, bu jarayon - tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko‘rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O‘zbekiston fuqarosi sifatida o‘z o‘rni borligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O‘zbekiston xalqi - O‘zbekiston fuqarosi ekanligini namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g‘oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Bashariyat tushunchasi rango-rang millatlar va elatlar, shuningdek, turli din va irqqa mansub insonlarni o‘ziga qamrab oladi. Demak, har bir inson bashariyat va ayni vaqtda o‘z xalqi, o‘z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o‘z xalqining tili, ruhiyati, ana’analari, qadriyatlari barq urib turadi.

Milliy-diniy bag‘rikenglik g‘oyasi hamda uning tarixiy va huquqiy asoslari. “Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi - xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi”¹. Din qadim-qadimdan aksariyat ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etib keladi.

Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularning bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Hozirgi zaminda bu g‘oya

¹ Эргашев И., Набиев Э. ва бошқалар. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. – Т.: Академия, 2005. –Б. 271.

ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azal-azaldan diyorumizda turli diniy ta'limotlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelayotganliklaridan dalolat beradi.

*Махмудова С.Д. –
ТошДТУ 2-курс талабаси
Илмий раҳбар ТошДТУ кат. ўқ. Д.Т.Куанишова*

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТИ

Глобаллашув жараёни дунё халқлари ҳаёт тарзи, яшаш хусусиятларида ҳам туб бурилиш ясади. Масалан, ижтимоий-иқтисодий соҳалар ривожини, аҳоли турмуш даражасини юксалиши, урбанизациянинг кучайиши туризмга бўлган эҳтиёж ортишига олиб келди. Зеро, сафар уюштириш, саёҳатга чиқиш, табиат кўйида дам олиш бугунги замон кишилари ҳаётининг таркибий қисми, айтиш жоизки саломатликни мустаҳкамлаш ва бўш вақтни мазмунли ўтказишнинг муҳим шаклига айланди.

Дарҳақиқат, Жаҳон сайёҳлик ташкилотининг маълумотларига қараганда, ҳар йили ўртача 1,2 млрд. нафар киши саёҳатга чиқади. Ваҳоланки, бундан 10 йил муқаддам рўйхатга олинган туристлар сони 576 млн. нафарни ташкил этган, холос. Мазкур соҳа жадал ривожланишининг кўплаб омиллари бор, албатта. Улар ичида энг асосийси - бу дунёни билиш, тарбия ва соғломлаштиришни ўзида мужассамлаштирганидир. Қолаверса, у бундай хизматларни ташкил этувчиларга катта даромад олиш имконини беради. Ҳозирги вақтда дунё туризмнинг жаҳон ялпи ички маҳсулотига қисман 10 фоиз, хизматлар экспортига 30 фоиз, савдо ҳажмига 6 фоизга етгани, меҳнатга лаёқатли аҳолининг 8 фоизи шу жаҳонда меҳнат қилаётгани бунинг яққол далилидир⁵⁶⁰.

Аввало, шуни айтиш жоизки, мамлакатимизда мустақиллик йилларида туризмнинг бозор муносабатларига асосланган янги ҳуқуқий ва иқтисодий асослари яратилди. Замонавий инфратузилма объектлари барпо этилиб, туризмнинг жаҳон андозалари даражасидаги янги йўналишлари жорий қилинди. Мавжуд тарихий-маданий ёдгорликлар таъмирланиши баробарида, улар кенг кўламда тарғиб этилди. Бу каби тизимли чора-тадбирлар кутилган самарани бериб, юртимизнинг сайёҳлик салоҳияти тобора ошмоқда. Бунга яқинда Буюк Британиянинг дунёда машҳур "Financial Times" газетасида чоп этилган мақола мисол бўла олади.

⁵⁶⁰ <http://www.gazeta.uz> интернет сайти.

Гап шундаки, унда 2017 йилда жаҳон бўйлаб саёҳатга чиқиш истагидагилар учун энг қизиқарли йўналишлар рўйхати эълон қилинди. Газетада таъкидланган тўққизта давлат орасида Ўзбекистон жаҳондаги энг диққатга сазовор сайёҳлик йўналишлари рейтингида иккинчи ўринда қайд этилди⁵⁶¹.

Бу бежиз эмас, албатта. Негаки, Ўзбекистон сайёҳлик кўлами ва тарихий кадамжолари кўплиги бўйича дунёдаги етакчи давлатлар сирасига киради. Мамлакатимизда 4 мингдан зиёд нодир тарихий ёдгорликлар ҳамда бетакрор архитектура намуналари мавжудлиги, сўлим кўриқхоналар фаолият кўрсатаётгани, миллий маданият, санъат ва хунармандчиликнинг кўп асрлик анъаналари асраб-авайлаб келинаётгани хорижликларнинг юртимизга бўлган қизиқишини янада кучайтирмоқда. Бироқ мавжуд имкониятлардан оқилона фойдаланилмаётганлиги туфайли соҳанинг хизмат кўрсатиш ҳиссаси, аҳолини иш билан таъминлашдаги ўрни жаҳондаги ўртача кўрсаткичдан сезиларли даражада орқада.

Давлат статистика кўмитаси маълумотларида келтирилишича, айти пайтда туризмнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидagi улуши жуда паст - атиги 2 фоиз атрофида. Туризм фаолиятини амалга оширган фирма ва ташкилотларнинг сони эса қарийб 400 та бўлиб, уларнинг асосий қисми Тошкент шаҳри (73,4 фоиз), Самарқанд (13,1 фоиз), Бухоро (4,5 фоиз) ва Хоразм (1 фоиз) вилоятлари ҳиссасига тўғри келади. Бошқача айтганда, Ўзбекистондаги сайёҳлик хизматлари кўрсатишга ихтисослаштирилган фирма ва ташкилотларнинг 92 фоизи, сайёҳларнинг 93,1 фоизи ушбу 4 та ҳудудга тўғри келади⁵⁶².

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони соҳада учраётган хато ва камчиликларни бартараф этиб, уни изчил ривожлантиришга қаратилгани билан аҳамиятлидир. Бинобарин, ушбу ҳужжатда туризмни мамлакат иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида тараққий топтириш учун қулай иқтисодий ва ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитлар яратиш, ҳудудларнинг ушбу йўналишдаги салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, тармоқни бошқаришни тубдан такомиллаштириш, миллий туризм маҳсулотларини яратиш ва уларни жаҳон бозорларида тарғиб қилиш, Ўзбекистоннинг ижобий сайёҳлик қиёфасини шакллантириш йўналишлари белгилаб берилган. Уларнинг изчил ижроси юртимизни жаҳон туризмнинг муҳим марказларидан бирига айлантириш имконини яратади.

Қадимги Буюк Ипак йўли орқали кўплаб мамлакатларнинг туризм маршрутлари туташган халқаро чорраҳада жойлашган ўлкамизда сайёҳликнинг барча турини ривожлантириш мумкин. Улар орасида экотуризм энг истикболли йўналиш ҳисобланади. Бунинг учун ғоят хилма-хил ҳамда бой ландшафт, табиий экотизим ва ресурслар, улкан рекреация-

⁵⁶¹ <http://www.infoXS.Uz> интернет сайти.

⁵⁶² <http://www.gazeta.uz> интернет сайти.

туризм салоҳиятига эгамиз. Қолаверса, юртимизнинг қуруқ субтропик иклими, фасллар ўз ўрнида алмашиши йил давомида, ҳар мавсумга хос ва мос экологик туризм хизматлари кўрсатиш имконини беради.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Иқтисодий ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари” деб номланган учинчи йўналишида туризм индустриясини жадал раванқ топтириш бўйича дастурий вазифалар белгилаб берилган⁵⁶³.

Шу боис 2017-2021 йиллар давомида мазкур соҳада 200 дан зиёд лойиҳалар амалга оширилиши кўзда тутилган. Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев Вазирлар Маҳкамаси томонидан 2019-2025 йилларда Туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиш ва ижросини таъминлаши зарурлигини, ҳамда шу асосда 2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортдан келадиган йиллик даромадни эса 2 миллиард долларга етказиш лозимлигини таъкидлаб ўтди⁵⁶⁴.

Хулоса қилиб айтганда Ҳаракатлар стратегияси ва бошқа тегишли ҳужжатларнинг изчил ижроси Ўзбекистонни тез орада йирик ҳамда жозибадор сайёҳлик марказларидан бирига, туризмни эса иқтисодий тимизнинг етакчи соҳасига айлантиришга мустаҳкам замин яратиши муқаррардир.

Насруллаев Т. –

ЎзМУ Тарих факултети 2-курс магистранти

КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВА РАҒБАТЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

Ўзбекистонда иқтисодий ислохотларнинг дастлабки даврдан бошлаб кичик бизнес ва ҳусусий тадбиркорликни истиқболда ҳам жадал ривожлантириш учун қулай ишбилармонлик муҳитини яратишга катта эътибор берилмоқда. Ишбилармонлик муҳити бизнес ва ҳусусий тадбиркорлик фаолиятини бошлаш, юритиш учун мамлакатда яратилган қонуний шарт–шароитлар, тартиботлар, унинг қўллаб–қувватланиши, тадбиркорлик фаолияти эркинликлари ва кафолатлари мажмуидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг 2016 йил 5 октябрда имзолаган “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, ҳусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони тадбиркор фаолиятини янги

⁵⁶³ Бекмуродов М., Қуронбоев Қ., Тангриев Л. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: Ғ.Ғулом, 2017. 61-бет.

⁵⁶⁴ ЎзР Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, -2018. -29 декабрь.

босқичга кўтарилишига, уларга кенг шарт-шароит яратилиб берилишига туртки бўлган эди.

2017 йил 1 феврал куни давлат раҳбари “Тадбиркорлик субъектларига давлат хизматларини кўрсатиш механизмларини такомиллаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги янги қарорни имзоладилар. Бу эса ўз навбатида, кейинги йилларда мамлакатимизда хусусий мулкни ишончли ҳимоя қилиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантиришни таъминлаш борасида қулай шарт-шароитлар яратди.

Жумладан, мустақиллик йилларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни рўйхатга олиш, уларнинг фаёолиятини қўллаб-қувватлаш ҳамда эркинлигини ошириш, давлат ва бошқа назорат органларининг тадбиркорлик фаёолиятига ноўрин аралашшини ва текширишларни кескин камайтириш учун мустаҳкам қонунчилик базаси яратилди. Ушбу вазифани амалга ошириш учун кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, қўллаб-қувватланиш юзасидан қатор фармон ҳамда қарорлар қабул қилинган. Бунинг натижасида тадбиркорлик субъектларини рўйхатга олиш, уларнинг молиявий салоҳиятини мустаҳкамлаш ҳамда ишлаб чиқариш фаёолиятини йўлга қўйишга шарт-шароит яратиш бўйича муайян ижобий ишлар амалга оширилди. Масалан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадаллаштириш ҳамда унинг янада ривожланиши учун тегишли ижтимоий-иқтисодий шарт-шароит яратишда Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг “Ўзбекистон иқтисодиётида хусусий секторнинг улуши ва аҳамиятини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2003 йил 24 январдаги Фармони муҳим аҳамият касб этди. Унга биноан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш учун зарурий шароит яратиш, уларни молиявий, моддий-техникавий ресурслар билан таъминлаш, тадбиркор ва хорижий инвесторлар манфаатлари ҳамда ҳуқуқларини муҳофаза қилиш учун иқтисодий-ҳуқуқий асослари мустаҳкамлаш вазифаси белгиланган.

Хусусий тадбиркорларнинг самарали фаёолият юритишлари учун етарли ҳуқуқий, иқтисодий шароитни вужудга келтириш мақсадида 2003 йил 11 декабрда Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий корхона тўғрисида”ги Қонуни қабул қилинди.

Мустақилликнинг дастлабки йиллариданок, энг аввало, бир дақиқани ҳам бой бермасдан иқтисодий масалаларни ҳал этишга барча ҳаракатлар қаратилган эди. Биз учун асосий йўналиш, барча вазифаларни ҳал этиш калити – Ўзбекистоннинг реал сиёсий суверенитети ва иқтисодий мустақиллигини таъминлашдан иборат бўлди¹. Иқтисодий ислохотларнинг биринчи босқичининг асосий вазифаларидан бири давлат мулки монополиясини тугатмоқ эди.

Тадбиркорлик фаоолиятини ташкил этиш механизмини осонлаштириш мақсадида “Тадбиркорлик фаоолиятини ташкил этиш учун рўйхатдан ўтказиш тартиботлари тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида” 2003 йил 20 августда Вазирлар Маҳкамасининг қарори қабул қилинган. Унга кўра, тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказишда розилик берувчи

ташкilotлар сони кескин қисқартирилди. Уларни давлат рўйхатидан ўтказадиган ташкilot, яъни туман(шаҳар) ҳокимликлари ҳузурида Тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан ўтказиш инспекциялари ташкilot этилди. Республика бўйича ташкilot этилган 210 та инспекция 2003 йил 1 октябрдан ўз фаолиятини бошладиⁱⁱ. Улар тадбиркорлик субъектларини рўйхатга олиш билан бир вақтда уларни солиқ ва статистика органлари ҳисобига қўйишади, штамп ва муҳр тайёрлашга руҳсат беради, инженерлик коммуникациялари, яъни газ, энергия, сув, иссиқлик таъминоти, канализация, телефон алоқасига қўшилишига ҳамда уй-жойни корхона учун объектга айлантиришга, тадбиркорлик объектларини қуриш ва реконструкция қилишга руҳсат берувчи ҳужжатларини расмийлаштиради.

Бизнесни бошлашга имкон яратувчи, руҳсатга олиш, ундан кейинги жараёнларни янада соддалаштириш ва енгиллаштиришда Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2006 йил 24 майда қабул қилган “Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйиш бўйича хабардор қилиш тартибини жорий этиш тўғрисида”ги Қарори муҳим аҳамиятга эга бўлди. Ушбу қарорга кўра, тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказишнинг соддалаштирилган регламенти, аниқ муддат ва дақиқа (соат)лари кўрсатилган схемаси амалга оширилди. Рўйхатдан ўтиш муддати 7 иш кунидан 2 иш кунига қисқартирилди.

Шунингдек, руҳсат бериш билан боғлиқ кўпгина жараёнлар такомиллаштирилди. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президентининг 2005 йил 21 сентябрдаги “Тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун руҳсат бериш таомиллари турларини қисқартириш ва соддалаштириш тўғрисида”ги Қарорига биноан, 12 та бир-бирини қайтарувчи, ортиқча руҳсатнома ва келишувлар бекор қилинди.

Таъкидлаш жоизки, 2012 йилда тадбиркорликни янада ривожлантириш учун Ўзбекистон Республикасининг “Рақобат тўғрисида”ги, “Оилавий тадбиркорлик тўғрисидаги”, “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги, “Хусусий мулкни химоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги, “Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги руҳсат бериш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги қонунларни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 16 июлдаги ПФ-4453-сонли “Статистик, солиқ, молиявий ҳисоботларни, лицензияланадиган фаолият турларини ва руҳсат бериш тартиб-таомилларини тубдан қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2012 йил 18 июлдаги ПФ-4455-сонли “Ишбилармонлик муҳитини янада тубдан яхшилаш ва тадбиркорликка янада кенг эркинлик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонларининг қабул қилиниши муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 16 июлдаги ПФ-4453-сонли “Статистик, солиқ, молиявий ҳисоботларни, лицензияланадиган фаолият турларини ва руҳсат бериш тартиб-таомилларини тубдан қисқартириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонига мувофиқ руҳсат беришга доир 80 та тартиб-қоида, шунингдек,

лицензияланадиган фаолият турларининг 15 таси бекор қилинди. 2013 йилнинг 1 январида бошлаб 65та статистика ҳисобот шакллари, 6та солиқ ҳисоботи шакллари бекор қилиниб, уларни топшириш даврийлиги 2 баробардан зиёд қисқартирилди. Шунингдек молиявий ҳисоботларни топшириш шакллари ва даврийлиги 1,5 баробар қисқартирилди.

Кичик бизнес субъектлари учун статистика ҳисоботларининг 7та шакли бекор қилиниб, уларни тақдим этиш сони йил мобайнида 2,9 мартага қисқарди. Молиявий ҳисоботлар бўйича йирик корхоналар учун 2та, кичик бизнес субъектлари учун эса 1та ҳисобот шакли бекор қилиниб, уларни тақдим этиш сони йил мобайнида 1,5 мартага қисқарди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 18 июлдаги ПФ-4455-сонли “Ишбилармонлик муҳитини янада тубдан яхшилаш ва тадбиркорликка янада кенг эркинлик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонига мувофиқ 2012 йил 1 августдан бошлаб тадбиркорлик фаолиятини юритиш учун шарт шароитларни янада яхшилашга қаратилган 22та аниқ меъёр ва чора-тадбирлар жорий қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 ноябрдаги “Иссиқхона комплексларини ривожлантириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан тадбиркорларга қўшимча имтиёзлар берилди. Хусусан, юридик шахслар 2021 йил 1 январга қадар замонавий иссиқхона комплекслари, уларнинг бутловчи қисмлари ва гофрланган картон идиш ишлаб чиқаришда фойда солиғи, ягона ижтимоий тўлов ва қўшилган қиймат солиғидан озод этилди. Бўшаб қолган маблағлар ишлаб чиқаришни техник ва технологик қайта жиҳозлаш, модернизация қилиш ва ривожлантиришга мақсадли йўналтирилади.

Шунингдек, замонавий иссиқхона комплекслари ва гофрланган картон идиш ишлаб чиқариш учун талаб этиладиган ва белгиланган тартибда шакллантириладиган рўйхат бўйича олиб қилинадиган, Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқарилмайдиган ускуна, хомашё ва материаллар, эҳтиёт қисмлар ва бутловчи буюмлар учун божхона тўловларидан (божхона расмийлаштируви йиғимларидан ташқари) озод этилди.

Таъкидлаш лозимки, ҳудудларни жадал ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни таъминлаш, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ва инвестициялар, шу жумладан, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш учун максимал даражада қулай шарт-шароитлар яратиш борасида кўрилаётган чора-тадбирлар қатор тизимли муаммо ва камчиликларга дуч келмоқда.

Хусусан, янгидан ташкил этилган давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарлари, инвестицияларни жалб этиш, иқтисодиёт ва тадбиркорликни, эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарини ҳамда туризмни ривожлантириш учун масъул бўлган ҳоким ўринбосарлари томонидан тадбиркорларнинг долзарб муаммоларини ҳал этишга, ҳудудларда ишбилармонлик муҳитини яхшилаш бўйича таклифлар ишлаб чиқишга, шунингдек, мавжуд салоҳиятдан максимал даражада фойдаланишга кўп ҳолларда бепарво муносабатда бўлинаётганлиги кузатилмоқда.

Республика ва жойлардаги давлат бошқаруви органларида кенг тарқалган ва бартараф этилмаётган тадбиркорлик ташаббуслари ва лойиҳаларини кўриб чиқиш ва амалга ошириш, зарур ишлаб чиқариш объектлари, ер участкалари ва кредит маблағларини ажратиш, муҳандислик-коммуникация ва бошқа инфратузилма объектларини яратиш масалаларини ҳал этишдаги сансоларлик, бюрократизм ва тўсиқлар билан боғлиқ ҳолатлар тадбиркорлик субъектларини ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга фаол жалб этиш, ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажмини ошириш, саноат ишлаб чиқаришини кенгайтириш ва хизматлар соҳасини ривожлантиришни таъминламаяпти. Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга тадбиркорлик субъектларини кенг жалб этиш, тадбиркорлик ташаббуслари ва лойиҳаларининг ўз вақтида амалга оширилишини таъминлаш, шунингдек, бўш турган объектлар, ер участкалари ва бошқа инфратузилмадан самарали ва оқилона фойдаланиш мақсадида 2018 йилнинг 11 сентябрида Президент қарори чиқди.

Бизнингча мамлакатимизда ишбилармонлик муҳитини яхшилаш ва тадбиркорликка янада эркинлик бериш асосида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантиришни давом эттириш лозим. Бунинг учун республикамизда барча қонуний –ҳуқуқий асослар яратилган.

*Раҳмонова С.Х. –
ЎЗМУ тарих факултети 1-курс магистри*

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИНИНГ ЗИЁРАТ ВА БОШҚА ТУРИСТИК ИМКОНИАТЛАРИ

Туризм - иқтисодиётнинг энг муҳим тармоқларидан бири сифатида иқтисодий ва ижтимоий муаммолар ечимида муҳим ўрин тутди. Хусусан, кўшимча иш ўринлари яратиш, аҳоли бандлигини таъминлаш, халқ фаровонлигини юксалтиришда мазкур соҳанинг ўрни бекиёсдир.

Шу сабабли ҳам мамлакатимизда бу соҳани ривожлантириш, диёримиздаги туристик салоҳиятдан унумли фойдаланиш мақсадида қатор чора-тадбирлар қўрилмоқда. Бу саъй-ҳаракатларда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг хизматлари бекиёсдир. Ўзбекистон Республикасида туризмга берилаётган эътиборга назар ташлайдиган бўлсак, бу соҳа юзасидан чиқаётган Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон, қарор ва бошқа меъёрий ҳужжатлар бунинг яққол исботидир. Қонун, фармон, қарорларнинг мақсади туризм соҳасидаги муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш, туристик хизматлар бозорини ривожлантириш, шунингдек туристлар ва туристик фаолият субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдан иборатдир⁵⁶⁵.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг матбуот хизмати давлат раҳбарининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида туризмни

⁵⁶⁵ O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni 20.08.1999 830-l-son. 1-moddasi <http://www.lex.uz/>

ривожлантириш соҳасига алоҳида тўхталиб: “Туризмни ривожлантириш, соҳага инвестициялар жалб этиш, кадрлар салоҳиятини ошириш бўйича комплекс чоралар қўришимиз лозим. Бизда туризм кўпинча қадимий шаҳарларимиз, тарихий-маданий ёдгорликлар доирасида чекланиб қолмоқда. Ваҳоланки, мамлакатимизнинг бетакрор табиати, миллий кўриқхоналар, тоғли ҳудудларда туризмни ривожлантириш учун катта салоҳият мавжуд. Айниқса, тиббиёт туризми, зиёрат туризми ва экотуризмни ривожлантириш нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий соҳалар ривожига ҳам катта туртки беради⁵⁶⁶.

Яна Мурожаатномада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси бир ой муддатда 2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиши ва ижросини таъминлаши зарурлиги, шу асосда 2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортидан келадиган йиллик даромадни эса 2 миллиард долларга етказиш лозимлиги таъкидланди.

Ўзбекистон Республикасининг ана шундай имкониятларга эга ҳудудларидан бири Жиззах вилоятидир. Вилоят шаҳар ва қишлоқларида 372 та маданий мерос объектлари давлат муҳофазасига олинган бўлиб, шуларнинг 42 таси тарихий обида зиёратгоҳлар, 267 таси археологик ёдгорликлар ва 63 таси монументал ёдгорликлар ҳисобланади⁵⁶⁷.

Жиззах тарихининг энг қадимги саҳифалари ҳақида гап кетганда, албатта жаҳон тарихига дахлдор саналмиш “Сайхонсой қоятошлари”даги суратларни (4,5 минг йил аввал), энг қадимги одамлар яшаганлиги тахмин этилаётган “Пешағор ғори” маданий қатламларини, 2-2,5 минг тарихга эга “Мозорсой ёдгорликлари”ни, “Жомонсой ер ости эҳромлари”ни, қадимги манбаларда тилга олинган Газа, Харакана, Зомин, Собот, Миқ, Марсманда, унданда қадимийроқ бўлмиш хитой солномарарида тилга олинган “Йеча шаҳри” қолдиқлари булмиш қадимги қалъалар ва шаҳарлар ўринларини фахр билан тилга олинади⁵⁶⁸.

Шунингдек, вилоятда 3 та алоҳида кўриқланадиган табиий масканлар мавжуд. Булар Зомин ва Нурота давлат кўриқхоналари, Зомин миллий боғидир. ҳамда 9 та ўрмон хўжалиги бўлимлари мавжуд деб маълумот беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг бевосита эътибори ва ташаббуси билан чекка тоғли ҳудудлардаги қишлоқлар инфратизимларини ривожлантириш, ушбу жойларда саноат ва туризм иншоатларининг бапро этилиши ҳисобига қишлоқ ёшлари ва аёлларнинг иш билан таъминланишига шароит яратиши билан бирга вилоятда экологик туризмнинг жадаллик билан ривожланиши мақсадида вилоятда қарийб 20 йилдан буён ёпиқ турган Булунғур-Бахмал-Сува йўлининг очилди. Чунки

⁵⁶⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати давлат раҳбарларининг 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил 28 декабрь сони № 260 (26954).

⁵⁶⁷ Жиззах вилоятида туризмни ривожлантириш бошқармаси бошлиғи С.Қорабоев маълумотларига кўра

⁵⁶⁸ Оға Бургутли (Саттор Қорабоев) Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. Тошкент ЎзФА “Фан” нашриёти. 2008.

ушбу йўл Зомин ва Бахмал туманларидаги Зомин давлат кўрикхонаси ҳамда Зомин миллий боғига Самарканд ва Тошкент шаҳарларига ташриф буюрган сайёҳларнинг ушбу йўл орқали ўтишларига қулайлик яратади.

Айни пайтда 2019 йил 18-январь Ўзбекистон ва Франция ўртасида минтақалараро ҳамкорликни йўлга қўйиш ва ривожлантириш мақсадида Жиззах вилоят ҳокимининг инвестициялар, инноватсиялар, хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш, эркин иқтисодий ва кичик зоналари ҳамда туризмни ривожлантириш масалалари бўйича ўринбосари Азим Ахмедхаджаев бошчилигидаги делегатсия Францияга ташриф буюрди

569

Унда Франция томонидон туризм, фарматсевтика маҳсулотлари ҳамда иқтисодиётнинг бошқа истиқболли соҳаларида ўзаро ҳамкорлик қилиш бўйича Жиззах вилояти билан тўғридан-тўғри ҳамкорлик қилишга қизиқиш билдиради “Франсия-Ўзбекистон” ишбилармонлар кенгаши раиси Кристоф Фонтен. Юқоридаги вазифаларни кўзлаган ҳамкорлик қилиш тўғрисида “МЕДЕФ Интернационал” ва Жиззах вилояти ўртасида Келишув имзоланганини ҳақида таклифлар берилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 17 майдаги 4-сон баённомасига мувофиқ “2017-2019 йилларда Жиззах вилоятининг туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш” дастури тасдиқланди. Мазкур дастур доирасида 48 таси туристик жойлаштириш воситалари (меҳмонхона, мотел, кемпинг, ўтов ва уй меҳмонхоналари)ни қуриб ишга тушириш кўзда тутилди. Натижада Зомин тумани Кўрик кишлоғида 250 ўринли “Азим-Зомин шифо” ва Бахмал тумани Кўкжар кишлоғида 100 ўринли сихатгоҳлар, Жиззах шаҳри, Зомин, Дўстлик туманларида замонавий меҳмонхоналар, Фориш тумани Айдар-Арнасой кўллари тизими қирғоқларида 3 та кемпинг ва ўтов лагерлар мажмуаси ҳамда тоғли туманлар ҳудудларида 10 дан зиёд уй меҳмонхоналари қуриб битказилди ва фойдаланишга топширилди.

Дастурда эко-туристик манзиллар ва туристик жойлаштириш воситаларига олиб боровчи йўللарни жорий ва капитал таъмирлаш борасидаги ишлар 2018 йилда амалга оширилиши кўзда тутилган бўлиб, бунда туристик манзиллар, зиёратгоҳ ва экотуристлик объектларга рус, инглиз ва ўзбек тилларида йўл кўрсаткичлар ҳамда маълумотлар қайд этилган махсус панолар ўрнатиш, ҳамда қарийб 180,3 км. йўллари жорий ва капитал таъмирлаш ва йўл бўйи инфратизилмаларининг санитар-гигиеник ҳолатини яхшилаш белгилаб қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 9 мартдаги “Йўл ёқаси ва туризм инфраструктурасини ривожлантириш тадбирлари тўғрисида”ги 51-сонли Қарорига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 6 октябр йиғилиши баённомасига мувофиқ, Жиззах вилоятидаги туристлар ташриф буюрадиган ҳамда бошқа аҳоли гавжум жойлардаги 300 дан зиёд объектларнинг санитария-гигиена

⁵⁶⁹ <http://jizzax.uz/1431-franciyada-zhizzah-viloyatiningilor-udud-loiyasi-tadimoti-tkazildi.html>

шахобчалари гигиена талабларга мослиги ўрганиб чиқилди, улардан 37 таси қайта қурилиб, архитектура меъёрий талабларга мослаштирилмоқда.

Хозирги кунда АКШ ва Россия Федерацияси инвесторларининг маҳаллий вақиллари билан бирга умумий қиймати 220,0 млрд. сўмдан ортиқ (27,0 млн.долл. атрофида) бўлган туристик мажмуаларни Ғаллаорол ва Шароф Рашидов туманларида яратиш лойиҳалари ўрганилди⁵⁷⁰.

Жиззах вилоят туристик номавсумий даврларида жойлаштириш воситаларини хорижий сайёҳлар билан тўлдириш мақсадида Самарканд ва Бухоро шаҳарларига мусулмон давлатларидан “Зиёрат туризми” учун ташриф буюрган сайёҳлар учун уларнинг қизиқишлари ва талабларидан келиб чиққан ҳолда мусулмон давлатлари туроператорлари билан Зомин миллий боғи ва туманлардаги ўрмон хўжалиги ҳудудларида “Фитотурдоривор гиёҳлар туризми”, “Соғломлаштириш - Ибн Сино услублари туризми”, “Экологик-фаол туризм” ҳамда “Тоғ чанғи-фаол туризм” каби йўналишларини йўлга қўйиш мақсадида манфаатли келишувлар амалга оширилди.

Шуни айтиб ўтиш жоизки, ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий комиссияси таклифига биноан 2008 йил 18-январда Зомин тоғлари ЮНЕСКО умумжаҳон мероси объекти рўйхатига киритилди⁵⁷¹. Унда ҳудуд ҳақида кўйидаги маълумотлар киритилган: Зомин тоғлари икки қисмдан таркиб топган: Туркистон тоғларининг шимолий тизмаларида жойлашган, бир-бири билан чегарадош Зомин Давлат қўриқхонаси ва Зомин Халқ боғи. Зомин Давлат қўриқхонаси Зомин ва Бахмал туманлари ҳудудида, 26840 га майдонга эга бўлиб, 1960 йил ташқил қилинган. Зомин Халқ боғи 1978 йил ташқил қилинган, Жиззах вилоятининг Зомин туманида 24110 га майдонни ташқил қилади. Қўриқхона ўз ҳудудидаги барча табиий ресурсларни муҳофаза қилиш ва дахлсизлигини таъминлайди. Халқ Боғи ноёб тоғ экотизимларни сақлаш, тиклаш ва рекреацион тадқиқ қилиш мақсадида ташқил этилган. Карағай ўрмонлари ҳудуддаги энг йирик ўрмонлардан ҳисобланади. Ўзбекистон Кизил китобига киритилган ноёб ҳайвонот турлари (14 та) ва ўсимликлари (18 та) мавжуд. Ҳудуд 1913 йилдан буён турли даражада муҳофаза остига олингани сабаб, ноёб табиий ресурслар сақланиб қолган⁵⁷².

Бу ердаги масканларда шифобахш сувлар, қум ва балчиқлар тиббий жиҳатдан фойдали ҳисобланиб, кўпгина касалликларга даво бўлмоқда. Хйсусан, ўзининг тоза хавоси билан вилоятнинг тоғли ҳудудларидан бўлган Зомин туманида жойлашган Зомин Санаторияси неча йиллардан буён Ўзбекистонда ўпка, бронхит, астма, қон -томир касалликлари билан касалланган беморларга шифо улашиш вазифасини бажариб келмоқда.

2018 йилнинг 29-30 август кунлари Жиззахда Халқаро инвестицион форум бўлиб унда 28 мамлакатдан 300га яқин иштирокчилар қатнашди. Форумда вилоятнинг Зомин ва Бахмал туманлари экотуризм маркази бўлиши

⁵⁷⁰ <http://jizzax.uz/129-horizhiy-turistlar-oimini-kpaytirish-va-ichki-turizmni-yanada-rivozhlantirish.html>

⁵⁷¹ <http://www.zaamin.uz/?q=uz/> юнеско-умумжаҳон-мероси-объекти/

⁵⁷² <http://whc.unesco.org/en/tentativelists/5289/>

илгари сурилди. Ўрта Осиёда АКШнинг “Еллоустон” ва “Гранд-Канон” миллий парклари намунасида қурилган ягона лойиха бўлади”, - деди Улуғбек Қосимхўжаев, Давлат Туризмни ривожлантириш кўмитаси раисининг ўринбосари. “Еллоустон” миллий боғига йилига 20 миллион сайёх ташриф буюради. Зоминга бўлса бугунги кунда 50-100 минг киши ташриф буюради. Шунинг учун ҳам Жиззах вилояти ҳокимияти билан Бахмал ва Зомин туманлари туристик кластерини ривожлантириш лойихаларини ишлаб чиқди⁵⁷³.

Жиззах вилоятида туризм жабхалари ҳақида сўз борганда Арнасой туманидаги Айдар-Арнасой кўллар тизими ҳақида тўхталиб ўтмасликни иложи йўқ. Айдар-Арнасой кўллар тизими юкорида кўрсатиб ўтилган табиий масканлар билан вилоятда туризмнинг экотуризм, аграр, соғломлаштириш, спорт ва ов туризми каби ниҳоятда қизикарли ва ноёб йўналишларни ривожлантиришга асос бўлиб келмоқда.

Арнасой кўллар тизими 1969 - йилда Чордарё сув омборидан сув тушиши натижасида Айдар-Арнасой кўллар тизими ҳосил бўлган. Вақт ўтиши билан кўллар тизимини ташкил этувчи Арнасой, Айдар, Тузкон каби кўллар ҳосил бўлди.

Бу кўллар балиқ ва қушларнинг қўпгина тури учун ўзига хос резерват ҳисобланади. Бу ерда қарқара, ўрдақ каби қушларни учратиш мумкин. Қушлар мигратсияси вақтида Арнасой кўллар тизимининг қўплаб оролларида қуш галалари дам олиш ва озикланиш учун тўхтаб ўтишади. Рамсар Конвенциясининг 10-конференциясида (Корея Республикаси, Чангвон шаҳри, 2008-йил, 28-октябр-4-ноябр) Айдар-Арнасой кўллар тизими Рамсар рўйхатига қўшилганлиги эълон қилинди. Бу мазкур ҳудудда экологик ҳолатни яхшилаш ва сақлашга кенг жамоатчилик эътиборини жалб этиш имконини беради⁵⁷⁴.

Айдаркўл 100 дан ортиқ балиқ ва 400 дан ортиқ қуш турларининг яшайдиган маскан ҳисобланади. Қушларнинг 11 тури Халқаро Қизил китобга киритилган (The International Union for Conservation of Nature IUCN)⁵⁷⁵. Йилнинг нотуристтик мавсуми январь-март ойларида Айдаркўл қирғоқига 400 га яқин қуш турлари қишлоқ учун учиб келади. Ушбу ҳодиса жаҳон орнитологларининг катта қизиқишига сабаб бўлади. 2 ой давомида 100 га яқин илмий туристлар ташрифини режалаштириш мумкин.

Айдаркўлда жойлашган Тузкондаги балчиқ ўзининг шифобахш эканлиги билан машҳур. Шу билан бирга бу ердаги туризм марказида сув бўйида ҳордиқ чиқариш мумкин.

Жиззах вилоятида Ўзбекистон ўрмон билан қопланган ерларининг жами 65 фоизини ташкил этиши, ҳудудда Қизилқум кенгликларининг ҳамда Айдар-Арнасой кўллар тизимининг мавжудлиги, шунингдек, вилоятнинг бошқа вилоятлар ва қўшни хорижий давлатлар билан темир йўл ҳамда М-39 халқаро автомагистрал йўли борлигини инобатга олиб Жиззах вилоятига

⁵⁷³ <https://sputniknews-uz.com/tourism/20180902/9301271/Zomin-va-Bakhmal-ekoturizm-markaziga-aylanadi.html>

⁵⁷⁴ <http://geografiya.uz/ekologiya/591-kollar.html>

⁵⁷⁵ <http://geografiya.uz/ekologiya/591-kollar.html>

Экотуризм маркази мақомини бериш таклифи вилоят ҳокими Э.А.Салиев томонидан берилмоқда.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, Жиззах вилояти ўзининг қулай иқлим ва географик жойлашуви, бой маданий мерос объектлари, бетакрор табиати билан туризмнинг барча турлари (экотуризм, тиббий туризм, зиёрат туризми, геотуризм, аграр туризм, спорт туризми, этник туризм) мавжуд бўлган бой туристик салохиятли ҳудуд ҳисобланади. Ундаги бу имкониятлардан унумли фойдаланиш нафакат юртимиз бўйлаб балки чет эллик сайёҳларни ҳам жалб қилиш энг оқилона йўл бўлар эди. Вилоятда туризмни ривожлантириш мамлакат иқтисодиётини жадаллаштиришга, ўлкамизнинг туристик жозибадорлигини оширишга ва чекка туман, қишлоқлардаги аҳоли бандлигини таъминлаган бўлар эди.

*Сафаров Н. -
магистр исторический факультет 2 курса НУУз*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ- ПРИОРИТЕТНАЯ ЗАДАЧА ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ

Перспективы сотрудничества Российской Федерации с государствами Центральной Азии, США и Китаем обеспечении безопасности - вопрос актуальный, имеющий не только теоретическое, но и практическое значение для выработки стратегии внешнеполитической деятельности России и государств Центральной Азии.

Совершенствование сотрудничества России с центральноазиатскими странами обуславливается необходимостью исследования ключевых моментов внешней политики Российской Федерации в современных условиях.

После распада Советского Союза и провозглашения Содружества Независимых Государств (СНГ) Российская Федерация, выступив в качестве правопреемника СССР на международной арене, заняла место постоянного члена Совета Безопасности ООН и утвердила за собой статус великой ядерной державы⁵⁷⁶. Вместе с тем сложившаяся принципиально новая геополитическая обстановка в системе международных отношений потребовала от российского руководства разработки соответствующей концепции внешней политики. Постепенно сформировалось два важнейших направления российской внешней политики: становление и развитие отношений с бывшими советскими республиками (так называемым ближним ("новым") зарубежьем) и развитие отношений с ведущими странами Запада, в первую очередь США и странами Европы, а также с крупнейшими державами Азии (Япония, Китай, Индия).

Россия и новые независимые государства на постсоветском пространстве. Отношения России с новыми независимыми государствами на

⁵⁷⁶ Делягин М. Основы внешней политики России: матрица интересов. –М., 2007. –С. 314.

постсоветском пространстве (бывшими советскими республиками в составе Союза ССР) поначалу определялись проблемами формирования политического и экономического сотрудничества в рамках СНГ, защитой интересов русскоязычного населения (25 млн человек) в ближнем зарубежье, разделом "наследства" некогда единого союзного государства, прежде всего огромного военного (в том числе ракетно-ядерного) потенциала советских Вооруженных Сил.

Военно-политические проблемы, пожалуй, являлись наиболее значимыми при "цивилизованном разводе" (по выражению первого президента Украины Л. М. Кравчука) бывших советских республик, так как на начальной стадии развития СНГ преодолеть мощную волну центробежных тенденций в руководстве новых независимых государств так и не удалось⁵⁷⁷. Вместе с тем, несмотря на все заявления о полной "независимости и суверенитете", государства ближнего зарубежья не могли обойтись без эффективной военно-политической поддержки России. Выходом из создавшейся ситуации (после распада ОВС СНГ) стало заключение 15 мая 1992 г. в Ташкенте Договора о коллективной безопасности (ДКБ), подписи под которым поставили лидеры Армении, Казахстана, России, Узбекистана, Таджикистана и Туркмении; к концу 1993 г. к ДКБ присоединились Азербайджан, Белоруссия и вошедшая в 1993 г. в СНГ Грузия.

Выступая под эгидой Содружества, Вооруженные Силы России в 1992-1993 гг. взяли на себя важные функции по урегулированию межнациональных и межэтнических конфликтов, вспыхнувших на периферии постсоветского пространства (приднестровский, осетино-грузинский, грузино-абхазский и межтаджикский конфликты).

Ключевую роль в обеспечении региональной безопасности и стабильности, включая противодействие новым вызовам и угрозам, играет Организация Договора о коллективной безопасности (ОДКБ). Повышению ее роли в решении этих задач, особенно применительно к Центральноазиатскому региону, способствует возобновление членства в ней Узбекистана. Россия и далее будет содействовать консолидации ОДКБ в качестве военно-политического союза, укреплению миротворческого потенциала Организации, совершенствованию военно-технического сотрудничества между государствами-членами, усилению координации их действий на международной арене. Актуальной задачей является дальнейшее укрепление международного авторитета ОДКБ, развитие ее контактов с другими региональными организациями аналогичного профиля, включая НАТО. Растущее практическое значение приобретает усиление координации между ОДКБ и ЕврАзЭС.

В регионе Центральной Азии США настойчиво продвигают планы формирования новой структуры, объединяющей пять среднеазиатских республик, Афганистан и Пакистан, а в перспективе и Индию. Многие в

⁵⁷⁷ Кандель П. Российская внешняя политика: диагноз и состояние // Власть. 1998. № 6. –С. 20-25.

центральноазиатских политических кругах видят в проникновении в регион США и других стран Запада важный ресурс модернизации, получения финансовой помощи, притока передовых технологий. Крупный фактор неопределенности – деградирующая ситуация в Афганистане. Но если афганская кампания закончится неудачей, а США и НАТО уйдут, страны Центральной Азии и Россия останутся один на один перед лицом последствий усугубившейся афганской проблемы, в первую очередь наркотеррористической угрозы, всплеска фундаменталистских настроений и дестабилизации региона. В этих условиях у России нет иного выбора, как наращивать свою многоплановую вовлеченность в дела Центральной Азии.

В рамках СНГ важно продолжать работу по реализации Концепции сотрудничества государств-участников СНГ в борьбе с терроризмом и иными насильственными проявлениями экстремизма в рамках соответствующей Программы сотрудничества на 2005-2007 гг.

Позитивной оценки заслуживает деятельность Антитеррористического центра СНГ и ОДКБ, включая подготовку и проведение антитеррористических учений ("Каспий-антитеррор", "Антитеррористический центр-антитеррор", "Юг-Антитеррор" в формате СНГ, а также "Заслон", "Рубеж" в рамках ОДКБ) и профилактических операций "Канал" (по линии ОДКБ).

На саммите ШОС в Шанхае в июне 2006 года приняты Декларация пятилетия ШОС с содержательной антитеррористической частью, Соглашение о порядке организации и проведения совместных антитеррористических мероприятий на территориях государств-членов ШОС, Соглашение о сотрудничестве в области выявления и перекрытия каналов проникновения на территории государств-членов ШОС лиц, причастных к террористической, сепаратистской и экстремистской деятельности, Соглашение о технической защите информации в Региональной антитеррористической структуре (РАТС) ШОС, а также Программа сотрудничества государств-членов Шанхайской организации сотрудничества в борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом на 2007-2009 гг.

Проблемы, стоящие перед политикой США в регионе, отталкиваются от все сокращающегося военного и экономического интереса и ресурсов США в регионе по сравнению с другими внешними игроками (Россия и Китай, Япония); враждебность России и Китая к долгосрочному военному присутствию США в Евразии; обеспокоенность местных государств по поводу содействия США демократии и правам человека, в свою очередь США обеспокоены ведущимися репрессиями в отношении гражданского общества, ограниченного верховенства закона и повсеместной коррупции в регионе; неразработанная политика США в отношении ШОС, ОДКБ, ЕАЭС и других региональных институтов; ограниченное взаимодействие региональной политики США с другими странами, даже с союзниками США в Европе и Азии, которые сами в незначительной мере вовлечены в проблемы региональной безопасности; отсутствие внимания Конгресса и

других влиятельных институтов власти США к региону; и общее безразличие американского бизнеса или игнорирование им региональных коммерческих возможностей, за исключением энергетического сектора. Хотя некоторые жители Центральной Азии протестовали против попыток США изменить внутреннюю политику в их странах, другие теперь будут рассматривать некоторые политические шаги США (например, запрет на въезд в страну гражданам ряда мусульманских стран) как антимусульманские.

Подводя итог, можно сделать вывод, что обеспечение мира в Центральной Азии – это задача не одного отдельного государства, а ответственная и важная задача всех государств не только данного региона, но и мировых держав, таких как Россия и США. Именно поэтому данная проблема является приоритетной в Центральной Азии.

*Тошқулова М. –
ЎзМУ Тарих факультети талабаси*

МИСР АРАБ РЕСПУБЛИКАСИНИНГ АРАБ ДУНЁСИДАГИ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ

Бугунги кунда хавфсизликнинг долзарб муаммолари, янги таҳдид ва қаҳриқларга қарши кураш, давлат ва жамиятнинг барқарор ривожини учун ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларни яратиш глобал тус олган. Зеро, жуғрофий жиҳатдан Европа, Осиё ва Африка каби уч қитъанинг кесишув нуқтасида жойлашган Ўрта Ер денгизи минтақаси ҳам бундан мустасно эмас.

Миср Араб Республикаси (МАР) Ўрта Ер денгизини кечаётган сиёсий жараёнларга таъсир кўрсатувчи асосий кучлардан саналади. Араб давлатлари ичида аҳоли сони⁵⁷⁸ ва ҳудудий тузилиши жиҳатидан йирик саналган, ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий мавқеига кўра минтақа давлатларига нисбатан устунликка эга бўлган Миср Яқин Шарқда ўзига хос ўрин эгаллайди. Географик жиҳатдан Европа, Осиё ва Африка қитъалари туташган ҳудудда жойлашган ҳамда Ғарб давлатларини араб нефти билан таъминловчи Сувайш каналига эга бўлган Миср давлати нафақат минтақавий, балки халқаро миқёсда муҳим стратегик ўринга эга⁵⁷⁹.

Миср томонидан олиб борилаётган ташқи сиёсат ва унинг қай тарзда ташкил этилганлиги кўп жиҳатдан Ўрта Ер денгизи минтақасидаги кучлар мувозанатини белгиловчи аҳамият касб этади. Шу боис, Мисрнинг иттифоқчи ва ҳамкор сифатида айнан қимни ўзига муносиб кўриши борасидаги рақобат майдони тобора кенгайиб бормоқда.

МАРнинг Ўрта Ер денгизи ва Яқин Шарқ минтақаларида хавфсизликни таъминлаш борасидаги тажрибаси Ўзбекистон Республикасида катта

⁵⁷⁸ 2008 йилнинг июнь ойида Мисрда демографик муаммоларга бағишланган конференциядаги нутқи чоғида Президент Хусни Муборак МАРнинг аҳоли сони 80 млн.га етганлигини маълум қилган.

⁵⁷⁹ Муҳаммадсидиков М.М. Сувайш канали ва унинг стратегик аҳамияти // Шарқшунослик (ТошДШИ). – Т.: 2005. – №1. – Б. 97-98.

кизиқиш уйғотади. МАРнинг Ўрта Ер денгизи ва Яқин Шарқ минтақаси халқаро муносабатлари тизимида, хусусан, мазкур минтақадаги интеграцион жараёнларида тутган ўрни ва роли ўзига хосдир.

Миср ташқи сиёсатининг муҳим жиҳатларидан бири, АҚШ билан ўзига хос муносабатларни сақлаб келаётганлигидадир. Мусулмон олами билан муносабатларни мувофиқлаштиришга интилган АҚШнинг собиқ Президенти Барак Обама 2009 йил 4 июнда Ал-Азхар университетиде сўзлаган нутқида асосий мақсад – “АҚШ билан дунё мусулмонлари ўртасида умумий манфаатлар ва ўзаро ҳурматга асосланган муносабатларнинг янги саҳифасини очишдан иборат” эканлигини эътироф этди⁵⁸⁰.

Европа билан ҳам муносабатлар жадал ривожланмоқда. Қоҳира ЕИни тинчлик жараёнларида фаол иштирок этишга чақиради. ЕИ МАРнинг асосий савдо ҳамкори ва иқтисодиётининг асосий инвестори ҳамдир.

Узоқ муддатли турғунликдан сўнг, РФ билан муносабатларда жонланиш кузатилмоқда. Икки томонлама муносабатларнинг фаоллашуви ХХ-ХХІ аср ораллиғига тўғри келади.

Африка Миср маҳсулотларини ҳарид қилишда истиқболли ва ҳудудий жиҳатдан яқин жойлашган бозор ҳисобланади. 1998 йилда Миср Африка йўналишидаги ташқи савдони ривожлантириш имконини берувчи Шарқий ва Жанубий Африка умумий бозори Уюшмаси (КОМЕСА)га аъзо бўлди.

МАРнинг Осиё давлатлари билан муносабатлари кўшимча ривожлантирувчи куч вазифасини ўтайди. Хитой билан муносабатларни яхшилаш ХХРга Миср маҳсулоти экспортини кенгайтириш ва Хитой бозорларида сотилувчи Миср маҳсулотлари ҳажмини оширишда МАР ва Хитой муносабатлари алоҳида аҳамиятга эга.

МАР турли хилдаги халқаро ва минтақавий ташкилотлар фаолиятидаги иштирокига ҳам алоҳида эътибор қаратади. Кўшилмаслик ҳаракати, ривожланаётган давлатлар билан анъанавий мулоқот “майдони” вазифасини ўтайди. 1997 йилда МАР “Ислом саккизлиги” га аъзо бўлган.

МАРнинг ташқи сиёсий стратегиясига бағишланган манбалар таҳлили, унинг асосий йўналишлари миллий ва минтақавий хавфсизлик муаммоларини ҳал этишга, давлатнинг сув ресурсларига бўлган эҳтиёжини қондириш ҳамда Миср иқтисодиётига хориж инвестициясини жалб қилишга қаратилганлигини кўрсатади. Қоҳиранинг ташқи сиёсий фаолияти ҳам айнан ҳаётий муҳим манфаатлари атрофида кечаётганлигини кузатиш мумкин. Географик ва геосиёсий нуқтаи назардан Миср кўплаб халқаро факторларнинг узоқ муддатли манфаатлари кесишган ҳудудда жойлашган. Унинг бир вақтда кўплаб жуғрофий минтақа (Африка, Яқин Шарқ, Европа), цивилизация (араб ва мусулмон, христиан) ва жараёнларга тегишли эканлиги, мазкур давлатнинг халқаро сиёсий майдоннинг марказий ўринларидан жой эгаллаш имконини беради.

Қоҳира шунингдек, араб ва Европа давлатлари ҳамкорлигида халқаро терроризмга қарши кураш бўйича умумий ёндашувларни ишлаб чиқишдаги

⁵⁸⁰ Сойибназаров А. Обама реализм ва прагматизмни танламоқда // ХХІ аср. – Т.: 2009 йил 11 июнь.

фаол саъй-ҳаракатлари натижасида Испания томонидан таклиф этилган ҳамда Ўрта Ер денгизи давлатларининг умумий ёндашувларини акс эттирувчи терроризмга муносабат Кодекси қабул қилинган.

2008 йилнинг июль ойида Парижда Ўрта Ер денгизи иттифоқига 43 аъзо-давлат раҳбарлари иштирокидаги Миср ва Франция музокараларининг натижаси бўлмиш саммит⁵⁸¹ ўтказилди. Ҳар икки томон Ўрта Ер денгизи жараёнларининг сиёсий ҳомийлари сифатида иштирок этмоқда.

Миср Ўрта Ер денгизи ҳамкорлиги доирасидаги ҳарбий машғулотларда фаол иштирок этиб келмоқда. МАРнинг бевосита иштироки ёхуд унинг ҳудудида ҳарбий машғулотларнинг ўтказилиши, Ўрта Ер денгизи минтақавий хавфсизлигини таъминлашда Мисрнинг ўрни нечоғлик муҳим эканлигидан далолат беради.

Хайруллаева М. –

ЎЗМУ Тарих факультети 1-курс магистранти

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДАГИ БАРҚАРОРИКНИ МУСТАҲҚАМЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ДАВЛАТ СИЁСАТИ

Ўзбекистон халқининг қўпчилиги ўзининг шахсий манфаатларини эмас, балки ўз оиласи, қариндошлари, ёр-биродарлари ва қўшилларининг соғлиги ҳамда фаровонлиги тўғрисида гамхўрлик қилишни биринчи ўринга қўяди. Бу – инсоннинг энг олий маънавий фазилатидир. Бизни халқимиз ҳеч қачон ўзини бошқа халқлардан юқори қўйган эмас. Бошқа миллатларга, бошқа динларнинг намояндаларига муносиб ҳурмат эҳтиром кўрсатиб келган.

Ислом Каримов

Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлардаги барқарорлик давлатимизнинг оқилона этник сиёсатининг натижасидир. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритганидан сўнг, нафақат мамлакатга ном берган ўзбек халқи, балки шу муқаддас заминда истиқомат қилаётган турли миллат вакилларининг ҳам миллат сифатида сақланиб қолиши ва ривожланиши учун тенг шароит ва имкониятлар яратиш масаласига долзарб вазифа сифатида алоҳида эътибор қаратди.

Бугунги кунда мамлакатимиз ҳудудида 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари тинч-тотув ва баҳамжиҳатликда яшаб келишмоқда. Бунинг учун ҳаракатлар ҳукуматимиз томонидан мустақиллигимизнинг дастабки йилларидан устувор вазифа сифатида эътироф этилиб, унинг ҳуқуқий асосларини яратиш ва мустаҳкамлашга киришилди.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (4, 8, 18, 21, 31, 57, 73, 74, 115-моддаларида) ва қатор қонунларимизда турли миллатга мансуб аҳолининг маънавий-маданий жиҳатдан ривожланиши учун тенг шароит ва имкониятлар яратиш масаласи мустаҳкамлаб қўйилган. Шунингдек, бу

⁵⁸¹ Иттифоқ атроф-муҳит муҳофазаси, куёш энергиясидан фойдаланиш ҳамда жамоатчилик хавфсизлигини мустаҳкамлаш мақсадида ташкил этилган бўлиб, унга ЕИнинг 27 аъзо давлати ва 10 та Жануб давлати – МАР, Жазоир, Исроил, Иордания, Ливан, Марокаш, Мавритания, Сурия, Тунис, Туркия, ФММ, Албания, Хорватия, Босния ва Герцеговина, Черногория ва Монако аъзо.

борада қабул қилинган қонун ҳужжатлари доирасига 1991 йил 14 июнда “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуннинг 5-моддасида, 1997 йил 26 декабрда “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида”ги қонуннинг 6-моддасида, 1995 йил 21 декабрда янги таҳрирдаги “Давлат тили тўғрисида”ги Қонуннинг 24-моддасида барча фуқаролар, яъни этник гуруҳларнинг ҳуқуқлари устунлиги назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 1997 йилда нашр этилган “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” асари масалага назарий ва амалий жиҳатдан ёндашилганлиги билан ажралиб туради. Мазкур асар ёзилганлигига узоқ фурсат бўлганлигига қарамасдан, ўзининг кадр-қимматини йўқотмаган бўлиб, ҳозирги кунда ҳам барчамиз учун назарий қўлланма бўлиб хизмат қилмоқда. Шу билан бирга, ушбу асар бугунги кундаги мавжуд долзарб барча муаммоларни ўз ичига олган асар ҳамдир.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов истиқлолнинг илк кунларидаёқ, Ўзбекистоннинг миллий манфаатларига мос келадиган пухта сиёсий йўлни белгилаш, жаҳон ҳамжамиятига қўшилиш, хорижий мамлакатлар билан сиёсий, дипломатик, иқтисодий, илмий-техникавий ва маданий алоқалар ўрнатиш масалаларини долзарб вазифа сифатида билди. Негаки, давлатимиз мустақиллигини мустаҳкамлаш, хавфсизлигини, барқарорлиги ва тараққиётини таъминлаш кўп жиҳатдан ана шу вазифаларнинг оқилона ҳал этишига боғлиқ бўлиб қолган эди. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари” асарида: “Биз учун мустақиллик – ўз эркинлигимизни англашгина эмас, балки ўз ҳаётимизни ўз иродамиз билан ва миллий манфаатларимизни кўзлаган ҳолда ташкил этиш, ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қуриш ҳуқуқидир¹” – дея таъкидлаган эди. Полиэтник таркибга эга Ўзбекистон Республикасида юритилаётган этник сиёсат хусусида Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов қуйидаги савол билан мурожаат қилган эди: “Ўзбекистонда ва бутун Марказий Осиё минтақасида барқарорликни сақлаб туриш учун қандай этник сиёсат олиб бориш керак? “Марказий Осиё аҳолисининг асосий қисмини ташкил этадиган ҳозирги туб этнослар илдизлари ўтмишда вужудга келган миллатлар сифатида шаклланишнинг мураккаб ва ўзига хос йўлини босиб ўтган. Бу соҳадаги айрим зиддиятли ҳодисаларга қарамай, аҳолиси кўп миллатли бўлган миллий давлатларнинг қарор топиши жараёни давом этмоқда. Ўзбекистон аҳолисининг кўп миллатлилиги ўзбек халқининг миллий ўзлигини англаши маънавий қайта тикланишининг ўсиши билан чамбарчас боғлиқ ҳолда жамиятни янгилаш, демократлаштиришга ундовчи зўр куч бўлиб хизмат қилмоқда. Бу республиканинг жаҳон ҳамжамиятига

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон; 1997. – Б. 299.

кўшилиши учун қулай шарт-шароит яратмоқда”². Мамлакатимизда юритилаётган миллатларо муносабатлардаги барқарорликни таъминлаш борасидаги сиёсат юртимизда истиқомат қилаётган барча халқ вакиллари учун, ирқий ва миллий мансублиги, тили, динидан қатъий назар, уларнинг тенг ҳуқуқли асосда барча ҳуқуқ ва эркинликларга эга эканлигини кафолатлайди. Буни биз Бош Қомусимиз ва қабул қилинган кўплаб Қонунларимизда кўришимиз мумкин.

1989 йилдаёқ жамоат ташкилотлари – миллий-маданий марказлар тузила бошланган эди. Ҳозир республикада 80 дан ортиқ марказ ишлаб турибди. Улар Ўзбекистоннинг кўп миллатли жамиятини сиёсий, иқтисодий, маданий-маънавий жиҳатдан қайта қуриш жараёнида ижобий роль ўйнамоқда. Халқнинг бирлиги, жипслиги ва осойишталиги ҳақида гапирар эканмиз, бу – бизнинг бебаҳо бойлигимиз, дея таъкидлаймиз¹.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг минбарларида туриб сўзлаган нутқлари таҳсинга сазовордир. Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, мамлакатимиз Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 1993 йил 27 сентябрда бўлган 48-сессиясидаги иштироки ва қилган маърузаси мустақил Ўзбекистонимизни жаҳонга кўҳна ва ёш, навқирон давлат сифатида намоён этди². Ўзбекистон Республикаси номидан Марказий Осиёда хавфсизлик, барқарорлик ва ҳамкорлик масалалари бўйича БМТнинг Тошкентда доимий ишловчи семинарини чақириш, нарқобизнесга қарши курашни кучайтириш, Орол муаммосини ҳал этиш ва бошқа масалалар бўйича бир қатор таклифлар ўртага қўйилди.

БМТ Бош Ассамблеясининг 1995 йил октябрь-ноябрь ойларида бўлган юбилей сессиясида Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов ҳам қатнашиб ва нутқ сўзлаб, бу нуфузли халқаро ташкилот фаолиятини яхшилашга доир таклифларни баён этди. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти анжуман иштирокчиларига қарата мурожаат қилар экан, улар эътиборини Марказий Осиёда юзага келган муаммолар, БМТ тузилмаларини ислоҳ қилиш, унинг фаолиятининг самарадорлигини ошириш зарурлиги, Хавфсизлик кенгаши сафини кенгайтириш, унга жаҳон сиёсатида муҳим ўрин эгаллаган Германия ва Япония сингари давлатларни доимий аъзо сифатида киритиш лозимлигига қаратди. БМТнинг Хавфсизлик кенгашини Афғонистондаги минтақа барқарорлигига хавф солаётган биродарқушлик урушига барҳам бериш учун бу мамлакатга қурол-аслаҳалар олиб киришни таъқиқлашга давъат этди. “Афғонистон уруш эмас, тинчлик ва барқарорлик объекти бўлмоғи лозим³” – деб ўз сўзини давом эттирди. Ислоҳ Каримовнинг юритган бағрикенглик сиёсати моҳиятан Афғонистон учун оғир бўлган даврда, аввало, афғон

² Ўша китоб. – Б.72.

¹ Ўша китоб. – Б. 83.

² “Xalq so`zi” gazetasi ., 1993 yil , 28 sentabr

³ “Xalq so`zi” gazetasi, “Prezident Islom Karimovning BMT tashkilotining ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig`ilishida so`zlagan nutqi”, 1995 yil, 26 oktabr

халқининг манфаатларидан келиб чиққан ҳолда, бутун Афғонистон келажагини назарда тутиб, ушбу мамалакатда урушни тўхтатиш бўйича аниқ ва кенг кўламли чора-тадбирларни таклиф этгани, унинг бу борадаги аниқ ва катъий позицияси юксак ҳурмат ва алоҳида эътиборга сазовордир.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг БМТ Бош Ассамблеясининг мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган олий даражадаги ялпи мажлисидаги нутқига нисбатан хорижий ижтимоий-сиёсий доиралар вакиллари томонидан билдирилган муносабларидан бирини мисол тариқасида келтириб ўтиш жоиз: “Халқаро майдонда ўз қарашлари ва ёндашувлари билан йилдан-йилга эътибор қозонаётган Президент Ислон Каримов БМТ минбаридан сўзлаган нутқи орқали ўзини юксак масъулиятли ва узоқни кўра биладиган сиёсий етакчи сифатида яна бир бор намоён этди. Ушбу нутқда минтақанинг фақат Марказий Осиё халқларига боғлиқ бўлмаган энг оғриқли муаммолари ҳам ўз ифодасини топди. Минтақа барқарорлиги ва хавфсизлигига таъсир этаётган Афғонистон муаммоси шулар жумласидандир. Бу муаммони ҳеч ким Ўзбекистон раҳбари сингари яхши билмайди ва тушунмайди. Унинг БМТ Бош Ассамблеяси саммитида Афғонистон бўйича илгари сурган фикрлари ва ташаббуслари келгусида афғон муаммосини ҳал этишда халқаро ҳамкорлик учун асос бўла олади”¹, – деб ўз фикрини билдирган эди Корея Республикасининг “Korea times” газетаси президенти Пак Му-Жон.

Биринчи Президентимиз Ислон Каримов ташаббуси билан қурилган бу сиёсат ҳозирги пайтда ҳам ўз долзарблигини сақлаб қолди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” ишлаб чиқилиб, стратегияда бешинчи йўналиш сифатида “Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасидаги устувор йўналишлар”⁵⁸² белгилаб олинди. Бу ҳам юртимизда фуқаролар хавфсизлиги, миллатлар ва диний бағрикенгликка берилаётган эътиборнинг янада янги босқичга кўтарилганлигидан далолат беради.

2017 йил 19 майда “Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони эълон қилиниб, унга биноан Республика байналмилал маданият маркази ва дўстлик жамиятларининг Марказ негизида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси ташкил этилиб, унинг вазифалари аниқ белгилаб олинди

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi // Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. – T.: O‘zbekiston; 2010. – B.34.

² Президент Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони. 2017 йил 7 февраль.

Хусусан, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрь куни Нью-Йоркда бўлиб ўтган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида Халқаро терроризм ва экстремизмнинг илдизини бошқа омилар билан бирга, жаҳолат ва мурасасизлик ташкил этишини таъкидлаган ҳолда, ушбу муаммонинг ечими сифатида одамлар, биринчи навбатда, ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифа эканлигини кўрсатиб, Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш ҳамда “Маърифат ва диний бағрикенглик” деб номланган махсус резолюцияни қабул қилиш ташаббуси билан чиқди. Бу эса жаҳон жамоатчилигига глобаллашув жараёнлари ва динлараро мурасасозлик кучайган бир вазиятда ўзига хос чақириқ бўлиб хизмат қилди.

*Ходжаева А.Ш. –
ТошДТУ 2-курс талабаси*

Илмий раҳбар ТошДТУ катта ўқитувчиси Куанишова Д.Т.

МУСТАҚИЛ ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Шарқда азалдан хотин-қизлар ва уларнинг шаъни муқаддас саналиб, уларга нисбатан алоҳида ҳурмат ва эътибор бериб келинган. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, жамиятимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Маълумки, аёлларга нисбатан ўтган даврларда давом этиб келаётган андозавий муносабатлар ҳозирги кунга келиб, озод ва эркин жамиятда янги мазмун, янги маъно кашф этмоқда.

Тарихдан биламизки, аёлларнинг жамиятдаги ҳолатига муносабат турли даврларда давлат сиёсатига қараб ўзгариб келди. Зеро, хотин-қизлар ҳар қандай жамиятда ҳам оиланинг асосини ташкил этган. “Аёллар бир қўллари билан бешик тебратсалар, бир қўллари билан дунёни тебратади”, деган гап бежиз айтилмаган. Шу боисдан масалага чуқурроқ ёндошадиган бўлсак, ҳар бир жамиятнинг тараққиёти, адолатлилиги ва инсонпарварлиги аёлларга бўлган муносабат билан белгиланади. Тарихга бир назар ташлайдиган бўлсак, аёлларга муносабат ва улар ҳуқуқларининг тарихий илдизлари узоқ даврларга бориб тақалади. Агар биз кўхна тарихимиз саҳифаларини варақлаб чиқсак аёлларимизнинг сиёсатчи, давлат арбоби, шоира, олим ва умуман жамиятга энг зарур инсон сифатида жамиятда тутган ўрнини яққол кўришимиз мумкин. Хатто Буюк темурийлар салтанатида Амир Темурнинг суюкли рафиқаси Бибихоним мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётида катта роль ўйнаган.

Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллигини қўлга киритиши муносабати билан ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида демократлаштириш жараёнида туб ўзгаришлар содир бўлмоқда. Бу ўзгаришларнинг марказида инсон, унинг ҳуқуқлари ва эркинликларига устувор аҳамият берилмоқда.

Айниқса, аёлларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш муаммосига давлатимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан Ўзбекистонни янада ривожлантириш бўйича қабул қилинган Ҳаракатлар стратегиясида тўртинчи устувор йўналиш – ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири – бу хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларнинг давлат ва жамият бошқарувидаги ўринини кучайтириш деб белгилаб қўйилган⁵⁸³.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов томонидан ишлаб чиқилган “Ўзбек модели” ижтимоий тараққиёт концепциясида “аёллар” масаласи бўйича алоҳида назария яратилганлигига эътибор қаратиш муҳимдир. Бизнингча, ушбу назариянинг асосларини қуйидаги шиорий фикрлари ташкил этади: “...жамиятнинг демократик ўзгаришлар йўлидан нечоғли илгарилаб кетгани, шу жамиятнинг аёлларга бўлган муносабати унинг маданий-маънавий савиясини белгилайди”⁵⁸⁴.

“...Муҳтарам оналаримиз, опа-сингилларимиз, аёлларимиз, қизларимизнинг жамиятдаги мақомини ва мавқеини кўтариш, ҳурматини жойига қўйиш, манфаатини ҳимоялаш, уларнинг меҳнат ва турмуш шароитларини яхшилаш - давлатимиз, жамиятимизнинг устувор йўналиши ва бош мақсадига айланиши лозим”⁵⁸⁵.

Аёллар масаласи мустақилликнинг биринчи кунлариданоқ Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги энг устувор йўналишларидан бири сифатида эътироф этиб келинмоқда. Жумладан, асосий қомусимиз ҳисобланмиш Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 18-моддасида Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар қонун олдида тенгдирлар, деб белгиланган.

Хотин-қизларнинг фуқаролик жамиятидаги ижтимоий-сиёсий мавқеини янада кўтариш мақсадида 1999 йил 14 апрелда “Аёлларга қўшимча имтиёзлар тўғрисида”ги Қонун, 2003 йил 29 августда “ЎзР Олий Мажлисига сайлов тўғрисида”ги Қонунга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонун қабул қилиниб, унда кўрсатилганидек сиёсий партиялардан кўрсатилувчи депутатликка номзодларнинг 30 %ини аёллар ташкил қилиши керак. Шунингдек 1999 йил 17 мартда “Хотин-қизлар ижтимоий ҳимоясини кучайтириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2004 йил 25 майда “Ўзбекистон хотин-қизлар қўмитасини қўллаб-қувватлаш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги биринчи Президентимиз фармонлари ва бошқа қатор ҳужжатларда аёллар ижтимоий-сиёсий мавқеини

⁵⁸³ Бекмуродов М., Қуронбоев Қ., Тангриев Л. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Ғ.Ғулом, 2017. – 68–бет.

⁵⁸⁴ Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда // Биз ўз келажагимизни ўз қўлларимиз билан қураимиз. 7–жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 385–бет.

⁵⁸⁵ Қаранг: Каримов И.А. Келажакни жасоратли одамлар қуради. // Биз ўз келажагимизни ўз қўлларимиз билан қураимиз. 7–Жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 332–бет.

кўтариш ва давлат бошқарувида аёллар ижтимоий-сиёсий иштирокини ошириш мақсадида давлат дастурлари ишлаб чиқилди. Ишлаб чиқилган дастурлар ўзининг стратегик йўналишлари билан миллий ҳамда умуминсоний кадриятларга мутаносиб даражада жавоб беради. Шу билан бирга БМТ томонидан кейинги йилларда хотин-қизлар масаласида ўтказган халқаро конференцияларда қабул қилинган қатор қарорларини Ўзбекистон томонидан қўллаб-қувватланишининг ёрқин ифодасидир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак аёлларни ҳаётда ҳам ижобий ҳам салбий ўзгаришларнинг сабабчиси сифатида кўрсатилган тарихий манбалар жуда кўп. Лекин шунга қарамай фуқаролик жамиятини қуришда аёллар асосий ролларни ўйнайди десак хато бўлмайди. Чунки аёлларнинг жамиятдаги ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш орқалигина фуқаролик жамиятини ривожлантириш мумкин.

*Xurramov A. –
O‘zMU tarix fakulteti talabasi*

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVINI DEMOKRATLASHTIRISH IJRO HOKIMYATINING O‘RNI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida avval-boshdan ana shu nozik jihatga alohida e'tibor qaratildi. Barcha o'zgarish va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo'yildi. Bugungi kunda ham o'zgarishlar jarayonining mohiyatida islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun, degan tamoyil mujassamdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ifodalab berildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi⁵⁸⁶ eng muhim tamoyil sifatida belgilandi

O'zbekiston Respublikasida Davlat hokimiyati organlarining hamkorligi vositasidagina davlat mexanizmi o'z funksiyalarini to'liq amalga oshira oladi. Shuning uchun ham 2007 yilda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 89-moddasiga kiritilgan o'zgartish orqali Prezidentning ijro hokimiyatiga rahbarligi bekor qilinib, uning zimmasiga davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini taminlash funksiyasi yuklatildi. Bu xolat hokimiyat bo'linishi prinsipining hayotga tatbiq etilishida muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro hokimiyati boshig'i ekanligini belgilovchi normaning Konstitutsiyadan chiqarilishi hokimiyat tarmoqlarining o'zaro munosabatlariga yangi qiyofa berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xuquqiy maqomiga tegishli 89-moddadagi qoidalarni Fransiya va Rossiya davlatlari Konstitutsiyalarining normalarida ham uchratish mumkin⁵⁸⁷. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlash funksiyasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

⁵⁸⁶ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiasining asosiy yunalishlari. –Т.: Маънавият, 2010. –Б. 31

⁵⁸⁷ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. –Б. 84.

11-moddasida belgilangan davlat hokimiyati tizimining hokimiyat tarmoqlariga bo‘linishi prinsipini hayotga tatbiq etishdagi ahamiyati Konstitutsiyamizning 95-moddasida belgilangan qoidalarida namoyon bo‘ladi⁵⁸⁸. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z vakolatlarini to‘liq amalga oshirishda ushbu funksiyadan keng foydalana oladi. Masalan, amaldagi qonunchilikka asosan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘rsatilgan nomzod Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yoki Senati tomonidan uch marta rad etilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchini tayinlaydi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuboradi. O‘tgan davr mobaynida hokimiyatlar bo‘linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish borasida hokimiyatlar o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muozanatining samarali tizimini yaratishga doir huquqiy asoslar qabul qilindi⁵⁸⁹.

Bunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunini⁵⁹⁰ alohida ta’kidlash joiz. Ushbu konstitutsiyaviy konun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatini tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini tayinlash va lavozimidan ozod etish, viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodini tayinlash va tasdiqlash tartiblari hamda Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining viloyat hamda Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish vazifalari to‘g‘risidagi masalalarda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga oid normalarni o‘zida mujassam etdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyalarining dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligi yoki mosligi yuzasidan blok tuzishlari, parlamentdagi ko‘pchilik va ozchilik hamda muxolifat kabi qoidalar nazarda tutilgan. Ayniqsa, har bir siyosiy partiya fraksiyasining vakili Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari lavozimini egallashda kafolatli huquqqa egaligini ta’kidlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini lavozimiga tayinlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosiy partiya fraksiyalari bilan maslahatlashuv institutining yaratilishi siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etdi. Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodini lavozimga tayinlashdagi maslahatlashuv instituti ham siyosiy partiyalarning mahalliy organlari faoliyatining yanada faollashishiga hissa qo‘shmoqda.

Mazkur maslahatlashuv instituti orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan siyosiy partiya faollarining yanada yaqindan muloqot qilish imkoni yaratildi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatida siyosiy partiya guruhlarining

⁵⁸⁸ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 6, 50-51.

⁵⁸⁹ Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий-ғимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. Тг: Ўзбекистон, 2008. –Б.148.

⁵⁹⁰ Ўзбекистон Республикасининг “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Конституциявий Қонуни. <http://lex.uz/docs/2635>

rolini kuchaytirish asnosida tegishli halq deputatlari Kengashlari ishini tashkil qilish yanada demokratlashdi. Chunonchi, halq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlaridan tomonidan viloyat va Toshkent shahar hokimi faoliyati ustidan nazorat qilish funksiyasiga oid normalarning mavjudligi vakillik hokimiyatining rolini kuchaytirishga olib keldi⁵⁹¹.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatga nisbatan oliy organ deb bejiz tavsif berilmagan. Sababi xalqning erki va irodasi u tomonidan qabul qilingan qonunlarda ifoda etiladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat organiga parlament atamasi berilgan bo'lib, ushbu organ kollegiallik asosida faoliyat yuritadi. Parlament tomonidan qabul qilinadigan qonunlar mamlakatning butun hududida amal qiladi hamda barcha fuqarolar qonun talablariga bo'ysunadi. Shuning uchun ham davlat hokimiyati organlari tizimida parlamentning o'rni va ahamiyati o'ziga xos xususiyat kasb etadi hamda uning faoliyati doimo jamiyat a'zolarining diqqat markazida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida bir palatali parlamentdan ikki palatali parlament tizimiga o'tish jarayoni tadrijiy rivojlanish asosida amalga oshirilib, bu jarayondagi islohotlarning ijobiy natijasi dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Qonunchilik hokimiyatini tubdan isloh qilishdan ko'zlangan maqsad professional parlamentni shakllantirishdan iborat bo'lib, bunda parlament a'zolariga qonun chiqarish jarayoniga professional yondashish, deputatlikni kasb sifatida egallash hamda siyosiy yetuk bo'lish talab etiladi. Qonunchilik hokimiyatini tubdan isloh qilish ikki palatali parlamentni joriy etish va uni asoslab berish g'oyalari I.A.Karimov tomonidan 2000 yil 25 mayda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida ilgari surilgan edi. Bu davrda parlament – Oliy Majlis bir palatali bo'lib, 250 deputatdan iborat edi. 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organi ikki palatali tizimga o'tishi ma'qullandi⁵⁹².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sakkizinchi sessiyasida (2002 yil 4-5-aprel) qabul qilingan "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun⁵⁹³ ikki palatali tizimga asoslangan professional parlamentni tashkil qilishning huquqiy poydevori bo'ldi. Ushbu konstitutsiyaviy qonun davlat hokimiyatini tashkil etishdagi demokratik prinsiplarni o'zida ifodalanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Konstitutsiyaviy qonunning 2-moddasida huquqiy jihatdan "...qonun ustuvorligini, hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni, ulardan har birining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash..."⁵⁹⁴ borasidagi qoidalar mustahkamlangan.

⁵⁹¹ Дехканов Н.Б. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари фаолиятини такомиллаштиришнинг тарихий тажрибаси (1995-2010 йй.). Дисс. т.ф.н. –Наманан. –Б. 107.

⁵⁹² Отамуратов С, Раҳматов Ж., Хусанов С. Ўзбекистонда сиёсий, ижтимоий-маданий соҳалардаги ислохотлар: ривожланиш босқичлари, эришилган натижалар ва истиқболи. Академија, –Т.: 2010.

⁵⁹³ Ўзбекистон Республикасининг "Референдум якунлари ҳамда давлат ҳокимияти ташкил этилишининг асосий принциплари тўғрисида"ги Қонуни / Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2003. – № 13–49. –211-модда. <http://lex.uz/docs/13027>

⁵⁹⁴ Ўзбекистон Республикасининг "Референдум якунлари ҳамда давлат ҳокимияти ташкил этилишининг асосий принциплари тўғрисида"ги Қонуни 2-моддаси // <http://lex.uz>.

Parlamentning ikki palatali tizimga o'tishida 2002 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlarning ahamiyati ham katta. Ushbu Konstitutsiyaviy qonunlar tegishincha parlament palatalarining maqomini huquqiy jihatdan mustahkamladi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator normalarini o'zgartirish uchun asos bo'ldi. Milliy parlamentimizning ikki palatali tizimda faoliyat yuritishi natijasida hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga daxldor bo'lgan ko'plab yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kela boshladi⁵⁹⁵. Ya'ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda o'zaro tiyib turish mexanizmini yanada takomillashtirish zaruriyati mavjud edi. Xuddi shu nuqtai nazardan Prezident, qonun chiqaruvchi hokimiyat hamda ijro hokimiyati faoliyatiga oid yangi normalar qabul qilindi.

Bunga Prezident mas'ul bo'lgan Vazirlar Mahkamasini Raisi lavozimining 2003 yil 24 apreldan boshlab tugatilganligini misol qilib keltirish mumkin. Bunga o'tish davrining nihoyasiga yetganligi va milliy davlatchilik asoslarini mustahkam poydevori yaratilganligi sabab bo'lib, endilikda hukumat faoliyatida Bosh vazir mas'uliyatini oshirish, hukumatning Oliy Majlis oldidagi javobgarligini kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelgandi.

O'tish davrida davlat boshlig'ining Vazirlar Mahkamasiga boshchilik qilishi o'sha davr mobaynida o'tkazilgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlashga kafolat bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining butun ijro hokimiyatiga boshchilik qilishiga oid konstitutsiyaviy normaning chiqarilishi davlat hokimiyati va jamiyat hayotidagi siyosiy-huquqiy voqeya bo'ldi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, endilikda ijro hokimiyati faoliyatiga bo'lgan to'liq mas'uliyat va javobgarlik Vazirlar Mahkamasiga hamda unga rahbar bo'lgan Bosh vazir zimmasiga yuklatildi. Shu tariqa parlament hamda ijro hokimiyatiga oid munosabatlar tizimida o'zgarishlar sezila bordi. Ijro hokimiyati faoliyati yuzasidan parlament nazoratini kuchaytirish masalalariga oydinlik kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishiga jamiyatda siyosiy institutlarni, ayniqsa siyosiy partiyalarning roli oshib borayotganligini, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy jihatdan faollashayotganligi sabab bo'ldi⁵⁹⁶.

Siyosiy hokimiyat uchun kurash jarayoni hisoblangan saylovlarning ko'ppartiyaviylik hamda ochiq va erkin raqobat asosida o'tganligi ham siyosiy partiyalarning tashkiliy jihatdan mustaqilligini ko'rsatadi.

Navbatdagi o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda

⁵⁹⁵ Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент / Қайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. –Т.: ИИВ Академияси, 2005. –Б. 244.

⁵⁹⁶ Жумаев Р.З., Қирғизбоев М. Ўзбекистон: сиёсий ислохотлар стратегияси, эришилган натижалар ва истикболлар. –Т.: 2009. –Б. 23.;

demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusidagi ma'ruzasida bayon etilgan muhim holatlar bilan izohlanadi: Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Mamlakatimizni sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilindi. Sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha alohida sudlar tashkil etildi, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o‘zlariga xos bo‘lmagan vazifalardan ozod qilindi”⁵⁹⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari”⁵⁹⁸ konsepsiyasini amalda tatbiq etish bo‘yicha davlat boshqaruvida muntazam ravishda huquqiy islohotlar amalga oshirilib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida Prezidentimiz shunday degan edilar: Ikki palatali parlamentimizning huquq va vakolatlarini kengaytirish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o‘rtasidagi vakolatlarning yanada muvofiqlashuvini ta'minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etishda Prezident vakolatlarining bir qismini yuqori palata - Senatga o‘tkazish, shuningdek, Bosh vazir huquq va vakolatlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etdi⁵⁹⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ijro hokimiyatini ifoda etuvchi Vazirlar Mahkamasining shakllantirilish tartibi, faoliyat shakli bevosita, alohida XX bobda belgilanganligi davlat va jamiyat hayotida hukumatning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ifoda etadi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari doirasidan chiqarilishi, davlat boshqaruvida demokratik islohotlarning bosqichma – bosqich amalga oshirilishi o‘laroq, endilikda Bosh vazir nafaqat Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi, balki unga rahbarlik qiladi va uning ishi samaradorligi uchun shaxsan javob beradi, Vazirlar Mahkamasi majlislariga raislik qiladi, hukumat hujjatlarini imzolaydi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan Bosh vazirga yanada katta ma'suliyat va ulkan javobgarlik yuklandi.

Xulosa o‘rnida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yanada rivojlantirish, xususan davlat qurilishi va boshqaruvi sohasini izchil takomillashtirib borish bugungi kundagi davlat va jamiyat hayotini yangilash hamda modernizatsiya qilishning muhim shartidir. Mamlakatimizda barcha shu jumladan ijro hokimiyati sohasidagi islohotlarning bosqichma-bosqich, tadrijiy yo‘l bilan amalga oshirilishi bevosita davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi islohotlarni rivojlantirishi fuqarolarining mafaatlari xizmat qilish uchundir.

⁵⁹⁷ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 34.

⁵⁹⁸ Саидов А. Кучли давлатдан – кучли фуқаролик жамияти сари // Ижтимоий фикр – инсон ҳуқуқлари. – Т.: 2007. -№2. - Б. 8.,

⁵⁹⁹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б. 31-32.

МУНДАРИЖА

Кириш.....		3	
1-ШУЎБА: ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ (ҚАДИМГИ ДАВРДАН ҲОЗИРГИ КУНГАЧА)			
1.	Исломова С.У. (Научный руководитель: к.и.н. К.Д.Саипова)	Культурно-просветительской деятельности советской власти в территории ТАССР (1918-1924 гг.).....	5
2.	Jo'raev Sh.B. (Ilmiy rahbar: dost. K.A.To'xtabekov)	Toshkent shahar aholisining XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi ma'muriy-hududiy bo'linishi va ijtimoiy tarkibi.....	6
3.	Karimov D.Sh. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	Amir Temur davrida madaniyatga e'tibor.....	11
4.	Мамадалиев И.А. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Феномен мусульманского ренессанса в развитии науки на средневековом Востоке.....	15
5.	Мирзажанова Н.Р. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Роль женщины в исламе.....	21
6.	Махамдалиева Н.	Xiva xonligining Rossiya va Hindiston bilan savdo aloqalari tarixi (XVI – XVII asrlar misolida).....	25
7.	Nasrilloev K., Ergasheva Ch.	Luis Brailleining kashfiyotlari imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ilmiy faoliyatga yo'l	27
8.	Ne'matov O., Meliyev O'. (t.f.d. Ilmiy rahbar: H.E.Yunusova)	So'fi Olloyor – yirik dinshunos alloma.....	30
9.	Раимова А.Ш. (Научный руко-ль: д.и.н., З.Ишанходжаева)	Последствия ташкентского землетрясения.....	32
10.	Raximova I. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	Amir Temur davrida islom diniga bo'lgan e'tibor	36
11.	Сангиров Ж.	XIX asrning ikkinchi choragida Buxoro amirligi va K'kon xonligi siёсий муносабатларида Зомин қалъаларининг тутган ўрни.....	39
12.	Sobitova H.S. (Ilmiy rahbar: F.A.Agramova)	O'n bir Ahmad ziyoratgohi.....	43
13.	Tojiyev D.B. (Ilmiy rahbar:A.A.Biykuziyev)	O'rta asrlar Sharqining ilm-fani mash'ali.....	45
14.	Toshqulova Sh.S. Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	Qo'qon xonligi hunarmandchiligi.....	48
15.	Унгарова О. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Амир Темур в глазах ибн Арабшаха.....	51
16.	Хайруллаева И.	Некоторые вопросы гендерного равенства женщин в Исламе.....	55
17.	Хожиакбарова Р.З. (Научный руко-ль: д.и.н., Ж.Х.Адилов)	История ташкентского городского герба (вторая половина 60-х годов XIX века – начало XX века).....	59
18.	Xurramov R.S (Ilmiy rahbar: dost. A.A.Yermetov)	Ikkinchi jahon urushi yillarida milliy-harbiy matbuot va uning jangchilar hayotida tutgan o'rni.	61
19.	Hayitmurodov R. (Ilmiy rahbar: J.E.Tog'ayev)	G'uzor tumanidagi ayrim ziyoratgoh va qadamjolar xususida mulohazalar.....	64
20.	Shamsiddinova Sh.G'. (Ilmiy	Amir Temur davrida moliya-pul siyosati.....	69

	rahbar: U.A.Usarov)		65
21.	Shirinboyev X. S. (Ilmiy rahbar: dost. D.J.O'raqov)	Abul-l-Muin an-Nasafiyning "Bahru-l-kalom fi ilmi-l- kalom" asari va uning kalom ilmida tutgan o'rni.....	72
22.	Шокиров Т.С. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Некоторые аспекты мифологии Авесты.....	74
23.	Egamberdiyev A.M. (Ilmiy rahbar: t.f.d., Z.R. Ishanxodjayeva)	Amir Temur va temuriylar davrida yirik bozorlarning mamlakat hayotida tutgan o'rni.....	78
24.	Esonov O'.B. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida ilk temir yo'lining qurilishiga doir.....	80
2-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИ			
25.	Абдумаджидов А. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Дипломатические отношения народов Средней Азии со странами Востока в древности.....	84
26.	Abdurahmonov J.S. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	Rossiya imperiyasining turkistonda oilb borgan diniy siyosati.....	87
27.	Азимов М.Б. (Научный руко-ль: к.и.н., Р.Б.Сиддиқов)	Средняя Азия в составе Российской Империи.....	91
28.	Amirova F.A. (Ilmiy rahbar: D.T.Kuanishova)	Amir Temurning davlat boshqaruvida qo'llagan o'ziga xos usullari.....	94
29.	Karimov D.Sh. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	Amir Temurning G'arb davlatlari bilan diplomatik aloqalari.....	97
30.	Тожиёв Д.Б., Курбонов Б.О.	XI – XII аср биринчи ярмида Хоразм давлатининг сиёсий мустақилликка эришиши тарихий шарт-шароитлари.....	101
31.	Murodov I.K. (Ilmiy rahbar: J.E.Tog'ayev)	Kushonlarning "noma'lum shoh"i – Vima Takto to'g'risida ba'zi mulohazalar.....	105
32.	Нурмухаммадов Ш.Ш. (илмий раҳбар т.ф.д. Ў.Мавлонов)	XVI-XIX асрлар қарши шаҳри мудофаа тизими шаҳарсозликнинг муҳим элементи.....	108
33.	O'dayev R.K. (Ilmiy rahbar: J.E.Tog'ayev)	Xiva xonligi mahalliy boshqaruv tizimi – o'zbek davlatchiligi shakllanishidagi muhim bo'g'in sifatida.....	112
34.	Ermatov Z.H. (Ilmiy rahbar: dost. K.A.To'xtabekov)	O'zbekistonda bojxona tizimi tarixi va uning davlatchilik tarixida tutgan o'rni.....	114
35.	Эркинов И. (илмий раҳбар т.ф.н. Н.Т.Полвонов)	Ўзбекистонда давлат бошқарув соҳасини модернизациялаш жараёнларини даврлаш-тириш муаммоси.....	119
3-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОЛОГИЯ- ЭТНОГРАФИЯ, ТАРИХШУНОСЛИК ВА МАНБАШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ			
36.	Абдуғаниев А.	Наманган вилояти топонимикаси манбашунослиги.....	123
37.	Abduzohirov R. H.	O'zbek oilalarida ota-onalar va o'smir farzandlar o'rtasidagi munosabatlarga oid ayrim mulohazalar.....	126
38.	Abdurahmonova K. (Илмий раҳбар А.Бобобеков)	Xorazm folklorining xorijda o'rganilish tarixi (H.Vamberi asarlari asosida).....	128
39.	Ғаффарова С.Ш.	XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Самарқанд тарихшунослиги.....	131
40.	Gulmatov U.X. (Ilmiy rahbar: dost. T.O'.Salimov)	Mahalla fuqarolar yig'inlarida "Yarashtirish" komissiyasining oila va nikoh mustahkamligidagi	135

		o'g'ni.....	
41.	Жумаев Б. (Илмий раҳбар доц. З.Саидбобоев)	IX-XII асрларда Ўрта Осиёда тарих илмининг ривожланиши.....	139
42.	Лутфуллаев З. (Илмий раҳбар доц. З.Раҳмонқулова)	XVI-XIX асрнинг биринчи ярмида Ўрта Осиё тарихшунослиги.....	142
43.	Мамаджанов А.	Хоразм археология-этнография экспедицияси тарихига доир.....	146
44.	Машрабов Ж. (Илмий раҳбар: А.С. Мажидов)	“Бобурнома” – буюк қомусий асар.....	148
45.	Назаров Х.А. (Илмий раҳбар т.ф.д. Р.Ҳ.Сулаймонов)	Ўзбекистон палеолитшунослигининг ривожланишида ўзбек-америка халқаро экспедициясининг ўрни.....	152
46.	Парпиева Д. (Научный руко-ль: д.и.н., Ж.Х.Адилов)	Борис Владимирович Лунин – Основатель узбекистанской школы историографии.....	156
47.	Раишев Т.Т. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Туркестанский сборник – исторический источник по истории Туркестанского края.....	158
48.	Раҳмонова М.Ш. (Илмий раҳбар: У.А.Усаров)	“Boburnoma”da qo‘llanilgan Markaziy Osiyoning geografik joy nomlari haqida ba’zi mulohazalar....	161
49.	Shodmonov M.	Ko‘chmanchi chorvador va o‘troq dehqonlar munosabatlarini o‘rganishga doir yondashuvlar (Ustrushona misolida).....	165
4-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР – СУВ МУНОСАБАТЛАРИ ТАРИХИ (ҚАДИМГИ ДАВРДАН ҲОЗИРГИ КУНГАЧА)			
50.	Abdullayev A. (Илмий раҳбар: дост. К.А.То‘xtabekov)	Turkiston o‘lkasining XIX asrning ikkinchi yarmida yer egaligi munosabatlariga doir ba’zi mulohazalar.....	169
51.	Доспанова А.О.	Летопись Арала Рафаэля Матевосяна.....	173
52.	Kamolova M.F. (Илмий раҳбар: У.А.Усаров)	Zarafshon vohasining sug‘orilish tarixiga oid ba’zi mulohazalar.....	177
53.	Mamatkarimov U.S. (Илмий раҳбар: дост. А.А.Ҳерметов)	Turkiston o‘lkasi sug‘orish tizimi tarixidan (Samarqand viloyati misolida).....	180
54.	Неъматов О. (Илмий раҳбар т.ф.д. Х.Э.Юнусова)	Аштархонийлар даврида суғориш тизими ва сув иншоотлари масалалари.....	185
55.	Saydatov O.G‘. (Илмий раҳбар: дост. R.B.Siddiqov)	Transchegaraviy suv resurslari tushunchasi.....	188
56.	Sattorova Sh.O‘. (Илмий раҳбар: У.А.Усаров)	Amir Temur hukmronlik yillarida sug‘orish inshootlarining rivoji.....	190
57.	Sattarov SH., Rahmonova M., Botirov SH.A.	Buxoro xonligining Shayboniyalar davridagi sug‘orish inshootlarining rivoji haqida.....	193
58.	Sirojov B.N. (Илмий раҳбар: дост. К.А.То‘xtabekov)	XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatining Qishloq xo‘jaligining ahvoli.....	198
5-ШЎБА: ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЭНГ ЯНГИ ТАРИХИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ СОҲАЛАРДАГИ ИСЛОҲОТЛАР			
59.	Аширов С.П. (Илмий раҳбар Н.Полвонов)	Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлашнинг ҳуқуқий механизмини такомиллаштириш масалалари.....	204
60.	Акбаралиев Ф. (Научный руко-ль: д.и.н., О.П. Кобзева)	Военное сотрудничество Узбекистана с НАТО.....	218
61.	Артиков У.Л.	Мустақиллик йилларида археология мероси объектларига бўлган эътиборнинг қонун ва қонуности ҳужжатларида акс	

		этиши.....	211
62.	Ахмедов А.М. (Илмий раҳбар: проф. Р.Ҳ.Муртозаева)	Марказий Осиёда минтақавий дуализм.....	215
63.	Ахмедов А.М. (Илмий раҳбар: проф. Р.Ҳ.Муртозаева)	Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолият тамойиллари.....	217
64.	Qalandarov H.H. (Ilmiy rahbar: t.f.d. Z.Ishanxodjayeva)	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar (milliy-madaniy markazlar misolida).....	220
65.	Махмудова С.Д. (Илмий раҳбар: Д.Т.Куанишова)	Ўзбекистонда туризм соҳасининг тараққиёти.....	223
66.	Насруллаев Т.И. (Илмий раҳбар: т.ф.д. Х.Э.Юнусова)	Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб – қувватлаш ва рағбатлантириш асослари.....	225
67.	Раҳмонова С.Х. (Илмий раҳбар: т.ф.д. Х.Э.Юнусова)	Жиззах вилоятининг зиёрат ва бошқа туристик имкониятлари.....	229
68.	Сафаров Н. (Научный руко-ль: к.и.н., О.А.Махмудов)	Обеспечение безопасности в Центральной Азии- приоритетная задача внешней политики Российской Федерации.....	234
69.	Тошқулова М. (Илмий раҳбар: доц. Д.Ўроқов)	Миср Араб Республикасининг араб дунёсидаги ҳавфсизликни таъминлашдаги ўрни.....	237
70.	Хайруллаева М.Ў. (Илмий раҳбар: проф. Р.Ҳ.Муртозаева)	Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлардаги барқарорликни мустаҳкамлашга қаратилган давлат сиёсати.....	239
71.	Ходжаева А.Ш. (Илмий раҳбар: Д.Т.Куанишова)	Мустақил Ўзбекистонда хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрнини кучайтириш масалалари.....	243
72.	Xurramov A.R. (Ilmiy rahbar: U.A.Usarov)	O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish ijro hokimiyatining o'rni.....	245